



# ***O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI***




**Darslik**

024  
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY  
VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

# O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus  
ta‘lim vazirligi tomonidan oliy o‘quv yurtlari  
talabalari uchun darslik sifatida tasdiqlangan*



TOSHKENT  
«O‘ZBEKISTON»  
2018

**N. TO'XLIYEV, N. XOLMATOV,  
SH. ERMAMATOV, Q. HAQBERDIYEV**

Taqrizchilar:

*R. Abdullayev* – i.f.d., professor

*P. Hoshimov* – i.f.n., dotsent

*A. Yusupov* – i.f.n., dotsent

Darslikda talabalar, mutaxassislar, umuman, milliy iqtisodiyot ilmi bilan qiziquvchilar uchun «o'zbek modeli»ning mohiyati, iqtisodiyotdagi asosiy proporsiyalar, mulk munosabatlari, raqobat va monopoliya, davlat va xususiy sektor hamkorligi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, korporatsiyalar, iqtisodiyotning ijtimoiy yo'naltirilganligi, aholi turmush darajasi va sifati, mamlakatimiz iqtisodiyotining tarmoq va hududiy tarkibi hamda rivojlanishi masalalari yoritilgan. Unda O'zbekistonning mehnat, tabiiy, ishlab chiqarish, ilmiy-texnika va innovatsiya resurslari, sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, investitsiya, eksport salohiyati, xizmat ko'rsatish, moliya va kredit, bank sohasini, ulardagi mavjud muammolarni, milliy davlatning iqtisodiy rolini, bozor islohotlari sharoitida institutsional o'zgarishlarni yoritishga alohida e'tibor qaratilgan.

Har bir mavzuni yoritishda nazariy bilimlar va jahon tajribasini O'zbekiston iqtisodiyoti amaliyoti bilan bog'lashga, uning mazmuniga milliy iqtisodiyot g'oyasini singdirishga harakat qilingan.

---

---

## KIRISH

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida bozor munosabatlariga asoslangan milliy iqtisodiyot barpo etildi. O‘tish davri va global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz qiyinchiliklariga qaramasdan mamlakatimiz iqtisodiyoti jahon mamlakatlari orasida yuqori o‘shish sur‘atlarini namoyish etib kelmoqda. O‘tgan davr mobaynida mamlakat aholisi 1,5 marta o‘sgani holda iqtisodiyot 5 martadan ziyod, aholi jon boshiga daromadlar 9 barobar oshdi. Yurtimizning qiyofasi tubdan o‘zgarimoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida 2017–2021- yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilindi<sup>1</sup>.

O‘zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining «o‘zbek modeli» sifatida bugungi dunyoda tan olingan alohida, o‘ziga xos yo‘nalishning qaror topishi, mamlakat iqtisodiyotining rivoj-

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-son Farmoni. «Xalq so‘zi» gazetasi. 2017- yil 8-fevral

lanish shart-sharoitlari, imkoniyatlari, omillari va istiqbollari, globallashuv jarayonida jahon iqtisodiyotida tutgan oʻrni va ahamiyati, umuman, hayotning oʻzi maxsus darslik va oʻquv qoʻllanmalari yaratish zaruratini kun tartibiga qoʻydi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, mustaqillikning dastlabki yillari-dayoq Toshkent davlat sharqshunoslik institutida «Oʻzbekiston iqtisodiyoti» oʻquv kursi joriy qilingan edi. Keyinchalik Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi tavsiyasi bilan iqtisodiyot yoʻnalishidagi oliy oʻquv yurtlarida ham ushbu kurs oʻqitiladigan boʻldi. Bu fan boʻyicha Respublika talabalar olimpiadasi ham har yili muntazam oʻtkazib kelinmoqda. Shu munosabat bilan 2006-yilda mualliflarning «Oʻzbekiston iqtisodiyoti asoslari» oʻquv qoʻllanmasi chop etildi. Ammo hayot bir joyda toʻxtab turmaydi. Mamlakat iqtisodiyotida ham jiddiy oʻzgarishlar sodir boʻlmoqda.

Fikrimizcha, iqtisodiyot yoʻnalishidagi oliy oʻquv yurti bitiruvchilari, ayniqsa, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik boʻyicha tayyorlanadigan mutaxassislar iqtisodiyotning nazariy asoslarini puxta oʻrganishlari bilan birga, ularni amaliyotga qoʻllay bilishi, milliy iqtisodiyotning rivojlanish shart-sharoitlari, imkoniyatlari, omillari va mexanizmlarini, shu bilan birga, uning zamonaviy muammolarini tez ilgʻab olishi va tahlil eta bilishi lozim. Ana shu maqsadlarga erishish vazifasi mualliflarga yangi darslikning mazmun-mundarijasini belgilab berdi.

Darslik kitobxonlarning keng ommasini, birinchi navbatda, talabalar, mutaxassislar, umuman, milliy iqtisodiyot ilmi bilan qiziquvchilarni «oʻzbek modeli»ning mohiyati, iqtisodiyotdagi asosiy proporsiyalar, mulk munosabatlari, raqobat va monopoliya, davlat va xususiy sektor hamkorligi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, korporatsiyalar, iqtisodiyotning

ijtimoiy yo‘naltirilganligi, aholi turmush darajasi va sifati, mamlakatimiz iqtisodiyotining tarmoq va hududiy tarkibi va rivojlanishi bilan yaqindan, batafsilroq tanishtirishni ko‘zlagan. Unda O‘zbekistonning mehnat, tabiiy, ishlab chiqarish, ilmiy-texnika va innovatsiya resurslari, sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, investitsiya, eksport salohiyati, xizmat ko‘rsatish, moliya va kredit, bank sohalarini, ulardagi mavjud muammolarni ochib berishga harakat qilingan.

Darslikda milliy davlatning iqtisodiy rolini, davlat va bozorning iqtisodiyotni tartibga solish mexanizmlarini, bozor islohotlari sharoitida institutsional o‘zgarishlarni yoritishga alohida e‘tibor qaratilgan.

Har bir mavzuni yoritishda nazariy bilimlar va jahon tajribasini O‘zbekiston iqtisodiyoti amaliyoti bilan bog‘lashga, uning mazmuniga milliy iqtisodiyot g‘oyasini singdirishga harakat qilindi. Shu maqsadda mustaqillik yillarida qabul qilingan iqtisodiyotga oid O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlaridan, hukumat qarorlari, me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining yillik statistik to‘plamlaridan foydalanildi.

Darslikni yozish jarayonida mualliflar uning mazmunini mamlakatimizda amaldagi Davlat ta‘lim standartlariga muvofiqlashtirishga harakat qilishdi.

Qo‘lingizdagi kitob O‘zbekiston iqtisodiyoti bo‘yicha mamlakatimizda ilk darslik bo‘lganligi sababli ayrim kamchiliklardan ham xoli bo‘lmasligi mumkin. Shuning uchun mualliflar darslikning tuzilishi va mazmuni bo‘yicha bildiriladigan barcha xolisona mulohaza va takliflarni bajon-u dil qabul qiladilar va ularni kelgusi nashrlarda, albatta, e‘tiborga oladilar.

Kitobning tuzilishi va mazmuni bo‘yicha o‘zlarining qimmatli fikr-mulohazalarini bildirgan i.f.d. professor R. Abdul-

layev, i.f.n. dotsent P. Hoshimov va i.f.n. dotsent A. Yusupov-  
larga o‘zimizning samimiy minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Kirish, 1-, 2-, 4-, 5-, 6-, 7-, 25-boblar iqtisod fanlari dok-  
tori, professor N.To‘xliyev, 9-, 10-, 11-, 12-, 13-, 14-, 15-, 20-,  
24-boblar iqtisod fanlari nomzodi, dotsent N.Xolmatov, 3-, 8-,  
16-, 17-, 18-, 19-, 21-, 22-boblar iqtisod fanlari nomzodi, dot-  
sent Sh.Ermamatov, 22-, 23-boblar iqtisod fanlari nomzodi,  
dotsent Q.Haqberdiyev tomonidan yozildi.

---

---

# I b o b

## «O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI» KURSIGA KIRISH

### 1.1. «O‘zbekiston iqtisodiyoti» kursining maqsad va vazifalari

Ma'lumki, har qanday jamiyat faoliyatining strategik maqsadi aholi turmush darajasi va sifatini yuksaltirishdir. Turmush yoki hayot, yashash sifati – bu faqat pul daromadlari, hayot qiymatining oshishi emas. Shu bilan birga shaxsiy xavfsizlikni ta'minlash, iqtisodiy erkinlik, ratsional ovqatlanish, hammabop ta'lim, atrof-muhitni muhofaza qilish, uy-joy va maishiy sharoitlarning qulayligi ham yashash sifatini belgilab beruvchi muhim omillardan hisoblanadi. O‘zbekistonda ana shu maqsadga erishish imkoniyatlari, omillari, mexanizmi va yo‘llarini bilishga ana shu taklif etilayotgan o‘quv kursini puxta o‘zlashtirish orqali erishish mumkin.

Demak, kursni o‘zlashtirishdan maqsad – talabalarda O‘zbekistonda milliy iqtisodiyotning tarkib topishi va rivojlantirishini nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish, mamlakat iqtisodiyotining institutsional, tarmoq va hududiy tarkibi, resurslar salohiyati, iqtisodiy majmualari va ularni iqtisodiy, moliyaviy va ma'muriy boshqarish, xo‘jalik yuritishning ijtimoiy yo‘naltirilganligi, global iqtisodiyotga integratsiyalashuvini o‘rganish bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishdir.

Kursning asosiy vazifasi – talabalarni O‘zbekistonda ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan rejali iqtisodiyotdan



bozor iqtisodiyotiga o‘tishning zaruriyati, qonuniyatlari va natijalari, butun dunyoda tan olinib, yuksak rivojlanish darajasini ta’minlab kelayotgan «o‘zbek modeli»ning mazmun-mohiyati va maqsadi, mustaqil milliy iqtisodiyotning obyekt va subyektlari, xo‘jalik tizimi va turlari, harakatlantiruvchi kuchlari va imkoniyatlari, iqtisodiy o‘shishning ichki va tashqi omillari va bu jarayonda davlatning o‘rni masalalari, moliyaviy institutlar faoliyatini tahlil qilish orqali xulosalar chiqarishga o‘rgatishdan iborat.

Talabalarning mazkur kurs doirasida O‘zbekiston Respublikasi davlat rahbarlarining asarlarida keltirilgan ma’lumotlar, qoidalar va xulosalarni, mustaqillik yillarida mamlakatimizda iqtisodiyotga oid qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va mavzuga oid boshqa me‘yoriy hujjatlarda ilgari surilgan maqsad va talablarni puxta o‘zlashtirishi, kelgusi faoliyatida samarali foydalanishlari hamda ijodiy yondashishlarini ta’minlash kursni o‘rganish oldida turgan muhim vazifalardir.

## **1.2. «O‘zbekiston iqtisodiyoti» kursining predmeti**

«O‘zbekiston iqtisodiyoti» fan sifatida jamiyat, uning rivojlanishi, manfaat va rag‘batlar, munosabatlarni o‘rganadigan ijtimoiy fanlar orasida alohida o‘ringa ega. Uning predmeti bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

– rejali iqtisodiyotdan ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o‘tishni ta’minlagan hamda hozirgi iqtisodiy o‘shish va yuksalishni ta’minlayotgan taraqqiyotning «o‘zbek modeli»ning mazmun-mohiyati, asosiy xususiyatlari;

– mamlakatning resurs salohiyati tizimi tavsifi, iqtisodiy imkoniyatlari va ulardan maqsadga muvofiq foydalanish yo‘llari;

– tarmoqlararo majmualar, ularning tasnifi, milliy iqtisodiyotning tarmoq va hududiy tarkibida yuz berayotgan siljishlar;

– takror ishlab chiqarish xususiyatlari, makroiqtisodiy proporsiyalar va iqtisodiy muvozanat;

– iqtisodiyotni boshqarish, uning davlat va bozor mexanizmlari;

– davlat moliyasi, kredit-bank tizimi va qimmatli qogʻozlar bozori;

– iqtisodiyotning ijtimoiy asoslari, aholini ijtimoiy himoyalash, xalqning hayot darajasi va sifati;

– globallashuv sharoitida Oʻzbekiston iqtisodiyotining ochiq iqtisodiyot sifatida jahon xoʻjaligi doirasida rivojlanish xususiyatlari va boshqalar.

Oʻzbekiston iqtisodiyoti kursida globallashuv jarayonining obyektivligi, milliy iqtisodiyotning rivojlanishida xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar, integratsion guruhlar, ittifoqlar, alyanslar (BMT, Jahon savdo tashkiloti, Xalqaro Valuta fondi, Jahon banki, MDH, SHHT, Markaziy Osiyo hamkorligi), transmilliy korporatsiyalar roli koʻrib oʻtiladi.

Hozirgi zamon Oʻzbekiston iqtisodiyotida katta ijobiy oʻzgarishlar yuz bermoqda. Ishlab chiqarish va eksport, import tarkibi jiddiy oʻzgarmoqda, ustuvor sohalarni rivojlantirishga oʻzgarishlar kiritilmoqda, aholi daromadlari va turmush darajasi oʻsimoqda, sifati yaxshilanmoqda. Bu muammolar ham oʻquv kursining predmeti boʻladi.

Shu bilan birga, yana bir qator muhim masalalar kursni oʻqitish davomida talabalar diqqat markazida boʻladi.

Birinchidan, Oʻzbekiston milliy iqtisodiyotining istiqboli bizning «bilimlar asri»da yashayotganimiz bilan bogʻliq. Kelajak ilm sigʻimi yuqori boʻlgan ishlab chiqarish bilan bogʻliq. Ammo unga oʻz-oʻzidan erishib boʻlmaydi, uni yaratish kerak.

Bu davlatning uzoq muddatli iqtisodiy siyosati va strategiyasi predmetidir. Kursda konkret ustuvor sohalar – mashinasozlik, biotexnologiya, nanotexnologiya, aloqa, transport, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, umuman, yuqori texnologiyali, innovatsion iqtisodiyotga o‘tish masalalari ko‘tariladi.

Ikkinchidan, aholi turmushini yaxshilashda O‘zbekiston sharoitida agrosanoat, oziq-ovqat majmuasi, ratsional ovqatlanish muhim ahamiyat kasb etadi. Gap bu yerda dehqonchilik hosildorligi va chorvachilik mahsuldorligini uzluksiz oshirish barobarida asosiy oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan aholi ehtiyojlarini ichki imkoniyatlar hisobidan qondirish asosiy mezon bo‘lishi ustida bormoqda.

Uchinchidan, hozirgi sharoitda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning hal qiluvchi sharti fan va ta‘lim, sog‘liqni saqlashni rivojlantirish bo‘lib maydonga chiqmoqda. Bugun milliy iqtisodiyotning o‘shida inson kapitalining roli beqiyos. Inson kapitaliga investitsiya eng ko‘p samara beryapti.

To‘rtinchidan, hozirgi dunyoda milliy iqtisodiyotning rivojlanishi chet el kapitali va ichki investitsiya oqimiga ko‘p jihatdan bog‘liq. To‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar ish bilan bandlikning o‘shishi, ish haqining oshishi, budjet daromadlarining ko‘payishi bozorni tovar va xizmatlar bilan to‘yintirishga bevosita bog‘liqdir. To‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar global moliyaviy, iqtisodiy inqirozni keltirib chiqargan moliyaviy «pufak» («ko‘pik»)dan farq qilishi lozim.

Beshinchidan, amalda O‘zbekiston iqtisodiyotining salohiyati institutlar va xo‘jalik mexanizmi orqali amalga oshadi. Institutlar iqtisodiyotning muhim mexanizmi hisoblanadi. Ular iqtisodiyotni boshqarish usullari, mulk shakllarining himoya qilinganligi, moliya-kredit dastaklari va soliqlar tartibi, antimonopol siyosat va raqobatni rivojlantirish, baho va daromadlar siyosatini tartibga solish va boshqarish bilan shug‘ullanadi.

Oltinchidan, yangi zamonaviy texnologiya O‘zbekiston iqtisodiyotini yuksaltirishning muhim omiliga aylandi. Shu munosabat bilan mamlakatimizda keng qamrovli modernizatsiya va diversifikatsiyalash jarayonlari bormoqda. Ishlab chiqarish omillari orasida amalda texnologiya muhimroq rol o‘ynayapti. Sanoat tarkibi, ishlab chiqarish omillari o‘zgarmay turadigan holatda ham yangi texnologiya bilan o‘shishning yuqori sur‘at va miqdorini ta‘minlash mumkin.

Ana shu masalalar ham o‘quv kursining turli boblarida tahlil qilinadi, milliy iqtisodiyot oldida turgan vazifalarni yechishning usul va yo‘llari yoritib beriladi.

### **1.3. Kursni o‘rganish usullari va boshqa iqtisodiy fanlar bilan aloqalari**

Har qanday fan tajriba va amaliyotdan kelib chiqib, o‘zining borliqni o‘rganish usullariga ega. «O‘zbekiston iqtisodiyoti» fan sifatida ijtimoiy-falsafiy va tabiiy (matematika) usullardan foydalanadi. Tahlil usullarining vazifasi – iqtisodiy jarayonlar va hodisalarning mohiyatiga kirib borish va ularni ochib berishdan iborat.

Bunga borliqni bilishning turli xil usullaridan foydalanish orqali erishiladi. Masalan, aniq (konkret)likdan abstraktlikka yoki, aksincha, tahlil va sintez, induktiv hamda deduktiv usullar, dialektik, formal, matematik logika, modellashtirish, tizimli yondashuv va boshqalar. «O‘zbekiston iqtisodiyoti» kursining aniq usullaridan yana muhimlari miqdor va sifat tahlilining birligi, xo‘jalik yuritishda umumiylik, o‘ziga xoslik va yagonalikning bir butunligidir.

O‘zbekiston iqtisodiyoti xo‘jalik subyektlarining fe‘l-atvori orqali belgilanadigan ijtimoiy muhit, sharoit bilan bog‘liq. Ammo bu fan (kurs) abstrakt tushuncha va qoidalardan iborat

emas. U quyidagi ko'rsatkichlarda ifodalanadigan aniq raqam, iqtisodiy hodisa va tendensiyalarga asoslanadi:

– mutlaq o'lchamda (miqdor ko'rsatkichlari, ishlab chiqarish omillari hajmi ko'rsatkichlari);

– nisbiy o'lchamda (ulushi, hissasi, iqtisodiyotning o'sish sur'atlari, qo'shimcha o'sish sur'atlari) ;

– o'rtacha o'lchamda (ishlab chiqarishning o'rtacha yillik hajmi, mehnat unumdorligining o'sish sur'atlari).

Iqtisodiy hodisalar statika va dinamikada tahlil qilinadi. Statika – o'zgarmagan holat. Dinamika esa to'xtovsiz harakat, bir sifat holatidan boshqasiga o'tishni bildiradi. «O'zbekiston iqtisodiyoti» kursi uchun dinamik tahlil to'g'ri keladi, chunki mustaqillikdan keyin milliy iqtisodiyot va bozor munosabatlari qaror topib, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda muttasil o'sish kuzatilmoqda. Bu jarayonga industrial-axborot texnologiyalari, sanoat ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, mintaqaviy integratsiya va globallashuv kabi ichki hamda tashqi omillar o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

Bu kursning boshqa ijtimoiy-gumanitar kurslardan sezilarli farqi shundan iboratki, o'quv jarayonida olingan bilim, xulosa va takliflarning ishonchligi xo'jalik amaliyotida o'z aksini topib boradi. Xodimlar yoki xo'jalik subyektlari bilan bog'liq iqtisodiy eksperimentlar tez-tez o'tkazilib boradi.

«O'zbekiston iqtisodiyoti» kursining asosi nazariy-iqtisodiy fanlar tizimi – «Iqtisodiyot nazariyasi», «Makro va mikro iqtisodiyot (ekonomiks)», «Institutsional iqtisodiyot» hisoblanadi.

Iqtisodiyot nazariyasi ishlab chiqarish va takror ishlab chiqarishning birlamchiligidan kelib chiqadi, mamlakat iqtisodiyotining dinamikasini ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari, iqtisodiy qonunlar o'zaro ta'siri asosida ko'radi. Shu bilan birga, u milliy iqtisodiyotni boshqarish va tashkil etish bo'yicha tavsiyalar beradi.

Makro va mikro iqtisodiyot O‘zbekiston iqtisodiyoti faoliyati modelini makro-, mezo- va mikro darajada davlat boshqaruvi bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqadi. Institutsional iqtisodiyot esa xo‘jalik subyektlari, kishilar faoliyatining me‘yor va qoidalarini ochib beradi.

«O‘zbekiston iqtisodiyoti» o‘quv kursi sifatida nazariy iqtisodiy fanlarning yuqorida sanab o‘tilgan yo‘nalishlaridan o‘ziga zarur bo‘lgan qoida, xulosa va tavsiyalarni oladi. U milliy iqtisodiy tizim faoliyatining nazariy asoslari va rivojlanish qonuniyatlarini keng empirik materialdan foydalanish orqali yoritib berishi lozim.

### **Qisqacha xulosalar**

1. «O‘zbekiston iqtisodiyoti», bir tomondan, fanlararo kurs, ikkinchi tomondan, ma‘lum mamlakatning murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy milliy xo‘jaligi.

2. Mustaqillikdan keyin O‘zbekiston iqtisodiyotining xarakteri, mazmun-mohiyati butunlay o‘zgardi, u milliy xo‘jalikka aylandi. Uning rivojlanishi inson va resurslar salohiyatida, ishlab chiqarish moddiy-texnika asosida, ijtimoiy-iqtisodiy tizimida, madaniy an‘analarda, boshqarish usullarida, jahonda tutgan o‘rnida o‘zgarishlarni aks ettiradi.

3. O‘zbekiston iqtisodiyoti biqiq, avtarkizmga asoslangan yopiq xo‘jalik emas, balki u jahon xo‘jaligi doirasida faoliyat ko‘rsatadi va rivojlanadi.

4. O‘zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishining muhim sifat ko‘rsatkichlari uning raqobatbardoshligi, ochiqligi, eksportda xomashyo emas, tayyor mahsulotlar, yuqori texnologiyali tovarlar hissasining ortishidir.

5. O‘zbekistonda iqtisodiyotni boshqarishning bozor va davlat dastaklaridan foydalaniladi. Bu usulning samarasini global

moliyaviy-iqtisodiy inqirozning ta'siri va oqibatlari yana bir bor yaqqol ko'rsatdi.

## **Asosiy atamalar va tushunchalar**

Milliy iqtisodiyot, bozor iqtisodiyoti, ochiq iqtisodiyot, o'zbek modeli, aralash iqtisodiyot, makro iqtisodiyot, mikro iqtisodiyot, institutsional iqtisodiyot, iqtisodiyot nazariyasi, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, modellashtirish.

### **Nazorat savollari**

1. Nima uchun «O'zbekiston iqtisodiyoti» kursini o'rganamiz?
2. «O'zbekiston iqtisodiyoti» kursining o'zi nimani o'rganadi? Kursning predmeti nimadan iborat?
3. «O'zbekiston iqtisodiyoti» kursining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
4. «O'zbekiston iqtisodiyoti» fani qanday usullarga tayanadi va bu jarayonda amaliyot hamda tajribaning ahamiyati qanday?
5. «O'zbekiston iqtisodiyoti» kursining boshqa iqtisodiy fanlar bilan aloqasi bormi?
6. Globallashtirish sharoitida O'zbekiston iqtisodiyoti oldida qanday vazifalar turibdi?

---

## II b o b

### IQTISODIY TARAQQIYOTNING «O‘ZBEK MODEL»

#### 2.1. «O‘zbek modeli»ga o‘tish zarurati va shart-sharoitlari

Ma’lumki, XX asrning 90-yillarida O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida mutlaqo yangi mazmun va mohiyatga ega tarixiy vaziyat yuzaga keldi. Bu, avvalo, mamlakatning mustaqillikka erishgani bilan bog‘liq vaziyatdir. Istiqlol sharo-fati bilan iqtisodiyotga bozor munosabatlarini joriy etish, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy, xalqaro masalalarni milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda mustaqil hal etish imkoniyati yaratildi. Boshqacha aytganda, mamlakatda bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayoni qadimiy milliy davlatchilikni qayta tiklash va milliy iqtisodiyotni shakllantirish bilan uyg‘unlikda olib borildi.

Ayni paytda, bozor munosabatlari o‘zbek xalqi uchun butunlay yangi tushunchalar emas edi. Osiyo va Yevropaning savdo yo‘li – Buyuk ipak yo‘li chorrahasida joylashgan o‘zbek zamini asrlar osha Sharq va G‘arb o‘rtasida o‘ziga xos ko‘prik bo‘lib keldi. O‘zbekiston o‘zining ana shu tarixiy va an’anaviy o‘rnini egallashi uchun zamonaviy bozor munosabatlarini va aholi o‘rtasida esa bozor madaniyatini shakllantirishi lozim edi. Bu esa oson ish emas edi. Zero, kommunistik mafkura hukmronlik qilgan sovet zamonida – 70 yil mobaynida xalq bozor qadriyatlaridan butunlay uzoqlashtirilgan, odamlardagi bozor munosabatlariga xos tashabbuskorlik, izlanuvchanlik va tadbirkorlik so‘ndirilgan, boqimandalik kayfiyati chuqurlashgan edi.



To'g'ri, sotsializm sharoitida ham «xufiyona iqtisodiyot», kooperativ faoliyat, kolxoz bozori singari bir qarashda bozorni eslatadigan yarim ochiq, yarim yashirin ko'rinishdagi unsurlar ham mavjud bo'lgan. Ammo sotsializm mazmun-mohiyatiga ko'ra, bozor iqtisodiyotiga butunlay zid, davlat mulkini eng ustuvor o'ringa qo'yar va xususiy mulkchilikning har qanday ko'rinishini inkor etardi.

Shu bois mulk obyektlarini davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirish va monopollashuvdan qaytish mexanizmlari orqali raqobat muhitini yaratish, erkin tadbirkorlikka keng yo'l ochish, bozor infratuzilmasini rivojlantirish, talab va taklif asosida shakllanadigan narx mexanizmini joriy etish kabi bozor ustunlarini qaror toptirish, pirovardida esa aralash iqtisodiyotga erishish lozim edi. Chunki shusiz ham chuqur inqiroz girdobiga tushib qolgan iqtisodiyotni sog'lomlashtirishning bozordan boshqa yo'li yo'q, oldinda ulkan islohotlarni amalga oshirish vazifasi turardi.

O'zbekistonda katta tabiiy resurslar, turli xil oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish uchun keng ekin maydonlari, yirik industrial salohiyat, malakali kadrlar, qisqasi, jamiyat a'zolari ehtiyojlarini to'la qondirish uchun zarur barcha imkoniyatlar mavjud bo'lsa-da, u qashshoq mamlakatlar qatoriga tushib qolgan, jamiyatda eng zarur iste'mol mollarining ham keskin tanqisligi vujudga kelgan edi. Sababi, shaxsiy manfaat va mehnat natijalari o'rtasida bevosita uzviylik yo'q edi. Bu uzviylik esa har qanday jamiyatda taraqqiyotning lokomotivi vazifasini bajaradi, mavjud barcha resurslardan oqilona va samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Mustaqillikkacha ham bir qancha iqtisodiy islohotlar o'tkazilganligini ta'kidlash lozim. Ular xo'jalik mexanizmini takomillashtirish, moddiy manfaatdorlikni oshirishga qaratilgan islohotlar edi. Lekin bunday urinishlarning birortasi ham ku-

tilgan samarani bermadi, berishi ham mumkin emasdi. Chunki shaxsiy manfaat va mehnat natijalari o'rtasidagi bevosita uzviylik hisobga olinmagan edi. Bu masala esa jamiyat poydevori hisoblanadigan mulk munosabatlarini qayta qurish bilan bog'liq. Mulk munosabatlarini o'zgartirish esa bevosita sotsializmning taqdiri bilan bog'liq edi. Bu islohotlar xo'jalik yuritishning ayrim bo'g'inlarini takomillashtirishdan nariga o'ta olmadi, butun iqtisodiyotni jonlantirishga ojizlik qildi. Natijada, yana odatdagidek, ma'muriy buyruqbozlik tartibotiga zo'r berildi. Ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasidagi aloqa ekstensiv omillardan keng foydalanish orqali naridan beri ta'minlanib kelindi.

Ekstensiv omillar imkoniyatlarining borgan sari torayib ketaverishi, intensiv xo'jalik yuritish mexanizmining esa yaratilmaganligi ertami-kech iqtisodiy tanqislik va tanglikni keltirib chiqarishi muqarrar edi. Iqtisodiy tanglik XX asrning 80-yillari oxiriga kelib yanada keskin va halokatli tus oldi. Bu, avvalo, mahsulot ishlab chiqarishning butunlay pasayib ketishida, ishlab chiqarish quvvatlarining ish bilan ta'minlanmaganligida, ishsizlikning o'sishida, pul-kredit va valuta tizimining izdan chiqishida namoyon bo'ldi.

Surunkali inflatsiya hammaning tinkasini qurita boshladi. Natijada aholining daromadlari va turmush darajasi pasaya boshladi. Ishlab chiqarish ko'lami va hajmining qisqarishi, O'zbekistondек keskin demografik sharoitda yashayotgan respublikalardagi aholi turmush darajasiga yanada og'irroq ta'sir ko'rsatdi. O'zbekiston aholi jon boshiga milliy daromad ishlab chiqarish, real daromadlar, ish haqi, mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari bo'yicha sobiq sho'ro respublikalari orasida eng oxirgi o'rinlardan biriga tushib qolgan edi.

Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi va uni tashkil etish shakllarini qayta qurmasdan turib, biror-bir jiddiy natijaga erishib bo'lmasligi aniq. Mamlakat xo'jaligining amal qilib kelgan

tarkibi ekstensiv rivojlanish mahsuli edi. Bu iqtisodiy zarurat emas, balki qat'iy markazlashgan ma'muriy va rejali boshqarishga asoslangan tizim edi. Ishlab chiqarish tarkibiga faol ta'sir ko'rsatadigan asosiy samarali mexanizm bu – bozordir. Chunki bozor sharoitidagina ijtimoiy ehtiyojlarga mos kelmaydigan sohalar o'z-o'zidan barham topadi. Davlat endi bozor tan olmagan, zarar keltirib ishlaydigan, norentabel soha va korxonalarni qo'llab-quvvatlamaydi. Xalq ehtiyojlariga xizmat qiladigan, xaridorgir, budjet uchun mablag' beradigan ishlab chiqarish turlari esa rag'batlantiriladi.

Tanqislikni keltirib chiqaradigan shart-sharoitlardan yana biri – ishlab chiqarishdagi yakka hukmronlik, monopoliyadir. Odatda, tanqislik qondirilmagan talab sifatida vaqti-vaqti bilan har qanday bozorda vujudga kelishi mumkin. Lekin sotsializm xo'jalik yuritish sohasidagi o'zining dastlabki qadamlarida iqtisodiyotni qat'iy markazlashgan rejali asosda tashkil etish yo'li bilan amalda yakkahokimlikni qonunlashtirdi. Xususiyl mulk umumlashtirilib, yagona «umumxalq», boshqacha aytganda, davlat mulkiga aylantirilishi shuni taqozo etardi. Natijada, monopoliizm surunkali hodisaga aylanib, har kuni, har soatda takror ishlab chiqariladigan bo'ldi. Chunki davlat bozordagi real ahvolni o'zida aks ettirmaydigan, oldindan belgilab qo'yiladigan tovar turlari va ularning narxlarini qo'llab-quvvatlardi. Shu yo'l bilan doimo talabning taklifdan ustunligi, ya'ni taqchillik ta'minlab kelindi. Amalda barcha korxonalar doimiy monopoliistlarga aylanib, bozor va iste'molchiga o'z shartlarini qat'iy o'tkazish imkoniyatiga ega edi.

Ishlab chiqarishni yiriklashtirish va ixtisoslashtirish, ijtimoiy mehnat taqsimotini chuqurlashtirish ayrim tarmoq va korxonalarining yakkahokimligini kuchaytirdi. Bu tajriba shunga olib keldiki, butun mamlakat bo'yicha ko'pchilik sanoat mahsuloti turlarini bir-ikki korxonaga yetkazib beradigan bo'ldi.

Shunday qilib, bir tomondan, monopoliizm tanqislikning kelib chiqishi uchun sharoit yaratdi. Ikkinchi tomondan, ana shu tanqislikning o'zi monopoliizmning keng tomir otishiga xizmat qildi. Iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy voqealarning bunday tadrijiy rivoji bozor iqtisodiyotiga o'tishni muqarrar qilib qo'ydi.

To'g'ri, bozor iqtisodiyotiga bir kunda va bir zarb bilan o'tish aslo mumkin emas. Sababi – O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tishning iqtisodiy asoslari ancha zaif edi. Buning ustiga, iqtisodiyot xomashyoga yo'naltirilgan va asosiy ishlab chiqarish fondlari g'oyat eskirganligini ham aytib o'tish lozim.

Respublika nafaqat jihozlar, texnologiyalar va juda ko'p turdagi xomashyo mahsulotlarini, balki birinchi darajali ahamiyatga ega oziq-ovqat mahsulotlari – g'alla, go'sht, shakar, tuz, qandolatchilik mahsulotlari va boshqalarni, shuningdek, mamlakatda ishlab chiqarish mumkin bo'lgan juda keng doiradagi xalq iste'moli mollarini ham tashqaridan keltirishga majbur edi. Deyarli barcha tarmoqlarda tugallanmagan siklga ega ishlab chiqarish yo'lga qo'yilganligi sababli ular xomashyoni qazib olish va dastlabki ishlov berish, yarimfabrikatlar tayyorlash bosqichida to'xtab qolar edi.

Sanoat mahsulotida tayyor mahsulotlar ulushi juda kam, yuqori texnologiyaga asoslangan, ilmtalab va jahon bozorida real raqobat qila oladigan ishlab chiqarish turlari deyarli yo'q edi.

Ammo oldinda bundan ham qiyinroq va murakkabroq vazifalar bor edi. Bu – odamlar psixologiyasi va dunyoqarashini o'zgartirish bilan bog'liq masalalardir. Mashhur venger iqtisodchi-olimi Yanosh Kornai o'zining «O'tish davri iqtisodiyoti to'g'risida xatlar» kitobida «... bitta qaror bilan xususiy mulkni davlat mulkiga aylantirish mumkin, lekin bitta qaror bilan davlat mulkini xususiy mulkka aylantirib bo'lmaydi», deb yozgan edi.

O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o‘tishda katta yo‘qotish va talato‘plardan chetlab o‘tildi. Ijtimoiy adolatsizlikka, aholining keskin tabaqalanishiga yo‘l qo‘yilmadi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning evolutsion, bosqichma-bosqich yo‘li tanlandi. Bu borada ijtimoiy adolatni ta‘minlashda davlatning islohotchilik roli katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, raqobat muhitini yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bozor munosabatlarini qaror toptirishning asosiy shart va yo‘nalishlarini tashkil etdi. O‘tgan davr ichida iqtisodiyotga oid qabul qilingan qonunlar, qarorlar, me‘yoriy hujjatlarning asosiy qismi ana shu uch yo‘nalishni rivojlantirishga qaratildi. Bu yillarda minglab davlat korxonalari xususiylashtirildi, aksiyadorlik jamiyatlari yoki mulkchilikning boshqa nodavlat korxonalari sifatida qayta tashkil etildi. Ular xo‘jalik birlashmalari, qo‘shma korxonalar, xususiy fermer xo‘jaliklari, aholi xususiy mulkining boshqa obyektlari sifatida faoliyat yurita boshladi.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, kichik biznesni rivojlantirish natijasida O‘zbekistonda yangi ijtimoiy qatlam – mulkdorlar, shuningdek, qimmatli qog‘ozlar va ko‘chmas mulk bozori kabi yangi bozorlar paydo bo‘ldi.

## **2.2. «O‘zbek modeli»ning mohiyati va shakl-shamoyillari**

«O‘zbek modeli» tushunchasining paydo bo‘lganiga 20 yildan oshdi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov 1992-yilda chop etilgan «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li» asarida o‘zbek modelining mohiyati va shakl-shamoyillari hamda tamoyillarini belgilab bergan edi. Keyinchalik bu g‘oya uning 1993-yildagi «O‘zbekiston – bozor

munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li» kitobida yanada rivojlantirildi.

O'tgan qisqa davr mobaynida bu tushuncha shunchaki oddiy g'oya emas, balki ulkan hayotbaxsh kuch ekanligini to'la namoyon etdi. O'zbek modeli ikkita katta sinovdan o'tdi. Birinchi sinov – o'tgan asrning 90-yillarini o'z ichiga olgan yosh mustaqil mamlakat boshdan kechirgan o'tish davri edi. Hali o'tish davri davom etayotgan pallada O'zbekiston postsovet maydonida birinchi bo'lib makroiqtisodiy barqarorlikka erishdi, sanoat va yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishda islohotdan oldingi yillardagi ko'rsatkichlardan oshib ketdi. Boshqacha aytganda, inqirozdan rivojlanish orqali chiqib ketish birdan bir to'g'ri yo'l ekanligini isbotladi. Ikkinchi sinov – 2008-yilda boshlangan global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz bo'ldi. Taraqqiyotning o'zbek modeli nafaqat butun jahonni qamrab olgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz zarbalariga qarama-qarshi tura oldi, balki dunyodagi 10 mamlakat qatorida iqtisodiy o'sishning eng yuqori (yiliga 8–9 foizdan kam bo'lmagan) sur'atlarini ta'minladi. Islom Karimovning shu munosabat bilan chop etilgan «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» asarida hamda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha 2009–2012-yillarga mo'ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturida O'zbekiston iqtisodiyotining inqirozdan keyingi yanada kuchli, barqaror va mutanosib rivojlanish konsepsiyasi ilgari surildi.

O'zbekistonda erishilayotgan bu qadar ulkan ijtimoiy-iqtisodiy muvaffaqiyatlar asosida mamlakatimiz amaliyotida ilgari surilgan iqtisodiyotning mafkuradan xoliligi, siyosatdan ustuvorligidan iborat pragmatik iqtisodiy siyosat, davlatning bosh islohotchilik vazifasini o'z zimmasiga olishi, jamiyat hayotida qonun ustuvorligini ta'minlash, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, islohot-

larni bosqichma-bosqich yuritishni ko‘zda tutadigan mashhur besh tamoyilni o‘zida aks ettirgan «o‘zbek modeli» turibdi.

O‘zbek modeli mamlakatimizning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lidir. Umuman, iqtisodiy rivojlanish modeli deganda iqtisodiyotni tashkil etish, rivojlantirish strategiyasi, maqsadlari, umumiy tamoyillari ifodalangan nazariy qarashlar va amaliy faoliyatlar majmui tushuniladi. Bu tushuncha XX asrning 50-yillarida paydo bo‘ldi. Bu davrda jahondagi ko‘pchilik mamlakatlar istiqloлга erishib, milliy davlat qurish yo‘liga o‘tgan edilar. Har qanday jamiyat bir tuzumdan boshqasiga o‘tar ekan, shubhasiz, o‘ziga xos va mos taraqqiyot yo‘lini tanlashga harakat qiladi. Bu jarayonda o‘zgalarning xato va yutuqlarini o‘rganadi, ulardan tegishli xulosalar chiqaradi.

O‘zbekistonda ham mustaqillikning dastlabki kunlaridan o‘z ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo‘li va modelini tanlash va to‘g‘ri belgilab olish g‘oyat muhim ahamiyatga ega edi. Dastlab ayrimlar tomonidan O‘zbekiston boshqa mamlakatlarda tajribadan o‘tgan muayyan iqtisodiy taraqqiyot modelini qabul qilishi lozim, degan fikrlar ham aytili. Chunonchi, Turkiya yoki Xitoy modellaridan birini joriy etish maqbulligi haqida tavsiyalar bo‘ldi.

Lekin qayta-qayta O‘zbekistonning o‘z yo‘li, o‘z taraqqiyot modeli bo‘lishi zarurligi ta’kidlandi. «Agar aynan nusxa olinsa, mamlakatning o‘ziga xos shart-sharoitlari, mavjud imkoniyatlari, yaqin va olis hamkorlik bilan ko‘p yillar davomida tarkib topgan iqtisodiy hamda ma’naviy aloqalari e’tibordan chetda qoladi... o‘z ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo‘li va andozasi ... iqtisodiyoti bozor munosabatlari asosiga qurilgan rivojlangan mamlakatlarning ko‘p asrlik tajribasiga, shuningdek, O‘zbekiston xalqining milliy, tarixiy merosi, turmush tarzi, an’analari va ruhiyati xususiyatlariga tayanishi lozim»<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> *Islom Karimov*. O‘zbekistonning o‘z istiqloл va taraqqiyot yo‘li. 1-jild. – T.: «O‘zbekiston», 1996. – 276-bet.

O'zbek modelining qaysi global yoki mintaqaviy model bilan uyg'unlashuvi tez va oson kechadi, degan savolning qo'yilishi ham bu vaqtda tabiiy edi. Bunda G'arb andozalari afzalmi yoki Sharq? Qaysi bozor qadriyatleri biz uchun qulay?

Masalaga yanada aniqroq yondashiladigan bo'lsa, XX asrning 90-yillari boshlarida O'zbekistonning oldida bir qator strategik rivojlanish yo'llari turganini ta'kidlamoq lozim. Ularni 4 yo'nalish – xomashyo, agrar, industrial va xizmat ko'rsatish sohalari bo'yicha guruhlashtirish mumkin. Ulardan har biri jozibali, respublika uchun real iqtisodiy taraqqiyot modeli bo'lishi mumkin edi. Ammo xomashyo yo'lini tutish tabiiy boyliklarning yanada talon-toroj qilinishiga, o'z imkoniyatlarini tugatgan ekstensiv ishlab chiqarish omiliga yopishib olishga, aholini ish bilan ta'minlash muammosini hal etishdan yuz burishga, sanoatning faqat muayyan tarmoqlarini rivojlantirishgagina zo'r berishga olib kelishi muqarrar bo'lardi. Agrar yo'l iqtisodiy taraqqiyot taqdirini agrosanoat majmui tarmoqlarini rivojlantirish asosiga qurishni taqozo qilalar, aholining asosiy qismini qishloq xo'jaligi bilan band qilishga olib kelardi. Bunday taraqqiyot nisbatan qoloq, hozirgi zamon sivilizatsiyasidan ancha uzoqda bo'lgan mamlakatlar uchun xosdir. Industrial iqtisodiy taraqqiyot modelining samaradorligini Janubi Sharqiy Osiyo mamlakatlari tajribasi to'la tasdiqladi. Taraqqiyotning xizmat ko'rsatish yo'nalishi ham O'zbekistonga qo'l kelishi tabiiy edi.

O'zbekiston yuqorida sanalgan yo'llarning birontasidan ham butunlay voz kechmadi, balki o'zining iqtisodiy taraqqiyot modelida ulardan samarali va oqilona foydalanish bilan bog'liq muhim vazifalarni belgilab oldi. Chunki «bizning qat'iy nuqtayi nazarimiz jahon tajribasi va o'z amaliyotimizdan oldingi jamiki foydali tajribalarni rad etmagan holda o'zimizning ijtimoiy-



iqtisodiy taraqqiyot yo‘limizni tanlab olishdan iboratdir»<sup>1</sup>, deb ta’kidlandi. Boy tabiiy resurslar, ularni chuqur qayta ishlash chet el investitsiyalarini jalb qilish imkoniyatini beradi. Agrosanoat majmuini rivojlantirish mamlakat aholisining katta qismi istiqomat qiladigan qishloqni diqqat markazida ushlab turishga undaydi. Industrial taraqqiyot iqtisodiyotni eksportga, import o‘rnini bosadigan tovarlar ishlab chiqarishga yo‘naltiradi. Ko‘rinib turibdiki, ularning har biri O‘zbekiston uchun qulaylikdan xoli emas.

O‘zbekistonning iqtisodiy taraqqiyot modeli o‘z xalqining tarixiy tajribasi, milliy va madaniy an’analariga asoslandi.

Bu borada ilgari surilgan muhim nazariy xulosalardan biri bozor iqtisodiyotiga inqilobiy yo‘l («shok terapiyasi») bilan emas, balki evolutsion yo‘l bilan, bosqichma-bosqich o‘tish edi. Bu konsepsiya O‘zbekistonda ilgari surilgan «Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmay» tamoyilida o‘zining yorqin ifodasini topdi.

Yangi bozor munosabatlariga avvalgi tizimni va tarkib topgan iqtisodiy munosabatlarni batamom sindirib tashlash orqali ham, eski iqtisodiy munosabatlarni bosqichma-bosqich yangi bozor munosabatlariga aylantira borib, samarali bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish yo‘li bilan ham borish mumkin. Mamlakat iqtisodiyoti va aholisi tarkibini, taraqqiyotning o‘sha davrdagi darajasini e’tiborga olsak, O‘zbekistonga ikkinchi, siyosiy larzalarsiz, beozor yo‘l ancha maqbul edi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish, jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv masalalari ham mustaqillikni endi qo‘lga kiritgan mamlakat uchun o‘ta murakkab, qiyin kechadigan jarayondir.

---

<sup>1</sup> *Islom Karimov. O‘zbekistonning o‘z istiqloq va taraqqiyot yo‘li.* 1-jild. – T.: «O‘zbekiston», 1996. – 276-bet.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosi sifatida dunyoning barcha mamlakatlari bilan ikki va ko'p tomonlama savdo-iqtisodiy aloqalar olib borish imkoniyatlari jadallashdi. Eksport va import tarkibini takomillashtirish ham muhim vazifalardan edi. Zero, istiqbolimizning dastlabki yillarida eksportning 60 foizdan ziyodrog'ini bitta tovar – paxta xomashyosi, importning esa 50 foizidan ziyodrog'ini don mahsulotlari tashkil qilib, monokulturaga asoslangan eksport-import tizimi hukmron bo'lib keldi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston orttirgan boy tajriba resurslar cheklangan sharoitda barcha muammolarni bir yo'la hal qilishga urinish hech qanday samara bermaydi. Shu sababli islohot yo'nalishlarini belgilab olish chog'ida shunday asosiy bo'g'inlarni topish muhimki, ularga asoslanib jamiki muammolarni hal qilish mumkinligi to'g'risidagi mamlakat rahbari tezisining naqadar o'z vaqtida ta'kidlanganligini tasdiqlab turibdi. Iqtisodiy islohotlarning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida agrar sohadagi o'zgarishlarga doimiy e'tibor qaratildi. Yerga mulkchilik masalasini hal qilish, davlat xo'jaliklarini, ayniqsa, zarar keltirib ishlayotgan hamda samarasi past jamoa va kooperativ xo'jaliklarini tugatib, ularning yerlarini uzoq muddatli xususiy fermer xo'jaliklariga yoki umrbod meros huquqi bilan dehqon xo'jaliklariga berish, qishloq xo'jaligida band bo'lgan ortiqcha ishchi kuchini sanoat korxonalariga jalb qilish kabi masalalar O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish strategiyasidagi, agrar siyosatidagi asosiy yo'nalishlardan bo'ldi. O'zbekiston unumdor yer va suv resurslarining cheklanganligi sharoitida parsella (fransuzcha «*bo'lak*», «*parcha*») xo'jaligi tajribasi qishloqda xo'jalik yuritishning nodavlat turini rivojlantirishda qo'l keldi. Bu xo'jalik yuritish shakli mamlakatda eng ko'p tarqaldi va yaxshi natijalar berdi. Bunga ilgari mavjud bo'lgan shaxsiy yordamchi xo'jaliklar (tomorqa

xo‘jaligi) va hozir tez rivojlanib borayotgan dehqon va fermer xo‘jaliklari yaxshi misoldir. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash, aniq-puxta ishlab chiqilgan moliya-kredit siyosatini amalga oshirish, iqtisodiyotda tub tarkibiy o‘zgarishlarga erishish iqtisodiyotning xomashyoviy qiyofasiga barham berish ham muhim ustuvor vazifalardan edi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tishda mintaqaga xos xususiyatlarni hisobga olish qanchalik muhim bo‘lsa, hamma uchun baravar bo‘lgan mushtarak qoidalarni nazarda tutish ham shunchalik shartdir. Shu bois davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, erkin tadbirkorlikni rivojlantirish, raqobat maydonini vujudga keltirish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi. Bozor iqtisodiyotining mazkur «uchta ustuni» bozor yo‘lini tanlagan barcha mamlakatlarga xosdir.

Sotsializmda davlat, ya‘ni «umumxalq mulki» iqtisodiyotda hukmronlik qilgani uchun amalda samarasizligi tufayli tanazulga yuz tutdi. Mamlakatimizda mulkchilikning turli shakllarini rivojlantirish uchun keng yo‘llar ochildi: «Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakldagi mulk tashkil etadi» (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 53-modda).

Sog‘lom va epchil, har qanday sharoitga va bozorga moslashuvchi xususiy mulk daxlsiz deb e‘lon qilindi. Bu islohotning eng muhim talabi edi. Albatta, belgilangan bunday vazifalarni amalga oshirish katta iroda, kuch-g‘ayrat, sabot talab qiladi. Chunki xususiy sektorning shakllanishi, rivojlanishi oson kechmasligi tabiiy. Uni har qanday tashqi aralashuvlardan himoya qilish, xususiy shartnoma majburiyatlarining bajarilishini qonun bilan kafolatlash, odamlarda xususiy mulkka hurmat-e‘tiborni, ezgulik tuyg‘usini tarbiyalash borasida tinmay ish olib borilishi lozim edi.

Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish natijasida erkin tadbirkorlikka keng yo‘l ochildi. Islohotning birinchi bosqichida ular, asosan, uy-joy fondi, umumiy ovqatlanish va savdo shoxobchalarini xususiylashtirishni o‘z ichiga olgan bo‘lsa, endi deyarli barcha ishlab chiqarish va servis sohalari – sanoat, qurilish, qishloq xo‘jaligi, transport va aloqa sohalariga ko‘chdi. Bu jarayon ta‘lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat sohalariga ham kirib bordi.

### **2.3. «O‘zbek modeli» va iqtisodiy o‘shish**

Jahonda taraqqiyot modellari ko‘p. Ular o‘sha mamlakat tub aholisi nomi bilan ataladi. Masalan, nemis, shved, turk, yapon, koreys, xitoy, hind, o‘zbek va hokazo. Qaysi model to‘g‘risida gap bormasin, asosiy maqsad samarali iqtisodiyotni barpo etish, xalq turmush farovonligini yuksaltirishdan iborat. Biror-bir modelni tanlash pirovard maqsad ham emas. Model, eng avvalo, mavjud tabiiy, ishlab chiqarish va buyuk aql-zakovatning amaldagi ifodasidir.

O‘tgan yillar mobaynida O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy qiyofasi tubdan o‘zgarib, u xalqaro hamjamiyatda o‘zining munosib o‘rnini egalladi. Bugun O‘zbekiston iqtisodiyoti izchil, barqaror va jadal o‘sayotgan jahondagi juda kam sonli mamlakatlar safidan mustahkam o‘rin oldi. Ijtimoiy, madaniy sohalardagi erishilayotgan ulkan yutuqlar nufuzli xalqaro tashkilot va ekspertlar tomonidan e‘tirof etilib, yuqori baholanmoqda.

Yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishning o‘shish sur‘atlari global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davrida ham barqaror bo‘ldi. Jumladan, Xalqaro valuta jamg‘armasi missiyasining bayonotida O‘zbekiston izchil o‘shishga erishganligi va global moliyaviy inqirozga qarshi muvaffaqiyatli choralar ko‘rayotganligi qayd etildi, shuningdek, o‘rta muddatli istiqbolda iqtisodiy

o'sishning yuqori sur'atlari saqlanib qolishi haqida ijobiy prognoz berildi.

Bu o'zbek modeli doirasida bozor iqtisodiyotining huquqiy asoslari, infratuzilmasi yaratilgani va tobora mustahkamlanayotgani, barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlarning izchilligi ta'minlanayotgani samarasidir. Xomashyoni qayta ishlashga qaratilgan yuzlab, minglab yangi zamonaviy korxonalarining ishga tushirilishi mamlakatning industrial salohiyatini yuksaltirmoqda.

Jahonda umume'tirof etilgan rivojlanishning «o'zbek modeli» hamda mamlakatda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi ustuvor yo'nalishlarining izchil amalga oshirilishi samarasida, jahon iqtisodiyotida inqirozli holatlarga qaramay milliy iqtisodiyot o'sishining yuqori sur'atlari, makroiqtisodiy muvozanat va barqarorlik ta'minlanib kelinmoqda.

Davlat budjeti ijrosi va tashqi savdo profitsiti, inflatsiya va ishsizlik darajalarining prognoz ko'rsatkichlaridan oshmayotganligi o'zbek modeli ta'minlayotgan iqtisodiy o'sish va yuksalishning aniq natijalaridir.

Taraqqiyotning o'zbek modeli yuksak zamonaviy texnika va texnologiyaning mavjudligi, ishlab chiqarishning industrial tavsifi, rivojlanishda axborot texnologiyalarining o'rni va ahamiyatining yuqoriligi, xizmat ko'rsatish sohasining muttasil o'sib borishi, iqtisodiy o'sishning intensiv yo'li ustuvorligi, iqtisodiyotning ochiqligi, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish, raqobat muhitini yaratish, erkin tadbirkorlikka keng yo'l ochish orqali bozor munosabatlarini chuqurlashtirish, iqtisodiyotning ijtimoiy yo'naltirilganligi, xalq farovonligining izchil yuksalishi, milliy iqtisodiyotning global iqtisodiyot bilan integratsiyalashuvining kuchayishi tendensiyalari bilan tavsiflanmoqda.

O‘zbek taraqqiyot modeli qotib qolgan statik tushuncha emas, albatta. Uning xarakteri va shakl-shamoyillarini belgilaydigan asosiy tamoyillar saqlanib qolgan holda doimo vazifa va qoidalar bilan boyib, takomillashib boradi. Zero, hayot barcha tartib-qoidalarga tuzatishlarini kiritib boraveradi. Samolyot o‘zining modeliga to‘la mos kelishi kerak. Aks holda, halokat yuz beradi. Iqtisodiy rivojlanish modeli esa unday emas. Borgan sari zamonaviylashib borayotgan jamiyat hayotining barcha jabhalarini modernizatsiyalash, ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishini diversifikatsiyalash, innovatsion texnologiyani izchil rivojlantirish, sanoat mahsulotlari yetkazib berishni yanada kengroq mahalliyashtirish – bozorga o‘tishga oid o‘zbek modelining mantiqiy davomidir.

### **Qisqacha xulosalar**

1. O‘zbekiston davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgach, bozor munosabatlari sharoitida rivojlana borib, o‘ziga xos va o‘ziga mos taraqqiyot modelini qabul qilishi lozim edi.

2. Ana shunday model sifatida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ilgari surgan «o‘zbek modeli» qabul qilindi. Unga asos qilib bozor munosabatlariga o‘tishning beshta tamoyili olindi.

3. «O‘zbek modeli» barcha sinovlardan o‘tib, xalqaro ekspertlar tomonidan e‘tirof etildi va o‘zining yuksak samalarini namoyish etmoqda.

4. «O‘zbek modeli» rivojlangan mamlakatlar tajribasi hamda ichki sharoit va imkoniyatlarga, xalqning tarixi, mentaliteti va turmush tarziga tayanadi.

5. «O‘zbek modeli» statik tushuncha emas, u mavjud sharoitda yangi yo‘nalish, vazifa, maqsad va tamoyillar bilan boyib boradi.

## Asosiy atama va tushunchalar

Model, global model, mintaqaviy model, milliy model, davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirish, monopolizm, eks-tensiv, intensiv, inflatsiya.

### Nazorat savollari

1. «O‘zbek modeli» tushunchasi O‘zbekiston Respublikasi Bi-rinchi Prezidenti Islom Karimovning qaysi asarlarida va qachon iqtisodiy adabiyotga kirib keldi?

2. «O‘zbek modeli» qaysi tamoyillarga asoslanadi va bu tamoyillar qachon va kim tomonidan ilgari surilgan?

3. O‘zbek modelidan tashqari yana qaysi milliy taraqqiyot modellarini bilasiz?

4. O‘zbek modelining samarasini nimalarda ko‘rasiz? Uning natijalarini iqtisodiy ko‘rsatkichlarda ifodalay olasizmi?

5. Nima uchun taraqqiyotning alohida «o‘zbek modeli» asoslab berildi va qabul qilindi? Jahon amaliyotida tajribadan o‘tgan va yuqori samara berayotgan milliy modellar ham bor-ku? Nega ulardan biri tanlanmadi?

6. O‘zbek modeliga o‘tishdan oldingi mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy qiyofasini tasvirlab bera olasizmi?

7. Global, mintaqaviy, milliy taraqqiyot modellarining umumiy jihatlari va farqlarini izohlab bera olasizmi?

8. «O‘zbek modeli»ning samarasini qaysi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarda ko‘rasiz?

---

---

### III b o b

## MILLIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

### 3.1. Milliy hisoblar tizimi

Milliy hisoblar tizimi (MHT) – iqtisodiy jarayonlar va ularning natijalariga o‘zaro bog‘liq statistik ko‘rsatkichlar orqali kompleks tavsif berishni ta‘minlaydigan balans usulidir. Uni makroiqtisodiy faoliyat natijalarini tavsiflovchi hisobvaraqlari va jadvallarning muayyan to‘plami ko‘rinishida ifodalangan o‘zaro bog‘liq statistik ko‘rsatkichlar va tasniflar tizimi sifatida ham aniqlash mumkin. MHT dastlab davlat boshqaruvi organlari tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish maqsadida 1953-yildan boshlab rivojlangan mamlakatlarda qo‘llanilgan. Bugungi kunda esa jahonning 150 dan ortiq mamlakatida bu tizimdan foydalaniladi. «Milliy hisobchilik» atamasi gollandiyalik iqtisodchi V. Kliff tomonidan taklif qilingan va muomalaga kiritilgan.

Sobiq Ittifoqda makroiqtisodiyotni ifodalash va tahlil qilish uchun boshqa ko‘rsatkichlar tizimi – xalq xo‘jaligi balansi (XXB)dan foydalanilgan. Bu tizim ijtimoiy mulkchilik va markazlashtirilgan rejalashtirishga asoslangan iqtisodiyot modelini tahlil qilishga mo‘ljallangan. Shu sababli bozor munosabatlariga o‘tish barcha postsovet maydonida joylashgan mamlakatlarni xalq xo‘jaligi balansidan milliy hisoblar tizimiga o‘tishini zaruratga aylantirdi.

MHTda buxgalteriya hisobining ba‘zi muhim jihatlari (masalan, ikki yoqlama yozuv tamoyili)dan foydalaniladi va



uning maqsadi buxgalteriya hisobining maqsadlariga muvofiq keladi. Xususan, buxgalteriya hisobining asosiy maqsadlaridan biri korxonalar rahbarlarini boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun axborot bilan ta'minlashdan iborat. MHTda esa xuddi shu maqsad makroiqtisodiyot darajasida amalga oshiriladi. Shuning uchun ko'plab iqtisodchilar MHTni «butun iqtisodiyotning buxgalteriya hisobi», deb ataydilar.

MHTning ko'rsatkichlar tizimi asosida iqtisodiy jarayonlar va ularning natijalari tavsiflanadi, bu jarayonlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar aks ettiriladi. Shunday qilib, MHT – mamlakat, uning mintaqalari va sektorlari iqtisodiy faoliyatini kompleks tadqiq etish uchun qo'llaniladigan iqtisodiyotning o'ziga xos modeli hisoblanadi.

Jahon amaliyotida milliy hisoblar tizimi samarali bo'lishi va makroiqtisodiy qonuniyatlar va o'zaro bog'liqliklarni aniqlashga imkoniyat yaratishi uchun bir qator muhim qoidalarga rioya qilinadi.

Birinchidan, MHTda iqtisodiy ishlab chiqarishning kengroq va to'laroq ta'rifi qo'llaniladi (XXBda iqtisodiy ishlab chiqarish sohasiga faqat moddiy ishlab chiqarish kiritilgan).

MHT metodologiyasiga ko'ra iqtisodiy ishlab chiqarish tovar va xizmatlar ishlab chiqarish bo'yicha barcha faoliyat turlarini o'z ichiga qamrab oladi. Xususan, unga muvofiq iqtisodiy ishlab chiqarishga quyidagilar kiradi:

– tovarlar ishlab chiqarish (shu jumladan uy xo'jaliklari tomonidan ovqat tayyorlash, uy yig'ishtirish, bolalarni tarbiyalash bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlardan tashqari o'z iste'moli uchun tovarlar ishlab chiqarish);

– sotish uchun bozor xizmatlari ishlab chiqarish;

– moliyaviy vositachilar (banklar, investitsiya fondlari, sug'urta kompaniyalari) faoliyati;

– davlat boshqaruvi muassasalari tomonidan ishlab chiqarilgan nobozor xizmatlari;

– uy xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatuvchi notijorat tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan nobozor xizmatlari;

– yollangan xizmatchi (oshpaz, haydovchi, bog‘bon) tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar;

– o‘z iste‘moli uchun uy-joy egalari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar;

– atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan faoliyat.

MHT metodologiyasining ikkinchi eng muhim qoidasi «daromad» atamasining mazmuniga tegishli. MHTga ko‘ra daromad deganda shunday maksimal pul miqdori tushuniladiki, kishilar uni iste‘mol tovarlari va xizmatlariga sarflaganda ularning jamg‘argan boyliklari kamayib qolmaydi, ular uchun hech qanday moliyaviy majburiyatlar kelib chiqmaydi, boshqacha qilib aytganda, qashshoqlashib qolmaydi.

MHTning uchinchi qoidasi ko‘plab xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bir turdagi guruhlariga birlashtirilishi bilan bog‘liq. Bu guruhlar soni beshta bo‘lib, ular uchun hisobvaraqlarining standart to‘plami ko‘zda tutilgan va bu hisobvaraqlarida ta‘lim, ishlab chiqarish, taqsimot, daromadlarni qayta taqsimlash, jamg‘arish va omonatlar, moliyaviy aktivlarni sotib olish va moliyaviy majburiyatlarni qabul qilish bilan bog‘liq iqtisodiy operatsiyalar qayd etiladi.

1993-yildan boshlab xo‘jalik yurituvchi subyektlar iqtisodiy jarayonda bajaradigan funksiyasiga ko‘ra quyidagi institutsional sektorlarga kiritiladi:

– nomoliyaviy korporatsiyalar va kvazikorporatsiyalar (tovarlar va nomoliyaviy xizmatlar ishlab chiqarish funksiyasi);

– moliyaviy korporatsiyalar va kvazikorporatsiyalar (bo‘sh moliyaviy resurslarni jamlash va muayyan shartlar bilan investorlarga taqdim etish funksiyasi);

- davlat boshqaruvi (milliy daromad va boyligni qayta taqsimlash hamda bepul xizmatlar taqdim etish funksiyasi);
- uy xo‘jaligi (bozorda tovar va xizmatlar sotib olish, ishchi kuchi taqdim etish funksiyasi);
- uy xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatuvchi notijorat tashkilotlari (jamoatchilik, siyosiy, diniy tashkilotlar, ularning funksiyasi ushbu tashkilotlar a‘zolariga bepul xizmat ko‘rsatishdan iborat).

Sektorial hisobvaraqlaridagi axborotlarni tahlil qilishdan tashqari ular o‘rtasidagi iqtisodiy jarayondagi o‘zaro bog‘liqliklar ham tahlil qilinadi. Shuningdek, MHTda muhim hisobvaraqlari (ishlab chiqarish hisobvarag‘i va daromadlar hosil bo‘lishi hisobvarag‘i) iqtisodiyotning alohida tarmoqlari (sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, transport va boshqalar) uchun ham tuziladi. Shunday qilib, sektorial hisobvaraqlari, iqtisodiyot tarmoqlari uchun hisobvaraqlari asosida makroiqtisodiy hisob-kitoblar amalga oshiriladi.

MHT doirasida makroiqtisodiy hisob-kitoblarning maqsadi muayyan davr uchun asosiy iqtisodiy oqimlarning umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlarini yoritishdan iborat bo‘lib, ularning shakllanishi va o‘zaro bog‘liqligi MHT tarkibining mohiyatini tashkil etadi.

Iqtisodiy oqimlar deganda qiymatning yaratilishi, o‘zgarishi, almashinishi, uzatilishi tushuniladi. Iqtisodiy oqimlar institutsional birliklar hajmi, tarkibi, aktivlari va majburiyatlarining qiymatida o‘zgarishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Institutsional birliklar deganda ishlab chiqarish, daromadlarni taqsimlash, qayta taqsimlash va foydalanish imkoniyati va huquqiga ega bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar, tashkilotlar va muassasalar tushuniladi.

Iqtisodiy oqimlar MHTda «iqtisodiy operatsiyalar» deb yuritiladi. Ular qarama-qarshi oqimlar ko‘rinishida muayyan

qoplamalar bilan amalga oshiriladi (taqdim etilgan tovar, xizmatlar, mehnat yoki aktiv evaziga yana tovar, xizmatlar va boshqalar ko‘rinishida qoplamalar taqdim etiladi). Agar iqtisodiy operatsiyalar qoplamalarsiz amalga oshirilsa (pensiya, stipendiyalar to‘lash, gumanitar yordam va boshqalar), bunday iqtisodiy operatsiyalar transfert operatsiyalari deb yuritiladi.

MHT tarkibining asosini hisobvaraqlari va balans jadvallari tashkil etadi.

Hisobvaraqlari xo‘jalik birliklarining operatsiyalari, aktivlari va majburiyatlarini aks ettiradi va ikki yoqlama jadval ko‘rinishida bo‘ladi. Unda balanslashtiruvchi moddalar yordamida miqdorlar o‘rtasidagi tenglikka erishiladi. Bu moddalar makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar hisoblanadi. Balanslashtiruvchi moddalar bir hisobvarag‘idan ikkinchisiga o‘tish imkonini beradi va hisobvaraqlarini yagona tizimga birlashtiradi. MHT tarkibida joriy narxlarda ishlab chiqiladigan quyidagi hisobvaraqlari guruhlari ajratiladi:

1. Ichki iqtisodiyot hisobvaraqlari.
2. Iqtisodiyot tarmoqlari hisobvaraqlari guruhi.
3. Tashqi iqtisodiy aloqalar («tashqi dunyo») hisobvaraqlari.

Har bir tizimga kiruvchi hisobvarag‘i u yoki bu resurslar hajmi va ulardan foydalanish o‘rtasidagi tenglikni ifodalovchi balans hisoblanadi. Unga balanslashtiruvchi moddani hisob-kitob qilish evaziga erishiladi. Har bir hisobvarag‘ining balanslashtiruvchi moddasi o‘rganilayotgan iqtisodiy jaryonlar natijalarini tavsiflashda mustaqil qiymatga ega bo‘ladi. U, shuningdek, har bir oldingi hisobvarag‘ini keyingisi bilan bog‘lash uchun ishlatiladi. Pirovardida hisobvaraqlarining balanslashtiruvchi moddalari har biri iqtisodiy tahlilda mustaqil ahamiyatga ega natijalarning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari tizimi sifatida namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, hisobvaraqlariga birlashtirilgan va takror ishlab chiqarishning tegishli bosqichiga muvofiq keluvchi muayyan ketma-ketlikda hisoblanadigan o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar tizimi asosida iqtisodiy jarayonlar va iqtisodiyot amal qilishining natijalarini kompleks miqdoriy tavsiflash imkoniyati yuzaga keladi.

Umuman, iqtisodiyot uchun barcha hisobvaraqlarini tuzish ko'zda tutiladi. Ular jamlama hisobvaraqlarini tashkil etadi va bir tomondan, mamlakat iqtisodiyoti va tashqi dunyo o'rtasidagi aloqalarni, ikkinchi tomondan, ichki iqtisodiyotning sektorlari o'rtasidagi munosabatlarni va tizimning turli ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aks ettiradi.

Ichki iqtisodiyotning har bir sektori uchun hisobvaraqlari to'plami tuziladi. Hisobvaraqlari shuning uchun ham tizim hisoblanadiki, ular, birinchidan, bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'ladi, ikkinchidan, yagona metodologik tamoyil asosida quriladi, uchinchidan, yagona metodologik tamoyil asosida hisoblangan o'zaro bog'liq ko'rsatkichlardan iborat bo'ladi.

Hisobvaraqlaridagi ko'rsatkichlar operatsiyalarni, operatsiyalarning har biri institutsional birliklar o'rtasidagi qiymat oqimlarini aks ettiradi. Takror ishlab chiqarish davri bosqichlariga muvofiq holda operatsiyalar ishlab chiqarish, taqsimlash, almashuv, iste'mol va jang'arish operatsiyalari bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, MHTda takror ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlari (ishlab chiqarish, almashuv, taqsimlash, iste'mol va jang'arish) orqali tovar va xizmatlar qiymatining harakati o'z aksini topadi. Tizim balans jadvallarini tuzish bilan yakunlanadi. Bu jadvallar berilgan yilda mehnat natijasida milliy boylikdagi yakuniy o'zgarishlarni o'zida aks ettiradi. Shu bilan birga tovar va xizmatlar ishlab chiqarish ulardan foy-

dalanishni o'zida aks ettiruvchi tarmoqlararo balans va undagi o'zgarishlarni ham ifodalaydi.

### 3.2. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar

Milliy iqtisodiyot miqyosida alohida iqtisodiy subyektlar faoliyatining natijasiga milliy hisoblar tizimining turli ko'rsatkichlari asosida baho beriladi. Milliy hisoblar tizimi yordamida muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlar aniqlanadi. MHT ning eng asosiy ko'rsatkichlari – yalpi ichki mahsulot (YaIM), yalpi milliy mahsulot (YaMM), sof milliy mahsulot (SMM) va milliy daromad (MD) hisoblanadi.

Yalpi ichki mahsulot – MHTning eng asosiy ko'rsatkichi bo'lib, mamlakat iqtisodiy birliklari – rezidentlarning ma'lum davr ichida (ko'pincha bir yilda)gi ish faoliyatining natijalarini ifodalaydi. U pirovard iste'molning bozor baholarida, ya'ni xaridor tomonidan to'lanadigan (tovarlarga solinadigan soliqlar va barcha savdo-transport ustamalarini ham o'z ichiga oladigan) baholarda hisoblanadi.

YaIM, odatda, mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi va sur'atlarini ifodalovchi umumiy indikator vazifasini bajaradi. Ayni vaqtda iqtisodiy tahlilda YaIM barcha aholi, iqtisodiy faol va band aholi soni bilan solishtiriladi. Bu esa aholi turmush farovonligiga baho berish imkonini beradi. Shuningdek, iste'mol qilingan resurslar, asosiy fondlar, investitsiyalar, har xil yo'nalishdagi davlat xarajatlari birligiga to'g'ri keladigan YaIM hajmi ham aniqlanadi. Bunday hisob-kitoblar resurslar, asosiy fondlar va sarflangan xarajatlarning samaradorligini tahlil qilishda muhim rol o'ynaydi.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM hajmi asosida mamlakatning xalqaro tashkilotlar budjetiga to'lovi miqdori aniqlanadi, ular tomonidan beriladigan kreditlarning shartlari

va miqdoriga oydinlik kiritiladi, turli mamlakatlarga beriladigan moliyaviy va boshqa yordamlar amalga oshiriladi, investitsiya muhitiga baho beriladi.

YaIM pul o'lchovida aniqlanadi. Ammo bozor iqtisodiyoti sharoitida pul birliklari kursining tebranishi yuz beradi, shuningdek, tovar va xizmatlarga bo'lgan narxlar o'zgarib turadi. Natijada YaIMning jismoniy hajmi bir xil bo'lgan sharoitda ham uning puldagi ifodasi turli qiymatga ega bo'ladi. Shu sababli YaIM joriy yoki haqiqiy baholarda ham, narx darajalari va pul birligi kursining o'zgarishini hisobga oladigan narxlarda ham hisoblanadi. Shu munosabat bilan YaIM nominal va real turlarga ajratiladi.

Nominal YaIM amaldagi yoki joriy narxlarda hisoblansa, real YaIM inflatsiya va pul birligi kursini hisobga olib aniqlanadi. Nominal va real YaIM o'rtasidagi nisbat esa yalpi ichki mahsulot deflatori deb yuritiladi.

Yalpi ichki mahsulot bilan birga yalpi milliy mahsulot (YaMM) ko'rsatkichi ham qo'llaniladi. YaMM – keng tarqalgan umumlashtiruvchi makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib, mamlakat tomonidan muayyan davr (odatda, bir yil) ichida ishlab chiqarilgan pirovard mahsulotlar va xizmatlarning bozor bahosidagi qiymatlari yig'indisini ifodalaydi. YaMM tarkibiga mamlakatda va ushbu mamlakatga tegishli ishlab chiqarish omillaridan foydalanib ishlab chiqarilgan xorijdagi mahsulot va xizmatlar qiymati ham kiritiladi. 1993-yildan boshlab yangi Milliy hisoblar tizimiga ko'ra yalpi milliy mahsulot yalpi milliy daromad (YaMD) deb yuritila boshlandi.

YaIM va YaMD o'rtasidagi farq quyidagilardan iborat:

1. YaIM mamlakat hududida joylashgan korxonalarining qaysi mamlakatga tegishli ekanligidan qat'i nazar, ular tomonidan ishlab chiqarilgan pirovard tovar va xizmatlarning

bozor qiymatlari yig'indisini o'zida aks ettiradi. Boshqacha qilib aytganda, YaIMni hisoblash asosiga hududiy tamoyil qo'yilgan.

2. YaMD milliy korxonalar qayerda joylashganligidan qat'i nazar, ular tomonidan ishlab chiqarilgan pirovard tovar va xizmatlarning bozor qiymati yig'indisini ifodalaydi. Shundan kelib chiqqan holda YaMD hajmi YaIM hajmidan xorijda ushbu mamlakat resurslaridan foydalanish evaziga olingan omilli daromadlar (yollanma ishchilar daromadlari, renta daromadlari, ssuda foizi, firmalar foydalari)dan xorijliklar tomonidan olib chiqib ketilgan xuddi shunday daromadlar qiymatini chegirib tashlangandan keyingi qolgan qiymatga farq qiladi. Shu sababli YaMDni hisoblash uchun YaIM qiymatiga xorijda mamlakat korxonalari va jismoniy shaxslari tomonidan olingan foyda va daromadlar bilan ushbu mamlakatda xorijiy investorlar va xorijiy ishlovchilar tomonidan olingan foyda va daromadlar o'rtasidagi farq qo'shiladi. Agar farq ijobiy bo'lsa, YaMD hajmi YaIMdan ko'p bo'ladi va aksincha. Bunday farq bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar uchun 1 foiz atrofida kuzatiladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, MHTda yalpi ichki mahsulot birlamchi iqtisodiy ko'rsatkich sifatida qabul qilingan.

Yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida, daromadlarning hosil bo'lishi jarayonida va daromadlardan foydalanish jarayonida kuzatish mumkin. Ishlab chiqarish jarayonida yalpi ichki mahsulot rezidentlar tomonidan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish jarayonida qaratilgan qo'shilgan qiymatni tavsiflaydi.

Daromadlar hosil bo'lish jarayonida yalpi ichki mahsulot ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqarish jarayonida olgan va ishlab chiqarish qatnashchilari orasida taqsimlanadigan birlamchi daromadlarini ifodalaydi.



Daromadlardan foydalanish jarayonida YaIM milliy iqtisodiyot sektorlari tomonidan pirovard iste'mol va jamg'arish miqdorlari sof eksportini ifodalaydi. Shulardan kelib chiqqan holda yalpi ichki mahsulot uch xil usulda aniqlanadi:

- ishlab chiqarish usuli;
- taqsimlash usuli;
- pirovard foydalanish usuli.

YaIM ni qo'shilgan qiymatlar yig'indisi sifatida aniqlash – ishlab chiqarish usuli deb yuritiladi. Bu usulda YaIM ni hisoblashning umumiy ko'rinishi quyidagicha:

**YaIM = yalpi qo'shilgan qiymat + tovarlar va importga soliqlar – tovarlar va importga subsidiyalar**

Ko'rinib turibdiki, yalpi qo'shilgan qiymat YaIM ning asosiy tashkil etuvchisi hisoblanadi. Yalpi qo'shilgan qiymat yalpi ishlab chiqarish bilan oraliq mahsulot o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Oraliq mahsulot deganda joriy ishlab chiqarish maqsadlarida xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan material resurslari va xizmatlar sotib olishga sarflangan xarajatlar tushuniladi.

Agar yalpi ichki mahsulotdan amortizatsiya xarajatlarini chegirib, unga xorijdan birlamchi daromadlar tushumi saldosi qo'shsak, milliy daromad hosil bo'ladi.

**MD = YaIM – amortizatsiya + xorijdan birlamchi daromadlar tushumi qoldig'i.**

Taqsimlash usulida hisoblashda YaIM tarkibiga ishlab chiqarish birliklari – rezidentlar tomonidan taqsimlangan birlamchi daromadlarning quyidagi turlari kiradi: yollanib ishlovchilarning ish haqlari, ishlab chiqarish va importga sof soliq (ishlab chiqarish hamda importga soliq minus ishlab chiqarish va importga subsidiyalar), yalpi foyda.

**YaIM = yollanib ishlovchilarning ish haqlari + ishlab chiqarish va importga sof soliq + yalpi foyda.**

Yollanib ishlovchilarning ish haqlari joriy davrda bajarilgan ish uchun yollanib ishlayotgan ishlovchiga ish beruvchi tomondan to‘lanadigan pul va natura ko‘rinishidagi mukofot. U ikkita qismdan iborat bo‘ladi:

- ish haqi;
- ish beruvchilarning ijtimoiy sug‘urtaga o‘tkazmalari.

Bu usulda milliy daromadni aniqlash uchun YaIM dan boshqa mamlakatlarga berilgan birlamchi daromadlar ayrilishi va boshqa mamlakatlardan olingan daromadlar qo‘shilishi lozim.

Yalpi ichki mahsulotni pirovard foydalanish usulida hisoblash uchun quyidagi elementlar yig‘indisi topiladi: tovar va xizmatlarning oxirgi iste‘moli, yalpi jamg‘arish, tovar va xizmatlarning eksporti va importi qoldig‘i.

**YaIM = tovar va xizmatlarning oxirgi iste‘moli + yalpi jamg‘arish + tovar va xizmatlarning eksporti va importi qoldig‘i.**

Tovar va xizmatlarning pirovard iste‘moli deganda ulardan aholining shaxsiy ehtiyojlari va jamiyatning jamoa ehtiyojlarini butunligicha qondirishi tushuniladi. Ularni qondirish uchun qilingan xarajatlarni iqtisodiyotning quyidagi uchta sektori institutsional birliklari qoplaydilar: uy xo‘jaliklari, davlat muassasalari va uy xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi notijorat tashkilotlari.

### 3.3. Makroiqtisodiy proporsiyalar

Milliy iqtisodiy tizim komponentlarining tuzilishi sohalar, tarmoqlar, ishlab chiqarish majmualarini tashkil etsa, ular o‘rtasidagi munosabat, ularning o‘zaro ta‘siri milliy iqtisodiyot tarkibini ifodalaydi. Tarkibiy nisbatlar proporsiyalarni tashkil etadi. Taraqqiyot davomida mazkur proporsiyalarni oqilona darajada saqlab turish milliy iqtisodiyotning muhim tarkib hosil qiluvchi omili hisoblanadi. Iqtisodiy tizim komponentlari rivoj-

lanishida mutanosiblikka amal qilish ushbu tizimning bir buntunligini, yaxlitligini ta'minlaydi. Mutanosiblik – har qanday tizim (texnik, iqtisodiy, ijtimoiy) rivojlanishining qonuni hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotning makrotarkibi o'z ichiga quyi tizimlar, komponentlar majmuasini oladi. Bu quyi tizimlar ko'p yillik xo'jalik amaliyoti davomida turli tasnifiy belgilar asosida tarkibiy tuzilmalarga integratsiyalashadilar. Bunday tasnifiy belgilar jumlasiga sektorli, takror ishlab chiqarish, tarmoq, institutsional, ijtimoiy va boshqalar kiradi.

Milliy hisoblar tizimi amaliyotiga ko'ra, iqtisodiyot tarmoqlarini uchta sektor bo'yicha tahlil qilish lozim:

- birlamchi (bu sektorda tabiiy resurslarni ishlab chiqarish, qazib olish va iste'mol qilish bilan bog'liq tarmoqlar kiradi);
- ikkilamchi (sanoatning qayta ishlovchi tarmoqlari kiradi);
- uchlamchi (transport xizmatlari, kommunal xo'jalik, qurilish, savdo, mudofaa, davlat boshqaruvi va boshqalar).

Ilmiy adabiyotlarda va xorijiy amaliyotda iqtisodiyotning real sektori va pul (moliya) sektori tushunchalaridan foydalaniladi. Iqtisodiyotning real sektori yalpi ichki mahsulot hajmi bilan aniqlansa, pul sektori ichki tovar almashinuvi uchun zarur bo'lgan pul miqdori bilan aniqlanadi. Bu sektorlar subyektlar va pul oqimlari o'rtasidagi barqaror bog'liqlikni ifodalab, birgalikda daromadlar va xarajatlarning doiraviy aylanishini o'zida aks ettiradi.

Milliy iqtisodiyot tarkibini o'rganishda uning takror ishlab chiqarish, tarmoq, texnologik, mintaqaviy, institutsional, ijtimoiy tarkibini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiyotning takror ishlab chiqarish tarkibi makro-darajada yalpi ichki mahsulot takror ishlab chiqarish bosqichlari o'rtasidagi o'zaro nisbatlarni tahlil qilish uchun ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, uning tarkibiy qismlari o'zgarishlarining

yoʻnalishlarini oʻzida aks ettiradi. Bu oʻzgarishlar jamiyatning ijtimoiy yoʻnalganlik darajasi toʻgʻrisida, ishlab chiqarishning ortiqcha resurs sigʻimligiga barham berish, isteʼmol va jamgʻarish dinamikasi va shunga muvofiq ravishda milliy iqtisodiyotni yangilashning investitsiya imkoniyatlari va eksportga yoʻnalganlik darajasi haqida tasavvur beradi.

Iqtisodiyotning tarmoq tarkibi tarmoqlararo nisbatlar dinamikasi, ustuvor tarmoqlarning samaradorlik nuqtayi nazaridan oʻsishi, ijtimoiy yoʻnalganligi, ilmtalabligi, resurslarni tejash, aholining ekologik himoyalanganligini kuzatish imkonini beradi.

Iqtisodiyotning texnologik tarkibi ushbu ustuvor yoʻnalishlarni anʼanaviy va eng yangi texnologiyalar oʻrtasidagi oʻzaro nisbat dinamikasi toʻgʻrisidagi, ilmtalab yuqori texnologiyalarning iqtisodiyotga joriy etilish hajmi toʻgʻrisidagi maʼlumotlar bilan aniqlashtiradi, toʻldiradi.

Milliy iqtisodiyotning mintaqaviy (hududiy) tarkibi ishlab chiqarishni, ayniqsa, ijtimoiy infratuzilmani joylashtirish va kompleks rivojlantirishda muhim proporsiyalarni oʻzida aks ettiradi.

Institutsional tarkib ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish shakllarini, shuningdek, xoʻjalik yurituvchi subyektlar xatti-harakatining madaniy qadriyatlar meʼyorlari va stereotiplarini tavsiflaydi.

Iqtisodiyotning ijtimoiy tarkibi muhim iqtisodiy belgilar (mulk, daromadlar, malaka va boshqalar) boʻyicha guruhlashtirilgan ijtimoiy guruhlar toʻplamini, shuningdek, ularning nisbiy dinamikasini oʻzida aks ettiradi.

Yuqorida keltirilgan barcha iqtisodiy tarkib turlari iqtisodiyotning bir butunligini shakllantiradi, uning unsurlarining oʻzaro taʼsirini ifodalaydi. Bu unsurlar oʻz xarakteriga

ko'ra tabiiy, texnologik, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, psixologik, sotsio-madaniy, tarixiy, konfessional bo'ladi.

Iqtisodiy tizimning tarkibiy elementlari uning faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi jarayonida zaruriy proporsiyalarni saqlab turadi. Oqilonalik (optimallik) mezonlari bo'yicha makroiqtisodiy proporsiyalarga baho berish mamlakat iqtisodiy faoliyatining samaradorligi va iqtisodiyot tarkibida yuz bera-yotgan o'zgarishlar yo'nalishlari to'g'risida mulohaza yuritish imkonini beradi.

Ta'kidlash joizki, asosiy makroiqtisodiy proporsiyalar milliy darajada shakllanadi. Ular yalpi ichki mahsulot va uning unsur-lari: pirovard iste'molga sarflangan xarajatlar, yalpi jamg'arish va tashqi savdo saldosi harakatini tavsiflaydi. Agar takror ish-lab chiqarish nisbatlari pirovard iste'mol foydasiga o'zgarsa, u holda asosiy kapitalga, uni yangilashga kiritiladigan inves-titsiyalar hajmi kamayadi. Bu, o'z navbatida, ishlab chiqarish-ning texnologik bazasi rivojlanishining pasayishiga, istiqbolda esa ishlab chiqarish salohiyatining pasayishiga olib keladi. Bu-ning oqibatida pirovard iste'mol hajmi qisqaradi. Takror ishlab chiqarish jarayonining mo'tadil harakati, eksport va importga mo'ljallangan tarmoqlar rivojlanishi dinamikasi eksport va im-port o'rtasidagi nisbatga, ularning hajmi va tarkibiga bog'liq. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bugungi kunda milliy iqti-sodiyot rivojlanishining ustuvor yo'nalishlaridan biri eksportga yo'nalgan bo'lishi kerak.

Milliy iqtisodiyot, iqtisodiy siyosat uchun ishlab chiqarish tarkibi va iste'mol tarkibi o'rtasidagi, shuningdek, ishlab chiqa-rish va iste'mol o'rtasidagi proporsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqarish hajmida ishlab chiqarish vositalarining ustun o'ringa ega bo'lishi natijasida vujudga keladigan nomu-tanosiblik, sobiq Ittifoq tajribasi ko'rsatganidek, aholi turmush darajasining pasayishiga olib keladi. Yuqori texnologiyali tar-

moqlarga nisbatan progressiv proporsiyalarga amal qilish lozim, chunki iqtisodiyot tarkibi material va energiya sig'imi yuqori ishlab chiqarish turlari evaziga «og'irlashmoqda». Iste'mol tarkibi tovarlar, xizmatlar, oziq-ovqat mahsulotlarining oqilona iste'mol me'yorlari yo'nalishida o'zgarib borishi lozim.

Makroiqtisodiy darajada real va pul sektori o'rtasidagi nisbatlarni tartibga solish alohida ahamiyat kasb etib, ular bir-biriga nisbatan qarama-qarshi birlikda joylashgan bo'ladilar. Ushbu sektorlarning biriga yetarli darajada baho bermaslik yoki ahamiyatining pasaytirilishi tarkibiy nomutanosibliklarga va aholi turmush darajasining pasayishiga olib keladi. Jami talab va jami taklif o'rtasida muvozanatli nisbatga erishish zaruriyati aynan shu holat bilan tushuntiriladi.

Birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi sektorlar o'rtasidagi, shuningdek, tovar va xizmatlar ishlab chiqarish o'rtasidagi nomutanosibliklar milliy iqtisodiyot uchun jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Iqtisodiyot tarkibida xizmatlar ulushining o'sib borishi bugungi kunda ijobiy holat hisoblanadi.

### **3.4. Makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sish**

Makroiqtisodiy barqarorlikka erishish iqtisodiy o'sishning, iqtisodiy inqirozni bartaraf etishning muhim sharti hisoblanadi. Odatda, makroiqtisodiy barqarorlik deganda iqtisodiy inqirozga barham berish, iqtisodiy taraqqiyotni ifodalovchi ko'rsatkichlarni muayyan darajada saqlab turish, umuman olganda, iqtisodiyotni sog'lomlashtirish tushuniladi.

Makroiqtisodiy barqarorlikka qanday qilib erishiladi? Iqtisodiy adabiyotlarda makroiqtisodiy barqarorlikka erishish bo'yicha ikki xil nazariy yondashuv shakllangan: yangi klassik va keynscha.

Yangi klassiklar bozor iqtisodiyotining o'zi makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi va unga davlatning aralashuvi shart emas, deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, mehnat bozori, narx va jami xarajatlarning davlat tomonidan tartibga solinishi makroiqtisodiy barqarorlikka zarar yetkazadi.

Keynschilar esa makroiqtisodiy barqarorlikka faqat bozor mexanizmi orqali erishish mumkinligini rad etadilar.

Keynschilar makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun ichki narxlarni muayyan chegarada ushlab turish, milliy valuta qadrini mustahkamlashga qaratilgan pul-kredit va moliya siyosati tadbirlarini amalga oshirish, ishlab chiqarishni o'stirish va bandlikni ta'minlash uchun qulay makroiqtisodiy muhitni barpo etish lozim deb hisoblaydilar.

Qanday bo'lganda ham har bir mamlakat uchun makroiqtisodiy barqarorlik zarur. Makroiqtisodiy barqarorlik kelgusida iqtisodiy o'sish va yuksalish uchun muhim bosqich hisoblanadi. Bu maqsadga erishish uchun, avvalo, YaIM ishlab chiqarishning pasayishi to'xtatiladi. Keyinchalik YaIM va yalpi sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi bo'yicha barqaror o'sish ta'minlanadi. Agar YaIM ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlari aholi soni o'sish sur'atlaridan ustun bo'lishiga erishilsa, yanada yaxshi bo'ladi. Ijtimoiy ishlab chiqarish hajmining o'sishi iqtisodiyotda band bo'lganlar sonining oshishi, inflatsiyaning past darajasi, YaIM hajmida jamg'arish va investitsiya ulushining o'sishi va boshqa sifat ko'rsatkichlar bilan birga kechishi lozim.

Makroiqtisodiy barqarorlikka erishish kelgusida iqtisodiy o'sish uchun muhim zamin hozirlaydi. Har qanday milliy iqtisodiyot kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, ya'ni o'tgan yilga nisbatan ko'proq mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Yildan yilga aholi sonining ko'payishi, kishilar ehtiyojlarining ortib borishi kengaytirilgan

ishlab chiqarishni shart qilib qo'yuvchi asosiy sabablardan hisoblanadi. Aynan kengaytirilgan takror ishlab chiqarish dinamikasi iqtisodiy o'sishning mohiyatini tashkil etadi.

Jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa barcha muammolarni hal qilishning asosiy yo'li – bu milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va iqtisodiy o'sishga erishishdir. Aholi farovonligining oshib borishi ham pirovard natijada iqtisodiy o'sish darajasi va sur'atlariga bog'liq.

Iqtisodiy o'sish bevosita yalpi ichki mahsulot hajmining mutlaq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlarning har bir birligi hisobiga o'sishi, sifatining yaxshilanishi va tarkibining takomillashuvida ifodalanadi. Iqtisodiy o'sishni YaIM mutlaq hajmining ortishi orqali yoki aholi jon boshiga real YaIM miqdorining ortishi orqali o'lchash uning qanday maqsadda amalga oshirilayotganiga bog'liq bo'ladi. Odatda, biror-bir mamlakat iqtisodiy o'sishini YaIM mutlaq hajmining ortishi orqali o'lchash uning iqtisodiy salohiyatini baholashda, aholi jon boshiga real YaIM miqdorining ortishi orqali o'lchash esa mamlakatdagi turmush darajasini taqqoslashda qo'llaniladi.

Iqtisodiy o'sishni YaIM mutlaq hajmining ortishi orqali o'lchashda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\Delta YaIM = \frac{YaIM_1}{YaIM_0} \times 100$$

Bu yerda:  $YaIM_1$  – joriy yildagi real yalpi ichki mahsulot hajmi;

$YaIM_0$  – o'tgan yildagi real yalpi ichki mahsulot hajmi.

Iqtisodiy o'sishni aholi jon boshiga real YaIM hajmining ortishi orqali o'lchashda esa quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\Delta \text{Aholi jon boshiga YaIM} = \frac{\text{Aholi jon boshiga } YaIM_1}{\text{Aholi jon boshiga } YaIM_0}$$



Ta'kidlash lozimki, iqtisodiy o'sishga baho berishda har ikkala ko'rsatkich ham muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy o'sish muammosini o'rganish natijasida real ishlab chiqarish tizimi duch keluvchi – cheklangan resurslardan samarali foydalanish muammosiga yechim topiladi. Demak, iqtisodiy o'sish omillari va ular samaradorligini o'rganish hamda tahlil qilish jamiyat oldidagi eng dolzarb muammolardan biridir.

Iqtisodiy o'sishga doir muammolardan biri uzluksiz va barqaror iqtisodiy o'sishga erishish hisoblanadi. Barqaror iqtisodiy o'sish deganda, asosiy ko'rsatkichlarning qator yillar davomida uzluksiz o'sishi tushuniladi. Agar YaIM ning o'sishi uch yil davomida muttasil kuzatilsa, iqtisodiy o'sish barqaror hisoblanadi.

Iqtisodiy o'sishning tashqi va ichki omillari mavjud. Ichki omillar o'ziga moddiy ne'mat va xizmatlar ishlab chiqarish va iste'molni qamrab oladi. Ular jumlasiga aholi va mehnat resurslari, tabiiy resurslar, innovatsiya va ishlab chiqarish imkoniyatlari, investitsiyalar, institutsional iqlim va boshqalar kiradi.

Iqtisodiy o'sishning tashqi omillariga xalqaro mehnat taqsimoti, globallashuv jarayonlari kiradi. Keyingi omil, ayniqsa, ziddiyatli kechadi. Globallashuv milliy iqtisodiyot qiyofasiga jiddiy o'zgarishlar kiritadi. Bu jarayonda, bir tomondan, ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi kuchayadi, mamlakatga arzon tovarlarning kirib kelish hajmi ortadi, natijada milliy iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida iqtisodiy o'sishga to'siq paydo bo'ladi. Ikkinchi tomondan, xorijdan zamonaviy texnologiya, investitsiya va kreditlarni jalb qilish imkoniyatining oshishi iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi.

Albatta, barqaror iqtisodiy o'sishga barcha omillardan samarali foydalanish evaziga erishiladi. Shu bilan birga, yangi texnologik sharoitda ulardan ustuvorlarini e'tiborga olish muhim ahamiyatga ega. Shu o'rinda xalqaro mehnat taqsimoti


va ixtisoslashuvining chuqurlashuvi natijasida globallashuv jarayonlarining keng quloqch yoyishi sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda tabiiy resurslar omilining o'rni va ahamiyati pasayib borayotganligini ta'kidlash lozim. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, boy resurslarga ega bo'lgan mamlakatlar amalda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yuqori nuqtasiga erisha olmaydilar. Ular tabiiy resurslarni xomashyo yoki yarimtayyor mahsulot sifatida sotish yo'liga o'tib oladilar. Shu vaqtning o'zida tabiiy resurslar taqchil mamlakatlar (Yaponiya, Janubiy Koreya, Isroil, Shveysariya) resurslarni tejaydigan texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish, ilmtalab ishlab chiqarish, qayta ishlash sanoatining ilg'or tarmoqlarini rivojlantirishga erishadilar. Masalan, Rossiyadagi neft, O'zbekistondagi paxta eyforiyasi esa boshqa sohalarni rivojlantirishga to'sqinlik qilgan edi.

Shunday qilib, iqtisodiy o'sishning muhim sharti tabiiy resurslarning mavjudligi emas, balki ulardan samarali foydalanish usullarini maqsadga muvofiq uyg'unlashtirishga erishish orqali ishlab chiqarishni takomillashtirib borish hisoblanadi. Ekstensiv iqtisodiy o'sish o'z imkoniyatlarini borgan sari tugallab borayotganligini unutmazlik lozim. Shu sababli iqtisodiy o'sishning intensiv usulidan ustun darajada foydalanish, fan-texnika taraqqiyotining eng yangi natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish lozim. Zero, bilimlar iqtisodiyoti sharoitida, axborot asrida jadal iqtisodiy o'sishni ta'minlashning asosini inson kapitali, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularni qo'llab-quvvatlash, innovatsiya resurslaridan samarali foydalanish, investitsiyalarni ilmtalab va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish tarmoqlariga jalb qilish, xalqaro mehnat taqsimotiga faol integratsiyalashuv kabi omillar tashkil etmoqda.

Mustaqillik yillarida iqtisodiy o'sish O'zbekistonda dastlab 1996-yilda qayd etildi. Shu yili mamlakatimizda MDH mam-

lakatlari orasida birinchi bo‘lib YaIM hajmining o‘tgan yilga nisbatan ko‘p bo‘lishiga erishildi.

### O‘zbekistonda yalpi ichki mahsulotning yillar davomida o‘shish dinamikasi, foizda



Makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash sohasida erishilgan ijobiy o‘zgarishlarni mustahkamlashda 1997-yil alohida o‘rin tutadi. Aynan mazkur yilda YaIM hajmining o‘shish sur‘atlari aholi soni o‘shish sur‘atlariga nisbatan yuqori bo‘lishiga erishildi. Agar 1997-yilda YaIM hajmi 1996-yilga nisbatan 5,2 foizga o‘sgan bo‘lsa, aholi sonining qo‘shimcha o‘shish sur‘ati 1,8 foizni tashkil etdi. Bu ijobiy tendensiyalar 1998–2000-yillarda yanada mustahkamlandi va mazkur yillarda YaIMning qo‘shimcha o‘shish sur‘ati 4–4,5 foizni tashkil etdi. Keyingi yillarda YaIMning qo‘shimcha o‘shish sur‘atlari quyidagicha bo‘ldi: 2000–2003-yillarda 3,8–4,2 foiz, 2004–2006-yillarda 7–7,7 foiz, 2007–2008-yillarda 9–9,5 foiz, 2009–2014-yillarda 8–8,5 foiz, 2015–2016-yillarda 7,8–7,9 foiz.

2007-yilning oxirida AQSHdan boshlanib, keyinchalik jahonning barcha mamlakatlarini qamrab olgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan

ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash yo'lidagi sa'y-harakatlarimiz uchun yana bir sinov vazifasini o'taganini alohida qayd etish lozim. Bu sinovdan O'zbekiston munosib tarzda o'tdi. Chuqur o'ylangan holda ishlab chiqilgan hamda izchil ravishda olib borilgan samarali iqtisodiy siyosat natijasida shakllangan omillar shunday murakkab sharoitda ham YaIMning yuqori va barqaror o'sish sur'atlari saqlanib qolishini ta'minladi. Global moliyaviy inqirozga qarshi samarali choralar ko'rilishi natijasida O'zbekistonda YaIMning qo'shimcha o'sish sur'atlari 2008-yilda 9,0 foizni, 2009-yilda esa 8,1 foizni tashkil etdi va bu jahondagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biri bo'ldi (2009-yilda MDH mamlakatlari bo'yicha o'rtacha 6,7 foiz hajmidagi iqtisodiy pasayish kuzatildi). Qator yillar davomida kuzatilgan budjet profitsiti, rasmiy zaxiralar darajasining yuqoriligi, davlat qarzining kamligi, barqaror bank tizimi va xalqaro moliya bozorlaridan qarz olishga ehtiyotkorlik bilan yondashish mamlatkatni global inqirozning bevosita oqibatlaridan himoya qildi. So'nggi yillarda O'zbekistonda iqtisodiy o'sish sur'atlari 8 foiz atrofida barqarorlashdi.

### **Qisqacha xulosalar**

1. MHT – mamlakat, uning mintaqalari va sektorlari iqtisodiy faoliyati natijalarini o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar tizimi asosida kompleks tadqiq etish uchun qo'llaniladigan iqtisodiyotning o'ziga xos modeli hisoblanadi.

2. MHT «butun iqtisodiyotning buxgalteriya hisobi» deb ham yuritiladi. Bunga sabab shuki, buxgalteriya hisobining ba'zi muhim tamoyillari MHTda ham qo'llaniladi va ularning maqsadi bir-biriga muvofiq keladi.

3. Milliy hisoblar tizimi yordamida muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlar aniqlanadi. MHTning eng asosiy ko'rsat-

kichlari – yalpi ichki mahsulot (YaIM), yalpi milliy mahsulot (YaMM) yoki yalpi milliy daromad (YaMD) va sof milliy mahsulot (SMM) hisoblanadi.

4. Yalpi ichki mahsulot – MHTning eng asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib, mamlakat iqtisodiy birliklari – rezidentlarning ma‘lum davr ichida (ko‘pincha bir yilda)gi ish faoliyatining natijalarini ifodalaydi. U pirovard iste‘molning bozor baholarida, ya‘ni xaridor tomonidan to‘lanadigan (tovarlarga solinadigan soliqlar va barcha savdo-transport ustamalarini ham o‘z ichiga oladigan) baholarda hisoblanadi.

5. Yalpi ichki mahsulot uch xil usulda aniqlanadi:

- ishlab chiqarish usuli;
- taqsimlash usuli;
- pirovard foydalanish usuli.

6. Milliy iqtisodiy tizim komponentlarining tuzilishi sohalar, tarmoqlar, ishlab chiqarish majmualarini tashkil etsa, ular o‘rtasidagi munosabat, ularning o‘zaro ta‘siri milliy iqtisodiyot tarkibini ifodalaydi. Tarkibiy nisbatlar esa proporsiyalarni tashkil etadi.

7. Makroiqtisodiy barqarorlik deganda iqtisodiy inqirozga barham berish, iqtisodiy taraqqiyotni ifodalovchi ko‘rsatkichlarni muayyan darajada saqlab turish, umuman olganda, iqtisodiyotni sog‘lomlashtirish tushuniladi.

8. Iqtisodiy o‘shish bevosita real yalpi ichki mahsulot hajmining mutlaq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlarining har bir birligi hisobiga o‘shishi, sifatining yaxshilanishi va tarkibining takomillashuvida ifodalanadi.

9. Mustaqillik yillarida dastlabki iqtisodiy o‘shish O‘zbekistonda 1996-yilda qayd etildi. Shu yili YaIMning o‘shishi 1,6 foizga teng bo‘ldi. 1997-yilda mustaqillik yillarida birinchi marta YaIM hajmining o‘shish sur‘atlari aholi soni o‘shish sur‘atlariga nisbatan yuqori bo‘lishiga erishildi.

10. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida O‘zbekiston yuqori o‘shish sur‘atlarini saqlab qolgan jahonning kam sonli mamlakatlaridan biri bo‘ldi.

## **Asosiy atamalar va tushunchalar**

Milliy hisoblar tizimi, xalq xo‘jaligi balansi, uy xo‘jaligi, iqtisodiy operatsiyalar, transfert; institutsional sektor, iqtisodiy ishlab chiqarish, yalpi ichki mahsulot, yalpi milliy mahsulot, daromad, rezident, YaIM deflatori, proporsiya, mutanosiblik, makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy o‘shish.

### **Nazorat savollari**

1. Milliy hisoblar tizimi nima? Nima uchun postsovet mamlakatlari MHTga o‘tishlari zarur bo‘lib qoldi?

2. Milliy hisoblar tizimining asosiy xususiyatlari nimada va uni nima uchun «butun iqtisodiyotning buxgalteriya hisobi» deb ataydilar?

3. 1993-yilda qabul qilingan MHTda xo‘jalik yurituvchi subyektlar qanday institutsional sektorlarga ajratilgan?

4. YaIM va YaMM nima? Ular o‘rtasidagi farqli jihatlar nimalardan iborat? YaIM deflatori qanday aniqlanadi?

5. Milliy daromadning mohiyati nimada? U qanday hisoblanadi?

6. Makroiqtisodiy proporsiyalar deganda nimani tushunasiz va nima uchun unga amal qilish lozim?

7. Makroiqtisodiy barqarorlik nima va nima uchun unga erishish kerak?

8. Iqtisodiy o‘shish qanday aniqlanadi?

9. O‘zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash sohasida dastlabki ijobiy natijaga qachon erishildi?

10. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida O‘zbekiston qanday omillar evaziga yuqori iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini saqlab qoldi?

---

## IV b o b

# O‘ZBEKISTONNING DEMOGRAFIK SALOHIYATI

### 4.1. Mamlakatning iqtisodiy salohiyati tushunchasi

Iqtisodiy salohiyat tushunchasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishish maqsadida foydalanish mumkin bo‘lgan barcha manbalar, imkoniyatlar, vositalar va zaxiralarni anglatadi. Makro darajada yalpi iqtisodiy salohiyat deganda ichki va tashqi bozorlar talabiga muvofiq milliy iqtisodiyotning maksimal mumkin darajadagi tovar va xizmatlar ishlab chiqarish qobiliyati tushuniladi.

Ijtimoiy ishlab chiqarish va iste‘molning texnik darajasi, hajmi va tarkibi, milliy iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning sifati, shuningdek, mamlakat hududi va chet ellarda jamg‘arilgan qiymatlar, mehnat va tabiat resurslari mamlakat yalpi iqtisodiy salohiyatining rivojlanish darajasini belgilaydi.

Sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, transport va aloqa sohalarining ishlab chiqarish quvvatlari, ishlab chiqarish, ijtimoiy va ekologik infratuzilma, mehnat resurslari, shu jumladan malakali kadrlar iqtisodiy salohiyatni belgilovchi omillar bo‘lib hisoblanadi.

Shunday qilib, O‘zbekistonning yalpi iqtisodiy salohiyatini tashkil etuvchi muhim omillar quyidagilardir:

- aholi va mehnat resurslari;
- tabiiy resurslar;

- ilmiy, ilmiy-texnika va innovatsion resurslar;
- ishlab chiqarish resurslari;
- investitsiya resurslari;
- tashqi iqtisodiy resurslar;
- ekologik resurslar.

Mamlakatning yalpi iqtisodiy salohiyatini baholash uchun quyidagi ko‘rsatkich – indikatorlardan foydalaniladi:

- aholi soni, uning yosh tarkibi, aholining tabiiy va mexanik harakati;

- mehnat resurslari, ularning tarkibi, bozor iqtisodiyoti va fan-texnika taraqqiyoti talablariga muvofiq ishchi kuchi va malakali kadrlar bilan ta’minlanganlik;

- inson salohiyatining rivojlanish indeksi;

- asosiy ishlab chiqarish fondlarining qiymati, tarkibi, ularni takror ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari;

- yalpi milliy mahsulot, yalpi ichki mahsulot, ularni aholi jon boshiga ishlab chiqarish (rivojlangan mamlakatlar bilan taqqoslash);

- sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish, yuk va yo‘lovchilar tashish hajmlarining o‘sish imkoniyatlari;

- ilmiy asoslangan me’yorlar hamda rivojlangan mamlakatlar taqqoslanganda aholi jon boshiga moddiy ne’matlar va xizmatlarni iste’mol qilish darajasi;

- mineral xomashyo, yoqilg‘i-energetika, suv va yer resurslarining zaxiralari va ulardan foydalanish darajasi;

- ekotizimning ekologik sig‘imi, atrof-muhitning ifloslanish darajasi.

Iqtisodiy salohiyat nafaqat resurs va ishlab chiqarish quvvatlarining mutlaq miqdoriga, balki ulardan foydalanish darajasiga ham bog‘liq. Yalpi iqtisodiy salohiyatning yuqori darajasi-



ga rivojlangan ishlab chiqarish kuchlari va bozor iqtisodiyotiga erishgan mamlakatlarga ega.

Yalpi iqtisodiy salohiyat rivojlanishining asosiy qonuniyati uning barcha qismlarini maqsadga muvofiq va har tomonlama qo‘shib olib borishdir, bu holat aholi turmush darajasini oshirishga olib keladi.

Yalpi iqtisodiy salohiyat tarkibida tabiiy resurs imkoniyatlari alohida o‘rin tutadi. Tabiiy shart-sharoitlar va resurslar iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan hisoblanadi. Yerning tabiiy holatidan, tuproq unumdorligi, iqlim xususiyatlari, o‘simlik va hayvonot dunyosi, daryolar, ko‘llar, yer osti boyliklari, havoning tozaligi ko‘p jihatlardan har qanday mamlakatning rivojlanishini, kishilarning turmush farovonligini belgilaydi.

Tabiat yoki tabiiy resurslar tabiat olamining komponentlari bo‘lib, ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishining hozirgi bosqichida ulardan ishlab chiqarish vositalari va iste‘mol predmetlari sifatida foydalaniladi yoki foydalanish mumkin. O‘zining moddiy shakliga ko‘ra ular tabiatning tanasi va kuchini tashkil etadi.

Tabiat resurslari mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishida tabiiy asos bo‘lib xizmat qiladi, shuning uchun ham tabiiy resurs imkoniyatlarining mohiyatini ochib berish va ularni iqtisodiy baholash muhim ahamiyatga ega.

Tabiiy resurs imkoniyatlari deganda, hozirgi texnik va ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlar doirasida foydalanilayotgan yoki xo‘jalik faoliyatiga tortilishi mumkin bo‘lgan jami tabiiy resurslar tushunilishi lozim.

Tabiiy resurs imkoniyatlarining hajmi – bu tabiiy resurslarning alohida turlari – yer, suv, mineral-xomashyo va boshqalarning umumiy summasi bilan belgilanadi. Buning uchun ball tizimi, qiymat ko‘rsatkichlari va mutlaq energetik imkoniyatlardan foydalanish mumkin. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tabiiy

resurs imkoniyatlarini qiymat shaklida baholash muhim ahamiyatga ega. Ammo tabiat resurslarining barcha turlarini yagona metodologiya asosida iqtisodiy baholashni amalga oshirish murakkab masala. Shuning uchun ham tabiiy resurs imkoniyatlari hajmini natural-moddiy ko'rsatkichlar (zaxiralar miqdori, maydonning mahsuldorligi) miqdor jihatdan to'liqroq ifodalaydi.

Tabiiy resurs imkoniyatlari – mamlakat milliy boyligining muhim qismidir. MDH davlatlari bilan taqqoslaganda O'zbekiston tabiiy resurslarga ancha boy.

## 4.2. Aholining tabiiy o'sishi

Aholi va mehnat resurslarini takror ishlab chiqarish bo'yicha O'zbekiston noyob mintaqalar jumlasiga kiradi. Demografik, ya'ni aholi o'sishining o'ziga xosligi aholi va mehnat resurslarining tez sur'atlarda o'sayotganligi bilan tavsiflanadi.

O'zbekiston doimiy aholisi soni dinamikasi (ming kishi)

Yillar	Aholi soni	Yillar	Aholi soni
1865	3320	1990	20322
1897	3730	1995	22562
1913	4366	2000	24654
1918	4366	2005	26100
1924	4258	2010	28500
1939	6440	2013	29993
1950	6264	2014	30492,8
1959	8119	2015	31025,5
1970	11799	2016	31575,3
1980	15757	2017	32120,5

XIX asr oxirida O'zbekiston hududida 3730 ming aholi yashagan. Demografik vaziyatga urushlar, tabiiy ofatlar, ocharchilik, epidemiya juda katta ta'sir ko'rsatadi. 1924-yilda bu

yerda 1913-yilga nisbatan kam aholi istiqomat qildi. Aholi soni bo'yicha 1939-yil darajasiga esa faqat 1950-yilning o'rtalariga kelib erishildi. Aholi tabiiy qo'shimcha o'sishining urushgacha sur'atlari bilan (yiliga 2,5 foiz) uning soni 1950-yillarda 10 million kishiga yetishi kerak edi. Ammo bunga XX asr 60-yillarining ikkinchi yarmida erishildi. Aholi soni 1959–1970-yillarda 15,3 foizga o'sdi. Keyingi yillarda ham aholining o'sish sur'atlari yuqori bo'ldi. 1970–1990-yillarda respublika aholisining o'sishi 30,4 foiz, o'rtacha yillik qo'shimcha o'sish sur'atlari 3,0 foizdan iborat bo'ldi.

Bunday qo'shimcha o'sish sur'atlari o'tgan asrning 80-yillarida ham to'la saqlandi. Aholi umumiy o'sishi 29,0 foiz bo'lib, o'rtacha yillik qo'shimcha o'sish sur'atlari 3,0 foizga yaqin bo'ldi.

2017-yilning boshida O'zbekiston aholisining umumiy soni 32 mln. 120 ming kishidan oshdi. Shundan 16 mln. 252 ming kishi (50,6 foizi) shaharda, 15 mln. 868 ming kishi (49,4 foizi) qishloqda yashaydi.

Tug'ilishning o'sishi mamlakatning Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo va Surxondaryodan tashqari barcha viloyatlarida kuzatiladi. Nisbatan yuqoriroq o'sish Farg'ona va Toshkent viloyatlariga muvofiq keladi. Tug'ilishning eng past darajasi esa Toshkent shahriga to'g'ri keladi (18,2 promille).

O'zbekistonda aholi tabiiy o'sishining yuqori sur'atlari aholi zichligi (1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni) ko'rsatkichlarida ham o'z ifodasini topadi. O'zbekistonda aholi zichligining o'sishi uning barcha ma'muriy-hududiy birliklarida kuzatilmogda. Ayniqsa, bu ko'rsatkich Farg'ona vodiysi viloyatlarida, Xorazm, Samarqand va Toshkent viloyatlarida ancha yuqori. Respublika bo'yicha keyingi 20 yilda aholi zichligi 1,5 martaga oshdi. Hozirgi paytda mamlakat bo'yicha 1 kv.km.ga 71,5 kishi to'g'ri keladi.

O‘zbekiston aholisining yuqori sur‘atlarda o‘shishi qator omillar bilan izohlanadi. Tug‘ilishning yuqoriligi, o‘limning nisbatan pasaygani, nikohning yuqori darajasi, ajralishning nisbatan kamligi va boshqalar shu omillar jumlasiga kiradi.

O‘zbekistonda aholining tabiiy o‘shishi ijtimoiy-iqtisodiy va demografik xarakterdagi qator tadbirlar bilan rag‘batlantirib kelindi, albatta.

Aholining tabiiy o‘shishi, asosan, qishloq aholisi hissasiga to‘g‘ri keladi. Qishloq joylarda yashovchilar mamlakat aholisining 49,4 foizini tashkil qilgani holda aholi tabiiy o‘shishining 54 foizini bermoqda.

**O‘zbekiston shahar va qishloq aholisi dinamikasi,  
1-yanvar holatiga, mln. kishi**

<b>Yillar</b>	<b>Shahar aholisi</b>	<b>Qishloq aholisi</b>
2000	9,2	15,6
2003	9,4	16,1
2005	9,5	16,6
2010	14,6	13,9
2013	14,4	14,6
2014	15,5	14,9
2015	15,7	15,3
2016	16,0	15,6
2017	16,2	15,9

Aholi respublika bo‘ylab notekis joylashgan. Aholining, asosan, vohalarda to‘planishi sabablarini tog‘, cho‘l, adir iqlimi, tabiiy sharoitning o‘ziga xosligi bilan izohlash mumkin. Cho‘l zonalarida aholi nihoyatda tarqoq. O‘zbekistondagi ba‘zi hududlar (masalan, Andijon, Xorazm viloyatlari) aholisining zichligi jihatidan ko‘plab mamlakatlardan oldinda turadi.

Urbanizatsiya jarayoni ilgari juda sust kechgan bo‘lib, 1980-yildan boshlab shahar va qishloq aholisi o‘rtasidagi nisbat deyarli o‘zgarmasdan keldi. Ammo o‘tgan o‘n yillikning ikkin-

chi yarmidan bu boradagi vaziyat jiddiy o'zgardi. Hozirga kelib shahar aholisi qishloq aholisidan ko'proqni tashkil etadi.

Demografik vaziyatga ta'sir ko'rsatadigan omillardan yana biri, aholi orasidagi o'lim darajasidir. O'zbekistonda o'limning umumiy koeffitsiyenti har 1000 aholi hisobiga 4,9 kishi. Bu MDHga kiruvchi davlatlar orasida eng past ko'rsatkichlardan biri. 1 yoshgacha go'daklar o'limining jiddiy kamaytirilishi bu ko'rsatkichga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Hozirgi paytda 1 yoshgacha go'daklar o'limi har 1000 kishiga 10,7 ga teng bo'lib turibdi.

**O'zbekistonda tug'ilish, o'lim va aholining tabiiy o'sishi**  
(ming kishi)

Yillar	Tug'ilganlar soni	O'lganlar soni	Aholining tabiiy o'sishi	Har 1000 aholi hisobiga, promille		
				Tug'ilganlar	O'lganlar	Tabiiy o'sish
2000	531,0	136,3	394,7	21,5	5,5	16,0
2005	533,5	140,6	392,9	20,5	5,4	15,1
2011	622,8	143,3	479,5	21,2	4,9	16,3
2013	679,5	145,7	533,8	22,5	4,8	17,7
2014	718,0	149,8	568,2	23,3	4,9	18,4
2015	734,1	152,0	582,1	23,2	4,8	18,4
2016	726,2	154,8	571,4	22,8	4,9	17,9

Tug'ilish va o'lim o'rtasidagi tafovut aholining tabiiy o'sish darajasini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich 2000–2016-yillarda sezilarli darajada oshdi. Agar 2000-yilda aholining tabiiy o'sish darajasi 16,0 promilleni tashkil etgan bo'lsa, 2016-yilda bu ko'rsatkich 17,9 promillega teng bo'ldi.

Aholi o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan omillardan yana biri, oila munosabatlarning mustahkamligidir. Bu omil mahal-

liy xalq xususiyatlaridan kelib chiqadi. So‘nggi yillarda, ya’ni 2012–2016-yillarda mamlakatimizda yiliga 296–305 ming atrofida nikohlar qayd etilmoqda. Shu bilan birga, shu davrda ajralishlar soni 17,9–29,3 mingtani tashkil etdi. Bu rivojlangan mamlakatlarga nisbatan olganda ancha past ko‘rsatkichdir. Hozirda 9,3 nikohga bir ajralish to‘g‘ri kelmoqda. Ammo buni ham tabiiy hol deb bo‘lmaydi. Har bir nikohning buzilishi oilaviy fojiaadir.

Nikoh koeffitsiyentining shaharga nisbatan qishloqda yuqoriligini va ajralish koeffitsiyentining qishloqda pastligini qayd etish lozim. Agar har 1000 kishi hisobiga qishloqda 9,6 nikoh to‘g‘ri kelsa, shaharda bu ko‘rsatkich 8,2 ni tashkil etadi. Ajralish koeffitsiyenti qishloqda har 1000 kishiga 0,5 bo‘lsa, shaharda 1,1 dan iborat.

Aholi sonining o‘shishiga aks ta’sir etuvchi boshqa omillar ham bor. Bu – emigratsiyadir. O‘zbekistondan chet elga doimiy yashash uchun ketganlar soni katta emas, shuning uchun ham bu omil aholi umumiy o‘shishiga jiddiy ta’sir ko‘rsata olmaydi. Mahalliy aholi kindik qoni to‘kilgan joyga mehrlil, o‘zga yurtlarga butunlay ko‘chib ketishga moyil emas. Bu holat, umuman, Markaziy Osiyo xalqlarining an’anaviy xususiyatlariga mos tushadi.

Xalq turmush darajasini ko‘tarish faol demografik siyosatsiz mumkin emas. Bunday siyosat respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashni, sog‘lom hayot tarzini rag‘batlantirishni ko‘zda tutadi. Demografik siyosatning amalga oshirilishi aholi salomatligini tubdan yaxshilash, oilani ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, respublika ichida mahalliy aholining migratsion harakatchanligini oshirish, mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash, ish bilan bandlikning ijtimoiy-demografik tomonlarini shakllantirishni taqozo etadi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida

aholining kam ta'minlangan qismini ijtimoiy himoyalash, salomatlik, mustahkam oila, sog'lom avlod, qariyalarni e'zozlash dasturlarining qabul qilinishi va boshqa tadbirlar ana shu maqsadlarni ko'zda tutadi.

### **4.3. Aholi tarkibi**

Aholi tarkibini turli tomonidan, ya'ni yoshi, jinsi, qaysi ijtimoiy qatlamga mansubligi, millati, ma'lumoti bo'yicha o'rganish mumkin.

Aholi jinsiy tarkibiga urushlar jiddiy o'zgarishlar kiritadi. 1917-yil arafasida O'zbekiston aholisi tarkibida erkaklar – 52,9, ayollar – 47,1 foiz edi. Deyarli shunday tarkib Ikkinchi jahon urushiga qadar saqlandi. Urush yillari va uning oqibatida erkaklar va ayollar soni nisbati bo'yicha nomutanosiblik boshqa tomonga o'zgardi. Urushning aks sadosi u tugagandan keyin ham davom etdi. 1959-yilga kelib respublika aholisi tarkibida ayollarning ulushi 52,0, erkaklarniki esa 48,0 foizni tashkil etdi. Keyingi yillarda aholi tarkibida erkaklar va ayollar soni nisbatining baravarlashuvi jarayoni bormoqda. 2016-yilda aholi tarkibida erkaklar – 50,2, ayollar 49,8 foizni tashkil etdi.

2016-yil ma'lumotlariga ko'ra, mamlakat aholisi tarkibida 15 yoshgacha bo'lganlar (15 yosh bunga kirmaydi) 28,5 foizni, 25 yoshgacha bo'lganlar esa 46,7 foizni tashkil etmoqda. Shuningdek, jami aholining 41,8 foizi 25 yoshdan 54 yoshgacha bo'lganlardan iborat.

Aholi umumiy sonida bolalar, o'smirlar va yoshlarning umumiy salmog'i 66 foiz ya'ni respublika aholisining 2/3 qismini tashkil etadi.

Mamlakatimiz aholisining o'rtacha yoshi 28,5, ayollarniki 29,1, erkaklarniki 27,8 yoshdan iborat. 2016-yil ma'lumotlariga ko'ra, mamlakat aholisining mehnatga layoqatli yoshdan kichik bo'lgan qismi qariyb 9 mln. 668 ming kishini (30,1

foiz), mehnatga layoqatli yoshdagilar 19 mln. 432 ming kishini (60,5 foiz) va mehnatga layoqatlilik yoshidan yuqorilar 3 mln. 19 ming kishini (9,4 foiz) tashkil etmoqda. Bu mamlakatning mehnat resurslariga boyligini bildiradi.

Aholi tarkibiga jins va yosh jihatidan yondashish katta ahamiyatga ega, chunki mehnat resurslari va aholini takror ishlab chiqarish xuddi ana shu jihatlarga bog'liq.

Aholi tarkibini ularning turarjoylariga qarab o'rganish ham muhim ahamiyatga ega. 2017-yilning boshida O'zbekistonda 50,6 foizdan ko'proq aholi shaharlarda istiqomat qildi. Bu ko'rsatkich, ayniqsa, Toshkent, Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarida yuqori. Keyingi yillarda respublikamizda bu ko'rsatkich ancha barqarorlashdi. Bu shundan dalolat beradiki, mahalliy aholi urbanizatsiya (shaharlashtirish)ga moyillik ko'rsatmoqda.

Aholining ijtimoiy tabaqasi va ish bilan ta'minlanish muammosi o'rtasida yaqin bog'liqlik bor. 1917-yil arafasida O'zbekiston hududida aholi umumiy miqdorida ishchi va xizmatchilar 5 foiz, dehqonlar – 74,6, qolgan ijtimoiy guruhlar – 20,4 foizga edi.

Agar 1940-yilda iqtisodiyotda band bo'lganlarning 34,2 foizini ishchi va xizmatchilar tashkil etgan bo'lsa, 2010-yilga kelib, bu ko'rsatkich 70 foizdan oshdi. Qishloq xo'jaligida band bo'lganlar soni esa sezilarli darajada kamaydi.

Aholining ta'lim (ma'lumot) bo'yicha tarkibi ham takomillashmoqda. Ish bilan band bo'lgan kishilarning umumta'lim darajasi o'smoqda. Hozir band aholining qariyb har uchtasidan biri oliy va o'rta maxsus ma'lumotga ega. Mutaxassislarning yarmidan ko'prog'i iqtisodiyotning ishlab chiqarish tarmoqlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Agar aholining milliy tarkibini tahlil qiladigan bo'lsak, uning asosiy qismini (83,4 foiz) o'zbeklar tashkil etadi. Un-



dan keyingi o‘rinlarda tojiklar, qozoqlar, ruslar, qoraqalpoqlar turadi. Hammasi bo‘lib respublikada 100 dan ortiq millat va elatlar istiqomat qiladi.

#### 4.4. Mehnat resurslari va ulardan foydalanish

Mehnat resurslarining manbai mamlakat aholisidir. Aholining faqat mehnatga yaroqli qismigina mehnat resurslari hisoblanadi. O‘zbekistonda mehnat resurslariga 16 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan erkaklar va 16 yoshdan 55 yoshgacha ayollar kiritiladi. Ular mamlakat aholisining yarmidan ko‘prog‘ini tashkil etadi.

2016-yilda iqtisodiy faol aholi soni 14 mln. 27 ming kishidan oshiqni tashkil etdi. Iqtisodiy faol aholining 45,3 foizini ayollar, 54,7 foizini erkaklar tashkil etmoqda.

Agar iqtisodiyotda band bo‘lganlar 2016-yilda 13 mln. 298 ming kishidan ortiqroq bo‘lsa, shundan 45,7 foizi ayollardan va 54,3 foizi erkaklardan iborat.

#### Mulk shakllari bo‘yicha ish bilan band aholi soni dinamikasi

	Ming kishi			Foiz		
	2000	2010	2016	2000	2010	2016
Iqtisodiyotda jami band bo‘lganlar	8983	11628,4	13298,4	100	100	100
Shu jumladan:						
Davlat sektorida	2161	2407,1	2353,8	24,1	20,7	17,7
Nodavlat sektorida	6822	9221,3	10944,6	75,9	79,3	82,3
Shundan:						
Fuqarolarning xususiy mulkchiligida	4297	8023,3	9720,8	47,8	69,0	73,1

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, o‘tgan davr mobaynida iqtisodiyotda band bo‘lganlar soniga parallel ravishda nodavlat sektorida band bo‘lganlar, ular orasida esa fuqarolar xususiy mulkchiligida band bo‘lganlar soni muttasil oshdi.

Agar 2000-yilda O‘zbekistonda jami iqtisodiyotda band bo‘lganlarning 75,9 foizi nodavlat sektorida band bo‘lgan bo‘lsa, 2016-yilga kelib bu ko‘rsatkich 82,3 foizga yetdi. Fuqarolarning xususiy mulkchiligida band bo‘lganlarning ulushi bu davrda 47,8 foizdan 73,1 foizgacha o‘ydi.

Milliy iqtisodiyotda band bo‘lganlarning 2016-yilda 13,6 foizi sanoatda, 27,7 foizi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida, 10,9 foizi savdoda, 8,3 foizi ta‘lim sohasida va qolgan qismi boshqa tarmoqlarida band.

Ish bilan band aholi tarkibiga:

– mehnat shartnomasiga muvofiq yollanib ishlayotganlar, shuningdek, to‘liqsiz ish kuni davomida yoki uyida, yoki vaqtincha ish haqi olish sharti bilan ishlayotganlar;

– betoblik, ta‘til, malaka oshirish, qayta tayyorlash, ishlab chiqarishning to‘xtatilishi sababli o‘z ish joyida vaqtincha bo‘lmasdan, qonunchilikka muvofiq ish joyi saqlanadigan xodimlar;

– o‘z faoliyatini qonunchilik doirasida olib boradigan ijtimoiy birlashmalar va diniy tashkilotlarda ishlovchilar;

– Qurolli Kuchlar, Milliy xavfsizlik va ichki ishlar organlari va qo‘shinlarida xizmat qilayotganlar, shuningdek, muqobil xizmatdagilar;

– o‘zini mustaqil ish bilan ta‘minlaydigan tadbirkorlar, fermerlar, dehqon xo‘jaligida ishlaydiganlar, bevosita mol boqish, chorvachilik va boshqa qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqaradigan va sotuvini tashkil qiladiganlar, shuningdek, yuqoridagi toifadagi fuqarolarning ishlab chiqarishda qatnashadigan oila a‘zolari kiritiladi.

Mehnat resurslaridan foydalanishning holatini ijtimoiy va iqtisodiy tahlil qilish maqsadida jami aholi quyidagicha tavsiflanadi:

1. Iqtisodiy faol bo'lmagan aholi yoki ishchi kuchidan tashqaridagilar. Ular quyidagilar:

– maktabgacha yoshdagilar, o'quvchilar va kunduzgi ta'lim oluvchi talabalar;

– nafaqadagilar (qarilik va boshqa sabablarga ko'ra);

– uy-ro'zg'or ishlarida band bo'lganlar (bola boquvchilar, kasalga qarovchilar va boshqalar);

– mehnat qilish istagida bo'lmaganlar;

– mehnat qilish zaruriyati bo'lmaganlar (doimiy daromad bilan ta'minlanganlar).

2. Iqtisodiy faol aholi, ya'ni jamiyatning jami ishchi kuchi. Bu guruhga aholining tovar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun o'z ish kuchini bozorga taklif qilayotgan mehnatga layoqatli qismi kiradi.

Iqtisodiy faol aholining miqdori va sifati, uning yillar davomidagi o'zgarishi mamlakatning iqtisodiy qudratini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlardandir. Mamlakatdagi iqtisodiy faol aholi darajasi nisbiy ko'rsatkich bo'lib, u quyidagicha aniqlanadi:

$$I = \frac{FA}{F} \times 100\%$$

Bu yerda: I – iqtisodiy faol aholi darajasi;

FA – iqtisodiy faol aholi soni;

F – jami aholi.

O'zbekistonda 2016-yilda iqtisodiy faol aholi soni 14 mln. 22 ming kishidan oshdi. Bu ko'rsatkich 2005-yilda 10 mln. 224 ming kishidan iborat edi. Iqtisodiy faol aholi darajasining oshib borishi ijobiy o'zgarish bo'lib, bu jamiyatdagi iqtisodiy muhitning sog'lomlashayotganini ko'rsatadi.

O‘zbekistonda jiddiy muammolardan biri – o‘sayotgan mehnat resurslarini ish bilan ta‘minlashdir. Bu, bir tomondan, aholining ish joyiga bo‘lgan talabini, ikkinchi tomondan, milliy iqtisodiyotning ishchi kuchiga bo‘lgan ehtiyojini qondirishni taqozo etadi. Aholini mehnat faoliyatiga tortish iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida bir xil kechmaydi. Bir tarmoqda ishlab chiqarish xodimlari soni o‘ssa, ikkinchi bir sohada xodimlar soni kamayishi mumkin.

Ijtimoiy ishlab chiqarish mehnatga qobiliyatli aholining bar-chasini qamrab olishi qiyin. Natijada mehnat resurslarining bir qismi shaxsiy va uy mehnati doirasida qolib ketadi. Mehnat resurslari va ijtimoiy ishlab chiqarishdagi bandlik o‘rtasidagi farqning boshqa sababi takror ishlab chiqarish jarayonining moddiy va shaxsiy omili, mehnat resurslarining o‘sishi va ularga ish joylarini hozirlash o‘rtasidagi nomuvofiqlikdir. Shuningdek, ijtimoiy ishlab chiqarishning tarmoq tarkibi, ijtimoiy sohaning rivojlanishi ham ish bilan bandlik darajasiga ta‘sir ko‘rsatadi. Uy-joy va kommunal, maishiy xizmat ko‘rsatish kabi mehnat talab qiladigan tarmoqlarning ustun rivojlanishi mehnatga yaroqli aholini ish bilan ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega.

Bu muammo, ayniqsa, qishloq joylarda keskin. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi ishchi kuchi bilan keragidan ortiq ta‘minlangan. U hozircha qishloq aholisini ish bilan ta‘minlashning bosh va amalda yagona sohasi bo‘lib qolmoqda. Qishloqda mehnatni tashkil etish tarmoqlarining nisbatan torligi shunga olib kelmoqdaki, natijada yoshlar asosiy qismining milliy xo‘jalikning ana shu tarmog‘ida joylashishdan boshqa iloji yo‘q. Qishloq aholisining 60 foizi qishloq xo‘jaligida band. Qishloq joylarida boshqa tarmoqlarni ham rivojlantirish kerak bo‘ladi. Sanoat korxonalarining filial va sexlarini ochish, nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlarini kengaytirish ana shunday ishlardandir. Sanoat mahsulotlarini yetkazib be-

rishni yanada kengroq mahalliyashtirish (lokalizatsiya) xuddi ana shu maqsadga xizmat qiladi.

Mahalliy aholini ijtimoiy mehnat sohasiga tortish, ayniqsa, industrial tarmoqlarda malakali milliy kadrlarni shakllantirish hamon muhim vazifalardan biri bo'lib turibdi.

Muhim masalalardan yana biri, ayollarni o'zlariga muvofiq ish bilan ta'minlashdir. Uyda ishlash va boshqa noan'anaviy qisqartirilgan ish kuni shakllarini rivojlantirish lozim. Ayollar-ning yetarli darajada ish bilan ta'minlanmaganligi bir kishi ishlaydigan oilalarda past turmush darajasining saqlanib qo-lishiga olib keladi. Ayollar mehnati an'anaviy kasb sohalari-da, ya'ni nomoddiy ishlab chiqarish hisoblanadigan sog'liqni saqlash, kredit va sug'urta muassasalari, xalq ta'limi va madaniyatda balandligicha saqlanib qolmoqda. Ayollarni mil-liy xo'jalikka jalb qilish respublika bo'yicha ham bir tekis kechmayapti. Masalan, ishchi-xizmatchilarning umumiy soni-da ayollarning ulushi Jizzaxda 29,9 foiz, Sirdaryoda 25,5 foiz, Surxondaryoda 27,7 foiz, Qashqadaryoda 33,3 foizni tashkil etmoqda. Buxoro, Xorazm, Farg'ona va Toshkent viloyatleri-da 40 foiz atrofida. Bu ko'rsatkich Namangan viloyatida 44,7 foizni, Andijonda 44,6 foizni hamda Toshkent shahrida 42,1 foizni tashkil etmoqda.

Mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash uchun mik-rofirmalar, kichik va qo'shma korxonalar kabi mehnatni tashkil etishning yangi samarali shakllariga katta e'tibor berish kerak. Kelgusida bu turlarni yanada kengaytirish imkoniyatlari va istiqbollari bor.

Mikrofirma va kichik korxonalar hozir xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish, umumiy ovqatlanish, qurilish, qishloq xo'jaligi, savdo, savdo-tayyorlov, ishlab chiqarish va texnika yo'nalishida mahsulotlar ishlab chiqarish, ilmiy-texnika, badiiy bezash, sport, sog'lomlashtirish,

tibbiy xizmat ko'rsatish, yo'lovchi transporti xizmati ko'rsatish, dam olishni tashkil etish va boshqa sohalar bo'yicha faoliyat ko'rsatmoqda.

Mehnat resurslarining ish qidirib mamlakat ichida yoki tashqarisida harakatlanishiga ishchi kuchi migratsiyasi deyiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishchi kuchining migratsiya harakati jadal tus oladi, chunki mintaqalar va iqtisodiyot tarmoqlarida ishchi kuchiga bo'lgan talab doimo o'zgarib turadi.

Ishchi kuchining bir mamlakat hududi bo'ylab harakatlanishi ishchi kuchining ichki migratsiyasi hisoblanadi. Bu jarayonga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Mamlakat mintaqalarining iqtisodiy rivojlanishidagi tafovutlar, urbanizatsiya jarayonlari, tabiiy iqlim sharoitlarining o'zgarishi, tabiiy ofatlar va davlatning demografik siyosati shular jumlasidandir.

Ishchi kuchining bir mamlakatdan boshqa mamlakatga harakatlanishi ishchi kuchining tashqi migratsiyasi deyiladi. Ishchi kuchi tashqi migratsiyasining asosiy sababi mehnat bahosining mamlakatlar bo'yicha farq qilishidir. Mamlakatlararo o'rtasidagi iqtisodiy va siyosiy munosabatlarning rivojlanishi ishchi kuchi tashqi migratsiyasining jadallashuviga olib keladi. Bu, o'z navbatida, xalqaro mehnat bozorining rivojlanishini ta'minlaydi.

Bir mamlakat fuqarosining davlat yoki mehnat tashkiloti tomonidan manfaatli shartlar asosida jo'natilishi ishchi kuchi eksporti deyiladi. Bunday siyosat, odatda, rivojlanayotgan mamlakatlarda amalga oshiriladi, chunki bunday mamlakatlarda ishchi va xodimlar malakasini oshirish, ilg'or texnologiyalarni boshqarishni o'zlashtirish va iqtisodiyotni jadal rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj katta.

Manfaatli shartlar asosida ishchi kuchining mamlakatga tashqaridan qabul qilinishi esa, ishchi kuchi importi hisoblanadi. Ishchi kuchi importi ko'pincha iqtisodiy taraqqiyot jadal bo'rayotgan, lekin mehnat resurslari tanqisligi sezilayotgan mam-

lakatlar tomonidan amalga oshiriladi. Ikkinchi jahon urushidan keyin tez rivojlangan Germaniyada shunday holat kuzatilgan. Nemis davlati 1960-yillarda Turkiyadan ishchi kuchining ommaviy ravishda mamlakatga kirib kelishini rag'batlantirgan.

Dunyo mamlakatlarida sodir bo'lib turadigan chuqur iqtisodiy inqirozlar, urushlar ishchi kuchi tashqi migratsiyasining jadallashishiga sabab bo'ladi. Ishchi kuchi migratsiyasiga milliy xususiyatlar, urf-odatlar va an'analar ham ta'sir ko'rsatadi.

#### **4.5. Mehnat bozori va bandlik**

Mehnat resurslaridan samarali foydalanish va bandlikni ta'minlashda mehnat bozori (birjasi) katta rol o'ynaydi. Mehnat bozori bozor iqtisodiyotining muhim unsurlaridan biridir. Uning ko'lamini mamlakatdagi aholi va mehnat resurslarining miqdori belgilaydi. Yashab turgan joyida o'ziga mos ish va maosh topa olmagan kishi boshqa joylarga ish qidirib boradi. Natijada ishchi kuchi migratsiyasi yuzaga keladi. Mehnat bozoriga taklif qilingan va u yerda talab qilingan ishchi kuchi miqdor jihatdan, odatda, bir-biriga to'la mos kelmaydi. Bu ishsizlik paydo bo'lishining asosiy sabablaridandir.

Iqtisodiyotning u yoki bu sohasida ish bilan mashg'ul bo'lgan aholi band aholi hisoblanadi. Mamlakatdagi ishsizlar sonining o'zgarishini ishsizlik darajasi ifodalaydi. Ishsizlik darajasining ortib borishi jamiyatda turli salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Ularning oldini olishda davlatning ijtimoiy himoya siyosati, mehnat bozori va ijtimoiy jamg'armalar muhim o'rin tutadi. Ammo bizga har qanday bandlik emas, balki samarali bandlik kerak. Gap shundaki, malakali mehnat bilan band bo'lib, yetarli darajada maoshga ega bo'lishning ishchi kuchini takror ishlab chiqarish va oila farovonligini oshirishda ahamiyati katta.

Umuman, mehnat bozori muayyan mehnat qobiliyatiga ega ishchi kuchining oldi-sotdisi amalga oshadigan markazdir. Bu bozorning asosiy ishtirokchilari, bir tomondan, ishchi kuchini yollovchilar – tadbirkor, korxonalar va davlat, ikkinchi tomondan, mehnat layoqatiga ega aholidir. Ishchi kuchini yollovchilar ishchini yollash bilan undan foydalanish huquqini qo‘lga kiritadi, ishchi esa o‘z mehnat qobiliyati evaziga hayotiy zarur vosita va mahsulotlarni xarid qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Mehnat bozori ikkita muhim vazifani bajaradi. Birinchidan, bozorda kishilar o‘z mehnati evaziga daromadga ega bo‘ladilar. Bu daromad sarflangan kuch va energiyani qayta tiklashga ketadi. Ikkinchidan, mehnat bozori mamlakat aholisi mehnatidan samarali foydalanish, uni boshqarish va iqtisodiyot tarmoqlari o‘rtasida maqsadga muvofiq taqsimlash imkonini beradi. Mehnat bozorida maxsus tovar – mehnat qobiliyatining oldi-sotdisi amalga oshiriladi. Mehnat qobiliyati insonning ajralmas xususiyati bo‘lib, u moddiy va ma‘naviy ne‘matlarni yaratadi.

Mehnat bozoridagi talab va taklif o‘rtasidagi munosabat ish haqi miqdoriga ta‘sir ko‘rsatuvchi eng muhim mexanizmdir.

Mehnat bozorining asosiy xususiyatlari quyidagilardir:

– mehnat bozori ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlari uzoq davom etadi. Xomashyo yoki oziq-ovqat tovarlari bo‘yicha xaridor va sotuvchi o‘rtasidagi bozor munosabati pul berilib, tovar olinishi bilan tugaydi. Mehnat qobiliyati oldi-sotdisi esa kamida ishlab chiqarish jarayoni tugaguniga qadar davom etadi;

– mehnat bozoriga mehnat sharoitlari va korxonadagi ijtimoiy muhit ta‘sir ko‘rsatadi. Kishilar o‘z mehnat qobiliyatini sotar ekanlar, mehnatning murakkabligi va sog‘liqqa ta‘siri, mehnat jamoasi a‘zolarining o‘zaro munosabati qandayligi bilan qiziqadi;



– mehnat bozoriga jamiyatda amal qiladigan qonunchilik tizimi, turli davlat va ijtimoiy tashkilotlar ham ta’sir ko’rsatadi. Kasb-hunar ta’limi, davlatning bandlik siyosati, kadrlar tayyorlash dasturlari, tadbirkorlar uyushmalari, kasaba uyushmalari kabilar shular jumlasidandir.

Bozordagi mehnatning bahosiga davlat eng kam ish haqi miqdorini belgilash orqali ta’sir ko’rsatadi.

Mehnat resurslari, mehnat bozori faoliyati va bandlik O‘zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan «Mehnat kodeksi» va 1998-yil 1-mayda qabul qilingan «Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida»gi Qonuni va boshqa qonun hamda huquqiy-me’yoriy hujjatlar orqali boshqariladi.

### **Qisqacha xulosalar**

1. O‘zbekiston dunyoda yalpi iqtisodiy salohiyati yuqori mamlakatlardan biri hisoblanadi. Mamlakat, ayniqsa, demografik, tabiiy resurslarga boy. Bu yerda mineral xomashyo resurslari zaxiralari, yer va suv resurslari joylashgan.

2. O‘zbekiston aholisi tez o‘sayotgan faol demografik mamlakatlar qatoriga kiradi. Mamlakatda olib borilayotgan faol ijtimoiy va demografik siyosat tinch-totuvlik, oila munosabatlarining mustahkamligi, tarixiy milliy an’analar, qadriyatlar, ular barobarida kechayotgan nikohning yuqori, ajralishning past darajasi, tug‘ilishning yuqoriligi va o‘limning, ayniqsa, bir yoshgacha bo‘lgan go‘daklar o‘limining kamayishi, salomatlik, sog‘lom avlod, mustahkam oila, qariyalarni e’zozlash dasturlarining qabul qilinishi va amalga oshirilishi aholi tabiiy o‘shini ta’minlamoqda.

3. Aholining tabiiy o‘shishi mamlakatning barcha hududlarida kuzatilmoqda. Shu bilan birga uning sur‘atlari shaharga nisbatan qishloqlarda yuqoriroq. Bu tendensiyaning asosiy sa-

babi shaharda qishloqqa nisbatan nikoh darajasining pastligi, ajralish darajasining yuqoriligi, umumiy, turmush va sanitariya madaniyatidagi farq hisoblanadi. Bundan tashqari, qishloqda, asosan, o'zbek millatiga mansub aholi yashaydi. Ular an'anaviy oilaparvar, bolajon xalq.

4. Aholi, mehnat resurslari va bandlik o'rtasida mustahkam bog'liqlik bo'lishi kerak. Aks holda, ijtimoiy muammolar kelib chiqishi mumkin. Buning uchun esa, ish o'rinlarini yaratishni kuchaytirish, iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasida mehnat resurslarini qayta taqsimlash chora-tadbirlarini hamisha ko'rib borish lozim. Hozirgi paytda mehnat resurslarining chorak qismi qishloq va o'rmon xo'jaligida band bo'lib, ular, asosan, past malakali ish bilan band. Qishloq ayollari orasida bandlik darajasi past. Bu, o'z navbatida, oila daromadlari darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

5. Bizga har qanday bandlik kerak emas. Bandlikni ta'minlash pirovard maqsad ham bo'lmay kerak. Bizga samarali bandlik, ya'ni yaxshi daromad keltiradigan, yuqori bilim talab qiladigan, zamonaviy texnika va texnologiya bilan ishlaydigan bandlik kerak.

## **Asosiy atamalar va tushunchalar**

Yalpi iqtisodiy salohiyat, resurslar, infratuzilma, ekotizim, demografiya, aholi zichligi, urbanizatsiya, emigratsiya, bandlik, iqtisodiy faol aholi, ishchi kuchi eksporti va importi.

### **Nazorat savollari**

1. Mamlakatning yalpi iqtisodiy salohiyati qaysi asosiy komponentlardan (resurslardan) tashkil topadi? Ularni sanab bering.

2. Aholi tabiiy o'sishiga qanday omillar faol ijobiy ta'sir ko'rsatadi?

3. Aholi tabiiy o‘shiga qanday omillar aks ta’sir ko‘rsatadi?
4. Tug‘ilish darajasi qishloqda yuqorimi yoki shaharda?
5. Nikoh darajasi qayerda yuqori: qishloqdami yoki shahardami? Sabablarini bilasizmi?
6. Urbanizatsiya (shaharlashtirish) jarayoniga etnopsixologik va milliy, an’anaviy xususiyatlar ta’sir etadimi? O‘zbekistonda bu jarayon qanday kechmoqda?
7. Faol demografik siyosat deganda nimani tushunasiz?
8. Aholi tarkibi qaysi jihatlardan tasniflanadi?
9. Mehnat resurslari va bandlik qanday aniqlanadi? Aholi tabiiy o‘shisi va mehnat resurslari hamda iqtisodiy faol aholi miqdori o‘rtasida bog‘liqlik bormi?
10. Mehnat bozori (birjasi)ni qanday tushunasiz? Samarali bandlik deganda nimani tushunasiz?

---

## V b o b

# MINERAL-XOMASHYO RESURSLARI

### 5.1. Mineral-xomashyo resurslarining tavsifi

Tabiat resurslari rang-barang bo‘lib, ularni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga ishlab chiqarilmaydigan, ya’ni tiklanmaydigan resurslar – yer, neft, gaz, ko‘mir va boshqa yerosti qazilma boyliklari kiradi. Ikkinchi guruhga tiklanadigan resurslar, yerusti boyliklari – qishloq xo‘jaligi xomashyolari kiradi. Birinchi guruhni, odatda, mineral-xomashyo resurslari deb atash qabul qilingan. Mineral-xomashyo resurslari yoki yerosti qazilma boyliklari zamonaviy industriya va fan-texnika taraqqiyotining qator yo‘nalishlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Mineral-xomashyo resurslari deganda kelib chiqishi minerallardan iborat energiya, xomashyo va materiallar ajratib olishda foydalaniladigan tabiiy moddalar tushuniladi.

Mineral resurslardan tovarlar ishlab chiqarishda mehnat predmeti sifatida foydalaniladi. Ular ishlab chiqarishni rivojlantirishning moddiy asosi va faol unsuri bo‘lib xizmat qiladi. Fanning rivojlanishi, mehnat resurslarini takomillashtirish bilan mineral resurslarning ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirish, ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va mujasamlashtirishning muhim omili sifatida ahamiyati oshib boradi.

Mineral-xomashyo resurslari iqtisodiy taraqqiyotda muhim o‘rin tutadi, u mamlakat iqtisodiy qudratining asosiy o‘lchovlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Dunyoda hammasi bo‘lib mineral-xomashyoning 250 dan ortiq turidan foydalaniladi. Mineral-xomashyo resurslarining yana bir xarakterli tomoni uning notekis joylashganligidadir. XX asrdan boshlab uni qazib olish juda tez sur‘atlarda o‘smoqda. Hozirgi sharoitda yoqilg‘i-energetika va rangli metallar rudasini qazib olish birinchi darajali ahamiyat kasb etmoqda. Fan va texnikaning rivojlanishi bilan foydali elementi kam bo‘lgan minerallarning yangi konlari foydalanishga tortilmoqda. Ko‘pchilik foydali qazilma boyliklar qazib olishga ekstremal tabiat sharoitiga ega hududlarga ko‘chmoqda (Shimol, Sahroyi Kabir, Ustyurt, shelflar). Qazilma boyliklarni qazib olish va ulardan foydalanishda atrof-muhitni himoya qilish xarajatlari oshib bormoqda.

Ko‘pchilik minerallar alohida uchramaydi. Masalan, aluminij ko‘plab minerallar tarkibida bor. Ular, ayniqsa, silikat birikmalarida (40 foizgacha) mavjud. Boksitlar ham aluminiyda boy. Neft va gaz nafaqat yoqilg‘i (benzin, kerosin, mazut) va elektr energiyasi hosil qilish uchun zarur, balki kimyo sanoati uchun ham xomashyo hisoblanadi. Neft kimyosi sanoati o‘g‘it, kauchuk, plastmassa, sintetik tolalar ajratib oladi.

Yoqilg‘ining muhim turlaridan biri – ko‘mir. Uning 70 foizi toshko‘mir. 30 foizi qo‘ng‘ir ko‘mir hisoblanadi. Yoqilg‘ilar orasida tiklanadigan yagona tur – torf (O‘zbekistonda torf yo‘q. Rossiyada jahon torfining 50 foiz zaxirasi joylashgan). Undan energetikada foydalaniladi. Keyingi yillarda slaneslarga katta ahamiyat berilmoqda. Undan nafaqat yoqilg‘i, balki kimyo sanoatida ham foydalanilmoqda.

Mineral-xomashyo resurslari iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi, u mamlakat iqtisodiy qudratining asosiy o‘lchovlaridan biri. Keyingi yillarda butun dunyoda uglevodod va aluminiy xomashyosi, oltin va nodir metallar, marganesli va xromli rudalar, platina guruhiga kiruvchi metallar qa-

zib olish va ulardan foydalanish yuqori sur'atlarda rivojlandi. BMT ekspertlari hisob-kitoblariga qaraganda, yaqin yillarda bu tendensiya saqlanib qoladi.

O'zbekistonda 2700 dan ortiq konlar, 100 ga yaqin mineral-xomashyo turlari ochilgan. O'zbekiston oltin zaxiralari bo'yicha dunyoda to'rtinchi, qazib olish bo'yicha to'qqizinchi, mis bo'yicha o'ninchi o'rinda, uran bo'yicha 7-8-o'rinda, MDH mamlakatlari orasida esa oltin zaxiralar bo'yicha ikkinchi, mis, qalay, qo'rg'oshin, volfram bo'yicha uchinchi o'rinda turadi.

Mamlakat hududining qazilma boyliklarga seroblighi mustaqillikning iqtisodiy asoslarini mustahkamlashda, iqtisodiy o'sishni ta'minlashda, oltin-valuta zaxiralarini to'ldirishda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Yer qa'ridan qazib olingan mineral-xomashyo va uni qayta ishlash Rossiyadek mamlakat valuta tushumining 65-70 foizini, yalpi ichki mahsulotning 30-35 foizini bermoqda.

Ammo yer va tabiat resurslari tabiat obykti sifatida cheklangan miqdorda mavjud. Shuning uchun ham ular u yoki bu mamlakat milliy boyligining jiddiy unsuri hisoblanadi. Ishlab chiqarilmaydigan (tiklanmaydigan) resurslarning neft, gaz, ko'mir va boshqa qazilma boylik turlaridan muntazam foydalanish ularning miqdorini kamaytirib yuboradi. To'g'ri, yangi konlar qidirib topiladi, minerallarning o'rnini bosadigan materiallar paydo bo'ladi, bu resurslardan foydalanish samaradorligi oshadi. Lekin mamlakat o'zining qazilma boyliklaridan uzluksiz foydalana borib, energiya resurslari, xomashyo va materiallarning yangi noan'anaviy turlarini ishlab chiqarmas ekan, uning tabiat resurslari qashshoqlashib boradi. Oxir-oqibatda esa, bu holat uning milliy iqtisodiy salohiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tabiat resurslarini to‘xtovsiz qazib olish, ulardan pala-partish foydalanish atrof-muhitning ifloslanishini, toza suv muammosini, ekologik tanglikni keltirib chiqaradi.

## 5.2. Mineral-xomashyo resurslari

Mineral-xomashyo turlari juda ko‘p. O‘zbekiston sharoitida uni quyidagicha guruhlashtirish mumkin: yoqilg‘i-energetika, metallar va nometallar, texnik-xomashyo, o‘tga chidamli xomashyo, qurilish materiallari, suvlar.

### Mineral-xomashyo resurslarining tarkibi

Resurslar guruhi	Resurslar tarkibi
1. Yoqilg‘i-energetika	Neft, tabiiy gaz, ko‘mir, uran
2. Metallar	Qora, rangli, nodir, asl
3. Nometall mineral-xomashyo	Kaliy va osh tuzi, fosforitlar, oltingugurt, apatit, brom, yod
4. Texnik-xomashyo	Olmos, asbest, korund, grafit, kaolin, bentonit
5. O‘tga chidamli xomashyo	Xrom, kobalt, volfram, molibden
6. Qurilish materiallari	Grafit, qum, qum-grafit aralashmasi, tog‘ jinslari, o‘tga chidamli tuproq, dolomit
7. Suvlar	Ichimlik suvi, mineral suv, termal suv, sanoat suvi

Keyingi yillarda qator neft-gaz konlari topildi. Farg‘ona viloyati hududida yirik konlardan Shimoliy So‘x, Chung‘ara, Chimyon, Sho‘rsuv, Andijon viloyatida Janubiy Olamushuk, Polvontoshni ko‘rsatish mumkin. Farg‘ona vodiysidagi konlarda, asosan, neft uchraydi. Ular bir necha o‘n yillardan beri milliy iqtisodiyotga xizmat qilib kelmoqda. Mustaqillik yillarida Namangan viloyatida Mingbuloq neft koni ochildi. Farg‘ona nefti, asosan, yengil, oltingugurti kam, parafini ko‘proq. Janubiy neft konlari Surxondaryo viloyatida joylashgan.

Neft konlarining katta zaxiralari Ustyurtda topilgan. Bular-dan tashqari, neft-gaz kondensat konlari Muborak, Sho‘rtan,

O‘rtabuloqda joylashgan. Qashqadaryodagi Ko‘kdumaloq koni, ayniqsa, istiqbollidir.

O‘zbekistonda gazning aniqlangan zaxiralari 2 trillion kubometrni, ko‘mirniki 2 milliard tonnadan ziyodroqni tashkil etadi. Mamlakatda topilgan konlarning zaxiralari nafaqat ichki ehtiyojlarni qondirishga qodir, balki energiya manbalarini eksport qilish imkonini ham beradi.

Neft va gazga boy beshta mintaqa aniqlangan: Ustyurt, Buxoro – Xiva, Janubi g‘arbiy Hisor, Surxondaryo va Farg‘ona. Gazning hozirgi aniqlangan zaxiralari mamlakat ehtiyojlarini 35, neftniki 30 yil mobaynida qoplashga yetadi. Shu bilan birga O‘zbekistonda gaz va neft zaxiralarini izlab topish darajasi 30–32 foizdan oshmaydi.

Mamlakatda tabiiy gaz va gaz kondensatini qayta ishlash istiqbollidir. Gazning tarkibida etan, propan va butan bo‘lib, ulardan polimer materiallari olinadi. Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasidan olinayotgan propandan nitron tolasi ishlab chiqariladi.

### **O‘zbekiston yoqilg‘i-energetika majmuasining asosiy ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari**

Yillar	2005	2010	2012	2013	2014	2015	2016
Elektr energiyasi, mlrd. kVt/soat	47,7	52,0	53,0	54,6	55,8	55,5	59,0
Tabiiy gaz, mlrd. kub metr	60,7	66,0	62,2	55,2	57,3	57,7	62,8
Neft, gaz kondensatini qo‘shgan holda, mln. tonna	5,5	4,0	3,3	3,2	2,9	3,1	2,6
Ko‘mir, mln. tonna	3,0	3,6	3,75	4,1	4,4	3,9	3,87

O‘zbekistonda turli yillarda 3 ta ko‘mir koni aniqlangan. Ular Angren (Toshkent viloyati), Sharg‘un va Boysun (Surxondaryo viloyati) konlaridir. Angren koni Ohangaron



daryosi vodiysida joylashgan bo‘lib, bu yerda qo‘ng‘ir ko‘mir ochiq usulda qazib olinadi. Uning asosida Angren GRESi ishlaydi. Sharg‘un koni 600–800 metr balandlikdagi tog‘likda joylashgan. Ko‘mir qazib olish jarayonida qimmatli mineral xomashyo resurslari ham ajratib olinadi. Ular kaolin, kvars qumlari va boshqalar bo‘lib, ko‘plab yangi zamonaviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirishda xomashyo bazasi bo‘lib xizmat qiladi.

Metallarning o‘zi ham asl metallar, rangli, nodir yoki kam uchraydigan va qora metallarga bo‘linadi. Yana bir tasniflash-tirishga muvofiq metallarni og‘ir, yengil, nodir va asl metallar sifatida guruhlash mumkin.

**Asl metallar.** Oltin va kumush ana shunday metallar jumlasiga kiradi. O‘zbekistonda tarkibida oltin va kumush mavjud bo‘lgan 30 dan ortiq ruda konlari aniqlangan.

O‘zbekistonda oltin qazib olish ishlari juda uzoq vaqtlardan buyon ma‘lum. Qadimgi Buxoroda zarb etilgan oltin tangalar va turli-tuman zargarlik buyumlari xorijiy yurt bozorlarida almashuv vositasi vazifasini bajarib kelgan. Movarounnahr-dagi behisob oltin konlaridan arablar, yunonlar, keyinchalik ruslar ham xabardor bo‘lishgan. Tarixning otasi Gerodot bu haqida shunday yozgani ma‘lum: «Ular (ikki daryo oralig‘ida yashovchi xalqlar) oltin serobligidan temir va kumushni aslo ishlatmaydilar». Mamlakatimizda Oltintepa, Oltintopgan, Zarafshon degan nom va manzillarning o‘zi ham bu joylarning oltin qazib olish markazlaridan biri ekanligidan darak beradi.

Oltin – noyob metall. U yer ostida ham, namlikda ham o‘z xususiyatini yo‘qotmaydi. Oltinni izlab topish, uni boshqa tog‘-kon jismlaridan ajratib olish juda ko‘p mehnat sarfini talab qiladi. Ular ko‘pincha qotgan shag‘al toshlar, qumlar orasida uchraydi. Oltin konlari bir necha yuz million yillar oldin hosil bo‘lgan, degan taxminlar bor. U uran kabi boshqa kon

rudalari bilan ustma-ust yoki yonma-yon uchraydi. Oltin keyingi davrlarda, pul va zargarlik, tish protezi sohasidan tashqari, elektronika-kompyuter ishlab chiqarishda va atom reaktorlarida qo‘llana boshladi.

Qurama tog‘ tizmalarida yirik kumush konlari topilgan. Toshkentoldi mintaqasida kumush hozir katta miqdorda ajratib olinmoqda. Qizilqumda kumush ishlab chiqarishni ko‘paytirish borasida katta tadbirlar amalga oshirilmoqda. Oltindan keyin turadigan bu asl mineral-xomashyoning sanoat va iste‘mol ahamiyati hammaga ma‘lum.

**Rangli va nodir metallar.** Ular jumlasiga mis, qalay, qo‘rg‘oshin, volfram, litiy, aluminiy xomashyosi, alunitlar, kaolinlar, stronsiy va uranni kiritish mumkin. O‘zbekistonda bu mineral-xomashyolarning yirik zaxiralari mavjud.

O‘zbekistonda mis chiqaruvchi asosiy korxonalar Olmaliq tog‘-metallurgiya kombinatidir. Mis konlari mis-porfir formatsiyasiga mansub bo‘lib, O‘rta Tyanshan, ayniqsa, Qurama tog‘lari uchun xosdir. Olmaliqda uning Qalmoqqir, Saricheka, Dalniy, Qizota konlari bor.

Volfram, molibden, qalay, vismut, simob va surmaning Janubiy Tyanshan va O‘rta Tyanshan tog‘ tizmalariga kiradigan Qoratepa, Langar, Qo‘ytosh, Ingichka, Yashton, Sargardon va boshqa konlari bor. 20 ta molibdenli formatsiya va ularning turlari aniqlangan.

Vismut ruda konlari Chotqol – Qurama tog‘larida topilgan. Mishyak-vismut, mis-vismut formatsiyalari O‘rtasaroy, Burchmullada topilgan. Simob-surma sanoat rentabel konlarining uchramaganligi uchun qazib chiqarilmas edi. Ularning ko‘p konlari aniqlangan. Ular kelgusida sanoat obyekti bo‘lishi mumkin. Istiqbolli konlar Janubiy Farg‘onada topilgan. U yerda 100 dan ortiq simob va 10 dan ortiq surma turlari bor.

## Metallar tarkibi

Metallar guruhi	Tarkibi
Og'ir metallar	Mis, qo'rg'oshin, qalay, nikel, simob, kadmiy
Yengil metallar	Aluminiy, magniy, titan, litiy, kaliy, derilliy, stronsiy, rubidiy, indiy
Nodir metallar	Germaniy, uran, radiy, toriy
Asl metallar	Oltin, kumush, platina
Qora metallar	Temir, marganes, xrom

Qora metallar, asosan, temir, titan, marganes va xromdan iborat bo'lib, ularning bir necha yuzlab konlari mavjud. Turli genetik tipdagi temir konlari va ruda to'plamlari, magnit anomalialari bor. Ular Tepabuloq titan-magnetik koni, Surenota, Shabrez, Mingbuloq va boshqa konlardir. Marganesning cho'kindi konlari Zarafshon, Zirabuloq, Qoratepa, Lolabuloq va boshqa tog'larda, respublikaning shimoliy va shimoli sharqiy qismida, gidrotermal to'plamlari Chotqol tog'larida joylashgan. Xrom konlari ofiolit mintaqalari bilan bog'liq bo'lib, Qizilqum, Farg'ona ofiolit belbog'ida, Tomditog' va Sulton Uvays hududlarida ko'proq uchraydi.

O'zbekistonda temir va marganesning katta miqdordagi zaxiralari mavjud. Ammo foydalanishga topshirilgan konlari hali yo'q. Tayyor mahsulot (stanoklar, mashinalar, trubalar va metalloprokat va boshqalar) ko'rinishdagi qora metallarga respublikaning 90 foiz ehtiyoji sobiq ittifoq respublikalari hisobiga qondirilgan. Bekobodagi metallurgiya zavodi metallom hisobiga ishlaydi. Mustaqillik tufayli respublikaning o'z temir ruda bazasiga ega bo'lishi taqozo etilmoqda. Shuni hisobga olgan holda Samarqand, Qoraqalpog'iston va Markaziy Qizilqum geologik-iqtisodiy mintaqalarida temir va marganes ruda konlarini qidirib topish ishlari jadal olib borilmoqda.

Nometall qazilma boyliklarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: tog'-ruda ashyosi, tog'-kimyo xomashyosi, qurilish materiallari, yerosti suvlari.

Tog'-ruda xomashyosi, o'z navbatida, erituvchan shpat, dala shpati-kvarsi (chaqmoqtosh) xomashyosi, vollastonit, asbest va boshqalardan tarkib topadi. Erituvchan shpatning O'zbekistonda 30 ga yaqin konlari va ko'rinishlari aniqlangan. Ular, asosan, Toshkentoldi geologiya-iqtisodiy mintaqasida joylashgan bo'lib, Qurama va Chotqol mintaqalarida ham qidiruv ishlari olib borish ko'zda tutilgan. Dala shpati kvarsi xomashyosining zaxiralari Navoiy viloyatida (Langar, Karmana) joylashgan. Ulardan keramika, farfor, shisha, fayans, emal idishlar ishlab chiqarishda keng foydalaniladi.

Surenota tizmasida Changi glaukonitli qumtoshlar koni bor. Chotqolda Zirabuloq-Ziyovutdin tog'lari, magmatik, Qorjontovda cho'kindi konlari ma'lum. Vollastonit respublikaning skarn-ruda maydonida uchraydi. Ohangaron kaolin ko'mir konida olovbardosh materiallar, Farhod qoyalari konida dalomitlar, Sulton-Uvays tog'ida talk va talk toshining sanoat ahamiyatidagi qotishmalari uchraydi. Ustyurt, Janubiy Orolbo'yi, Sulton-Uvays, Markaziy Qizilqumda va Zirabuloq-Ziyovutdin tog'laridagi bo'r va paleogen yotqiziqlarida bentonit gillari konlari topilgan. Qimmatbaho va bezak toshlardan topaz, feruza, ametist, tog' xrustali, xalsedon, yashma, nefrit, amazonit, rodonit, agalmatolit, marmar oniksi va boshqalar uchraydi.

Kaolin yig'indilari olovbardosh materiallar jumlasiga kirib, u Angren kaolin-ko'mir konida joylashgan. Uning bazasida kulolchilik buyumlari kombinati qurilgan.

Tog'-kimyo xomashyosi jumlasiga fosforitlar, tabiiy tuz, soda, agrokimyo xomashyosi kiradi. Sulfat, kaliy, osh tuzi konlari topilib ishga tushirilgan. Borsakelmas, Boybichakon va Xo'jaikonda osh tuzining bitmas-tugamas zaxiralari joylashgan.

Qurilish materiallarining 370 dan ortiq konlari hisobga olingan. Ularning 31 tasi sement xomashyosi, 29 tasi qoplama tosh, 13 tasi keramzit xomashyosi, 39 tasi qurilish toshlari, 175 tasi g'isht xomashyosi, 67 tasi qum-gravil materiallari, 22 ta beton uchun qum va silikat buyumlari, 3 tasi shisha xomashyosi va boshqa konlardir.

Yerosti suvlarining ichimlik suvi, mineral suv, termal suv va sanoat suvi turlari mavjud. Yerosti ichimlik suvining taxminiy resurslari sutkasiga 22,5 mln. kub metr. O'zbekistonda termal (issiq) suvlarning konlari Oqtov tog' oldida (Samarqand), Qurama tog' tizmasida (Namangan), Sirdaryo vodiysida (Farg'ona vodiysi va Mirzacho'l), Zarafshon daryosi bo'ylarida ko'plab uchraydi. Termal suvlardan balneologik maqsadlarda, shifobaxsh ichimlik sifatida va issiqxona xo'jaliklari va boshqa maqsadlarda foydalaniladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, yuqorida qayd etilgan konlarning ko'pchiligi XX asrning 50-yillarida ochilib, ishga tushirilgan edi. Tabiiyki, ularning ayrimlari o'z xo'jalik ahamiyatlarini bugun yo'qotgan. Lekin hali ochilmagan konlar ham anchagina. O'zbekiston mineral-xomashyoning xilma-xil turlarini yetkazib beruvchi yirik respublikalardan bo'lib keldi. Shunga qaramasdan, ular yalpi ichki mahsulot, milliy daromadni shakllantirishda katta o'rin tutmasdi. Tog'-sanoat majmuasi mahsulotlarining hissasi umumiy sanoat mahsuloti miqdorida rasmiy hisob-kitob ma'lumotlariga ko'ra 5 foizdan ham oshmasdi. Chunki O'zbekiston tog'-sanoat majmuasi mahsulotlari xomashyo yoki yarimtayyor mahsulotlar sifatida respublika hududidan chiqib ketardi va undan uzoqda chuqur qayta ishlanib, tayyor tovar shaklini olardi.

O'zbekiston mineral resurslari, birinchi navbatda, o'zining boy zaxiralari va xilma-xilligi bilan ajralib turadi.

Tog'-kon majmuasi ishlab chiqarish hajmining o'sishi, uning tarmoq va hududiy tuzilishining takomillashuvi ham davom etmoqda. Majmuada asosiy o'rinni rangli metallurgiya egallaydi. Bu – O'zbekiston tog'-sanoat majmuasining yana bir o'ziga xos xususiyatidir. Majmuada uning hissasi yalpi mahsulot va asosiy ishlab chiqarish fondlarining qiymati bo'yicha 80 foizdan oshiqroq, sanoat ishlab chiqarish xodimlari bo'yicha esa 70 foizdan kam emas. Undan keyingi o'rinni qora metallurgiya egallaydi. Nometall-ruda sanoat majmuasi yalpi mahsuloti, asosiy ishlab chiqarish vositalari qiymati bo'yicha 1 foiz atrofida bo'lib, majmua sanoat ishlab chiqarish xodimlarining 2 foizini tashkil qiladi. Ular o'rtasidagi nisbat iqtisodiyot ehtiyojlariga bog'liq. Majmuaning hududiy tuzilishi esa yangi kon va shaxtalarning ochilishi bilan o'zgarib turibdi.

Tog'-sanoat majmuasi xomashyo va ishlab chiqarish bazasi iqtisodiy taraqqiyotning borishini ko'p jihatdan belgilaydi. Albatta, fan-texnika taraqqiyoti mineral xomashyolar o'rniga va ularga bo'lgan talab darajasiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bir tomondan, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning material sig'imi kamayadi, sun'iy materiallar va ikkilamchi resurslar ishlab chiqarishga ko'proq e'tibor beriladi. Ammo bu, mineral resurslarning ahamiyati pasayadi, degani emas. Ularning ahamiyati oshib boradi. Hech qanday sun'iy material tabiiy mineral xomashyoning o'rnini bosa olmaydi.

### **5.3. Mineral-xomashyo resurslaridan foydalanish**

Topilgan va sanoat o'zlashtirishiga tayyorlangan rangli, no-dir va asl metallar, yoqilg'i-energetika, tog'-ruda, tog'-kimyo, rangli tosh xomashyosi, qurilish materiallari va yerosti suvlari zaxiralari asosida respublikada yuzlab neft-gaz sanoat korxonalari, konlar, shaxta va karyerlar, suv bilan davolaydigan

shifoxonalar ishlab turibdi. Olmaliq va Navoiy tog'-metallurgiya, Sho'rtan gaz-kimyo, Ohangaron, Navoiy, Bekobod segment, Angren ko'mir koni va boshqa qudratli sanoat majmualari ishlab turibdi. Ular mamlakatimiz iqtisodiy qudratini yuksaltirishga munosib hissa qo'shmoqdalar.

Boy tabiat resurslarining mavjudligi, so'zsiz, rivojlanishning jiddiy ijobiy omili hisoblanadi. Ular mamlakatdagi iqtisodiy vaziyatga hozirgi zamon globallashuv sharoitida uning mehnat taqsimotidagi o'rniga katta ta'sir ko'rsatadi. Boy tabiiy resurslarga ega mamlakatlar qatoriga MDHda Rossiya, Qozog'iston, O'zbekiston, Turkmaniston va Ozarbayjon kiradi. Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari, Kuvayt, Qatar, Bruney kabi ayrim mamlakatlarda ular milliy boylikning asosiy qismini tashkil etadi va mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosi bo'lib xizmat qiladi.

Bu borada ikkita vaziyatni hisobga olish lozim. Birinchidan, qazilma boyliklarning zaxiralari iqtisodiy rivojlanishning muhim, ammo hal qiluvchi unsuri emas. Buni jahon tajribasi isbotlab turibdi. Ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy ustunligi ular hududining qazilma boyliklarga qashshoqligi sharoitida ta'minlanib kelinmoqda. Yaponiya, Isroil, Shveysariya va Koreya Respublikasida qazilma boyliklar deyarli yo'q. Qazilma boyliklarning yo'qligi ularni keng sur'atda import qilish hisobiga qoplanadi. Ular asosiy xomashyosini Avstraliya, Kanada va Yaqin Sharq mamlakatlaridan sotib oladi. Uzoq Sharq mamlakatlariga neft va suyultirilgan gaz Yaqin Sharqdan ulkan tankerlarda tashib kelinadi.

Rivojlangan mamlakatlarning korporatsiyalari (katta foyda hisobiga, albatta) tabiiy resursga boy mamlakatlardagi qazilma boyliklarni qidirish, ishga tushirish va ulardan foydalanish jarayonlarida faol ishtirok etmoqda. Bu borada O'zbekiston ham

Rossiya va bir qancha rivojlangan mamlakatlar kompaniyalari bilan hamkorlik qilmoqda.

Ikkinchi tomondan, Afrika va Janubiy Amerikaning ko'pchilik mamlakatlari katta tabiiy resurs zaxiralari bo'lishiga qaramasdan, iqtisodiy qoloqlikda yashab kelmoqda. Rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiyoti qoloq mamlakatlarning arzon xomashyosini sotib olish, xomashyo resurslari va tayyor mahsulot o'rtasidagi «baholar qaychisi»dan foydalanishga asoslanib keldi. Va bugun ham shu amaliyot davom etmoqda. Tabiat resurslari ustidan nazorat o'rnatish uchun kurash ular tashqi siyosatining eng asosiy yo'nalishlaridan biriga aylangan.

O'zbekiston hukumati o'z ichki va tashqi iqtisodiyotini ana shu yuqorida tilga olingan holatlarni hisobga olgan holda amalga oshirmoqda. Avvalo, o'z ichki imkoniyatlariga va chet el tajribasiga tayanib, yerosti boyliklarini qidirib topish, qazib olish va shu yerning o'zida chuqur qayta ishlashni yo'lga qo'yimoqda. Ana shu maqsadda mamlakatimizda keyingi yillarda yirik zavod va fabrikalar ishga tushirildi, faoliyatdagi-lari rekonstruksiya va modernizatsiya qilindi, ularga malakali kadrlar tayyorlandi. Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, Sho'rtan gaz-kimyó majmuasi, Qo'ng'iro't soda zavodi, Dehqonobod kaly zavodi, o'nlab qurilish materiallari sanoati obyektlari shular jumlasidandir.

Ma'lumki, mineral-xomashyo resurslari faqat bir avlodga tegishli emas. Ularda kelgusi avlodlarning ham haqqi bor. Shuning uchun ham ulardan tejab-tergab, maqsadga muvofiq foydalanish, qazib olish va qayta ishlash chog'idagi isrofgarchilikni kamaytirish, ularni tayyor mahsulotga aylantirish samaradorligini oshirish katta ahamiyatga ega. Qolaversa, mineral-xomashyo resurslarini pala-partish qazib olish kelgusida katta ekologik talafotlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Kon va quduqlarning chiqindilari va ulardan hosil bo'lgan uyum-



larni qayta ishlab mahsulot hosil qilishning ham ekologik va iqtisodiy ahamiyati katta.

Shunday qilib, mineral-xomashyo resurslaridan foydalanishni yaxshilash, bu jarayonning samaradorligini oshirishning O‘zbekistonda bir qator obyektiv sabablari va muammolari mavjud:

– 2025-yilga borib amaldagi ayrim kon va shaxtalar o‘z imkoniyatlarini tugallaydi;

– mamlakatimizda marganesli va xromli rudalar, titan, temir rudasi nisbatan kamyob hisoblanadi. Ularning yangi konlarini qidirib topish va ishga tushirish yoki bu minerallarning o‘rnini bosadiganlarini topish lozim;

– ayrim qidirib topilgan konlarning rentabellik darajasi past, hozirgi sharoitda ularni ishga tushirish bozor sharoitida raqobatbardoshlikni ta’minlay olmasligi mumkin;

– qidirib topilgan ayrim konlar Ustyurt kabi noqulay cho‘l, dasht, tog‘ kabi tabiiy-hududiy zonalarida joylashgan. Ulardagi qazib olish ishlari ko‘p vaqt, mablag‘, malaka talab qiladi. Bu, o‘z navbatida, ulardan foydalanish xarajatlarini oshiradi;

– qazilma boyliklardan samarali foydalanish investitsiyalar hajmini oshirish, yuqori unumdorlikka ega texnika va texnologiya, ilmiy tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlariga ehtiyojni kuchaytiradi;

– jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qazilma boyliklarning 30–50 foizi qazib olish va qayta ishlash jarayonlarida nobud bo‘ladi;

– konlar va quduqlarning qashshoqlanib borishi, ulardan xomashyo qazib olish ishlarining borgan sari chuqurlashib va kengayib borishi, chiqindi va uyumlarning oshishi tabiiy hol. Bularning barchasi ekologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

## Qisqacha xulosalar

1. O‘zbekiston yerosti va yerusti tabiiy resurslarga boy mamlakatlardan hisoblanadi. Bu boyliklar mustaqillikning iqtisodiy asoslarini mustahkamlashda, iqtisodiy barqarorlikka erishish, iqtisodiy o‘shish va yuksalishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda.

2. Tabiiy resurslar tiklanmaydigan va tiklanadigan turlarga bo‘linadi. Tiklanmaydigan, ya’ni ishlab chiqarilmaydigan tabiiy resurslarga, asosan, yerosti qazilma boyliklari hisoblanadigan mineral xomashyo resurslari kiradi. Shuning uchun ham ulardan maqsadga muvofiq foydalanish, qazib olish va qayta ishlash jarayonlaridagi yo‘qotishlarni maksimal kamaytirishning ahamiyati katta.

3. Tabiiy resurslardan pala-partish foydalanish ularning samaradorligini pasaytiradi, konlarning qashshoqlanib qolishiga olib keladi, ekologik muammolarni keltirib chiqaradi.

4. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, faoliyatdagi konlar, quduqlar borgan sari chuqurlashib, yer qa‘riga kirib boradi, ularni qidirib topish va ishga tushirish ekstremal zonalar – dasht, cho‘l, tog‘, dengiz ostiga ko‘chib boradi. Bu, o‘z navbatida, ularni qidirib topish va ishga tushirish ishlari xarajatlarining oshishiga olib keladi.

5. Qazilma boyliklarni xomashyo sifatida eksport qilishdan ko‘ra, ularni shu yerning o‘zida chuqur qayta ishlash katta ahamiyatga ega. Chunki bu yo‘l bilan xomashyo va tayyor mahsulot o‘rtasidagi «baholar qaychisi»ga yo‘l qo‘yilmaydi, ish bilan ta‘minlash darajasi yaxshilanadi, ichki bozorni tovarlar bilan ta‘minlash darajasi ortadi. Shu maqsadda O‘zbekistonda keyingi yillarda qator qayta ishlash, tog‘ rudalarini boyitish zavod va kombinatlari qurib ishga tushirildi, eskilari rekonstruksiya va modernizatsiya qilindi, diversifikatsiyalash va mahal-

liylashtirish jarayonlari kechmoqda, ularni malakali ishchi-mu-  
taxassis kadrlar bilan ta'minlash yaxshilanmoqda.

## **Asosiy atamalar va tushunchalar**

Tabiiy resurs, qazilma boylik, mineral resurs, xomashyo, mineral-xomashyo zaxirasi, material, metall, nometall, tog'-ruda xomashyosi, tog'-kimyo xomashyosi, qurilish materiali, yerosti suvi, tog'-sanoat majmuasi, ekstremal zona, shelf, termal suv.

### **Nazorat savollari**

1. O'zbekistonda taxminan qancha turdagi qazilma boyliklar mavjud?
2. Tabiiy xomashyo resurslariga nimalar kiradi?
3. Mineral-xomashyo resurslari deganda nimani tushunasiz?
4. Nima uchun tabiat resurslari tiklanadigan va tiklanmaydigan guruhlariga bo'linadi? Mineral-xomashyolar qaysi guruhga kiradi?
5. Qazilma boyliklardan foydalanish samaradorligini ko'tarish uchun qanday ishlarni amalga oshirish ma'qul?
6. Nima uchun qazilma boyliklarni xomashyo sifatida eksport qilgandan ko'ra shu yerning o'zida chuqur qayta ishlab. tayyor mahsulot (tovar)ga aylantirib, keyin uni ichki va tashqi bozorda sotish afzal?
7. Tabiat resurslaridan foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish o'rtasida bog'liqlik bormi?
8. Nima uchun mineral-xomashyoga qashshoq mamlakatlar (Yaponiya, Janubiy Koreya) boy, mineral-xomashyoga boy mamlakatlar qashshoq?

---

---

## VI b o b

### YER VA SUV RESURSLARI

#### 6.1. Yer resurslari

Yer har qanday jamiyat, har qanday mamlakatning beqiyos boyligidir. Yer – bu bitmas-tuganmas xazina, otalar yurti, kelgusi avlodga qoladigan asosiy meros. Yer – bu qishloq xo‘jaligining asosiy ishlab chiqarish vositasi. Yerga ikki jihatdan, birinchidan, hudud, ikkinchidan, tirikchilik manbai, o‘simlik va hayvonot dunyosi hayoti uchun zarur bo‘lgan tuproq, inson uchun oziq-ovqat, sanoat uchun xomashyo yetishtirib beradigan ekin maydonlari sifatida qarash lozim.

2017-yilning boshida O‘zbekistonning umumiy yer maydoni 44892,4 ming gektarni tashkil etdi. Ana shundan 20174,0 ming gektari qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar hisoblanadi. Jami qishloq xo‘jaligi yerlari 15783,4 ming gektarni tashkil etib, uning 3708,8 ming gektari yoki 23,5 foizi sug‘oriladigan yerlardir.

Jami qishloq xo‘jaligi yerlarining 71,2 foizini pichanzorlar va yaylovlar, 25,9 foizini haydaladigan yerlar, 2,4 foizini ko‘p yillik o‘simliklar va 0,5 foizini bo‘z yerlar tashkil etadi.

Umumiy yer maydoni – O‘zbekiston Respublikasi chegarasi doirasidagi barcha yer maydonlari. Bunga qishloq xo‘jaligi yerlari, aholi yashash punktlari yerlari, sanoat, transport, aloqa, mudofaa, tabiatni muhofaza qilish, sog‘liqni saqlash, rekreatsiya va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan, shuningdek, tarixiy-madaniy ahamiyatga ega, o‘rmon va suv fondi, zaxira yerlar kiradi.

**Umumiy va qishloq xo‘jaligiga yaroqli yer maydoni tarkibi,  
2016-yil oxiriga (ming ga)**

	2016
Umumiy yer maydoni	44892,4
Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar	20174,0
Shu jumladan:	
Sug‘oriladigan yerlar	4205,8
Jami qishloq xo‘jaligi yerlari	15483,4
Shu jumladan:	
Sug‘oriladigan yerlar	3708,8
Haydaladigan yerlar	4014,8
Shu jumladan:	
Sug‘oriladigan yerlar	3265,6
Ko‘p yillik o‘simliklar	371,2
Shu jumladan:	
Sug‘oriladigan yerlar	357,5
Pichanzorlar va yaylovlar	11020,6
Shu jumladan:	
Sug‘oriladigan yerlar	40,6
Bo‘z yerlar	76,8
Shu jumladan:	
Sug‘oriladigan yerlar	45,1

Keyingi yillarda yerga egalik shakllari kengaydi. Ilgari qishloq xo‘jaligi korxonalari qishloq xo‘jaligi tasarrufidagi yerlarning 90 foizidan foydalanar edi. Qolgan yerlar qishloq xo‘jalik kooperativ korxonalar va tashkilotlari, xo‘jaliklararo korxonalar, dehqon xo‘jaliklari va fuqarolarga tegishli edi. Dehqon, fermer xo‘jaliklarining yer maydonlaridagi ulushi mutta-

sil o'sib bormoqda. Ammo respublikada yer xususiy bo'la olmaydi. Uning haqiqiy egasi davlat bo'lib, u bu yerlarni fermer va dehqon xo'jaliklariga, shaxslarga foydalanish uchun berib qo'ygan. Hozirgi vaqtda shudgorlab ekin ekiladigan maydonlarning 65,7 ming gektari (1,6 foiz) qishloq xo'jalik korxonalariga, 480 ming gektari (12,0 foiz) dehqon va 3469,1 ming gektari (86,4 foiz) fermer xo'jaliklariga birlashtirilgan.

Bu xo'jaliklar, shaxslar o'zlari foydalanib turgan yerlarni sotishi yoki sotib olishi mumkin emas. Faqat uzoq yoki qisqa muddatli ijaraga berishlari mumkin. Yerdan bunday foydalanishning sababi O'zbekistonda, umuman, Markaziy Osiyoda ekin maydonlarining cheklanganligidir, chunki dehqonchilik tarixan sug'orish madaniyatiga asoslangan. Suv resurslarining cheklanganligi o'zlashtirishga yaroqli yer fondidan to'la foydalana olmaslikning asosiy sababidir.

Umumiy ekin maydonining 2016-yilda 45,6 foiziga donli ekinlar, qariyb 36,0 foiziga texnika ekinlari ekildi. Shundan, texnika ekini hisoblangan paxta ekiladigan yer maydoni 33,8 foizni tashkil etdi. Ozuqa ekinlari ekiladigan yer maydoni 9 foizni, sabzavot yetishtiriladigan yer maydoni 5,5 foizni tashkil etdi.

Keyingi yillarda qishloq xo'jaligi ekinlari maydoni o'smadi, balki kamaydi. Faqatgina 2010–2016-yillarda qishloq xo'jaligi ekinlari maydoni 71,6 gektarga qisqardi. Ekin maydonlarining qisqarishi bundan keyin ham davom etishi mumkin, chunki sanoat va uy-joy, maishiy, yo'l qurilishlari hisobiga bu tendensiya o'z kuchini saqlab qoladi. Ekstensiv taraqqiyot o'z imkoniyatlarini tugallab bormoqda. Keyingi yillarda don ekinlari hisobiga paxta maydonlari ancha qisqardi. Garchi don ekin maydonlari o'sishiga qaramasdan, barcha qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining o'sishida jiddiy siljish bo'lmadi, chunki barcha ekin maydonlari ulushi qisqardi.

Qishloq xo‘jaligiga yaroqli yer maydoni – doimiy qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetkazish uchun foydalaniladigan yerlar. Unga haydalib ekin ekiladigan bo‘z yerlar, ko‘p yillik daraxtlar, pichanzor va yaylovlar kiradi. Qishloq xo‘jaligi yerlari ijaraga, qishloq xo‘jaligi korxonalariga doimiy va vaqtincha foydalanish uchun fermer va dehqon xo‘jaliklariga birlashtirib qo‘yilgan.

O‘zbekistonning yer resurslari xilma-xil. Qizilqum va boshqa cho‘llarda cho‘l-qum tuproqlari katta maydonni egallaydi. Bunday tuproqlar, asosan, qumdan iborat bo‘lib, zich qatlam hosil qilmaydi, chirindi (gumus) qismi 1 foizga ham yetmaydi. O‘zbekistonning tekislik qismidagi cho‘l zonasida sur-qo‘ng‘ir, cho‘l-qum, taqir tuproqli yerlar uchraydi.

Eng xarakterli tuproq bo‘z tuproqdir. U uch xil – och tusli, tipik va to‘q tusli bo‘ladi. Tipik va to‘q tusli tuproqning chirindisi ko‘proq – 3–4 foiz. Ustyurt, Qizilqum, Qarshi cho‘llari asosan sur-qo‘ng‘ir tuproqdan iborat bo‘lib, ularda chirindi kam. Shuningdek, taqir tuproqli yerlarda ham chirindi kam. Qumli cho‘llarning pastqam tekisliklarida taqirlar uchraydi. Bo‘z tuproqli mintaqadan yuqorida, dengiz sathidan 1200–2800 m balandlikda jigarrang va qo‘ng‘ir tog‘-o‘rmon tuproqlari, undan ham balandroq qismlarda esa och tusli qo‘ng‘ir o‘tloqi dasht tuproqlari uchraydi. Tog‘ oldidagi tekisliklarda va daryo vodiylarida sho‘rxoklar, o‘tloqi tuproqlar va botqoq tuproqlar uchraydi.

O‘zbekistonning cho‘l yaylovlari katta maydonni egallaydi. Bu cho‘l yaylovlari sur-qo‘ng‘ir, qum va qumli tuproqlardan iborat. Bu yerlarning taxminan yarmi sug‘orishga yaroqli yerlardir.

Sug‘oriladigan madaniy tuproqlar alohida tipni tashkil etadi. Respublika umumiy yer maydonining 3708,8 ming gektarida sug‘orib dehqonchilik qilinadi. Bu qishloq xo‘jaligi umumiy yer maydonining 23,5 foizi demakdir. Qolgan qismi lalmi yerlar, yaylov va ozroq qismi tog‘ o‘rmonzorlaridan iborat.

Sugʻoriladigan maydonlar dasht va boʻz yerlarda joylashgan. Sugʻoriladigan yerlarning 60 foizini avtomorf tuproqlar tashkil etadi. Ular yirik daryolarning deltalari va oʻzlashtirilgan vodiylar, shuningdek, togʻoldi tekisliklaridan iborat. Mirzachoʻl va boshqa zonalarda sugʻorish natijasida yerosti suvlari koʻtarilib, hozir tuproq gidromorf holatidadir.

Sugʻoriladigan yerlarning katta qismi Fargʻona vodiysida, Zarafshon vodiysida va Amudaryo quyi oqimini egallagan. Lalmi yerlarning katta maydonlari Qashqadaryo, Samarqand, Toshkent va Jizzax viloyatlarida joylashgan.

Shunday qilib, Oʻzbekistonning yer resurslarini uch toifaga boʻlish mumkin: 1) tekislikdagi tuproqlar – sur-qoʻngʻir, choʻl-qum taqirlar, taqir tuproqlar, oʻtloqi tuproqlar, botqoq va botqoq-oʻtloqi tuproqlar, shoʻrxoklar, oʻtloqi voqa;

2) togʻ tuproqlari – kulrang (boʻz) yerlar, jigarrang tuproqlar, qora-qoʻngʻir togʻ oʻrmon tuproqlari, rangli-qoʻngʻir baland togʻ tuproqlari;

3) sugʻoriladigan madaniy tuproqlar.

Sugʻoriladigan yerlar mamlakatning oltin fondi hisoblanadi.

Yer resurslarini boshqarish davlat yer siyosati orqali amalga oshiriladi. Uning maqsadi mamlakat barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ajralmas sharti boʻlgan yer resurslaridan foydalanish va uni muhofaza qilish samaradorligini oshirish orqali aholi turmush farovonligini yaxshilashdan iboratdir. Hozirgi davrdagi asosiy vazifa yerga egalik munosabatlarini va yerdan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini tartibga solishni takomillashtirishdir.

Yer resurslarini boshqarish va yer munosabatlarini takomillashtirish mexanizmi quyidagilarni oʻz ichiga olib, xuddi ana shu mexanizmlar orqali davlat yer siyosatining maqsad va vazifalari yuzaga chiqadi:



– davlat yer siyosatini formallashtiradigan (rasmiylashtiradigan) va yer munosabatlarini qayta qurishni me'yoriy-huquqiy tartibga solishni ta'minlaydigan qonuniy asosni takomillashtirish;

– yer munosabatlarini tartibga solish, yerdan foydalanish va uni muhofaza qilish borasidagi davlat boshqaruv xizmatlari tarkibini rivojlantirish;

– davlat yer siyosati doirasida yuridik, iqtisodiy va texnik tadbirlar tartiboti sifatida yer qurilishini amalga oshirish;

– yerdan foydalanish va uni muhofaza qilish bo'yicha kelib chiqqan kelishmovchiliklarni mavjud qonunchilik asosida hal qilish maqsadida davlat yer nazoratini kuchaytirish;

– axborot va ro'yxatga olish tartiboti sifatida zamonaviy davlat yer kadastrini yaratish va joriy qilish. Bu tartib, o'z navbatida, yer resurslarini boshqarish mexanizmi barcha unsurlarining amal qilish va rivojlanishini ta'minlaydi.

So'nggi yillarda fermerlar uchun ijara mulki huquqi asosida ajratiladigan yer maydonlarini optimallashtirish chora-tadbirlari ko'rilmogda. Bu, avvalo, sug'oriladigan dehqonchilik sharoitida, suv taqchilligi va yerlarning aksariyat qismi kuchli sho'rlangan bir vaziyatda turli hududlar ekin maydonlari amalda tuproq unumdorligi va yer boniteti bo'yicha keskin farq qilishi bilan bog'liq.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 16-martdagi 47-sonli «Fermer xo'jaliklari tasarrufidagi yer uchastkalari maydonlarini maqbul-lashtirish yakunlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq, 66134 ta fermer xo'jaliklari tashkil etildi.

2017-yil 1-yanvar holatiga, faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaliklarining soni 132356 tani tashkil etib, ularga birlashtirilgan umumiy yer maydoni 5806,2 ming gektarga teng bo'ldi

va bitta fermer xo‘jaligiga o‘rtacha 43,9 gektar yer maydoni to‘g‘ri keldi.

Hukumatning 2020-yilgacha paxta xomashyosini yetishtirish va uni davlat tomonidan xarid qilish hajmini 3 million 350 ming tonnadan 3 million tonnaga bosqichma-bosqich qisqartirish mo‘ljallariga muvofiq, 170 ming 500 gektar sug‘oriladigan yer paxtadan bo‘shashi rejalashtirilmoqda. Gap hosildorligi 12–15 sentnerdan oshmaydigan past bonitetli, asosan, sho‘rlangan, shuningdek, paxta yetishtirishga yaroqsiz bo‘lgan tog‘oldi yerlar haqida bormoqda.

Paxtadan bo‘shagan ekin maydonlarida, avvalo, sabzavot va kartoshka, shular qatorida ozuqa ekinlari, yog‘-moy olinadigan va boshqa o‘simliklar ekiladi, bog‘ va uzumzorlar barpo etiladi.

Ekin maydonlarining optimallashtirilishi va zamonaviy agrotexnologiyalarning joriy etilishi natijasida 2020-yilda boshqoli don yetishtirishni 16,4 foizga oshirib, uning hajmini 8 million 500 ming tonnaga yetkazish, kartoshka yetishtirishni 35 foizga, sabzavotni 30 foizga, meva va uzumni 21,5 foiz, go‘sht yetishtirishni 26,2 foizga, sutni 47,3 foiz, tuxumni – 74,5 foizga ko‘paytirish, baliq yetishtirishni 2,5 martaga oshirish ko‘zda tutilmoqda.

Yerdan foydalanish samaradorligini oshirish iqtisodiyot tarmoq va sohalari o‘rtasida yer resurslarini maqsadga muvofiq taqsimlash, barcha sektorlarda undan foydalanish natijalarini jiddiy yaxshilash bilan bog‘liq. Xo‘jalik yuritish faoliyati jaryonida bosh yo‘nalish yerlarni taqsimlashda qishloq xo‘jaligi ehtiyojlarini maksimal tartibga solish, uning tarkibini takomillashtirishdan iborat. Ammo yerlardan faqat qishloq xo‘jaligi maqsadlarida foydalanilmaydi. Mamlakat iqtisodiyotini har tomonlama rivojlantirish sanoat, transport, uy-joy, qurilish va rekreatsion maqsadlarga, shuningdek, ishlab chiqarish infratu-

zilmasi tarmoqlari uchun ham yangi yerlarni ajratishni taqozo etadi.

Yer resurslaridan foydalanish nazorati O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi va «Yergeodez-kadastr» Davlat qo‘mitasiga yuklatilgan.

## 6.2. Suv resurslari

O‘zbekistonning suv resurslari daryolar, sel oqimi, kanallar, ko‘l va suv omborlaridagi suvlardan tarkib topadi. Uning asosiy suv manbai – daryolardir. Daryolar tog‘lardan boshlanadi. Tog‘larda yog‘ingarchilik ko‘p, bug‘lanishga ketadigan yo‘qotishlar esa kam.

O‘zbekistonning bosh suv o‘zanlari Amudaryo (1415 km) va Sirdaryo (2122 km) hisoblanadi. Har ikkalasining suvi ham respublika hududidan tashqarida hosil bo‘ladi. Ulardan tashqari Norin, Qoradaryo, So‘x, Chirchiq, Zarafshon, Surxondaryo, Qashqadaryo, Sherobodaryo yirik daryolar jumlasiga kiradi. Bu daryolarning ko‘pchiligi o‘zlarining o‘rta va quyi oqimlari bo‘yicha O‘zbekiston hududidan oqib o‘tadi. O‘zbekistonda hammasi bo‘lib, 50 ga yaqin daryo bo‘lib, ulardan 10 tasining uzunligi 150 km dan oshadi. O‘zbekistonning tog‘ va tog‘oldi mintaqalarida sel oqimi (toshqini) ko‘plab sodir bo‘lib turadi. O‘zbekistonda sel xavfi kuchliroq mintaqa – Farg‘ona vodiysidir. Bu yerda har yili, ba‘zan yiliga bir necha marta sel bo‘ladi. Ko‘pchilik sel toshqinlari aprel va may oylariga to‘g‘ri keladi, chunki bu oylarda tog‘da juda ko‘p yog‘in-sochin bo‘ladi. Sel oqimi har yili minglab gektar ekin maydonlarini vayron etadi. Shuning uchun ham toshqin xavfi kuchli tog‘oldi mintaqalarida sel oqimini ushlab qoladigan qurilmalar (suv omborlari) qurilgan. Hosil bo‘lgan suv zaxiralaridan keyinchalik ekinlarni, ayrim yaylov maydonlarini sug‘orishda foydalaniladi.

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi sug‘orish madaniyatiga asoslangani uchun bu yerda kanallardan foydalanishga alohida

e'tibor beriladi. Ular uchga bo'linadi: umumiy, ya'ni respublika ahamiyatiga ega bo'lgan kanallar, xo'jaliklararo va ichki xo'jalik kanallari. Yil davomida bu kanallar, suvi iste'molchilarga uzatiladi. Kanallardan, asosan, sug'orishda, shuningdek, elektr energiyasi olishda foydalaniladi.

O'zbekistonning eng katta kanali Katta Farg'ona kanali-dir. U 1940-yilda ishga tushirilgan, uzunligi 270 kilometr, 317 ming gektar yerni sug'orish imkonini beradi. Eng qadimiysi Surxondaryo viloyatidagi Zang kanali bo'lib, 1912 yilda qazilgan. Keyingi yillarda Janubiy Mirzacho'l, Amu – Qorako'l, Amu – Buxoro, Amu – Zang, Katta Andijon, Katta Namangan kanallari ishga tushirildi. Ular suvlarini, asosan, Amudaryo va Sirdaryodan oladi.

Sirdaryo va Amudaryo yo'nalishida 56 ta turli xil ko'llar bo'lib (Oroldan tashqari), ularning maydoni 3705 kv. km. Eng yirik ko'l Orol dengizidir. Orol ham o'z suvini Amudaryo va Sirdaryodan oladi. Orol dengizi 1960-yilgacha 66 ming kv. km maydonni egallar edi. Ammo 1962-yildan boshlab dengiz sathining pasayish jarayoni bormoqda. Orolga suv beradigan daryolarning imkoniyati xo'jalik ehtiyojlaridan ortmayapti, natijada ularning quyi oqimiga juda kam miqdorda suv yetib borayapti. Orol suv sathining keskin pasayishi sababli uning o'rnida tuz hosil bo'lib, ekologiyaga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, Orol baliqchilikdagi ahamiyatini yo'qotib bormoqda. Hozir mintaqadagi ilmiy loyiha muassasalari, olimlar va mutaxassislarning diqqat markazida Orolni qutqarish muammosi turibdi. Bu murakkab va katta mablag'talab xalqaro ahamiyatga molik ishdir.

Ko'llarning ko'pchiligi 2000–3000 metr balandlikdagi tog'da joylashgan. Tog' ko'llarining maydoni, odatda, 1 kv. km dan oshmaydi. Tekislikdagi ko'llar daryo va irrigatsiya tizimlari oqavalaridan hosil bo'lgan ko'llardan iborat. Ularning

umumiy soni 5 mingdan oshadi. Daryo ko‘llari ko‘pincha Amudaryo va Sirdaryo qayirlarida uchraydi. Irrigatsiya tizimlaridan chiqarib yuboriladigan tashlama ko‘llar kollektor-drenaj ishlarining yaxshilanishi bilan barham topib ketmoqda.

Respublikaning tekislik qismida joylashgan yirik ko‘llar jumlasiga Amudaryo deltasida joylashgan Sudoche ko‘li va Chordara suv omboridan chiqarib turiladigan, tashlama suvlar natijasida hosil bo‘lgan Arnasoy ko‘li kiradi. Birinchi ko‘lning maydoni Amudaryo suviga bog‘liqligi tufayli borgan sari qisqarib bormoqda.

Keyingi yillarda O‘zbekistonda sun‘iy ko‘llar – suv omborlari paydo bo‘ldi. Foydalanishda bo‘lgan barcha suv omborlari faqat mavsumiy suvlarni tartibga keltirishga va ular orqali yangi o‘zlashtirilgan qo‘riq-dasht yerlarga suv chiqarishga, bu bilan daryo, kanal, sel suvlaridan samarali foydalanishga mo‘ljallangan.

O‘zbekiston hududidagi suv resurslari tog‘ mintaqalarida va qisman yerosti suvlaridan hosil bo‘ladigan suv manbalari hisobiga vujudga keladi. Sug‘orish uchun yerosti suvlaridan ham keng foydalaniladi.

Sug‘oriladigan yerlarning suvga ehtiyoji yil davomida bir xil emas. 80 foiz suv vegetatsiya davrida sug‘orish uchun sarf qilinadi. Suvning qolgan qismi kuzgi-qishki yumushlar va sug‘oriladigan yerlarning sho‘rini yuvish maqsadida foydalaniladi. Suv resurslarining eng katta iste‘molchisi dehqonchilikdan tashqari sanoat korxonalarini va aholidir.

Respublikada ko‘plab suvni qochirish-sug‘orish inshootlari qurilgan. Sug‘orish o‘zanlarini taqsimlash va xo‘jalik shoxobchasi 100 ming km. dan oshib ketadi. Yangi o‘zlashtirilgan suvsiz yoki kam suvli mintaqalarni suv bilan ta‘minlash uchun gidroelektr stansiyalari bilan birga gidrouzellar majmuasi va suv omborlari qurildi.

Shunday qilib, bugungi kunda O‘zbekistonda qudratli zamonaviy suv xo‘jaligi vujudga keldi. Unga yirik davlat sug‘orish tizimi, suv omborlari, sel suvini to‘plash omborlari, suv ko‘tarib uzatish, bosh suv to‘plash qurilmalari, ulkan elektr nasos stansiyalari va 150 ming turli xil inshootlar kirgan.

### O‘zbekistonning asosiy suv omborlari

Nomi	Qaysi daryo suvi quyiladi	Maydoni, kv. km	Hajmi, mln. kub. metr
Chordara	Sirdaryo	900	5700
Qayroqqum	Sirdaryo	5,3	4200
Chorvoq	Chirchiq	40	2000
Kattaqo‘rg‘on	Zarafshon	83,5	845
Janubiy Surxon	Surxondaryo	65	800
Chimqo‘rg‘on	Qashqadaryo	49,2	500
Quyimozor	Zarafshon	16,2	280
Pachkamar	G‘uzordaryo	13,8	280
Karkidon	Isfarasoy	9,5	218
Andijon	Qoradaryo	55,5	190,0
Kosonsoy	Kosonsoy	5,65	100
Jizzax	Sangzor	12,7	87,5
Tuyabo‘g‘iz	Ohangaron	185,0	25,0

Sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining o‘sishi, urbanizatsiyaning yuqori sur‘atlari suv resurslaridan foydalanishni kengaytirishga olib kelmoqda. O‘zbekistonda suv xo‘jaligi bilan Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi shug‘ullanadi. Vazirlik suv resurslaridan foydalanishni o‘rganish, hisobga olish, boshqarish, prognozlash va rejalashtirish, yerosti va yerusti suvlarining ifloslanishi va qurib qolishidan saqlash, iste‘molchiga uzatish ishlari bilan shug‘ullanadi. Suv xo‘jaligining asosiy vazifasi xo‘jalik faoliyatining barcha turlari va tarmoqlarini zarur miqdor va sifatda suv bilan ta‘minlashdan iborat.

Mamlakatimizda suv resurslarini boshqarish inson hayot faoliyati va tabiat tizimi harakatining asosi sifatida ulardan foydalanish va muhofaza qilish maqsadida amalga oshiriladi. Suvni muhofaza qilish tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni muvofiqlashtirish Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan amalga oshiriladi. U bu boradagi qonunchilik hujjatlari va standartlari loyihalarini ishlab chiqadi. Sog‘liqni saqlash vazirligi ichimlik suvining sifati standartlarini belgilaydi va bu boradagi monitoring ishlarini olib boradi. Kommunal xizmat agentligi esa suv bilan ta‘minlash va kanalizatsiya tizimini rejalashtirish, qurish va ekspluatatsiya qilish, oqar suvni tozalash ishlari bilan shug‘ullanadi.

### **6.3. Yer va suv resurslaridan foydalanish**

O‘zbekiston katta yer-suv resurslariga ega. Ular qishloq xo‘jaligining rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratib beradi. Ammo yer-suv resurslaridan foydalanishni maqsadga muvofiq deb bo‘lmaydi. O‘lka o‘zining issiq va quruq, keskin o‘zgaruvchan iqlimi bilan ajralib turadi. Uning tekislik qismida o‘rtacha yillik yog‘in miqdori 120–200 mm, tog‘li hududlarda 1000 mm gacha. Issiqlik va yorug‘likning serobligi paxta, kanop, uzum, turli xil mevalar, poliz-sabzavot yetkazishga qulay. Qolaversa, bu yerdagi tuproq-iqlim sharoiti yil davomida bir necha marta hosil yig‘ishtirib olish imkoniyatini beradi.

Lekin yer-suv resurslaridan foydalanish betartib va maqsadga muvofiq bo‘lmagan holda kechdi. Qator yillar davomida ekin maydonlari o‘sib keldi. Bu, asosan, yangi yerlarni o‘zlashtirish hisobiga amalga oshdi. O‘zlashtirilgan yerlarga suvtalab paxta ekini ekildi.

O‘zbekiston yer-suv fondidan ekstensiv foydalanish qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishni muttasil oshirishga qaratil-

gan edi. XX asrning 80-yillariga kelib paradoks vaziyat yuzaga keldi: hosildor yerlar ko'p, ammo oziq-ovqat kamchil.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, kimyoviy o'g'itlarni ko'plab qo'llash hosildorlikka ijobiy ta'sir qilsa-da, shu bilan birga, tuproq tarkibini buzdi, oqibatda uning hosildorligiga putur yetkazdi. Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan xlor birikmalari juda zaharli bo'lib, suv havzalariga tushib, flora va faunaga halokatli ta'sir ko'rsatdi.

Qishloq xo'jaligi ekinlari maydonlarining kengaytirilishi atrof-muhitga salbiy ta'sir o'tkazdi. Ayrim mutaxassislar qishloq xo'jaligining ustun ekstensiv yo'ldan rivojlanishini zaruriy shart deb hisoblab, uni demografik vaziyat, ya'ni aholining tabiiy o'sishi bilan bog'ladilar. Ammo suv va yer resurslaridan oqilona foydalanmaslik Orol sathining, Amudaryo, Sirdaryo va boshqa suv manbalarining keskin qisqarishiga olib keldi, ekologik tanglikni keltirib chiqardi. Oziq-ovqat muammosi esa to'la hal bo'lmadi, ko'p miqdorda go'sht, g'alla va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari tashqaridan keltirildi.

O'zbekistonda suv resurslarining miqdor va sifat tangligi bundan keyin ham kuchayib boradi. Buning ustiga daryolar ishlab chiqarish, maishiy tarmoq oqavalari, ximikatlar bilan ifloslanmoqda. Natijada mamlakatning asosiy suv tomirlari – Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon va boshqa daryolar ichimlik suvi bilan ta'minlashda amalda yaroqsiz bo'lib qolmoqda.

Orol dengizi suv rejimining buzilishi, sathining keskin pasayishi Orolbo'yi tabiiy-iqlim sharoitiga halokatli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu yerda yuzaga kelgan ahvol yerdan ko'p yillar davomida ekstensiv foydalanishning bevosita oqibatidir.

Holbuki, suv resurslarining taqchilligi tufayli O'zbekistonda ekin maydonlarining kengayish imkoniyatlari cheklangan. Aholi soni ko'paymoqda, respublikaning har bir aholisi hisobiga ekin maydoni miqdori esa qisqarmoqda. Bunday sharoitda



qishloq xo‘jalik mahsuloti yetishtirishni o‘stirish faqat intensiv taraqqiyot hisobiga, ya‘ni ekin maydoni birligidan mahsulot chiqishini ko‘paytirish va chorva mahsuldorligini oshirish, qishloq xo‘jaligi tarkibini takomillashtirish hisobiga amalga oshadi. Ahvolni yaxshilash uchun investitsiya siyosatini keskin o‘zgartirish, qishloq xo‘jaligida kapital mablag‘larning asosiy qismini suvni tejevchi tadbirlar o‘tkazish va yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga yo‘naltirish lozim.

Eroziya jarayoni mamlakat yer boyligiga jiddiy zarar yetkazadi. Tuproqni muhofaza qilish tadbirlariga alohida e‘tibor berish, uning yuvilib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik, gumus qismini asrash kerak.

Suv omborlari va to‘g‘onlarining ko‘plab qurilishi, sholi va boshqa ko‘p suv talab qiluvchi ekinlarning ekilishi, suvning tejalishini ta‘minlaydigan texnologiyalarni (tomchilab sug‘orish) o‘zlashtirmaslik suv zaxiralarning yanada kamayishiga olib keldi.

Suvlarning kimyoviy moddalar bilan ifloslanishi toza ichimlik suvi muammosini keltirib chiqardi. Deyarli barcha daryolarga sanoat chiqindilari borib tushadi. Respublika oldida murakkab muammo: bir tomondan, suv resurslariga ehtiyojning to‘xtovsiz o‘sishi, ikkinchi tomondan esa, suv resurslari imkoniyatlarining tez kamayishi vujudga keldi.

Markaziy Osiyo davlatlari hukumatlari oldidagi muhim muammolardan biri Orolni saqlab qolish va atrofining ekologiyasini yaxshilashdir. Dengiz kema qatnovi, baliqchilik va mo‘ynachilik ahamiyatini butunlay yo‘qotdi. Tuz siljishi jarayoni faollashdi. Bunday salbiy oqibatlarni hisobga olib, zudlik bilan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining rivojlanish strategiyasi qayta ko‘rilishi – ekstensiv xo‘jalik yuritishdan voz kechib, intensiv xo‘jalik yuritishga o‘tilmog‘i, milliy xo‘jalik majmuasining tarmoq tuzilmasi o‘zgartirilib, sanoatning kam

suv talab etadigan va suvsiz ishlaydigan tarmoqlarini rivojlantirishga ustunlik berish, milliy xo‘jalikning barcha sohalarida suv resurslarini tejash va ulardan oqilona foydalanishning keng qamrovli tadbirlarini amalga oshirish lozim.

O‘zbekistonning tabiati boy va xilma-xil. Gullayotgan bog‘lar, qumli barxanlar, paxta dalalari, qorli tog‘lar, sug‘orish kanallari, ma‘dan manbalari, tog‘ o‘tloqlari – respublikaning landshafti ana shunday rang-barang.

O‘lka boy flora va faunaga (o‘simlik va hayvonot dunyosi) ega.

O‘zbekistonda tabiatdan foydalanishning o‘ziga xos vazifalaridan biri ana shu ajoyib flora va faunani saqlab qolish, ularni ommaviy qirilib ketishdan saqlashdir. Suv resurslarining kamayib borayotganligi, tog‘oldi va daryobo‘yi zonalarining ekstensiv xo‘jalik yuritish natijasida ko‘plab o‘zgartirilishi, pestitsidlar miqdorining yer va suv tarkibida oshib borayotganligi ular hayotiga jiddiy xavf tug‘dirmoqda.

Shuni hisobga olgan holda tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha Davlat qo‘mitasi, parlamentda ekologiya bo‘yicha maxsus deputatlar komissiyasi, tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha respublika jamiyati ish olib bormoqda. Global ekologik jamg‘arma agentligi, Orolni qutqarish jamg‘armasi tuzilgan. «Ekosan» xalqaro jamg‘armasi ishlab turibdi.

Ammo tabiatni asrash, undan foydalanishni yaxshilash ishlab chiqarish va uning tuzilmasi bilan yaqindan bog‘liq hodisadir. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi tabiat resurslaridan foydalanishning ilg‘or usul va texnologiyasiga sekin o‘tkazilayotgani va boshqa bir qator sabablar, ishlab chiqarish jarayonlarining oxiriga yetkazilmaganligi bilan tavsiflanadi.

Nafaqat paxtaning asosiy qismi, balki jun, pilla va boshqa qator qishloq xo‘jalik mahsulotlari ham xomashyo sifatida eksport qilinadi. Mineral xomashyolar va yoqilg‘ining barcha turlarini, rangli metallarni qazib olish ancha o‘sdi. Tabiiy resurslardan foydalanishning jadallashuvi hudud resurslari va ekologik dunyodan foydalanishni kuchaytirdi.

Tabiiy resurslardan foydalanishning jadallashuvini ishlanadigan yer maydonlarining tez kengayishi ham ko‘rsatadi. Respublikada suv xo‘jaligi qurilishi keng miqyosda amalga oshirildi va yangi yerlar o‘zlashtirildi. Yerlarni o‘zlashtirish hajmlarini ko‘paytirishda kapital mablag‘larning asosiy qismi – 80–90 foizi yangi qurilishga, oz qismi esa eskidan sug‘orilib kelinayotgan ekinzorlarning meliorativ holatini ushlab turish va yaxshilashga qaratildi.

O‘zbekiston sug‘oriladigan maydon, qishloq xo‘jaligi yalpi maxsulotining qiymati, suvdan foydalanish bo‘yicha mintaqada yetakchi o‘rinni va mavjud imkoniyatlardan foydalanish darajasi – har gektar yerdan olinadigan foyda, fond samaradorligi, sarflangan suvning har 1000 kub metri hisobiga foyda bo‘yicha esa, oxirgi o‘rinni egallab keldi. Yangi yerlarni o‘zlashtirish va suv xo‘jaligi qurilishiga berilib ketish ishlab chiqarish fondlarini keskin o‘stirishga olib keldi; 1 gektar yer hisobiga asosiy ishlab chiqarish fondlari bilan ta‘minlanganlik oshdi, lekin fond samaradorligi kamaydi.

Ma‘lumki, ishlanadigan yer maydonlarining o‘sishi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ko‘paytirish ma‘nosida ma‘lum ijobiy samara berdi. Ammo u, shu bilan birga, tuproqqa o‘z salbiy ta‘sirini kuchaytirdi, dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish qishloq xo‘jaligidagi yer maydonlari o‘sishidan past bo‘lib qoldi. Uzoq yillar mobaynida asosiy e‘tibor yerlarning sifat holatini yaxshilashga qaratilmadi, natijada qishloq xo‘jaligiga juda katta zarar yetkazildi; yerlar botqoqlashdi, sho‘r bosdi, eroziya kuchaydi, tuproq unumdorligi pasaydi.

Bunga ko‘p jihatdan paxta yakkahokimligi sababchidir. Mustaqillikkacha paxta maydonlarini eniga va bo‘yiga kengaytirish davom etdi. Natijada respublikada suv taqchilligi muammosi paydo bo‘ldi. O‘zbekiston sug‘orma dehqonchilik madaniyatiga asoslangan bo‘lib, suv resurslarining asosiy qismi qishloq xo‘jaligini suv bilan ta‘minlash va sug‘orishga sarflanadi.

### **Qisqacha xulosalar**

1. Yer va suv asosiy tabiat resurslaridan hisoblanadi. Yerga ikki tomondan, birinchidan, hudud, ikkinchidan, tirikchilik, hayot manbai sifatida qarash lozim.

2. O‘zbekistonda yer xususiy mulk obyekti bo‘la olmaydi. Bu qoida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qayd etilgan. Yerning haqiqiy egasi davlat, u yerlarni fermer, dehqon xo‘jaliklari, qishloq xo‘jaligi korxonalari va shaxslarga ma‘lum muddatlarga ijaraga berib qo‘ygan.

3. Yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishi undan foydalanish shakllarini kengaytirish, uni muhofaza qilishni yaxshilashdir.

4. Sug‘oriladigan yerlar mamlakatning oltin fondi hisoblanadi, chunki bu yerlarda har yili intensiv xo‘jalik yuritiladi, oziq-ovqat fondining asosiy qismi yaratiladi. Afsuski, keyingi yillarda bunday yerlar miqdori o‘smayapti. Sanoat, qurilish, ijtimoiy soha katta yer maydonlarini «o‘g‘irlyapti».

5. O‘zbekistonning suv resurslari, asosan, beshta manba – daryolar, sel, kanallar, ko‘llar va suv omborlari hisobiga shakllanadi.

6. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi sug‘orish madaniyatiga asoslangan, chunki iqlimi quruq. Bu yerda yetishtiriladigan paxta, bug‘doy va sholi suvtalab ekinlardir. Shuning uchun ham suvdan foydalanish samaradorligini oshirish uchun respublikada ko‘plab kanallar, sun‘iy ko‘l va suv omborlari qurilgan.

7. Yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun davlat boshqaruv organlari mas'uliyatini oshirish lozim. Ayniqsa, ichimlik suvi sifati va standartini qattiq nazorat qilish katta ahamiyatga ega.

8. Yer va suv resurslaridan pala-partish, uzoqni o'ylamasdan foydalanish katta ekologik tanglikni keltirib chiqardi. Bunga Orol dengizi tajribasi yaqqol misol bo'ladi.

### **Asosiy atamalar va tushunchalar**

Yer resurslari, suv resurslari, sug'oriladigan yerlar, haydaladigan yerlar, bo'z yerlar, avtomorf, gidromorf, yer kadastri, sun'iy ko'llar, yerdan ekstensiv foydalanish, yerdan intensiv foydalanish, lalmi yerlar, flora, fauna, rekreatsiya.

### **Nazorat savollari**

1. Yer qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi deganda nimani tushunasiz?

2. Yer va suv tiklanadigan tabiat resurslariga kiradimi yoki tiklanmaydigan?

3. Nima uchun sug'oriladigan yerlar mamlakatning oltin fondi deyiladi?

4. O'zbekiston yer fondining tarkibiy tuzilishi qanday izohlanadi?

5. O'zbekistonning asosiy suv manbalari nimalardan iborat?

6. Nima uchun O'zbekistonda kanallar va sun'iy ko'llar hosil qilingan?

7. Yer va suv resurslaridan pala-partish foydalanish qanday oqibatlariga olib kelishi mumkin?

8. Yer kadastri nima?

9. O'zbekistonda yer va suv resurslarini boshqaradigan, nazorat va monitoring qiladigan davlat boshqaruv organlarini sanab bering.

10. Yer va suv resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha qanday tavsiyalar bera olasiz?

---

---

## VII bob

# O‘ZBEKISTONNING ISHLAB CHIQRISH, ILMIY-TEXNIKA VA INNOVATSIYA SALOHIIYATI

### 7.1. Ishlab chiqarish salohiyati tushunchasi

Ishlab chiqarish salohiyati milliy iqtisodiyot miqyosida barcha ishlab chiqarish shart-sharoitlari va resurslarining yig‘indisi sifatida aniqlanadi, yalpi ichki mahsulot hajmi, sanoat korxonalari va qurilish tashkilotlari ishlab chiqarish quvvatlari, qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish imkoniyatlari, ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanish darajasi bilan baholanadi.

Ishlab chiqarish salohiyatini ifodalaydigan umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlardan biri asosiy fondlar qiymati hisoblanadi. Asosiy fondlarga binolar, inshootlar, o‘tkazgich qurilmalar, ishchi va kuchli mashina hamda asbob-uskunalar, o‘lchagich va boshqarish anjomlari, hisoblash texnikasi, transport vositalari, jihozlar, ishlab chiqarish va xo‘jalik inventarlari, ishchi va mahsuldor mollar, ko‘p yillik daraxtlar, ichki xo‘jalik yo‘llari va boshqalar kiritiladi. Ular haqli ravishda ishlab chiqarishning «suyak va muskul tizimi» deb ham ataladi.

Asosiy fondlarning qiymati joriy va qiyosiy narxlarda baholanadi, shuningdek, fondlarning qayta baholanishi hisobga olinadi.

O‘zbekistonda yirik ishlab chiqarish salohiyati yaratilgan. 2013-yilning boshidagi hisob-kitoblarga ko‘ra mamlakatdagi barcha asosiy fondlarning qiymati amaldagi baholarda 123,8 trln. so‘mni tashkil etdi.

Asosiy fondlarning faol va nafaol qismini bir-biridan farqlash lozim. Binolar, inshootlar, o'tkazgich qurilmalar tovar va xizmatlar ishlab chiqarishda bevosita qatnashmaydi, shuning uchun ham ular asosiy fondlarning nafaol qismiga kiritiladi. Hozirgi paytda ular barcha asosiy vositalar qiymatining 60 foizga yaqinini tashkil etadi. Uning qolgan qismi mashinalar, asbob-uskuna va jihozlar, transport vositalari, xo'jalik inventarlari, ishchi va mahsuldor hayvonlar, ko'p yillik daraxtlar, qazilma boyliklarni qidirish, hisoblash texnikasi dasturlaridan iborat faol qismdir.

Shu bilan birga asosiy fondlar o'z vazifasiga ko'ra yana ikki katta guruhga ajratiladi. Birinchi guruhga tovarlar ishlab chiqaradigan tarmoqlar (sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish) asosiy fondlari, ikkinchi guruhga xizmat ko'rsatadigan tarmoqlar (transport va aloqa, savdo va umumiy ovqatlanish, uy-joy qurilishi, ta'lim, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya) asosiy fondlari kiritiladi.

Ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, birinchidan, asosiy fondlarning qiymati muntazam o'sish tendensiyasiga ega; ikkinchidan, yalpi asosiy fondlarda xizmat ko'rsatish tarmoqlari asosiy fondlarining hissasi ancha baland; uchinchidan, tovarlar ishlab chiqaradigan tarmoqlarning asosiy fondlari hissasi bir-muncha ko'tarilgan.

Yalpi asosiy fondlar qiymatida iqtisodiyot ishlab chiqarish salohiyatining poydevori sanoat bo'lib, bu yerda milliy iqtisodiyot barcha asosiy fondlarining 31,3 foizi to'plangan. Transport va aloqaning asosiy fondlardagi salmog'i – 22,0, qishloq xo'jaligining salmog'i 10 foizga yaqinni tashkil etadi.

Shuningdek, asosiy fondlarni ishlab chiqarish va noishlab chiqarish turlariga bo'lish an'anaviy amaliyoti ham mavjud.

Bozor munosabatlarining qaror topishi jarayonida transport va aloqa, savdo va umumiy ovqatlanish, banklar, moliyaviy

va sug'urta kompaniyalari, bozorga xizmat ko'rsatuvchi tijorat faoliyatining boshqa turlari kabi xizmatlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlarda binolar qurilishi va kapital ta'mirlash ishlarining bajarilishi asosiy fondlarning tarkibiy tuzilishiga ta'sir ko'rsatdi.

Asosiy fondlarning eskirish darajasi, asosiy fondlar faol qismining yosh tarkibi, mashina va asbob-uskunalarining jahon yuqori texnologiyali ilg'or namunalariga muvofiq kelish darajasi ishlab chiqarish salohiyatining sifat ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Yangi asosiy fondlarni ishga tushirishning sekinlashuvi, ularning eskirgan qismini ishlab chiqarishdan chiqarib yuborishning past sur'atlari bilan birgalikda nafaqat asosiy kapital jismoniy hajmining qisqarishiga, shu bilan birga, fondlar sifat tavsifining yomonlashuviga olib keladi. Natijada asosiy fondlarning ma'naviy va jismoniy eskirish darajasi yuqori darajada qolib ketadi. Hozirgi paytda mamlakat iqtisodiyotida asosiy fondlarning eskirish darajasi 37,1 foizni tashkil etadi. Eskirish darajasi sanoatda – 39,4, qishloq xo'jaligida – 36,3, transportda – 31,7, qurilishda – 40,6, savdo va umumiy ovqatlanish, moddiy-texnika ta'minoti va tayyorlov sohalarida 22,2 foizni tashkil etadi. Asosiy fondlarni yangilash koeffitsiyenti (asosiy fondlarni ishga tushirish) 13,1 foizdan iborat. Agar ularni yangilashning shu sur'ati saqlanadigan bo'lsa, asosiy kapitalga investitsiya kiritishning o'rtacha yillik o'sishini kamida 8–10 foiz darajasida ushlab turish kerak bo'ladi.

Keyingi yillarda iqtisodiyotning agrar sektorda ishlab chiqarish salohiyati ancha qisqardi. Tuproq unumdorligi, naslchilik va urug'chilik yomonlashdi, texnika va texnologiya eskirmoqda. Asosiy fondlar umumiy qiymatida qishloq xo'jaligi asosiy fondlarining hissasi 9,2 foiz, xolos.



Eskirgan texnika va texnologiyadan foydalanish mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishning zaruriy darajasini ta'minlashga, ilg'or texnologiyani qo'llashga yo'l bermaydi, yuqori xarajatlar va past sifatli mahsulot yetishtirishga olib keladi. So'zsiz, keyingi yillarda qishloq xo'jalik mashinalari va jihozlarining yangi avlodi bilan ta'minlash ancha yaxshilandi. Chet eldan kuchli va unumdor traktor va kombaynlar sotib olindi. Iqtisodiyot agrar sektorida ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirishning strategik yo'nalishi ishlab chiqarishning texnik asosini modernizatsiyalash, resurs tejaydigan, chiqindsiz va ekologik xavfsiz texnologiyaga o'tishdir.

Sanoat, transport va aloqa, qurilish tarmoqlarida ishlab chiqarish salohiyatini yuksaltirish, ularni modernizatsiya qilish maqsadida davlat investitsiya faolligini oshirib kelmoqda. Hozirgi bosqichda tovar ishlab chiqaruvchi tarmoqlarning samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga shart-sharoit yaratishga qaratilgan ishlab chiqarish infratuzilmasining asosiy fondlarini yaratish va yangilashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 2016-yilda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 20,3 foizi uy-joy qurilishiga, 31,1 foizi bino va inshootlarga, 39,9 foizi mashina, asbob-uskuna va inventarlarga sarflandi.

## **7.2. Davlatning ilmiy, ilmiy-texnika va innovatsiya siyosati**

O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda davlatning ilmiy, ilmiy-texnika va innovatsiya siyosati muhim rol o'ynaydi. Fanning iqtisodiy ahamiyatini oshirish, ishlab chiqarish va ilmiy-texnika salohiyatini saqlash va yangilash dolzarb muammolardan hisoblanadi. Davlatning bu sohadagi siyosatining bosh maqsadi fan-texnika taraqqiyotini iqtisodiy o'sishning muhim omiliga aylantirishdir. Ammo o'tish

davri qiyinchiliklari, global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz mulk munosabatlaridagi o'zgarishlar va moliyaviy sohani birinchi navbatga chiqarib, ishlab chiqarishni texnologik yangilash, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlovchi milliy fan sohasini birmuncha orqaga surib qo'ydi. Bu holat o'tish davri va inqirozni boshdan kechirgan va kechirayotgan barcha MDH mamlakatlarida ro'y berdi. Vujudga kelgan vaziyat ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlanmalarini olib boruvchi xodimlar sonining pasayib ketishida ham namoyon bo'ldi. Misol uchun, har o'n ming kishiga AQSH-da – 52, Isroilda – 38, Rossiyada – 32, Germaniyada – 29, Koreya Respublikasida – 24, Belarusda 18 nafar tadqiqotchi to'g'ri kelsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 8,6 nafarni tashkil etdi.

YalMning fan sig'imi pasaydi. Fanning moddiy-texnika bazasini yangilash sekin kechdi. Ularning katta qismi (60 foizi) ma'naviy va jismoniy eskirgan edi. Katta tushkunlik, asosan, 1991–2000-yillarga to'g'ri keldi. Davlatning amalga oshirgan katta tadbirlari evaziga ahvol birmuncha barqarorlashdi, ammo baribir, bu sohada texnik jihatdan yuqori rivojlangan mamlakatlardan ancha uzoqdamiz. Shuni hisobga olib, mamlakatimiz rahbariyati tomonidan ahvolni sog'lomlashtirish, ilmiy-innovatsion rivojlanish uchun qulay iqlim yaratishga e'tibor qaratilmoqda.

Birinchi navbatda, bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan fanning amal qilish institutsional-huquqiy bazasi qaytadan qurildi. Fan va fan-texnika siyosati bo'yicha qator qonunlar, Prezident farmonlari, hukumat qarorlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ular ilmiy, ilmiy-texnika va innovatsion faoliyatni amalga oshirishning huquqiy asoslarini belgilab berdi. Mulkiy va tashkiliy shakllaridan qat'i nazar, bu faoliyat subyektlari va qat-

nashchilarining haq-huquqlarini kafolatlash, bu boradagi davlat siyosatining asosiy talablari, faoliyat turlari, maqsad va qoidalari ko'rsatib berildi.

Ilmiy salohiyat fundamental ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishning resurs va shart-sharoitlari majmuasi sifatida tavsiflanadi.

Ilmiy-texnika salohiyati esa amaliy ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar resurslari va shart-sharoitlari, tajriba-konstruktorlik va tajriba-texnologik ishlar majmuasini o'z ichiga oladi.

Innovatsion salohiyat – barcha turdagi ilmiy tadqiqot va ishlanmalar natijalarini amaliy o'zlashtirishni ta'minlovchi resurslar va shart-sharoitlar majmuasidir.

Shunday qilib, ilmiy, ilmiy-texnika va innovatsion salohiyatlar yagona ilmiy-innovatsion siklning o'zaro bog'liq, bir-birini to'ldiradigan bo'g'inlaridir: g'oyaning paydo bo'lishi – fundamental tadqiqot – amaliy tadqiqot – konstruktorlik va tajriba-texnologik ishlanmalar – tajriba namuna (nusxa) – sanoat sinovi – ishlab chiqarishga tatbiq etish – seriyali ishlab chiqarish – sotish – mahsulotdan amalda foydalanish (mashina, asbob, texnologiya).

Bu salohiyatlarni birlashtiruvchi umumiy bo'g'in (zveno) – ilmiy-texnika ishlanmalari va ularning natijalaridir.

O'zbekistonda ilmiy faoliyat tizimining huquqiy bazasidan tashqari uning yangi tashkiliy asoslari, bu sohaning davlat boshqaruvi organlari tizimi ham vujudga keltirildi. Bu ilmiy-texnika siyosatini amalga oshirish uchun zarur edi. Ular – Fanlar akademiyasi, Oliy Attestatsiya komissiyasi, Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasidir. Barcha ilmiy tadqiqot ishlariga mas'ul, uning metodologik asoslarini belgilovchi markaz Fanlar akademiyasi hisoblanadi. U fundamental va fundamental tadqiqotlarga yo'naltirilgan

hamda amaliy-ilmiy tadqiqot davlat dasturlariga javob beradi.

Muvofiqlashtiruvchi qo'mita davlat ilmiy-texnika dasturlari, hududiy ilmiy-texnika dasturlari, tarmoq ilmiy-texnika dasturlari va ustuvor tarmoqlarni rivojlantirish davlat dasturlari, innovatsion loyihalarga mutasaddilik qiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy va davlat maqsadli dasturlarining amalga oshirilishiga mas'ul Iqtisodiyot vazirligi va tarmoq vazirliklari, konsernlardir. Bundan tashqari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tarmoq vazirliklari tarmoqlarda ilmiy tadqiqot ishlari va ilmiy-texnikaviy faoliyatni muvofiqlashtiradi, oliy malakali kadrlar tayyorlaydi, davlatning ilmiy-texnika siyosatini olib boradi.

### **7.3. Ilmiy, ilmiy-texnika salohiyati**

Ilmiy salohiyatning makroparametrlari bo'lib YalMning fan sig'imi, ilmiy tarmoqlarda band bo'lganlarning o'rtacha yillik soni va ularning iqtisodiyotda band bo'lganlarga nisbati, *ilmiy tashkilot va muassasalarning soni* hisoblanadi.

An'anaviy ilmiy tashkilotlar uchta sohaga bo'linadi: akademik, oliy o'quv yurtlari va tarmoq institutlari. Yirik korxonalar huzurida ham ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug'ullanadigan bo'limlar mavjud. 2016-yilda mamlakatimizda 437 ta ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini bajaradigan tashkilotlar faoliyat ko'rsatdi. Ulardan 65 tasi ilmiy tadqiqot tashkilotlari, 63 tasi oliy ta'lim muassasalari, qolganlari loyiha va loyiha-qidiruv tashkilotlari, sanoat korxonalari va konstruktorlik tashkilotlaridir. Bu tashkilotlarda 36984 nafar kishi ilmiy xodimlar hisoblansa, ularning 31966 nafari ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini bajarganlardir.

**Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajargan ilmiy  
xodimlar (2000–2016-yillar)**

	2000	2005	2010	2016
Ilmiy xodimlar – jami (oliy ta’lim muassasalarining ilmiy-pedagogik xodimlarini qo’shgan holda)	36837	34094	36358	31966
Shu jumladan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajargan tadqiqotchi-mutaxassislar	25083	26685	30343	31966
Ulardan ilmiy darajaga ega bo’lganlar:				
Fan doktori	2009	2353	2549	2242
Fan nomzodi	8192	8363	9254	8200

Mamlakat fanining shtabi – O‘zbekiston Fanlar akademiyasi (O‘zFA) bo‘lib keldi. Ilmiy tadqiqot muassasalari va tadqiqotchi xodimlarning asosiy qismi ana shu markazda to‘plangan edi. Keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi oliy o‘quv yurtlari ilmiy tadqiqot sektorlari, markazlari va laboratoriyalarining ahamiyati ortmoqda. Ularda amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqotlar davlat fan-texnika dasturlarini bajarish va oliy malakali mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan.

Tarmoq fani, asosan, ilmiy-texnika markazlari, konstruktorlik-texnologiya byurosi, sanoatning o‘zak korxonalari, qurilish, agrosanoat majmuasi, sog‘liqni saqlash ilmiy tadqiqot muassasalarini birlashtiradi.

Ilmiy va ilmiy-texnika salohiyatining sifat tavsifini uning tarmoq tarkibi beradi. An’anaviy tabiiy, texnik, tibbiy, qishloq xo‘jaligi, ijtimoiy va gumanitar fanlarga guruhlash qabul qilingan. Keyingi yillarda texnika fanlarining ahamiyati ortib bormoqda. Xarajatlarning ham asosiy qismi ana shu fan sohalarini rivojlantirishga sarflanmoqda. Bu tendensiya mamlakatimizda

olib borilayotgan davlat iqtisodiy siyosati bilan bog‘liq. Milliy iqtisodiyotda yangi industrlashtirish, modernizatsiyalash va ular pirovardida esa yuqori texnologiyali innovatsion ishlab chiqarishga o‘tish jarayonlari bormoqda.

Olib borilayotgan bozor islohotlari mamlakat fanini tashkil etish, ilmiy kadrlarni tayyorlash yo‘nalishlarini ham qamrab olgan, chunki tadqiqotchilar ilmiy-texnika salohiyatining muhim qismi hisoblanadi. Ularning malakaviy tayyorgarligi, bilimi va obro‘-e‘tibori milliy fanimizning rivojlanish darajasini ko‘p jihatdan belgilab beradi. Shuning uchun ham ularning sifat tarkibini o‘zgartirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda katta ilmiy xodim-izlanuvchilar instituti joriy qilindi. U fan va texnikaning o‘ta muhim yo‘nalishlari bo‘yicha oliy malakali ilmiy-pedagogik kadrlarni kunduzgi o‘qish shaklida tayyorlashni taqozo etadi. Ular o‘qish davomida dolzarb mavzularda dissertatsiya tayyorlash ustida ish olib boradilar. 2016-yilda 128 ta ilmiy tashkilot katta ilmiy xodim-izlanuvchi institutiga ega bo‘ldi. Katta ilmiy xodim-izlanuvchilar soni 1370 nafarni tashkil qildi. Ularning eng ko‘pi tabiiy, texnika, tibbiyot, iqtisodiyot va pedagogika fanlari yo‘nalishlarida tadqiqot olib bormoqda.

Ilmiy tadqiqot ishlarini moliyalashtirish mexanizmi ham takomillashib bormoqda. Ilmiy tadqiqotlarning umumiy xarajatlari tashkilotlar bajaradigan ichki ishlar va bu ishlarni bajaruvchilarga sarflanadigan xarajatlardan tarkib topadi. Ular uch sektorga – davlat, tadbirkorlik va oliy ta‘lim tomonidan amalga oshiriladigan xarajatlarga bo‘linadi. Turli xil jamg‘armalar ham ilmiy tadqiqot ishlarini moliyalashtirishga ko‘maklashishi mumkin. Ichki xarajatlar, asosan, ish haqi va asbob-uskunalar sotib olishdan iborat.

Fanning moddiy-texnika bazasi ilmiy, konstruktorlik tashkilot va korxonalari, infratuzilma obyektlarining asosiy fondlari

(bino, inshootlar, maxsus laboratoriyalar, texnologik asbob-uskuna va jihozlar)ni o‘z ichiga oladi. Uning o‘zagi, faol qismini ilmiy tadqiqotlar olib borishga mo‘ljallangan asbob-uskuna va jihozlar tashkil etadi.

Ilmiy tadqiqotlar, asosan, uch yo‘nalishda olib boriladi: fundamental tadqiqotlar yangi bilimlar (gipoteza, nazariya, uslubi-yat)ga, amaliy tadqiqotlar – texnik va texnologik yangilikni ishlab chiqishda yangi bilimlardan foydalanish usul va yo‘llariga, tadqiqot va ishlanmalar – yangi materiallar, mahsulotlar, qurilmalar, texnologik jarayonlarga qaratiladi.

Ilmiy tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi bir qator omillarga bog‘liq. Ulardan asosiylari quyidagilar:

- tadqiqotning texnik darajasi, tugallanganligi, joriy etishga tayyorligi;

- ilmiy tadqiqotni joriy etishning biznes-rejasi, tijoratlashtirish strategiyasi;

- intellektual mulkning himoyalanganligi;

- bozorning imkoniyatlari (sig‘imi);

- inson resurslari, intellektual (kadrlar) salohiyati;

- moliya kapitali.

Innovatsiya, qachonki tovar va xizmatlar bozorida sotilagina amalga oshgan hisoblanadi. Kashfiyot, nou-xau, ixtiro, patent, litsenziya, foydali modellar, sanoat namunalari, axborot texnologiyalari, konsepsiyalar, boshqarish organlariga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha tavsiyalar va boshqa shakllardagi ilmiy natijalar fan uchun mustaqil qimmatga ega bo‘la turib, faqat innovatsiya bosqichini bosib o‘tgandan keyingina bozor ahamiyatini kasb etadi. Shuning uchun ham mamlakat zamonaviy innovatsiya sohasiga, bozor munosabatlariga javob beradigan kuchli innovatsiya salohiyatiga ega bo‘lishi zarur.

## 7.4. Innovatsiya salohiyati

Innovatsion salohiyatning holati va rivojlanish darajasi quyidagi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi:

- ilmiy-texnika ishlanmalari darajasi;
- tarmoqlar va korxonalar tajriba-eksperimental bazasining holati va quvvatlari;
- tajriba namunalari o'zlashtirish uchun zaxira ishlab chiqarish maydonining mavjudligi;
- ishlab chiqarish va texnologik jihozlar texnologik bazasi darajasi;
- yangi mahsulotni seriyali ishlab chiqarish uchun ishlab chiqarish va resurslarni tayyorlash samarali tizimining mavjudligi;
- korxonaning innovatsion faollik darajasi;
- innovator-kadrlar tayyorlash tizimi;
- innovatsiyani moliyaviy ta'minlash darajasi.

Jahon tajribasida innovatsiya salohiyatidan foydalanish intensivligi va samaradorligi quyidagi parametrlarda baholanadi:

- sanoat umumiy mahsuloti hajmida keyingi uch yil davomida o'zlashtirilgan yangi mahsulotning hissasi;
- texnologiyaning yangilanishi va rivojlanishi (an'anaviy va ilg'or texnologiyalar nisbati);
- eksportda fan sig'imi yuqori va o'rta yuqori mahsulotlar hissasi;
- korxonaning texnologik ayirboshlashda qatnashishi va uning innovatsion mahsulotlar bozoridagi hissasi;
- korxonaning moliya-sanoat guruhlarida qatnashishi.

Innovatsion sohaning yadrosi – ishlab chiqarish korxonasi-dir. Uning texnologik darajasi, mahsulotlarining raqobatbardoshligi, ishlab chiqarish samaradorligi, bozordagi o'rni, barqaror moliyaviy ahvoli bilimlarga, yangi texnologiyalarga, yangi mahsulotlarga, boshqarish usul va tartiblariga talabni belgilaydi.



Shunday qilib, innovatsion iqtisodiyot korxonaning amaliyotida doimiy ilmiy ishlanmalar, yangi konsepsiyalar, g'oya va ixtirolar hamda ulardan foydalanish qobiliyati, unga intilishidir. Innovatsionlik, shuningdek, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohaslarida mavjud texnologiyani takomillashtirish va rivojlantirish, boshqarish va tashkil qilishda yangi qarorlarni joriy qilish, ayniqsa, axborot to'plash, axborot olish va uni qayta ishlash sohasida infratuzilmani takomillashtirish va rivojlantirishni ham bildiradi.

Milliy iqtisodiyotning texnologik darajasi va raqobatbardoshligining asosiy makroko'rsatkichi – mamlakat eksportida yuqori texnologiyali, fan, ilm sig'imi yuqori mahsulotlar hissasidir.

Fan sig'imi yuqori mahsulotlar jahon bozorida axborot texnologiyalari hissasi 5 foiz. 2020-yilda uning hissasi jahon YaMida 9 foizga yetadi. Hozir bu ko'rsatkich Janubiy Koreyada 11,8, AQSHda – 6,8, Shvetsiyada 7 va O'zbekistonda 2 foizdir.

Innovatsion ishlab chiqarishga o'tish oson ishlardan emas, albatta. Bu borada qator to'siqlar, qiyinchiliklar uchraydi:

- moliyaviy vositalarning yetishmasligi;
- malakali innovator-kadrlar kamligi;
- soliq tizimining takomillashmaganligi;
- yangi texnika va u haqidagi axborotning yetishmasligi;
- innovatsion mahsulotlar bozorining torligi;
- yangilikni joriy etish xarajatlarining yuqoriligi shular jumlasidandir.

O'zbekistonda «O'zeltexsanoat» tizimidagi qator korxonalar – OAO «Foton», «Sino», «O'zelektroterm», NPK «Kvark» va boshqa korxonalarda innovatsion turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Mamlakatimizda oliy malakali innovator kadrlar Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Turin politexnika (Italiya)

va Inha (Koreya Respublikasi) universitetlarida va boshqa oliy o'quv yurtlarida tayyorlanmoqda.

## **7.5. Innovatsiya faoliyatini boshqarish**

O'zbekistonda innovatsion faoliyatni boshqarishning davlat mexanizmi va huquqiy-me'yoriy asoslari yaratilgan. Chunonchi, 2009-yil 12-martda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining «2009–2014-yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qurollantirishning eng muhim loyihalarini amalga oshirish chora-tadbirlari Dasturi to'g'risida»gi Qarori qabul qilingan edi. Bu hujjatga muvofiq 852 ta investitsion loyihani amalga oshirish ko'zda tutilgan bo'lib, ulardan 127 tasi innovatsion xarakterdagi loyihalar edi. Bundan sal ilgariroq – 2008-yil 15-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori qabul qilinib, unda 2013-yilning 1-yanvariga qadar o'quv va ilmiy tadqiqot muassasa va tashkilotlari, loyiha-konstruktorlik tashkilotlarining amaliy ilmiy tadqiqot va konstruktorlik ishlarini xo'jalik subyektlari bilan tuzilgan shartnomalarni bajarishda foyda solig'i, yagona soliq to'lovi, qo'shimcha qiymat solig'i va davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy to'lovlardan ozod qilish ko'zda tutildi. Bu qarorga muvofiq ularga bojxona imtiyozlari ham berildi.

2012-yil 21-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori bu boradagi yana bir muhim qadam bo'ldi.

Shuningdek, 2008-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ilmiy, ilmiy tadqiqot muassasa va tash-

kilotlari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida», Texnologiyalar transferi bo'yicha Agentlik Davlat unitar korxonasi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida», «Innovatsion loyihalarni ishlab chiqarishga joriy qilishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» qarorlari qabul qilindi.

Innovatsion faoliyatni kengaytirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 11-maydagi birlamchi ustav kapitali 1 mlrd. AQSH dollaridan iborat «O'zbekiston Respublikasi rekonstruksiyalash va rivojlanish jamg'armasini tashkil etish», 2008-yil 2-dekabrdagi «Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zonani qurish to'g'risida»gi farmonlari muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Keyingi farmonga muvofiq zamonaviy chet el yuqori unumdor jihozlar va texnika-texnologik liniya va modullar, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hisobiga keng miqyosda yuqori texnologiyali, eksportga yo'naltirilgan, jahon bozorida raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish vazifalari belgilab berilgan edi. Angren va Jizzaxda tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalarning ham ana shu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasiz.

Mamlakatimizda bu borada sezilarli siljishlarga erishilmoqda. Ammo hali qator muammolar ham yo'q emas. Bu tabiiy, albatta. Yaponiya va Germaniyada bu boradagi harakatlarga o'tgan asrning 50-yillarida, AQSHda esa undan ham ilgariroq kirishilgan edi.

O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishdagi eng asosiy muammolardan biri qilib, bu sohada yuqori malakali kadrlarning yetishmasligi, moddiy-texnika bazasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, milliy iqtisodiy tarmoqlar va alohida korxonalarining yangilikni joriy etishga hali tayyor emasligini ko'rsatish mumkin.

Jahon tajribasi va mamlakatimizda innovatsion iqlim va shart-sharoitni yaratish davlatning iqtisodiy siyosatida fan va texnologiyalarni rivojlantirishda yanada kattaroq e'tiborni taqozo etadi. Asosiy e'tibor nafaqat o'rta, o'rta-maxsus va oliy ta'limga, shuningdek, fundamental va tarmoq fanlarni rivojlantirishga, fan va sanoat o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga qaratilmog'i lozim. «Yuqori texnologiyali» investorlar, yirik TMKlarni jalb qilish, erkin iqtisodiy zonalarni ko'paytirish, mamlakatga chet el ilmiy tadqiqot markazlarini olib kelish ham bu borada katta natijalar berishi mumkin. Shu maqsadda axborot texnologiyalar industriyasini, sanoatning elektrotexnika va boshqa fan sig'imi yuqori turlarini rivojlantirish dolzarb hisoblanadi.

Tabiiyki, innovatsion ishlab chiqarishga iqtisodiyotning hamma tarmoqlarida birdaniga erishib bo'lmaydi. Bu borada asta-sekin innovatsion ishlab chiqarishning endo-ekzogen, ya'ni ichki va tashqi omillarini qo'shib olib borish, o'zlashtirish, nusxa ko'chirish, reinjiring shakllaridan unumli foydalanish, avvalo, ustuvor, lokomotiv bo'la oladigan sohalarni aniqlab olib harakat qilish yaxshi natijalar berishi mumkin.

## **Qisqacha xulosalar**

1. Milliy ishlab chiqarishni rivojlantirishda ishlab chiqarish salohiyatining o'rni katta. Uni ifodalaydigan umumlashtiruvchi ko'rsatkich asosiy fondlarning qiymatidir. 2013-yilning boshida O'zbekistonda barcha asosiy fondlarning qiymati 123,8 trln. so'mni tashkil etdi.

2. Asosiy fondlar (ishlab chiqarish vositalari, asosiy kapital) ishlab chiqarishning «suyak va muskul» tizimini tashkil etadi.

3. Asosiy fondlar, o'z vazifasiga ko'ra, faol va nofaol, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish, tovarlar ishlab chiqaradigan va xizmatlar ishlab chiqaradigan turlarga bo'linadi.

4. Asosiy fondlarning salohiyati ularga kapital kiritish orqali yangilash, rekonstruksiya qilish, eskilarini chiqarib yuborish orqali oshirib boriladi. O‘zbekistonda ularning qiymati yildan yilga oshib bormoqda.

5. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni yuqori darajada ta’minlash maqsadida davlat ilmiy, ilmiy-texnika siyosatini olib boradi.

6. Ilmiy salohiyat fundamental ilmiy tadqiqotlarning resurs va shart-sharoitlari majmuasini bildiradi.

7. Ilmiy-texnika salohiyati – amaliy tadqiqotlar resurs va shart-sharoitlari, tajriba-konstruktorlik va tajriba-texnologik ishlar majmuasini o‘z ichiga oladi.

8. Innovatsiya salohiyati – barcha turdagi ilmiy tadqiqot va ishlanmalar natijalarini amaliy o‘zlashtirishni ta’minlovchi resurslar va shart-sharoitlar majmuasidir.

9. O‘zbekistonda yuqori texnologiyali tovarlar ishlab chiqaradigan tarmoqlar, sanoat korxonolari mavjud. Ilmiy texnika va innovatsion faoliyatning iqtisodiy huquqiy-me’yoriy asoslari yaratilgan.

10. O‘zbekistondagi qator oliy o‘quv yurtlarida oliy malakali innovator-kadrlar tayyorlanmoqda.

### **Asosiy atamalar va tushunchalar**

Ishlab chiqarish salohiyati, ilmiy salohiyat, ilmiy-texnika salohiyati, innovatsiya salohiyati, asosiy fondlar, investitsiya, resurslar, Fanlar akademiyasi, Oliy Attestatsiya komissiyasi, Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo‘mitasi, muvofiqlashtirish, fan sig‘imi, innovatsion iqtisodiyot, yuqori texnologiyali mahsulot.

### **Nazorat savollari**

1. Nima uchun asosiy fondlar ishlab chiqarishning «suyak va muskul» tizimi deyiladi?

2. Asosiy fondlar o‘zlarining funksional vazifalariga ko‘ra qanday qismlarga bo‘linadi?
3. Nima uchun asosiy fondlar eskiradi, uning eskirish darajasi milliy iqtisodiyotda va uning tarmoqlarida qay darajada?
4. Nima hisobiga va qanday qilib asosiy fondlar yangilanadi, yangilari ishga tushiriladi?
5. Ilmiy, ilmiy-texnika va innovatsion salohiyatlarning ta’rifini bilasizmi? Ta’riflab bering.
6. «Innovatsion iqtisodiyot» deganda nimani tushunasiz?
7. «Yuqori texnologiyali ishlab chiqarish» va «innovatsion ishlab chiqarish» o‘rtasida umumiylik va farqlar bormi?
8. O‘zbekistonda qaysi tarmoq va korxonalarda yuqori texnologiyali tovarlar ishlab chiqariladi?
9. Mamlakatimizda yuqori malakali innovator-kadrlar qaysi oliy o‘quv yurtlarida tayyorlanmoqda?
10. Davlatning ilmiy, ilmiy-texnika va innovatsiya siyosati deganda nimani tushunasiz? Mamlakatimizda ularning iqtisodiy, huquqiy-me’yoriy asoslari yaratilganmi?

---

---

## VIII b o b

# O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINING HUDUDIY TARKIBI

### 8.1. Mintaqa – milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi

Milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarish va ijtimoiy soha majmualari bilan birga mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy majmualar ham faoliyat ko‘rsatadi. Bu majmualarning shakllanishi alohida hududlar ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi uchun tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar va omillarning mavjudligi bilan izohlanadi.

Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy majmua respublika ichki mintaqalarining shakllanishi uchun obyektiv asos yaratuvchi, barqaror iqtisodiy munosabatlar o‘rnatilgan ko‘plab obyektlardan iborat murakkab, dinamik rivojlanuvchi tizimdir. Mintaqa lotincha «*region*» so‘zidan olingan bo‘lib, joy, o‘lka, aniq hudud kabi ma’nolarni anglatadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida mintaqa hududiy mehnat taqsimoti jarayonida ajralib chiqqan mamlakat hududining bir qismi bo‘lib, u yoki bu tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi, takror ishlab chiqarish jarayonining umumiyli-gi va boshqa hududlarga nisbatan o‘ziga xosligi, xo‘jaligining majmuaviy va yaxlit xarakterga ega ekanligi, mintaqa oldida turgan vazifalarni hal etishni ta’minlovchi boshqaruv organlarining mavjudligi bilan tavsiflanadi. Bunday hududiy birliklarga iqtisodiy rayonlar, respublikalar, viloyatlar va shaharlarni kiri-

tish mumkin. Ular mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy boshqarish zanjirida bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq halqalar tizimini tashkil etadi.

Iqtisodiy rayon – mamlakatning hududiy yaxlit qismi bo‘lib, muayyan hududda mavjud barcha tarmoqlar va ishlab chiqarish turlarini o‘zida birlashtiradi, tegishli ishlab chiqarish ixtisoslashuviga, barqaror ichki ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarga ega bo‘ladi. Mamlakatning ma‘muriy-hududiy bo‘linishida va milliy iqtisodiyotning hududiy tarkibini tahlil qilishda iqtisodiy rayonlashtirish muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekistonda mintaqalar sifatida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrini ko‘rsatish mumkin, chunki aynan ularda ma‘muriy-boshqaruv tizimi va ularni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish imkoniyati mavjud. Shu sababli ular davlat mintaqaviy siyosatining asosiy subyektlari hisoblanadi.

Iqtisodiyotni hududiy jihatdan tashkil etish hududda ishlab chiqarish va mehnatni jalb etish turlarining turli shakllarda uyg‘un holda faoliyat ko‘rsatishiga asoslangan ishlab chiqarish kuchlari unsurlari o‘zaro ta‘sirining ko‘p darajali tizimidir. Ularning mintaqalarda oqilona tarzda birlashishi tabiiy, mehnat va moliyaviy resurslardan samarali foydalanishga olib keladi.

Mintaqada ishlab chiqarish kuchlari unsurlari turli darajada birlashadi, iqtisodiy aloqalar va munosabatlar esa turli darajada lokallashadi. Bu – mamlakat iqtisodiyotining umumiy tuzilmasi tarkibida bevosita takror ishlab chiqarishning mintaqaviy jihatlarini bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlarni ajratish imkonini beradi. Ushbu munosabatlar va aloqalar yig‘indisi iqtisodiyotning hududiy tarkibini tashkil etadi.

Iqtisodiyot hududiy tarkibining asosi ishlab chiqarishni joylashtirish hisoblanadi va u hududiy mehnat taqsimotining rivojlanishi va chuqurlashuvi natijasi sifatida namoyon bo‘ladi.



Iqtisodiyotning hududiy tarkibi tarmoq tarkibi bilan uzviy bog‘liq, chunki har bir tarmoq, korxonalar yoki ishlab chiqarish aniq hududda faoliyat ko‘rsatadi, o‘zining hududiy joylashuviga ega bo‘ladi, ular o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar esa tarmoqlar, korxonalar joylashgan mintaqalar o‘rtasidagi aloqalar sifatida namoyon bo‘ladi.

Mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy obyekt sifatida tarmoqdan bir qator xususiyatlari bilan farq qiladi. Eng avvalo, mintaqaning farqli jihati shundan iboratki, unda moddiy ne‘matlar ishlab chiqarish, ularni taqsimlash, ayirboshlash va iste‘mol qilishni o‘z ichiga qamrab olgan xo‘jalikning turli tarmoqlari o‘zaro birlashadi. Demak, mintaqa xo‘jalik majmuasi sifatida tarmoqqa nisbatan murakkab tuzilma hisoblanadi. Aynan mintaqa doirasida iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish, tabiiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish masalalarini hal etishga majmuaviy tarzda yondashish mumkin.

Agar tarmoqlar tor ishlab chiqarish vazifalarini hal etishga asosiy e‘tiborni qaratsalar, mintaqa oldiga tarmoqlar, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma rivojlanishini o‘zaro bog‘lash, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni muvofiqlashtirish masalalari qo‘yiladi.

Iqtisodiyotning hududiy tarkibi shakllanishi ko‘plab omillar ta‘sirida yuz beradi. U mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va jahon xo‘jalik aloqalarida tutgan o‘rniga bevosita bog‘liq. Iqtisodiyotning hududiy tarkibi shakllanishiga ta‘sir etuvchi muhim omillar jumlasiga mineral xomashyo, yoqilg‘i-energetika, suv, o‘rmon va yer resurslari, mehnat resurslari, iqtisodiy va ilmiy-texnika salohiyati, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma, aholining joylashishi va boshqalar kiradi.

## **8.2. Iqtisodiy rayonlarning O‘zbekiston iqtisodiyotida tutgan o‘rni va roli**

Bugungi kunda O‘zbekiston hududini iqtisodiy rayonlarga ajratish bo‘yicha yagona yondashuv mavjud emas. Ayrim iqtisodchi-olimlar fikricha, respublikani 6 ta iqtisodiy rayonga ajratish maqsadga muvofiq:

1. Toshkent (Toshkent shahri va Toshkent viloyati).
2. Farg‘ona (Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatlari).
3. Zarafshon (Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyatlari).
4. Mirzacho‘l (Sirdaryo va Jizzax viloyatlari).
5. Janubiy (Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari).
6. Quyi Amudaryo (Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati).

Ba’zi manbalarda Zarafshon iqtisodiy rayoni Markaziy, Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni Orolbo‘yi nomi bilan ataladi. Shu bilan birga O‘zbekistonda iqtisodiy rayonlashtirishning quyidagi tasnifi ko‘proq qo‘llanilmoqda:

1. Toshkent iqtisodiy rayoni.
2. Jizzax – Sirdaryo iqtisodiy rayoni.
3. Farg‘ona iqtisodiy rayoni.
4. Samarqand – Qashqadaryo iqtisodiy rayoni.
5. Buxoro – Navoiy iqtisodiy rayoni.
6. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni.
7. Surxondaryo iqtisodiy rayoni.

O‘zbekiston iqtisodiyotida respublika mintaqalarining tutgan o‘rni va roliga baho berish uchun ularning jami aholi soni va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy ko‘rsatkichlaridagi salmog‘ini tahlil qilish lozim.

Bu iqtisodiy rayonlarning iqtisodiy rivojlanishi darajalarining qiyosiy tavsifi jadvalda keltirilgan.

**O'zbekiston iqtisodiy rayonlari rivojlanish darajasining qiyosiy tavsifi (2016-yil)**

	Hududi	Aholi soni	Iqtisodiyotda band bo'lganlar	YalM	Sanoat mahsuloti	Qishloq xo'jaligi mahsuloti	Asosiy kapitalga investitsiyalar	Qurilish ishlari
O'zbekiston Respublikasi	100	100	100	100	100	100	100	100
<b>Iqtisodiy rayonlar</b>								
Toshkent	3,5	16,3	19,2	26,1	36,1	12,6	31,4	21,2
Farg'ona	4,3	28,6	28,3	17,1	17,4	26,6	14,0	16,5
Jizzax – Sirdaryo	5,7	6,5	6,0	4,6	4,9	8,9	5,0	4,8
Samarqand – Qashqadaryo	11,8	21,0	19,4	13,6	14,2	20,2	18,3	16,5
Buxoro – Navoiy	31,8	8,7	9,9	10,8	14,5	13,9	17,3	11,2
Quyil Amudaryo	38,3	11,2	10,1	6,9	6,3	8,8	10,4	8,1
Surxondaryo	4,6	7,7	7,0	4,6	2,0	8,8	4,0	5,4

**Toshkent iqtisodiy rayoni** o‘z ichiga Toshkent shahri va Toshkent viloyatini olib, iqtisodiy rivojlanish darajasining nisbatan yuqoriligi, mineral-xomashyo resurslariga boyligi, aholining zich joylashganligi, qulay iqtisodiy-geografik holati (Markaziy Osiyoga va undan Rossiyaga chiqadigan transport yo‘lagi), poytaxt mintaqasi maqomi bilan ajralib turadi. Toshkent mintaqasining maydoni 15,6 ming kv.m bo‘lib, respublika hududining 3,5 foizini tashkil etadi. 2017-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra mintaqada 5 mln. 253 ming 400 kishi yoki mamlakat aholisining 16,3 foizi istiqomat qiladi.

Qishloq xo‘jaligi sertarmoq (paxtachilik, donchilik, kanopchilik, pillachilik, shahar atrofi bog‘dorchiligi, sabzavotchilik, go‘sht-sut chorvachiligi va boshqalar) va rivojlangan.

Toshkent iqtisodiy rayoni mamlakatdagi sanoati rivojlangan mintaqa hisoblanadi. Sanoatning rivojlanish darajasi mamlakat bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan ikki marta yuqori turadi. 2016-yilda O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan YaIMning 26,1 foizi, sanoat mahsuloti hajmining 36,1 foizi, yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotining 12,6 foizi, asosiy vositalarga kiritilgan investitsiyalarning 31,4 foizi, qurilish ishlarining 21,2 foizi, iqtisodiyotda band bo‘lganlarning 19,2 foizi Toshkent iqtisodiy rayoni hissasiga to‘g‘ri keldi. Bundan tashqari, respublika tashqi savdo aylanmasining 48,9 foizi, mamlakatda ishlab chiqarilgan iste‘mol mollarining 37,2 foizi, chakana savdo aylanma hajmining 32,4 foizi ushbu iqtisodiy rayon hissasiga to‘g‘ri keladi.

O‘zbekistonda mashina va uskuna-jihozlarning katta qismini ishlab chiqaradigan mashinasozlik majmuasi mazkur iqtisodiy rayonda joylashgan. U mamlakatda qora va rangli metallurgiya mahsulotlari ishlab chiqarishda asosiy o‘rinni egallaydi. O‘zbekiston metallurgiya kombinatida qora metallar prokati 100 foiz, Olmaliq metallurgiya kombinatida mis va ruxning

asosiy qismi, ko‘mir qazib chiqarish (96,6 foiz), asosiy kimyo va organik sintez kimyoviy mahsulotlari (mineral o‘g‘itlarning 39,4 foizi, etil spirtining 36,2 foizi), ko‘pgina qurilish materiallari va konstruksiyalar (sementning 40 foizi, shiferning 58,6 foizi, linoleumning 100 foizi, deraza oynasining 23,8 foizi) ishlab chiqariladi.

Rayon qudratli qurilish bazasi, zich transport tarmog‘iga ega, mamlakatning ilmiy-loyiha va konstruktorlik salohiyati, kadrlar tayyorlash bo‘yicha muassasalarning asosiy qismi shu rayonda joylashgan.

**Farg‘ona iqtisodiy rayoni** ma‘muriy jihatdan Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatlarini o‘z ichiga oladi. Maydoni 19,2 ming kv. km ga teng bo‘lib, bu respublika hududining 4,3 foizini tashkil etadi. 2017-yil boshida iqtisodiy rayonda 9179,7 ming kishi istiqomat qilib, bu mamlakat aholisining 28,6 foizini tashkil etadi.

Farg‘ona iqtisodiy rayonida yer-suv va mineral xomashyo resurslari g‘oyat cheklangan, ammo mintaqa mehnat resurslariga boy va mamlakat aholisining eng zich joylashgan hududi hisoblanadi. Rayonni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishi mavjud qishloq xo‘jaligi resurslari xomashyosi (paxta, meva, sabzavot, pilla)ga mo‘ljallangan mehnattalab ishlab chiqarish tuzilmasini barpo etishdan iborat. Qishloq xo‘jaligi, asosan, paxtachilikka ixtisoslashgan (yalpi paxta hosilining 26 foizi). Rayonda ipakchilik, kimyo sanoati (mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarish), neftni qayta ishlash (Farg‘ona, Oltiariq), butun Markaziy Osiyoda yagona bo‘lgan yengil avtomobil ishlab chiqaradigan «GM-Uzbekistan» qo‘shma korxonasi muhim ahamiyatga egadir.

2016-yilda Farg‘ona iqtisodiy rayonida O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan YaIM hajmining 17,1 foizi, sanoat mahsuloti hajmining 17,4 foizini ishlab chiqardi va bu ko‘rsatkichlar bo‘yicha Toshkent iqtisodiy rayonidan keyin ikkinchi o‘rinda

turadi. Yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotidagi salmog‘i 26,6 foizga teng. Bu ko‘rsatkich bo‘yicha esa iqtisodiy rayonlar orasida birinchi o‘rinni egallaydi. Shuningdek, 2016-yilda mintaqaga chakana savdo aylanma hajmining 22,4 foizi, ishlab chiqarilgan iste‘mol mollarining 22,9 foizi, qurilish ishlarining 16,5 foizi, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 14,0 foizi, iqtisodiyotda band bo‘lganlarning 28,3 foizi hamda respublika tashqi savdo aylanmasining 12,7 foizi to‘g‘ri keldi.

**Jizzax – Sirdaryo iqtisodiy rayoni** respublikaning markaziy qismida joylashgan bo‘lib, u ma‘muriy jihatdan Jizzax va Sirdaryo viloyatlarini o‘z ichiga oladi. Maydoni 25,6 ming kv. km ga teng bo‘lib, respublika hududining 5,7 foizini tashkil etadi. 2017-yil boshida mintaqada 2104,1 ming kishi yoki mamlakat aholisining 6,5 foizi istiqomat qildi.

Mirzacho‘l va Jizzax cho‘llarini o‘zlashtirish munosabati bilan bu rayon jadal rivojlandi va muayyan xo‘jalik mustaqilligiga ega bo‘ldi. Mamlakatda paxta yetishtiruvchi yirik rayon hisoblanadi (yalpi hosilning 25 foizi). Rayon sanoati shakllanish bosqichida, uning tuzilmasida paxta tozalash sanoati va issiqlik energetikasining hissasi katta. Jizzax cho‘lini yanada o‘zlashtirish rayon rivojining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Sanoat-fuqarolik qurilishi uchun yer resurslarining ko‘pligi, qulay iqtisodiy-geografik va transport sharoitlari, Toshkent, Farg‘ona, Samarqand – Qashqadaryo iqtisodiy rayonlariga qo‘shniligi bu yerda ishlov beruvchi sanoat korxonalarini joylashtirish, aholini zich joylashgan hududlaridan ko‘chirib keltirish, istiqbolda erkin iqtisodiy zonani rivojlantirish imkoniyatlarini beradi.

2016-yil mintaqada O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan YaIMning 4,6 foizini, sanoat mahsuloti hajmining 4,9 foizini, qishloq xo‘jaligi mahsulotining 8,9 foizini, asosiy vositalarga kiritilgan

investitsiyalarning 5,0 foizini, qurilish ishlarining 4,8 foizini berdi.

Shuningdek, mamlakatda ishlab chiqarilgan iste'mol mollarining 5,1 foizi, chakana tovar aylanma hajmining 5,1 foizi hamda respublika tashqi savdo aylanmasining 1,8 foizi ushbu mintaqa hissasiga to'g'ri keladi.

**Samarqand – Qashqadaryo iqtisodiy rayoni** ma'muriy jihatdan Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarini o'z ichiga olib, mamlakatning markaziy qismida joylashgan. Mintaqa 52,9 ming kv. km ga teng bo'lib, mamlakat hududining 11,8 foizini tashkil qiladi. Aholisi 2017-yil boshida 6740,5 ming kishini tashkil etib, bu – respublika aholisining 21,0 foiziga teng.

Uning hududidagi tog'li va tog'oldi adirliklarida qadimiy lalmikor dehqonchilik, bog'dorchilik rivojlangan (jami lalmikor yerlarning 1/3 qismi shu rayonga to'g'ri keladi), ilgari qorako'l qo'ylari boqilgan cho'l zonasida paxtachilik jadal rivojlanmoqda. Rayon qattiq bug'doy navlari, zig'ir, beda kabi ekinlar, uzum, mayiz, mevalar, ertangi sabzavotlar yetishtiruvchi asosiy hududlardan biriga aylanadi. Rayon tarkibida Qarshi cho'lini o'zlashtirish negizida paxtachilik, g'allachilik va chorvachilikka yo'naltirilgan Qashqadaryo hududiy-ishlab chiqarish majmuasi shakllangan. Rayonda gaz (Sho'rtangaz majmuasi, Muborak gazni qayta ishlash zavodi), kimyo sanoati, mashinasozlik, metallga ishlov berish kabi sanoat tarmoqlari jadal rivojlanmoqda. O'zbekistonda qazib olinadigan neftning 95 foizi, tabiiy gazning 95,8 foizi shu rayon hissasiga to'g'ri keladi.

2016-yilda mintaqa O'zbekistonda ishlab chiqarilgan YaIM hajmining 13,6 foizini, sanoat mahsuloti hajmining 14,2 foizini, yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 20,2 foizini, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 18,3 foizini, qurilish ishlarining 16,5 foizini yaratdi. Shuningdek, mintaqaga respublika tashqi savdo aylanmasining 7,1 foizi, iqtisodiyotda band

bo'lganlarning 19,4 foizi, chakana savdo aylanmasi hajmining 15,6 foizi to'g'ri keldi.

**Buxoro – Navoiy iqtisodiy rayoni** ma'muriy jihatdan Buxoro va Navoiy viloyatlarini o'z ichiga olib, Qizilqum cho'lida joylashgan. Mintaqaning umumiy maydoni 142,1 ming kv. km ga yoki respublika hududining 31,8 foiziga teng va bu ko'rsatkich bo'yicha Quyi Amudaryo mintaqasidan so'ng ikkinchi o'rinni egallaydi. 2017-yil boshida mintaqada 2786,3 ming kishi yoki respublika aholisining 8,7 foizi istiqomat qildi.

Rayon, asosan, gaz, neft, rangli va qimmatbaho metallar, qurilish materiallari uchun xomashyo va boshqa mineral zaxmalarini qazib olish negizida rivojlanmoqda. Navoiy kon-metallurgiya kombinati, Navoiy, Zarafshon (Muruntov), Uchquduq, Tasqazg'an, Gazli sanoat bog'lamlarida oltin qazib olish sanoati, rangli metallurgiya, kimyo (mineral o'g'itlarning 44 foizi), gaz, qurilish materiallari (sementning 40,3 foizi) sanoati korxonalari respublika iqtisodiyotida salmoqli o'ringa ega. Qishloq xo'jaligida paxtachilik, qorako'lchilik va rayon ichki ehtiyojlarini qondiradigan meva-sabzavotchilik asosiy tarmoqlar hisoblanadi. Amu – Buxoro mashina kanali bilan sug'orish imkoniyatlari bu rayonda sug'orma dehqonchilikni rivojlantirish imkoniyatlarini cheklaydi.

2016-yilda mintaqada O'zbekistonda ishlab chiqarilgan YaIM hajmining 10,8 foizini, sanoat mahsuloti hajmining 14,5 foizini, yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 13,9 foizini, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 17,3 foizini, qurilish ishlarining 11,2 foizini yaratdi. Shuningdek, mintaqaga respublika tashqi savdo aylanmasining 7,2 foizi, iqtisodiyotda band bo'lganlarning 9,9 foizi, chakana savdo aylanma hajmining 10,6 foizi to'g'ri keldi.

**Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni** O'zbekistonning shimoli g'arbida, Amudaryoning quyi qismida joylashgan bo'lib, u o'z



tarkibiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatini oladi. Mintaqa hududi respublika maydonining 38,3 foizini egallab, u 171,2 ming kv. km ni tashkil etadi. 2017-yil boshida mintaqada 3594,2 mingdan ziyod kishi istiqomat qildi. Bu – mamlakat aholisining 11,2 foiziga to‘g‘ri keldi.

Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni qadimiy sug‘orma dehqonchilik mintaqasida joylashgan. Rayonda, ayniqsa, Ustyurtda 200 dan ortiq foydali qazilma konlari (tabiiy gaz, temir rudasi, fosforitlar, osh tuzi va boshqalar) topilgan. Bu hududda paxtachilik bilan bir qatorda sholichilik, polizchilik, urug‘lik beda, sabzavotchilik rivojlandi. Boy mineral-xomashyo resurslaridan kompleks foydalanish asosida yaqin istiqbolda ikki sanoat rayoni va bir qator sanoat bog‘lamlari paydo bo‘ladi. Orol dengizining qurib borishi va Orolbo‘yining sahroga aylanishi jarayonlari bilan bog‘liq holda vujudga kelgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat hududni rivojlantirish istiqbollari qo‘shni Turkmanistonning Toshhovuz viloyati bilan muvoqlashtirilgan holda hal etishni talab etadi.

2016-yilda mintaqa O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan YaIM hajmining 6,9 foizini, sanoat mahsuloti hajmining 6,3 foizini, yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 8,8 foizini, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 10,4 foizini, qurilish ishlarining 8,1 foizini yaratdi. Shuningdek, mintaqaga respublika tashqi savdo aylanmasining 2,2 foizi, iqtisodiyotda band bo‘lganlarning 10,1 foizi, chakana savdo aylanmasi hajmining 7,1 foizi to‘g‘ri keldi.

**Surxondaryo iqtisodiy rayoni** O‘zbekistonning eng janubiy qismida joylashgan bo‘lib, ma‘muriy jihatdan Surxondaryo viloyatini o‘z ichiga oladi. Mintaqa maydoni 20,8 ming kv. km ni tashkil etadi. Bu esa respublika maydonining 4,6 foiziga teng. Mintaqada 2017-yil boshida 2462,3 ming kishi yoki respublika aholisining 7,6 foizi istiqomat qildi.

Rayonning o'ziga xos geografik holati (deyarli hamma tomoni tog'lar bilan o'ralgan) uning iqtisodiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Iqlimi subtropiklarga yaqin bo'lganligi sababli rayon paxta, subtropik mevalar, ertangi sabzavot yetishtirishga ixtisoslashgan. Sanoati ko'mir (Sharq'un toshko'mir koni), neft va gaz qazib olish (mahalliy iste'mol uchun) asosida rivojlangan. Surxon – Sherobod cho'lida yangi yerlarni o'zlashtirish asosida bu hududlarni paxtachilik, eksport yo'nalishidagi subtropik mevachilik va ertagi sabzavotchilik rivoj topgan. Aniqlangan foydali qazilma konlarini o'zlashtirish bu hududda kon sanoatini va rangli metallurgiyani rivojlantirish imkoniyatlarini yaratdi. Xondiza, Sharq'un – Sariosiyo (rangli metallar, ko'mir, qurilish materiallar), Boysun (toshko'mir, tabiiy gaz, qurilish materiallari) sanoat bog'lamlari shakllandi. Termiz shahrida va tuman markazlarida, asosan, yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalari rivojlandi.

2016-yilda mintaqa O'zbekistonda ishlab chiqarilgan YalM hajmining 6,0 foizini, sanoat mahsuloti hajmining 2,0 foizini, yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 8,8 foizini, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 4,0 foizini, qurilish ishlarining 4,0 foizini yaratdi. Shuningdek, mintaqaga respublika tashqi savdo aylanmasining 2,0 foizi, iqtisodiyotda band bo'lganlarning 7 foizi, chakana savdo aylanmasi hajmining 6,8 foizi to'g'ri keldi.

### **8.3. O'zbekiston mintaqalarining rivojlanish tendensiyalari**

Ma'lumki, mamlakat mintaqalarini mutanosib ravishda rivojlantirish, iqtisodiyotning samarali hududiy tarkibini shakllantirish barqaror iqtisodiy o'sishning muhim shartlaridan hisoblanadi. Shu sababli mamlakatimizda amalga oshirilayotgan

ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonida ijtimoiy taraqqiyotning mintaqaviy omillariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan mintaqaviy iqtisodiy siyosat har bir mintaqaning iqtisodiy salohiyatidan oqilona foydalanish asosida barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida yuzaga kelgan mintaqaviy tafovutlarga barham berish va mamlakatimizning turli mintaqalarida istiqomat qiluvchi aholi farovonligini oshirishga qaratilgan.

Mintaqalar iqtisodiy taraqqiyotiga baho berishda yalpi mintaqaviy mahsulot ko'rsatkichi muhim o'rin egallaydi. Yalpi mintaqaviy mahsulot oxirgi iste'mol uchun ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar qiymatini o'zida aks ettiradi. U ishlab chiqarish usulida, ya'ni yalpi ishlab chiqarish va yalpi oraliq iste'mol o'rtasidagi tafovut sifatida hisoblanadi. Shu jihatdan yalpi mintaqaviy mahsulot va yalpi ichki mahsulot bir-biriga yaqin ko'rsatkichlardir. Ammo yalpi mintaqaviy mahsulotlar yig'indisi yalpi ichki mahsulot hajmidan sezilarli darajada farq qiladi. Buning sababi shundan iboratki, mintaqa ochiq iqtisodiy tizim. Shu sababli mintaqa doirasida ishlab chiqarish chegaralarini aniq belgilab olish va ushbu mintaqada hududida yaratilgan qo'shilgan qiymat hajmini aniqlash ancha murakkab.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida ko'plab integrallashgan vertikal va gorizontal sxemalar asosida faoliyat yurituvchi korporatsiyalar mavjud. Bunday korporatsiyalar tarkibiga kiruvchi ishlab chiqarish birliklarida buxgalterlik hisobini yuritish tartibi va tamoyillari ishlab chiqarish hajmi hamda ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlarni baholash imkonini bermaydi. Shu sababli bunday bo'linmalarda qo'shilgan qiymatga baho berish shartli xarakterga ega. Natijada bosh kompaniyalar joylashgan mintaqalarda qo'shilgan qiymat birmuncha yuqoriroq, ushbu kompaniyalarning bo'linmalari

joylashgan mintaqalarda esa qo‘shilgan qiymat birmuncha pastroq ko‘rsatiladi.

Shu bilan birga iqtisodiy operatsiyalarning ba’zilari faqat umuman mamlakat miqyosida hisobga olinadi va yalpi mintaqaviy mahsulotni hisoblashda hisobga olinmaydi. Bu, asosan, mudofaa, davlat boshqaruvi xizmatlari va davlat budjeti mablag‘lari hisobidan, umuman, jamiyatga ko‘rsatiladigan boshqa xizmat turlariga tegishli. Shuningdek, moliyaviy vositachilar, ayniqsa, banklar faoliyati yalpi mintaqaviy mahsulotni hisoblashda hisobga olinmaydi, chunki ular biror-bir mintaqada hududi bilan chegaralanmaydi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonning barcha mintaqalarida barqaror o‘shish sur‘atlari kuzatildi. Ayni vaqtda mintaqalarda yalpi mintaqaviy mahsulot o‘shish sur‘atlarining turli sur‘atlarda kechayotganligini ta’kidlash lozim.

Agar 2005-yilda O‘zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o‘shish sur‘ati 107,0 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 5 ta mintaqada – Andijon (110,2 foiz), Buxoro (109,9 foiz), Jizzax (108,3 foiz), Qashqadaryo (108,0 foiz), Sirdaryo (111,1 foiz)da yalpi mintaqaviy mahsulotning o‘shish sur‘ati respublika ko‘rsatkichidan yuqori bo‘ldi. Ayni vaqtda, 2016-yilda esa respublika yalpi ichki mahsulotining o‘shish sur‘ati (107,8 foiz)dan yalpi mintaqaviy mahsulotining o‘shish sur‘ati yuqori bo‘lgan mintaqalar soni 7 tani tashkil etdi: Toshkent shahri (109,6 foiz), Jizzax (109,0), Samarqand (108,7 foiz), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (108,2 foiz), Namangan (108,1 foiz), Andijon (107,9 foiz) va Buxoro viloyatlari (107,9).

O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotining katta qismi Toshkent shahri, Toshkent, Qashqadaryo, Farg‘ona, Andijon va Samarqand viloyatlari tomonidan yaratiladi. Agar 2010-yilda O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotining 55,3 foizi ushbu mintaqalar hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2016-yilga kelib bu ko‘rsatkich 53,4 foizni tashkil etgan.

**O'zbekiston mintaqalarida yalpi mintaqaviy  
mahsulot ishlab chiqarish dinamikasi, %**

	2005	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016
Qoraqalpog'iston Respublikasi	106,9	110,0	112,0	112,7	111,5	108,4	110,7	108,2
Andijon	110,2	110,5	111,3	108,4	110,4	107,5	103,6	107,9
Buxoro	109,9	109,6	109,1	107,9	108,0	108,2	107,5	107,9
Jizzax	108,3	110,2	110,6	108,0	110,2	108,6	109,1	109,0
Qashqadaryo	108,0	103,9	106,3	104,5	105,6	104	105,4	105,9
Navoiy	102,2	102,5	106,1	104,5	104,5	104,0	103,9	104,5
Namangan	107,0	112,4	110,0	110,0	111,2	110,3	108,7	108,1
Samarqand	106,1	113,6	110,9	110,7	110,4	110,5	110,5	108,7
Surxondaryo	105,5	111,2	110,9	109,0	109,5	109,3	109,2	107,8
Sirdaryo	111,1	110,2	109,4	109,9	107,0	107,0	105,9	106,2
Toshkent	103,8	110,1	109,2	105,2	107,8	107,5	106,7	106,5
Farg'ona	106,5	105,8	107,9	106,3	109,4	108,8	108,0	105,8
Xorazm	103,4	110,2	108,4	109,8	109,1	111,7	110,1	106,4
Toshkent shahri	106,6	112,4	116,7	110,2	107,1	109,0	111,6	109,6
O'zbekiston Respublikasi	107,0	108,5	108,3	108,2	108,0	108,1	107,9	107,8

## O'zbekiston yalpi ichki mahsulotida mintaqalarning ulushi, %

	2010	2016
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2,6	3,3
Andijon	6,7	5,7
Buxoro	5,4	5,5
Jizzax	2,5	2,5
Qashqadaryo	7,8	7,5
Navoiy	5,4	5,3
Namangan	3,9	4,4
Samarqand	6,4	7,1
Surxondaryo	3,5	4,6
Sirdaryo	1,7	2,1
Toshkent	9,2	10,3
Farg'ona	7,5	7,0
Xorazm	3,2	3,6
Toshkent shahri	17,7	15,8
YalMning taqsimlanmagan qismi	16,5	15,3

Ayni vaqtda mintaqalar iqtisodiy rivojlanishiga ularning respublika yalpi ichki mahsulotidagi ulushiga qarab baho berib bo'lmaydi. Zero, aholi soni bo'yicha mintaqalar bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Shu sababli aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot hajmi bo'yicha mintaqalar iqtisodiy rivojlanishiga qiyosiy baho berish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mintaqalar iqtisodiyoti rivojlanishiga baho berishda ularning iqtisodiyot tarmoq tarkibi ko'rsatkichi ham muhim o'rin tutadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda barcha mintaqalar iqtisodiyoti tarkibida ijobiy o'zgarishlar yuz berib, u sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlari ulushining o'sib borishi bilan tavsiflanadi. Bu sohada ham Toshkent shahri, Toshkent, Navoiy, Andijon viloyatlari yuqori ko'rsatkichlarga ega. Shu bilan birga Surxondaryo, Jizzax,

Sirdaryo, Xorazm, Namangan viloyatlarida qishloq xo'jaligining ulushi yuqori darajada saqlanib qolmoqda.

#### **8.4. O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida mintaqaviy tafovutlar va ularni yumshatish omillari**

Mustaqillik yillarida iqtisodiyotni hududiy jihatdan tartibga solish vazifalarini takomillashtirish, mahalliy boshqaruv organlarining huquqlari va vakolatlarini kengaytirish, mintaqalarda mavjud mineral-xomashyo, tabiiy-iqlim resurslari va iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish maqsadida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va iqtisodiyotning hududiy tarkibini takomillashtirish, eksportga yo'naltirilgan va import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni rivojlantirish sohasida sezilarli yutuqlarga erishildi.

Shunga qaramasdan, mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida sezilarli tafovutlar saqlanib qolmoqda. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mintaqaviy tafovutlarning mavjud bo'lishi tabiiy hol bo'lib, har qanday mamlakatga xos. Hatto rivojlangan mamlakatlarda ham boy va nisbatan qashshoq mintaqalar bor. Bunday mintaqalarning mavjudligi tabiiy resurslar, iqlim, mehnat resurslari va boshqa omillar bilan turli darajada ta'minlanish natijasida vujudga keladi.

Mintaqaviy tafovutlarning mavjud bo'lishi qandaydir ma'noda zarur, chunki ular kapital, mehnat va moddiy resurslar migratsiyasiga yordam beradi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga muayyan darajada dinamizm baxsh etadi. Ammo, boshqa tomondan, hududiy tafovutlarning vujudga kelishiga tabiiy-iqlim yoki ijtimoiy-tarixiy omillarga bevosita bog'liq bo'lmagan, balki bevosita iqtisodiy omillar bilan bog'liq bo'lgan sabablar ustuvor o'ringa ega bo'lishi mumkin.

O‘zbekistonda mintaqaviy tafovutlarning chuqurlashuviga olib kelayotgan iqtisodiy omillar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

– sanoat ishlab chiqarishi va ishlab chiqarish infratuzilmasi obyektlarining Toshkent, Andijon, Navoiy viloyatlari va Toshkent shahri kabi alohida mintaqalarda to‘planib qolganligi;

– milliy va xorijiy investitsiyalarning mintaqalar bo‘yicha notekis taqsimlanayotganligi;

– mintaqalar tabiiy-iqtisodiy salohiyatlaridan maqsadga muvofiq foydalanmaslik;

– mintaqalarning ichki xususiyatlari va bozor munosabatlarining rivojlanishini hisobga olgan holda mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tartibga solishning iqtisodiy usullaridan sust foydalanilayotganligi va boshqalar.

Bundan tashqari, bozor munosabatlari rivojlanayotgan sharoitda mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi tafovutlarning chuqurlashuviga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatdi:

– ma’muriy buyruqbozlik tizimidan bozor munosabatlariga o‘tish jarayonidagi o‘zgarishlarga rivojlangan mintaqalar past rivojlangan mintaqalarga nisbatan tezroq moslasha oldilar;

– ochiq iqtisodiyot asoslarining shakllanish jarayonida xorijiy investitsiyalar, eng avvalo, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma obyektlari nisbatan yaxshiroq rivojlangan mintaqalarga kengroq miqyosda kirib bordi va ushbu mintaqalarning ilg‘or texnologiya va zamonaviy texnika bilan ta’minlanganlik darajasi ortdi;

– rivojlangan mintaqalarda mehnat resurslari bilim va malakasining yuqoriligi ularda yangicha ishlash ko‘nikmalarining shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi;

– nisbatan past rivojlangan mintaqalar iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining ustuvor o‘ringa ega ekanligi va agrar sohada erkinlashtirish jarayonlarining boshqa tarmoqlar-



ga nisbatan sust amalga oshirilishi natijasida qishloq xo'jaligi va boshqa tarmoqlar o'rtasidagi narx nomutanosibligining kuchayishi qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining ijtimoiy ahvoriga va moliyaviy imkoniyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatdi;

– mustaqillik yillarida mamlakatimizda amalga oshirilgan o'zak tarmoqlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va uni amalga oshirishda agrar sohadan donor tarmoq sifatida foydalalanish siyosati natijasida o'zak tarmoqlar joylashgan mintaqalar rivojlanib, agrar soha ustuvor o'ringa ega bo'lgan mintaqalarning iqtisodiy ahvoli salbiy tomonga o'zgarib bordi va hokazo.

Indeksiga asoslangan hisob-kitoblar natijalari shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda mintaqalar iqtisodiy taraqqiyotidagi tafovut asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha turlicha o'zgarimoqda. Indeks usuliga ko'ra, respublika ko'rsatkichi 1,000 sifatida qabul qilinadi va mintaqalar ko'rsatkichlari shunga nisbatan taqqoslanadi.

2016-yilda kishi boshiga ishlab chiqarilgan yalpi mintaqaviy mahsulotning eng yuqori (Toshkent shahri) va eng past (Qoraqalpog'iston Respublikasi) ko'rsatkichlari o'rtasidagi nisbat 3,9 martani tashkil etgan. Vaholanki, bu ko'rsatkich 2010-yilda 5,1 martaga teng edi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda tafovut 10,6 dan 12,8 martagacha o'sgan va hamon yuqori darajada saqlanib turibdi. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarda ham xuddi shunday tendensiya kuzatiladi. Bu ko'rsatkich bo'yicha tafovut 2010-yilda 9,2 va 2016-yilda 9,9 ga teng bo'lgan.

Ayni vaqtda eng kichik tafovut aholi jon boshiga qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishda kuzatiladi. Aholi jon boshiga qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha eng yuqori va eng past ko'rsatkichlar o'rtasidagi nisbat 2010-yilda 3,1 va 2016-yilda 3,3 ni tashkil etgan.

**2010-2016-yillarda O'zbekistonda minaqaviy tafovutlar o'zgarishi, indeksda**

	YalM		Sanoat		Qishloq xo'jaligi		Investitsiyalar	
	2010	2016	2010	2016	2010	2015	2010	2016
Qoraqalpog'iston Respublikasi	0,387	0,577	0,209	0,682	0,526	0,513	0,512	1,314
Andijon	0,654	0,613	1,377	0,783	1,111	1,170	0,375	0,430
Buxoro	0,999	0,954	0,713	0,879	1,441	1,568	2,278	2,013
Jizzax	0,592	0,608	0,291	0,448	0,862	1,233	0,608	0,611
Qashqadaryo	0,842	0,778	1,262	0,909	0,652	0,877	1,110	1,475
Navoiy	1,744	1,801	3,445	3,289	1,601	1,675	3,442	1,947
Namangan	0,487	0,539	0,276	0,381	0,633	0,907	0,446	0,624
Samarqand	0,553	0,621	0,421	0,594	1,284	1,041	0,512	0,584
Surxondaryo	0,486	0,601	0,247	0,260	0,910	1,155	0,513	0,517
Sirdaryo	0,638	0,840	0,451	1,276	1,397	1,567	0,870	0,942
Toshkent	0,977	1,166	1,359	1,731	0,955	1,428	1,019	0,889
Farg'ona	0,603	0,629	0,735	0,656	0,519	0,751	0,552	0,428
Xorazm	0,564	0,643	0,256	0,459	1,521	1,075	0,455	0,519
Toshkent shahri	1,985	2,088	2,227	2,818	-	-	2,887	2,715
O'zbekiston Respublikasi	1,000	1,000	1,000	1,000	1,000	1,000	1,000	1,000
Mintaqaviy tafovut, marta	5,1	3,9	10,6	12,6	3,1	3,3	9,2	9,9

Ko‘rinib turibdiki, asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha tafovutlar o‘smoqda. Shu bilan birga, real sektorning asosiy ko‘rsatkichlari indeksi bo‘yicha o‘rtacha respublika darajasidan (1,000) past bo‘lgan mintaqalar soni o‘smoqda.

Chunonchi, 2016-yilda yalpi ichki mahsulot bo‘yicha bunday mintaqalar soni 11 tani tashkil etib (2010-yilda 9 ta bo‘lgan), eng past ko‘rsatkich Qoraqalpog‘iston Respublikasiga tegishli – 0,577. Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish bo‘yicha respublika o‘rtacha ko‘rsatkichidan past ko‘rsatkichga ega bo‘lgan mintaqalar soni 9 taga teng va bu yerda eng past ko‘rsatkich Surxondaryo viloyatiga tegishli – 0,260.

Faqat qishloq xo‘jaligi mahsuloti bo‘yicha bunday mintaqalar soni ozchilikni tashkil etadi, ya‘ni qishloq xo‘jalik mahsuloti indeksi bo‘yicha 2016-yilda 4 ta mintaqada respublika darajasidan past ko‘rsatkichga erishilgan. Bu ko‘rsatkich bo‘yicha eng past natijaga Qoraqalpog‘iston Respublikasi ega – 0,513.

Kapital qo‘yilmalarning viloyatlar bo‘yicha taqsimlanishida ham sezilarli tafovutlar mavjud. Hozirgi kunda kapital qo‘yilmalarning asosiy qismi sanoati rivojlangan hududlarga yo‘naltirilmoqda. Xususan, 2016-yilda jami kapital mablag‘larning 21,6 foizi Toshkent shahri hissasiga to‘g‘ri keldi. Kapital qo‘yilmalar bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Qashqadaryo, Toshkent, Buxoro viloyatlarining ham sezilarli ulushga ega ekanligini ta‘kidlash lozim. Jami kapital mablag‘larning 2016-yilda 61,7 foizi ushbu mintaqalar hissasiga to‘g‘ri keldi. Bu, eng avvalo, ularning neft, gaz va boshqa tabiiy resurslarga boy ekanligi bilan tushuntiriladi.

Ayni vaqtda respublika iqtisodiyotiga kiritilgan jami kapital qo‘yilmalarning atigi 2,5 foizi Sirdaryo va Jizzax, 2,9 foizi Xorazm, 4,0 foizi Surxondaryo va Andijon viloyatlariga yo‘naltirilgan, xolos.

Respublikamiz mintaqalari bo'yicha aholi jon boshiga to'g'ri keladigan pul daromadlari va iste'mol xarajatlarini solishtirish natijalari ham mintaqaviy tafovutlarning kattaligidan dalolat beradi.

Mintaqaviy tafovutlar bo'yicha yuqorida keltirilgan misollar alohida viloyatlarda nosog'lom vaziyat yuzaga kelishi va buning natijasida qator mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda sezilarli darajada ortda qolishlari mumkinligidan dalolat beradi. Shu sababli O'zbekistonda bunday tafovutlarni qisqartirish va mintaqalarni kompleks rivojlantirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar davrida to'plangan tajriba shundan dalolat beradiki, mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajalari o'rtasidagi tafovutlarni faqat markazlashgan dotatsiyalar va subsidiyalar hisobidan hal etib bo'lmaydi. Bunday sharoitda ajratilgan mablag'larning katta qismi nooqilona sarflanadi, ulardan foydalanish samaradorligi past bo'ladi.

Shu sababli mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi o'rtasidagi tafovutni qisqartirishda, nisbatan zaif rivojlangan mintaqalarga ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishi uchun markazlashgan mablag'lar ajratish bilan birga, joylarda bozor munosabatlari va tadbikorlikning rivojlanishi, mintaqada mavjud tabiiy-iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida hududiy dasturlar mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish siyosatining asosiy dastaklaridan biri vazifasini o'tamoqda. Xususan, so'nggi yillarda hukumat va mahalliy boshqaruv organlari tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahrini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, «Navoiy», «Angren», «Jizzax», «Hazorasp», «Urgut», «G'ijduvon» va «Qo'qon»

kabi erkin iqtisodiy zonalar shaklida alohida hududlarni rivojlantirish, Xorazm va Toshkent viloyatlarida sanoat va turizmni barqaror rivojlantirish, mintaqaviy investitsiya dasturlari va boshqa maqsadli dasturlar amalga oshirildi.

Umuman olganda, mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlani-shida erishilgan ijobiy o'zgarishlar, eng avvalo, ichki iste'mol talabini rag'batlantirish, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarini barqaror rivojlantirish bo'yicha investitsiya paketlarining amalga oshirilishi, qishloqda uy-joy qurilishining kengaytirilishi, shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning faollashuvi bilan bog'liq.

### **Qisqacha xulosalar**

1. Ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida mintaqa mamlakat hududining hududiy mehnat taqsimoti jarayonida ajralib chiqqan bir qismi hisoblanadi.

2. Mintaqa u yoki bu tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi, takror ishlab chiqarish jarayonining umumiyli-gi va boshqa hududlarga nisbatan o'ziga xosligi, xo'jaligining majmuaviy va yaxlit xarakterga ega ekanligi, mintaqa oldida turgan vazifalarni hal etishni ta'minlovchi boshqaruv organla-rining mavjudligi bilan tavsiflanadi.

3. O'zbekistonda mintaqalar sifatida Qoraqalpog'iston Res-publikasi, viloyatlar va Toshkent shahrini ko'rsatish mumkin. Ular davlat mintaqaviy siyosatining asosiy subyektlari hisoblanadi.

4. Iqtisodiyotni hududiy jihatdan tashkil etish hududda ish-lab chiqarish va mehnatni jalb etish turlarining turli shakllarda uyg'un holda faoliyat ko'rsatishlariga asoslangan ishlab chiqa-rish kuchlari unsurlari o'zaro ta'sirining ko'p darajali tizimidir.

5. So'nggi yillarda O'zbekistonning barcha mintaqalarida barqaror o'sish sur'atlari kuzatildi. Ayni vaqtda mintaqalarda

yalpi mintaqaviy mahsulot o'sish sur'atlarining turli darajalarda kechayotganligini kuzatish mumkin. 2016-yilda respublika yalpi ichki mahsulotining o'sish sur'ati (107,8 foiz)dan yalpi mintaqaviy mahsulotining o'sish sur'ati yuqori bo'lgan mintaqalar soni 7 tani tashkil etdi: Toshkent shahri (109,6 foiz), Jizzax (109,0), Samarqand (108,7 foiz), Qoraqalpog'iston Respublikasi (108,2 foiz), Namangan (108,1 foiz), Andijon (107,9 foiz) va Buxoro viloyatlari (107,9).

6. O'zbekiston yalpi ichki mahsulotining katta qismi Toshkent shahri, Toshkent, Qashqadaryo, Farg'ona, Andijon va Samarqand viloyatlari tomonidan yaratiladi. Agar 2010-yilda O'zbekiston yalpi ichki mahsulotining 55,3 foizi ushbu mintaqalar hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2016-yilga kelib bu ko'rsatkich 53,4 foizni tashkil etgan.

7. So'nggi yillarda barcha mintaqalar iqtisodiyoti tarkibida ijobiy o'zgarishlar yuz berib, u sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlari ulushining o'sib borishi bilan tavsiflanadi. Bu sohada Toshkent shahri, Toshkent, Navoiy, Andijon viloyatlari yuqori ko'rsatkichlarga ega.

8. O'zbekistonda asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida sezilarli tafovutlar saqlanib qolmoqda.

9. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida hududiy dasturlar mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish siyosatining asosiy dastaklaridan biri vazifasini o'tamoqda. Xususan, so'nggi yillarda hukumat va mahalliy boshqaruv organlari tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahrini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, «Navoiy», «Angren», «Jizzax», «Hazorasp», «Urgut», «G'ijduvon» va «Qo'qon» kabi erkin iqtisodiy zonalar shaklida alohida hududlarni rivojlantirish, Xorazm va Toshkent viloyatlarida sanoat va turizmni

barqaror rivojlantirish, mintaqaviy investitsiya dasturlari va boshqa maqsadli dasturlar amalga oshirildi.

## **Asosiy atamalar va tushunchalar**

Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy majmua, mintaq, hudud, iqtisodiy rayon, ma'muriy-hududiy bo'linish, ishlab chiqarishni joylashtirish, mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, hududiy mehnat taqsimoti, iqtisodiyotning hududiy tarkibi, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, mintaqaviy iqtisodiy siyosat, mintaqaviy dasturlar, mintaqaviy investitsiya dasturlari, mintaqaviy tafovut, yalpi mintaqaviy mahsulot, indeks usuli.

### **Nazorat savollari**

1. Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy majmualar deganda nimani tushunasiz?

2. Mintaqa nima? Nima uchun O'zbekistonda ma'muriy-iqtisodiy hududlar – Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahriga mintaqa sifatida yondashish maqsadga muvofiq?

3. Nima uchun mintaqa xo'jalik majmuasi sifatida tarmoqqa nisbatan murakkab tuzilma hisoblanadi?

4. Iqtisodiy rayonlar deganda nimani tushunasiz? O'zbekistonda qanday iqtisodiy rayonlar bor va ularning respublika iqtisodiyotidagi o'rni qanday?

5. O'zbekistonning qaysi iqtisodiy rayonlari sanoati jihatdan rivojlangan hisoblanadi? Javobingizni asoslang.

6. Yalpi mintaqaviy mahsulot nima? Nima uchun mintaqalar yalpi mintaqaviy mahsulotlari yig'indisi respublika yalpi ichki mahsulot hajmiga teng bo'lmaydi?

7. O'zbekistonda mintaqalar iqtisodiy rivojlanishiga qaysi ko'rsatkichlar orqali baho berish mumkin?

8. O‘zbekistonda qaysi mintaqalar respublika yalpi ichki mahsuloti shakllanishiga katta hissa qo‘shadi?

9. O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida mintaqaviy tafovutlarning vujudga kelish sabablari nimalardan iborat?

10. O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida mintaqaviy tafovutlarni qisqartirish uchun qanday chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda?



---

---

## IX bob

### SANOAT MAJMUASI

#### 9.1. Sanoat majmuasining tavsifi va tuzilishi

Sanoat mamlakatning jahon xo'jaligidagi mavqeyini belgilab beradigan va uning raqobatbardoshligini oshirishga hissa qo'shadigan soha. Tarmoqning iqtisodiyot tarkibini takomillashtirib borishga ta'siri yuqori. Jahonning rivojlangan davlatlari ko'pincha sanoati taraqqiy etgan davlatlardir. Chunki rivojlangan davlatlar iqtisodiy o'sishning miqdor va sifat ko'rsatkichlariga sanoat ishlab chiqarishini jadal rivojlantirish orqali erishgan. Sanoatning resurсталab, mehnattalab va ilm sig'imi yuqori sohalarini bir-biriga mutanosib taraqqiy ettirish bo'yicha bu davlatlar boy tajribaga ega.

Axborotlashgan jamiyat, bilimlar iqtisodiyoti yoki post-industrial jamiyat zamonaviy iqtisodiyotning qiyofasini tavsiflaydi. Bugungi kunda rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlari hissasiga (ularning soni 35 dan oshadi) jahon sanoat ishlab chiqarishining 60 foizga yaqini, tayyor sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning 80 foizga yaqini, ilmiy tadqiqot ishlanmalari va yuqori texnologik mahsulotlarning qariyb 90 foizi to'g'ri keladi.

Sanoat majmuasining tarkibi juda murakkab bo'lib, O'zbekistonda bu majmua sanoat yiriklashtirilgan quyidagi 18 ta tarmoqqa bo'linadi: elektroenergetika, yoqilg'i sanoati, qora metallurgiya, rangli metallurgiya, kimyo va neft kimyosi, mashinasozlik va metallga ishlov berish, o'rmon, yog'ochni

qayta ishlash va selluloza-qog‘oz sanoati, qurilish sanoati, qurilish-konstruksiyalari va detallari sanoati, oyna va chinni-fayans sanoati, yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati, mikrobiologiya sanoati, un-yorma va aralash yem sanoati, tibbiyot uskunalari sanoati, poligrafiya sanoati.

Sanoat majmuasining rivojlanishini o‘rganishda tarmoq, hududiy va texnologik yondashuvdan foydalaniladi. Sanoatning tarmoq va hududiy tarkibidagi o‘zgarishlar bir-birini to‘ldiradi.

Sanoatlashgan mamlakatlarda tarmoq texnologik jihatdan quyidagi 4 ta guruhga ajratib ko‘rsatiladi:

1. Yuqori texnologik.
2. O‘rta darajadagi yuqori texnologik.
3. O‘rta darajadan past texnologik.
4. Texnologik darajasi past sanoat tarmoqlari.

Birinchi guruhga aerokosmonavtika, farmatsevtika, ofis texnikasi, hisoblash va kompyuter vositalari ishlab chiqarish, radio va telekommunikatsiya asbob-uskunalari ishlab chiqarish, tibbiyot, aniq va optik asbob-uskunalar ishlab chiqarish sohalari kiritiladi.

Ikkinchi guruhga, elektr asbob-uskunalari ishlab chiqarish, avtomobil dvigatellari, treylerlar va yarim treylerlar ishlab chiqarish, kimyo sanoati, temiryo‘l va boshqa transport asbob-uskunalari sanoati, mashinasozlik sanoati kiritiladi.

Uchinchi guruhga kemasozlik, plastmassa mahsulotlari ishlab chiqarish, neftni qayta ishlash hamda yadro energetikasi mahsulotlari ishlab chiqarish, nometall mineral mahsulotlari, metallurgiya mahsulotlari ishlab chiqarish kiritiladi.

So‘nggi texnologik guruhga esa, qayta ishlash sohalari, jumladan, yog‘ochni qayta ishlash, qog‘oz sanoati, poligrafiya-nashr mahsulotlari, oziq-ovqat, to‘qimachilik, tikuvchilik, terini qayta ishlash kabi tarmoqlar kiritiladi.

O‘zbekistonda sanoat majmuasi milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlararo majmuasi hisoblanadi. Sanoat majmuasida 100 dan ortiq sanoat tarmoqlari va yon tarmoqlari mavjud. Sanoat sohasida 43 mingdan oshiq turli miqyosdagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat olib bormoqda.

Milliy iqtisodiyotning modernizatsiyalashuvi va innovatsion tarmoqlarning jadal taraqqiy etishida sanoat majmuasining o‘rni va roli salmoqlidir. O‘zbekistonda mustaqillik yillarida sanoatning texnologik tarkibi takomillashib bormoqda. Bu – farmatsevtika, ofis texnikasi, elektr asbob-uskunalarini ishlab chiqarish, avtomobil dvigatellari, plastmassa mahsulotlari ishlab chiqarish, yog‘ochni qayta ishlash, qog‘oz sanoati, nashr mahsulotlari, oziq-ovqat, to‘qimachilik, tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqarishda yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Bugungi kunda sanoat ishlab chiqarishida yirik ishlab chiqarish birliklaridan tashqari, o‘rta, kichik, mikrobirlklar, individual tadbirkorlar hamda uy xo‘jaliklari faoliyat yuritadi.

Ishlab chiqarish kuchlarining miqyosi, tarkibiy tuzilishi hamda hududiy tashkil etilishida tarmoqning ahamiyati yuqori. Ishlab chiqarish vositalarini uzluksiz ishlab chiqarib, o‘zining sohasiga va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga yetkazib berganligi sababli sanoatning milliy xo‘jalik kengaytirilgan takror ishlab chiqarishidagi ta’siri hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

## **9.2. Milliy iqtisodiyotda sanoatning o‘rni**

Sanoat milliy iqtisodiyotda kengaytirilgan takror ishlab chiqarish va iqtisodiy o‘shishning asosiy omillari mujassamlashgan soha hisoblanadi. Bu tarmoqda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari – qishloq xo‘jaligi, qurilish, transport, aloqa, savdo va umumiy ovqatlanish kabilar uchun ishlab chiqarish vositalari yaratiladi, texnika va texnologiyalar takomillashtiriladi.

Shuningdek, innovatsion resurslar shakllanadi, ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlanmalari amalga oshiriladi. Mamlakatning ilmiy-texnika salohiyatidan samarali foydalanishda sanoat moddiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga qiyoslanganda, sanoatning mamlakat raqobatbardoshligini ta’minlashdagi roli va ahamiyati yuqori baholanadi. Chunki eksport hajmida, valuta tushumlarida, investitsiyalar hajmida, budjet va budjetdan tashqari mablag‘larning shakllanishida, asosiy fondlarni yangilashda, innovatsion faoliyatni jadallashtirishda tarmoq salmoqli hissaga ega.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, uning miqyoslari va tuzilishini belgilashda, birinchi navbatda, sanoat ishlab chiqarishi imkoniyatlari hisobga olinadi. Shu sababli, iqtisodiyotni modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash, texnik va texnologik yangilash siyosatining markazida sanoat tarmoqlari turadi.

Bozor islohotlarini amalga oshirish bosqichida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, ko‘p ukladli iqtisodiyotni barpo etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan yirik loyihalar va dasturlar ham sanoat sohasiga tegishlidir. Masalan, 2016-yilda umumiy qiymati 5,2 mlrd. dollarga teng 164 ta sanoat obyekti foydalanishga topshirildi. 2016-yilda kapital qo‘yilmalar hajmi qariyb 16782,3 mln. AQSH dollarini tashkil etsa, shu mablag‘larning 74,5 foizga yaqini sanoat ishlab chiqarish obyektlarini qurishga, shundan 43,1 foizi esa asbob-uskunalar sotib olishga yo‘naltirildi. 2016-yilda yalpi sanoat mahsuloti hajmi 1990-yilga nisbatan 4,6 marta o‘ydi.

Sanoatning O‘zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishidagi ahamiyati ortib bormoqda. 1991-yilga nisbatan 2016-yilda yalpi ichki mahsulot qariyb 3 barobar oshgan bo‘lsa, bu davrda sanoat ishlab chiqarish hajmi qariyb 4,5 martaga ko‘paydi. Sanoatning

## O'zbekiston iqtisodiyotida sanoatning o'rnini ifodalovchi ko'rsatkichlar

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>2000</b>	<b>2005</b>	<b>2010</b>	<b>2015</b>	<b>2016</b>
YalM hajmining o'sish sur'ati, o'tgan yilga nisbatan, %	103,8	107,0	108,5	107,9	107,8
Sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'ati, o'tgan yilga nisbatan, %	105,9	107,2	108,5	107,9	106,2
YalM hajmining o'sish sur'ati, 1991-yilga nisbatan, %	98,6	127,9	192,5	281,1	303,0
Sanoat ishlab chiqarishi hajmining o'sish sur'ati, 1991-yilga nisbatan, %	121,8	176,4	292,3	417,9	443,8
YalMda sanoatning ulushi, %	27,8	23,1	33,3	33,0	32,9
Iqtisodiyotda band bo'lganlarda sanoatning ulushi, %	12,7	13,2	13,2	12,7	12,7
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarda sanoatning ulushi, %	29,8	32,6	30,4	42,6	39,3

YaIMdagi hissasi 2000–2016-yillarda 27,8 foizdan 32,9 foizga ko‘tarildi. 2016-yili iqtisodiyotda band bo‘lganlarda sanoatning ulushi 12,7 foizni, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmida esa sanoatning ulushi 39,3 foizni tashkil etdi.

Milliy sanoat ishlab chiqarish hajmi dinamik o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lib, oxirgi 10 yillikda yillik qo‘shimcha o‘shish sur‘ati o‘rtacha 7–8 foizni tashkil etdi. Sanoatning mutlaqo yangi, zamonaviy sohalari barpo etildi va rivojlantirilmoqda. Avtomobilsozlik, neft va gaz kimyosi, zamonaviy qurilish materiallari sanoati, temiryo‘l mashinasozligi, maishiy texnika, farmasevtika, zamonaviy oziq-ovqat va to‘qimachilik sanoati shular jumlasidandir.

**O‘zbekiston sanoat tarmoqlari ishlab chiqarish hajmining  
o‘shish sur‘atlari, 1991-yilga nisbatan (%)**

	2000	2005	2010	2015	2016
Sanoat	121,8	176,4	292,3	417,9	443,8
Elektr energiyasi	81,5	75,7	83,6	94,8	98,2
Yoqilg‘i	124,5	129,8	216,3	246,6	261,4
Qora metallurgiya	64,1	111,9	169,2	256,5	271,2
Rangli metallurgiya	91,6	99,7	96,7	108,4	110,5
Kimyo va neft kimyosi	104,2	152,8	301,9	434,4	458,7
Mashinasozlik va metallni qayta ishlash	135,5	416,6	1107,6	1639,1	1363,7
Yog‘och, yog‘ochni qayta ishlash va selluloza-qog‘oz sanoati	230,2	474,6	1243,0	1967,5	2085,5
Qurilish materiallari	56,3	75,1	123,7	224,7	247,7
Yengil	155,9	242,0	369,3	662,1	734,9
Oziq-ovqat	154,9	250,0	592,2	943,3	961,2

O‘zbekistonda sanoat tarmoqlari ishlab chiqarish hajmi o‘shish sur‘atlari tezlashmoqda. Jumladan, 2000-yilga nisbatan hisoblaganda, 2016-yilda sanoat ishlab chiqarish hajmi 4,4 martadan ziyodroqqa oshgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich yoqilg‘i sanoatida 2,6 martaga, qora metallurgiyada 2,7 martaga, rangli metallurgiyada 1,1 martaga, kimyo va neft kimyosi sanoatida 4,6 martaga, mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoatida 13,6 martaga, yog‘och, yog‘ochni qayta ishlash va selluloza-qog‘oz sanoatida 20,8 martaga, qurilish materiallari sanoatida 2,5 martaga, yengil sanoatda 7,3 martaga hamda oziq-ovqat sanoatida 9,6 martaga teng bo‘ldi.

Elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi mamlakatimiz energetika balansida gazning ulushi ortib borganligi sababli qisman o‘zgardi.

Sanoat taraqqiyotidagi bunday o‘zgarishlar sanoat ishlab chiqarishida texnik va texnologik yangilash, diversifikatsiya va modernizatsiya chora-tadbirlarining samarasi hisoblanadi. Bu sanoat ishlab chiqarishi tarmoq tuzilishining takomillashuviga olib kelmoqda.

Sanoat tarmoqlari faoliyatiga baho berganda, sohalaridagi iqtisodiy o‘shish ko‘rsatkichlari bilan birga, ulardagi rentabellik ko‘rsatkichlari ham tahlil qilinadi. Rentabellik sotilgan mahsulot tannarxiga nisbatan olingan yalpi foyda miqdori bo‘lib, korxonalar faoliyatining samaradorligini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biridir.

Ayrim tarmoqlar davlat tomonidan hayotiy muhim investitsion va iste‘mol tovarlari ishlab chiqarishdagi ahamiyatidan kelib chiqib qo‘llab-quvvatlandi. Boshqalari yuqori rentabellik darajasini ta‘minlab taraqqiy topmoqda. Bozor mexanizmi esa qaysi tarmoqlar tezroq rivojlanishi mumkinligini belgilab bermoqda.

Sanoat tarmog‘ining rentabelligi 2016-yilda 15,1 foizga teng bo‘ldi. Umumiy sanoatdagi rentabellik ko‘rsatkichidan

yuqori rentabellik darajasi ta'minlanayotgan tarmoqlar yuqori rentabelli sanoat tarmoqlari hisoblanadi. 2016-yilda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sohalarida rentabellik darajasi umumiy sanoatdagi rentabellik ko'rsatkichidan yuqori bo'ldi va 28 foizni tashkil etdi.

Ayni vaqtda qayta ishlash sanoatidagi rentabellik darajasi-ning umumiy sanoatdagi rentabellik ko'rsatkichidan past bo'lishi kuzatildi – 14,8 foiz.

Aytish o'rinliki, rentabellik ko'rsatkichlari 2000–2016-yillarda turli sanoat tarmoqlarida o'zgarib turgan. Bu natijalar tarmoqlarda amalga oshirilgan investitsiya loyihalari, bozorlarga kirish strategiyasi, zamonaviy menejmentni tashkil etish darajasi, ichki va tashqi bozordagi konyunkturaviy o'zgarishlarga bog'liq bo'ldi.

Sanoat tarmoqlaridagi ishlab chiqarish samaradorligi rentabellikdan tashqari miqyos samarasiga erishish imkoniyatlari yuqori bo'lgan tarmoqlarda ham namoyon bo'ladi. Shu sababli tarmoqlarga kapital kiritishda, investitsiyalarning ustuvor yo'nalishlarini tanlashda, jahon bozorida nisbiy va mutlaq ustunliklarga ega bo'lishda boshqa omillar singari miqyos samarasi mezonini ham hisobga olinadi. Miqyos samarasi mashinasozlik va metallni qayta ishlash, yoqilg'i, qurilish materiallari va oziq-ovqat sanoatida yuqori bo'ldi. Shuning uchun bu tarmoqlarning umumiy sanoat ishlab chiqarishidagi hisssasi ortib bordi.

### **9.3. Milliy sanoatning rivojlanish bosqichlari**

O'zbekiston iqtisodiyotida tabiiy xomashyo, mehnat, moddiy-texnik, iqtisodiy, moliyaviy va innovatsion imkoniyatlardan unumli foydalanishga yo'naltirilgan tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu, bevosita sanoat ishlab chiqarishida resurslar va turli salohiyatlarning mujassamlashtirilishida ham namoyon



bo‘lmoqda. Sohada xo‘jalik-iqtisodiy, tashkiliy, institutsional, mulkiy va huquqiy islohotlar amalga oshirildi. Bu islohotlarning asosiy yo‘nalishlari quyidagilar:

- sanoat korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish;
- davlat aksiyadorlik, korporativ, jamoa, xususiy mulk shakllarining amal qilishini ta‘minlash;
- sanoat tarmoqlarida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishini ta‘minlash;
- xorijiy kapitalning sohaga kirib kelishini va samarali faoliyatini kafolatlash;
- texnik va texnologik yangilash, modernizatsiya, diversifikatsiya ishlarini jadallashtirish va boshqalar.

O‘zbekiston sanoatida tarmoqlar turli darajada ahamiyatga ega va ularning roli oshib bormoqda. Milliy sanoatning shakllanishi va rivojlanishi mavjud tabiiy xomashyo va mehnat resurslariga tayanadi. Sanoatlashuv jarayoni va sanoat taraqqiyoti masalalariga zamonaviy yondashuvlar ishlab chiqilmoqda. Bugungi kunda bozor iqtisodiyotining asosiy uch subyektini – davlat, korxonalar va uy xo‘jaliklarining sanoat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlari borgan sari to‘laroq qondirilmoqda.

Milliy sanoat rivojlanishi tadrijiy mazmun kasb etmoqda. Shu sababli bu jarayonni shartli ravishda bosqichlarga ajratib o‘rganish maqsadga muvofiq.

**Birinchi bosqich** – 1991–1995-yillar – mavjud ishlab chiqarish salohiyatini saqlab qolish, strategik muhim ahamiyatga ega xomashyolarni qazib olish va birlamchi qayta ishlash, import o‘rnini bosuvchi o‘zak tarmoqlarni rivojlantirish hamda ishlab chiqarish hajmi keskin pasayib ketishining oldini olish chora-tadbirlari davri hisoblanadi. Bu davrda sanoatning o‘zak tarmoqlarini jadal rivojlantirish, ichki bozorni proteksionizm vosita-

lari bilan himoya qilish, energiya manbalari narxini boshqarish orqali asosiy sanoat korxonalari rentabelligini ta'minlash, kichik sanoat korxonalarini xususiylashtirish amalga oshirildi.

**Ikkinchi bosqich** – 1995–2000-yillar. Bu davr iqtisodiy mustaqillik asoslarini tashkil etuvchi sanoat tarmoqlarini ustun rivojlantirish, import o'rnini bosuvchi sanoatlashtirish strategiyasini keng miqyosda amalga oshirish, qayta ishlash tarmoqlariga investitsiyalar oqimini kengaytirish bilan tavsiflanadi. Mashinasozlik, yengil sanoat, kimyo va oziq-ovqat sanoati tarmoqlariga kapital qo'yilmalar ko'paytirildi. Bu bosqichda sanoat sohalariga jalb etiladigan investitsiyalarning qonunchilik bazasi yaratildi, konkurs asosida loyihalarni moliyalashtirishga o'tildi. Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalarni jalb etish chora-tadbirlari ko'rilib, iqtisodiyotning real sektoriga investitsiyalar kiritilishi kuchaytirildi. Sanoatdagi investitsion loyihalarni amalga oshirishda turli moliyalashtirish manbalari qo'llanila boshlandi. Budget mablag'lari sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishda muhim manba bo'lib xizmat qildi.

**Uchinchi bosqich** – 2000–2008-yillar. Bu bosqichda import o'rnini bosuvchi sanoatlashtirish bilan yonma-yon eksportga yo'naltirilgan sanoat tarmoqlarini barpo etishga e'tibor qaratildi. Yirik sanoat korxonalarini xususiylashtirish, davlat korxonalarining monopol mavqeyini cheklashga erishildi. Xususiylashtirishning sanoatdagi roli oshirilib, samarasiz faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini tugatish ishlari amalga oshirildi. Korxonalarini boshqarishning tashkiliy tuzilmasi isloh qilinib, mahalliy lashtirish dasturlari ro'yobga chiqarildi. Bundan tashqari, davlat iqtisodiy siyosatida quyidagilarga e'tibor qaratildi:

- valuta munosabatlari va operatsiyalarini erkinlashtirish;
- xorijiy investorlarning huquqlarini himoya qilish va ular manfaatlarini himoyalash bo'yicha muhim hujjatlar qabul qilish;

- korxonalarining texnik jihozlanishini jadallashtirish;
- eksportga mo‘ljallangan va import o‘rmini qoplovchi mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan loyihalarni moliyalashtirishga ustuvorlik berish va boshqalar.

**To‘rtinchi bosqich** – 2008-yildan 2016-yilgacha bo‘lgan davr. Bu bosqich global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz boshlanishi oqibatida sanoatdagi modernizatsiya chora-tadbirlarining kuchayishi bilan tavsiflanadi. Bu davrda sanoatni rivojlantirish yo‘nalishlarini belgilab beruvchi muhim hujjatlar qabul qilindi. Mamlakatimizda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha 2009–2012-yillarga mo‘ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturi va 2011–2016-yillarda sanoatni rivojlantirish dasturi amalga oshirildi. Shuningdek, sanoat korxonalarining texnologik darajasini baholash ishlari oxiriga yetkazildi, texnik-texnologik yangilash, keng ko‘lamda modernizatsiya chora-tadbirlarini amalga oshirishga e‘tibor qaratildi.

**Beshinchi bosqich.** Bu bosqich «2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi»ning qabul qilinishi va bu doirada sanoat sohalarini rivojlantirishning yangi omillari harakatga kelishi bilan tavsiflanadi.

Harakatlar strategiyasining amalga oshirilishi natijasida 2017–2021-yillarda umumiy qiymati 40 milliard AQSH dollari miqdoridagi 649 ta investitsiya loyihasini nazarda tutuvchi tarmoq dasturlarini ro‘yobga chiqarish rejalashtirilmoqda. Natijada keyingi 5 yilda sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 1,5 baravar, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 32,9 foizdan 36 foizgacha, qayta ishlash tarmog‘i ulushi 80 foizdan 85 foizgacha oshadi.

#### **9.4. Davlat sanoat siyosati va tarmoqdagi tarkibiy o'zgarishlar**

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi oqibatlarini bartaraf etish va undan keyingi barqaror iqtisodiy o'sishga erishish sharoitida O'zbekistonning sanoat sektorini modernizatsiyalash davlat sanoat siyosatining markaziy yo'nalishi hisoblanadi. Sanoat siyosati tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishga, iqtisodiyotning innovatsion taraqqiyotini ta'minlashga va aholi turmush darajasini oshirishga yordam beradi. Sanoat siyosati sanoatlashtirish siyosati deb ham yuritiladi.

Sanoatlashtirish siyosati – aholi farovonligini oshirish, ichki va tashqi bozorda milliy ishlab chiqaruvchilar faoliyatini kengaytirish maqsadida innovatsion faollikni oshirish, samarali va raqobatbardosh ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishdir. Shuningdek, bu siyosat mamlakat iqtisodiy o'sishining yangi sifat bosqichiga o'tishi borasida amalga oshiriladigan tashkiliy, iqtisodiy, institutsional va moliyaviy-iqtisodiy chora-tadbirlar majmuasi hisoblanadi.

Jahon amaliyotida sanoatlashtirish siyosatining turli xil modellari mavjud. Ularning G'arbiy Yevropa modeli, Yaponiya modeli, Yangi industrial mamlakatlarda amalga oshirilgan sanoatlashtirish modeli o'zining ijtimoiy-iqtisodiy va moliyaviy natijaviyligi bilan ajralib turadi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi oqibatlarini bartaraf etishda moliya sektoridagi kamchiliklarni, iqtisodiyotdagi no-mutanosibliklarni bartaraf etish uchun sanoat ishlab chiqarishida samaradorlikni oshirish zarur. Deyarli barcha mamlakatlarda milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlari va sektorlaridagi muammolarni hal etishda, sanoatlashtirish siyosatini amalga oshirishda an'anaviy dastaklardan foydalanilmoqda. Ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

Birinchi guruh dastaklarga soliq-tarif institutlari kiradi. Soliq solishning imtiyozli tizimi, tarif, bojxona, amortizatsiya siyosati va boshqalar shular jumlasidan. Ular to‘g‘ridan to‘g‘ri moliyalashtirishni talab etmaydi, lekin ma‘lum muddatga davlatning vujudga kelishi mumkin bo‘lgan daromadlarini qisqartirishi yoki ortga surishi mumkin.

Ikkinchi guruh dastaklarga davlatning to‘g‘ridan to‘g‘ri moliyalashtirish vositalari kiradi. Subsidiyalar ajratish, davlat tomonidan to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarni amalga oshirish shunday vositalardir.

Uchinchi guruh dastaklar ustuvor ilmtalab tarmoqlar – ta‘lim, ITTKI, ishlab chiqarish va transport infratuzilmasi kabi-larning faoliyatini qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

To‘rtinchi guruhga institutsional xarakterga ega dastaklar kiradi. Bozorga kirish va chiqishda to‘siqlarni qo‘yish yoki olib tashlash, antimonopol qonunchilik, integratsiya jarayonlarini dastaklash, milliy bozorda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida proteksionizm siyosatini qo‘llash shular jumlasidandir.

Mamlakatimizda sanoatni rivojlantirishda davlatning roli xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan amal qilinishi shart bo‘lgan zaruriy chora-tadbirlar va qonun-qoidalar mexanizmlarini ishlab chiqish bilan tavsiflanadi.

Sanoatlashtirish siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri – bu ilm sig‘imi yuqori sanoat tarmoqlarini jadal rivojlantirishga e‘tibor kuchaytirilayotganligidir. Chunki, sanoatning ilm sig‘imi yuqori va innovatsion sohaları istiqbolda mehnattalab va resurstalab tarmoqlarni «yetaklovchi» rol bajaradi. Keyingi yillarda yuqori texnologiyalarga asoslangan mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati, zamonaviy qurilish materiallari sanoati jadal rivojlandi. Shuningdek, telekommunikatsiya uskunalari, kompyuter texnikasi va mobil telefonlar, keng turdagi

maishiy elektronika mahsulotlari ishlab chiqaradigan yangi zamonaviy korxonalar tashkil etilmoqda.

O'zbekistonda sanoatlashtirishning yana bir muhim yo'nalishi ichki iste'mol bozorini mahalliyashtirish dasturlari asosida keng turdagi iste'mol tovarlari bilan to'ldirishdan iborat. Xususan, mahalliy xomashyo resurslari chuqurlashgan darajada qayta ishlanadigan korxonalarda mahsulot ishlab chiqarishning o'sishi, tayyor mahsulot turlarining kengayishi, sanoatning umumiy hajmida iste'mol tovarlarining ulushini ko'payishiga imkon yaratdi. Agar 2010-yilda sanoat ishlab chiqarishida iste'mol tovarlarining ulushi 35,9 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2016-yilda bu ko'rsatkich 43,1 foizga yetdi. Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda import o'rnini bosuvchi strategiya eksportga yo'naltirilgan strategiyaga yonma-yon amalga oshirilmoqda. Boshqacha aytganda, iste'mol tovarlarining raqobatdoshligi nafaqat ichki bozorda, balki tashqi bozorda ham ortib bormoqda.

Davlat sanoat siyosatida sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish ko'lamini kengaytirish muhim yo'nalishlardan biridir. Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish hajmlarining o'sishi bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo'lgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni o'sishining va import tovarlari qisqarishining omillaridan biri hisoblanadi.

Sanoat mahsuloti umumiy hajmida mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahalliyashtirilgan mahsulotlar ulushi 2003-yilda 2,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2016-yilda bu ko'rsatkich 5,5 foizga etdi. Mahalliyashtirish dasturiga kiritilgan korxonalar soni 2003-yilda 74 tadan 2016-yilda 318 tagacha o'sdi. Agar 2013-yilda 455 ta korxonada mahalliyashtirish dasturi asosida 1 ming 140 ta loyiha amalga oshirilgan bo'lsa,

2016-yilda 695 ta loyiha amalga oshirildi. Bu loyihalar bo'yicha mahsulotlar sotish umumiy hajmi 1,5 marta oshdi.

Iqtisodiyot tarkibidagi chuqur o'zgarishlar sanoatning eksport salohiyatini mustahkamlash, eksport hajmini barqaror oshirish va uning tarkibini takomillashtirishda eng muhim omilga aylandi. Eksport tarkibida raqobatdosh tayyor sanoat mahsulotlari ulushi barqaror sur'atlar bilan o'sib bormoqda. 2016-yilda umumiy eksport hajmining 75 foizdan ortig'i tayyor tovarlar hissasiga to'g'ri keldi. Mahsulot eksport qiladigan korxonalarni qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlarning amalga oshirilgani eksport faoliyatiga yangi korxonalarni jalb etish imkonini berdi.

Davlatning sanoat siyosatida tarkibiy-investitsiya yo'nalishi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu yo'nalish sanoatning tarmoq tuzilishini takomillashtirib borishga, uni diversifikatsiyalashga qaratilgan. Milliy sanoatning tarmoq tuzilishi mustaqillik davrida takomillashib bordi, tarmoqlarning jami sanoat mahsulotidagi hissasi sezilarli darajada o'zgardi. Masalan, 2000–2016-yillarda jami sanoat mahsulotlari hajmida elektr energiyasining ulushi 11,9 foizdan 7,4 foizgacha, rangli metallurgiyaning ulushi 15,4 foizdan 8,5 foizgacha, yengil sanoatning ulushi 19,2 foizdan 15,5 foizgacha, yoqilg'i sanoatining ulushi 13,4 foizdan 11,0 foizgacha qisqargan bo'lsa, mashinasozlik va metallni qayta ishlashning hissasi 12,0 foizdan 22 foizgacha, oziq-ovqat sanoatining hissasi 9,4 foizdan 15,5 foizgacha, qurilish materiallari sanoatining hissasi 4 foizdan 7,1 foizgacha oshdi.

2016-yilda qayta ishlash sanoatining ulushi 80,3 foizni tashkil etdi. Shundan 23,9 foizi oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish, 16,7 foizi to'qimachilik mahsulotlari, kiyim-kechaklar va charm mahsulotlari ishlab chiqarish, 8,9 foizi kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa mahsulotlari ishlab chiqarish hissasidir.

## Sanoat tarmoq tuzilishining o'zgarish dinamikasi, (%)

	2000	2005	2011	2015	2016
Sanoat	100	100	100	100	100
Elektr energiyasi	11,9	11,3	7,9	7,5	7,4
Yoqilg'i	13,4	16,2	17,3	13,3	11,0
Qora metallurgiya	2,5	2,5	2,6	2,3	3,0
Rangli metallurgiya	15,4	16,9	10,4	8,3	8,5
Kimyo va neft kimyosi	5,4	5,6	5,7	5,1	5,3
Mashinasozlik va metallni qayta ishlash	12,0	13,0	16,2	16,4	22,0
Yog'och, yog'ochni qayta ishlash va selluloza-qog'oz sanoati	0,9	1,0	1,2	1,6	1,9
Qurilish materiallari	4,0	3,6	5,3	5,0	7,1
Yengil	19,2	16,6	13,4	16,7	15,5
Oziq-ovqat	9,4	8,2	14,1	18,2	15,2
Boshqalar	5,9	5,9	5,9	5,6	6,0

Sanoat qazib oluvchi, qayta ishlovchi, elektroenergetika tarmoqlari bilan birgalikda moddiy ishlab chiqarishda asosiy o'rinni egallaydi. Uning YaIMdagi ulushi G'arbdagi rivojlangan mamlakatlarda 2016-yilda o'rtacha 23–26 foizni tashkil etdi. Taxminlarga ko'ra, 2020-yilda bu ko'rsatkich 15–20 foizgacha pasayadi.

Sanoat milliy xo'jalik boshqa tarmoqlarining moddiy-texnik rivojlanishini ta'minlab berishda muhim rol o'ynaydi. Birinchi navbatda, sohada muhim ilmiy-texnik yutuqlar mujassamlashadi va ilmtalab sarmoya jamg'arilishi jadal tus oladi. Sanoat ishlab chiqarish tarkibi o'zgarishining dinamikasini funksional-ishlab chiqarish majmualari bo'yicha, ya'ni mashinasozlik, yoqilg'i-energetika, moddiy ishlab chiqarish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sohalari bo'yicha tahlil qilish, sano-



atdagi tarkibiy siljishlarni mezodarajada aniqlashga yordam beradi.

O'tgan davrda sanoat tarmoqlaridagi nomutanosibliklar sezilarli darajada yumshatildi va tegishli ijobiy natijalar ta'minlandi. Bu quyidagi yo'nalishlardagi chora-tadbirlar natijasi bo'ldi:

- sanoatning bazaviy tarmoqlarida zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, modernizatsiyalash hamda texnik-texnologik qurollantirishga qaratilgan investitsiya siyosati;

- sanoatning samarali faoliyat yuritayotgan korxonalarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan budjet va kredit siyosati;

- mahsulot tannarxini kamaytirish va narx jihatidan raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar;

- sanoat ishlab chiqaruvchilarining mahsulotiga ichki talabni noinflatsiyaviy usullar bilan, jumladan, tarmoqlararo kooperatsiyani va ishlab chiqarishni mahalliyashtirish ko'lamlarini kengaytirish orqali rag'batlantirish.

O'zbekistonda 2015-yil va undan keyingi davr uchun sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish, sohaning ichki bozorni iste'mol tovarlari bilan to'ldirish va tashqi bozorda investitsion va iste'mol tovarlarini ildamlatish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilmogda. 2015–2019-yillarga mo'ljallangan dasturlarda sanoatning jahon bozorida raqobatlasha oladigan va keyingi bosqichda iqtisodiy o'sishning, iqtisodiyotni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilishning lokomotivi bo'lish roli yanada kuchayadi. Samarali tarmoq va korxonalarni jadal rivojlantirishga qaratilgan siyosat davom ettiriladi. Buning uchun tegishli yo'nalishlarda maqsadli dasturlar ishlab chiqilgan. Jumladan, 2015-yil 23-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yaqin mudatga va uzoq istiqbolga mo'ljallangan Harakat dasturi taqdim

etilib, unda o‘ndan oshiq dasturlar qatorida sanoat ishlab chiqarishini taraqqiy ettirishga qaratilgan quyidagi ikkita keng qamrovli dasturlar ham ma’qullandi.

1. 2015–2019-yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o‘zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta’minlash chora-tadbirlari dasturi. Bunda qiymati jami 38 mlrd. dollarga teng bo‘lgan 870 ta yirik investitsiya loyihasi amalga oshiriladi.

2. 2015–2019-yillarda tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallarni mahalliyashtirish hamda ishlab chiqarish dasturi. Bunda 1225 ta mahsulot turini o‘zimizda ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi. Bu mahalliyashtirish dasturida 600 ta loyiha mavjud.

Sanoatni taraqqiy ettirish milliy iqtisodiyotning jahon xo‘jaligidagi mavqeyini mustahkamlash va raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor vazifalarini bajarishga xizmat qiladi. Shu sababli mamlakatimizning mavjud tabiiy xomashyo, mehnat, ilmiy-texnik va tadbirkorlik salohiyatini bundan keyin ham sohani rivojlantirishga safarbar etish dolzarb bo‘lib qolaveradi.

## **9.5. Asosiy sanoat tarmoqlarining rivojlanishi**

**Yoqilg‘i-energetika sanoati.** Yoqilg‘i-energetika sanoati milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, sohaning mamlakat iqtisodiy yuksalishidagi ahamiyati yuqori hisoblanadi. Yoqilg‘i sanoati har xil yoqilg‘i turlarini qazib olish, qayta ishlash bilan band bo‘lgan sanoat tarmoqlari majmuasidir. Neft qazib olish, neftni qayta ishlash, gaz, ko‘mir sanoatlarini o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga yoqilg‘i sanoati energetikaning yetakchi tarmoqlaridan biri hamdir. Iqtisodiyotdagi elektrlashtirish, avtomatlashtirish, mexanizatsiyalashtirish, yirik miqyosli sanoat korxonalarining barpo etilishi, aholi sonining oshib borishi yoqilg‘i sanoati maqsulotlariga talabni oshirib yubordi. Shu

sababli yoqilg‘i qazib olish va uni qayta ishlashning ahamiyati ham ortib bormoqda. Bugungi kunda O‘zbekiston birlamchi energiya manbalari bilan o‘zini o‘zi ta‘minlay oladigan davlatlar qatoriga kiradi. Neft qazib olish, neftni qayta ishlash, gaz, ko‘mir qazib olish hajmi mustaqillik yillarida dinamik o‘zgarib bordi. Shunga ko‘ra, mamlakatning yoqilg‘i balansida yoqilg‘i turlarining ulushi ham o‘zgarib bormoqda.

Yoqilg‘i-energetika sanoati asosiy mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2000–2016-yillarda o‘zgarib bordi. Masalan, elektr energiya ishlab chiqarish, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish, neft va gaz kondensati, neftga birlamchi ishlov berish, avtomobil benzini ishlab chiqarish hajmi kamaygan bo‘lsa, tabiiy gaz, suyultirilgan gaz ishlab chiqarish hamda ko‘mir qazib olish hajmi ko‘paygan. Jumladan, 2000–2016-yillarda tabiiy gaz ishlab chiqarish 56,4 mlrd. kub metrdan 59 mlrd. kub metrga, ko‘mir qazib olish hajmi 2,5 mln. tonnadan qariyb 4,0 mln. tonnaga oshgan.

Istiqbolga mo‘ljallangan loyihalar va dasturlar sohada ishlab chiqarish quvvatlari oshirilishiga olib keladi. Masalan, 2019-yilga kelib foydali qazilmalarning yuzini ochish hajmi 71 mln. m<sup>3</sup> gacha, ko‘mir qazib olish esa 8,1 mln. tonnaga yetkazilishi, ko‘mir eksporti hajmini keskin oshirish rejalashtirilgan. Bugungi kunda, dasturga muvofiq, «Yangi Angren issiqlik elektr stansiyasi 1–5 – energobloklarini «Angren» ko‘mir konini modernizatsiyalash bilan birga yil bo‘yi ko‘mir yoqishga o‘tkazish», «Angren IESda kuchlanganligi yuqori bo‘lgan ko‘mirni yoqish uchun issiqlik olish bilan 130–150 MVt quvvatli energoblok qurish» loyihalari amalga oshirilmoqda.

**Mashinasozlik va metallga ishlov berish sanoati.** Iqtisodiyot tarmoqlari uchun ishlab chiqarish vositalari, asbob-uskunalar, stanoklar, iste‘mol buyumlari ishlab chiqaradigan tarmoqlar majmuasidir. Bu majmuaga energetika mashinasozli-

gi, elektrotexnika, stanoksozlik, avtomobilsozlik, traktorsozlik, qishloq xo‘jaligi mashinasozligi, to‘qimachilik mashinasozligi kabi tarmoqlar kiritiladi. Bugungi kunda mamlakatimizda 15 tarmoqqa mansub 100 dan oshiq yirik korxonalar mashinasozlik sanoatini tashkil etadi. Avtomobilsozlik, radioelektronika kabi tarmoqlar sohaning ilg‘or tarmoqlari hisoblanadi.

2000–2016-yillarda sohaning jami sanoat mahsulotidagi ulushi 12 foizdan 22,2 foizga oshdi. Aytish o‘rinliki, ushbu sohaning markaziy – yetakchi bo‘g‘inini avtomobilsozlik tashkil etadi. Avtomobilsozlik sanoatining barqaror rivojlanishi mashinasozlik sanoatining muttasil taraqqiy etishiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatmoqda. Chunki avtomobilsozlik sanoati negizida klaster tipidagi rivojlanishga erishilmoqda. Boshqacha aytganda, sohaning yon tarmoqlari rivojlanishi jadal tus olmoqda. Natijada iqtisodiyotning innovatsion yo‘nalish olishi uchun zarur bo‘lgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini rivojlantirish shart-sharoitlari yuzaga kelmoqda.

Mashinasozlik va metallga ishlov berish sanoatining asosiy mahsulotlari quvvatli transformatorlar, kompressorlar, yengil avtomobillar, yuk avtomobillari, avtobuslar, akkumulator va avtomobil akkumulatori batareyalari, traktorlar, elektr ko‘prik kranlari, markazdan qochish nasoslari kabilar hisoblanadi.

2016-yilda mamlakatimizda 88,2 ming dona yengil avtomobillar, 3517 dona yuk avtomobillari va 908 dona avtobuslar, shuningdek, 584,7 ming dona akkumulyatorlar va 44,1 ming dona kuch agregatlari ishlab chiqarildi.

Mashinasozlik va metallga ishlov berish sanoati istiqbolli korxonalariga ega bo‘lib, ular iqtisodiyotni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qurollantirish, diversifikatsiyalash va mahalliy lashtirish jarayonlarida ilg‘or tarmoq korxonalari sifatida tan olinmoqda.

**Qora va rangli metallurgiya.** Qora va rangli metallurgiya sanoatining iqtisodiyotdagi o'rnini katta bo'lib, bu tarmoq mahsulotlari mashinasozlik, dastgohsozlik, uskunasozlik, elektronika va elektrotexnika, radiotexnika, maishiy texnika korxonalarini uchun mahsulot ishlab chiqaradi. Tarmoq korxonalarini resurs sig'imi yuqori va ilm sig'imi yuqori ishlab chiqarish tuzilmalari bo'lib, tarmoqning yirik korxonalarini Bekoboddagi O'zbekiston metallurgiya kombinati, «O'zikkilamchiqorametall» AJ, «O'zikkilamchiranglimetall» UK hisoblanadi.

Hozirda yiliga 755 ming tonna po'lat, 740,8 ming tonna qora metall tayyor prokatlari, 1,2 ming tonna ikkilamchi aluminii, 19,6 ming tonna rangli metallar prokati hamda 400 tonna atrofida rangli metall qotishma ishlab chiqarilmoqda.

**Kimyo va neft kimyosi.** Kimyo sanoati O'zbekistonda yetakchi va ilg'or sanoat tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Xilma-xil kimyo mahsulotlari turlari, jumladan, kon-kimyo xomashyosi, asosiy kimyo mahsulotlari – ammiak, noorganik kislotalar, ishqorlar, mineral o'g'itlar, soda, xlor va xlorli mahsulotlar, suyultirilgan gazlar, plastmassa va sintetik smolalar, kaprolaktam, selluloza atsetatlari, kimyoviy tola va iplar, plastmassa va shisha-plastiklardan materiallar va buyumlar, lokbo'yoq materiallari, sintetik bo'yoqlar, kimyoviy reaktivlar, fotokimyo mahsulotlari, maishiy kimyo tovarlari ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda tuzilma tarkibida 34 dan ortiq korxonalar faoliyat yuritmoqda. «Elektrokimyosanoat» AJ, Farg'ona «Azot» ishlab chiqarish birlashmasi, Dehqonobod kaliyli o'g'itlar ishlab chiqarish zavodi, «Qo'qon superfosfat zavodi», Samarqand kimyo zavodi, Olmaliq «Ammofos» AJ, Qo'ng'irotda soda zavodi, Navoiy «Elektrokimyo» zavodi, «Navoiyazot» korxonasi, «Andijon biokimyo zavodi», «Yangiyo'l biokimyo zavodi» AJ, Angren «Rezinatexnika» zavodi, Ohangaron «Santexlit»,

«Jizzaxplastmassa» zavodi, «Toshkent lok-bo‘yoq zavodi» AJ kabilar kimyo sanoatining yirik korxonalari hisoblanadi.

Kimyo sanoati majmuasida neft kimyosi sanoatining o‘rni va roli ortib bormoqda. Chunki neft kimyosi ilm sig‘imi yuqori sanoat tarmog‘i bo‘lib, ilmiy-texnika yutuqlarini jadal olib kirish mumkin bo‘lgan zamonaviy tarmoqlardan hisoblanadi. Neft kimyosi neft va tabiiy yonuvchi gazlarni qayta ishlash mahsulotlari, asosan, sun‘iy materiallar va buyumlar ishlab chiqarish korxonalarini o‘z tarkibiga oladi. Bular – sun‘iy kauchuk, asosiy organik sintez mahsulotlari hisoblangan etilen, propilen, polietilen, sirt-aktiv moddalar, benzol, butadien, yuvish vositalari, mineral o‘g‘itlar, rezina buyumlari va keng xalq iste‘moli buyumlaridan iborat. Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasi neft kimyosi sanoatining yirik korxonasi hisoblanadi.

Keyingi yillarda mineral o‘g‘itlar (100% to‘yimli ozuqa moddalariga hisoblanganda) qariyb 1200,0 ming tonna, (shundan, azotli o‘g‘itlar 979,2 ming tonna, fosfatli o‘g‘itlar 136,5 ming tonna, kaliyli o‘g‘itlar 96,4 ming tonna), sulfat kislotasi qariyb 1400,0 ming tonna, sun‘iy ammiak 1420,2 ming tonna, kimyoviy tola va iplar 13,3 ming tonna, lok-bo‘yoq mahsulotlari qariyb 85,0 ming tonna, polietilen 133,3 ming tonna, sintetik kir yuvish vositalari 63,0 ming tonna atrofida ishlab chiqarildi.

**Yengil sanoat.** Yengil sanoat turli xomashyolardan aholi va qator ishlab chiqarish turlari uchun iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalari majmuasi hisoblanadi. Yengil sanoatda, asosan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari – paxta, ipak, zig‘ir, kanop, jun tolalari, hayvonlar terisi, juni, sun‘iy tolalar, sun‘iy charm xomashyo sifatida foydalaniladi. To‘qimachilik, tikuvchilik, trikotaj, ko‘nchilik, mo‘ynado‘zlik, poyabzal sanoati, shoyichilik, gilamchilik, chinni-fayans buyumlari ishlab chiqarish, shuningdek, paxta tozalash sanoati yengil sanoatning asosiy tarmoqlaridir.

Yengil sanoat to‘qimachilik, tikuvchilik, charm, mo‘yna va poyabzal tarmoqlariga bo‘linadi. Yengil sanoatda asosiy tarmoq to‘qimachilik hisoblanadi. Uning jami yengil sanoat mahsulotidagi ulushi qariyb 90 foizni tashkil etadi.

2016-yilda yengil sanoat korxonalarida 348,6 ming tonna ip-kalava, 198,7 mln. metr kvadrat paxtadan tayyorlangan gazlama, 62,8 ming tonna trikotaj mato, 219,4 mln. dona trikotaj mahsulotlar, 46,1 mln. juft paypoq mahsulotlari, 37,9 mlrd. so‘mlik tikuv mahsulotlari, 1230,1 tonna ipak tolasi, 31,6 ming tonna paxta momig‘i, 41,5 mln. metr kvadrat noto‘qima mato, 8,8 mln. juft poyabzal ishlab chiqarildi. Shuningdek, 36 mln. metr kvadrat gilam va gilam buyumlari ishlab chiqarildi.

O‘zbekiston yengil sanoatida tashkiliy-iqtisodiy tuzilmalar «O‘zbekyengilsanoat» davlat uyushmasi, «O‘zbek ipagi» uyushmasi hamda «O‘zbekcharm-poyabzal» uyushmasi hisoblanadi. Bu tarmoqda 150 dan oshiq korxonalar faoliyat olib bormoqda.

**Qurilish materiallari sanoati.** Milliy iqtisodiyotning barpo etilishi va yuqori sur‘atlarda rivojlanishida qurilish materiallari sanoatining ahamiyati mustaqillik yillarida salmoqli bo‘lmoqda. Mazkur sanoat ishlab chiqarishi ikki yo‘nalishda – kapital qurilish, aholi ehtiyojlari uchun uy-joy va boshqa obyektlar qurishga xizmat ko‘rsatmoqda. Qurilish materiallari sanoatining asosiy tovar mahsulotlari sement, qurilish ohagi, gips, yig‘ma temir-beton konstruksiya va buyumlari, devorbop materiallar, asbest-sementli shifer, asbest-sementli quvur va muftalar, linoleum, bezakli sopol plitkalar, keramzit, noruda qurilish materiallaridan iboratdir.

Qurilish materiallari sanoati ishlab chiqarish hajmi 2000–2016-yillarda yiliga o‘rtacha 7,8–8,0 foiz qo‘shimcha o‘sib bordi. Bu ko‘rsatkich 1997–2007-yillarda o‘rtacha 4,5–5,0 foizni tashkil etgan edi.

2016-yilda mamlakatimizda 8461,9 ming tonna sement, 319,4 ming tonna qurilish ohagi, 240,8 ming tonna gips, 1 mlrd. 267 mln. dona qurilish g'ishti, 312,5 ming metr kvadrat yig'ma deraza va eshiklar ishlab chiqarildi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va texnik-texnologik qayta jihozlash bosqichida qurilish materiallari sanoatining o'sish sur'atlari tezlashmoqda. So'nggi yillarda hukumatning qishloq joylarda namunali uy-joy qurilishini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan siyosati sohaning ishlab chiqarish imkoniyatlarining kengayishiga olib keldi.

**Oziq-ovqat sanoati.** Oziq-ovqat sanoati, bir tomondan, agrosanoat majmuasi tarkibiga kirsa, boshqa tomondan mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda yetakchi vazifani bajarayotgan ishlab chiqarish sohasi hisoblanadi. Tarmoq tarkibiga go'sht-sut, yog'-moy, baliq mahsulotlari, un-yorma, makaron, meva-sabzavot konservalari, sut-yog', shakar, choy qadoqlash, qandolatchilik, non, uzum, shampan vinolari, spirt, chanqovbosdi ichimliklar, sovun sanoati korxonalari kiritiladi.

O'zbekistonning zamonaviy oziq-ovqat sanoatida 3200 dan oshiq korxonalarda jami 200 dan oshiq mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda.

Mustaqillik yillarida oziq-ovqat sanoatida ham tashkiliy-iqtisodiy islohotlar amalga oshirilgan. Jumladan, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish ishlari amalga oshirilib, «Oziq-ovqat sanoat» va «Yog'moytamakisanoat» uyushmalari, «O'zgo'shtsanoat» davlat aksiyadorlik uyushmasi, «O'zdonmahsulot» davlat aksiyadorlik korporatsiyasi, «O'zmevasabzavotuzumsanoat» davlat aksiyadorlik uyushmasi, «O'zbalig» davlat aksiyadorlik korporatsiyasi kabi davlat va nodavlat tuzilmalari shakllantirildi. Bu – agrosanoat majmuasida ko'p ukladli tizim yuzaga kelganligini bildiradi.



Keyingi yillarda oziq-ovqat sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi barqaror o'sib bormoqda, bu aholining o'sib borayotgan ehtiyojlarini to'laroq qondirish imkoniyatini bermoqda. 2016-yilda 17,7 ming tonna qandolatchilik mahsulotlari, 188,3 mln.litr pivo, 0,587 ming tonna go'sht va go'sht mahsulotlari, 9,76 ming tonna kolbasa mahsulotlari, 51,86 ming tonna sut va sut mahsulotlari, 0,836 ming tonna sariyog', 0,644 ming tonna pishloq va brinza, 145,38 ming tonna mevasabzavot konservasi, 535,0 ming tonna shakar ishlab chiqarildi. 2016-yilda «O'zbekoziqovqatxolding» XK korxonalarida 58,52 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan va 293 nomdagi yangi turdagi mahsulot ishlab chiqarish o'zlashtirilgan.

### **Qisqacha xulosalar**

1. Sanoat majmuasining tarkibi murakkab bo'lib, unda yuzdan ortiq tarmoq mavjud. O'zbekistonda sanoat korxonalarini faoliyati 18 ta yiriklashtirilgan tarmoqqa birlashtirilib o'rganiladi. Sanoatlashgan mamlakatlarda esa sanoat majmuasi texnologik tavsifiga ko'ra ham o'rganiladi. Unga ko'ra, yuqori texnologik tarmoqlar, o'rta darajadagi yuqori texnologik sanoat tarmoqlari, o'rta darajadagi past texnologik sanoat tarmoqlari hamda texnologik darajasi past sanoat tarmoqlari ajratib ko'rsatiladi.

2. Sanoatning milliy iqtisodiyotdagi o'rni va rolini tavsiflovchi ko'rsatkichlar mavjud. Ular sanoatning rivojlanish darajasi va sur'atlariga baho berishda qo'l keladi.

3. Milliy sanoatning rivojlanishi bosqichma-bosqich, tadrijiy mazmun kasb etmoqda. Davlatning sanoat siyosati mamlakatimizning sanoat salohiyatini yanada yuksaltirish maqsadida amalga oshirilmoqda.

4. Milliy sanoatdagi o'zgarishlar iqtisodiyotimizni yanada baquvvat qilish, uning investitsion kuchini oshirish, jahon bozorida raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini oshirishga xizmat qilmoqda. Aholining zarur iste'mol mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini to'laroq qondirishga erishilmoqda.

5. Asosiy sanoat tarmoqlaridagi miqdoriy va sifat o'zgarishlari milliy sanoatning ichki bozorni to'laroq tovar va mahsulotlar bilan to'yintirish imkoniyatlari kengayotganligi hamda ishlab chiqarish quvvatlari oshib borayotganligini bildiradi. Ko'rsatkichlarning dinamik o'zgarayotganligi shundan dalolat beradi.

## **Asosiy atamalar va tushunchalar**

Sanoat majmuasi, sanoat tarmoqlari, sanoat rivojlanishi, sanoat siyosati, tayanch sanoat tarmoqlari, tarkibiy o'zgarish, modernizatsiya, diversifikatsiya, mahalliyashtirish, bilimlar iqtisodiyoti.

## **Nazorat savollari**

1. Sanoat majmuasining mohiyati nimalardan iborat?
2. Sanoat tarmoqlari qanday guruhlariga bo'linadi, ularning tavsifiy belgilari nimalardan iborat?
3. Sanoatning milliy iqtisodiyotdagi o'rni va rolini qanday ko'rsatkichlar orqali bilib olish mumkin?
4. Sanoat rivojlanishini ifodalovchi qanday ko'rsatkichlarni bilasiz?
5. Milliy sanoatning rivojlanish bosqichlarini tushuntirib bering.
6. Davlat sanoat siyosatining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
7. Davlat sanoat siyosatining asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?

8. Asosiy yoki tayanch sanoat tarmoqlariga qaysi sohalarni kiritish mumkin? Fikringizni asoslang.

9. Asosiy sanoat tarmoqlari rivojlanishiga umumiy tavsif bering. Qanday xulosalarga keldingiz, fikringizni ko'rsatkichlar bilan asoslang.

10. Modernizatsiya tushunchasini qanday misollar orqali tushuntirib bera olasiz?

11. Sanoat sohasidagi diversifikatsiya nimani anglatadi? Uning natijalari qaysi ko'rsatkichlarda o'z ifodasini topadi?

12. Mahalliyashtirish dasturlari o'z oldiga qanday maqsadlarni qo'yadi? Misollar keltiring.

---

---

## **X b o b**

### **AGROSANOAT MAJMUASI**

#### **10.1. Agrosanoat majmuasining tarkibiy tuzilishi**

Agrosanoat majmuasi milliy iqtisodiyotda qishloq xo‘jaligi xomashyosidan aholining oziq-ovqat va xalq iste‘moli tovarlariga bo‘lgan ehtiyojlarini ta‘minlashda o‘zaro hamkorlikda faoliyat ko‘rsatadigan tarmoqlar, korxonalar, faoliyat turlari majmuasi hisoblanadi. Agrosanoat majmuasining muhim strategik ahamiyati shundan iboratki, majmua mamlakat aholisini uzluksiz ravishda, sifatli va yetarli miqdorda oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlashga xizmat qilishi lozim.

Agrosanoat majmuasi murakkab va ko‘p tarmoqlidir. Uning ishlab chiqarish tuzilmasida qishloq, suv va o‘rmon xo‘jaligi muhim ahamiyatga ega. Chunki aynan mana shu tarmoqda ishlab chiqariladigan mahsulotlar agrosanoat majmuasi korxonalarida qayta ishlanadi, tashiladi, saqlanadi va iste‘molga olib chiqiladi. Agrosanoat majmuasi yirik uch sohani o‘z ichiga oladi:

1. Qishloq xo‘jaligiga ishlab chiqarish vositalarini yetkazib beradigan sanoat tarmoqlari – traktor va qishloq xo‘jaligi mashinasozligi, meliorativ va suv xo‘jaligi obyektlari qurilishi tarmoqlari, asosiy fondlar ta‘miri bo‘yicha korxonalar, mineral o‘g‘it va o‘simliklarni himoya qilish vositalari, biologik faol preparatlar ishlab chiqarish, ozuqa va mikrobiologiya sanoati, turli qishloq xo‘jaligi uchun idishlar (tara) tayyorlash va boshqalar.

2. Qishloq, suv va o‘rmon xo‘jaligi.

3. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va iste‘molchiga yetkazib berish bilan band bo‘lgan tarmoqlar – tayyorlov, qayta ishlash, saqlash, tashish, sotish va boshqalar.

Agrosanoat majmuasi tarkibiga kiradigan har bir tarmoq ichida ishlab chiqarish rivojining umumiy sharoitini ta‘minlaydigan tarmoq infratuzilmalari muhim ahamiyatga ega. Bular yo‘l-transport xo‘jaligi, moddiy-texnika ta‘minoti, elektr, gaz, suv ta‘minoti, aloqa, omborxonalar va elevator xo‘jaligi, ulgurji va taqsimot bazalaridir.


Agrosanoat majmuasi tarkibiga, shuningdek, fan, ilmiy-texnika taraqqiyoti masalalari bilan shug‘ullanadigan hamda innovatsion faoliyat olib borayotgan institutlar, laboratoriyalar, ITTKI markazlari, muassasalari kiradi. Bu muassasalar dehqonchilik va chorvachilikda mehnat unumdorligini oshirish maqsadida fan va ilmiy-texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish muammolari bilan shug‘ullanadi. Xususan, yangi o‘simlik navlarini yaratish, yangi zotlarni yaratish, qishloq xo‘jaligi zararkunandalariga qarshi samarali kurash, zamonaviy agromelioratsiya usullarini joriy etish, texnologik jarayonlarni yo‘lga qo‘yish, tuproq hosildorligini oshirish masalalari bilan shug‘ullanadi.

O‘zbekiston agrosanoat majmuasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini birlamchi qayta ishlaydigan sohalar – un-yorma, yog‘-moy, go‘sht, sut, meva-konserva, vinochilik hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ikkilamchi qayta ishlaydigan sohalar – non, makaron, konditer, paxta moyi, go‘sht-sut konservasi va mahsulotlari, oziq-ovqat konsentratlari ishlab chiqarish sohalaridir. Bu ikki yo‘nalish birgalikda oziq-ovqat sanoatini tashkil etadi.

Texnika ekinlarini birlamchi qayta ishlash, ya‘ni paxta, lub ekinlari, tamaki ishlab chiqarish va ikkilamchi qayta ishlash,

ya'ni ip-gazlama, to'qimachilik, lub tolalari, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish sohalari yengil sanoatni tashkil etadi. Agrosanoat majmuasida paxtasanoat majmuasi, meva-sabzavot majmuasi, chorvachilik majmuasi hamda don ishlab chiqarish majmuasining ahamiyati yuqori hisoblanadi.

## O'zbekiston agrosanoat majmuasining tarkibiy tuzilishi



O'zbekiston iqtisodiyotida agrosanoat majmuasi hissasiga yalpi ichki mahsulotning qariyb 30,0 foizi, asosiy ishlab chiqarish fondlarining 30 foiziga yaqini, iqtisodiyotda band bo'lgan aholining deyarli 35 foizi to'g'ri keladi.

Agrosanoat majmuasi shakllanish jarayoni obyektiv va tadrijiy hodisadir. Bu jarayon agrosanoat integratsiyasi orqali kechadi. Qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlarining iqtisodiy-moliyaviy, fan-texnika, ilmiy texnika, texnologiya va boshqa

xo‘jalik imkoniyatlarini birlashtirishi natijasida ishlab chiqarish va mehnatning umumlashuvi integratsiya jarayonini yuzaga chiqaradi. Bunda ishlab chiqarishni tashkil etishda kooperatsiya va kombinatsiya usulidan foydalaniladi. So‘nggi yillarda fermer xo‘jaliklarining rivojlanib, ko‘ptarmoqli qishloq xo‘jaligi korxonalariga – agrofirmalarga aylanishi tendensiyasi agrosanoat integratsiyasining tobora chuqurlashib, zamonaviy ko‘rinishini ta‘minlamoqda.

Agrosanoat majmuasining asosiy vazifasi mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, aholini sifatli va yetarli miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yuqori darajada qayta ishlashga erishishdan iborat.

Agrosanoat majmuasida pirovard mahsulot ishlab chiqarish jarayonida texnologik rivojlanish darajasi turlicha bo‘lgan 70 dan oshiq tarmoqlar ishtirok etadi. Bu jarayonda qo‘l mehnatidan to zamonaviy avtomatlashgan ishlab chiqarish jarayonigacha qatnashadi.

Agrar soha O‘zbekiston iqtisodiyotining ko‘p yillar davomida o‘zak tarmog‘i bo‘lib keldi. 1990-yillar boshida mamlakatimiz agrar-industrial davlat bo‘lib, industrial tarmoqlarning aksariyati ham qishloq xo‘jaligiga bog‘liq tovar va mahsulotlar ishlab chiqarar edi. Shu sababli agrosanoat majmuasi va agrosanoat integratsiyasi masalalari boshqa iqtisodiy masalalarga nisbatan ustuvor darajada hal qilingan. Shunday bo‘lsa-da, aytish o‘rinliki, 1990-yilda iste‘mol uchun zarur bo‘lgan g‘allaning 82 foizi, go‘sht va go‘sht mahsulotlarining 50 foizi, sut mahsulotlarining qariyb 60 foizi, kartoshkaning 50 foizi, shakar, quruq sut va bolalar oziqasining 100 foizi chetdan keltirilgan. Bu mustaqillikkacha agrar siyosatning samaradorligi juda past bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Agrosanoat majmuasini rivojlantirish masalalariga mustaqillik yillarida tubdan yangicha yondashuvlar shakllandi. Bu

agrosanoat integratsiyasining erkin bozor tamoyillari asosida rivojlanishi zarurligidan kelib chiqadi. Qishloq xo‘jaligida xususiy tadbirkorlikning rivoj topishi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, taqsimlash, qayta taqsimlash va iste‘mol qilish jarayonlarining bozor mexanizmi asosida ro‘y berishi lozimligi davlatning agrosanoat majmuasi taraqqiy topishidagi rolini o‘zgartirdi.

## **10.2. Milliy iqtisodiyotda qishloq xo‘jaligining o‘rni**

Qishloq xo‘jaligi agrosanoat majmuasining markaziy bo‘g‘ini hisoblanadi. Dunyoning barcha mamlakatlarida, u xoh rivojlangan davlat, xoh taraqqiy topayotgan bo‘lsin, qishloq xo‘jaligi mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlovchi, cheklangan yer va suv resurslaridan oqilona foydalanishda muhim ahamiyat kasb etuvchi tarmoq sifatida qabul qilinadi.

O‘zbekistonda ham qishloq xo‘jaligi milliy iqtisodiyotning tayanch sohalaridan biri hisoblanadi. Bu tarmoqda amalga oshirilayotgan bozor islohotlari, mulkchilik munosabatlari, xo‘jalik yuritish shakllarining barqarorligi, qishloq infratuzilmasining keskin takomillashuvi jihatidan o‘zining qamrovi, sifat ko‘rsatkichlari bilan MDH davlatlarida ilg‘or hisoblanadi.

Davlatning agrar siyosati qishloq xo‘jaligini taraqqiy ettirish orqali mamlakat aholisini yetarli miqdorda sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlashga qaratilgan.

Qishloq xo‘jaligining milliy iqtisodiyotdagi o‘rni va roli har xil. Yuqori sanoatlashgan mamlakatlar: AQSH, Yaponiya, Germaniya, Fransiya kabilar yalpi ichki mahsulotida qishloq xo‘jaligining ulushi 2–3 foiz atrofida bo‘lishi bu davlatlarda sohaning ahamiyatini pasaytirmaydi. Chunki har qanday davlat, avvalo, aholisining oziq-ovqat ta‘minoti masalasini o‘z ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib hal etishga harakat qiladi. Shu sababli qishloq xo‘jaligi davlat tomonidan moliyalashtiriladi,



zarur hollarda milliy ishlab chiqaruvchilar tashqi raqobatchilardan himoya qilinadi, ichki bozorga olib kirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlariga yuqori talablar qo'yiladi, cheklovlar joriy etiladi.

Qishloq xo'jaligining milliy iqtisodiyotdagi roliga baho berishda ko'plab iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Qishloq xo'jaligi iqtisodiy rivojlanishini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar quyidagilar:

- qishloq xo'jaligining YaIMdagi ulushi o'zgarishi;
- qishloq xo'jaligida band bo'lganlar soni;
- jami bandlikda qishloq xo'jaligining ulushi o'zgarishi;
- o'tgan yilga nisbatan qishloq xo'jaligi mahsulotining o'sish sur'ati;
- bazis yilga nisbatan qishloq xo'jaligi mahsulotining o'sish sur'ati;
- qishloq xo'jaligiga yaroqli yer maydoni, yil oxiriga, ming ga;
- qishloq xo'jaligining asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalardagi ulushi o'zgarib borishi, %;
- qishloq xo'jaligi mahsulotining xo'jalik yuritish subyektlariga ko'ra tuzilishi, %;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari;
- dehqonchilik mahsulotlari hosildorligi o'zgarishi;
- ekin maydonlari tarkibining o'zgarishi va boshqalar.

Quyidagi jadval ma'lumotlari qishloq xo'jaligining milliy iqtisodiyotdagi o'rni va roli ijobiy o'zgarayotganligini tavsiflamoqda. Jumladan, 2000–2016-yillarda qishloq xo'jaligining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi keskin pasayib bordi. Bu o'zgarish ijobiy baholanadi. Agar bu ko'rsatkich 2000-yilda 30,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2005-yilga kelib 26,3 foizdan iborat bo'ldi. 2016-yilda faqatgina 17,6 foizni tashkil etdi.

**Qishloq xo'jaligining milliy iqtisodiyotdagi  
o'rnini tavsiflovchi ko'rsatkichlar**

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>2000</b>	<b>2005</b>	<b>2010</b>	<b>2015</b>	<b>2016</b>
Qishloq xo'jaligining YalMdagi ulushi, %	34,4	29,5	19,8	18,3	17,6
Qishloq xo'jaligida band bo'lganlar soni, ming kishi	3093,0	2967,0	3127,5	3184,2	3197,8
Jami bandlikda qishloq xo'jaligining ulushi, %	34,4	30,1	29,0	27,7	27,5
Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'sish sur'ati, o'tgan yilga nisbatan	103,1	105,4	106,9	106,8	106,6
Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'sish sur'ati, 2000-yilga nisbatan	100,0	136,0	181,2	251,9	268,5
Qishloq xo'jaligining jami investitsiyalardagi ulushi, %	5,7	4,4	3,5	3,3	3,3

Barcha taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, mamlakatlar jadal rivojlanish bosqichiga o'tgandan keyin sanoatlashuv jarayonlari ta'sirida qishloq xo'jaligining iqtisodiyotdagi hissasi pasayib, uning moddiy-texnik ta'minoti, texnik-texnologik qurollanish darajasi yaxshilanib boradi. Tarmoqqa innovatsion resurslar va kuchlarning kirib kelishi tezlashadi. Natijada qishloq xo'jaligining yalpi ichki mahsulot yaratishdagi hissasi 3–5 foizgacha tushib ketishi mumkin.

O'zbekistonda o'tgan yillarda sohaning iqtisodiyotdagi hissasi miqdoriy kamaygan bo'lsa-da, tarmoqning ichki sifat ko'rsatkichlari yaxshilanib bordi. Bu qishloq xo'jaligida band bo'lganlar sonining ortishida, ayni paytda jami bandlikda qishloq xo'jaligining ulushi kamayganligida, qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilga va bazis yilga nisbatan oshib borishida, shu bilan birga, qishloq xo'jaligi

yer maydonining nisbatan qisqarishida o‘z ifodasini topadi. 2000–2016-yillarda sohada band aholi soni qariyb 105 ming kishiga ko‘paygan. Shu bilan birga, jami bandlikdagi hissasi 34,4 foizdan 27,5 foizga pasaygan, ya’ni 7,0 foizga kamaygan. 2016-yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2000-yilga nisbatan 2,7 barobar ko‘paydi. Shu yili qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 6,6 foizga, jumladan, dehqonchilik – 6,2 foizga, chorvachilik – 7,1 foizga o‘sdi.

### **10.3. Qishloq xo‘jaligi rivojlanishining tavsifi**

Mamlakatimizda bozor islohotlari, avvalo, qishloq xo‘jaligida mulkchilik munosabatlarini, yerga bo‘lgan egalik tushunchalarini o‘zgartirishdan boshlandi desak, noto‘g‘ri bo‘lmaydi. Chunki mustaqillik arafasida islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri aholiga tomorqa yerlarini bo‘lib berish, qishloq xo‘jaligida kishilarga tadbirkorlik erkinligini berishdan boshlandi. Qishloq xo‘jaligida davlat va jamoa xo‘jaliklarini boshqarish tizimini o‘zgartirish, fermer va dehqon xo‘jaliklari faoliyatini tashkil etish va rag‘batlantirishga qaratilgan hukumat sa’y-harakatlari mustaqillikning dastlabki yillaridan jadalashdi. O‘zbekistonda asrlar davomida rivojlanib kelayotgan boy dehqonchilik madaniyati va aholining yerga bo‘lgan qadriyatlarini muhim omil bo‘lib xizmat qildi.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tarkibiy, tuzilmaviy, mulkiy, hududiy va tashkiliy-huquqiy o‘zgarishlarning miqyosi katta bo‘ldi. Islohotlar strategiyasida agrar soha davlat va hukumatning doimiy e’tibor markazida bo‘ldi.

O‘zbekistonda agrar islohotlarning amalga oshirilishi va yerga mulkchilik munosabatlarining o‘zgartirilishi natijasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning mulkchilik shakllari bo‘yicha tarkibida ham sezilarli o‘zgarishlar sodir bo‘ldi.

**Yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jalik yuritish subyektlariga ko‘ra tuzilishi, jamiga nisbatan, %**

Yillar	Jami	Jumladan		
		qishloq xo‘jaligi korxonalari	fermer xo‘jaligi	dehqon xo‘jaligi
		<i>Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari</i>		
2000	100	27,8	5,5	66,7
2005	100	14,0	24,3	61,7
2010	100	2,2	35,0	62,8
2015	100	2,0	32,6	65,4
2016	100	2,0	32,9	65,1
		<i>Dehqonchilik mahsulotlari</i>		
2000	100	46,4	9,7	43,9
2005	100	21,4	46,1	37,1
2010	100	1,1	55,4	43,5
2015	100	1,0	55,8	43,2
2016	100	0,9	57,6	41,5
		<i>Chorvachilik mahsulotlari</i>		
2000	100	9,0	1,3	89,7
2005	100	4,7	2,7	92,6
2010	100	3,8	5,0	91,2
2015	100	3,6	5,2	91,2
2016	100	3,2	5,4	91,4

Agrar sohada mulkchilik munosabatlarining o‘zgartirilishi natijasida yaratilayotgan yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning salmog‘i o‘zgarmoqda. Xususan, 2000–2016-yillarda qishloq xo‘jaligi mahsulotining xo‘jalik yuritish subyektlariga ko‘ra tuzilishidagi o‘zgarishlar yuqoridagi jadval ma’lumotlarida o‘z ifodasini topmoqda. Jami qishloq xo‘jaligi mahsuloti ishlab chiqarishda qishloq xo‘jaligi korxonalarining hissasi 2000–2016-yillarda 27,8 foizdan 2,0

foizga kamaygan. Aksincha, fermer xo‘jaliklarining hissasi 5,5 foizdan 32,9 foizga oshgan. Dehqon xo‘jaliklarining ulushi esa qisman, ya’ni 66,7 foizdan 65,1 foizga qisqargan.

Bu tendensiya dehqonchilikda yanada yaqqolroq namoyon bo‘lmoqda. Masalan, 2000–2016-yillarda qishloq xo‘jaligi korxonalarining dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishdagi hissasi 46,4 foizdan 0,9 foizga kamaygan, fermer xo‘jaliklarining hissasi esa 9,7 foizdan 57,6 foizga oshgan. Dehqon xo‘jaliklarining ulushi esa, yuqoridagi kabi, qisman, ya’ni 43,9 foizdan 41,5 foizga qisqargan.

Chorvachilikda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ulushi dehqonchilikdagi singari keskin o‘zgarmagan. Har uchala holatda ham asosiy o‘zgarishlar qishloq xo‘jaligi korxonalari ulushining keskin kamayishi va fermer xo‘jaliklarining ulushi jadal ortishi hisobiga sodir bo‘lgan. Chunki asosiy e’tibor bu yillarda xo‘jalik yuritishda fermerlik faoliyatini yuqori mavqega olib chiqishga qaratilgan.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi asosiy mahsulot turlari bo‘yicha keskin oshib bordi. 2000–2016-yillarda donli ekinlar yetishtirish hajmi 2,1 barobar oshdi va 8261,3 ming tonnaga etdi. Kartoshka yetishtirish – 4 marta, sabzavotlar yetishtirish – 4,3 marta, uzum yetishtirish – 2,8 marta, poliz mahsulotlari yetishtirish – 4,5 marta, meva yetishtirish – 3,8 marta ko‘paydi. Paxta yetishtirish biroz kamaydi va 2016-yilda 2000-yilning 98,5 foizi miqdorida paxta xomashyosi yetishtirildi.

Bu yillarda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi ham ortib bordi. Jumladan, go’sht (tirik vaznda) ishlab chiqarish hajmi 2,6 marta, sut ishlab chiqarish 2,7 marta, tuxum ishlab chiqarish 5,8 marta ko‘paydi. Natijada 2016-yilda respublikamizda qariyb 3 mln. tonna paxta xomashyosi va kartoshka, qariyb 11,3 mln. tonna sabzavot, 2 mln. tonnadan ziyod poliz mahsulotlari va 3 mln. tonnadan ziyod meva, 1,8 mln. tonnadan

ziyod uzum, 2,1 mln. tonnadan ziyod go'sht, 9,7 mln. tonnadan ziyod sut va 6,1 mln. donadan ko'proq tuxum yetishtirildi.

**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish  
ko'rsatkichlari, ming tonna**

	<b>2000</b>	<b>2005</b>	<b>2010</b>	<b>2015</b>	<b>2016</b>
Donli ekinlar	3929,4	6401,8	7404,1	4101,4	8261,3
Paxta	3002,4	3728,4	3404,0	3002,4	2959,0
Kartoshka	731,1	924,2	1 694,8	731,1	2958,4
Sabzavotlar	2644,7	3517,5	6346,5	2644,7	11275,8
Poliz	451,4	615,3	1182,4	451,4	2044,9
Meva	790,6	949,3	1710,3	790,9	3042,8
Uzum	624,2	641,6	987,3	624,2	1735,8
Go'sht (tirik vazn)	841,0	1061,0	1461,0	841,8	2172,5
Sut	3631,0	4563,0	6169,0	3632,5	9703,4
Tuxum, mln. dona	1054,0	1967,0	3062,0	1254,4	6152,5

Bu ko'rsatkichlar O'zbekiston aholisini asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash darajasi ham qariyb shu nisbatlarda yaxshilanayotganligini bildiradi. Boshqacha aytganda, bug'doy yetishtirish hajmining ko'payishi non va non mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi ortishiga, go'sht ishlab chiqarish hajmining ko'payishi go'sht mahsulotlari hajmi ortishiga, xuddi shunday, sut ishlab chiqarish hajmining ko'payishi sut mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi ortishiga olib kelmoqda. Bu – agrosanoat majmuasining xomashyo bazasi hamda takror ishlab chiqarish miqyoslarining kengayayotganligini ham bildiradi.

**Xo‘jalik yuritish shakllariga ko‘ra asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, jamiga nisbatan, %**

Mahsulot turlari	Xo‘jalik yuritish shakllari					
	Qishloq xo‘jaligi korxonalari		Fermer xo‘jaligi		Dehqon xo‘jaligi	
	2010	2016	2010	2016	2010	2016
Donli ekinlar	67,0	1,3	14,4	80,4	18,6	18,3
Paxta	81,7	0,5	18,3	99,5	-	-
Kartoshka	15,7	0,8	4,2	23,1	80,1	76,1
Sabzavotlar	20,1	0,9	4,9	34,8	75,0	64,3
Uzum	62,3	1,5	4,7	53,1	33,0	45,4
Poliz	25,3	1,6	11,2	49,5	63,5	48,9
Meva	36,8	2,1	4,3	45,8	58,9	52,1
Go‘sht (tirik vazn)	7,6	2,7	1,3	2,9	91,1	94,4
Sut	4,9	0,7	1,5	3,6	93,6	95,7
Tuxum, mln. dona	39,1	31,6	1,0	10,7	59,9	57,7
Jun	24,6	6,5	1,1	8,0	74,3	85,5
Qorako‘l teri	1,1	5,4	32,1	83,5	66,8	11,1

Xo‘jalik yuritish shakllariga ko‘ra asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmi ko‘rsatkichlari qishloq xo‘jaligi korxonalari, fermer xo‘jaliklari va dehqon xo‘jaliklarining agrar sohadagi ahamiyatini ifodalaydi. Asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishda xo‘jalik yuritish shakllarining hissasi turlicha. Masalan, fermer xo‘jaliklari paxta va donli ekinlar yetishtirishda mutlaq ustun mavqeni egallamoqda, qariyb 80,4 foiz donli ekinlar va deyarli 100 foiz paxta fermer xo‘jaliklari tomonidan yetishtirilmoqda.

Dehqon xo‘jaliklari esa kartoshka va sabzavotlar yetishtirishda, go‘sht va sut ishlab chiqarishda salmoqli ulushga ega. Qishloq xo‘jaligi korxonalarining tuxum va parranda go‘shti ishlab chiqarishdagi salmog‘i yildan yilga oshib bormoqda. Bu holat qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishda

qishloq xo‘jaligi korxonalari, fermer xo‘jaliklari va dehqon xo‘jaliklarining ishni tashkil etishlari, miqyosni qamrab olishlari darajasi turlichaligi bilan izohlanadi. Ishlab chiqarishni tashkil etish, uni boshqarish va samaradorligini oshirib borish nuqtayi nazaridan fermer xo‘jaliklarining yildan yilga roli va ahamiyati oshib bormoqda. Istiqbolda ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari qishloq xo‘jaligida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ularning moddiy-texnik bazasida agrosanoat majmuasi korxonalari yanada taraqqiy topishi mumkin.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘i iqtisodiy rivojlanishining muhim sifat ko‘rsatkichlaridan biri – bu dehqonchilik mahsulotlari hosildorligi hisoblanadi. Chunki O‘zbekiston sharoitida suv resurslarining va sug‘oriladigan unumdor yer maydonlarining cheklanganligi dehqonchilik ekin maydonlaridan foydalanishda intensiv omillarning ahamiyatini oshirishni taqozo etadi.

Keyingi yillarda asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari hosildorligini intensiv yo‘llar bilan muttasil oshirishga erishilmoqda. Xususan, asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari hosildorligi 2000–2016-yillarda 1,1–2,2 marta oshirildi. Jumladan, bu ko‘rsatkich donli ekinlarda – 1,6 marta, paxtada – 1,1 marta, kartoshkada – 1,7 marta, sabzavotlarda – 1,5 marta, uzumda esa 2,2 martani tashkil etdi.

2016-yilda 1 gektar yer maydonidan o‘rtacha 45 sentner don, 38 sentner sholi, 50 sentner makkajo‘xori, 23,4 sentner paxta, 225 sentner kartoshka, 271 sentner sabzavotlar va 134 sentner meva va rezavorlar yetishtirib olinmoqda. Bu tuproq unumdorligini yaxshilash, yangi navlarni joriy etish, agromeliorativ chora-tadbirlarni amalga oshirish va xo‘jalik yuritishning samarali usullari va shakllarini qo‘llash hisobiga ta‘minlanmoqda.

Qishloq xo‘jaligidagi muhim tarkibiy o‘zgarishlar chorvachilikda kuzatilmoqda. Chorvachilik qishloq xo‘jaligining mehnat unumdorligini va ishlab chiqarishda rentabellikni oshi-



rish imkoniyatlari katta bo'lgan sohasi hisoblanadi. Ammo soha yirik investitsiyalarni va ilg'or texnologiyalarni jalb qilmasdan rivojlana olmaydi. Bu borada davlat tomonidan yirik dastur va loyihalar ishlab chiqilmoqda, davlat va xususiy sektorning hamkorligi yo'lga qo'yilmoqda. Oziq-ovqat ta'minotini yo'lga qo'yishda, aholi uchun xavfsiz va sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishda, oziq-ovqat sanoati uchun sifatli xomashyo yetkazib berishda chorvachilik sohasidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Chorvachilik sohasi rivojlanishining ayrim ko'rsatkichlari quyidagicha o'zgarimoqda. 2000–2016-yillarda yirik shoxli mollar 2,3 marta ko'paydi. Shundan, sigirlar 1,8 marta, qo'y va echkilar 2,2 barobar, parrandalar 4,6 marta ko'paydi. 2016-yil ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda qariyb 12,2 mln. bosh yirik shoxli mollar, 5 mln. boshdan ziyod sigirlar, 19,7 mln. bosh qo'y va echkilar, shuningdek, 67,0 mln. boshdan ziyod parrandalar mavjud.

Chorvachilikning rivojlantirilishi ko'proq dehqon xo'jaliklarining faoliyati samaradorligiga bog'liq bo'lmoqda. Chunki chorvachilik mahsulotlarining asosiy turlari bo'lgan go'sht ishlab chiqarishning 94,4 foizi, sut ishlab chiqarishning 95,7 foizi dehqon xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.

O'zbekistonning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda Xalqaro qishloq xo'jaligini rivojlantirish fondi, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki, «Global ekologik fond», Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti bilan hamkorlik muhimdir. Ularning ishtirokida keyingi yillarda 100 dan oshiq loyiha va grantlarni amalga oshirish uchun 1,1 mlrd. dollardan oshiq mablag' jalb etilgan.

Aytish mumkinki, respublika hukumati faoliyatidagi eng dolzarb yo'nalishlardan biri qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini

ta'minlashga qaratilgan siyosatdir. Bu borada so'nggi yillarda davlatning e'tibori aholini sifatli va yetarli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash chora-tadbirlariga qaratilmoqda.

#### **10.4. Davlat agrar siyosatining asosiy yo'nalishlari**

Har qanday mamlakatda, rivojlanish darajasidan qat'i nazar, davlat agrar siyosati oldiga bir qator vazifalar qo'yiladi. Shulardan asosiylari agrar munosabatlarni tartibga solish, qishloq xo'jaligiga yaroqli yer fondini saqlab turish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini doimiy qo'llab-quvvatlash, mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ehtimoli bo'lgan agrar tanglik, ya'ni qishloq xo'jaligi inqirozining oldini olish kabilar muhim strategik ahamiyatga ega hisoblanadi.

Agrar siyosatda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash, sotish bo'yicha maxsus qonunlar qabul qilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlariga davlat buyurtmalari joriy etish, bu mahsulotlarning bozor narxlarini tartibga solish, narxning quyi yoki yuqori chegarasini belgilab qo'yish, ortiqcha mahsulotlarni xarid qilib, ularning zaxiralarini yaratish, murakkab vaziyatlarga tushib qolgan fermerlarga subsidiyalar berish usullaridan foydalaniladi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini import qilish, eksport qilish tartiblarini o'zgartirish, ya'ni cheklash yoki rag'batlantirish, karantin holatlarini joriy etish ham agrar siyosatga daxldordir.

O'zbekistonda agrar siyosatning bosh yo'nalishi agrar islohotlarni amalga oshirish jarayonida shakllandi. Mustaqillik arafasida va uning dastlabki yillaridan yerga mulkchilik munosabatlarini, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tarkibini hamda qishloq turmush tarzini o'zgartirishga qaratilgan agrar islohotlar amalga oshirila boshlandi.

Agrar islohotlar davlatning yerga mulkchilik munosabatlari va yerda xo'jalik yuritish usullarini o'zgartirishga qaratilgan

chora-tadbirlari bo'lganligi bois, dastlab agrar islohotlar konsepsiyasi maqsad va vazifalari, yo'nalishi, uni o'tkazish bosqichlari belgilab olindi. Avvalo, agrar islohotlarning huquqiy asoslari bo'lgan qonunlar qabul qilindi. «Yer to'g'risida»gi (1990-yil 20-iyun), «O'zbekistonda tadbirkorlik to'g'risida»gi (1991-yil 15-fevral), «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi (1991-yil 19-noyabr), «Ijara to'g'risida»gi (1991-yil 19-noyabr), «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi (1992-yil 3-iyul), «Xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari to'g'risida»gi (1992-yil 9-dekabr), «Yer solig'i to'g'risida»gi (1993-yil 6-may) qonunlar shular jumlasidan. Keyinchalik 1998-yil 28–30-aprelda «Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida», «Dehqon xo'jaligi to'g'risida», «Fermer xo'jaligi to'g'risida» qonunlar hamda O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi qabul qilindi.

Qishloq xo'jaligida bozor munosabatlari mulkiy munosabatlar singari bosqichma-bosqich erkinlashtirilib borildi. Bunda paxta yakkahokimligiga barham berilishi, don mustaqilligiga erishilishi, yerni uzoq muddatga, fermer xo'jaliklariga 50-yilgacha ijaraga berish, dehqon xo'jaliklariga esa umrbod berish amaliyoti joriy etilishi, 1999-yil 1-yanvardan qishloq xo'jaligi korxonalariga yagona yer solig'i joriy etilishi iqtisodiy munosabatlarning erkinlashib borishiga olib keldi. 2000-yillardan agrar sohada tovar ishlab chiqaruvchilarning haq-huquqlarini himoya qilish, tovar ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy erkinliklarini yanada kengaytirish, davlat buyurtmasi bo'yicha yetishtirilayotgan mahsulotlar bahosini belgilashda dunyo narxlariga mos keluvchi tizimni joriy etish, shirkat xo'jaliklarini, avvalo, past rentabelli, zarar ko'rib ishlayotganlarini fermer xo'jaliklariga aylantirish, qishloq xo'jaligining zamonaviy infratuzilmasini barpo etish chora-tadbirlari jadallashdi.

Aholining tub ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlaridan kelib chiqib mustaqillik arafasida tomorqa yerlarini ajratib berish bilan boshlangan agrar islohotlar yildan yilga chuqurlashib, amaliy natijalarini bera boshladi. Davlat va jamoa xo'jaliklarini dastlab shirkat xo'jaliklariga, keyinroq esa, ular bazasida fermer va dehqon xo'jaliklarini tashkil etish agrar islohotlarning tashkiliy-institutsional yo'nalishiga aylandi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini to'liq nodavlat mulkchiligiga o'tkazish, qishloqda kichik va xususiy mulkdorlarning tadbirkorligiga to'la erishish agrar siyosatda asosiy vazifalardan biridir.

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligi rivojlanishining parametrlarini yanada yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar ko'rilmogda. Bulardan biri – ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini jadal rivojlantirishdir. Mazkur xo'jalik birliklari qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan birga, ularni chuqur qayta ishlash, qurilish ishlarini amalga oshirish va qishloq aholisiga xizmat ko'rsatish kabi yo'nalishlarda samarali faoliyat ko'rsatishi orqali o'z istiqbolini kengaytirib borishi ko'zda tutilgan. Bugungi kunda bunday fermer xo'jaliklarining soni 18 mingdan ko'proqdir.

Shuningdek, qishloq xo'jaligining o'zida ekin maydonlarini optimallashtirish va qishloq xo'jaligi ekinlarini rayonlashtirish borasidagi siyosat natijasida paxta yetishtirishning nisbatan barqaror hajmini saqlagan holda, boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bir necha barobar ko'paytirildi.

Aytish o'rinliki, 2008-yildan boshlab qariyb 1 million 500 ming gektar sug'oriladigan yerning meliorativ holati yaxshilandi, yerosti suvlari yuqori bo'lgan maydonlar 415 ming gektarga yoki salkam 10 foizga qisqardi, kuchli va o'rtacha sho'rlangan maydonlar 113 ming gektarga kamaydi. 2013–2017-yillarda sug'oriladigan yerlarning meliorativ ho-

latini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar davlat dasturi qabul qilindi.

Davlat agrar siyosatini iqtisodiy siyosatning boshqa yo'nalishlariga muvofiqlashtirib olib borish natijasida barqaror o'sish sur'atlari ta'minlanmoqda. Indikativ rejalashtirish va dasturiy yondashuv qishloq xo'jaligini taraqqiy ettirishda samarali bo'lmoqda. Bunga misol qilib 2015–2019-yillarda qishloq xo'jaligini rivojlantirish dasturini keltirish mumkin. Bu dasturda hosildorligi past g'oz maydonlarini qisqartirish, oziq-ovqat ekinlari maydonlarini, jumladan, poliz ekinlari maydonini hamda intensiv bog'larni kengaytirishga alohida e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 25-mayda «Qishloq va suv xo'jaligi tarmoqlari uchun muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori qabul qilindi. Uchbu qarordan ko'zda tutilgan maqsad Qishloq xo'jaligi tarmoqlari uchun muhandis-texnik kadrlar tayyorlash sifatini tubdan oshirish, ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi va ilmiy-texnik salohiyatini yanada mustahkamlash, ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, ilmiy-pedagog kadrlar va mutaxassislarning malakasini oshirish hamda qayta tayyorlashni tashkil etishdan iborat.

## **Qisqacha xulosalar**

1. Agrosanoat majmuasining iqtisodiyot va mamlakat aholisi uchun muhim strategik ahamiyati uzluksiz ravishda, sifatli va yetarli miqdorda oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashga xizmat qilishi bilan izohlanadi. Agrosanoat majmuasi yirik 3 sohani o'z ichiga oladi.

2. Mustaqillikning dastlabki yillaridan yerga mulkchilik munosabatlarini, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish tarkibini hamda qishloq turmush tarzini o‘zgartirishga qaratilgan agrar islohotlar amalga oshirila boshlandi. Bu agrosanoat majmuasida amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining muvaffaqiyatlariga xizmat qildi.

3. Qishloq xo‘jaligi agrosanoat majmuasining markaziy bo‘g‘ini hisoblanadi. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi milliy iqtisodiyotning tayanch sohalaridan biridir.

4. Mamlakatimizda bozor islohotlari, avvalo, qishloq xo‘jaligida mulkchilik munosabatlarini, yerga bo‘lgan egalik tushunchalarini o‘zgartirishdan boshlandi. Mustaqillik arafasida islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri aholiga tomorqa yerlarini bo‘lib berish, qishloq xo‘jaligida kishilarga tadbirkorlik erkinligini berishdan boshlandi.

5. Qishloq xo‘jaligida bozor munosabatlari takomillashuviga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadigan xo‘jalik yuritish shakli, bu – fermer xo‘jaliklaridir. Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash esa agrosanoat majmuasini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

6. Oziq-ovqat ta’minotini yo‘lga qo‘yishda, aholi uchun xavfsiz va sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishda, shuningdek, oziq-ovqat sanoati uchun sifatli xomashyo yetkazib berishda chorvachilik sohasidagi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati muhim ahamiyat kasb etmoqda.

7. Agrosanoat majmuasini rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining boshqa yo‘nalishlariga muvofiqlashtirib olib borilmoqda. Indikativ rejalashtirish va dasturiy yondashuv majmuani taraqqiy ettirishda samarali bo‘lmoqda.

## **Asosiy atamalar va tushunchalar**

Agrosanoat majmuasi, qishloq xo‘jaligi, dehqonchilik, chorvachilik, hosildorlik, mahsuldorlik, qishloq xo‘jaligi korxonalari, fermer xo‘jaliklari, dehqon xo‘jaliklari, agrar soha, agrar siyosat, agrar munosabatlar, oziq-ovqat ta‘minoti, oziq-ovqat xavfsizligi.

### **Nazorat savollari**

1. Agrosanoat majmuasining tarkibiy tuzilishi va ularning ahamiyati nimalardan iborat?
2. Milliy iqtisodiyotda qishloq xo‘jaligining o‘rni va roliga qanday baho berasiz?
3. Qishloq xo‘jaligi rivojlanishini tavsiflovchi qanday ko‘rsatkichlarni bilasiz?
4. Qishloq xo‘jaligi korxonalari, fermer xo‘jaliklari va dehqon xo‘jaliklarining agrar sohadagi ahamiyatini qanday izohlaysiz?
5. Davlat agrar siyosatining asosiy yo‘nalishlari nimalardan iborat?
6. Hosildorlik tushunchasi nima? Qaysi ko‘rsatkichlarda aks etadi?
7. Oziq-ovqat ta‘minotini yaxshilash deganda nimalarni tushunasiz?
8. Oziq-ovqat xavfsizligi deganda nimalarni tushunasiz?
9. Agrosanoat majmuasini rivojlantirishda qanday dasturlar amalga oshirilmoqda?

---

## **XI b o b**

### **TRANSPORT MAJMUASI**

#### **11.1. Transport majmuasining umumiy tavsifi**

O‘zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri transport sohasi hisoblanadi. Transport iqtisodiyotning ijtimoiy va moddiy ishlab chiqarish tarmog‘i bo‘lib, iqtisodiyot real sektorida ishlab chiqarilgan yuklarni, shuningdek, yo‘lovchilarni bir joydan ikkinchi joyga eltishni, mamlakat hududlari va korxonalar hamda iqtisodiyot tarmoqlari o‘rtasida ayirboshlash va kommunikatsiyani ta‘minlaydigan sohadir.

O‘zbekiston iqtisodiyotining jahon hamjamiyatiga jadal va samarali integratsiyalashib borishida transport sohasi faoliyatining ta‘siri yuqori baholanadi. Chunki iqtisodiyotni rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan omillardan biri – bu transport omilidir. O‘zbekiston dengiz va okeanlarga chiqishda kamida ikkita davlat hududidan o‘tishi kerak. Bu ichki va xalqaro transport yo‘nalishlaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini ko‘paytirishni taqozo etadi.

Transport sohasi ham funksional vazifalariga ko‘ra tavsiflanadi va tasniflanadi. Yerusti transportiga temiryo‘l, avtomobil, yerosti transportiga, suv transportiga dengiz va daryo transporti, havo transportiga aviatsiya kiritiladi. Iqtisodiy ahamiyatiga ko‘ra yuk va yo‘lovchi transporti ko‘rsatkichlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ichki va xalqaro transport yo‘nalishlari alohida ajratib ko‘rsatiladi.

Umumiy foydalaniladigan va umumiy foydalanilmaydigan transport turlari ham ajratib ko‘rsatiladi. Umumiy foydalani-



ladigan transport turi iqtisodiyotning va aholining o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida foydalanadigan, iste'molchi va sotuvchi o'rtasida tovar va xizmatlarni tashishda harakatlana-digan transportdir. Maxsus transport turlariga alohida olingan tarmoq, korxonada hududida xizmat ko'rsatadigan transport tur-lari kiritiladi.

O'zbekiston qadimdan Buyuk ipak yo'li markazida joylash-gan davlat hisoblangan. Sharqni G'arb bilan bog'lashda maz-kur yo'nalishning ahamiyati yuqori baholangan. Mustaqillik yillarida mana shu xalqaro va mintaqaviy transport koridorlari yana qayta tiklanib, yanada rivojlantirilmoqda. Hozirgi glo-ballashuv sharoitida Markaziy Osiyoning xalqaro tashuvlardagi ahamiyati to'xtovsiz o'sib bormoqda. Bu o'rinda, birinchi nav-batda, mintqa yetakchilaridan biri bo'lgan O'zbekistonning salohiyati yaqqol ajralib turadi. Bugungi kunga kelib samarali tashuvlar tizimi iqtisodiy o'sishning hal qiluvchi omili hisob-lanadi. Transport tizimlari va kommunikatsiyalari Markaziy Osiyo orqali transosiyo va transyevropa tashuvlarining asosidir.

Mustaqillik yillarida mamlakat transport tizimi tashkiliy, iqtisodiy-moliyaviy hamda institutsional jihatdan takomillashib bordi. Muhimi uning yuk va yo'lovchi tashish salohiyati yildan yilga ortib bordi. Transport tizimini boshqarishning zamonaviy, turli mulkchilikka asoslangan shakllari rivoj topdi. 1992-yilda «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi, 1993-yilda «O'zbekiston avtomobil transporti» davlat aksiyadorlik kompaniyasi, 1994-yilda «O'zbekiston temiryo'llari» davlat aksiyadorlik kompaniyasi va boshqa tarmoq idoralari tash-kil topdi. Mazkur tarmoq tuzilmalarining bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat yuritishi uchun barcha tashkiliy-huquqiy, iqtisodiy shart-sharoitlar yaratib berilgan.

Hozir transport tizimida turli mulk shakllari, jumladan, davlat aksiyadorlik kompaniyalari, ochiq turdagi aksiyadorlik

kompaniyalari, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar, jamoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda.

***Avtomobil transporti.*** Bozor munosabatlari va sog'lom raqobat O'zbekiston avtotransport tizimida boshqa transport sohalariga nisbatan yuqori darajada rivojlanmoqda. Monopoliyadan chiqarish va sohani boshqarish tizimini takomillashtirish maqsadida avtomobilda tashish tizimini boshqarish mahalliy hokimiyatlar tasarrufiga o'tkazilgan, sohadagi davlat mulki xususiylashtirilgan.

Hukumat tomonidan avtotransport sohasi huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlanmoqda, litsenziyalash tartibi soddalashtirilib, soliqqa tortish, kredit berish, ijtimoiy ahamiyatga ega tashishlar narxi tartibga solinmoqda, yagona ijtimoiy va ilmiy-texnik siyosat shakllantirilib, transport korxonalari va yakka tartibdagi tadbirkorlarning faoliyati davlat qonunchiligi ijrosini ta'minlashni nazorat qilish orqali tartibga solinmoqda.

Avtomobil transporti tadbirkorlik faoliyati tez kengayib borayotgan tarmoqlardan biridir. Agar mamlakatimiz avtomobil transporti sohasida 2000-yil 1-yanvar holatiga 265 avtokorxonalar yuk va yo'lovchi tashish bilan shug'ullangan bo'lsa, 2016-yilga kelib bu ko'rsatkich 4141 tani tashkil etdi. 1990-yillar boshida har kuni avtomobil transporti orqali 800 ming tonna yuk va 7 million yo'lovchi tashilgan bo'lsa, 2016-yilda bir kunda 4 million tonna yuk va 21,4 million yo'lovchi tashildi.

2000–2016-yillarda shahar, shahar atrofi va shaharlararo yo'lovchi tashish yo'nalishlari soni qariyb ikki barobarga oshib, hozirda bu yo'nalishlarning soni 4,3 mingdan oshib ketdi. Sohada yo'lovchi tashish hajmi to'liq, yuk tashish esa 90 foiz nodavlat kompaniya va korxonalari tomonidan amalga oshirilmoqda.

Keyingi yillarda avtomobil transporti sohasida amalga oshirilayotgan institutsional va huquqiy islohotlarning asosiy

maqsadi – bu transport xizmatlari ko‘rsatish huquqi ustidan adolatli raqobatga asoslangan avtomobil transporti faoliyatini yaxshilash, ushbu sektorga turli mulk shaklidagi tashuvchilarni jalb etishdan iborat.

O‘zbekiston avtomobil yo‘llarining umumiy uzunligi 184000 km dan oshadi. Bu yo‘llar shaharlar va hududlar o‘rtasidagi transport aloqasining uzluksiz bo‘lishini ta‘minlamoqda. Mazkur yo‘llar quyidagicha tasniflanadi:

- 42676 km – umumiy foydalanishdagi magistral yo‘llar;
- 3979 km – xalqaro ahamiyatdagi yo‘llar;
- 14088 km – davlat ahamiyatidagi yo‘llar;
- 24609 km – mahalliy, ya‘ni viloyatlar darajasidagi yo‘llar.

O‘zbekistonda daryo transporti sohasidagi munosabatlar O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi tomonidan boshqariladi. Bu agentlik ichki suv yo‘llarida foydalanilayotgan kemalarni ro‘yxatga olish, kemalar reyestrini yuritish, identifikatsiya raqamlari va kema guvohtomasini berish masalalari bilan shug‘ullanadi.

Mamlakatimiz ichki suv yo‘llarida foydalanilayotgan kemalarning yaroqliligini baholash va ularni ro‘yxatga olish daryo transportini rivojlantirishning muhim shartlaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 10-martda «O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori sohani rivojlantirishda yangi yo‘nalishlarni belgilab berdi. Mamlakatimizda suv transporti sohasini rivojlantirishda flot yangi kemalar, jumladan, 8–35 yo‘lovchini tashishga mo‘ljallangan transport kemalari bilan ta‘minlandi.

***Temiryo‘l transporti.*** Temiryo‘l transporti keyingi yillarda katta masshtablarda rivojlanib bordi. Sohaning yirik boshqaruv tuzilmasi – «O‘zbekiston temiryo‘llari» dav-

lat aksiyadorlik temiryo‘l kompaniyasi hisoblanadi. Kompaniyada 54,7 mingdan ziyod kishi faoliyat ko‘rsatadi. Mamlakatimizda yuk tashish salohiyati temiryo‘llarda yuqori baholanadi.

Hozirgi kunda kompaniya tuzilmalari tubdan isloh qilinmoqda. Asosiy e‘tibor alohida sohalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishga qaratilmoqda.

Temiryo‘l transporti faoliyatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilar:

- temiryo‘l bo‘ylab yuklarni ekspeditsiyalash va yetkazib berish;

- temiryo‘l vagonlarini ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish;

- yo‘lovchilarni, jumladan, turistlarni tashish;

- lokomotiv va vagon parkini yangilash va ularga xizmat ko‘rsatish.

Temiryo‘l transporti sohasini rivojlantirishda bugungi kunda ustuvor yo‘nalish quyidagi investitsion loyihalarni amalga oshirish hisoblanadi:

- tolali-optik tarmoqlarni qo‘llash bilan aloqa kanallarini mustahkamlash;

- yangi harakatlanuvchi sostavni (elektrovozlar va vagonlar) sotib olish, shuningdek, foydalanilayotganini modernizatsiyalash;

- yangi temiryo‘llarni qurish;

- temiryo‘llarni elektrlashtirish;

- temiryo‘llarni kapital ta‘mirlash loyihalarini amalga oshirish, kompaniya zavodlarida yo‘lning yuqori qurilmasi elementlarini, ehtiyot qismlarni va h.k.larni ishlab chiqarishni tashkil etish.

«O‘zbekiston temiryo‘llari» davlat aksiyadorlik temiryo‘l kompaniyasi mamlakatimizning xalqaro transport koridorla-

riga qo‘shilishi va undan samarali foydalanishda salmoqli rol bajarmoqda. Jumladan, MDH hududida temiryo‘l transporti faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Temiryo‘llar hamdo‘stligi Tashkiloti (TYHT), Xalqaro temiryo‘llar uyushmasi (XTYU) ga a‘zo. Shuningdek, Osiyo – Tinch okean mintaqasi uchun BMTning Iqtisodiy komissiyasi (ESKATO) bilan yaqindan aloqa o‘rnatgan. O‘zbekistonda TRASEKA (Yevropa – Kavkaz – Osiyo transport koridori) loyihasi bo‘yicha ham hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yilgan.

O‘zbekiston temiryo‘llarining umumiy uzunligi 6464 km dan oshadi. Umumfoydalanish temiryo‘llarining uzunligi 4303,7 km ni tashkil etib, shundan 1353,5 km masofa elektrlashtirilgan. Temiryo‘llarining iqtisodiyotdagi ahamiyati ortib bormoqda. Temiryo‘llar orqali jo‘natilgan yuk hajmi 2016-yilda 67,6 mln. tonnadan oshdi, yuk aylanmasi esa 22,9 mlrd. tonna-kilometr dan oshib ketdi.

Temiryo‘l transporti xizmatidan 2016-yilda 20,5 mln. nafardan ortiq yo‘lovchi foydalandi. Yo‘lovchi aylanmasi esa qariyb 3,9 mln. yo‘lovchi-kilometr dan ortiq bo‘ldi.

***Havo transporti.*** 1992-yilda tashkil topgan «O‘zbekiston havo yo‘llari» milliy aviakompaniyasi havo transporti sohasini boshqaruvchi asosiy tuzilma hisoblanadi. «O‘zbekiston havo yo‘llari» milliy aviakompaniyasi MDH mamlakatlari ichida salohiyati jihatidan 3-o‘rinda turadi. O‘zbekistonda 8 ta xalqaro aeroport mavjud. Toshkent, Samarqand, Urganch, Termiz va Buxoro aeroportlari jahon talablarida modernizatsiya qilingan. Mahalliy yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatuvchi Toshkent-3 aeroporti faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu aeroportlarda jahon standartlariga javob beradigan aeronavigatsiya qurilmalari keltirib o‘rnatilgan.

2016-yilda havo yo‘llari orqali qariyb 2,1 million yo‘lovchi, 26,5 ming tonnadan oshiq yuk tashildi. Milliy aviakompaniya

tasarrufida hozirda bir necha o‘nlab zamonaviy avialaynerlar mavjud, «Airbus», «Boing», «RJ85» kabilar shular jumlasidan-dir.

Hozirgi kunda «O‘zbekiston havo yo‘llari» milliy aviakompaniyasi 20 dan ortiq mamlakatning 45 dan ortiq aeroportiga muntazam parvozlarni amalga oshirib kelmoqda.

«O‘zbekiston havo yo‘llari» milliy aviakompaniyasi tarki-bida uchuvchilar, bort kuzatuvchilari va aviatsiya sohasining boshqa tarmoqlari uchun mutaxassislar tayyorlash va malaka-sini oshirish O‘quv-mashq markazi faoliyat ko‘rsatib kelmoq-da. Navoiy aeroporti hududida erkin industrial-iqtisodiy hudud va xalqaro intermodal logistika markazi barpo etilgan.

## **11.2. Transport sohasi rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari**

Bugungi kunda respublikamizning transport tizimi temir-yo‘l, avtomobil yo‘llari, zamonaviy asbob-uskunalar bilan ji-hozlangan temiryo‘l vokzallari, temiryo‘l ko‘priklari, tunnel-lari, stansiyalari, bekatlari, yuk omborlari, pristanlar, havo flo-tining yirik aerovokzallari, aeroportlar, neft va gaz quvurlari hamda ularga xizmat ko‘rsatuvchi tuzilmalar, turli infratuzilma obyektlarini o‘z ichiga olgan xo‘jalik majmuasidan tashkil top-moqda. O‘zbekiston iqtisodiyotida transport sohasining ahami-yati yildan yilga ortib bormoqda. Bu iqtisodiyotning real sek-torida tovar va mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi ortib borishi va uni tashishga ehtiyoj ortayotganligi, aholining mamlakat hududi va undan tashqaridagi mobilligi – harakatchanligi tez-lashayotganligi, turistlar sonining ko‘payib borayotganligi, tashqi savdo-sotiq ishlari jadallashayotganligi bilan izohlanadi. Bir so‘z bilan aytganda, iqtisodiyot ko‘lami qanchalik kenga-yib borsa, transport xizmati hajmi ham shu nisbatlarda ortib boradi.

## O'zbekistonda transport sohasining iqtisodiyotdagi o'rni va roli

	2000	2005	2010	2015	2016
Tarmoqning YalMdagi ulushi, %	8,8	11,7	12,9	11,2	12,5
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarda tarmoqning ulushi, %	16,7	24,1	29,7	9,0	11,6
Iqtisodiyotda band bo'lganlarda tarmoqning ulushi, %	4,3	4,8	5,2	5,4	5,4
Transport sohasida davlat mulki ulushi, %	69,3	62,1	44,0	32,2	30,9

2000–2016-yillarda transport sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi axborot va aloqani ham qo'shib hisoblaganda 8,8 foizdan 12,5 foizga ko'paygan. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarda tarmoqning ulushi 2000- yilda 16,7 foiz, 2005-yilda 24,1 foiz, 2010-yilda 29,7 foiz bo'lsa, keyingi yillarda qisman pasayib bordi va 2016-yilda 11,6 foizga teng bo'ldi. Bunga sabab asosiy investitsiya loyihalari 2005–2010-yillarda amalga oshirildi. Bu davlat tomonidan transport sohasini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berilayotganligini bildiradi. Bugungi kunda iqtisodiyotda jami band bo'lganlarning 5,4 foizi ushbu sohada faoliyat ko'rsatmoqda.

Iqtisodiyotda davlat ulushini kamaytirish, turli mulkchilik shakllarini qo'llab-quvvatlash siyosati natijasida transport sohasida ham davlat mulki ulushi borgan sari kamaytirilmoqda. Davlat mulki ulushi 2000-yilda 69,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2016-yilga kelib bu ko'rsatkich 30,9 foizdan iborat bo'ldi.

Bugungi kunda transport turlari orqali tashilayotgan yuklar hajmi 1603,6 mln. tonnaga yaqinlashdi. Mazkur yuklarning asosiy qismi, ya'ni 91,9 foizi avtomobil transportida tashilmoqda. Temiryo'llar orqali qariyb 67,6 mln. tonna, quvur yo'llari orqali deyarli 62,2 mln. tonna, havo transporti orqali esa 26,5 ming. tonna yuk tashilmoqda. Temiryo'l liniyalarini qurish va

zamonaviylashtirish sohasida amalga oshirilayotgan yirik loyihalar kelgusida shu transport turining yuk tashishdagi salmog'i oshishiga olib keladi.

**O'zbekistonda transport turlari orqali tashilgan yuk hajmi  
va yo'lovchi soni dinamikasi**

	2000	2005	2010	2015	2016
<b>Transport turlarida tashilgan yuklar, mln. tonna</b>	<b>804,6</b>	<b>755,9</b>	<b>1176,8</b>	<b>1527</b>	<b>1603,5</b>
T.y. transportida	42,4	45,8	56,9	67,2	67,5
Avtomobil transportida	701,2	638,6	1066,1	1399,8	1473,7
Quvur yo'llari orqali (tranzit qo'shilmagan holda)	61,0	71,6	53,7	60,0	62,2
Havo transportida, ming t	15,2	6,2	29,5	24,6	26,5
<b>Transport turlarida tashilgan yo'lovchilar, mln. kishi</b>	<b>3595,9</b>	<b>3962,4</b>	<b>6008,7</b>	<b>7598,2</b>	<b>7910,9</b>
T.y. transportida	14,6	15,1	14,5	20,1	20,5
Avtomobil transportida	3284,7	3796,4	5899,3	7511,4	7831,3
Havo transportida	1,5	0,9	1,9	2,2	2,1
Shahar elektr transportida	295,2	150,0	93,0	64,5	57

Barcha transport turlari orqali tashilayotgan yo'lovchilar soni 7,9 mlrd. kishidan oshadi. Mazkur yo'lovchilarning asosiy qismi avtomobil transportida tashildi. Temiryo'llar orqali 20,5 mln. dan ortiq, shahar elektr transportida 57 mln. dan ortiq, havo transportida esa 2,1 mln. atrofida yo'lovchi tashildi.



## O'zbekistonda transport turlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

	2000	2005	2010	2015	2016
<b>Transport turlarida tashilgan yuk aylanmasi, mlrd. tonna-km</b>	<b>54,6</b>	<b>68,9</b>	<b>75,8</b>	<b>86,9</b>	<b>88,0</b>
T.y. transportida	15,0	18,1	22,3	22,9	22,9
Avtomobil transportida	8,9	13,8	24,5	33,9	36
Quvur yo'llari orqali	30,6	36,9	28,9	30,0	28,9
Havo transportida, mln. t.-km	120,1	97,8	168,0	131,1	132,2
<b>Transport turlarida tashigan yo'lovchi aylanmasi, mlrd. yo'lovchi-km</b>	<b>30,9</b>	<b>46,2</b>	<b>76,5</b>	<b>106</b>	<b>110,8</b>
T.y. transportida	2,2	2,1	2,9	3,8	3,9
Avtomobil transportida	23,3	38,6	67,2	95	99,7
Havo transportida	3,9	4,6	5,8	6,8	6,7
Shahar elektr transportida	1,5	0,9	0,6	0,4	0,4

Transport turlari orqali tashilgan yuk hajmi va yo'lovchilar sonidan boshqa ko'rsatkichlar ham mavjud. Bu yuk va yo'lovchi aylanmasi ko'rsatkichidir. Bu ko'rsatkichlar tonna-km va yo'lovchi-km birliklari orqali ifodalanadi. Bu ko'rsatkichlar tashilgan yuk yoki yo'lovchining qancha masofaga tashilganligini ham o'zida aks ettiradi. Masalan, 25 tonna yukni 10 km. masofaga tashilsa, 250 tonna-km yuk aylanmasi hosil bo'ladi. 10 tonna yuk 25 km masofaga tashilsa ham shu ko'rsatkich hosil bo'ladi.

Transport turlari orqali tashilayotgan yuklar aylanmasi 88 mlrd. tonna-km dan oshib ketdi. Yuk aylanmasining 28,9 mlrd. tonna-km quvur transportida, 36 mlrd. tonna-km avtomobil transportida, 22,9 mlrd. tonna-km temiryo'llar orqali tashilgan. Jami yuk aylanmasining 132,2 mln. tonna-km havo transportiga to'g'ri keladi.

Barcha transport turlari orqali tashilayotgan yo'lovchilar aylanmasi 110,8 mlrd. yo'lovchi-km dan oshadi. Mazkur yo'lov-

lovchilar aylanmasining 90 foizi avtomobil transportiga to'g'ri keladi. Temiryo'l transporti orqali 3,9 mlrd. yo'lovchi-km, havo transportida 6,7 mlrd. yo'lovchi-km tashuv amalga oshirilgan.

Yuqoridagi ko'rsatkichlar mamlakatimizda avtomobil transportining ahamiyati boshqa transport turlariga nisbatan yuqori ekanligini ko'rsatmoqda.

**O'zbekistonda hududlar bo'yicha yo'lovchi tashish  
avtotransport yo'nalishlari tavsifi**

<b>Hududlar</b>	<b>Amaldagi jami yo'nalishlar soni</b>	<b>Yo'nalishlarning umumiy soni</b>
Umumiy uzunligi	300	5902,7
Toshkent sh.	300	5902,7
Toshkent viloyati	665	42697,5
Sirdaryo	173	5485,0
Jizzax	215	12823,4
Samarqand	456	18589,3
Navoiy	180	9089,9
Buxoro	282	11827,9
Farg'ona	388	8580,5
Andijon	311	5887,3
Namangan	253	6980,5
Surxondaryo	191	17069,0
Qashqadaryo	338	16222,0
Xorazm	195	15400,2
Qoraqalpog'iston	397	31102,6
Jami	4344	207657,8

2017-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, mamlakatimizda 4,3 mingdan ko'proq avtomobil transportining yo'lovchi yo'nalishlari faoliyat ko'rsatmoqda. Ulardan 1013 tasi shahar,

2691 tasi shahar atrofi va 640 tasi shaharlararo yo‘nalishlardir. Yo‘nalishlarning 4266 tasi yoki 98,2 foizi tender asosida joylashtirilgan.

Mamlakatimiz hududlarining maydoni, aholi zichligi, yo‘l-transport infratuzilmasining takomillashganlik darajasi, xalqaro transport yo‘nalishlariga aloqadorligi, urbanizatsiya darajasi kabilar avtomobil transporti rivojlanishini belgilab beradigan shart-sharoitlar hisoblanadi. Quyidagi jadvalda mamlakatimiz hududlarida yo‘lovchi tashish avtotransport yo‘nalishlari holati ifodalangan.

Mamlakatimizda, asosan, O‘zbekistonning «GM Uzbekistan» QK, «Samavto» zavodlarida ishlab chiqarilgan hamda Rossiya, Belarus va uzoq xorij mamlakatlari – Germaniya, Janubiy Koreya, Xitoy zavodlarida ishlab chiqarilgan avtomobillardan foydalanilmoqda.

Yuk va yo‘lovchi tashuvchilar o‘z avtomobil parklarini yangi va zamonaviy transport vositalari bilan to‘ldirishga harakat qilishmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-yanvardagi «Aholiga transport xizmati ko‘rsatish hamda shaharlar va qishloqlarda avtobuslarda yo‘lovchilar tashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qaroriga muvofiq 2017–2021-yillarda 303 ta yangi yo‘lovchi tashish yo‘nalishi, ulardan 240 tasini (79,2 foizi) shahar atrofida va qishloq joylardan o‘tadigan shaharlararo qatnovlarda ochish nazarda tutilmoqda. Yangi yo‘nalishlar ochish bilan birgalikda, asosan, avtobuslar yetishmasligi tufayli qatnov to‘xtatilgan yo‘nalishlar tiklanadi.

Kelgusi 5 yilda 8,6 mingta yo‘lovchi tashish avtomobili, shu jumladan, 5,7 mingta umumiy foydalanishga qulay mikroavtobus sotib olinadi.

### **11.3. Transport yo‘nalishlari va yo‘l-transport infratuzilmasini taraqqiy ettirish**

Mamlakatning transport salohiyati rivojlanishini belgilab beradigan shart-sharoitlar va omillar mavjud. Ularning asosiy-lari yo‘l-transport infratuzilmasini taraqqiy ettirish bilan bog‘liq shart-sharoitlardir.

Yo‘l-transport infratuzilmasini taraqqiy ettirish sanoatni jadal rivojlantirish, uning salohiyatini oshirish, yo‘lovchi va yuk tashish samaradorligini oshirish, aholining turmush sharoitini yaxshilash va ishchi kuchi mobilligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Mustaqillik yillarida iqtisodiyotning boshqa sohalaridagi singari, transport tizimining moddiy-texnik bazasi, uning infratuzilmasi rivojlantirib kelindi.

2016-yilda 255,9 km uzunlikdagi avtomobil yo‘llari rekonstruksiya qilindi. Xalqaro, davlat va mahalliy ahamiyatdagi umumiy foydalanish uchun mo‘ljallangan avtomobil yo‘llarida hamda shahar ko‘chalarida yo‘llarni mukammal ta‘mirlashda 83,2 mlrd. so‘mlik ishlar amalga oshirilib, 94,4 km uzunlikdagi umumiy foydalanuvdagi avtomobil yo‘llari ta‘mirlandi.

O‘zbekiston Respublikasining investitsiya dasturiga muvofiq «O‘zbekiston temiryo‘llari» davlat aksiyadorlik temiryo‘l kompaniyasi moliyalashtirish manbalari hisobidan 821,13 mln. AQSH dollari miqdorida kapital mablag‘lar o‘zlashtirildi.

2016-yil iyun oyida uzunligi 123,2 kilometrni tashkil etuvchi «Angren–Pop» elektrlashtirilgan temiryo‘li va uning doirasida bunyod etilgan, uzunligi 19,2 kilometrni tashkil etuvchi «Qamchiq» tunnelining qurilishi to‘liq tugatilib, foydalanishga topshirildi.

2015-yil 11-iyulidan boshlab, mazkur yangi temiryo‘l orqali Farg‘ona vodiysiga hamda u yerdan respublikamizning boshqa hududlariga yuk poyezdlari qatnovi yo‘lga qo‘yildi.

2014-yilda «O‘zbekiston havo yo‘llari» milliy aviakompaniyasi dunyoning 270 dan oshiq aviakompaniyalarini o‘zida birlashtirgan Xalqaro havo transporti assotsiatsiyasining (IATA) teng huquqli a‘zosi bo‘ldi.

Bundan keyin ham yo‘l-transport infratuzilmasini taraqqiy ettirish, uning sanoatni jadal rivojlantirishdagi ahamiyatini yanada kuchaytirish, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va salohiyatini oshirish, yo‘lovchi va yuk tashish samaradorligini oshirish bo‘yicha yirik loyihalarni amalga oshirish davom etadi. Jumladan, quyidagi yo‘nalishlarga ustuvor e‘tibor qaratiladi:

- 260 km li temiryo‘llarini qayta tiklash;
- 124,1 km uzunlikdagi Angren – Pop elektrlashtirilgan yangi temiryo‘l qurilishi davom ettiriladi;
- 140 km li Maroqand – Qarshi va 325 km li Qarshi – Ter-miz temiryo‘l uchastkalarini elektrlashtirish;
- ikki tomonlama qatnovga ega bo‘lgan Jizzax – Yangi-  
yer elektrlashtirilgan temiryo‘l tarmog‘i qurilishining ikkinchi bosqichini amalga oshirish.

Transport tizimini rivojlantirishda davlat tomonidan transport siyosatining asoslari ishlab chiqilgan va u bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Davlat transport siyosatining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- tranzit yuk va yo‘lovchi tashish samaradorligini oshirish maqsadida transport majmuasini uzluksiz rivojlantirish;
- transport qurilish sohasida yangi texnologiyalar va texni-kani joriy qilish bo‘yicha yirik loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- mamlakatning qulay geografik joylashuv jihatlaridan foy-dalangan holda o‘z transport tizimining xalqaro transport tizim-lariga integratsiyalashuvini ta‘minlash;

– mamlakat hududida raqobatbardosh va qulay xalqaro transport koridorlarini barpo etish;

– davlat chegaralarini kesib o‘tishning soddalashtirilgan tartibini joriy etish, tarif siyosatini diversifikatsiyalash;

– yo‘l-transport sektoriga xorijiy kapitalning kirib kelishini yanada rag‘batlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

– xalqaro norma va standartlarga mos keladigan, atrof-muhitga salbiy ta‘sir ko‘rsatmaydigan ekologik toza transport texnologiyalaridan foydalanish.

O‘zbekiston avtomobilda tashish sohasida 9 ta xalqaro konvensiyaga, 2 ta xalqaro bitimga qo‘shilgan, 26 ta mamlakat bilan ikki tomonlama hukumatlararo bitimlar imzolangan. Hozirda 175 ta avtokorxonada xalqaro yuk tashish huquqini beradigan litsenziyaga ega.

Transport sohasini zamonaviylashtirish, jahon talablarida transport xizmatini ko‘rsatish maqsadida sohada tizimli chora-tadbirlar ko‘rilmog‘da. Masalan, 1998–2002-yillarda Samarqand, Buxoro va Urganch xalqaro aeroportlari zamonaviylashtirildi. 2010–2012-yillarda Toshkent aeroporti modernizatsiya qilindi. Navoiy aeroporti rekonstruksiya qilindi. Transport sohasini modernizatsiyalash ko‘lami kengayib bormog‘da.

Xalqaro transport marshrutlarini ko‘paytirish borasida ham tizimli ishlar amalga oshirilmog‘da. Bugungi kunda O‘zbekistonning Eron va Afg‘oniston orqali tranzit transport koridori orqali dengiz yo‘llariga chiqish imkoniyati mavjud.

Umuman olganda, bugungi kunda O‘zbekistonning jahon bozorlariga qulay va tez chiqib olishi uchun imkoniyatlar ko‘paymog‘da. Xalqaro tasnifga ko‘ra, O‘zbekistonning jahonning turli mintaqalariga chiqishi uchun beshta guruh transport koridorlari mavjud. Bularni quyidagicha tasniflash mumkin:

«A» kategoriya yo‘llari;

O‘zbekiston – Qozog‘iston – Rossiya – Belarus – Yevropa Ittifoqi.

«B» kategoriya yo‘llari, ya’ni TRACECA;

O‘zbekiston – Qozog‘iston – Kaspiy dengizi – Ozarbayjon – Gruzziya – Qora dengiz – Yevropa Ittifoqi.

O‘zbekiston – Turkmaniston – Kaspiy dengizi – Ozarbayjon – Gruzziya – Qora dengiz – Yevropa Ittifoqi.

«C» kategoriya yo‘llari;

O‘zbekiston – Turkmaniston – Eron (Bandar – Abbas);

O‘zbekiston – Turkiya – Qora dengiz – Yevropa Ittifoqi.

«D» kategoriya yo‘llari;

O‘zbekiston – Qozog‘iston – Rossiya;

O‘zbekiston – Qozog‘iston – Xitoy;

O‘zbekiston – Qirg‘iziston – Xitoy.

«E» kategoriya yo‘llari;

O‘zbekiston – Afg‘oniston – Eron;

O‘zbekiston – Afg‘oniston – Pokiston;

O‘zbekiston – Afg‘oniston – Eron – Turkiya;

O‘zbekiston – Afg‘oniston – Eron – Hindiston.

Mazkur transport koridorlari mamlakatimizning jahonning rivojlangan mamlakatlari bozorlariga chiqishiga imkon beradi.

O‘zbekiston Markaziy Osiyodagi iqtisodiy, mehnat, ilmiy-texnik, ijtimoiy va madaniy-ma’rifiy salohiyati yuqori davlat hisoblanadi. Mamlakatimizning tranzit salohiyatini ham yuqori baholash mumkin. Shu sababli tranzit yuk va yo‘lovchi tashishga qulaylik yaratish, transport tizimining xalqaro transport tizimlariga integratsiyalashuvini ta’minlash, qulay xalqaro transport koridorlarini barpo etish, soddalashtirilgan tarif siyosatini joriy etish, zamonaviy transport texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekistonning Markaziy Osiyoning hal qiluvchi transport-tranzit tarmog‘iga aylanishi uchun transport-kommunikatsiya

infratuzilmasini modernizatsiya qilish va yangilash, mahalliy va xalqaro transport xizmatlari tarkibini diversifikatsiya etish, yangi transport yo‘laklarini shakllantirish va rivojlantirish, transport xizmatlari sifatini oshirish va tannarxini kamaytirishi lozim.

Sohani yanada rivojlantirish maqsadida 2017-yil 14-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Avtomobil yo‘llari davlat Qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘arma faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi Qarori qabul qilindi.

Ushbu dasturdan ko‘zlangan asosiy maqsad ishlab chiqarish, transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi tarmoqlarining respublika iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlarini istiqbolda rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan dasturlar bilan uzviy bog‘liq holda ildam rivojlanishini ta‘minlash hamda buning negizida yangi ish joylarini yaratish, aholining bandligi va turmush darajasini uzluksiz o‘sib borishiga erishishdan iborat.

### **Qisqacha xulosalar**

1. O‘zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri – transport sohasi. Bu tarmoq iqtisodiyot real sektorida ishlab chiqarilgan yuklarni, shuningdek, yo‘lovchilarni bir joydan ikkinchi joyga eltishni, mamlakat hududlari o‘rtasida, korxonalar va iqtisodiyot tarmoqlari o‘rtasida ayirboshlash va kommunikatsiyani ta‘minlaydigan sohadir.

2. O‘zbekiston qadimdan Buyuk ipak yo‘li markazida joylashgan davlat hisoblanadi. Mustaqillik yillarida mana shu xalqaro va mintaqaviy transport koridorlari yana qayta tiklandi va rivojlantirilmoqda.



3. Mustaqillik yillarida mamlakat transport tizimi tashkiliy, iqtisodiy-moliyaviy hamda institutsional jihatdan takomillashib bordi. Muhimi, uning yuk va yo‘lovchi tashish salohiyati yildan yilga ortib bordi.

4. Mamlakatimizning transport tizimi temiryo‘l, avtomobil yo‘llari, zamonaviy asbob va uskunalar bilan jihozlangan temiryo‘l vokzallari, temiryo‘l ko‘priklari, tunnellari, stansiyalari, bekatlari, yuk omborlari, pristanlar, havo flotining yirik aerovokzallari, aeroportlar, neft va gaz quvurlari hamda ularga xizmat ko‘rsatuvchi tuzilmalar, turli infratuzilma obyektlarini o‘z ichiga olgan xo‘jalik majmuasidan iborat.

5. Iqtisodiyotda davlat ulushini kamaytirish, turli mulkchilik shakllarini qo‘llab-quvvatlash siyosati natijasida transport sohasida ham davlat mulki ulushi borgan sari kamaytirilmoqda.

6. Yo‘l-transport infratuzilmasini taraqqiy ettirish sanokatni jadal rivojlantirish, uning salohiyatini oshirish, yo‘lovchi va yuk tashish samaradorligini oshirish, aholining turmush sharoitini yaxshilash va ishchi kuchi mobilligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

7. Bugungi kunda O‘zbekistonning jahon bozorlariga qulay va tez chiqib olishi uchun imkoniyatlardan samarali foydalanish zarur. Xalqaro tasnifga ko‘ra, O‘zbekistonning jahonning turli mintaqalariga chiqishi uchun beshta guruh transport koridorlari mavjud.

### **Asosiy atamalar va tushunchalar**

Transport sohasi, iqtisodiyot real sektori, yo‘lovchi tashish hajmi, yuk tashish hajmi, yo‘lovchi aylanmasi, yuk aylanmasi, transport-kommunikatsiyalari, Buyuk ipak yo‘li, xalqaro transport koridorlari, mintaqaviy transport koridorlari, transport tizimi, tranzit davlat, transport infratuzilmasi, yo‘l-transport infratuzilmasi.

## Nazorat savollari

1. Transport tarmog'ining iqtisodiyotdagi o'rni va rolini tushuntirib bering.
2. Transport turlarini ahamiyatiga ko'ra tavsiflang.
3. Mamlakatimizda qaysi transport turlarini rivojlantirish imkoniyati yuqoriroq? Fikringizni asoslang.
4. Buyuk ipak yo'lini tiklash va rivojlantirishning mamlakatimiz uchun ahamiyatini qanday tushuntirasiz?
5. Mustaqillik yillarida mamlakat transport tizimida qanday islohotlar amalga oshirildi?
6. Transport sohasi rivojlanishini qaysi ko'rsatkichlar ifodalaydi?
7. Temiryo'l transportini rivojlantirishda qanday yirik loyihalar amalga oshirilmoqda? Bu loyihalarning ahamiyatini tushuntirib bering.
8. Yo'l-transport infratuzilmasi nima, uni taraqqiy ettirish nima uchun zarur?
9. Yo'l-transport infratuzilmasini taraqqiy ettirishning sanoatni jadal rivojlantirishga qanday aloqasi bor? Fikringizni asoslang.
10. Davlat transport siyosatining asosiy yo'nalishlarini sanab bering. Qaysi yo'nalishlarni ko'proq ahamiyatli deb hisoblaysiz?

---

---

## **XII b o b**

# **ALOQA VA TELEKOMMUNIKATSIYA MAJMUASI**

### **12.1. Aloqa va telekommunikatsiya majmuasining umumiy tavsifi**

Aloqa tarmog‘i iqtisodiyotning ilg‘or texnologiyalar ko‘p qo‘llaniladigan, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma tarmog‘iga chambarchas bog‘langan sohalaridan biridir. Aloqa va telekommunikatsiya sohasining muhim vazifalaridan biri – tarmoq korxonalari xo‘jalik yurituvchi subyektlari o‘rtasidagi axborot almashinuvini ta‘minlab berishdir.

Aloqa turli vositalar yordamida axborot va ma‘lumotlarni uzatish va qabul qilishni bildirib, ushbu vazifalar iqtisodiyotning pochta, telefon, telegraf, radio, televideniye kabi yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi. Telekommunikatsiya turli signal, belgi, matn, tasvir va ovozlar orqali uzatiladigan axborotlarni qayta ishlash tizimlari majmuasi sifatida faoliyat yuritadi. Tor ma‘noda bir yoki bir necha turdagi telefon, telegraf, faksimil axborotlar almashinuvi, televizion va radio dasturlarni uzatishga mo‘ljallangan texnika vositalari to‘plami telekommunikatsiya tarmog‘i deb yuritiladi.

Aloqa va telekommunikatsiyaning iqtisodiy vazifalari mushtarak bo‘lganligi sababli bu sohalarni yaxlit aloqa va telekommunikatsiya majmuasi deb atash ham mumkin. Aloqa va telekommunikatsiya majmuasi nafaqat iqtisodiyot, balki ishlab chiqarish, xo‘jalik faoliyatini tashkil etishda, davlat boshqaruvi-

ni amalga oshirishda, ichki va tashqi xavfsizlikni ta'minlashda, jami transport turlarini boshqarishda, aholining madaniy va maishiy ehtiyojlarini qondirishda muhim vazifalarni bajaradi.

Postindustrial taraqqiyot bosqichiga o'tgan mamlakatlarni bejizga axborot jamiyatlari deb atashmaydi. Bu mamlakatlarda axborot va uni qayta ishlash natijasida yaratilgan yangi bilimlar innovatsion ukladni shakllantirish va rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Axborot jamiyati o'sib, bilimlar jamiyatiga aylanadi. Bu, o'z navbatida, bilimlarning real iqtisodiy resurslarga – innovatsiyalarga aylanishiga hamda bozor iqtisodiyoti munosabatlarining markaziga chiqib olishiga olib keladi.

Aloqa va telekommunikatsiya vositalarining xo'jalik yuritishda va qo'shilgan qiymat ulushi yuqori bo'lgan tovar va xizmatlar ishlab chiqarishda samarali ishtiroki iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirgan muhim omillardan biridir.

Aloqa va telekommunikatsiya vositalarini ishlab chiqarish sohasi ilm sig'imi yuqori bo'lgan sanoat tarmog'i hisoblanadi. Shu sababli aloqa va telekommunikatsiya vositalarini ishlab chiqarish va ulardan samarali foydalanish natijasida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida innovatsion yuksalishga erishish mumkin.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida aloqa va telekommunikatsiya sohasi jadal taraqqiy topdi. Sohani rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy, institutsional, mulkiy va huquqiy asoslari yaratildi. 1992-yil 13-yanvarda O'zbekiston Respublikasining «Aloqa to'g'risida»gi, 1999-yil 20-avgustda «Telekommunikatsiyalar to'g'risida»gi, 2000-yil 25-mayda esa «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida»gi Qonunlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 27-iyundagi «O'zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari

to‘g‘risida»gi 1989-son Qarori bilan tasdiqlangan «2013–2020-yillarda O‘zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish kompleks dasturi» qabul qilindi.

Pochta aloqasi, axborot tizimlari, telekommunikatsiya sohasidagi boshqaruvni yanada takomillashtirish maqsadida 1997-yilda Aloqa vazirligi Pochta va telekommunikatsiyalar agentligiga aylantirildi. Bu agentlik tarkibida «Mahalliy telekom» AK, «Xalqaro telekom» AK, «O‘zbekiston pochta» davlat aksiyadorlik kompaniyasi tashkil etildi. Bu agentlik, keyinchalik, O‘zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo‘mitasiga aylantirilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 4-fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida»gi Farmoniga ko‘ra ushbu qo‘mita negizida vazirlik tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo‘mitasi, Matbuot va axborot agentligi, O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi aloqa va telekommunikatsiya sohasining yirik tashkiliy tuzilmalari hisoblanadi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-iyundagi «Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni sohaning jadal rivojlanishida muhim qadam bo‘ldi. Mazkur Farmonga muvofiq mamlakatimizda axborot texnologiyalari sohasida xo‘jalik yurituvchi subyektlarni, dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilarni birlashtiradigan Axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy qilishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha «Mirzo Ulugbek Innovation Center» innovatsiya markazi tuzilmoqda.

Aloqa va telekommunikatsiya korxonalari uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va uning Qarshi, Nukus, Samarqand, Urganch va Farg‘ona viloyatlaridagi filiallari faoliyat yuritmoqda.

Iqtisodiyotning xizmat ko‘rsatish sektori sohalari ichida aloqa va telekommunikatsiya tarmog‘i o‘zining ijtimoiy samaradorligi bilan ajralib turadi. Bu soha ishlab chiqarayotgan xizmatlar davlat va jamiyat a‘zolarining axborot ehtiyojlarini qondiribgina qolmay, iqtisodiyotning innovatsion yo‘nalishlari shakllanishiga shart-sharoit yaratmoqda.

## **12.2. Aloqa va telekommunikatsiya sohasi rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari**

Aloqa va telekommunikatsiya sohasi jadal sur‘atlarda rivojlanayotgan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Bu jarayon mamlakatimizning jahon xo‘jaligiga qo‘shilib borishi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kirib kelishi, sanoatning elektrotexnika va axborot texnologiyalari ishlab chiqarish korxonalari barpo etilishi bilan jadallashmoqda. Aholining aloqa va telekommunikatsiya vositalaridan foydalanish darajasi yaxshilanmoqda, bu vositalardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi yildan yilga oshmoqda.

Jamiyatda axborotning iqtisodiy resurs sifatidagi ahamiyati yuksalib, ijtimoiy farovonlik darajasiga ham ta‘sir ko‘rsatmoqda. Bilimlar iqtisodiyotiga o‘tish va moddiy ishlab chiqarishning resursta lab tarmoqlari ulushini pasaytirish global darajada kam resurs sarflash va axborot resurslaridan kengroq foydalanish tendensiyasini belgilab bermoqda. Bu holat iqtisodiy samaradorlikning doimiy o‘sib borishiga turtki bo‘lmoqda.

Bir birlik aloqa va telekommunikatsiya asbob-uskunalarini ishlab chiqarish narxlarining barqaror pasayib borishi kapital

qo'yilmalarning sohaga yildan yilga ko'proq jalb etilishiga sabab bo'layapti. Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish jarayonida mahsulotning mehnat, material va kapital sig'imini yalpi pasaytirish natijasida samaradorlikning mustahkam o'sib borishiga erishildi. Bu vaziyat rivojlanayotgan davlatlarda aloqa va telekommunikatsiya sohasining innovatsion yo'nalishlariga katta ahamiyat berishni taqozo etmoqda.

Aloqa va telekommunikatsiya sohasi rivojlanishini aks ettiruvchi qator ko'rsatkichlar mavjud. Bu ko'rsatkichlarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin.

1. Soha rivojlanishini ifodalovchi iqtisodiy ko'rsatkichlar.

2. Soha rivojlanishini ifodalovchi texnik ko'rsatkichlar.

Soha rivojlanishini ifodalovchi iqtisodiy ko'rsatkichlar iqtisodiy dinamikani, iqtisodiy masshtabni, iqtisodiy o'sishni, iqtisodiy samaradorlikni (tushum, daromad, foyda, rentabellik va boshqalar) ifodalaydi. Shuningdek, bu ko'rsatkichlar sohaning milliy iqtisodiyotdagi o'rni va roli qaysi yo'nalishlarda o'zgarayotganligini ko'rsatib beradi.

Soha rivojlanishini ifodalovchi texnik ko'rsatkichlar aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari hamda vositalari qamrovini, faoliyat tezligini, sonini va turlarini, axborot resurslari fondini, yangilanish, zamonaviylashtirish sur'atlarini aks ettiradi. Bu sohaning modernizatsiyalashtirish ko'lamini, iqtisodiyot tarmoqlari va jamiyat a'zolarining ushbu vositalar bilan ta'minlanganlik darajasini o'zida aks ettiradi.

Bugungi kunda O'zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish sohasi zamonaviy talablar asosida rivoj topmoqda. Jadval ma'lumotlari bu o'zgarishlarni ifodalaydi.

**Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish holati  
va sohaning rivojlanishini ifodalovchi ko'rsatkichlar,  
(yil oxiriga)**

	<b>2010</b>	<b>2015</b>	<b>2016</b>
Internet xizmatlari hajmi, mlrd.so'm	6984	8339	9627
Operatorlar va provayderlar soni, birlik	934	800	951
Internet tarmog'idan foydalanuvchilar soni, ming foydalanuvchi	7550*	12040*	15453,2*
Dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar soni, birlik	210	290	678
Har yili qayd qilinadigan dasturiy mahsulotlar soni, birlik	268	725	1728
Davlat axborot resurslari soni, birlik	187	320	318
Davlat axborot tizimlari soni, birlik	160	466	499
Davlat interaktiv xizmatlari turlari soni, birlik	94	260	308
Uz.domen zonasidagi domenlar soni, birlik	11095	25200	32000

\*30-iyun holatiga

Yuqori sifatli aloqa xizmatlari ko'rsatayotgan operatorlar va provayderlar soni 2010–2016-yillarda qariyb 1,8 foizga o'sdi va 950 tadan oshdi. Bu davrda Internet tarmog'idan foydalanuvchilar soni qariyb 2 barobardan ko'proqqa o'sdi va 15,4 mln. kishidan oshib ketdi.

Mamlakat iqtisodiyotida axborot resurslari ishlab chiqarish va undan foydalanish nisbatan yangi tendensiya hisoblanadi. 2000-yillargacha axborot-kommunikatsiya vositalari uchun dasturiy mahsulotlar xorijdan olib kelingan bo'lsa, keyingi yillarda bu borada faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar soni keskin ko'paydi va dasturiy mahsulotlarni o'zimizda ishlab chiqarish yo'lga qo'yilmoqda. Masalan, 2016-yilda axborot-kommunikatsiya vositalari uchun dasturiy mahsulotlar ishlab



chiqarish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar soni 678 ta, har yili ro'yxatga olinayotgan dasturiy mahsulotlar soni esa 1728 tani tashkil etdi.

Davlatning sohada amalga oshirgan islohotlari qisqa vaqtda o'z samarasini bermoqda. Axborot va telekommunikatsiya sohasini rivojlantirishda davlatning yetakchi roli ham namoyon bo'lmoqda. Davlat axborot resurslari va davlat axborot tizimlari sonini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida 2016-yil oxirida davlat interaktiv xizmatlari turlari soni 308 taga etdi. Davlat axborot resurslari 318 tani va davlat axborot tizimlari soni esa 499 tani tashkil etmoqda. Bu o'zgarishlar «Elektron hukumat» faoliyatini rivojlantirish uchun mustahkam moddiy-texnik asos yaratilayotganligini bildiradi. Bu istiqbolda mamlakat miqyosida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarish, tartibga solish va rag'batlantirishda axborot-kommunikatsiya tizimining hal qiluvchi rol bajarishini ta'minlaydi. Axborot va bilimlar jamiyatining asosiy belgilaridan biri ham shu hisoblanadi.

Axborot makonini yaratish va uni mazmunan to'ldirib boshish maqsadida [www.uz](http://www.uz) hududida ro'yxatdan o'tgan saytlar soni yildan yilga oshib bormoqda. Masalan, ularning soni 2010-yilda 11095 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2016-yilga kelib 32 ming tadan oshib ketdi.

Axborot-kommunikatsiya sohasining taraqqiy topishi, avvalo, ta'lim va maorif sohasi rivojlanishiga kuchli turtki bermoqda. Natijada oliy, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi hamda maktab ta'limining axborot-kutubxona bazasi bir necha o'n marta kengayib ketdi. Jumladan, bugungi kunda axborot-kutubxona markazlari kitob fondi qariyb 5,0 mln.ni tashkil etmoqda. 2016-yilda umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus ta'lim, oliy ta'lim yo'nalishidagi 11325 ta ta'lim muassasasidan 10620

tasi (93,8 foiz) Ziyonet tarmog'iga ulandi, Ziyonet tarmog'i resurslari soni 130 000 dan ortiqni (o'sish 119%) tashkil etdi.

Mamlakatimizda aloqa telefon stansiyalarini raqamli tizimga o'tkazish darajasi 2000-yillarda 32–35 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2016-yilda bu ko'rsatkich qariyb 100 foizni tashkil etdi.

Aloqa sohasi umumiy foydalanishdagi va tarmoq foydalanishidagi aloqa sohalariga bo'linadi. Umumiy foydalanishdagi aloqa sohasi aholiga aloqa xizmatlari ko'rsatish vazifasini bajaradi. Aholining kundalik ehtiyojlarini qondirish maqsadida gazeta va jurnallar, xat, kartochka, banderollar, telegrammalar jo'natish, pul mablag'lari va nafaqa to'lovlarini amalga oshirish, xalqaro telefon aloqasi so'zlashuvlari, xalqaro pochta korrespondensiyalari va boshqa xalqaro jo'natmalarni amalga oshirish umumiy foydalanishdagi aloqa xizmatining turlari hisoblanadi. Bunday xizmat ko'rsatish hajmi va turlari yildan yilga ortib bormoqda.

Aloqa sohasi korxonalarining asosiy faoliyatidan tushgan daromad 2016-yilda 6306,8 mlrd. so'mga yetdi. 2010-yilda sohaning umumiy daromadi 1971,4 mlrd. so'mdan iborat bo'lgan edi.

O'zbekiston Respublikasi pochta aloqasi pochta jo'natmalarini qabul qilish, ishlov berish hamda pochta jo'natmalari, pensiya va nafaqalar, davriy nashrlarni yetkazib berishda bir-biri bilan o'zaro uzluksiz bog'langan pochta aloqasi obyektlari va pochta yo'nalishlarini o'z ichiga oladi. Pochta aloqasining milliy tizimi «O'zbekiston pochta» aktsiyadorlik jamiyati tomonidan geografik prinsipga asoslangan holda tashkil qilingan.

Pochta aloqasi korxonlarida 15 000 dan ortiq xodim faoliyat yuritib, ular tomonidan har kuni minglab xat-xabarlar, pul o'tkazmalari, posilkalarga ishlov beriladi hamda millionlab obunachilarga gazeta va jurnallar, pensiya va nafaqa pul-

lari yetkazib beriladi. Shuningdek, komunal xizmatlar uchun to'lovlarni qabul qilish, telefon to'lovi, sug'urta polisleri, lotereya biletlarini sotish, elektron pochta va internet xizmatlari ko'rsatiladi.

Ayrim miqdoriy ko'rsatkichlar umumiy foydalanishdagi aloqa sohasi rivojlanishidagi mo'tadil o'zgarishlarni ifodalaydi. O'zbekistonda har yili jo'natilayotgan gazeta va jurnallar soni 26,0–30 mln. nusxani, xat, kartochka, banderollar soni 10,3–14,4 mln. donani, pul mablag'lari va nafaqa to'lovlari soni 30–35 mln. donani tashkil etmoqda.

Umumiy foydalanishdagi xalqaro telefon aloqasi tizimidan foydalanish ko'rsatkichlari juda tez sur'atlarda o'zgarimoqda. Xalqaro telefon aloqasi so'zlashuvlari 2010–2014-yillarda 44,0 mln. dan 191,0 mln. birlikka, ya'ni 4,3 martaga ko'paydi. Uyali aloqa xizmati orqali so'zlashuvlar soni esa yuqori sur'atlarda ortdi.

Ayrim iqtisodiy ko'rsatkichlar uyali aloqa, shaharlararo va xalqaro telefon, Internet tarmog'i, pochta, ma'lumot uzatish tarmog'i, shahar va qishloq telefon tarmoqlari korxonalari faoliyatining masshtablarini ifodalaydi.

#### Umumiy foydalanishdagi aloqa sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari, yil oxiriga

	2000	2005	2010	2014
Aloqa sohasining asosiy faoliyatidan tushgan daromad, mlrd. so'm	68,7	401,4	1971,4	4194,1
Jo'natilgan:				
Gazeta va jurnallar, mln. nusxa	25,9	29,2	24,2	30,1
Xat, kartochka, banderollar, mln. dona	10,3	15,5	14,2	14,7
Jo'natmalar (posilki), ming dona	77,5	55,7	89,9	100,4
Pul mablag'lari va nafaqa to'lovlari, mln. dona	31,9	35,8	34,8	30,3
Xalqaro telefon aloqasi so'zlashuvlari, mln.	15,2	20,1	44,0	191,0
Shundan, uyali aloqa orqali	M.y.	M.y.	9,6	...

Aloqa korxonalari asosiy faoliyatidan tushum 2014-yilda uyali aloqa korxonalarida 4194,1 mlrd. soʻmni, shaharlararo va xalqaro telefon tarmoqlarida 588,3 mlrd. soʻmni, Internet tarmogʻi boʻyicha 588,3 mlrd. soʻmni, pochta xizmati korxonalarida esa 185,9 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Aloqa sohasi umumiy daromadlarida uyali aloqa, shaharlararo va xalqaro telefon hamda Internet tarmogʻining jami daromatlardagi salmogʻi oshib bormoqda. Masalan, uyali aloqa xizmatidan kelgan tushum 2000-yilda jami tushumning 37,5 foizini tashkil etgan boʻlsa, bu koʻrsatkich 2014-yilda 61 foizdan oshib ketdi. Bu yillarda, ayniqsa, Internet tarmogʻining hissasi keskin ortib bordi. Tarmoqning jami tushumdagi hissasi 2005-yilda bor-yoʻgʻi 1,2 foiz boʻlsa, 2014-yilda bu koʻrsatkich 10,0 foizdan oshdi.

**Aloqa korxonalari asosiy faoliyatidan tushum,  
(anʼanaviy aloqa operatorlari)  
(amaldagi narxlarida, mlrd. soʻm)**

	2000	2005	2010	2014
Aloqa, jami	68,7	401,4	1971,4	4194,4
<i>Shundan:</i>				
Uyali aloqa xizmati	25,8	205,2	1393	2402
Shaharlararo, xalqaro telefon tarmogʻi	21,3	113,9	220,4	588,3
Internet tarmogʻi	0,2	5,1	106,7	588,3
Pochta xizmati	5,2	21,7	76,5	185,9
Maʼlumot uzatish tarmogʻi	0,0	6,6	42,8	208,9
Shahar va qishloq telefon tarmogʻi	10,5	31,2	60,3	80,8
Radio aloqa, radioeshittirish va televi- deniye	2,2	5,2	10,1	58,4

Aloqa sohasi umumiy daromadlarida dastlabki uch xizmat turi – uyali aloqa, shaharlararo va xalqaro telefon hamda Internet tarmogʻining ulushi 2000–2014-yillarda sezilarli oshdi. 2014-

yilda aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya tizimida faoliyat yuritayotgan korxonalar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 24,5 foizga o'sdi. Shuningdek, kompyuter dasturlari bilan bog'liq xizmatlar 21,6 foizga ko'paydi.

Keyingi yillarda uyali aloqa, raqamli televideniye va Internet tarmog'ini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlarining amalga oshirilishi mazkur tarmoqlarning aloqa va kommunikatsiya sohasidagi o'rnini mustahkamlaydi, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini yanada oshiradi.

### **12.3. Aloqa va telekommunikatsiya sohasini rivojlantirish yo'nalishlari**

O'zbekistonda aloqa va telekommunikatsiya sohasini rivojlantirishga davlat siyosatida ustuvor ahamiyat berib kelinmoqda. Mustaqillik davrida bu borada davlat tomonidan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Sohaning moddiy-texnik bazasi butlandi, zamonaviy tuzilmalar shakllantirildi, kadrlar salohiyati kengaytirilib, bozor munosabatlariga mos infratuzilmalar taraqqiy etmoqda.

Aloqa va telekommunikatsiya sohasidagi islohotlar, avvalo, sohada faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy asoslarning bozor munosabatlariga xos shaklda qayta qurilganligida o'z aksini topadi. «Reklama to'g'risida»gi, «Mualliflik huquqi to'g'risida»gi, «Axborot xavfsizligi to'g'risida»gi va boshqa qator qonunlarning qabul qilinishi iqtisodiy munosabatlarning erkinlashtirishiga olib keldi.

Tarmoqni modernizatsiyalashda mobil telefon sohasiga kirib kelgan zamonaviy kompaniyalar faoliyati ham samarali bo'lmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonda beshta mobil aloqa operatori faoliyat ko'rsatmoqda. Ular – «**Beeline**», «**Uzmobile**», «**Ucell**», «**Perfectum mobile**» va «**UMS**»lardir.

Rossiyaning yirik aloqa operatori hisoblangan «**Vimpelkom**» 2006-yilda «**UNITEL**» va «**BUZTEL**» kompaniyalarini sotib oldi. Keyinchalik «**UNITEL**» MCHJ O‘zbekistonda «**Beeline**» savdo belgisi ostida faoliyat yuritib, mobil aloqa xizmatlarini ko‘rsata boshladi. 2008-yil o‘rtalarida «**COSCOM**» kompaniyasi O‘zbekistonda «**UCELL**» savdo belgisi ostida xizmat ko‘rsatishni boshladi. Bu kompaniya aksiyalari nazorat paketi Yevropaning yetakchi kompaniyalaridan biri bo‘lgan «**Telia Sonera**» tomonidan sotib olingach yuz berdi. Bu o‘zgarishlar mobil aloqa xizmatlari bozorida raqobat kurashi kuchayishiga, xizmatlar sifatining yaxshilanishiga va zamonaviy menejmentning yaxshilanishiga hamda zamonaviylashuv jadallashishiga olib keldi.

1995-yil oxirida «**Rubicon Wireless Communication**» qo‘shma korxonasining tashkil etilishi bilan mamlakatimizda yangi avlod mobil aloqasining rivojlanish bosqichi boshlangan edi. U-tel savdo belgisi ostida D-AMPS standartidagi mobil tarmoq ishga tushdi. 2001-yilda CDMA standartidagi «**Perfectum mobile**» savdo markasi ostida yangi kompaniya faoliyatini boshladi. CDMA-450 standartida faoliyat ko‘rsatayotgan «**Uzmobile**» kompaniyasi mamlakatimizda sohadagi nisbatan kichik kompaniyadir.

2000-yillardan keyin O‘zbekistonda axborotlashgan jamiyatlarga xos bo‘lgan zamonaviy tarmoq tizimlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan siyosat ko‘lami kengayib bordi. Mamlakatimizning sanoat ishlab chiqarishini yanada jadal rivojlantirish, jamiyatning zamonaviy axborot resurslariga bo‘lgan talab-ehtiyojini to‘laroq qondirish uchun milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish maqsadida 2013–2020-yillarda milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirishning kompleks dasturi qabul qilindi. Hozirda mazkur dastur ijrosining hal qiluvchi bosqichi ketmoqda.

Dasturda mamlakat hududida raqamli televideniye ni to'la joriy etish, mobil aloqa bilan qamrab olish, «Elektron hukumat» tizimi faoliyatini yo'lga qo'yish, Internet tarmog'i faoliyatidan samarali foydalanishga erishish bo'yicha loyihalar amalga oshirilmoqda.

### **Qisqacha xulosalar**

1. Aloqa va telekommunikatsiya majmuasi korxonalari iqtisodiyotning barcha sohalari, ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini tashkil etishda, davlat boshqaruvida, ichki va tashqi xavfsizlikni ta'minlashda, transport turlari faoliyatini boshqarishda, aholining turli-tuman ijtimoiy, madaniy va maishiy ehtiyojlarini qondirishda muhim vazifalarni bajaradi.

2. O'zbekistonda mustaqillik yillarida aloqa va telekommunikatsiya sohasi jadal taraqqiy topdi. Sohani rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy, institutsional, mulkiy va huquqiy asoslari yaratildi.

3. Aloqa va telekommunikatsiya sohasi rivojlanishini aks ettiruvchi qator ko'rsatkichlar dinamik o'zgarimoqda. Bu – sohaning modernizatsiyalashish ko'lami kengayayotganini, iqtisodiyot tarmoqlari va jamiyat a'zolarining ushbu vositalar bilan ta'minlanish darajasi ortayotganligini bildiradi.

4. Davlatning sohada amalga oshirgan islohotlari qisqa vaqtda o'z samarasini bermoqda. Axborot va telekommunikatsiya sohasini rivojlantirishda davlat va xususiy sektorning roli bir-birini to'ldiruvchi ahamiyat kasb etmoqda.

5. Axborot-kommunikatsiya sohasining taraqqiy topishi, avvalo, ta'lim va maorif sohasi rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Oliy, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi hamda maktab ta'limining axborot-kutubxona bazasi kengayib bormoqda.

6. Aloqa sohasi umumiy daromadlarida uyali aloqa, shaharlararo va xalqaro telefon hamda Internet tarmog‘ining jami daromadlardagi salmog‘i oshib bormoqda.

7. 2013–2020-yillarda milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirishning kompleks dasturida raqamli televideniye, mobil aloqa bilan qamrab olish, «Elektron hukumat» va Internet tarmog‘iga katta e‘tibor berilgan.

### **Asosiy atamalar va tushunchalar**

Aloqa, telekommunikatsiya, modernizatsiya, axborot, axborot-kommunikatsiya, uyali aloqa, Internet tarmog‘i, «Elektron hukumat».

### **Nazorat savollari**

1. Aloqa va telekommunikatsiya majmuasiga qaysi sohalar kiradi?

2. Aloqa va telekommunikatsiya sohasining iqtisodiyot, davlat va jamiyat hayotidagi ahamiyatini tushuntirib bering.

3. O‘zbekistonda aloqa va telekommunikatsiya sohasidagi islohotlar nimalarda o‘z aksini topadi?

4. Qaysi ko‘rsatkichlar aloqa va telekommunikatsiya sohasi rivojlanishini ifodalaydi? Batafsil tushuntiring.

5. Aloqa va telekommunikatsiya sohasi rivojlanishida davlatning rolini qanday tushunasiz?

6. Axborot-kommunikatsiya sohasining taraqqiy topishi ta‘lim sohasi rivojlanishiga kuchli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Bu xulosani asoslab bering.

7. Aloqa sohasi umumiy daromadlarida uyali aloqa, shaharlararo va xalqaro telefon hamda Internet tarmog‘ining jami daromadlardagi salmog‘i oshib bormoqda. Nima uchun?

8. 2013–2020-yillarda Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirishning kompleks dasturida qaysi yo‘nalishlarga e‘tibor berilgan?



---

## **XIII b o b**

### **QURILISH MAJMUASI**

#### **13.1. Qurilish majmuasining umumiy tavsifi**

Qurilish – moddiy ishlab chiqarishning yirik sohalaridan biri hisoblanadi. Qurilish turli maqsadlardagi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish, ishni yuritish uchun foydalanadigan hudud bilan birga, bino yoki inshootni barpo etish jarayonini bildiradi. Tugallangan va foydalanishga topshirish uchun tayyorlangan ishlab chiqarish korxonalari, turarjoylar, jamoat binolari, inshootlari va boshqa obyektlar qurilish mahsulotlari hisoblanadi.

Qurilishda ishlab chiqarish sikli nisbatan uzun bo‘lib, bir necha oydan bir necha yilgacha, ishlab chiqarish jarayoni turli ob-havo sharoitida, odatda, ochiq usulda olib boriladi. Qurilish kapital qurilish, rekonstruksiya qilish, ta‘mirlash ishlarini o‘z ichiga oladi.

Kapital qurilish, asosan, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari – sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining asosiy fondlarini kengaytirish, uni yangilash va zamonaviylashtirish maqsadlarida amalga oshiriladi. Bu jarayonda yirik miqdordagi investitsiyalar talab qilinganligi sababli sohani odatda qurilish-investitsiya majmuasi deb ataladi. Qurilish majmuasining asosiy tarkibini qurilish sohasi va qurilish materiallari sanoati tashkil etadi.

Pudrat va xo‘jalik usulidagi qurilish va montaj ishlarini, shuningdek, bino, inshootlarni kapital ta‘mirlash ishlarini qu-

rilish tashkilotlari va maxsus tashkilotlar, loyihalash, loyiha-konstruktorlik va qidiruv tashkilotlari, foydalanishga topshirish va razvedka-parmalash tashkilotlari amalga oshiradi.

Qurilish majmuasi tarkibiga barpo etilayotgan obyekt xususiyatlariga va turlariga ko'ra sanoat, transport, qishloq, suv xo'jaligi, uy-joy, kommunal, ijtimoiy-madaniy va boshqa qurilishlar kiritiladi.

**Sanoat qurilishi.** Sanoat qurilishi sanoat ishlab chiqarish obyektlari – zavod va fabrikalar, ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi infratuzilma obyektlari va boshqa ichki xo'jalik obyektlari qurilishidan iborat.

**Transport qurilishi.** Transport qurilishi transport infratuzilmasi va yo'l kommunikatsiyalari qurilishini tashkil etadi. Avtomobil yo'llari, temiryo'llar, quvurlar yotqizish, vokzallar, aeroportlar qurish, bu yo'llarning atrofida zarur infratuzilmalarni barpo etish transport qurilishiga kiradi.

**Qishloq qurilishi.** Qishloq qurilishi qishloq aholisi turmushining umumiy shart-sharoitlarini yaxshilashga xizmat qiluvchi obyektlar qurish, yangi qishloq massivlari qurish, qishloq ichki yo'llari qurish, obodonlashtirish kabilarni o'z ichiga oladi. Bu yo'nalishdagi qurilish ishlari qishloq xo'jaligi maqsadlaridagi qurilish ishlaridan farq qiladi.

**Shahar qurilishi yoki shaharsozlik.** Yirik, o'rta va kichik shaharlarni zamon talablariga moslab zamonaviylashtirish, yangi bino va inshootlar qurish, shahar yo'l qurilishi, aholi punktlarini shaharlarga aylantirish, shahar infratuzilmasini takomillashtirish kabilarni o'z ichiga oladi.

**Suv xo'jaligi qurilishi.** Suv inshootlari – kanallar, suv omborlari, to'g'onlar, drenaj tarmoqlari qurilishini o'z ichiga oladi. Bu jarayon melioratsiya va suv xo'jaligi sohasidagi faoliyatlarni ham qamrab oladi.

**Uy-joy qurilishi.** Uy-joy qurilishi aholini zarur turarjoy obyektlari bilan ta'minlash, mavjudlarini ta'mirlash va zamonaviylashtirishga qaratilgan faoliyat hisoblanadi.

**Kommunal qurilish.** Kommunal qurilishi aholi turarjoylarini suv, gaz, elektr tarmoqlari bilan ta'minlash, isitish tarmoqlari, boshqa kommunal xizmat obyektlarini qurishni nazarda tutadi.

**Ijtimoiy-madaniy obyektlar qurilishi.** Ijtimoiy-madaniy obyektlar qurilishiga barcha bosqichdagi ta'lim muassasalari qurish va rekonstruksiya qilish, sport inshootlari, kutubxonalar, muzeylar, park va istirohat bog'lari, sog'liqni saqlash obyektlari, mehmonxonalar barpo etish kiradi.

Qurilish milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga xizmat ko'rsatib, asosiy fondlarni qayta takror ishlab chiqarish uchun sharoitlarni ta'minlaydi, iqtisodiyotning samarali tarkibini barpo etish, ishlab chiqaruvchi kuchlarni maqsadga muvofiq joylashtirish, respublikaning mineral-xomashyo va boshqa tabiiy boyliklarini o'zlashtirish, mehnat resurslarini ishlab chiqarish jarayoniga faol jalb etishga imkon beradi. Har qanday mamlakatda iqtisodiy yuksalish jarayoni, odatda, keng ko'lamdagi qurilish ishlaridan, sohadagi yuqori o'sish sur'atlaridan boshlanadi.

Mamlakatimizda qurilish ishlari pudrat, subpudrat va qisman xo'jalik usullarida olib boriladi. Qurilish sohasining tashkiliy tuzilmasida davlat, aksiyadorlik, shirkat, xususiy, qo'shma va boshqa pudrat qurilish-montaj tashkilotlari, shuningdek, o'z moddiy-texnika va ishlab chiqarish bazasiga, malakali ishchi va mutaxassis kadrlarga ega bo'lgan korxonalar, transport va boshqa yordamchi xo'jaliklar mavjud.

O'zbekistonda qurilish-montaj kompaniyalari, korporatsiyalari, qurilish aksiyadorlik jamiyatlari va birlashmalari, quyi pudrat tashkilotlari, kichik korxonalar, qo'shma korxonalar,

loyiha va ilmiy hamda qurilish sohasiga moslashtirilgan ilmiy tadqiqot institutlari faoliyat ko'rsatadi. Qurilish-montaj ishlari-ning deyarli barchasini ixtisoslashtirilgan qurilish tashkilotlari amalga oshiradi.

Ixtisoslashgan qurilish tuzilmalariga «O'zqurilishmateriallari» aksiyadorlik kompaniyasi, «Qurilishlizing», «O'zbekinvest», «O'ztransqurilish» kompaniyalari, «O'zavtoyo'l» konserni, «O'zbekenergiya» DAK kabilar kiradi. «O'zqishloqqurilishbank» ixtisoslashgan banki faoliyat olib bormoqda.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda shaharsozlik va qishloq qurilishi jarayonlari barcha viloyatlarni qamrab oldi. O'zbekiston Respublikasida Shaharsozlik kodeksi qabul qilingan. O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 9-martda «Zamonaviy arxitektura – shaharsozlik talablarini inobatga olgan holda aholi punktlarini obodonlashtirish ishlari-ning tashkil etish qoidalari» hamda 2009-yil 7-aprelda «Qishloq aholi punktlarini bosh rejalar va xududlarni me'moriy rejalashtirishni tashkil etish loyihalari bilan o'z vaqtida ta'minlash, ushbu hududlarni shaharsozlik jihatdan kompleks rivojlantirishni amalga oshirish to'g'risida»gi farmoyishlari qabul qilingan.

### **13.2. Qurilish majmuasining rivojlanish ko'rsatkichlari**

Qurilish majmuasi O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning jadal rivojlanayotgan muhim tarmoqlarini o'z ichiga oladi. Respublika iqtisodiyotida yalpi ichki mahsulot tarkibidagi salmog'iga ko'ra qurilish majmuasi sanoat va qishloq xo'jaligidan keyingi o'rinda turadi.

2016-yilda yalpi ichki mahsulotning 7,2 foizi (2000-yilda 6,1 foiz), iqtisodiyotda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 8,2 foizi (22,1 mingta) qurilish hissasiga

to'g'ri keldi. Bugungi kunda jami ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar qariyb 285,3 mingtani tashkil etsa, shundan qurilish korxonalari va tashkilotlari soni 23,8 mingtani tashkil etadi.

### Qurilish majmuasining iqtisodiyotdagi o'rni

	2000	2005	2010	2016
Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	388,4	1453,1	8245,8	30231,4
Qurilish ishlari hajmining o'sishi, o'tgan yilga nisbatan, %	103,0	110,7	105,1	110,2
Qurilishning qo'shilgan qiymatdagi ulushi, %	6,9	5,4	6,6	7,2
Qurilishning asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarda ulushi, %	0,5	0,9	1,4	1,9
Qurilishda bandlar soni, ming kishi	676,0	849,0	1065,1	1250
Qurilishning bandlikdagi ulushi, %	7,5	8,3	9,2	9,4

Qurilish tarmog'i 2016-yilda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarda 1,9 foiz, jami bandlar sonida 9,4 foiz hissaga ega bo'ldi. 2016-yilda qurilish ishlari hajmi 2015-yilga nisbatan 10,2 foizga ko'p bajarildi.

Qurilish ishlari ko'lamini va sifatini yaxshilash bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, «O'z-qurilishmateriallari» aksiyadorlik kompaniyasi so'nggi yillar davomida o'ttizdan ortiq turdagi zamonaviy qurilish materiallarini ishlab chiqarishni o'zlashtirdi. Bular alebestr va qurilish bo'ri, quruq bezaklovchi qorishmalar, gipsokarton, devor va shiftlar uchun plastik panellar, alukobond aluminiy-plastikli kompozitli panellar, aluminiyli radiatorlar, laminatlangan parket, sopol cherepitsa, vermikulit, oyna va eshiklar uchun bloklar hamda shisha paketlar, gidroizolyatsion tomyopqich materiallaridir. Shuningdek, zamonaviy g'isht ishlab chiqaruvchi korxonalar, tomyopqich materiallarni ishlab chiqarish

bo'yicha 6 ta ishlab chiqarish obyektlari, bezaklovchi materiallarni ishlab chiqaruvchi yangi quvvatlar ishga tushirildi, 6 ta kon tiklandi va rekonstruksiya qilindi, ularning quvvatlari oshirib borilmoqda.

**Mulk shakli bo'yicha qurilish ishlari hajmining tarkibi,  
jamiga nisbatan, %**

	2000	2005	2010	2015	2016
Jami	100	100	100	100	100
Davlat	18,8	8,6	10,4	6,0	5,0
Nodavlat, shundan:	81,2	91,4	89,6	94,0	95,0
fuqarolarning xususiy mulki	41,2	36,3	37,8	44,8	46,9
Xo'jalik birlashmalari	38,6	44,7	25,3	29,9	30,3

Qurilish ishlari tibbiyot, ta'lim, uy-joy va kommunal xo'jaliklarida jadal sur'atlarda va tizimli amalga oshirildi. Bu sohalaridagi qurilish ishlarining asosiy xususiyatlari tarmoqlarga xorijiy investitsiyalarning nisbatan kam jalb etilganligi va asosiy loyihalarning mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan amalga oshirilganligi hisoblanadi. 2016-yilda qurilish ishlari-ning 95 foizi nodavlat sektori tomonidan bajarilgan bo'lsa, fuqarolarning xususiy mulki va xo'jalik birlashmalarining ulushi muvofiq ravishda 46,9 va 30,3 foizga teng bo'ldi.

Tibbiyot sohasidagi qurilish ishlari ko'proq davlat maqsadli dasturlari doirasida amalga oshirilmoqda. Yangi qurilgan va rekonstruksiya qilingan tibbiyot va ambulatoriya-poliklinika muassasalarining deyarli barchasi davlat korxonalari va tashkilotlari tomonidan qurib ishga tushirildi.

Ta'lim tizimini zamonaviylashtirish va ilg'or talablarga moslashtirish maqsadida oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar

ta'limi muassasalari yangi qurilmoqda va rekonstruksiya qilinmoqda. So'nggi yillarda har yili oliy o'quv yurtlari umumiy o'quv-laboratoriya maydoni yangilanmoqda, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning yangi korpuslari ishga tushirilmoqda.

**Yangi qurilgan va rekonstruksiya qilingan oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari**

	2000	2005	2010	2015
Oliy o'quv yurtlari, ming o'quvchi o'rni	–	–	–	16,6
Akademik litseylar, ming o'quvchi o'rni	7,5	6,8	2,3	0,8
Kasb-hunar kollejlari, ming o'quvchi o'rni	68,8	62,2	23,5	3,3
Umumtalim maktablari, o'quvchi o'rinlari, jami, mingta	17,3	128,7	12,9	57,9

Maktab ta'limi tizimidagi qurilishlarning ko'lami kattaligi bilan ajralib turadi. Xususan, 2010–2015-yillarda yangi qurilgan va rekonstruksiya qilingan umumiy o'rta ta'lim maktablardagi o'quvchi o'rinlari 17,3 mingtadan 57,9 mingtagacha oshdi.

Uy-joy fondi o'zgarishi qurilish ishlari ko'lamining o'zgarishini ifodalaydi. O'zbekistonda umumiy uy-joy fondi 449,7 mln. kv. metrni tashkil etadi. Shundan 446,1 mln. kv. metr xususiy uy-joy fondi bo'lsa, 3,6 mln. kv. metr davlat uy-joy fondini tashkil etadi. Har yili uy-joy fondi o'rtacha 10–12 mln. kv. metrga ko'paymoqda. Bir yashovchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yashash maydoni 15 kv. metrdan ortiqni tashkil etmoqda. Bu ko'rsatkich 2000-yilda 13,8 kv. metr edi.

Har yili 73–82 ming atrofida uylar barpo etilmoqda. Yangi qurilayotgan uylar deyarli nodavlat sektori korxonalar va tashkilotlari, fuqarolarning o'z tashabbuslari hisobiga qurilmoqda.

Uy-joy qurilishida bozor munosabatlarining rivojlanishi natijasida sohada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tashabbuslari to‘la qaror topdi.

Kommunal qurilishi uzluksiz rivojlanmoqda. Aholi turar-joylarini suv va gaz tarmoqlari bilan ta‘minlash, kommunal xizmat obyektlarini qurish ishlari hajmi barqaror o‘sib bormoqda. 2016-yilda 2494,9 km suv tarmog‘i (qishloq joylarda 2002,8 km) va 312,4 km gaz tarmog‘i (qishloq joylarda 212,1 km) ishga tushirildi va mos ravishda 2015-yilga nisbatan 94,4 va 87,8 foizni tashkil etdi. Qishloq joylar hisobiga ishga tushirilgan suv tarmog‘ining 92,7 foizi va gaz tarmog‘ining 87,1 foizi to‘g‘ri keldi.

**Yangi qurilgan, rekonstruksiya qilingan suv quvurlari  
va gaz tarmoqlari ko‘rsatkichlari, km**

	2000	2005	2010	2015	2016
Suv quvurlari	2155,0	2398,0	2625,9	2642,9	2494,9
Gaz tarmoqlari	4201	3158	910,6	366	321,4

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 4-martdagi «2015–2019-yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, tarkibiy o‘zgarishlarni ta‘minlash bo‘yicha chora-tadbirlar Dasturi to‘g‘risidagi» Farmoniga asosan, mazkur Dastur doirasida kommunal soha, transport, kapital qurilish va qurilish sanoati majmuasiga yirik kapital mablag‘lar ajratilmoda.

Shuningdek, 2017-yil 24-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017–2021-yillarda ko‘p xonadonli uy-joy fondini saqlash va undan foydalanish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori qabul qilindi. Unda ko‘p xonadonli uy-joy fondining texnik holatini tubdan yaxshilash va undan samarali foydalanish, ta‘mirlash-tiklash ishlarini o‘z vaqtida amalga oshirish, shuningdek, ko‘p xo-



nadonli uylarga tutash hududlarda tozalikni saqlash va ularni obodonlashtirish bunday uylarda yashaydigan aholi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Qarorda ko'p xonadonli uy-joy fondini saqlash va undan foydalanish tizimini tashkil etishning asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan.

### **13.3. Qishloqda uy-joy qurish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish**

Qishloqda uy-joy qurish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Qishloqlarda zamonaviy uy-joylar qurilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil yanvarda «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili Davlat Dasturi to'g'risida»gi hamda «MCHJ Qishloqqurilishloyiha» loyiha-qidiruv institutini tashkil qilish to'g'risida»gi qarorlari qabul qilingan.

Qishloq joylarda qurilish olib borish uchun uzoq istiqbolga mo'ljallangan, loyihalashtirish, sanoat-qurilish, muhandislik-texnik jihatdan kuchli zamonaviy salohiyatga ega bo'lgan baza yaratildi.

Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi qurilish rejalari-ga, sanitariya talablari va qurilish normalariga rioya qilinishi ustidan qat'iy tizimli nazorat o'rnatgan. Hududlarda aholini joylashtirish, hududlarni rejalashtirish va bosh rejalari bilan bog'liq hujjatlarni ishlab chiqish tizimi tezlashtirilgan. Investitsiya dasturi doirasida «Qishloq qurilish bank» moliyalash manbalari va mablag' ajratish mexanizmini belgilamoqda.

Qishloq aholi punktlarini me'moriy jihatdan loyihalashtirish va qurish ishlarini tashkil etish tizimi samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Bu jarayon hudud va mintaqalarning iqlimi,

demografik holati va boshqa shart-sharoitlarini hisobga olgan holda me'moriy-loyihaviy qurilishi bo'yicha olib borilmoqda.

Qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish borasida maxsus dasturlar asosida «O'zqurilishmateriallari» kompaniyasi bilan birgalikda mahalliy xomashyodan qurilish materiallari ishlab chiqarish tashkil etildi. Pishiq g'isht, tom yopish, pardozlash va boshqa maqsadlar uchun kerak bo'ladigan materiallarni ishlab chiqarish bo'yicha minitexnologiyalar joriy etildi, mavjud noruda konlari qayta tiklandi hamda rekonstruksiya qilindi. Zamonaviy qurilish materiallari va konstruksiyalaridan unumli foydalanish yo'lga qo'yildi.

Yangi qurilishlarda yig'ma, kompozitsion va kichik blokli konstruksiyalarni qo'llagan holda, industrial va yig'ma texnologiyalar keng joriy etildi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 19-iyunda «Devorbop materiallar ishlab chiqarishni ko'paytirishni rag'batlantirish va sifatini yaxshilash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori qabul qilindi.

Qishloqda aholi maskanlari va zamonaviy uylar barpo etilmoqda. Yo'llar, uzluksiz energiya ta'minoti, aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash tizimi, rivojlangan ijtimoiy obyektlar tarmog'i (qishloq vrachlik punktlari, maktablar, bolalar sporti inshootlari, telekommunikatsiya va pochta aloqasi bo'limlari, xizmat ko'rsatish, savdo shoxobchalari) va boshqa tuzilmalar qurilmoqda.

Qishloq joylardagi mavjud infratuzilmani kengaytirish bo'yicha qo'shimcha mablag' va imkoniyatlar yaratilmoqda. Qishloqlarni zamonaviy arxitektura va sanoat asosida tubdan o'zgartirish va yangilash, uy-joy, ijtimoiy va kommunal obyektlar, kommunikatsiyalarni barpo etish bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan aniq maqsadli ishlarda turli imtiyoz va qulayliklar ta'minlanayapti.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yilda qabul qilingan «Qishloq joylarda uy-joy qurilishi ko‘lamini kengaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi, «Uy-joy fondini foydalanishga tayyor holda topshirish shartlarida rekonstruksiya qilish va ta‘mirlash bo‘yicha pudrat ishlarini kengaytirishni rag‘batlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi hamda «Qishloq qurilish bank» aksiyadorlik tijorat bankini tashkil etish to‘g‘risida»gi qarorlari mazkur faoliyatning huquqiy asosi hisoblanadi.

2016-yilda umumiy maydoni 12,7 mln. m.kv. (2015-yilga nisbatan 105,6 foiz), shu jumladan qishloq joylarda 9,0 mln. m.kv. (2015-yilga nisbatan 105,7 foiz) bo‘lgan 86,5 mingta uy yoki 92,9 ming xonadon foydalanishga topshirildi.

Shu bilan birga, qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo‘yicha yakka tartibdagi uy-joy qurilishi Dasturiga asosan 2016-yilda umumiy maydoni 1,9 mln. m.kv. bo‘lgan 13,4 mingta turarjoy qurilishi tamomlandi. Mahalla guzarlari, savdo majmualari, bozor, novvoyxona, maishiy xizmat majmualari, minibanklarni hisobga olgan holda 159 ta ijtimoiy va iqtisodiy obyektlar infratuzilmasi barpo etildi.

«Qishloq qurilish invest» injiniring kompaniyasi tizimida qurilish materiallari narxlarini optimallashtirish maqsadida yiliga 300 million dona pishiq g‘isht ishlab chiqaradigan 12 ta, yillik quvvati 1,7 million kv. metr tom yopish materiallari (metallocherepitsa) hamda 75 ming donadan eshik va rom ishlab chiqaradigan yangi korxonalar tashkil etildi.

«O‘ztransgaz», «O‘zbekenergo» kompaniyalari va mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan gaz hamda ichimlik suvi taroqlari, elektr energiyasi liniyalari tortilib, asfalt yo‘llar yotqizilmoqda. Hududlarda bolalar bog‘chalari, maktab binolari, guzarlar, servis xizmati ko‘rsatish shoxobchalari kabi ijtimoiy inshootlar (bolalar sport majmuasi, dehqon bozori, novvoyxo-

na, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchasi, minibank, militsiya tayanch punkti) barpo etilmoqda.

### **Qisqacha xulosalar**

1. Qurilish moddiy ishlab chiqarishning yirik sohaslaridan biri bo'lib, kapital qurilish, asosan, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari – sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy fondlarini kengaytirish, uni yangilash va zamonaviylashtirish maqsadlarida amalga oshiriladi.

2. Qurilish-investitsiya majmuasi, qurilish majmuasi, qurilish industriyasi tushunchalari bir-biriga organik bog'langan, tashkiliy tuzilmalari faoliyati bir-biriga yaqindan aloqador faoliyat turlarining yig'indisini ifodalaydi.

3. Qurilish milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga xizmat ko'rsatib, asosiy fondlarni qayta takror ishlab chiqarish uchun sharoitlarni ta'minlaydi, iqtisodiyotning samarali tarkibini barpo etish, ishlab chiqaruvchi kuchlarni maqsadga muvofiq joylashtirish, respublikaning mineral xomashyo va boshqa tabiiy boyliklarini o'zlashtirish, mehnat resurslarini ishlab chiqarish jarayoniga faol jalb etishga imkon beradi.

4. Mustaqillik yillarida qurilish ishlari tibbiyot, ta'lim, uy-joy va kommunal xo'jaliklarida jadal sur'atlarda va tizimli amalga oshirildi.

5. Uy-joy qurilishi sohasida bozor munosabatlarining rivojlanishi natijasida sohada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tashabbuslari to'la qaror topdi.

6. Qishloqda uy-joy qurish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Qishloqlarda zamonaviy uy-joylar qurilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

## **Asosiy atamalar va tushunchalar**

Qurilish, kapital qurilish, iqtisodiyotning real sektori, qurilish-investitsiya majmuasi, qurilish majmuasi, qurilish industriyasi, sanoat qurilishi, transport qurilishi, qishloq qurilishi, shahar qurilishi, shaharsozlik, suv xo‘jaligi qurilishi, uy-joy qurilishi, kommunal qurilish, ijtimoiy-madaniy obyektlar qurilishi.

### **Nazorat savollari**

1. Nima uchun qurilish moddiy ishlab chiqarishning yirik sohalaridan biri hisoblanadi?
2. Kapital qurilishning o‘ziga xos xususiyatlari nimalarda namoyon bo‘ladi?
3. Qurilish-investitsiya majmuasi tarkibiga qaysi sohalar kiradi?
4. Qurilish majmuasi va qurilish industriyasi tushunchalarining ma’nosini tushuntiring.
5. Qurilish asosiy fondlarni qayta takror ishlab chiqarish uchun qanday sharoitlarni ta’minlaydi?
6. Qurilish majmuasining iqtisodiyotdagi o‘rni va roliga qanday baho berasiz? Fikringizni ko‘rsatkichlar orqali asoslang.
7. Qurilish majmuasi rivojlanishini qaysi ko‘rsatkichlar aks ettiradi?
8. Uy-joy qurilishida bozor munosabatlarining rivojlanishi nimalarda o‘z aksini topadi?
9. Qishloqda uy-joy qurish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish zarurligini siz qanday tushuntirib berasiz?

---

## **XIV b o b**

### **ISTE'MOL BOZORI**

#### **14.1. Iste'mol bozorining tavsifi**

Milliy iqtisodiyotning taraqqiyotini tavsiflovchi sohalardan biri – bu iste'mol bozoridir. Iste'mol bozoridagi vaziyat ishlab chiqarishning pirovard natijalarini, yakunini o'zida aks ettiradi. Iste'mol bozori to'yingan bo'lsa, unda sotilayotgan tovar va xizmatlarning bahosi nisbatan barqaror bo'lsa, iste'mol bozoridagi talab va taklif o'rtasida muvozanat ta'minlansa, bu – mamlakat iqtisodiyotining barqarorligini bildiruvchi muhim holat hisoblanadi.

Iste'mol bozoridagi barqarorlik aholi turmush farovonligini oshiruvchi asosiy shart-sharoitlardan biridir. Narx barqarorligi, bozorning to'yinganligi, talab va taklif o'rtasidagi nisbiy muvozanat aholi turmush darajasini yuksaltirish uchun bozor sharoitlari hisoblanadi. Mehnat unumdorligi, mehnat intensivligi yoki rentabellik aholi daromadlarini oshirishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Iste'mol bozorida iste'mol buyumlari va xizmatlari oldi-sotdi qilinadi. Bunda alohida shaxs yoki uy xo'jaliklari o'zlarining shaxsiy iste'moli uchun tovar va xizmatlarni xarid qiladilar. Iste'mol bozorining subyekti, ya'ni bozor ishtirokchilari tovar sotuvchi firmalar, yakka sotuvchilar, aholi, davlat va jamoat idoralaridan iborat xaridorlardir. Uning obyeksi esa shu yerda sotiladigan iste'mol buyumlari, maishiy va boshqa pullik xizmatlar hisoblanadi.

Iste'mol bozori miqyosiga ko'ra xalqaro, hududiy, milliy va mahalliy bozorlarga bo'linib, bu bozor boshqa bozorlardan ko'p segmentliliği bilan ajralib turadi. Bu segmentlardan eng yiriklari oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy xo'jalik tovarlari, maishiy-ijtimoiy xizmatlar bozori hisoblanadi. Bu segmentlar xaridorning mavqeyiga qarab yoshlar, bolalar, qariyalar, erkaklar va ayollar tovar bozorlariga ham ajraladi. Xaridorning qurbiga qarab nufuzli tovarlar bozori, hammabop tovarlar bozori va arzon tovarlar bozoriga ham bo'linadi.

O'zbekistondagi iste'mol bozori supermarketlar, magazinlar, salonlar, do'konlar, dehqon bozorlari va sanoat mollari bozorlari, pullik maishiy xizmat korxonalari, pullik ijtimoiy xizmat tashkilotlari va muassasalari faoliyatida namoyon bo'ladi.

Iste'mol bozorida ulgurji va chakana savdo amalga oshiriladi. Aholiga keng xalq iste'moli tovarlari va xizmatlari sotiladigan iste'mol bozorida ko'proq chakana savdo amalga oshiriladi. Iste'mol bozorida ulgurji savdo korxonalari, tashkilot va muassasalari ham faoliyat ko'rsatadi. Ulgurji bozor tovar iste'molchilariga yoki uni chakana sotadigan xaridorlarga tovarlar yirik to'plari bilan ko'tarasiga sotiladigan bozor bo'lib, ulgurji savdo aylanmasi hajmi oshishi ham iste'mol bozori rivojlanayotganligini bildiradi.

## **14.2. Iste'mol bozori rivojlanishining umumiy ko'rsatkichlari**

Iste'mol bozori rivojlanishi ijtimoiy-iqtisodiy jarayon hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyotining yuksalishi va ishlab chiqarish salohiyatining ortishi hamda aholi daromadlarining ko'payishi pirovard natijada iste'mol bozori ko'lamining kengayishida namoyon bo'ladi.

Iste'mol bozori rivojlanishiga baho berishda bir qator ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Iste'mol bozori rivojlanishini ifodalovchi ko'rsatkichlarga iste'mol budjeti, iste'mol krediti hajmining ortishi, iste'mol bozoridagi ishtirokchilar sonining ko'payishi, iste'mol me'yorlari o'zgarishi, iste'mol savati hajmi, iste'mol fondi hajmi kabilar kiradi.

Iste'mol bozori rivojlanishi va aholi turmush darajasini o'zaro bog'laydigan tushunchalardan biri – bu iste'mol budjeticidir. Iste'mol budjeti joriy iste'molni qondirish uchun xonadon yoki ayrim shaxs tomonidan sarflanadigan pul mablag'laridan iborat. Iste'mol budjetini to'ldirishda iste'mol bozorining barqaror rivojlanishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Iste'mol bozorida qo'shimcha tovar zaxiralari paydo bo'lsa yoki aholining u yoki bu iste'mol mahsulotiga ehtiyojini to'laroq qondirish zarur bo'lsa, iste'mol krediti qo'llaniladi.

Davlat iste'mol bozorining kengayishi va bu bozorda raqobat muhitining rivojlanishi uchun turli vosita va dastaklardan foydalanadi. Monopoliyaga qarshi qonunlar qabul qiladi, oligopol bozorlarni tartibga soladi, bozor ishtirokchilari sonini ko'paytirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'radi. Iste'mol krediti ham shunday vositalardan biri hisoblanadi.

Iste'mol krediti iste'mol ehtiyojlarini qondirish uchun qaytarishlik sharti bilan aholiga beriladigan pul mablag'lari yoki tovarlaridan iborat. Odatda, iste'mol krediti aholining qimmatbaho tovarlarni xarid qilishi uchun ajratiladi. Uzoq foydalaniladigan tovarlar – avtomashina, uy, dala hovli kabilar borki, ularni xarid qilish uchun aholining joriy daromadlari doim ham yetavermaydi. Ularning narxi yuqori bo'lganligi uchun nasiyaga olish zarurati paydo bo'ladi. Bunda tovar egasi unga nasiyaga sotadi va xaridorni o'zining qarzdoriga aylantiradi. Kreditni bunda bilvosita bank beradi, ya'ni tovar haqini to'laydi, xaridor esa tovar egasidan emas, balki bankdan qarzdor bo'ladi.



Iste'mol krediti iste'mol bozoridagi oldi-sotdini rag'batlantirish, aholining iste'molchilik kayfiyatini ko'tarish siyosati hamdir. O'zbekistonda ta'lim krediti, yosh oilalarga ipoteka krediti, uy jihozlarini kreditga sotish amaliyoti shunday siyosat ko'rinishlaridir.

Iste'mol bozoridagi holat va aholining iste'molchilik xatti-harakatlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni, aholining iste'mol talablari qondirilish darajasini aniqlashda, qolaversa, iste'mol darajasiga baho berishda iste'mol me'yorlaridan foydalaniladi. Chunki ehtiyojlar cheksizligi tushunchasi aholi cheksiz darajada tovar va xizmatlar iste'mol qila olishini anglatmaydi. Ehtiyojlar cheksizligi aholi xohish-istaklarining cheksizligini bildiruvchi nazariy tushunchadir.

Iste'mol me'yorlari aholining sihat-salomatligini ta'minlash va ish qobiliyatini saqlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan oziq-ovqat va xizmatlarni iste'mol qilishning miqdoriy me'yorlari, o'lchami va hajmidir. Iste'mol me'yorlari aholi iste'molini eng maqbul darajaga keltirib, inson kamolotini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu tushuncha miqdoran o'lchash mumkin bo'lgan, iste'mol bozorida oldi-sotdi qilinayotgan tovarlar va xizmatlarga nisbatan ishlatiladi.

Har bir mamlakatda iqtisodiy holat, tabiiy-iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda maksimum va minimum iste'mol me'yorlari ishlab chiqiladi. Maksimum iste'mol me'yorlari eng ko'p iste'mol qilish me'yori bo'lib, inson shaxsining har tomonlama kamoloti uchun eng ko'p iste'mol chegaralarini belgilaydi. Oziq-ovqat iste'moliga nisbatan fiziologik me'yorlar qabul qilingan bo'lib, bu – insonning qanday mehnat faoliyati bilan shug'ullanishi va qayerda yashashidan qat'i nazar, qanday oziq-ovqatlar turlaridan qancha miqdorda iste'mol qilishini bildiradi. Bu me'yorlar tibbiyot nuqtayi nazaridan qarala-

di va bunga ma'lum miqdoriy nisbatdagi mahsulotlar iste'moli orqali erishilishini ko'zda tutadi.

Iste'mol me'yorlaridan kelib chiqib iste'mol savati shakllantiriladi. Iste'mol savati muayyan vaqtda iste'mol etiladigan mahsulotlar turi va to'plamining oila yoki jon boshiga hisoblangan miqdoridir. Bu tushuncha kishi yoki oila oylik yoki yillik hisobiy tovarlar va xizmatlar iste'molining tipik darajasi yoki tuzilmasini tavsiflaydi. Bu – moddiy o'lcham va pul shaklida hisoblanadi. Bunday to'plam iste'mol bozori-dagi amaldagi narxlarga ko'ra, iste'mol savatidan kelib chiqib, minimal iste'mol budjeti, ya'ni tirikchilik minimumini hisoblab chiqishga xizmat qiladi. Iste'mol savatida foydalanish maqsadiga ko'ra quyidagi uch guruh tovarlar mavjud:

– oziq-ovqat mahsulotlari – go'sht, go'sht mahsulotlari, tuxum, sut, sut mahsulotlari, un, guruch, non va yorma, shakar, o'simlik moyi, meva-sabzavotlar;

– nooziq-ovqat tovarlari – kiyim-kechak, gazlama, poyabzal, mebel, uy jihozlari, xo'jalik buyumlari, madaniy tovarlar;

– madaniy-maishiy xizmatlar – pullik ijtimoiy xizmatlar, ya'ni maishiy texnikalar tizimi, kir yuvdirish, kimyoviy tozalash, tomoshalar ko'rish, pulli davolanish, pulli o'qish va boshqalar.

Ko'rinib turibdiki, iste'mol savati aholining turmush darajasiga to'g'ridan to'g'ri aloqador bo'lgan iste'mol bozori tarkibini o'zida to'la aks ettirmoqda. Iste'mol savatiga kiritiladigan mahsulotlar avval miqdoran belgilanadi, so'ngra pulga chaqilib, qiymati aniqlanadi. Odatda, minimal iste'mol savati, ya'ni eng zarur iste'mol miqdori belgilanadi.

Iste'mol bozori milliy hodisa bo'lganligi sababli iste'mol savati ham milliy xususiyatga ega. Bu iste'mol savati muayyan mamlakatning iqtisodiyoti rivojlanishiga bevosita bog'liq bo'lib, shu mamlakat aholisining iste'mol tarkibi xususiyatlarini

inobatga olgan holda hisoblab chiqiladi demakdir. Iste'mol savatiga turli miqdordagi tovarlar va xizmatlar kiritiladi. Iste'mol savati hajmi mamlakatning iqtisodiy qudrati va iqtisodiy salohiyatiga ham bog'liq.

Iste'mol bozorini rivojlantirishda iste'mol fondining o'rni alohida. Iste'mol fondi hukumatning aholi turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy siyosatida ta'sirchan vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Iste'mol fondi muayyan vaqtda yaratiladigan mahsulot va xizmatlarning aholi joriy iste'moliga ketadigan qismi bo'lib, mahsulot va xizmatlar vazifasiga ko'ra, iste'mol buyumlari va ishlab chiqarish vositalaridan – investitsion tovarlardan iborat. Ishlab chiqarilgan iste'mol buyumlari iste'mol fondini tashkil etadi. Ammo uning xorijga sotishga mo'ljallangan qismi ham bor. O'z navbatida, xorijdan mamlakatga olib kiriladigan iste'mol tovarlari ham mavjud. Bu vaziyatda iste'mol fondida sifat o'zgarishlari sodir bo'ladi.

Iste'mol fondida g'oyat xilma-xil, bir-biriga tenglashtirib bo'lmaydigan tovar va xizmatlar bo'lganligidan, uning qiymat ko'rinishi asos qilib olinadi. Iste'mol fondi mamlakatning iqtisodiy kuch-qudrati va yalpi milliy mahsulotning taqsimlanishiga ham bog'liq. Masalan, AQSHda iste'mol fondi YaIMning qariyb 8–10 foizini tashkil etsa, boshqa mamlakatlarda vaziyatga qarab bu ko'rsatkich taxminan 55–65 foiz atrofida o'zgarib turadi. Bu mamlakatdagi makroiqtisodiy vaziyat va hukumatning iqtisodiy siyosati maqsadlariga bog'liq ravishda o'zgaradi.

Iste'mol fondining jon boshiga to'g'ri keladigan miqdori iste'mol bozori rivojlanishi va aholi farovonligini bildiruvchi muhim ko'rsatkichlardan biridir. Bu ko'rsatkich milliy investitsiyalar va xorijdan jalb etilayotgan investitsiyalar hajmiga, investitsiyalarning qisqa, o'rta va uzoq muddatligiga ham bog'liq. Investitsiyalar iqtisodiyotning qaysi sohalariga yo'naltirilayotganligi ham iste'mol fondiga bilvosita

ta'sir ko'rsatadi. Agar investitsiyalar to'g'ridan to'g'ri iste'mol tovarlari va xizmatlari ishlab chiqaruvchi tarmoqlar – oziq-ovqat, yengil sanoat, aholiga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarga yo'naltirilsa, bu yaqin yillarda iste'mol fondining kengayishiga olib keladi.

Iste'mol fondi umummamlakat darajasida, firma va xo'jaliklar darajasida hamda oila xo'jaligi darajasida ajraladi. Umum-mamlakat darajasidagi iste'mol fondi davlat budjeti vositasida shakllanadi. Davlat iste'molini ta'minlashning muhim vositasi hisoblanadi. Davlat iste'moli davlat funksiyalarini bajarishga imkon beradi.

Firma va xo'jaliklar darajasidagi iste'mol fondi korporativ fondlar shaklida bo'ladi. Korporativ fondlar korxonalarining joriy iste'molini ta'minlashga sarflanadi.

Oila xo'jaligi darajasidagi iste'mol fondi esa oilaning joriy ehtiyojlarini qondirishga ketadigan qismini bildiradi. Bu iste'mol fondi tarkibi O'zbekistonda mustaqillik yillarida miqdor va sifat jihatidan takomillashib bormoqda.

### **14.3. O'zbekistonda iste'mol bozorining rivojlanish ko'rsatkichlari**

Iste'mol bozori rivojlanishini ifodalovchi ko'rsatkichlar mamlakat iste'mol bozori kengayayotganligini, undagi sifat va miqdoriy o'zgarishlarni ifodalaydi. Iste'mol bozori rivojlanishiga tashqi omillar ham ta'sir ko'rsatadi. Iste'mol tovarlarining eksporti ichki bozorda ba'zan taqchillikni yuzaga keltirsa, iste'mol tovarlari importi taqchillik muammolarini bartaraf etishi ham mumkin. Bu – milliy ishlab chiqaruvchilarning import o'rnini bosuvchi yoki eksportga yo'nalgan strategiyalariga bog'liq ravishda ham o'zgarib boradi. Iste'mol bozorida narxlarning barqarorligini ta'minlab turishda tashqi savdo siyosati vosita va dastaklari ta'sirchan rol o'ynaydi.

O‘zbekistonda 2016-yilda o‘tgan yilga nisbatan yalpi ichki mahsulot 7,8 foiz, sanoat ishlab chiqarishi 6,2 foiz, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish hajmi 6,6 foizga o‘sgan bo‘lsa, chakana savdo aylanmasi 14,4 foiz va iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 6,0 foizga oshdi. Bu ko‘rsatkichlar iste‘mol bozori iqtisodiyot masshtablari bilan yonma-yon kengayayotganligini bildiradi.

Iste‘mol bozori rivojlanishi tovarlarning ulgurji va chakana savdo aylanmasi hajmining oshishi, iste‘mol bozorida xizmatlar va tovarlar ulushi o‘zgarishi, savdo shoxobchalari, bozorlar soni ko‘payishi, zamonaviy xizmatlar turlarining ko‘payishi kabi ko‘rsatkichlarda ham o‘z aksini topadi.

Mamlakatimizda chakana savdo aylanmasi hajmi jadal sur‘atlarda oshib bormoqda. Oziq-ovqat tovarlari savdo aylanmasidan nooziq-ovqat mahsulotlari savdosi hajmi nisbatan ustunroq o‘smoqda.

Bu ko‘rsatkichlar iste‘mol bozorida barqaror o‘shish tendensiyasi mavjudligini bildiradi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozlari oqibatlarini bartaraf etib, barqaror iqtisodiy o‘shishning mustahkam shart-sharoitlari ta‘minlanayotganligi iste‘mol bozoridagi mana shu ko‘rsatkichlarda ham o‘z ifodasini topmoqda.

2000–2016-yillarda ovqatlanish korxonalari aylanmasi hajmi va chakana savdo aylanmasi hajmi o‘rtasidagi nisbatlar qisman o‘zgardi. Xuddi shuningdek, chakana tarmoq korxonalaridagi yil oxiriga tovar zaxiralarning nisbati kam o‘zgardi. Bu tarmoq ichida nisbiy ko‘rsatkichlar barqaror ekanligini bildiradi.

Ayrim madaniy-maishiy va xo‘jalik tovarlarini sotish hajmi ham iste‘mol bozoridagi vaziyat o‘zgarishini tavsiflaydi. Keyingi yillarda iste‘mol bozorida televizorlar sotish hajmi, sovit-

## Chakana savdo faoliyati asosiy ko'rsatkichlari

	2000	2005	2010	2015	2016
Chakana savdo aylanmasi hajmi, joriy narxlarda, mlrd. so'm	1787,5	5577,4	21872,8	71184,1	88071,6
Chakana savdo aylanmasining o'sish sura'ti, o'tgan yilga nisbatan, %	107,6	105,1	114,7	115,3	114,4
Ovqatlanish korxonalarini aylanmasi, joriy narxlarda, mlrd. so'm	52,9	141,5	573,3	1969,5	2608,0
Ovqatlanish korxonalarini tovar aylanmasining jami tovar aylanmasidagi ulushi, %	3,0	2,5	2,6	2,8	3,0
Ovqatlanish korxonalarini tovar aylanmasining o'sish sura'ti, o'tgan yilga nisbatan, %	117,8	98,8	119,9	115,4	126,4
Chakana savdo korxonalarini soni, yil oxiriga, ming birlik	54,7	57,6	84,4	107,2	114,3

kich va muzlatkichlar, kir yuvish mashinalari, yengil avtomashinalar, velosiped va mopedlar, sintetik yuvish vositalari sotish hajmi sezilarli o'sdi.

Keyingi yillarda madaniy-maishiy va xo'jalik tovarlari bozori ko'lami tez kengayib borayapti. Bunday ijobiy o'zgarish iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning mahalliy lashtirilishi natijasi ham hisoblanadi.

Respublika iste'mol bozorida transport va aloqa xizmatlari, uy-joy kommunal va maishiy xizmatlar, ta'lim, huquqiy soha va bank muassasalari xizmatlari, sog'liqni saqlash, sanatoriya-kurort va sog'lomlashtirish xizmatlari, madaniyat, jismoniy tarbiya va sport, turistik va ekskursiya xizmatlari ko'rsatilmoqda. Albatta, iste'mol bozorining bu segmentida bozor munosabatlari iste'mol tovarlari segmentidagi munosabatlardan farq qiladi.

Qayd etilgan xizmatlar bozorida aholiga pulli xizmatlar tarkibi o'zgarimoqda.

**Xizmat turlari bo'yicha aholiga pulli xizmatlarning tarkibi, jamiga nisbatan, %**

	2000	2005	2010	2015	2016
Ko'rsatilgan jami xizmat, shundan	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Transport xizmatlari	36,7	33,7	26,6	26,7	29,1
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	8,4	10,2	17,7	5,3	6,7
Kompyuter dasturlari xizmatlari	0,1	0,1	0,1	0,2	2,4
Maishiy xizmatlar	15,7	15,3	7,9	4,2	3,3
Ta'lim xizmatlari	24,0	6,2	7,7	2,9	3,6
Moliyaviy xizmatlar	2,3	1,5	4,9	9,2	10,8
Sog'liqni saqlash, sanatoriya-kurort, sog'lomlashtirish	1,4	2,1	2,7	1,2	1,5
Savdo va umumiy ovqatlanish xizmatlari	4,8	5,9	18,2	23,3	31,8
Boshqa xizmatlar	6,6	25	14,2	27,0	10,8

Aholiga ko'rsatilgan jami pulli xizmatlar tarkibida 2016-yilda savdo va umumiy ovqatlanish xizmatlari 31,8 foizni, transport xizmatlari ulushi 29,1 foizni, moliyaviy xizmatlar 10,8 foizni, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 6,7 foizni, maishiy xizmatlar 3,3 foizni, ta'lim xizmatlari 3,6 foizni, sog'liqni saqlash, sanatoriya-kurort va sog'lomlashtirish xizmatlari 1,5 foizni tashkil etdi.

Bozor munosabatlari rivojlanib borishi aholiga maishiy xizmat ko'rsatishning mulkchilik shakli o'zgarishiga olib kelmoqda. Aholiga maishiy xizmatlarning 1,6 foizini davlat, 98,4

foizini esa nodavlat mulk shakllari bo'lgan korxonalar va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar amalga oshirmoqda.

#### **14.4. O'zbekistonda tirikchilik minimumi va iste'mol me'yorlari**

O'zbekistonda o'rta hisobda bir oydagi pul daromadlari ko'rsatkichidan foydalaniladigan holda kambag'allik chegarasini tirikchilik minimumi darajasida belgilaydigan mutlaq konsepsiyaga asoslaniladi. Tirikchilik minimumi o'rta hisobda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan qiymat tarzida va umuman O'zbekiston Respublikasi bo'yicha, uning tarkibiga kiruvchi subyektlardagi asosiy ijtimoiy-demografik guruhlar bo'yicha, shu jumladan, alohida shaharlar va ma'muriy-hududiy birlashmalar bo'yicha belgilanadi.

Tirikchilik minimumining qiymatini ilmiy asosda ishlab chiqilgan oziq-ovqat mahsulotlari tabiiy turlari o'lchamlari tashkil etadi. Oziq-ovqat mahsulotlari iste'mol me'yorlarini asoslashda turli tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olish maqsadida respublika hududi amaldagi uslubiy tavsiyalarga muvofiq bir necha zonaga ajratilgan. Zonalar taqsimotiga muvofiq, yiliga o'rta hisobda aholi jon boshiga oziq-ovqat mahsulotlari turlari ma'lum miqdorlar doirasida belgilab chiqilgan. Hududiy zonalar bo'yicha oziq-ovqat turlarining quvvat bera olishi sutkasiga 2204 kkal dan 2607 kkal gachani tashkil etadi.

Tirikchilik minimumi budjetida iste'mol me'yorlari faqat oziq-ovqat mahsulotlariga belgilangan. Tovarlar va barcha turdagi xizmatlar qiymati 31,7 foiz miqdorda belgilangan. Hozirgi vaqtda qonunchilikdagi tirikchilik minimumiga doir talablarga muvofiq, umuman, O'zbekiston Respublikasining tarkibiga kiruvchi subyektlardagi aholi asosiy ijtimoiy-demografik guruhlari uchun iste'mol savatini belgilash bo'yicha yangi uslubiy tavsiyalar loyihasi ishlab chiqilmoqda.



O'zbekiston sharoitida nisbiy qashshoqlik yashash minimumi budjetidan kam bo'lgan daromadlar miqdori bilan aniqlanadi. Jahon amaliyotida esa bu ko'rsatkich mamlakat bo'yicha o'rta daromadlarning 40–60 foizidan kam bo'lgan daromadlarga nisbatan qo'llaniladi.

Mamlakatimizda har bir mahsulot turi bo'yicha tabaqalashtirilgan me'yorlar aniqlanib, aholining eng kam (minimal) iste'mol budjeti hisoblanadi. Me'yorlar O'zbekiston aholisining to'lov qobiliyatini hamda iste'mol qilinadigan mahsulotning respublikada ishlab chiqarilishi yoki import qilinishini hisobga oladi va ular ma'lum ozuqa birligini (kilokaloriyani) ta'minlaydi.

Aholi iste'mol tovarlariga bo'lgan talabni aniqlashda tibbiy me'yorlarga asoslangan prognozlar ham amalga oshiriladi.

Uy xo'jaliklarining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabi ikki xil me'yorlar, ya'ni minimal iste'mol budjetini hisoblash me'yorlari hamda ratsional tibbiy me'yorlardan foydalangan holda hisoblanadi.

O'zbekistonda oilalarning minimal iste'mol budjetini hisoblash uchun oziq-ovqatlarga talab 42 turdagi mahsulotlarni o'z ichiga oladi. O'rtacha 5 va 7 kishidan iborat bo'lgan oila uchun bir yilga 607,5 kilogrammdan 850,5 kilogrammgacha un va un mahsulotlari, shundan 5 foizi bug'doy noni talab etiladi. Shuningdek, 5 kishidan iborat oila uchun yiliga 857 kg, 7 kishiga 1200 kg sabzavot; kartoshka esa mos ravishda 317,5 va 444,5 kg talab etiladi. Ushbu ko'rsatkichlar oila a'zolari soni oshib borishi bilan ko'payib boradi.

Mahsulotlar guruhlarining bozor bahosidagi o'rtacha qiymati o'zgarib turadi. Uslubiy jihatdan oziq-ovqat mahsulotlariga talab etiladigan xarajatlarni oilalar guruhi bo'yicha, mahsulotlar xarid qilish joylari (dehqon bozorlari, do'konlar, supermarket va boshq.) hamda qishloq oilalarida shaxsiy tomorqada ishlab

**O'zbekistonda qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish va aholining iste'mol me'yorlari bo'yicha ta'minlanganlik darajasi, 2016-yil**

Mahsulot turlari	Jami qishloq xo'jalik mahsuloti, ming. t	Aholi jon boshiga ishlab chiqarish, kg	Minimal iste'mol budjeti uchun me'yorlar, kg	Ratsional tibbiy me'yorlar, kg	Ta'minlanganlik darajasi, foiz	
					minimal iste'mol budjeti me'yorlarida	ratsional tibbiy me'yorlarda
Donli ekinlar	8261,3	259	171,2	161,3	151,3	160,6
Kartoshka	2958,4	93	63,5	63,9	146,5	145,5
Sabzavot	11275,8	354	171,5	113,3	206,4	312,4
Poliz	2044,9	64	17,5	98,6	365,7	64,9
Meva	3042,8	96	67,6	87,6	142,0	109,6
Uzum	1735,8	55	15,4	25,5	357,1	215,7
Go'sht	2172,5	68	54,6	83,9	124,5	81,0
Sut	9703,4	147	119,3	182,5	123,2	80,5
Tuxum, mln. dona	6152,5	51	205	305	24,9	16,7

chiqarilgan mahsulotlar (bozor bahosiga tenglashtirib) baholaridan foydalanib tabaqalashgan holda hisoblashni amalga oshirish mumkin.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda deyarli barcha turdagi dehqonchilik mahsulotlari bo'yicha aholi minimal iste'mol va ratsional tibbiy me'yorlardan yuqori darajada ta'minlangan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda 2016-yilda 8,3 mln. tonnaga yaqin boshoqli va dukkakli don ishlab chiqarilgan. Shuni hisobga olganda, aholi jon boshiga don ishlab chiqarish 259 kg ni tashkil etadi. Bu aholining minimal iste'mol budjetini hisoblash uchun belgilangan me'yordan (171,2) 1,5 martaga, ratsional tibbiy me'yorlardan (161,3) qariyb 1,6 martaga ko'pdir.

Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish aholi jon boshiga, minimal iste'mol budjeti me'yorlaridan go'sht bo'yicha, sut bo'yicha ancha yuqori, ammo tuxum bo'yicha kam. Tibbiy me'yorlar bo'yicha aholi talabi faqat sut bo'yicha baland, go'sht va tuxum bo'yicha mos ravishda qanoatlantirmaydi.

Aholi iste'mol ratsionini optimallashtirish maqsadida ayrim hududlarda, ayniqsa, shahar atrofida sabzavot, meva hamda sut va tuxum ishlab chiqaruvchi, ularni saqlash va sotishga ixtisoslashgan yirik agrofimlar tashkil etilmoqda.

Uy xo'jaliklari daromadining oshib borishi, oilalar turmush sifatining yuksalishi, ularning iste'mol ratsionlarida muhim sifat o'zgarishlariga olib kelmoqda va aholining ratsional tibbiy me'yorlarda belgilangan hajmda ovqatlanishiga imkon tug' ilmoqda.

#### **14.5. Iste'mol bozorini tartibga solish va rivojlantirish**

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotini barpo etish davrida iste'mol bozorini tartibga solish va rivojlantirishning tashkiliy-

huquqiy asoslari takomillashib bordi. Davlat iste'mol bozorida tartibga solishning soliq va boj vositalaridan samarali foydalanmoqda, monopolistik faoliyatlarni cheklab, raqobat munosabatlarining kuchayishiga yo'l ochib berayapti. Shuningdek, iste'molchilarning haq-huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qator qonun va boshqa me'yoriy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ularning ijrosi ustidan nazorat o'rnatilgan.

Iste'mol bozorida bozor munosabatlarini rivojlantirish, savdo sohasidagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, ulgurji savdo tizimini yanada takomillashtirish, ulgurji, chakana savdo bilan iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalar o'rtasida barqaror shartnomaviy munosabatlar uchun shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, aholiga savdo xizmati ko'rsatish sifati darajasini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 23-fevralda «Ulgurji va chakana savdoni liberallashtirish hamda uni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-aprelda «2011–2015-yillar davrida mevasabzavot mahsulotlarini saqlashning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Iste'mol bozorining barqaror rivojlanishini ta'minlash masadida 2017-yil 23-iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika aholisini ijtimoiy ahamiyatga ega oziq-ovqat tovarlarining asosiy turlari bilan ishonchli ta'minlashda o'ta kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori qabul qilindi.

Ichki iste'mol bozorini to'ldirish va aholini, birinchi navbatda, qish-bahor davrida meva-sabzavot mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash hamda uni eksportga yetkazib berishni kengaytirish bo'yicha «O'zulgurjisavdoinvest» ulgurji savdo korxonalari uyushmasi faoliyat olib bormoqda.

Xalq iste'moli tovarlarining ko'rgazma-yarmarka savdosi respublika markazi tomonidan har yili mintaqaviy sanoat yarmarkalari o'tkazib turilibdi va kooperatsion birja faoliyat olib bormoqda.

### **Qisqacha xulosalar**

1. Iste'mol bozoridagi vaziyat ishlab chiqarishning pirovard natijalarini, yakunini o'zida aks ettiradi. Iste'mol bozoridagi barqarorlik aholi turmush farovonligini oshiruvchi asosiy shart-sharoitlardan biridir.

2. Iste'mol bozori miqyosiga ko'ra xalqaro, hududiy, milliy va mahalliy bozorlarga bo'linib, bu bozor boshqa bozorlardan ko'p segmentliliği bilan ajralib turadi. Bu segmentlardan eng yiriklari oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy xo'jalik tovarlari, maishiy-ijtimoiy xizmatlar bozori hisoblanadi.

3. Iste'mol bozorida ulgurji va chakana savdo amalga oshiriladi. Aholiga keng xalq iste'moli tovarlari va xizmatlari sotiladigan iste'mol bozorida ko'proq chakana savdo amalga oshiriladi.

4. Ulgurji bozor tovar iste'molchilariga yoki uni chakana sotadigan xaridorlarga tovarlar yirik to'plari bilan ko'tarasiga sotiladigan bozor. Ulgurji savdo aylanmasi hajmi oshishi ham iste'mol bozori rivojlanayotganligini bildiradi.

5. Iste'mol bozori rivojlanishiga baho berishda bir qator ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Iste'mol bozori rivojlanishini ifodalovchi ko'rsatkichlarga iste'mol budjeti, iste'mol krediti hajmining ortishi, iste'mol bozoridagi ishtirokchilar sonining ko'payishi, iste'mol me'yorlari o'zgarishi, iste'mol savati hajmi, iste'mol fondi hajmi kabilar kiradi.

6. Iste'mol bozori rivojlanishini ifodalovchi ko'rsatkichlar mamlakat iste'mol bozori kengayayotganligini, undagi sifati va miqdoriy o'zgarishlarni ifodalaydi. Iste'mol bozori rivojlanishiga tashqi omillar ham ta'sir ko'rsatadi.

7. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotini barpo etish davrida iste'mol bozorini tartibga solish va rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari takomillashib bordi. Davlat iste'mol bozorida tartibga solishning soliq va boj vositalaridan samarali foydalanmoqda, monopolistik faoliyatlarni cheklab, raqobat munosabatlarning kuchayishiga yo'l ochib berayapti.

### **Asosiy atamalar va tushunchalar**

Iste'mol bozori, iste'mol bozori segmentlari, ulgurji savdo, chakana savdo, ulgurji savdo aylanmasi, chakana savdo aylanmasi, iste'mol budjeti, iste'mol krediti, iste'mol me'yorlari, iste'mol savati.

### **Nazorat savollari**

1. Nima uchun iste'mol bozoridagi barqarorlik aholi turmush farovonligini oshiruvchi asosiy shart-sharoitlardan biri hisoblanadi?
2. Iste'mol bozori boshqa bozorlardan ko'p segmentliliigi bilan ajralib turadi. Nima uchun? Fikringizni asoslab bering.
3. Oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy xo'jalik tovarlari, maishiy-ijtimoiy xizmatlar bozori xususiyatlarini sanab bering.
4. Ulgurji va chakana savdo turlariga misollar keltiring.
5. Iste'mol bozori rivojlanishiga baho berishda qanday ko'rsatkichlardan foydalaniladi?
6. Iste'mol budjeti, iste'mol me'yorlari va iste'mol savatining mohiyatini tushuntirib bering.
7. Iste'mol krediti iste'mol bozori rivojlanishida qanday ahamiyatga ega?
8. Iste'mol bozori rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi ichki va tashqi omillarni bilasizmi?
9. Davlat iste'mol bozoridagi munosabatlarni qanday usullar bilan tartibga soladi?
10. Iste'mol bozoridagi monopolistik faoliyatlarga misollar keltiring.

---

---

## **XV b o b**

### **XIZMATLAR SOHASI**

#### **15.1. Xizmatlar tushunchasi va xizmatlar sohasining tavsifi**

Xizmatlar sohasi milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, bozor munosabatlarining rivojlanishi ko‘p jihatdan xizmatlar sektori taraqqiyotiga bog‘liq. Xizmatlar iqtisodiyotining shakllanganligi bozor munosabatlarining qaror topganligini bildiruvchi muhim belgilardan biridir.

Ilgari xizmat ko‘rsatish ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyatining ichki tarkibiy bo‘lagi hisoblangan bo‘lsa, bugungi kunda xizmatlar sohasi mustaqil sektor sifatida iqtisodiy yuksalishga faol salmoqli hissa qo‘shmoqda. Bu mazkur sohada ishlab chiqarish kuchlarining yuqori darajada rivojlanayotganligini ham bildiradi.

Xizmatlar sohasining iqtisodiyotdagi o‘rni va roli bir tomondan, bu sektorning YaIMdagi ulushi kattaligi bilan o‘lchansa, ikkinchi tomondan, bu sohada iqtisodiy o‘sishning muhim omillari – ilmiy-innovatsion bilimlar, nomoddiy jamg‘arish, axborot texnologiyalari mujassamlashgan.

Zamonaviy jamiyatning xizmat turlari va miqyosiga bo‘lgan ehtiyojini bundan 30–40 yil avvalgi jamiyat ehtiyojlari bilan qiyoslab bo‘lmaydi. Xizmatlar turlarining ko‘pligi ilmiy-texnika taraqqiyoti, mehnat unumdorligining oshishi, bo‘sh vaqtning ko‘payishi natijasidir.

Rivojlangan davlatlarda iqtisodiyotning 70–75 foizini xizmatlar sektori tashkil etadi. Industrial iqtisodiyotga nisbatan

xizmatlar iqtisodiyoti doimo garmonik rivojlanadi. Chunki xizmatlar iqtisodiyotida moddiy ishlab chiqarish, muomala-ayirboshlash jarayoni va xizmatlar oqimi bir butunlikka aylanadi.

Xizmatlar sohasi iqtisodiyotning shunday tarmog'iki, unda ishlab chiqarilgan xizmatlar yaratilish jarayonining o'zida iste'mol qilinadi, foydali samaraga shu zahotiy oq erishiladi. Xizmatlar tovarning shunday bir shakli, unda ishlab chiqarish, taqdim etish va iste'mol qilish bir vaqtning o'zida ro'y beradi.

Xizmatlarning turli-tumanligi sababli xizmatlar tushunchasini ta'riflash, xizmatlar sohasini tavsiflash va tasniflashga turlicha yondashuvlar mavjud.

Xizmatlar – bu nomoddiy ko'rinishga ega bo'lgan, ta'minotchi tomonidan iste'molchiga ko'rsatiladigan muayyan faoliyat natijasidir. Xizmatlarni jamg'arib qo'yib bo'lmaydi, ularning doimiy o'zgarayotgan sifatini ta'minlash qiyin, shuningdek, xizmat ko'rsatuvchidan ajralgan holda u yuzaga chiqmaydi.

Ko'pincha xizmatlarni aholiga xizmat ko'rsatish bilan cheklab qo'yish hollari ham uchrab turadi. Bu xizmatlar tushunchasini tor ma'noda tushunish hisoblanadi.

Iqtisodiyot sohalarida faoliyat yuritayotgan korxonalar xizmatlarni ishlab chiqarish maqsadlarida iste'mol qiladi. Aholi esa xizmatlarni yakuniy bosqichda iste'mol qiladi.

Aholi va korxonalar xizmatlarini iste'mol qilish darajasi ortib borishi iqtisodiyotda xizmatlar sektorining roli va o'rnini kuchayayotganligini bildiradi. Xizmatlarning ahamiyati ularning aholi uchun muayyan iqtisodiy-ijtimoiy shart-sharoitlar yaratib berish imkoniyatlari o'zgarayotganligi bilan ham baholanadi.

Xizmatlar sohasini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:



1. Moddiy xizmatlar ishlab chiqarish – transport, savdo va umumiy ovqatlanish, uy-joy-kommunal, maishiy xizmatlar va boshqalar.

2. Nomoddiy xizmatlar ishlab chiqarish – boshqaruv, ta’lim, sog’liqni saqlash, fan, san’at, ijtimoiy xizmat ko’rsatish, audit, sug’urtalash, moliyaviy xizmatlar va boshqalar.

Aholiga ko’rsatiladigan xizmatlar esa o’z vazifasiga ko’ra quyidagi turlarga bo’linadi:

1. Moddiy xizmatlar.

2. Ijtimoiy-madaniy xizmatlar.

Moddiy xizmatlar iste’molchilarning moddiy-maishiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan xizmatlardir. Ularga uy-joy-kommunal xizmatlari, buyumlarni yasash va ta’mirlash ishlari, savdo va umumiy ovqatlanish xizmatlari, transport xizmatlari kiradi.

Ijtimoiy-madaniy xizmatlar nomoddiy xizmatlar hisoblanadi. Ular iste’molchining ma’naviy, intellektual ehtiyojlarini, ularning me’yordagi turmush kechirishini ta’minlashga yo’naltirilgan xizmatlar bo’lib, tibbiy xizmatlar, madaniyat, turizm va ta’lim xizmatlari shular jumlasidandir.

Postindustrial jamiyatlar xizmatlar ustun rivojlangan jamiyatlar hisoblanadi. Bu sohada iqtisodiyotda band aholining 65–75 foizi mehnat qiladi. Bu mamlakatlarda xizmatlar sektori quyidagicha tasniflanadi: umumiy ovqatlanish, moliyaviy xizmatlar, axborot xizmatlari (AT-konsalting), uy-joy-kommunal xizmatlari, maishiy xizmatlar, ijara xizmatlari, turizm xizmatlari, yuridik xizmatlar, mehmonxona xizmatlari, qo’riqlash xizmatlari, tarjima xizmatlari, savdo xizmatlari, transport xizmatlari, ko’ngilochar xizmatlar, tibbiy xizmatlar, muhandislik-qurilish xizmatlari, sataroshxona xizmatlari, transportlarga texnik xizmat ko’rsatish xizmatlari ta’lim xizmatlari, raqamli

va maishiy texnikaga xizmat ko'rsatish, obodonlashtirish xizmatlari va boshqalar.

Boshqa bir tasnifga ko'ra, xizmatlar sektoriga quyidagilar kiritiladi:

- savdo (ulgurji va chakana);
- ovqatlanish va istiqomat qilishni ta'minlash xizmatlari (mehmonxona, restoran, oshxona va boshqalar);
- transport xizmatlari;
- aloqa va axborot sohasida xizmat ko'rsatish;
- moddiy-texnika resurslari ta'minoti, ularni tayyorlash va saqlash xizmatlari;
- bozorning amal qilishini ta'minlaydigan kredit, moliya va sug'urta, ko'chmas mulk operatsiyalari va boshqa xizmatlar;
- ta'lim, madaniyat va san'at;
- fan va ilmiy xizmatlar;
- sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport;
- uy-joy xo'jaligiga ko'rsatiladigan xizmatlar (uy-joy xo'jaligini saqlash va ta'mirlash, maishiy va kommunal xizmatlar);
- kishilarning o'ziga ko'rsatiladigan shaxsiy xarakterdagi xizmatlar (nomoddiy maishiy xizmatlar, sartaoshxona, atelye, fotoatelye, poyabzal tozalash va boshqalar);
- davlat boshqaruvi xizmatlari.

Xizmatlar sohasi rivojlanishining muhim bir obyektiv asosi shuki, ular eng kam xarajatlar evaziga amalga oshiriladi va sarf-xarajatlar qisqa vaqtda o'zini qoplaydi.

Quyidagilar xizmatlar sohasi tez rivojlanishining obyektiv shart-sharoitlari hisoblanadi:

1. Yuqori daromadlilik va likvidlilik; xizmatlar ularni ishlab chiqarish jarayonining o'zida iste'mol qilinadi.
2. Xizmatlarda material sig'imining nisbatan kamligi.
3. Ko'rsatilgan xizmatlarga qisqa vaqtda haq olinishi va haq to'lanishi.

O'zbekistonda xizmatlar sohasi 13 ta asosiy turga ajratilgan: aloqa va axborotlashtirish, kompyuterli dasturlash xizmati, moliyaviy (bank, sug'urta va moliyaviy lizing xizmatlari), transport, qurilish, texnologik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi texnikalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish, savdo va ovqatlanish xizmatlari, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlari, turistik, maishiy va boshqa xizmatlar.

Aholiga pulli xizmat ko'rsatish statistikasida xizmatlarning quyidagi asosiy turlari ajratib ko'rsatilgan:

- maishiy xizmat;
- transport xizmatlari;
- aloqa xizmatlari;
- uy-joy kommunal xizmatlari;
- xalq ta'limi sohasi xizmatlari;
- madaniyat xizmatlari;
- ekskursiya va sayohatlar;
- jismoniy tarbiya va sport;
- sog'liqni saqlash xizmatlari;
- sanatoriya-kurort va sog'lomlashtirish;
- huquqiy xarakterdagi va bank muassasalari xizmati;
- boshqa xizmatlar.

Mamlakatimizda bozor munosabatlari sharoitida xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi firmalar, tadbirkorlar va tashkilotlar soni tez ko'payib bordi. Bu xizmatlar bozorida raqobat muhitini yaratib, xizmatlar sifatiga bo'lgan talabni ham kuchaytirdi. Hozirgi kunda marketing va reklama, muhandislik-qurilish xizmatlari, sug'urta, lizing operatsiyalari, buxgalteriya va auditorlik xizmatlari tez ommalashib borayapti. Yuridik, buxgalteriya, psixologik, ta'lim, axborot-texnologiyalari xizmatlarining ahamiyati ham ortmoqda.

## 15.2. O‘zbekistonda xizmatlar sohasining rivojlanish ko‘rsatkichlari

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning muhim manbai va omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu soha yalpi ichki mahsulotni shakllantirish va o‘stirish, aholi bandligini ta‘minlash, odamlarning farovonligini oshirishda yetakchi o‘rin egallamoqda.

O‘zbekistonda xizmatlar sohasining rivojlanishi, asosan, uchta bosqichdan o‘tdi.

Birinchi bosqichda, 1991–2000-yillarda, o‘tish davrining muhim dolzarb muammolari hal etilayotgan bir davrda, YaIMda xizmatlar sektorining ulushi 33,8 foizdan 37 foizga ko‘paydi.

Xizmatlarning tarkibida ham o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. An’anaviy xizmat turlari – transport, savdo, maishiy va kommunal xizmatlarning ulushi kamayib, bozor xizmatlarining ulushi ortdi. Bu davrda savdo xizmatlari o‘zining taqsimotchi funksiyasini kamaytirdi va bozor munosabatlarining iste‘molchiga yo‘nalgan tarkibiy qismiga aylandi.

Shu yillarda daromadlar, did va tanlovning o‘zgarishiga mos ravishda xizmatlar sifati tez o‘sib bordi. Supermarketlar, mini va gipermarketlar, savdo va savdo-ko‘ngilochar markazlari paydo bo‘ldi. Yangi texnologiyalar asosida telekommunikatsiya, biznes va tadbirkorlik ishlari, kasb-malaka sohalari, moliyaviy xizmatlar ko‘rsatila boshlandi. Tibbiyot, ta‘lim, transport sohalarida ularni qo‘llash imkoniyatlari ortdi. Muzey, kutubxona va san‘at sohalarida ham ulardan samarali foydalanishga kirishildi. Bularning barchasi aholi turmush darajasi va sifati yuksalishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi.

Ikkinchi bosqichda, 2001–2010-yillarda, xizmatlar sohasini isloh qilish va modernizatsiya qilish faollashdi. Bu davrda xizmatlarning YaIMdagi ulushi 37 foizdan 46,9 foizga chiqdi.

Xizmatlar sohasi rivojlanishi va aholining daromadlari hamda turmush darajasi o'zgarishi o'rtasidagi to'g'ridan to'g'ri bog'liqlik kuchaydi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi esa xizmatlar bozori segmentlari ko'payishiga olib keldi.

Xalqaro aeroportlar, temiryo'llar, avtomagistrallarning modernizatsiya qilinishi esa turizm xizmatlarining tarixiy, ekologik, tanishuv, ilmiy, biznes-turizm turlari rivojlanishiga turtki bo'ldi.

Uchinchi bosqich 2010-yildan keyingi davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda xizmatlar sohasini rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatida ustuvor ahamiyat kasb eta boshladi, xizmatlarning zamonaviy turlarini jadal rivojlantirishga e'tibor yanada kuchaydi. Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish Dasturi amalga oshirilmoqda, qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish bo'yicha keng miqyosda chora-tadbirlar ko'rilmogda. Natijada 2010–2016-yillarda xizmatlarning yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi 46,9 foizdan 49,5 foizga oshdi.

Bu davrda yuqori texnologiyalarga asoslangan xizmatlar orasida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari boshqa sohalarga nisbatan jadal rivojlandi. Ushbu xizmatlar hajmi 2010–2016-yillarda 4,6 barobar ko'paydi, birgina 2016-yilda esa 11,7 foizga o'sdi.

Mobil aloqa, yuqori tezlikda ishlaydigan Internet, kabelli televizion aloqa, masofaviy bank xizmatlari, qishloq xo'jaligi texnikasi, avtomobillar va texnologik uskunalarni ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatish turlari tez rivojlanib borayapti.

**O‘zbekistonda xizmatlar sohasi rivojlanishini  
ifodalovchi ko‘rsatkichlar**

	<b>2010</b>	<b>2015</b>	<b>2016</b>
Yalpi ichki mahsulotda xizmatlar sektorining ulushi, %	46,9	48,7	49,5
Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m	32749,8	75356,8	92536
Xizmatlar hajmining o‘shish sur‘ati, o‘tgan yilga nisbatan, %	116,1	114,0	114,5
Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi, ming so‘m	911,7	2407,6	2905,6
Bandlikda xizmatlar sektorining ulushi, %	50,9	49,8	50,0
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarda xizmatlar sektorining ulushi, %	62,3	54,1	57,4
Asosiy kapitalga kiritilgan chet el investitsiyalarida xizmatlar sektorining ulushi, %	75,5	25,8	24,6

Jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, O‘zbekistonda 2016-yilda 92,5 trln. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatilgan bo‘lib, o‘shish sur‘ati 114,5 foizni tashkil etgan. Xizmatlar sohasi ish bilan band etishda ham muhim o‘rin tutadi. Iqtisodiyotda band bo‘lganlarning yarmi ushbu sohada faoliyat ko‘rsatmoqda.

2016-yilda xizmatlar sektoriga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmi jami investitsiyalarning 57,4 foizini, chet el investitsiyalarining 24,6 foizini tashkil etdi. Ko‘rinib turibdiki, xizmatlar sektori mamlakat iqtisodiy faoliyatining qariyb yarmini qamrab olgan.

2016-yilda respublikada xizmatlar sohasida 16,5 mingdan ortiq yirik tashkilotlar (bozor xizmatlarini ko‘rsatuvchi notijorat tashkilotlarini qo‘shgan holda) va 126 mingdan ortiq kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyat ko‘rsatdi.

Xizmatlar sohasida aholiga pulli xizmat ko'rsatish alohida o'rin tutadi. 2016-yilda aholiga pulli xizmatlar hajmi 33174,5 mlrd. so'mni, uning o'sish sur'ati 2015-yilga nisbatan 109,3 foizni tashkil etdi. Aholiga pulli xizmatlar ko'rsatishning asosiy qismi rasmiy sektor tomonidan amalga oshirilib, umumiy hajmning 60,7 foizini tashkil etdi.

**2016-yilda xo'jalik yurituvchi subyektlarning mulkchilik shakllari bo'yicha aholiga ko'rsatgan xizmatlar hajmi**

	Mlrd. so'm	Umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida
Jami	92536,0	100
Davlat mulki	13787,9	14,9
Nodavlat mulki	77747,1	83,2

2016-yilda 2015-yilga nisbatan sog'liqni saqlash xizmatlari 22,2 foizga, yashash va ovqatlanish xizmatlari 21,1 foizga, savdo xizmatlari 20,5 foizga, moliyaviy xizmatlar 19,8 foizga, ijara xizmatlari 17,6 foizga, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar 17,5 foizga, kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar 15,6 foizga, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar 15,3 foizga o'sdi.

Xizmatlar tarkibida 2016-yilda savdo va umumiy ovqatlanish xizmatlari 29,6 foizni, transport xizmatlari (logistika xizmatlari bilan birga) 28,2 foizni, moliyaviy xizmatlar 10,4 foizni, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 6,8 foizni tashkil etdi. Yuqori texnologiyali xizmatlarning rivojlanishi an'anaviy xizmatlarga nisbatan tezroq bo'lishiga erishish uchun chora-tadbirlar ko'rilmoqda.

**2016-yilda bozor xizmatlari ishlab chiqarishning faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**

	<b>Млрд. сўм</b>	<b>О'тган yilga nis- batan, %</b>	<b>Umumiy hajmga nis- batan, %</b>
Jami xizmatlar	92536,0	114,9	100
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	6306,8	114,6	6,8
Moliyaviy xizmatlar	9898,4	119,8	10,4
Transport xizmatlari	26103,7	106,0	28,2
Shu jumladan avtotransport xizmatlari	14701,4	116,7	15,9
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	3038,7	121,1	3,3
Savdo xizmatlari	27368,2	120,5	29,6
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	3405,1	117,5	3,7
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	3263,0	107,8	3,5
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1416,3	122,2	1,5
Ijara xizmatlari	2270,1	117,6	2,5
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	2187,9	115,6	2,4
Shaxsiy xizmatlar	2915,5	113,8	3,1
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	1132,6	115,3	1,2
Boshqa xizmatlar	3229,7	114,9	3,5

2016-yilda bozor xizmatlari ko'rsatish hajmi 14,9 foizga o'sdi. Har yili yaratilayotgan yangi ish o'rinlarining, avvalambor, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari uchun tashkil etilayotgan ish o'rinlarining uchdan bir qismidan ko'prog'i aynan mazkur soha hissasiga to'g'ri kelmoqda.



O‘zbekistonda Internet xizmatidan foydalanuvchilar soni 2016-yil 1-iyul holatiga ko‘ra, 15,4 million kishidan oshdi. Respublikamizda Internetning o‘tkazuvchanlik darajasi 4 barobar oshirildi, Internetga ulanish tezligi esa 1,5 marta ortdi.

2016-yilda 500 dan ortiq yangi bazaviy mobil aloqa stansiyalari o‘rnatildi, mobil aloqa xizmatidan foydalanuvchilar soni qariyb 23 million kishini tashkil etmoqda. 2016-yilning o‘zida abonentlarga ko‘rsatilayotgan xizmatlar hajmi qariyb 15,4 foizga ko‘paydi.

Bozor xizmatlari, ayniqsa, transport sohasida yuqori darajada konsentratsiyalashmoqda. Mazkur sohada 2017-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra jami 10,9 mingtadan ko‘proq korxonalar faoliyat ko‘rsatmoqda, Bu jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarining 4,1 foizini tashkil etadi.

O‘zbekiston xizmatlar bozorida sug‘urta, lizing, konsalting xizmatlari segmentining roli kuchaymoqda. Bugungi kunda sug‘urta bozorida 33 ta sug‘urta kompaniyasi va ularning 890 ta hududiy bo‘limlari faoliyat yuritmoqda. 1250 ta sug‘urta agentlari – yuridik shaxslar va 5659 ta jismoniy shaxslar sug‘urta bozori ishtirokchilari hisoblanadi. 2000–2016-yillarda lizing xizmatlari ko‘rsatuvchi kompaniyalar soni 12 tadan 86 taga yetdi, ularning yillik operatsiyalari hajmi esa 14 baravarga ko‘paydi.

### **15.3. Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish siyosati**

Barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlashda xizmatlar sohasining ahamiyati yuqori baholanadi. Shu sababli xizmatlar sohasida iqtisodiy o‘zlashning muhim shart-sharoitlari yaxshilanayapti va omillaridan samarali foydalanishga harakat qilinmoqda.

Mustaqillik yillarida xizmatlar sohasining rivojlanishiga davlat tomonidan ustuvor ahamiyat berib kelindi. Soha korxonalar va muassasalari keng miqyosda xususiylashtirildi, bozor islohotlari amalga oshirildi, bu sohada raqobat munosabatlarining rivojlanishi rag‘batlantirildi. Natijada ilg‘or va zamonaviy xizmat turlari ko‘paydi.

Xizmatlar sohasining tashkiliy-institutsional, tashkiliy-huquqiy asoslari takomillashtirilmoqda. Qonunlar va boshqa me‘yoriy hujjatlar qabul qilinmoqda, kompleks dasturlar ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda. Xususan, 1999-yilda «Turizm to‘g‘risida»gi Qonunning qabul qilinishi va sohada islohotlar chuqurlashishi bilan turistik xizmatlar sohasi jadal rivojlana boshladi. Ayniqsa, mehmonxona biznesi yuqori sur‘atlarda rivojlanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 28-avgustdagi «Lizing faoliyatini rivojlantirishni yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori bilan lizing xizmatlari sohasini taraqqiy ettirish jadallashdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 17-aprel va 2007-yil 21-maydagi qarorlari bilan «2006–2010-yillarda xizmatlar sohasi va servisni rivojlantirish dasturi» qabul qilindi. Dasturni bajarish jarayonida xizmatlar sifati oshdi va tarkibiy tuzilishi o‘zgardi. Internet, videotelefoniya, raqamli televideniye, zamonaviy bank xizmatlari, lizing, sug‘urta, audit, injiniring kabi xizmat turlari ommalashdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-mayda «2012–2016-yillarda O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida»gi Qarori, 2013-yil 17-aprelda «2013–2016-yillarda qishloq joylarda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarori qabul qilindi.

Bu qarorlarda qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal va muvozanatlashgan tarzda rivojlantirish, qishloq aholisining zamonaviy yuqori texnologik va bozor xizmat turlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, buning asosida yangi ish joylarini yaratish va aholi daromadlari oshirilishini ta'minlash vazifalari belgilandi.

2013–2016-yillarda O'zbekiston Respublikasining qishloq joylarida xizmat ko'rsatish va servis sohasini yanada jadal rivojlantirish dasturi, shuningdek, shu yillarda qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirishning asosiy xizmat turlari va hududlar bo'yicha maqsadli parametrlari tasdiqlangan. 2013–2016-yillarda qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini yanada rivojlantirish va o'sish ko'lamini kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksi amalga oshirilmoqda.

2013-yilda 2013–2020-yillarda O'zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish kompleks dasturi qabul qilindi. Ushbu dastur doirasida 2014-yilda O'zbekistonda barcha avtomat telefon stansiyalari raqamli tizimga o'tkazildi. Natijada xalqaro axborot tarmoqlaridan foydalanish tezligi sezilarli darajada oshdi.

O'zbekistonning chekka hududlarida yashayotgan aholining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlaridan foydalanish imkoniyati kengayib bormoqda. Jumladan, 2016-yilda Qo'ng'iro't, Boysun, Uzun, Mo'ynoq kabi chekka tumanlarda 2 ming kilometrdan ziyod optik tolali aloqa tarmoqlari barpo etildi.

Kommunikatsiya sohasidagi korxonalariga texnik xizmat ko'rsatish, kompyuter va abonent terminallarini ta'mirlash, interaktiv televideniye, videotelefoniya, pochta aloqa obyektlaridagi kompyuter texnikasi, mobil telefonlarni ta'mirlash,

«PAYNET» tizimi orqali mobil operatorlar xizmatlari uchun to'lovlarni qabul qilish, elektron pul o'tkazmalari xizmatlari jadal rivojlantirilmoqda.

Xizmatlar sohasini rivojlantirishda soliq imtiyozlari joriy etildi. Lizing, sug'urta, auditorlik xizmatlari, buxgalteriya hisobini yuritish, mikrokreditlash, soliq konsultatsiyalari bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to'lovidan ozod etilgan.

Soliq imtiyozlari teri mahsulotlari va poyabzallarni ta'mirlash, soatlarni ta'mirlash, maishiy elektron va elektr uskunalarini ta'mirlash bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar ham joriy etilgan.

Bugungi kunda sanatoriyalar, bolalar sog'lig'ini tiklash muassasalari, bolalarning sport muassasalari va seksiyalari, shuningdek, bolalar, keksalar va nogiron uchun ijtimoiy xizmatlar, va axborot-resurs markazlari, axborot-kutubxona markazlari, elektron ta'lim kabi xizmatlar ham soliq imtiyozlariga ega.

## **Qisqacha xulosalar**

1. Xizmatlar sohasi milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, sohaning iqtisodiyotdagi o'rni va roli bir tomondan, bu sektorning YaIMdagi ulushi kattaligi bilan o'lichansa, ikkinchi tomondan, bu sohada iqtisodiy o'sishning muhim omillari – ilmiy-innovatsion bilimlar, nomoddiy jamg'arish, axborot texnologiyalari mujassamlashgan.

2. Xizmatlar yaratilish jarayonining o'zida iste'mol qilinadi, foydali samaraga shu zahotiy oq erishiladi. Xizmatlarni jamg'arib qo'yib bo'lmaydi, ularning doimiy o'zgarmaydigan sifatini ta'minlash qiyin, shuningdek, xizmat ko'rsatuvchidan ajralgan holda u yuzaga chiqmaydi.

3. Postindustrial davlatlar xizmatlar ustun rivojlangan jamiyatlar hisoblanadi. Bu davlatlarda iqtisodiyotda band aholining 65–75 foizi xizmatlar sektorida mehnat qiladi. Yalpi ichki mahsulotning 70–75 foizi mazkur sohada yaratiladi.

4. O‘zbekistonda xizmatlar sektori mamlakat iqtisodiy faoliyatining qariyb yarmini qamrab olmoqda. 2000–2016-yillarda xizmatlarning YaIMdagi ulushi 46,9 foizdan 49 foizga chiqdi. Xizmatlar sohasining rivojlanishi va aholi daromadlari hamda turmush darajasining o‘zgarishi o‘rtasidagi to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liqlik kuchaydi.

5. Yuqori texnologiyalarga asoslangan xizmatlar – mobil aloqa, yuqori tezlikda ishlaydigan Internet, kabelli televizion aloqa, masofaviy bank xizmatlari, qishloq xo‘jaligi texnikasi, avtomobillar va texnologik uskunalarni ta‘mirlash va ularga xizmat ko‘rsatish turlari jadal rivojlanayapti. O‘zbekiston xizmatlar bozorida sug‘urta, lizing, konsalting xizmatlari segmentining roli kuchaymoqda.

6. Mustaqillik yillarida xizmatlar sohasining rivojlanishiga davlat tomonidan ustuvor ahamiyat berib kelindi. Xizmatlar sohasining tashkiliy-institutsional, tashkiliy-huquqiy asoslari takomillashtirilmogda. Qonunlar va boshqa me‘yoriy hujjatlar qabul qilinmogda, kompleks dasturlar ishlab chiqilib, amalga oshirilmogda.

7. Xizmatlar sohasini isloh qilish va modernizatsiya qilish faollashib bormogda. Istiqbolda xizmatlar sohasining solishtirma og‘irligi YaIMGa nisbatan yanada ortib boradi. Zamonaviy yuqori texnologik hamda bozor xizmatlari bo‘lgan axborot-kommunikatsiya, bank, sug‘urta, lizing, turizm-sayohat xizmatlariga ustun darajada e‘tibor qaratiladi.

## **Asosiy atamalar va tushunchalar**

Xizmatlar, xizmatlarning tasnifi, xizmatlar sohasi, xizmatlar sektori, xizmatlar iqtisodiyoti, servis xizmati, ijtimoiy xizmatlar, zamonaviy xizmatlar, yuqori texnologiyalarga asoslangan xizmatlar, masofaviy bank xizmatlari, sug'urta, lizing, xizmatlar sohasini isloh qilish, xizmatlar sohasini rivojlantirish, xizmatlar sohasini modernizatsiya qilish.

### **Nazorat savollari**

1. Nima uchun xizmatlar sohasi milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi va unga yuqori baho beriladi?

2. Xizmatlar sohasining iqtisodiyotdagi o'rnini va rolini qaysi ko'rsatkichlar orqali ifodalash mumkin?

3. Xizmatlarni tavsiflovchi asosiy xususiyatlarni ko'rsating.

4. Nomoddiy jamg'arish nima, bu tushunchaning xizmatlarga qanday aloqasi bor?

5. O'zbekistonda xizmatlar sektori rivojlanishini qanday baholaysiz?

6. Yuqori texnologiyalarga asoslangan zamonaviy xizmatlarni nima uchun tezroq rivojlantirish lozim? Fikringizni raqamlar bilan asoslang.

7. O'zbekiston xizmatlar bozorida qaysi segmentlarning roli kuchaymoqda? Nima uchun?

8. Xizmatlar sohasining rivojlanishiga davlat tomonidan qanday shart-sharoitlar yaratib berilmoqda?

---

---

## XVI b o b

### INVESTITSIYALAR

#### 16.1. Investitsiyalarning mohiyati va tasniflanishi

Kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta'minlashning muhim omillaridan biri – asosiy kapitalning eskirgan qismini yangisi bilan almashtirish, ularni modernizatsiyalash va texnik jihatdan qayta qurollantirish, yangi ishlab chiqarish vositalarini ishga tushirish, ishlab chiqarishga yangi boshqaruv usullarini joriy etish hisoblanadi. Buning uchun investitsiyalar talab etiladi. Investitsiya faoliyatining uzluksiz va samarali rivojlanishi milliy iqtisodiyot barqaror faoliyat ko'rsatishining zaruriy sharti hisoblanadi. Investitsiyalardan foydalanish miqyosi, tarkibi va samaradorligi ko'p jihatdan milliy xo'jalikning holati, istiqboli va raqobatbardoshligini belgilab beradi.

Investitsiya jarayoni tabiatini o'rganish uchun «investitsiya» atamasining mohiyatini tushunib olish lozim. U lotin tilidagi «*Invest*» so'zidan kelib chiqib, «mablag' kiritish», «mablag'larni joylashtirish» ma'nosini bildiradi. Milliy iqtisodiyotning real sektorida investitsiya faolligini kuchaytirish sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, qurilish va boshqa o'zak tarmoqlarning ishlab chiqarish salohiyatini yangilashda muhim rol o'ynaydi.

Investitsiyalar – foyda (daromad) olish va ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik obyektlari va boshqa faoliyat turlariga kiritiladigan pul mablag'lari, maqsadli bank qo'yimalari, aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar, texno-

logiyalar, mashinalar, uskunarlar, litsenziyalar, shu jumladan tovar belgisi, kreditlar, boshqa har qanday mulk yoki mulkiy huquq, intellektual boyliklardir.

Iqtisodiy kategoriya sifatida investitsiyalar, birinchidan, dastlab avans sifatida kiritilgan qiymatning qo‘shimcha o‘shini ta‘minlash maqsadida tadbirkorlik faoliyatiga kapital kiritishni, ikkinchidan, turli loyihalarni amalga oshirish jarayonida investitsiya faoliyati qatnashchilari o‘rtasida yuzaga keladigan pul munosabatlarini ifodalaydi.

Investitsiyalarga xos bo‘lgan belgilar quyidagilardan iborat:

– investitsiyalar potensial daromad keltirish qobiliyatiga ega;

– investitsiyalash jarayoni xo‘jalik yurituvchi subyektlar jamg‘armalarining boshqa muqobil aktivlarga aylanishi bilan bog‘liq;

– investitsiyalash jarayonida moliyaviy resurslarning turli ko‘rinishlaridan foydalaniladi va bu moliyaviy resurslar bir-biridan talab, taklif va ularni jalb etish narxlari bo‘yicha farq qiladi;

– kapitalni aktivlarning turli ko‘rinishlariga kiritish maqsadli va muddatli xarakterga ega bo‘ladi;

– kapital kiritish muayyan darajada tavakkalchilik bilan bog‘liq va h.k.

Tadbirkorlik obyektlari yoki boshqa faoliyat turlariga kiritiladigan investitsiyalar pul va moddiy-buyum shaklida amalga oshirilishi mumkin. Investitsiyalarni hisobga olish, tahlil qilish, rejalashtirish hamda nazorat qilish uchun ular turli belgilariga ko‘ra tasniflashtiriladi. Xususan, mablag‘larni kiritish obyektiga ko‘ra investitsiyalar ikki turga ajratiladi: moliyaviy va real investitsiyalar.

Moliyaviy investitsiyalar – mablag‘larni moliyaviy aktivlarga kiritishdir. Ular aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qim-



matli qog‘ozlarga mablag‘ kiritishni o‘zida mujassam etadi. Moliyaviy investitsiyalarning shakllanishi alohida sektorlar va institutsional birliklar o‘rtasida moliyaviy mablag‘larning qayta taqsimlanishi va shundan kelib chiqqan holda ular o‘rtasida o‘zaro talablar va majburiyatlarning vujudga kelishi bilan bog‘liq. Moliyaviy investitsiyalarning maqsadli ishlatilishi aniq bir yo‘nalishga ega emas. Ular kapital qo‘yimalarning qo‘shimcha manbai ham, qimmatli qog‘ozlar bozorida birja o‘yinlarining predmeti ham bo‘lishi mumkin.

Uzoq muddatli moliyaviy qo‘yimalar shaklidagi investitsiyalar deganda davlat qimmatli qog‘ozlari (obligatsiyalar va boshqa qarz majburiyatlari), boshqa korxonalarining qimmatli qog‘ozlari va Nizom kapitaliga kiritilgan mablag‘lar, shuningdek, mamlakat ichkarisida va xorijda korxonalariga taqdim etilgan qarz mablag‘lari tushuniladi.

Real investitsiyalar deganda barcha turdagi moddiy va nomoddiy aktivlarni sotib olishga kiritilgan mablag‘lar tushuniladi. Moddiy investitsiyalar asosiy kapital elementlarini barpo etish va sotib olishga sarflanadi. Odatda, ular investitsiya loyihasi doirasida amalga oshiriladi.

Nomoddiy investitsiyalar nomoddiy ne‘matlar yaratish bilan bog‘liq bo‘lib, unda kapital mablag‘lar kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari (ITTKI), yangi mahsulotlarning sanoat namunasini yaratishga kiritiladi. Ko‘pincha, ITTKIni o‘tkazish bilan bog‘liq nomoddiy aktivlarga kiritilgan investitsiyalar innovatsion investitsiyalarning mustaqil guruhi sifatida ajratiladi. Kadrlarning bilim darajasini oshirish uchun amalga oshirilayotgan barcha kapital qo‘yimalar esa intellektual investitsiyalar guruhiga kiritiladi.

Investitsiyalash jarayonida ishtirok etish xarakteriga ko‘ra investitsiyalar bevosita va bilvosita investitsiyalarga bo‘linadi.

Bevosita investitsiyalarda investor investitsiyalash obyektini tanlash va mablag‘lar kiritishda bevosita ishtirok etadi. Ularni odatda investitsiya obyekti to‘g‘risida aniq ma‘lumotga ega, investitsiyalash mexanizmi bilan yaqindan tanish, shuningdek, bu sohada katta tajribaga ega bo‘lgan maxsus tayyorgarlikka ega investorlar amalga oshiradilar. Bilvosita investitsiyalar investitsion yoki boshqa moliyaviy vositachilar orqali amalga oshiriladi. Ular bo‘sh mablag‘larni to‘playdilar va investorlar manfaatlarini hisobga olib, mablag‘lardan samarali foydalanishni ta‘minlaydilar. Ko‘p hollarda bilvosita investitsiyalar anderrayting shaklida amalga oshiriladi.

Anderrayting – moliyaviy vositachi tomonidan yangi emission qimmatli qog‘ozlarning keyinchalik kichik partiyalar bilan investorlarga sotish maqsadida sotib olinishidir.

Investitsiyalash muddatiga ko‘ra investitsiyalar qisqa muddatli va uzoq muddatli investitsiyalarga bo‘linadi.

Qisqa muddatli investitsiyalar bir yildan ortiq bo‘lmagan muddatga kapital kiritishdir. Masalan, qisqa muddatli depozit qo‘yilmalari, qisqa muddatli jamg‘arma sertifikatlarini sotib olish va h.k. Uzoq muddatli investitsiyalar uzoq muddatli foydalanish ko‘zda tutilgan aktivlarni barpo etish, ularni kengaytirish va sotib olishga sarflangan kapital mablag‘lardir.

Mulk shakliga ko‘ra investitsiyalar quyidagi turlarga bo‘linadi: xususiy, davlat, xorijiy va qo‘shma investitsiyalar.

Xususiy investitsiyalar fuqarolar hamda mulkchilikning nodavlat xo‘jalik yuritish subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan investitsiyalardir. Davlat investitsiyalari – markaziy, mintaqaviy hamda mahalliy hukumat va boshqaruv organlarining budjet, budjetdan tashqari fondlar hamda qarz mablag‘lari hisobiga, shuningdek, davlat korxonalarining o‘z va qarz mablag‘lari hisobiga amalga oshiradigan qo‘yilmalaridir.

Xorijiy investitsiyalar daromad olish maqsadida tadbirkorlik va boshqa faoliyat turlariga xorijiy investorlar tomonidan kiritiladigan barcha turdagi mulkiy va intellektual boyliklar majmuasi bo'lib, xorijiy yuridik va jismoniy shaxslar, davlatlar va xalqaro tashkilotlar, xorijiy investorlar sifatida qatnashishi mumkin. Xorijiy investitsiyalarning to'g'ridan to'g'ri, portfel va boshqa turlari mavjud.

To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar xalqaro investitsiya faoliyatining muhim toifasi bo'lib, bir mamlakat xo'jalik yuritish birligining boshqa mamlakatdagi korxonaga barqaror ta'sir o'tkazishga intilishini o'zida aks ettiradi. Barqaror ta'sir o'tkazish deganda bevosita investor va mahalliy korxonalar o'rtasida uzoq muddatli munosabatlar o'rnatish, shuningdek, ushbu korxonani boshqarishda investorning sezilarli roli tushuniladi.

To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar Nizom kapitaliga badal, kreditlar va boshqa shakllarda amalga oshirilishi mumkin. To'g'ridan to'g'ri investitsiyalash korxonasi korporativ va nokorporativ birlik sifatida aniqlanadi. Unda investorga kamida 10 foiz oddiy aksiya yoki aksionerlar ovozi (korporativ korxonalar uchun), yoki shunday ishtirokning ekvivalenti (nokorporativ korxonalar uchun) tegishli bo'ladi.

Portfel xorijiy investitsiyalar deganda investitsiyalarning aksiyalar, boshqa qimmatli qog'ozlarga kiritilishi tushuniladi. Qimmatli qog'ozlar jumlasiga aksiyalardan tashqari obligatsiyalar, bonlar, veksellar, depozit sertifikatlar, bank akseptlari va qarz yozilmalari kiradi.

To'g'ridan to'g'ri va portfel investitsiyalarni bir-biridan ajratish uchun amaliyotda quyidagi mezondan foydalaniladi: agar investor 10 va undan ortiq foiz oddiy aksiyalarga ega bo'lsa, bunday investitsiyalar to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar hisoblanadi.

Boshqa xorijiy investitsiyalarga to‘g‘ridan to‘g‘ri va portfel investitsiyalar jumlasiga kirmaydigan investitsiya turlari kiradi. Masalan, savdo kreditlari, shuningdek, xalqaro moliyaviy tashkilotlardan olinadigan kreditlar, bank qo‘yilmalari va boshqalar.

Mintaqaviy belgisiga ko‘ra investitsiyalar mamlakat ichkarisidagi va xorijdagi investitsiyalarga bo‘linadi.

Mamlakat ichkarisidagi (ichki) investitsiyalar deganda mamlakat hududida joylashgan obyektlarga investitsiya mablag‘larining kiritilishi tushunilsa, xorijdagi investitsiyalar (tashqi) mamlakat hududidan tashqarida joylashgan obyektlarga investitsiyalarni joylashtirishni o‘zida ifoda etadi.

Yuqorida keltirilgan tasniflashtirish investitsiyalarning eng muhim belgilarini o‘zida aks ettirib, zaruriyat tug‘ilganda yanada aniqlashtirilishi va ilmiy tadqiqot, tadbirkorlik maqsadlaridan kelib chiqqan holda yanada kengaytirilishi mumkin.

## **16.2. O‘zbekistonda investitsiya faoliyatining me‘yoriy-huquqiy asoslari**

Fan-texnika taraqqiyotining jadallashuvi natijasida globalashuv jarayonlari chuqurlashib borayotgan bugungi kunda jahonda investitsiyalar uchun raqobat keskinlashmoqda. Bunday sharoitda har qanday mamlakat investitsiyalarni jalb etish orqali o‘z iqtisodiyotini rivojlantirishga, ishlab chiqarishning moddiy-texnika bazasini modernizatsiya qilish va yangilashga, yangi ishlab chiqarish turlarini yo‘lga qo‘yishga harakat qiladi. Bu esa investitsiyalar jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar barpo etishni taqozo etib, unga maqsadga muvofiq investitsiya siyosatini amalga oshirish orqali erishiladi.

Shu munosabat bilan mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab O‘zbekiston hukumati investitsiyalar jalb etish uchun qulay muhit barpo etishga, uning me‘yoriy-huquqiy asoslarini

yaratish va takomillashtirib borishga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Xususan, islohotlar yillarida investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi 50 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. «Konsessiyalar to'g'risida»gi, «Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida»gi, «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi, «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi, «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi, «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi qonunlar ana shular jumlasidandir.

Qabul qilingan va amalda bo'lgan qonunlar hamda me'yoriy hujjatlar iqtisodiy faoliyat erkinligini ta'minlash, xususiy mulkni himoya qilish, iqtisodiy faoliyat subyektlariga davlat organlarining aralashuvini cheklashga qaratilgan. Ayniqsa, xoriijiy investorlarga qator kafolatlar tizimi taqdim etilgan bo'lib, ular milliy, diniy va hududiy belgilar bo'yicha cheklashlarning mavjud emasligida, o'z mablag'laridan erkin foydalanishlari uchun shart-sharoitlarning barpo etilganligida, investorlar faoliyatiga tegishli axborotlardan erkin foydalanish imkoniyatlarining mavjudligida va boshqalarda o'z aksini topmoqda.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatining o'ziga xos xususiyati mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlashni ta'minlaydigan, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarish turlarini tashkil etishga qaratilgan investitsiya loyihalariga ustuvorlik berilayotganida namoyon bo'lmoqda. Shu maqsadda respublika investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarni amalga oshirishda qatnashayotgan korxonalarining yetti yil davomida foydadan olinadigan soliqdan ozod etilishini alohida ajratib ko'rsatish mumkin.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatining yana bir muhim xususiyati eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni tashkil etishga mo'ljallangan loyihalarni qo'llab-quvvatlashdan iboratdir. O'zbekiston soliq qonunchiligiga

ko‘ra, ishlab chiqarilgan mahsulotning 30 foizidan ko‘prog‘ini mamlakatdan tashqariga sotayotgan korxonalar foydasiga soliq stavkasi ikki barobardan ziyodroqqa kamaytirilgan.

O‘zbekiston investitsiya siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ilg‘or texnologiya va nou-xaularni jalb etishga alohida e‘tibor qaratilayotganligida o‘z aksini topadi. Negaki, ular jahon bozorida O‘zbekiston mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Ayni vaqtda xorijiy investorlar uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlar hamda aniq bayon etilgan taraqqiyot ustuvorliklari yetakchi transmilliy kompaniyalar va korporatsiyalarning O‘zbekistonga o‘z investitsiyalarini olib kirishiga yuqori darajada intilishini ta‘minlaydi.

Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11-apreldagi «To‘g‘ridan to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoniga ko‘ra xorijiy investitsiyalar hajmi 300 ming AQSH dollaridan 3 million AQSH dollarigacha bo‘lgan holatda 3 yil muddatga, 3 million dollardan 10 million AQSH dollarigacha – 5 yil muddatga, 10 million AQSH dollaridan ortiq bo‘lganda – 7 yil muddatga to‘g‘ridan to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etadigan iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari asosiy faoliyati bo‘yicha daromad solig‘i, mulk solig‘i, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va hududlarni obodonlashtirish solig‘i, mikrofirma va kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliq to‘lashdan, shuningdek, Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalar to‘lashdan ozod qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-apreldagi Farmoniga muvofiq to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar qabul qilindi. Unda xorijiy investorning pul shaklidagi ulushi 5 million AQSH dollaridan kam bo‘lmagan yangidan

tashkil etilayotgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar davlat ro'yxatidan o'tgan sanadan boshlab 10 yil mobaynida soliq qonunchiligida o'zgarishlar yuz bergan hollarda, respublikada amal qilayotgan soliqlar va ajratmalardan 7 tasini to'lash bo'yicha davlat ro'yxatidan o'tish sanasida amal qilgan me'yorlar va qoidalarni qo'llashga haqli ekanligi belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, 2013-yil 15-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2012-yil 10-apreldagi Farmoniga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi Farmoni qabul qilinishi, unda, asosan, 2013-yilning 1-yanvaridan boshlab xorijiy investitsiyalar ishtirokida yangi tashkil etilayotgan korxonalar davlat ro'yxatidan o'tgan vaqtdan boshlab ikki yil mobaynida shaxsiy ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun mol-mulk olib kirishda import bojxona to'lovlarini to'lashdan ozod qilinishlari ko'zda tutilgan.

Ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda investorlarga aniq maqsadni ko'zlab, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar mantig'idan kelib chiqqan holda imtiyozlar taqdim etilmoqda. Bu esa amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samarali bo'lishini ta'minlamoqda.

### **16.3. O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb etilgan investitsiyalar dinamikasi va tarkibi**


Faol investitsiya siyosatini yuritish barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va uni diversifikatsiyalashning muhim omillaridan hisoblanadi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosati barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, iqtisodiyot tarkibida chuqur tarkibiy

o'zgarishlarni amalga oshirish, mavjud tabiiy-iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb etilgan investitsiyalar hajmi 1996-yildan boshlab o'sish tendensiyasiga ega bo'lib kelmoqda. Iqtisodiyotga kiritilayotgan investitsiyalarning yildan yilga o'sib borishida mavjud investitsion sharoit va qulay investitsiya muhiti alohida ahamiyat kasb etmoqda.

2016-yilda O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 49770,6 mlrd. so'm yoki AQSH dollari hisobida 16 milliard 782 million dollardan ko'proqni tashkil etdi. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 2016-yilda 1991-yilga nisbatan 4,2 marta, 2000-yilga nisbatan 5,4 marta, 2005-yilga nisbatan 4,3 marta va 2010-yilga nisbatan 170,1 foizga ko'paydi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda O'zbekistonda investitsiya hajmi o'sish tendensiyasiga ega bo'lsa-da, uning o'sish sur'atlari turli yillarda turlicha bo'lgan.



2000–2016-yillarda O'zbekistonda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning qo'shimcha o'sish sur'atlari va YaIMdagi ulushining o'zgarishi, foizda.



Xususan, 2000–2008-yillarda investitsiyalar o‘shirish sur‘atlarining oshib borishi kuzatiladi: agar 2000-yilda 1999-yilga nisbatan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 1 foizga o‘sgan bo‘lsa, 2008-yilda o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga chiqqan. Mazkur yilda investitsiyalarning qo‘shimcha o‘shirish sur‘ati 34,1 foizga yetgan. Biroq 2007-yilda AQSH ipotekali kreditlash tizimidan boshlangan va keyinchalik global tus olgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy ta‘siri natijasida investitsiyalar o‘shirish sur‘atlarining pasayishi kuzatiladi. Bu pasayish 2011-yilgacha davom etib, mazkur yilda investitsiyalarning qo‘shimcha o‘shirish sur‘ati 3,8 foizga teng bo‘ldi.

2012–2014 yillarda investitsiya faoliyatining jonlanishi kuzatiladi. Bu yillarda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning o‘rtacha qo‘shimcha o‘shirish sur‘ati 11,9 foizga teng bo‘ldi. Biroq 2015–2016-yillarda o‘rtacha qo‘shimcha o‘shirish sur‘ati yana 8,6 foizgacha pasaydi.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, barqaror o‘shirish sur‘atlarini ta‘minlashda jami investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi muhim o‘rin tutadi. O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich nisbatan barqaror bo‘lib, 2000–2016-yillar davomida o‘rtacha 23,9 foizni tashkil etmoqda. Bu shundan dalolat beradiki, istiqbolda yalpi ichki mahsulotning yuqori sur‘atlarda o‘shirishini saqlab qolish uchun investitsiya normasini 30–35 foizga yetkazish talab etiladi.

Respublikamizda investitsiyalarni moliyalashtirishning bozor mexanizmlari joriy etilishi bilan ularni moliyalashtirish manbalari tarkibi yildan yilga o‘zgarimoqda. Bu o‘zgarishlarning eng asosiy yo‘nalishlaridan biri investitsiyalar hajmida markazlashgan investitsiyalar ulushining pasayotganligi bilan bog‘liq. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 2016-yilda jami investitsiyalarning 21,1 foizi markazlashgan investitsiyalar hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, markazlash-

magan investitsiyalarning ulushi 78,9 foizni tashkil etdi. Vaholanki, 2000-yilda markazlashgan investitsiyalarning jami investitsiyalardagi salmog‘i 50,3 foizni tashkil etar edi.

**O‘zbekistonda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning  
moliyalashtirish manbalari bo‘yicha tarkibi, %**

	2000	2005	2010	2015	2016
Asosiy kapitalga investitsiyalar – jami	100	100	100	100	100
shu jumladan:					
<b>Markazlashgan investitsiyalar</b>	50,3	23,1	18,5	20,6	21,1
Respublika budjeti	29,2	12,3	7,4	4,5	4,5
Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash fondi mablag‘lari	–	–	0,4	–	–
Bolalar sportini rivojlantirish fondi mablag‘lari	–	–	–	0,7	0,6
Budjetdan tashqari jamg‘armalar mablag‘lari	1,3	4,8	3,2	–	–
Davlat maqsadli fondlari mablag‘lari	–	–	–	5,8	4,8
Tiklanish va taraqqiyot fondi mablag‘lari	–	–	3,8	4,4	4,7
Hukumat kafolati ostidagi xorijiy investitsiya va kreditlar	19,8	6,0	3,7	5,2	6,5
<b>Markazlashmagan investitsiyalar</b>	49,7	77	81,5	79,4	78,9
Korxonalar mablag‘lari	27,1	46,1	31,5	32,0	30,3
Aholi mablag‘lari	12,0	11,4	15,8	20,9	22,7
To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar	3,4	15,7	25,1	14,7	14,8
Bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari	7,2	3,8	9,1	11,8	11,1

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy faoliyatga davlat aralashuvini pasaytirish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy erkinligini oshirishga yo'naltirilgan ma'muriy islohotlar natijasida davlat budjeti mablag'larining investitsiyalardagi ulushi 2000-yilda 29,2 foizdan 2016-yilda 4,5 foizgacha pasaydi.

Ishlab chiqaruvchilarga soliq yukini pasaytirish yo'naliqidagi soliq-budjet siyosatini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, to'lov intizomining mustahkamlanishi, xususiylashtirish jarayonlarining kuchayishi korxonalar va aholining investitsiya faolligining oshishiga olib keldi. Buning natijasi o'laroq, 2000-yilda jami investitsiyalarning 12 foizi aholi mablag'lari, 27,1 foizi korxonalar mablag'lari hisobiga shakllangan bo'lsa, 2016-yilda bu ko'rsatkichlar muvofiq ravishda 30,3 va 22,7 foizni tashkil etdi.

2016-yilda korxonalar mablag'lari hisobiga amalga oshirilgan investitsiyalar hajmi 2015-yilga nisbatan 1,6 foizga o'sib, 15092,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ma'lumki, investitsiyalarni keng ko'lamda iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalariga yo'naltirishda tijorat banklarining alohida o'rni bor. 2016-yilda tijorat banklari kreditlari va boshqa kredit mablag'larining jami investitsiyalardagi ulushi 11,1 foizni tashkil etdi. Vaholanki, bu ko'rsatkich 2000-yilda 7,2 foizga teng bo'lgan. 2016-yilda ular tomonidan 5523,9 mlrd. so'm yoki 2015-yilga nisbatan 0,8 foiz ko'p investitsiyalar yo'naltirildi.

Mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarni jalb etish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida garchi xorijiy investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi 2000-yilda 23,2 foizdan 2016-yilda 21,3 foizgacha pasaygan bo'lsa-da, bevosita xorijiy investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi 3,8 foizdan 14,8 foizgacha o'sdi, hukumat kafolati ostidagi xorijiy investitsiyalar va kreditlarning ulushi 19,8 foizdan 6,5

foizgacha pasaydi. Bu ham O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ma'muriy islohotlarning yuqori samara berayotganligidan, ayni vaqtda xorijiy investorlarda O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy siyosatga bo'lgan ishonch ortib borayotganligidan dalolat beradi.

**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning  
iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha tarkibi  
(jamiga nisbatan, %)**

	2000	2005	2010	2014	2015	2016
Jami	100	100	100	100	100	100
I. Ishlab chiqarish tarmoqlari bo'yicha	57,4	67,8	72,5	66,5	63,7	63,1
Sanoat	29,7	32,6	30,4	32,7	36,1	32,5
Qishloq xo'jaligi	5,7	4,4	3,5	4,3	3,3	3,3
Qurilish	0,5	0,9	1,4	1,9	2,5	1,9
Transport va aloqa	16,8	24,1	29,7	14,3	11,4	13,8
Boshqa ishlab chiqarish tarmoqlari	4,7	5,8	7,5	13,3	10,4	11,6
II. Noishlab chiqarish tarmoqlari	42,6	32,2	27,5	33,5	36,3	36,9
Uy-joy xo'jaligi	13,0	11,0	15,1	21,2	21,9	22,3
Kommunal xo'jaligi	4,7	3,1	1,9	2,4	3,9	4,2
Sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta'minot muassasalari	2,4	2,4	2,3	3,3	2,3	2,3
Ta'lim	14,0	11,2	2,7	2,4	2,3	2,7
Boshqa noishlab chiqarish tarmoqlari	8,5	4,5	5,5	4,2	5,9	5,4

So'nggi yillarda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha tarkibida ham sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda. Bu o'zgarishlarning asosiy

yoʻnalishi jami investitsiyalar hajmida ishlab chiqarish tarmoqlari ulushining oʻsayotganligida oʻz aksini topmoqda. Agar 2000-yilda jami investitsiyalarning 57,4 foizi ishlab chiqarish tarmoqlariga yoʻnaltirilgan boʻlsa, 2016-yilga kelib bu koʻrsatkich 63,1 foizga yetdi. Noishlab chiqarish tarmoqlarining ulushi esa mos ravishda 42,6 foizdan 36,9 foizgacha pasaydi.

Ishlab chiqarish sohasiga yoʻnaltirilgan investitsiyalarning katta qismi sanoat tarmoqlari hissasiga toʻgʻri kelmoqda. Agar 2000-yilda jami investitsiyalarning 29,7 foizi sanoat tarmoqlari hissasiga toʻgʻri kelgan boʻlsa, 2016-yilga kelib bu koʻrsatkich 32,5 foizni tashkil etdi. Sanoat tarmoqlari orasida yoqilgʻi-energetika sanoati yetakchi oʻrinni egalladi. Xususan, 2016-yilda jami investitsiyalarning 16,3 foizi, sanoat ishlab chiqarishiga sarflangan investitsiyalarning 51,8 foizi yoqilgʻi-energetika hissasiga toʻgʻri keldi.

Shuningdek, metallurgiya (2016-yilda jami investitsiyalarning 1,5 foizi), yengil sanoat (1,8 foiz), oziq-ovqat (1,8 foiz), kimyo va neft kimyosi (3,0 foiz) sanoatiga ham yirik miqdorda investitsiya mablagʻlari kiritildi.

Ishlab chiqarish sohasiga kiritilgan investitsiyalar orasida transport va aloqa oʻziga xos muhim oʻrin egallaydi. Agar 2000-yilda jami investitsiyalarning 16,8 foizi ushbu tarmoqlar hissasiga toʻgʻri kelgan boʻlsa, 2016-yilga kelib bu koʻrsatkich 13,8 foizni tashkil etdi.

Qishloq xoʻjaligining jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 5,7 foizdan 4,3 foizgacha qisqardi. Bu qisqarish infratuzilma obyektlari va donli ekinlar ishlab chiqarishga sarflanadigan investitsiya mablagʻlari hajmining qisqarishi bilan bogʻliq.

Noishlab chiqarish sohasida uy-joy xoʻjaligi yetakchi oʻrinni egallaydi. 2009-yildan qishloq hududlarida aholi uchun namunalı uy-joylar qurılıshiga ustuvor vazifa sifatida eʼtibor qaratilayotganligi munosabati bilan har yili uy-joylar quri-

lishi uchun davlat mablag‘lari, tijorat banklari kreditlari, aholi mablag‘lari hisobiga investitsiyalar hajmi o‘shib bormoqda. Xususan, 2016-yilda uy-joy qurilishi uchun turli manbalar hisobidan 11126,7 mlrd. so‘m miqdorida investitsiya mablag‘lari o‘zlashtirildi. Bu shundan dalolat beradiki, noishlab chiqarish sohasiga yo‘naltirilgan jami investitsiya mablag‘larining 60,4 foizi uy-joy qurilishi hisobiga to‘g‘ri keladi.

**O‘zbekistonda asosiy kapitalga kiritilgan  
investitsiyalarning turlari bo‘yicha tarkibi, (%)**

	2005	2010	2015	2016
Jami	100	100	100	100
Shu jumladan:				
Turarjoy	11,0	15,1	20,3	22,4
Bino (turarjoydan tashqari) va inshootlar	40,0	39,1	31,1	32,8
Mashina, uskuna, transport vositalari	40,0	40,0	39,8	38,3
Boshqa kapital ishlar va xarajatlar	9,0	5,8	8,8	6,5

Investitsiya jarayonini tartibga solish mexanizmi sifatida Investitsiya dasturining amalga oshirilishi yangi qurilish obyektlari hajmining pasayishiga ta‘sir ko‘rsatdi. 2016-yilda asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi, ya‘ni jami investitsiyalarning 55,2 foizi bino va inshootlar qurilishiga yo‘naltirildi hamda 2005-yilga nisbatan 4,2 foiz nuqtasiga o‘sdı. Ayni vaqtda so‘nggi yillarda asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv qismi hisoblangan mashina, uskuna va transport vositalari sotib olishga xarajatlar birmuncha kamaydi. Agar 2005 va 2010-yillarda jami investitsiyalarning 40 foizi asosiy fondlarning faol qismini rivojlantirishga sarflangan bo‘lsa, 2015 va 2016-yillarda bu ko‘rsatkich muvofiq ravishda 39,8 va 38,3 foizga teng bo‘ldi.

Ta'kidlash lozimki, investitsiya siyosatining muhim yo'nalishi asosiy fondlar faol qismi eskirish darajasining pasayishiga erishish hisoblanadi. Bu esa mashina, uskuna va transport vositalariga investitsiya hajmini oshirishni talab etadi. Shu sababli mashina va uskunalar sotib olishda lizing munosabatlarini yanada rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

**O'zbekistonda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi, % (kichik biznes subyektlari hisobga olinmagan)**

	2000	2005	2010	2014	2016
Jami	100	100	100	100	100
Yangi qurilish	42,0	31,9	55,2	59,8	62,5
Kengaytirish, qayta ta'mirlash va modernizatsiya	57,5	67,3	30,2	23,5	20,5
Boshqa yo'nalishlar	0,5	0,8	14,6	16,7	17

O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibida yuz berayotgan o'zgarishlar jami investitsiyalar hajmida yangi qurilishga sarflanayotgan investitsiyalar ulushining o'sib borishi bilan tavsiflanadi. Agar 2000-yilda jami investitsiyalarning 42 foizini yangi qurilishga sarflangan investitsiyalar tashkil etgan bo'lsa, 2016-yilda bu ko'rsatkich 62,5 foizga yetdi. Ayni vaqtda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni texnik jihatdan qayta jihozlash va rekonstruksiya qilish va kengaytirishga sarflanayotgan investitsiyalar ulushi bu davrda 57,5 foizdan 20,5 foizgacha pasaydi.

**16.4. O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish**

Mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni keng miqyosda jalb etish O'zbekiston hukumati iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. Iqtisodiyotni tarkibiy

jihatdan qayta qurish sharoitida xorijiy investitsiyalar milliy jamg'armalar imkoniyatlaridan ko'proq investitsiyalarni amalga oshirishda va ishlab chiqarish bazasini yangilashda muhim o'rin tutadi.

Bundan tashqari, xorijiy investitsiyalar jalb etish orqali texnologik uskunalari, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishning zamonaviy usullarini import qilish, jahonda mashhur kompaniyalarning savdo belgilaridan, nau-xaulardan, transmilliy kompaniyalarning mahsulot eksportini kengaytirish uchun jahon bozorlariga kirib borish kanallaridan foydalanish imkoniyati yuzaga keladi. Zamonaviy ishlab chiqarishning mazkur omillari har doim ham jahon bozorlarida sotilmaydi va ko'pincha xorijiy investitsiyalar kirib kelishi bilan birga o'zlashtiriladi.

Biznes yuritish uchun qulay muhit, xorijiy investorlar uchun huquqiy kafolatlar va imtiyozlar hamda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishning yaxlit tizimi O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar oqimini oshirishga yordam berdi.

So'nggi yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar hajmi, umuman, o'sish tendensiyasiga ega bo'lmoqda va 2016-yilda jami 10611,4 mlrd. so'mlik yoki qariyb 3,6 mlrd. dollarlik xorijiy investitsiyalar jalb etildi.

Shu bilan birga mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar tarkibida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Jumladan, 2000–2016-yillarda xorijiy investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi 23,2 foizdan 21,3 foizgacha pasaygan bo'lsa-da, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi 3,4 foizdan 14,8 foizgacha, jami xorijiy investitsiyalardagi ulushi 14,6 foizdan 69,3 foizgacha o'sgan.



**O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy  
investitsiyalarning asosiy ko'rsatkichlari**

	<b>2000</b>	<b>2005</b>	<b>2010</b>	<b>2015</b>	<b>2016</b>
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, mlrd. so'm	744,5	3165,2	15338,7	41670,5	49770,6
Xorijiy investitsiya va kreditlar, mlrd. so'm	172,4	687,0	4340,8	8309,5	10611,4
Xorijiy investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi, %	23,2	21,7	28,3	19,9	21,3
To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar, mlrd. so'm	25,3	496,9	3850,0	6125,6	7353,7
To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi, %	3,4	15,7	25,1	14,7	14,8
To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning jami xorijiy investitsiyalardagi ulushi, %	14,6	72,3	88,7	73,7	69,3

Bunday ijobiy tendensiya mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun manfaatli bo'lib, to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar boshqa xorijiy investitsiyalarga nisbatan ikkita muhim afzallikka ega: birinchidan, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar uzoq muddatli xarakterga ega, shu sababli qisqa muddatli kapitallarning chiqib ketishi va kirib kelishi uchun shart-sharoitlarni vujudga keltirmaydi. Bu esa jahon xo'jalik aloqalarining globallashuvi va baynalmilallashuvi sharoitida makroiqtisodiy barqarorlikni saqlab turish uchun muhim ahamiyatga ega. Ikkinchidan, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar to'lov majburiyatlarini vujudga keltirmaydi va shundan kelib chiqqan holda tashqi qarzlarning vujudga kelishi yoki oshishiga olib kelmaydi. Bu, ayniqsa, tashqi qarz jiddiy muammo bo'lgan mamlakatlar uchun muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalarning salmoqli qismi sanoat, transport va aloqa hissasiga to'g'ri keladi.

Jami xorijiy investitsiyalar tarkibida sanoat ishlab chiqarishiga sarflangan investitsiyalarning ulushi 2000-yilda 62,4 foizdan 2016-yilda 68,8 foizgacha o'sgan bo'lsa, transport va aloqa tarmoqlariga sarflangan investitsiyalar ulushi 24,7 foizdan 19,9 foizga pasaydi. Xorijiy investitsiyalar tarkibida sanoat, transport va aloqaning yuqori salmoqqa ega bo'lishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayonlari bilan izohlanadi.

**O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilingan xorijiy investitsiyalarning tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi, %**

	2000	2005	2010	2015	2016
Jami	100	100	100	100	100
Sanoat	62,4	46,4	23,6	70,5	68,8
Qishloq xo'jaligi	4,6	3,0	0,9	0,8	1,1
Transport va aloqa	24,7	38,7	68,3	19,2	19,9
Boshqa tarmoqlar	8,3	11,9	7,3	9,5	10,2

Sanoat ishlab chiqarishiga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalarning asosiy qismi yoqilg'i-energetika majmuasi hissasiga to'g'ri keladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2000-yilda mamlakatimiz sanoatiga kiritilgan jami investitsiyalarda yoqilg'i-energetikaning ulushi 25,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2016-yilga kelib bu ko'rsatkich 65,4 foizga yetdi. Buning natijasida sanoatning boshqa barcha tarmoqlarining (qurilish materiallari sanoatidan boshqa) jami xorijiy investitsiyalardagi ulushi tahlil qilinayotgan davr mobaynida pasayish tendensiyasiga ega bo'ldi.

Ko‘rinib turibdiki, sanoat tarmog‘iga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar bir tomonlama tarkibga ega. Buning eng asosiy sababi shundan iboratki, xorijiy investorlar o‘z mablag‘larini yuqori daromad keltiradigan va tavakkalchilik darajasi past sohalarga sarflashni afzal biladilar. Xorijiy investitsiyalar uchun eng yuqori foyda me‘yori va qoplanish muddatining qisqaligi aynan shu tarmoqda qayd etilmoqda. Bu esa bugungi kunda jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar tarkibini takomillashtirish bo‘yicha jiddiy chora-tadbirlar amalga oshirish lozimligini ko‘rsatadi.

Bu holat xorijiy investitsiyalar jalb etishda tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga asoslangan sanoatning qayta ishlash tarmoqlariga alohida ustuvorliklar berishni taqozo etadi.

Milliy, iqtisodiy, ekologik va oziq-ovqat mustaqilligini ta‘minlovchi, kengaytirilgan ishlab chiqarish va mamlakat aholisining hayot sharoitlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratib beruvchi (energetika, infratuzilma obyektlari, transport, suv bilan ta‘minlash, kommunikatsiyalar va boshqalar), tadbirkorlik, ayniqsa, xususiy biznes uchun tashkiliy-iqtisodiy va texnik sharoitlar barpo etuvchi sohalar respublikamiz investitsiya siyosatining yaqin kelajakdagi ustuvor yo‘nalishlari bo‘lishi lozim.

## **Qisqacha xulosalar**

1. Investitsiyalar – foyda (daromad) olish va ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik obyektlari va boshqa faoliyat turlariga kiritiladigan pul mablag‘lari, maqsadli bank qo‘yilmalari, paylar, aksiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar, texnologiyalar, mashinalar, uskunalar, litsenziyalar, shu jumladan tovar belgisi, kreditlar, boshqa har qanday mulk yoki mulkiy huquq, intellektual boyliklardir.

2. Investitsiyalarni hisobga olish, tahlil qilish, rejalashtirish hamda nazorat qilish uchun ular turli belgilariga ko'ra tasniflashtiriladi.

3. O'zbekistonda investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatlar jumlasiga «Konsessiyalar to'g'risida»gi, «Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida»gi, «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi, «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi, «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi, «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi qonunlar va boshqalar kiradi.

4. O'zbekistonda xorijiy investorlarga qator kafolatlar tizimi taqdim etilgan bo'lib, ular milliy, diniy va hududiy belgilar bo'yicha cheklashlarning mavjud emasligida, o'z mablag'laridan erkin foydalanishlari uchun shart-sharoitlarning barpo etilganligida, investorlar faoliyatiga tegishli axborotlardan erkin foydalanish imkoniyatlarining mavjudligida va boshqalarda o'z aksini topmoqda.

5. O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb etilgan investitsiyalar hajmi 1996-yildan boshlab o'sish tendensiyasiga ega bo'lib kelmoqda. Iqtisodiyotga kiritilayotgan investitsiyalarning yildan yilga o'sib borishida mavjud investitsion sharoit va qulay investitsiya muhiti alohida ahamiyat kasb etadi.

6. 2016-yilda O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilingan investitsiyalar hajmi AQSH dollari hisobida 16 milliard 782 million dollardan ko'proqni tashkil etdi.

7. Respublikamizda investitsiyalarni moliyalashtirishning bozor mexanizmlari joriy etilishi bilan ularni moliyalashtirish manbalari tarkibi yildan yilga o'zgarimoqda. Bu o'zgarishlarning eng asosiy yo'nalishlaridan biri investitsiyalar hajmida markazlashgan investitsiyalar ulushining pasayayotganligi va markazlashmagan investitsiyalar ulushining o'sayotganligi bilan bog'liq.

8. So‘nggi yillarda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha tarkibida ham sezilarli o‘zgarishlar yuz bermoqda. Bu o‘zgarishlarning asosiy yo‘nalishi jami investitsiyalar hajmida ishlab chiqarish tarmoqlari ulushining o‘sayotganligida o‘z aksini topmoqda.

9. Keyingi yillarda asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv qismi hisoblangan mashina va mexanizmlar sotib olishga xarajatlar ortgan bo‘lsa, uning passiv qismi, ya’ni qurilish-montaj ishlariga xarajatlarning pasayishi kuzatiladi. Bu esa asosiy fondlar aktiv qismi eskirish darajasining pasayishiga olib keladi.

10. Biznes yuritish uchun qulay muhit, xorijiy investorlar uchun huquqiy kafolatlar va imtiyozlar hamda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag‘batlantirishning yaxlit tizimi O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar oqimining oshishiga olib kelmoqda.

## **Asosiy atamalar va tushunchalar**

Investitsiya, moliyaviy investitsiyalar, real investitsiyalar, andarrayting, xorijiy investitsiyalar, davlat investitsiyalari, xususiy investitsiyalar, qo‘shma investitsiyalar, portfel investitsiyalar, to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar, investitsiyalarning tarmoq tarkibi, investitsiyalarning hududiy tarkibi, investitsiyalarning texnologik tarkibi, investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi.

## **Nazorat savollari**

1. Investitsiyalar nima? Nima uchun investitsiyalar barqaror iqtisodiy o‘shishning muhim omili hisoblanadi?
2. Investitsiyalarning qanday turlarini bilasiz?

3. O‘zbekistonda investitsiya faoliyatining me‘yoriy-huquqiy asoslarini qaysi qonun hujjatlari tashkil etadi?

4. O‘zbekistonda investorlarga qanday imtiyozlar tizimi taqdim etilgan?

5. O‘zbekiston investitsiya siyosatining asosiy yo‘nalishlari nimalardan iborat?

6. O‘zbekistonda investitsiyalarning o‘shish sur‘atlari qanday? Investitsiyalarning o‘shish sur‘atlariga qanday omillar ta‘sir ko‘rsatadi?

7. O‘zbekistonda investitsiya resurslari qaysi manbalar asosida shakllanadi?

8. O‘zbekistonda investitsiyalarning tarmoqlar bo‘yicha taqsimlanishi qaysi yo‘nalishda o‘zgarmoqda?

9. O‘zbekistonda investitsiyalarning texnologik tarkibidagi o‘zgarishlar to‘g‘risida qanday fikr bildira olasiz?

10. O‘zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha qanday chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda?

11. Bevosita xorijiy investitsiyalarning afzallik jihatlari nimalardan iborat?

12. O‘zbekistonda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tashkil etishdan maqsad nima?

---

---

## XVII b o b

# O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA MULK MUNOSABATLARI

### 17.1. Mulk munosabatlarining mohiyati va iqtisodiy mazmuni

Mulkchilik munosabatlari har qanday iqtisodiy tizimning asosini tashkil etib, moddiy va ma’naviy ne’matlarni ishlab chiqarish hamda boyliklarni o‘zlashtirish jarayonida vujudga keladi. Mulkchilik munosabatlari – bu mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf qilish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimidir.

Mulkka egalik qilish mulkdorlik huquqining uning egasi qo‘lida saqlanib turishini bildirsa, mulkdan foydalanish – bu mol-mulkning iqtisodiy faoliyatda ishlatilishi yoki ijtimoiy hayotda qo‘llanilishidir. Mol-mulkdan foydalanish yuz berganda, u daromad olish yoki shaxsiy ehtiyojni qondirish uchun ishlatiladi. Mulkni tasarruf etish – mol-mulkni sotish, meros qoldirish, hadya qilish, ijaraga berishning mulk egasi tomonidan mustaqil hal etilishidir. Shunday qilib, mulkchilik munosabatlarining iqtisodiy mazmunini uning ajralmas uch jihati – egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish belgilab berdi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, mulkchilik jamiyatdagi ham huquqiy, ham iqtisodiy munosabatlar mazmunini o‘zida ifodalaydi. Mulkchilikning huquqiy va iqtisodiy mazmuni o‘zaro bog‘liq va bir-birini taqozo qiladi. Bu birlikda mulkchilikning iqtisodiy tomoni hal qiluvchi o‘rinni egallaydi. Agar mulk iqtisodiy jihatdan ro‘yobga chiqarilmasa, ya’ni ishlab

chiqarishda foydalanilmasa yoki mulk egasiga daromad keltirmasa, bunda u «huquqiy» kategoriya sifatida qoladi.

Mulkchilik xo‘jalik va tadbirkorlik faoliyatining turli shakllari orqali iqtisodiy jihatdan ro‘yobga chiqariladi.

Boshqa tomondan, mulkchilikning huquqiy jihati uning iqtisodiy tomoniga nisbatan faqat bo‘ysinuvchi rol o‘ynamaydi. Bu shunda ko‘rinadiki, ishlab chiqarish vositalariga ma‘lum huquqiy egalik qilmasdan, hech kim ishlab chiqarish jarayonini amalga oshira olmaydi, ishlab chiqarish vositalari va ishlab chiqarilgan mahsulotdan foydalana olmaydi. Shu sababli mulkchilikning huquqiy normalari egalik qilish, tasarruf qilish, foydalanish huquqi iqtisodiy munosabatlarning aniqlashtirilgan ko‘rinishi hisoblanadi.

Huquqiy normalar, bir tomondan, aynan mulkchilik munosabatlarini muhofaza qilish zarurati bilan bog‘liq holda vujudga kelsa, boshqa tomondan u tovar ishlab chiqarish sharoitida mulkchilik munosabatlarini rivojlantirishda g‘oyat muhim rol o‘ynaydi. Bu rol shunda ko‘rinadiki, tovar xo‘jaligi sharoitida ayrim ijtimoiy qatlamlar ishlab chiqarish jarayonida qatnashmasdan, ayirboshlash munosabatlarida ishtirok etib (masalan, savdo vositachilari) mulkdorga aylanish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Shunday qilib, mulkchilikning huquqiy normalari, birinchidan, ishlab chiqarish vositalari va yaratilgan moddiy ne‘matlarning muayyan shaxslarga (huquqiy yoki jismoniy) tegishli ekanligini, ikkinchidan, mulk egalari qonun bilan qo‘riqlanadigan vakolatlarini va nihoyat, uchinchidan, mulkni himoya qilish usullarini belgilab beradi.

Mulkchilik munosabatlari, uning obyektlari va subyektlari bo‘lishini shart qilib qo‘yadi. Mulkka aylangan barcha boylik turlari mulkchilik obyektlaridir. Inson yaratgan moddiy va ma‘naviy boyliklar, tabiiy boyliklar, aqliy mehnat mahsuli, in-



sonning mehnat qilish qobiliyati – ishchi kuchi va boshqalar mulk obyekti hisoblanadi. Mulk obyektida asosiy bo‘g‘in – bu ishlab chiqarish vositalariga egalik qilish hisoblanadi. Ishlab chiqarish vositalari kimniki bo‘lsa, ishlab chiqarilgan mahsulot ham unga tegishli bo‘ladi.

Mulk subyekti jamiyatda ma‘lum ijtimoiy-iqtisodiy mavqega ega bo‘lgan, mulk obyektini o‘zlashtirishda qatnashuvchilar, mulkiy munosabatlar ishtirokchilari bo‘lib, ular jamoa, sinf, tabaqa yoki boshqa ijtimoiy guruhlarga birlashgan bo‘ladi. Ayrim kishilar, oilalar va davlat ham mulkchilik subyekti bo‘lib chiqadi.

Mulkning tuzilishi va shakli xilma-xilligi sababli, bu mulkni o‘zlashtiruvchi yuqorida ko‘rsatilgan subyektlar ham turli darajada bo‘ladi. Masalan, davlat mulkining bevosita subyektlari respublika hokimiyati va boshqaruv organlari, davlat korxonalari va muassasalari hamda ularning mehnat jamoalari a‘zolari bo‘lishi mumkin.

Jamoa mulki subyektlari (tasarruf etuvchilar) sifatida jamoa korxonalari, kooperativlar, xo‘jalik jamiyati va shirkatlari, aksionerlik jamiyatlari, xo‘jalik birlashmalari (uyushmalari), jamoat va diniy tashkilotlar bo‘lishi mumkin.

Aralash mulk, ya‘ni huquqiy shaxslar va fuqarolarning mulki ham mavjud bo‘lishi sababli, bu mulk subyektlari sifatida qo‘shma korxonalar, xorijiy fuqarolar, xorijiy tashkilotlar va xorijiy davlatlar chiqadi.

## 17.2. Mulk shakllari

Bozor iqtisodiyoti mulkchilik shakllarining xilma-xil bo‘lishini talab qiladi, chunki tovar muayyan mulk obyekti bo‘lgandagina oldi-sotdi qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham: «Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi», – deb ta’kidlanadi.

«O‘zbekiston Respublikasining mulkchilik to‘g‘risidagi» Qonuniga muvofiq O‘zbekistonda quyidagi mulk shakllari amal qiladi:

- xususiy mulk;
- shirkat (jamoat) mulki;
- ma‘muriy-hududiy tuzilmalarning mulkidan (kommunal mulkdan) iborat davlat mulki;
- aralash mulk;
- boshqa davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar yuridik va jismoniy shaxslarining mulki.

Mulkchilik turli shakllarining mavjud bo‘lishi va ularning iqtisodiy mezonini, avvalo, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi va ishlab chiqarishning umumlashuvi darajasi bilan bog‘liq. Shu bilan birga mulkchilik shakllari ishlab chiqaruvchi kuchlarning holati, ijtimoiy mehnat taqsimoti va tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarining yetuklik darajasi bilan mos kelishi zarur.

O‘zbekiston Respublikasining davlat mulkiga ma‘muriy-hududiy tuzilmalarning mulki (kommunal mulk) kiradi. Davlat mulkini tasarruf etish va boshqarishni xalq nomidan tegishli xalq deputatlari Kengashlari va ular vakolat bergan davlat boshqaruvi idoralari amalga oshiradilar.

Davlat mulki – mulk davlatga tegishli bo‘lganda mulkka egalik qilish, foydalanish va uni tasarruf qilish davlat ixtiyorida bo‘ladi. Davlat mulki, asosan, ikki yo‘l bilan hosil bo‘ladi:

- xususiy mol-mulkni milliyashtirib, davlat qo‘liga olish;
- davlat mablag‘lari hisobidan korxonalar qurish, davlatga qarashli korxonalar va tashkilotlarda investitsiyalarni amalga oshirish.

Davlat mulki haqiqatda ham xalqqa qarashli bo‘lgan, bo‘linmaydigan yoki umumiy resurslardan foydalanish uchun juda mosdir. Bunga misol qilib takror ishlab chiqarib bo‘lmaydi-

gan tabiiy resurslarni, yirik inshootlar va transport vositalari, yo‘llar kabi iqtisodiy tuzilmaning kattagina qismini ko‘rsatish mumkin.

O‘zbekistonda Fuqarolik kodeksiga muvofiq davlat mulki respublika mulkidan va ma‘muriy-hududiy (munitsipal) tuzilmalar mulkidan iborat bo‘ladi. Yer, yerosti boyliklari, suv, havo bo‘shlig‘i, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar, respublika hokimiyati va boshqaruvi tuzilmalari mol-mulki, davlatga qarashli madaniy va tarixiy boyliklar, budjet mablag‘lari, oltin zaxirasi, valuta fondi va boshqa davlat fondlari respublika mulki hisoblanadi.

Ma‘muriy-hududiy (munitsipal) tuzilmalar mulkida davlat hokimiyati mahalliy organlari mol-mulki, mahalliy budjet mablag‘lari, munitsipal uy-joy fondi va kommunal xo‘jaligi korxonalari va boshqa mulkiy majmualar, xalq ta‘limi, madaniyat, sog‘liqni saqlash muassasalari kabilar mol-mulki bo‘ladi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlarda iqtisodiyotni erkinlashtirish vazifasi davlat mulki monopoliyasini qisqartirishni taqozo qiladi, chunki sog‘lom bozor iqtisodiyoti davlat monopoliyasi bilan chiqishmaydi, monopoliya raqobatga to‘sqinlik qiladi.

Mulknii davlat tasarrufidan chiqarish natijasida iqtisodiyotda davlat mulkining ulushi kamayib boradi. Davlat korxonalarining asosiy fondlar, ishlovchilar soni, yalpi milliy mahsulot va milliy daromad yaratishdagi hissasi qisqarib, ayni vaqtda boshqa mulkka mansub korxonalar hissasi ortib boradi.

Shirkat (jamoat) mulki oilaviy mulkni, mahalla mulkini, shuningdek, kooperativlarning, ijara, jamoat korxonalarining mulkini, jamoat tashkilotlari va diniy tashkilotlarning, turli xo‘jalik jamiyatlari va shirkatlarining, assotsiatsiyalar va yuridik shaxs hisoblangan boshqa birlashmalarning mulkini o‘z ichiga oladi.

Shirkat (jamo'a) mulki – muayyan maqsad yo'lida jamoaga birlashgan kishilar tomonidan moddiy va ma'naviy boyliklarni hamjihatlik bilan o'zlashtirishni bildiradi. Jamoa mulki davlat mulkini korxonaga jamoasi sotib olishi, badal to'lab korxonaga qurishi, aksiya chiqarib, ularni sotish kabi yo'llar orqali paydo bo'ldi. Jamoa mulkining muhim hususiyati shundaki, ishlab chiqarish vositalari va mehnat mahsuliga ayrim shaxslar emas, balki ma'lum guruh, kishilar egalik qiladi.

Kooperativlar mulkining asosiy belgisi ishlab chiqarish vositalari va uning natijalarini o'zlashtirishning jamoa-guruh xususiyatidir. Mulchilikning bu turida ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqarish vositalari bilan qo'shilishi muayyan mehnat jamoasi doirasida ro'y beradi.

Ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish va ularni o'zlashtirish mulk egasi bo'lmish mehnat jamoasi doirasida amalga oshiriladi hamda jamoa va shaxsiy iqtisodiy manfaatlarining mushtarakligi vujudga keladi.

Kooperativlar qishloq xo'jaligida, sanoat, qurilish, transportda, savdo va umumiy ovqatlanish, pulli xizmatlar sohasida hamda ishlab chiqarish va ijtimoiy-madaniy hayotning boshqa tarmoqlarida, ilmiy va ilmiy-texnikaviy xizmat ko'rsatish sohalarida barpo etilishi va faoliyat ko'rsatishi mumkin.

Ishlab chiqarish kooperativlari o'z a'zolarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi. Ishlab chiqarish va xizmatlarning boshqa sohalaridagi kooperativlarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular ichida qishloq xo'jaligi kooperativlari alohida ajralib turadi.

Xususiy mulk o'z mol-mulkiga xususiy tarzda egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidan iboratdir. Xususiy mulk mulkdorning ishlab chiqarish jarayonida va (yoki) yollanma mehnatni qo'llashda shaxsan ishtirok etishiga asoslanishi mumkin.

Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor o‘z mulkidan faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mahrum etilishi mumkin.

Xususiy mulk ham, boshqa har qanday mulk shakllari kabi, o‘zining ijobiy va salbiy tomonlariga ega. U, so‘zsiz, tashabbuskorlik va tadbirkorlikni, mehnatga mas’uliyatlilik munosabatlarini rag‘batlantiradi. Shu bilan birga, tovar ishlab chiqarish sharoitida u xufiyona daromad orttirishga intilish hissini tug‘diradi. Mulkchilikning bu shaklini tan olish xalq xo‘jaligida uni qo‘llash foydali bo‘lgan bo‘g‘inlarni aniqlash, uni tartibga solishning moliyaviy va huquqiy mexanizmlarini shakllantirishni taqozo qiladi. Lekin xususiy mulkchilikni bunday tan olish uni mutlaqlashtirish bilan umuman bog‘liq emas. Bu mulk sotib olingan ishlab chiqarish vositalari asosida mustaqil xo‘jalik yuritish yoki davlat korxonalari, kooperativ firmalar, magazin, oshxona va shu kabilarni sotib olish orqali vujudga kelishi mumkin.

Mulkning aralash shakllari mulkdorlarning moddiy va pul mablag‘larini birlashtirish yo‘li bilan hosil qilinadi. Aralash mol-mulkka egalik qilish hissaviy ishtirok etish prinsipi asosida ham, shuningdek, o‘z mablag‘larini birlashtirgan mulkdorlar o‘rtasida daromadlarni qo‘shgan ulushiga qarab taqsimlash asosida va tomonlarning kelishuvi bilan ham amalga oshirilishi mumkin.

Aralash mulkning o‘z mablag‘larini birlashtirayotgan mulkdorlarning maqomi bilan belgilanadigan har xil turlari bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning, turli yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkini birlashtirishga yo‘l qo‘yiladi.

Shuningdek, chet el fuqarolari O‘zbekiston Respublikasi hududidagi mulklariga egalik huquqiga egalar. Davlat bu

mulkning daxlsizligini va boshqa davlatlarga erkin o'tkazilishini kafolatlaydi.

### **17.3. O'zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish**

Hozirgi kunda milliy qonunchiligimizda xususiy mulk va mulkdorlar huquqlarini himoya qilish kafolatlari bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solingan. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi, Soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasining «Mulkchilik to'g'risida»gi, «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi, «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi, «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi, «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi, «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida»gi, «Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi hamda «Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonlari va boshqalar ana shular jumlasidandir.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish vazifasi, eng avvalo, bozor munosabatlarining uzviy qismi bo'lgan, iqtisodiy jihatdan mustaqil va ma'suliyatli tovar ishlab chiqaruvchilar qatlamini shakllantirishni ko'zda tutadi. Iqtisodiyotda mutlaq davlat mulki ustuvorlik qilgan sharoitda uni tubdan o'zgartirish va isloh etishdek

murakkab va keng qamrovli vazifa faqat turli tarmoq korxonalar va tashkilotlarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish orqali hal etilishi mumkin.

Davlat mulki shaklida bo'lgan korxonalar, tashkilot va mulk obyektlarini mulkning boshqa shakllariga (hissadorlik, jamoa, kooperativ, xususiy, aralash) o'tkazilishi mulkni davlat tasarrufidan chiqarish jarayonini bildiradi.

Davlat mulkining haq to'lash yo'li bilan yoki hech qanday to'lovlarsiz, yoki imtiyozli xususiy mulkka o'tkazilishi xususiylashtirishni bildiradi.

O'zbekiston Respublikasida mulklarning mavjud shakllari mamlakat Konstitutsiyasining 53-moddasida belgilab berilgan bo'lib, xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat tomonidan muhofaza etilishi ta'kidlangan.

O'zbekistonda mulkni isloh qilish va ko'p ukladli iqtisodiyotni barpo etishda, eng avvalo, bozor munosabatlariga o'tishning o'zbek modeli xususiyatlariga va mamlakat aholisining mentaliteti, ijtimoiy psixologiyasi va madaniy an'analariga tayangan holda chora-tadbirlar ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Natijada O'zbekistonda amalga oshirilayotgan mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarining boshqa davlatlardan, jumladan, aksariyat MDH mamlakatlari amaliyotlaridan farqli xususiyatlari quyidagilarda o'z aksini topdi:

- mamlakatda chekli xususiylashtirish amaliyotidan voz kechilganligi;

- davlat mulkini boshqa mulk shakliga o'zgartirishda uning faqatgina yangi mulk egasiga sotilishi;

- xususiylashtirishda dasturli yondashish va uning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi;

- mulkni davlat tasarrufidan chiqarishda aholi uchun kuchli ijtimoiy kafolatlarning yaratilganligi va ta'minlanganligi;

– faoliyat ko‘rsatib turgan ishlab chiqarish va boshqaruv tarkiblarining bo‘laklarga ajratilganligi va monopoliyadan chiqarilganligi.

Mamlakatda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishni amalga oshirishning bosh tashkilotchisi bo‘lgan davlat jarayonga dasturli yondashishni ta‘minlab berdi. Unga ko‘ra 1994-yilning boshlanishida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi «O‘zbekiston Respublikasida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish Davlat dasturi»ni ishlab chiqdi va qabul qildi. Mazkur Davlat dasturi mamlakatda xususiylashtirish jarayonlarining istiqbollari va uning strategik maqsadlarini belgilab berdi. Xususiylashtirishning taktik (qisqa muddatli) maqsadlari esa davlat dasturidan kelib chiqib ishlab chiqilgan tarmoq va mintaqaviy dasturlarda o‘z aksini topdi.

O‘zbekistonda mulkni tubdan isloh qilish jarayonlari izchillik bilan olib borildi va bir nechta bosqichdan iborat bo‘ldi.

Birinchi bosqich 1992–1993-yillarni qamrab olib, «kichik xususiylashtirish» nomini oldi va unda faol xususiylashtirish jarayonlari amalga oshirildi. Mazkur bosqichda davlat uy-joy fond, savdo, xizmat ko‘rsatish tizimi, mahalliy, yengil va oziq-ovqat sanoati, avtomobil transporti, qurilish tizimlaridagi mayda korxonalarni xususiylashtirish amalga oshirildi. Mamlakat iqtisodiyotida agrar sohaning muhim ahamiyati va aksariyat aholining qishloq joylarida istiqomat qilish xususiyatidan kelib chiqib islohotlar, avvalo, qishloq xo‘jaligida amalga oshirildi. Bu esa islohotlarni yanada jadallashtirish va chuqurlashtirish uchun yetarli iqtisodiy poydevorni mustahkamladi va mamlakatdagi ijtimoiy muhitning yaxshilanishiga olib keldi. Natijada, ilgari davlat mulkida bo‘lgan uy-joy fondlari va mayda korxonalar, asosan, xususiy va jamoa mulki shakllariga o‘tdi.



Ilgari aksariyati (95 foiz) yuridik maqomga ega bo‘lmagan 52268 ta yangi, nodavlat mulkdorlar qatlami yaratildi.

Ikkinchi bosqich 1994–1995-yillarni qamrab oldi va unda «yalpi xususiylashtirish» amalga oshirildi. Ikkinchi bosqichda davlat nazorati saqlanib qolinishi shart bo‘lmagan tarmoqlar deb belgilangan yengil sanoat, mashinasozlik, qurilish materiallari ishlab chiqarish sohalaridagi o‘rta va yirik korxonalar ommaviy tarzda xususiylashtirish jarayonlariga jalb qilindi. Davlat dasturiga ko‘ra ikkinchi bosqichda tarmoq va mintaqa ahamiyatidagi 50 mingdan ortiq o‘ta muhim obyektlarni xususiylashtirish ko‘zda tutilgan edi. Ushbu davrda kichik korxonalar xususiy mulkka aylantirilgan bo‘lsa, o‘rta va yirik korxonalar esa ochiq turdagi hissadorlik jamiyatlariga aylantirildi. Hissadorlik korxonalari aksiyalarining paketlari to‘rt qismga ajratilib, quyidagi nisbatlarda sotish amalga oshirildi: mehnat jamoasiga – 25 foiz; davlat ixtiyorida – 26 foiz; erkin savdoga 30 foizi; turdosh korxonalarga – 10 foiz; chet el investoriga – 10 foiz. Shuningdek, qisqa davrda 70 mingdan ortiq kichik korxonalar yaratildi va ro‘yxatga olindi. Mulkdorlar qatlami yanada kengayib, ular safiga xususiylashtirilgan korxonalarining 2 mln. dan ortiq aksiya, ulush va pay egalari, 3 mln.ga yaqin shaxsiy tomorqa xo‘jaliklari egalari, 85 mingga yaqin xususiy va kichik korxonalar egalari, 14 ming ko‘chmas mulk egalari qo‘shildi.

Uchinchi bosqich hisoblangan 1996–1998-yillarda nazorat paketlari davlat mulki shaklida saqlanib kelayotgan yirik korxonalar va tarmoqlarni isloh qilish belgilangan edi. «Yirik xususiylashtirish» nomini olgan mazkur bosqichda Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasi tomonidan xususiylashtirishga tortilmaydigan obyektlarning nomma-nom ro‘yxati belgilandi. Ularga suvdan foydalanish obyektlari, melioratsiya tarmoqlari, muzeylar, sanepidstansiyalari, strategik va harbiy ahamiyat-

dagi nobudjet jamg'armalari kiritildi. Ushbu ro'yxatdan o'rin olmagan barcha korxonalar va obyektlar (jami 3146 ta) uchinchi bosqichda xususiylashtirilishi shart edi.

«Strategik xususiylashtirish» nomini olgan to'rtinchi bosqichda (1998-yilning oxiridan – 2002-yilgacha) xususiylashtirishdan davlat budjetiga mablag'lar safarbar etish, xususiylashtirilayotgan korxonalar xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, boshqaruvning samaradorligini oshirish va yangi mulkiy munosabatlarni to'liq faoliyat ko'rsatishi uchun shart-sharoitlar yaratish asosiy vazifalari sifatida belgilab qo'yilgan. Natijada bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan yirik industriya gigantlari, yoqilg'i-energetika, kimyo va mashinasozlik komplekslarining yordamchi korxonalarini yirik xorij investorlarini jalb qilish asosida xususiylashtirish jarayonlari davom ettirilmoqda.

O'zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonining beshinchi bosqichi 2003-yildan boshlandi va 2005-yilning oxirigacha davom etdi. Bu bosqichning boshlanishi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning «O'zbekiston iqtisodiyotida xususiylashtirish sektorining ulushi va ahamiyatini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni bilan bog'liq. Mazkur Farmon iqtisodiy nochor davlat korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini jadallashtirish, shuningdek, mazkur korxonalarini modernizatsiyalash va barqaror rivojlantirish uchun to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb etish maqsadida xususiylashtirilgan obyektlarga narx belgilashning samarali mexanizmini joriy etishga olib keldi. Xususan, xususiylashtirilgan korxonalar davlat aktivlarining boshlang'ich narxlarini asta-sekin pasaytirib borish hamda davlat, iqtisodiy nochor korxonalarini va past likvidli obyektlarni nol darajadagi xarid qiymati bo'yicha tanlov asosida investitsiya majburiyatlarini qabul qilish sharti bilan investorlarga sotish tartibini tasdiqladi.

Oltinchi bosqich – 2006–2009-yillar: mazkur bosqich O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2006-yil 10-iyuldagi 2006–2008-yillarda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish to‘g‘risida»gi Farmonining qabul qilinishi bilan boshlandi. Iqtisodiyotda xususiy mulkchilik rolining ortishi, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ustav fondida davlat ulushining qisqarishi, yuridik va jismoniy shaxslarning binolari, inshootlari bilan band bo‘lgan yer uchastkalari xususiy mulk huquqida xususiylashtirilishi ushbu bosqichning muhim xususiyati hisoblanadi. Ushbu holat O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 24-iyulda qabul qilingan «Yuridik shaxslar va fuqarolarning binolari va inshootlari bilan band bo‘lgan yer uchastkalarini xususiylashtirish to‘g‘risida»gi Farmonidan kelib chiqadi.

Yettinchi bosqich – 2010-yildan boshlanib, hozirda ham davom etmoqda.

Mamlakatimizda davlat korxonalarini xususiylashtirishning 2000–2016-yillardagi asosiy natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan.

#### **O‘zbekistonda 2000–2016-yillardagi xususiylashtirishning asosiy natijalari**

	<b>2000</b>	<b>2005</b>	<b>2010</b>	<b>2015</b>	<b>2016</b>
Xususiylashtirilgan korxonalar soni	372	980	96	848	609
Shu jumladan:					
Hissadorlik jamiyatlari	152	3	-	-	-
Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar	117	75	-	-	-
Xususiy korxonalar	105	902	96	848	609
Xususiylashtirishdan tushgan mablag‘lar:					
(mlrd. so‘m)	14,28	80,52	23,03	103,2	164,8
mln. AQSH dollari	6,68	22,59	59,0	-	1,1

Bugungi kunda mamlakatda amalga oshirilgan xususiy-  
lashtirish jarayonlari bozor iqtisodiyotida katta salohiyatga ega  
bo'lgan mulkdorlar sinfini yaratish bilan birga, malakali boshqa-  
rish ko'nikmalariga ega bo'lgan kadrlar masalasini yechish im-  
konini berdi. Bu esa xususiy lashtirishning so'nggi bosqichida  
davlat tasarrufidan chiqarilishi rejalashtirilgan va, asosan, ba-  
zaviy tarmoqlarda joylashgan yirik korxonalar mulkini tubdan  
isloh qilish uchun yetarli tajriba to'plandi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, 2017-yil 17-yanvar kuni  
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik fao-  
liyatini va xususiy mulkni yanada rivojlantirish, davlat mul-  
ki obyektlarini sotishni soddalashtirish va tezlatish bo'yicha  
qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni imzolandi.

Mazkur Farmon xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun  
qulay sharoitlar yaratish, ularga tovarlar ishlab chiqarish va  
xizmatlar ko'rsatish uchun davlat mulki obyektlarini sotishni  
soddalashtirish va tezlatish hamda strategik ahamiyatga ega  
bo'lmagan davlat mulklarini xususiy lashtirishda byurokratik  
to'siqlarni yo'qotish, xususiy mulkka sotilgan obyektlar ne-  
gizida raqobatbardosh mahsulotlarni (xizmatlar) ishlab chiqa-  
rishni yo'lga qo'yish maqsadida ishlab chiqildi.

Bundan tashqari, farmonda strategik ahamiyatga ega bo'l-  
magan korxonalarni va ularning ustav fondidagi davlat ulush-  
larini, davlat ko'chmas mulk obyektlarini xususiy lashtirish,  
shu jumladan, «nol» xarid qiymatida investitsiya kiritish sharti  
bilan berish o'rnatilgan talablarga muvofiqligidan kelib chi-  
qib xususiy lashtirish to'g'risidagi qarorni qabul qilish huquqi  
Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va  
Toshkent shahar hokimlariga berilishi ko'zda tutilgan.

Korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashti-  
rish Davlat dasturiga ko'ra yaqin istiqbolda O'zbekistonda  
xususiy lashtirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish quyi-

dagi xususiyatlarni hisobga olgan holda tashkil etilishi belgilab berilgan:

– xususiylashtirishda asosiy eʼtiborni miqdor koʻrsatkichlaridan uning sifat koʻrsatkichlariga qaratish. Bunda tarmoqlarni chuqur restrukturalizatsiyalash va korxonalarni xususiylashtirishdan keyingi davrda qoʻllab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish;

– mulki isloh qilinishi koʻzda tutilgan korxonalarining xususiyatlarini hisobga olgan holda xususiylashtirishning turli vosita va usullarini kengaytirish. Bunda, birinchi navbatda, korxonalarining tarmoq va mintaqaviy xususiyatlari, xususiylashtirilayotgan korxonalarining mulkini baholash tizimini takomillashtirish, ularni tender asosida sotish koʻzda tutilgan;

– tadbirkorlikni izchil qoʻllab-quvvatlash orqali iqtisodiyotning samaradorligini oshirish. Buning uchun korxonalarni sanatsiyalash va restrukturalizatsiyalashni amalga oshirish, shuningdek, zarar bilan ishlovchi korxonalarni tugatish chora-tadbirlarini olib borish koʻzda tutiladi;

– aholining keng qatlamlarini hissadorlik jamiyatlarini yaratish jarayoniga jalb qilish va mamlakat fond bozorini yanada rivojlantirish.

### **Qisqacha xulosalar**

1. Mulkchilik munosabatlari – bu mulk obyektini oʻzlash-tirish boʻyicha mulk subyektlari oʻrtasidagi iqtisodiy munosabatlardir.

2. Mulkchilik munosabatlarining iqtisodiy mazmunini uning ajralmas uch jihati – egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish belgilab berdi.

3. Mulkka egalik qilish mulkdorlik huquqining uning egasi qoʻlida saqlanib turishini bildirsa, mulkdan foydalanish – bu

mol-mulkning iqtisodiy faoliyatda ishlatilishi yoki ijtimoiy hayotda qoʻllanilishini anglatadi. Mulkni tasarruf etish – mol-mulkni sotish, meros qoldirish, hadya qilish, ijaraga berishni mulk egasi tomonidan mustaqil hal etilishidir.

4. Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligiga koʻra, Oʻzbekistonda quyidagi mulk shakllari amal qiladi:

- xususiy mulk;
- shirkat (jamo) mulki;
- maʼmuriy-hududiy tuzilmalarning mulkidan (kommunal mulkdan) iborat davlat mulki;
- aralash mulk;
- boshqa davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar yuridik va jismoniy shaxslarining mulki.

5. Davlat mulki shaklida boʻlgan korxonalar, tashkilot va mulk obyektlari mulkining boshqa mulk shakllariga (hissadorlik, jamoa, kooperativ, xususiy, aralash) oʻtkazilishi mulkni davlat tasarrufidan chiqarish jarayonini bildiradi.

Davlat mulkini haq toʻlash yoʻli bilan yoki hech qanday toʻlovlarsiz, yoki imtiyozli xususiy mulkka oʻtkazilishi xususiy- lashtirishni bildiradi.

6. Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarining boshqa davlatlardan, jumladan, MDH mamlakatlari amaliyotlaridan farqli xususiyatlari quyidagilarda oʻz aksini topdi:

- mamlakatda chekli xususiylashtirish amaliyotidan voz kechilganligi;
- davlat mulkini boshqa mulk shakliga oʻzgartirishda uning faqatgina yangi mulk egasiga sotilishi;
- xususiylashtirishda dasturli yondashish va uning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi;
- mulkni davlat tasarrufidan chiqarishda aholi uchun kuchli ijtimoiy kafolatlarining yaratilganligi va taʼminlanganligi;

– faoliyat ko‘rsatib turgan ishlab chiqarish va boshqaruv tarkiblarining bo‘laklarga ajratilganligi va monopoliyadan chiqarilishi va h.k.

7. «Kichik xususiylashtirish»da faol xususiylashtirish jarayonlari amalga oshirildi. Mazkur bosqichda davlat uy-joy fondi, savdo, xizmat ko‘rsatish tizimi, mahalliy, yengil va oziq-ovqat sanoati, avtomobil transporti, qurilish tizimlaridagi mayda korxonalarni xususiylashtirish amalga oshirildi.

8. «Yalpi xususiylashtirish»da davlat nazorati saqlanib qolinishi shart bo‘lmagan tarmoqlar deb belgilangan yengil sanoat, mashinasozlik, qurilish materiallari ishlab chiqarish sohalaridagi o‘rta va yirik korxonalar ommaviy tarzda xususiylashtirish jarayonlariga jalb qilindi.

9. «Yirik xususiylashtirish»da Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasi tomonidan xususiylashtirishga tortilmaydigan obyektlarning nomma-nom ro‘yxati belgilandi. Ularga suvdan foydalanish obyektlari, melioratsiya tarmoqlari, muzeylar, sanepidstansiyalari, strategik va harbiy ahamiyatdagi nobudjet jamg‘armalari kiritildi. Ushbu ro‘yxatdan o‘rin olmagan barcha korxonalar va obyektlar xususiylashtirilishi mumkin edi.

10. «Strategik xususiylashtirish»da xususiylashtirishdan davlat budjetiga mablag‘lar safarbar etish, xususiylashtirilayotgan korxonalarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, boshqaruv samaradorligini oshirish va yangi mulkiy munosabatlarning to‘liq faoliyat ko‘rsatishi uchun shart-sharoitlar yaratish asosiy vazifalari sifatida belgilab qo‘yilgan.

## **Asosiy atamalar va tushunchalar**

Mulk, mulkchilik munosabatlari, mulkka egalik qilish, mulkni tasarruf etish, mulkdan foydalanish, xususiy mulk, shirkat (jamoat) mulki, davlat mulki, aralash mulk, mulk-

ni davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirish, «kichik xususiylashtirish», «yalpi xususiylashtirish», «yirik xususiylashtirish», «strategik xususiylashtirish».

### **Nazorat savollari**

1. Mulkchilik munosabatlari nima? Mulkchilik munosabatlarining asosini qaysi jihatlar belgilab beradi?
2. Mulk obyektlari va subyektlari nima?
3. O‘zbekistonda mulkning qanday shakllari amal qiladi?
4. Bozor iqtisodiyoti nima uchun mulkchilikning turli-tumanligiga asoslanadi?
5. Nima uchun bozor iqtisodiyotida xususiylashtirish ustuvor o‘ringa ega bo‘ladi?
6. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish deganda nimani tushunasiz?
7. O‘zbekistonda amalga oshirilgan mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning o‘ziga xos jihatlari nimalarda o‘z aksini topadi?
8. «Kichik xususiylashtirish» deganda nimani tushunasiz?
9. «Yalpi xususiylashtirish»da qanday korxonalar va tashkilotlar davlat tasarrufidan chiqarildi?
10. «Yirik xususiylashtirish»ning o‘ziga xos jihatlari nima?
11. «Strategik xususiylashtirish»da qanday shart-sharoitlarning yaratilishi ko‘zda tutilgan?



---

---

## XVIII b o b

# O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA RAQOBAT VA MONOPOLIYA

### 18.1. Raqobatning mohiyati va turlari

Bozor munosabatlariga asoslangan xo‘jalik yuritish shaklida raqobat muhitini shakllantirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, raqobat bozor muhitining ajralmas tarkibiy qismi va tadbirkorlik faoliyati rivojlanishining zaruriy sharti hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. Karimov ta’kidlaganidek, «Raqobat bo‘lmasa, bozor iqtisodiyotini barpo etib bo‘lmaydi. Raqobat bozorning asosiy sharti, aytish mumkinki, uning qonunidir»<sup>1</sup>.

Raqobat va monopoliya tushunchalari o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, bozor munosabatlarining tub belgilari hisoblanadi. Ular yagona bir jarayonning qarama-qarshi tomonlaridir.

Raqobat deganda bozor iqtisodiyoti subyektlarining yuqori foyda olish maqsadida bir-biri bilan kurashi, o‘zaro bellashuvi tushuniladi. U ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilarning iqtisodiy erkinlik darajasini kengaytiradi, jami to‘lovga qobil talabni oshiradi, kapitalning o‘z-o‘zidan o‘sish tendensiyasini kuchaytiradi. Taniqli iqtisodchi F. Xayek ta’kidlaganidek, «Raqobat – bu, eng avvalo, izlanishdir. Uni yangilik olib kiruvchilar amalga oshiradilar».

Raqobat unda ishtirok etuvchilar soni, mavqeyi, iqtisodiyotga ta’siri, kurash usullariga ko‘ra farqlanadi. Bozor tizimida quyil-

---

<sup>1</sup> I.A. Karimov. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: «O‘zbekiston». 1999. – 34-bet.

dagi raqobat turlari mavjud: erkin raqobat, sof monopoliya, monopolistik raqobat va oligopoliya.

Erkin raqobatda ixtiyoriy, mutlaqo mustaqil ish ko'rayotgan ko'p sonli sotuvchilar va xaridorlar ishtirok etadilar. Bunday raqobat turida narxlar bozor orqali belgilanadi. Bozorga kirish va undan chiqib ketish oson. Raqobatlashuvchilar xaridorlarga bir xil tovarlarni taklif qiladilar. Raqobatda ishtirok etayotgan alohida firmalar narxga ta'sir o'tkaza olmaydilar.

Monopolistik raqobatda nisbatan ko'p sonli tovar ishlab chiqaruvchilar qatnashadilar va ular bir-biriga o'xshash, lekin aynan bir xil bo'lmagan (xaridor nuqtayi nazarida) mahsulotlarni xaridorlarga taklif qiladilar. Erkin raqobatdan farqli o'laroq, monopolistik raqobat sharoitida har bir firma mahsulotning sifati, qadoqlanishi, chidamliligi belgilari bilan boshqalardan farq qilib turuvchi tovarning maxsus turini (turlangan mahsulot) ishlab chiqaradi. Monopolistik raqobat sharoitida har bir firma bozorning ma'lum bir qismini nazorat qilgani uchun ularning bozor narxiga ta'siri ham cheklangan bo'ladi. U xizmat ko'rsatish sohasining ko'plab tarmoqlariga (masalan, restoranlar, texnik xizmat ko'rsatish tizimlari, bank muassasalari) xos. Ishlab chiqarish sohasida esa, kompyuterlar, telefon apparatlari, kiyim-kechaklar, alkogolsiz ichimliklar, kir yuvish vositalari bozorlari monopolistik bozorga misol bo'la oladi.

Monopolistik raqobat mavjud bozorlar ochiq va shu sababli unga boshqa firmalarning kirib kelishi va undan chiqib ketishi oson bo'ladi.

Oligopoliya sharoitidagi raqobatda ozchilik, lekin yirik firmalar ishtirok etadilar. Jami mahsulot sotishning 50 va undan ko'p foizini cheklangan sonli (ko'pincha 3 tadan 9 tagacha) yirik firmalar tomonidan qamrab olinishi oligopolistik ishlab chiqarilayotgan tovarlar standartlashgan (sof raqobat

## Turli xil bozorlarning tavsifi

O'lchovlari	Erkin raqobat	Monopolistik raqobat	Oligopoliya	Monopoliya
<b>Mahsulot ishlab chiqaruvchi firmalar soni</b>	Ko'p sonli mustaqil firmalar; bozorlar bo'yicha nazorat yo'q	Bir-biriga o'xshash tovarlar va xizmatlar ishlab chiqaruvchi ko'p sonli firmalar	Tovarlar va xizmatlar ishlab chiqaruvchi sanoqli firmalar	Bir xil mahsulot va bitta firma
<b>Narxlar ustidan nazorat</b>	Narxlar bozor orqali belgilanadi	Ta'sir almashtirish imkoniyati tufayli cheklangan	Narx bo'yicha yetakchi firmaning ta'siri mavjud	Deyarli to'liq nazorat
<b>Tovarlarning tabaqalashuvi</b>	Mahsulotlar xususiyatlari va sifatлари bo'yicha bir-biriga yaqin	Tovarlar va xizmatlar bozor segmentlari bo'yicha tabaqalashgan	Alohida tovarlar uchun sezilarli, standart tovarlar uchun sezilarsiz	Yo'q
<b>Bozorga kirish imkoniyati</b>	Bozordan nisbatan yengil chiqib ketish va bozorga nisbatan oson kirish mumkin	Bozordan nisbatan yengil chiqib ketish va bozorga nisbatan oson kirish mumkin	Qiyin, ko'pincha yirik investitsiyalar talab qiladi	Juda qiyin

sharoitidagi kabi) va turlangan (monopolistik raqobat sharoitidagi kabi) bo'lishi mumkin. Oligopolistik bozorga jahon avtomobil bozorini misol qilib keltirish mumkin. Bu yerda «Ford» (AQSH) va «Daymler-Kraysler» (AQSH-Germaniya), «Toyota», «Xonda» va «Nissan» (Yaponiya), «Folksvagen» va «Opel» (Germaniya) kabi firmalarga bozordagi jami ishlab chiqarishning 70–80 foizga yaqini to'g'ri keladi.

Oligopolistik raqobat hukmron bo'lgan bozorga kirish nihoyatda qiyin va u yirik kapital mablag'larni talab etadi. Oligopoliniyaning sodda ko'rinishi duopoliya hisoblanadi va bunday bozorda ikkita firma hukmron bo'ladi.

Sof monopoliya erkin raqobatning aksidir. Bu holatda bozorda yagona sotuvchi faoliyat ko'rsatadi va u tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovarning o'rmini bosuvchilar bo'lmaydi. Natijada, ishlab chiqaruvchi tovar narxiga ta'sir ko'rsatishning mutlaq imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu yerda ishlab chiqarish tarmog'i bitta kompaniyadan iborat bo'ladi. Sof monopoliya hukmron bozorga boshqa firmalarning kirishi nihoyatda qiyin.

Ma'lumki, monopoliyaning mavjud bo'lishi jamiyat nuqtayi nazaridan maqsadga muvofiq emas. Shu sababli bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlarda monopoliyaga qarshi qonunchilikning asosiy maqsadi monopoliyaga qarshi kurash emas, balki milliy iqtisodiyot samaradorligini rag'batlantirish uchun samarali raqobat muhitini saqlab qolishga qaratilgan.

Iqtisodiyotda, shuningdek, «tabiiy monopoliyalar» tushunchasi qo'llaniladi. Tabiiy monopoliyalar iqtisodiyotning yoqilg'i-energetika, transport, aloqa, kommunal xo'jaligi sohalarida keng tarqalgan bo'lib, odatda, bunday korxonalar davlat mulki shaklida yoki davlat nazorati ostida faoliyat olib boradi. Hozirgi davrda iqtisodiyotda tabiiy monopoliyalar faoliyat ko'rsatishining asosiy sabablaridan biri sohada raqobat muhiti yaratishning iloji yo'qligi yoki iqtisodiy jihatdan maqsadga

muvofig emasligidir. Tabiiy monopoliyalar faoliyatlarini tartibga solish, eng avvalo, tegishli tovarlar ishlab chiqaruvchilari va iste'molchilari manfaatleri mutanosibligiga erishish, korxonaning iqtisodiy asoslangan xarajatlarining to'liq qoplanishini ta'minlash va ishlab chiqarishni rivojlantirishga mos ravishda investitsiyalash shart-sharoitlarini yaratishdan iboratdir.

Raqobat bozorlarda turli shakllarda namoyon bo'ladi va turli uslublarda olib boriladi. Odatda, raqobat tarmoq ichidagi raqobat (o'xshash bo'lgan tovarlar o'rtasida) va tarmoqlararo raqobat (turli tarmoqlar tovarlari o'rtasida)ga ajratiladi.

Shuningdek, raqobat narxlar vositasida va sifat asosida yuz berishi mumkin. Narxlar vositasida raqobat narxni o'zgartirish yo'li bilan xaridorlarni o'ziga jalb qilish va raqobatchisini shu yo'l bilan bozordan siqib chiqarishga qaratiladi. Sifat asosida raqobatlashuvda raqobatlashuvchilar bozorga sifatli, chidamli, ishlatish muddati uzoq, unumdorligi yuqori tovarlar bilan qatnashish orqali xaridorlarni jalb etishga harakat qiladilar. Odatda, xomashyo bozorlarida narxlar vositasida raqobatlashuv ustuvor o'ringa ega bo'lsa, tayyor mahsulotlar bozorida sifat asosida raqobat asosiy o'rinni egallaydi.

## **18.2. Raqobat muhiti va unga ta'sir etuvchi omillar**

Iqtisodiy faoliyatning raqobat asosida tashkil etilishi bozor iqtisodiyotining eng muhim xususiyatlaridan biridir. Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyot to'rtta muhim ustunga tayyanadi: bozor taklifi, bozor talabi, narx va raqobat. Bular orasida iqtisodiyotni raqobat asosida tashkil etish alohida o'ringa ega.

Umuman olganda, bozor iqtisodiyotining yuzaga kelishi va uning boshqa iqtisodiy tizim turlaridan afzalligi ham raqobat kurashining natijasidir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromad topib, ko‘proq foyda ko‘rish har qanday mafkuradan ustunroq bo‘ladi. Kishilar iqtisodiy faoliyat ko‘rsatishning eng arzon va mukammal yo‘llarini izlab topishga harakat qiladilar va buning uchun raqobat mexanizmi qulay shart-sharoit yaratadi. Raqobat kurashida, eng avvalo, tovar ishlab chiqaruvchi va xizmat ko‘rsatuvchilar yuqori foyda olish maqsadida ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish orqali ularning narxlarini pasaytirishga harakat qiladilar. Bu esa, bir tomondan sotiladigan mahsulotlarning hajmini ko‘paytirsa, ikkinchi tomondan, daromadlarining oshishiga asos bo‘ladi.

O‘z navbatida, bunday imkoniyat tejamkorlik, ilmiy-texnika va yangi texnologiya yutuqlari ishlab chiqarishga joriy etilgandagina ro‘yobga chiqadi. Bu esa ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanishga puxta asos yaratadi. Raqobat sharoitida ishlab chiqaruvchilar o‘z tovarlari va xizmatlarining xillari va navlarini doimo yangilab, o‘zgartirib va kengaytirib turishdan manfaatdor bo‘ladilar.

Qolaversa, tadbirkorlar bozorda iste‘molchilarning e‘tiborini qozonish va ularni o‘zlariga jalb etish uchun tinimsiz kurash olib boradilar. Bunga ular iste‘molchilarning ehtiyojlarini o‘rganish, tovarlar sotib olishdan manfaatdorligini oshirishga qaratilgan shakl va uslublarni joriy etish tufayli erishadilar. Bunday intilishlar, bir tomondan, tadbirkorlarning daromadlarini ko‘paytirsa, ikkinchi tomondan, iste‘molchilarning turli tovarlar va xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondiradi. Natijada bundan ishlab chiqaruvchi ham, iste‘molchi ham manfaatdor bo‘ladi.

Raqobatning bunday mo‘jizasi resurslarning cheklanganligi va ehtiyojlarning cheklanmaganligi sharoitida iqtisodiy faoliyatni oila xo‘jaligi, firma, tarmoq va tarmoqlararo, hududlar, mamlakatlar va jahon iqtisodiyoti miqyosida tashkil etishning

va boshqarishning eng noyob yo‘llarini tanlashda to‘la namoyon bo‘lmoqda. Shuningdek, iqtisodiy muvozanatni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Eng muhimi, raqobat tufayli jamiyat tan olmagan, samarasiz ishlab chiqarish va xizmatlar boshqa nufuzli yo‘nalish va tarmoqlarga o‘z o‘rnini bo‘shatib beradi. Natijada iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshadi.

Raqobat muhitini shakllantirishning muhim omillaridan biri, xususiylashtirishning yetakchi o‘ringa ega bo‘lishidir. Xususiylashtirish investitsiyalar kirib kelishini, yangiliklarni ishlab chiqarishga joriy etishni va iqtisodiy o‘rinni rag‘batlantiradi. Xususiylashtirish va raqobat muhiti o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjud bo‘lib, xususiylashtirish yetakchi o‘ringa ega bo‘lmagan jamiyatda raqobat muhiti shakllanishi mumkin emas.

Tadbirkorlikning shakllanishi va rivojlanishi xususiylashtirish jarayoniga, uning uslubiga, sur‘atlariga va ko‘lamiga bog‘liq. Xususiylashtirish natijasida, birinchidan, mulk o‘z egalari qo‘liga topshirilsa, ikkinchidan, ko‘p ukladli iqtisodiyot vujudga keladi.

Ma‘lumki, mulkni xususiylashtirish jarayoni aralash iqtisodiyotni yuzaga keltirish bilan tadbirkorlikning rivojlanishiga, raqobat muhitining shakllanishiga keng yo‘l ochadi. Xususiylashtirish tadbirkorlik, eng avvalo, kam kapital talab qiluvchi va tez foyda keltiruvchi tarmoqlarda rivoj topadi. Bu esa kichik korxonalarining rivojlanishi, bandlik va iste‘mol bozorini to‘ldirish muammosini hal etishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatish bilan birga, ko‘p sonli kichik korxonalar o‘rtasidagi hamda kichik va yirik korxonalar o‘rtasidagi raqobat kurashining avj olishiga olib keladi.

Bozor xo‘jaligining asosini bir-biri bilan o‘zaro raqobatlashuvchi yirik, o‘rta va kichik korxonalar majmuasi tashkil etadi. Ular jamiyatning tovar va xizmatlar taklif etish, ijodiy natijalar, tashabbuskorlik, iqtisodiyotning yangi sharoitlariga

moslashish darajasini belgilab beradi. Bozordagi raqobat intensivligi va ko‘lami ushbu korxonalar soni va ular faoliyatining samaradorligiga bog‘liq. Shu nuqtayi nazardan aytish mumkin-ki, turli mulk shakllariga asoslangan ko‘p sonli xo‘jalik yurituvchi korxonalarning vujudga kelishi raqobat muhiti shakllanishining eng muhim omillaridan biri sanaladi.

Tadbirkorlik erkinligi xususiy mulk bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u iqtisodiyotni tashkil etish masalasini tadbirkorlar tomonidan erkin hal etilishini anglatadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xususiy tadbirkorlar iqtisodiy resurslarni sotib olishda, ulardan ishlab chiqarish maqsadida foydalanishda, ishlab chiqarilgan tovarlarni o‘z ixtiyorlariga ko‘ra istagan bozorlarida sotishda erkin bo‘ladilar. Hech qanday sun‘iy g‘ovlar tadbirkorlarga biror-bir tarmoqqa kirish yoki biror-bir tarmoqdan chiqib ketishga to‘sqinlik qila olmaydi.

Raqobat muhitini shakllantirishning yana bir muhim omili tanlash erkinligi bilan bog‘liq. Bu shuni anglatadiki, moddiy resurslar va pul kapitali egalari o‘z resurslaridan o‘z ixtiyorlariga ko‘ra foydalanishlari yoki ularni o‘z ixtiyorlariga ko‘ra sotishlari mumkin. Shuningdek, tanlash erkinligi har bir ishchini o‘z qobiliyati va layoqatiga ko‘ra o‘zi uchun ma‘qul bo‘lgan har qanday faoliyat turi bilan shug‘ullanishga imkon beradi. Va nihoyat, tanlash erkinligi iste‘molchilarga o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun istagan nisbatda tovar va xizmatlar sotib olish imkoniyatini beradi.

Raqobat muhitini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri – iste‘mol tanlovi erkinligidir. Bozor munosabatlari sharoitida iste‘molchi alohida mavqega ega bo‘lib, aynan u o‘z tanlovini amalga oshirar ekan, iqtisodiyotda qanday tovarlar ishlab chiqarish lozimligini hal qiladi. Ishlab chiqaruvchilar, mol yetkazib beruvchilar faqat iste‘molchi tanlovi doirasida o‘z qarorlarini qabul qiladilar. Demak, ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqariladigan tovarlarni tanlashda erkin emaslar.



### **18.3. O‘zbekistonda raqobat muhitini shakllantirish va monopoliyaga qarshi faoliyat yuritishning me‘yoriy-huquqiy asoslari**

O‘zbekistonda raqobat muhitini rivojlantirish, bozorlarda monopolistik holatlarning oldini olishning huquqiy asoslari bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining «Raqobat to‘g‘risida»gi, «Iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi, «Tabiiy monopoliyalar to‘g‘risida»gi va «Reklama to‘g‘risida»gi Qonunlari va boshqa me‘yoriy hujjatlar xizmat qiladi.

O‘zbekistonda raqobat muhitini rivojlantirish va monopoliyadan chiqarish ishlarini muvofiqlashtirish maqsadida 1992-yilda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tarkibida Monopoliyaga qarshi va narx siyosati Bosh boshqarmasi birinchi marta tashkil qilindi. 1996-yilga kelib ushbu Boshqarma O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish qo‘mitasiga aylantirildi va unga yuridik shaxs maqomi berildi. 2000-yilning 2-avgustida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida»gi Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi qarorlariga muvofiq tashkilot Moliya vazirligi tarkibidan chiqarildi va mustaqil Davlat qo‘mitasi maqomini oldi.

Keyinchalik O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 13-noyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining Xususiy-  
lashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida»gi PF-4483-sonli

Farmoniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish davlat qo‘mitasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi negizida O‘zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tashkil etildi.

So‘ngra ushbu qo‘mita O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi PF-5016-sonli Farmoniga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi sifatida qayta tashkil etildi. Farmonga muvofiq uning asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

– tarmoqlar, hududlar va turli xususiylashtirish shakllari bo‘yicha muttasil yangilanib turuvchi ma‘lumotlar bazasini hamda xususiylashtirilgan obyektlar reyestrini, shuningdek, davlat aktivlari reyestrini shakllantirish;

– xususiylashtirilgan korxonalar faoliyati moliyaviy-iqtisodiy va ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini soliq, iqtisodiyot va statistika organlari bilan birgalikda doimiy asosda tahlil qilib borish, buning asosida faoliyat ko‘rsatmayotgan, past rentabelli va zarar ko‘rib ishlayotgan korxonalarni, bo‘sh yotgan va samarasiz foydalanilayotgan obyektlar hamda yer uchastkalarini aniqlash;

– ilgari xususiylashtirilgan korxonalar samaradorligining pastligi hamda ishlayotganligi sabablari va omillarini, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish quvvatlari, bo‘sh yotgan va qurilishi tugallanmagan obyektlarni aniqlash;

– yangi ish joylarini yaratish, ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini oshirish va modernizatsiyalash hamda raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, ruxsat beruvchi hujjatlarni olishda, kommunikatsiyalarga ulanishda va tijorat banklaridan kreditlar ajratilishida ularga ko‘maklashish maq-

sadida aniq xususiylashtirilgan korxonalarni rivojlantirishning «yo‘l xaritalari»ni ishlab chiqish va ularni amalga oshirishni ta‘minlash;

– Savdo-sanoat palatasi bilan birgalikda xususiylashtirilgan obyektlar negizida investitsiya loyihalarini amalga oshirayotgan tadbirkorlarga biznes yuritish va biznes-rejalarni ishlab chiqish asoslari, tadbirkorlik faoliyati sohasidagi qonunchilik, menejment, moliyaviy boshqaruv va boshqa fanlarni kasb-hunar kollejlari bazasida o‘tkaziladigan kurslarda o‘qitishni tashkil qilish, bunda tajriba almashish uchun respublikamizda ishlayotgan katta muvaffaqiyatlarga erishgan tadbirkorlar va xorijiy mutaxassislarni jalb etish;

– bankrotlik to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha davlat siyosatini amalga oshirish, iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog‘lomlashtirish, ularning faoliyat samaradorligini oshirish va yangi investorlarni jalb etish dasturlarini ishlab chiqish va ro‘yobga chiqarishda ishtirok etish;

– davlat aktivlarini boshqarish, davlat ulushiga ega bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari faoliyatini monitoring qilish va tahlil etish, ularda korporativ boshqaruvning zamonaviy xalqaro standartlari va metodlarini joriy etish, shuningdek, davlat aktivlarini xususiylashtirilgan mulkdorlarga, shu jumladan, «nol» xarid qiymati bo‘yicha sotishning ochiq-oydinligi va shaffofligini ta‘minlash, investorlar tomonidan qabul qilingan investitsiyaviy va ijtimoiy majburiyatlar bajarilishi ustidan monitoring olib borish;

– monopoliyaga qarshi siyosatni amalga oshirish, raqobatni va qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish, iste‘molchilar huquqlarini muhofaza qilish, baholash, rieltorlik va birja faoliyatini litsenziyalash, reklama bozorini tartibga solish;

– kadrlarni tizimli tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish, rahbar va mutaxassislar, shu jum-

ladan, idoraviy tuzilmalar rahbarlari hamda mutaxassislarining ish shakllari va uslublarini takomillashtirish, zimmasiga yuklangan vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun ularning mas'uliyatini oshirish.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida raqobat muhiti bilan bog'liq raqobat va ustun mavqe tushunchalariga katta e'tibor berilgan va ularga quyidagicha ta'rif berilgan: «Raqobat – xo'jalik yurituvchi subyektlarning (raqobatchilarning) musobaqalashuvi bo'lib, bunda ularning mustaqil harakatlari ulardan har birining tovar yoki moliya bozoridaagi tovar muomalasining umumiy shart-sharoitlariga bir tomonlama tartibda ta'sir ko'rsatish imkoniyatini istisno etadi yoki cheklaydi»; «Ustun mavqe tovar yoki moliya bozorida xo'jalik yurituvchi subyektning yoxud shaxslar guruhining raqobatlashuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarga bog'liq bo'lmagan holda unga o'z faoliyatini amalga oshirish va raqobatning holatiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatish, tegishli bozorga boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning kirishini qiyinlashtirish yoxud ularning iqtisodiy faoliyat erkinligini boshqacha tarzda cheklash imkoniyatini beradigan holatidir»<sup>1</sup>.

Qonunchilik O'zbekistonda xo'jalik yurituvchi subyektning (bir guruh shaxslarning) bozordagi ulushi ellik va undan ortiq foizni tashkil etadigan holatni so'zsiz ustun mavqe deb e'tirof etadi.

Shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektning bozordagi ulushi o'ttiz besh foizdan ellik foizgacha hajmda bo'lib, bunda quyidagi shartlar:

– xo'jalik yurituvchi subyektning tovar bozoridagi ulushi kamida bir yil mobaynida barqaror bo'lib turishi;

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining «Raqobat to'g'risida»gi Qonuni. «Xalq so'zi» gazetasi. 2012-yil 6-yanvar.

– tovar bozorida boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarga (raqobatchilarga) tegishli ulushlarning nisbiy miqdorda bo‘lib turishi;

– ushbu bozorga yangi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning (raqobatchilarning) kirishiga imkoniyat bo‘lishi shartlari belgilangan bo‘lsa, shu xo‘jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining mavqeyi ustun mavqe deb e‘tirof etiladi.<sup>1</sup>

O‘zbekiston tovar bozorlarida ustun mavqega ega bo‘lgan holatlar va insofsiz raqobatni cheklash hamda to‘xtatib qo‘yish sohasida davlat siyosatini Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi olib boradi.

Mazkur ko‘rsatkich bo‘yicha xorijiy mamlakatlar amaliyotida nisbatan murakkabroq tizim qabul qilingan bo‘lib, bozordagi ishtirokchilar soniga qarab ularning ulushlari belgilab chiqilgan. Xususan, AQSHning monopoliyaga qarshi amaliyotida bozorda raqobat sharoitlarining yaratilganligiga Xerfindeyl-Xirshman indeksi (XXI) asosida baho beriladi. Agarda XXI indeksi 1000 kichik bo‘lganda, bozordagi raqobat darajasi yetarli hisoblanadi va shu ko‘rsatkich doirasida korxonalarining birlashishlariga ruxsat beriladi. XXI dan kelib chiqib bozorda quyidagi holatlar shakllanganda, raqobat darajasi xavfidan xoli deb hisoblanadi:

- bozorda 10 va undan ortiq firma faoliyat ko‘rsatsa;
- 1 firma bozorning 31% ortig‘ini qamrab olmasa;
- 2 firma bozorning 44% ortig‘ini qamrab olmasa;
- 3 firma bozorning 54% ortig‘ini qamrab olmasa;
- 4 firma bozorning 63% ortig‘ini qamrab olmasa.

XXI ko‘rsatkichining 1800 birligidan oshib ketishi holatida, bozor raqobatli emas, deb hisoblanadi.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining «Raqobat to‘g‘risida»gi Qonuni. «Xalq so‘zi» gazetasi. 2012-yil 6-yanvar.

## 18.4. O‘zbekistonda raqobat muhitining shakllanish xususiyatlari

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, milliy iqtisodiyotda raqobat muhiti shakllanganligini belgilab beruvchi asosiy shart-sharoitlardan biri xususiy mulk yetakchi o‘ringa ega bo‘lgan ko‘p ukladli iqtisodiyotni barpo etish, xususiy mulkdorlar huquqlarini himoya qilishni mustahkamlovchi iqtisodiy tizimni shakllantirish hisoblanadi.

Bugungi kunda respublikada nodavlat mulkining har xil shakllarini rivojlantirish uchun barcha zaruriy shart-sharoitlar yaratilgan. Bu sohada amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasi o‘laroq, O‘zbekistonda turli mulkchilik shakllariga asoslangan ko‘p ukladli iqtisodiyot asoslari barpo etildi. Eng avvalo, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarining amalga oshirilishi natijasida ishlab chiqarilgan mahsulotning mulk shakllari bo‘yicha tarkibida sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi.

**O‘zbekiston iqtisodiyotida nodavlat sektori ulushining o‘zgarishi, %**

	2000	2005	2010	2015	2016
Yalpi ichki mahsulot	72,6	75,8	81,7	82,9	81,3
Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish	65,4	78,4	83,3	84,6	91
Yalpi qishloq xo‘jaligi mahsuloti	96,8	99,6	99,9	99,8	99,9
Chakana savdo aylanmasi	96,8	99,6	99,9	99,9	99,9
Iqtisodiyotda band bo‘lganlar soni	76,0	77,1	79,1	82,2	82,3


Agar 2000-yilda mamlakatimizda ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulotning 72,6 foizi nodavlat sektori hissasiga to‘g‘ri

kelgan bo'lsa, 2016-yilda bu ko'rsatkich 81,3 foizni tashkil etdi. Sanoat mahsuloti ishlab chiqarishda bu ko'rsatkich tahlil qilinayotgan davr mobaynida 65,4 foizdan 94,0 foizgacha, iqtisodiyotda band bo'lganlar sonida 76 foizdan 82,3 foizgacha o'sgan bo'lsa, ayni vaqtda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish va chakana savdo aylanmasida xususiy sektorning ulushi qariyb 100 foizni tashkil etadi. Bu shundan dalolat beradiki, O'zbekistonda halol raqobat asosida faoliyat olib borish uchun korxonalar va tashkilotlarga qulay shart-sharoitlar yuzaga kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasida raqobat muhitini yanada rivojlantirish, xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni cheklashga bo'lgan faoliyatlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, shuningdek, xususiylashtirish jarayonidan keyingi davrda yangi tashkil etilgan korxonalar faoliyatini davlat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlash dasturlarining izchil bajarilib borishi natijasida bozor munosabatlari subyektlari hisoblangan korxonalar va tashkilotlarning mamlakatdagi soni muttasil oshib borish tendensiyasiga ega bo'lmoqda.

Ta'kidlash lozimki, tadbirkorlik raqobat muhitining shakllanishi va rivojlanishiga olib keladigan tarkib hosil qiluvchi omil hisoblanadi. Bozorda qancha miqdordagi tadbirkorlik subyektlarining qatnashayotganligi undagi raqobatning intensivligini belgilab beradi. Ayni vaqtda raqobat biror-bir bozor qatnashchisining mutlaq hukmronligini inkor qilgan holda bozorda turli xildagi va turli shakldagi qatnashchilar mavjud bo'lishini shart qilib qo'yadi.

Ko'rinib turibdiki, korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat reestrini ro'yxatga olingan xo'jalik yurituvchi subyektlarning soni 2001–2017-yillar davomida 157,4 mingtadan 285,3 mingtagacha, ya'ni 1,8 martaga oshdi. Ayni vaqtda jami korxonalar sonida nodavlat sektorining ulushi 84,1 foizdan 86,5



**O‘zbekistonda ro‘yxatdan o‘tkazilgan korxonalar va tashkilotlar soni dinamikasi (1-yanvar holatiga ko‘ra, ming) (fermer xo‘jaliklari hisobga olinmagan).**

foizgacha o‘sdi. Bu esa yildan yilga mamlakat iqtisodiyotida raqobat kurashining yanada kuchayayotganligidan va raqobat muhitining mustahkamlanib borayotganligidan dalolat beradi.

Islahotlar yillarida O‘zbekiston Respublikasi hukumati asosiy e‘tiborni iqtisodiyotning turli tarmoq korxonalarini va ularning tegishli bozorlardagi mavqelariga, tovar va moliya bozorlarida raqobat muhitining mustahkamlanishiga, qonun buzilishi holatlarini izchil bartaraf etishga qaratdi.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida O‘zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tomonidan davlat reyestrda ro‘yxatga olingan monopol korxonalar va mahsulot turlarining soni sezilarli darajada pasayishi kuzatildi. Xususan, 2001-yilning boshida monopol mavqega ega korxonalar soni 350 ta va monopol mahsulotlar soni 230 taga teng bo‘lgan bo‘lsa, 2017-yilga kelib ushbu ko‘rsatkichlar



mos ravishda 151 va 10 tani tashkil etdi. Monopol korxonalarining jami korxonalaridagi ulushi ham sezilarli darajada pasaydi: agar 2001-yilda jami korxonalar va tashkilotlarning 0,2 foizini monopol korxonalar tashkil etgan bo'lsa, 2017-yilga kelib bu ko'rsatkich 0,05 foizga tushib qoldi.

Har qanday mamlakat iqtisodiyoti kabi O'zbekistonda tabiiy monopoliyalarning mamlakat iqtisodiyotida o'ziga xos o'ringa ega. Mamlakat qonunchiligiga ko'ra tabiiy monopoliya «tovar bozorining holati bo'lib, unda texnologik xususiyatlar tufayli muayyan tovarlar (ishlar, xizmatlar) turlariga bo'lgan talabni qondirishning raqobatli sharoitlarini yaratish mumkin emas yoki iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas» deb talqin qilinadi.

**O'zbekistonda davlat reestrida ro'yxatga olingan xo'jalik yuritish subyektlari, monopol korxonalar va monopol mahsulotlarning 2001–2017-yillardagi o'zgarishi (1-yanvar holatiga, fermer xo'jaliklari hisobga olinmagan)**

Ko'rsatkichlar	2001	2006	2011	2016	2017
Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar soni, ming	157,4	218,5	245,3	278,5	285,3
Monopol korxonalar soni, dona	350	253	178	262	151
Monopol mahsulotlar soni, dona	230	180	157	10	10

O'zbekiston Respublikasida quyidagi sohalar mamlakat qonunchiligida tabiiy monopoliya subyektlari deb belgilangan va ularning faoliyati tegishli ravishda davlat tomonidan tartibga solinadi:

- neft, neft mahsulotlari va gazni quvur orqali transportirovka qilish;
- elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarish hamda transportirovka qilish;

- temiryo‘llar infratuzilmasidan foydalanish hisobga olingan holda temiryo‘llarda tashish;
  - umumiy erkin foydalaniladigan pochta aloqasi xizmatlari;
  - suv quvurlari va kanalizatsiya xizmati;
  - aeronavigatsiyalar, portlar va aeroportlar xizmatlari.<sup>1</sup>
- O‘zbekistonda tabiiy monopoliya subyektlarining faoliyatlarini tartibga solish quyidagi usullarda amalga oshiriladi:
- narxlarni (tariflarni) yoki ularning eng yuqori (eng past) darajasini belgilash (o‘rnatish) vositasida narxlarni tartibga solish;
  - xizmat ko‘rsatilishi shart bo‘lgan iste’molchilarni aniqlash va (yoki) ularni tabiiy monopoliya subyektlari realizatsiya qiladigan tovar bilan to‘liq hajmda qondirishning imkonini bo‘lmagan taqdirda, ta‘minlashning eng kam darajasini belgilash va tartibga solish uchun qonun hujjatlariga muvofiq boshqa usullar ham qo‘llanilishi mumkin.

## **Qisqacha xulosalar**

1. Raqobat bozor muhitining ajralmas tarkibiy qismi va tadbirkorlik faoliyati rivojlanishining zaruriy sharti hisoblanadi. U bozor iqtisodiyoti subyektlarining yuqori foyda olish maqsadida bir-biri bilan kurashi, o‘zaro bellashuvini o‘zida aks ettiradi.

2. Bozor tizimida quyidagi raqobat turlari mavjud: erkin raqobat, sof monopoliya, monopolistik raqobat va oligopoliya. Ular mahsulot ishlab chiqaruvchi firmalar soni, narxga ta‘sir ko‘rsata olish imkoniyati, tovarlarning tabaqalashuvi va bozorga kirish (chiqish)ning murakkablik darajasi bo‘yicha bir-biridan farqlanadi.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining «Tabiiy monopoliyalar to‘g‘risida»gi Qonuni 27.12.1996-y. № 355-i. Ushbu qonunga 20.08.1999-y. 832-1-son qonuniga muvofiq o‘zgartirishlar, 3-modda.

3. Raqobat narxlar vositasida va sifat asosida yuz berishi mumkin. Narxlar vositasida raqobat narxni o'zgartirish yo'li bilan xaridorlarni o'ziga jalb qilish va raqobatchisini shu yo'l bilan bozordan siqib chiqarishga qaratiladi. Sifat asosida raqobatlashuvda raqobatlashuvchilar bozorga sifatli, chidamli, ishlatish muddati uzoq, unumdorligi yuqori tovarlar bilan qatnashish orqali xaridorlarni jalb etishga harakat qiladilar.

4. Raqobat muhiti shakllanishi uchun bir qator shart-sharoitlar mavjud bo'lishi taqozo etiladi. Xususiylashtirish mulkning yetakchi o'ringa ega bo'lishi, iqtisodiy tanlov erkinligining mavjudligi, narxlarning erkin shakllanishi va boshqalar ana shular jumlasidandir.

5. O'zbekistonda raqobat muhitini rivojlantirish, bozorlarda monopolistik holatlarning oldini olish me'yoriy-huquqiy asoslari bo'lib O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Raqobat to'g'risida»gi, «Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi, «Tabiiy monopoliyalar to'g'risida»gi va «Reklama to'g'risida»gi qonunlari va boshqa me'yoriy hujjatlar xizmat qiladi.

6. O'zbekiston tovar bozorlarida ustun mavqega ega bo'lgan holatlar va insofsiz raqobatni cheklash hamda to'xtatib qo'yish sohasida davlat siyosatini O'zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi olib boradi.

7. O'zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarining amalga oshirilishi natijasida ishlab chiqarilgan mahsulotning mulk shakllari bo'yicha tarkibida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi va unda nodavlat sektori ustuvor o'ringa ega bo'lmoqda.

8. O'zbekistonda xo'jalik yurituvchi subyektlar sonining o'sib borishi mamlakatda raqobat muhiti takomillashayotganligidan dalolat beradi. Zero, bozorda qancha miqdordagi tadbir-

korlik subyektlarining qatnashayotganligi undagi raqobatning ko'lamini va intensivligini belgilab beradi.

9. So'nggi yillarda O'zbekistonda monopol korxonalar va mahsulotlar soni kamayib bormoqda. Bu esa mamlakatimizda amalga oshirilayotgan monopoliyaga qarshi faoliyat samaradorligini ko'rsatadi.

10. O'zbekiston Respublikasida ba'zi sohalar mamlakat qonunchiligida tabiiy monopoliya subyektlari deb belgilangan va ularning faoliyati tegishli ravishda davlat tomonidan tartibga solinadi.

## **Asosiy atamalar va tushunchalar**

Raqobat, erkin raqobat, monopolistik raqobat, oligopoliya, duopoliya, sof monopoliya, tabiiy monopoliya, raqobat muhiti, halol raqobat, ustun mavqe, monopol korxonalar, monopol mahsulot, raqobatni cheklash.

## **Nazorat savollari**

1. Raqobat nima? Nima uchun raqobat bozor iqtisodiyotining tub belgisi deyiladi?

2. Raqobatning qanday turlarini bilasiz?

3. Erkin raqobat, monopolistik raqobat, oligopoliya va sof monopoliya bir-birlaridan qanday belgilariga ko'ra farqlanadi?

4. Nima uchun xomashyo bozorlarida narx vositasida raqobat, tayyor mahsulotlar bozorida sifat asosidagi raqobat ustuvor o'ringa ega bo'ladi?

5. Raqobat muhiti nima? Uning shakllanishi uchun qanday shart-sharoitlar bo'lishi talab etiladi?

6. O'zbekistonda raqobatni rivojlantirish va monopoliyadan chiqarish qaysi organ tomonidan tartibga solinadi?

7. O'zbekistonda raqobat muhitini rivojlantirish, bozorlarda monopolistik holatlarning oldini olish me'yoriy-huquqiy asoslarini qaysi hujjatlar tashkil etadi?

8. Nima uchun xususiy sektorning yetakchi o'ringa ega bo'lishi raqobat muhiti shakllanishida muhim o'rin tutadi?

9. O'zbekistonda nodavlat sektorining rivojlanishi qaysi omillar evaziga yuz berdi?

10. Nima uchun monopol korxonalar va mahsulotlar sonining qisqarishi ijobiy holat hisoblanadi?

---

## **XIX bob**

### **DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGI**

#### **19.1. Davlat va xususiy sektor hamkorligining mohiyati va obyektiv zarurligi**

Davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi yetakchi roli doim yuqori bo'lgan. Faqat iqtisodiy taraqqiyotning barqaror sur'atlari yuz bergan davrlarda davlat tadbirkorlik faoliyatiga kengroq erkinliklar va imtiyozlar bergan va uni har tomonlama qo'llab-quvvatlagan. Iqtisodiy islohotlar yoki chuqur iqtisodiy inqirozlar davrida esa davlat jamiyatning barcha imkoniyatlarini bir maqsad – inqirozdan chiqib ketish yo'lida birlashtirgan.

Rivojlangan mamlakatlarda xususiy sektorning iqtisodiy, moliyaviy, tashkiliy, ilmiy-texnik va innovatsion salohiyati yuqori bo'lganligi tufayli davlat aksariyat iqtisodiy sohalarda xo'jalik faoliyatida erkin tadbirkorlikning amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Shu bilan birga, milliy iqtisodiyotning jahon xo'jaligidagi raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadida, davlat xususiy sektor bilan o'zaro manfaatli hamkorlik qiladi.

Davlat iqtisodiy o'sishning barcha omillaridan o'zi samarali foydalana olmaydi, xususiy sektor esa xalqaro bozorda raqobatbardoshligini kuchaytirishda davlatning institutsional jihatdan qo'llab-quvvatlashiga ehtiyoj sezadi. Bu holat obyektiv ravishda ularni o'zaro sherikchilik qilishga, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni birgalikda hal qilishda hamkorlikka undaydi.

Iqtisodiyot, mavjud iqtisodiy birliklar – davlat, tashkilot, firma, korxonalar hamda uy xo‘jaliklari faoliyati samarali bo‘lmasa, yetarli sur‘atlarda rivojlana olmaydi. Ijtimoiy, jamoaviy va xususiy manfaatdorlikning kelishuv asosida ta‘minlanishi sharoitidagina iqtisodiy birliklar ijtimoiy va iqtisodiy foydali harakat qila boshlaydilar.

Institutlar, bu – jamiyatdagi iqtisodiy birliklarning o‘zaro kelishuvi asosida yuzaga kelgan tartib-qoidalar bo‘lib, davlat va xususiy sektor bir-biri bilan hamkorlikda bu qoidalarni doimiy shaklda takomillashtirib, tuzatib boradi. Me‘yorlar, imtiyozlar, cheklovlar, ta‘qiqlovchi qoidalar, rag‘batlantirish vositalari – bularning barchasi bozor subyektlari hisoblangan davlat, korxonalar hamda uy xo‘jaliklarining xatti-harakatlarini o‘zaro moslashtirishga va uyg‘unlashtirishga, manfaatlarni ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Jahon bozorida davlat o‘z holicha yoki milliy ishlab chiqaruvchi o‘z-o‘zicha samarali harakat qila olmaydi. Davlatning jahon xo‘jaligidagi iqtisodiy kuch-qudrati milliy ishlab chiqaruvchilar faoliyatida namoyon bo‘ladi, o‘z navbatida, kuchli davlatgina xalqaro va mintaqaviy bozorlarda o‘z tadbirkorlari manfaatlarini har jihatdan himoya qilishga qurbi yetadi.

Islohotlarning bugungi bosqichida davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki so‘nggi yillarda yuz bergan va hali-hamon davom etayotgan global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davlat va xususiy tadbirkorlik kuchlarini birlashtirishni, raqobatbardosh tovar va xizmatlar ishlab chiqarishda o‘zaro ko‘maklashish tizimini yo‘lga qo‘yishni taqozo etmoqda.

Davlat va xususiy sektor boshqaruv institutlari faoliyatining samarali bo‘lishi uchun tranzaksion xarajatlar kamayib borishi zarurati ham shunga olib kelmoqda. Bir turdagi tranzaksion xarajatlar – iqtisodiy yoki huquqiy tizimdan foydalanish sarf-

xarajatlarini davlat va xususiy tadbirkorlik takror amalga oshirayotganligi ham hamkorlikni taqozo etmoqda. Transaksion xarajatlarga axborotni qidirib topish xarajatlari, o'lchash xarajatlari, muzokaralar olib borish va shartnomalar tuzish xarajatlari, yuqori va quyi tashkilotlar rejalarining muvofiqlashtirishi bilan bog'liq xarajatlar, kamyob resurslarni qidirib topish xarajatlari va mulk huquqlarini himoya qilish xarajatlari kiradi. Bu xarajatlar aksariyatining bir vaqtning o'zida davlat va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan takror amalga oshirishi umumiy iqtisodiy samaradorlikni pasaytirib yuboradi va raqobatbardoshlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikning obyektiv sabablari boshqa holatlar bilan ham izohlanadi. Masalan, xususiy tadbirkorning qabul qilgan qarorlari har doim ham ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti tamoyillariga mos qarorlar bo'lavermaydi. Yaxshimi, yomonmi, ular ba'zan direktiv rejali va ayrim hollarda markazlashgan iqtisodiy siyosat maqsadlarini ham o'zida aks ettirishi shart. Bunday iqtisodiy xatti-harakatlarni, odatda, yirik xususiy kompaniyalar amalga oshiradi. Erkin tadbirkorlik davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanar ekan, qaysidir iqtisodiy tizim darajasida davlat iqtisodiyotining unsurlarini o'zida aks ettiradi.

Iqtisodiyot sektorlari darajasida esa rejali boshqaruv unsurlari ham namoyon bo'ladi. To'liq ko'rinishda davlat boshqaruvi iqtisodiy faoliyatning barcha bo'g'inlarini qamrab oladi.

Albatta, bugungi kunda bozor iqtisodiyotiga alternativ iqtisodiy tizim bo'lmasa-da, ko'p ukladli iqtisodiyotda mulk plyuralizmini qo'llab-quvvatlash kerak. Bu o'z-o'zidan davlat mulki va xususiy mulk o'rtasidagi hamkorlikni taqozo etadi. Iqtisodiy siyosat mana shu jihatni hisobga olishi zarur. Masalan, hozirgi iqtisodiyotning institutsional ko'rinishi aralash mazmun kasb etmoqda. Xususan, ilmiy tadqiqot va tajriba



konstruktorlik ishlarini rejalashtirish, amalga oshirish, ularning innovatsion mahsulotga aylanishini ta'minlash, innovatsion mahsulotni realizatsiya qilish jarayonida davlat va xususiy sektor o'rtasida integratsion aloqalar chuqurlashib bormoqda.

Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi o'zaro manfaatli aloqalarni inson taraqqiyoti konsepsiyasida ko'rish mumkin. Inson kapitali bir vaqtning o'zida ijtimoiy va xususiy kapital hisoblanadi. Uning jamg'arilishida oilaning, jamoaning, muayyan ish beruvchi korxonaning va, albatta, davlatning o'z ulushi bor. Shu sababli inson kapitalini kengroq shaklda takror ishlab chiqarishda davlat tashabbuslarini xususiy sektor qo'llab-quvvatlashi lozim. Aksincha, bu sohadagi xususiy tashabbuslarga davlat tomonidan tegishli shart-sharoit yaratib berilishi maqsadga muvofiq.

Inson kapitali taraqqiyoti darajasida ikki fundamental masalaga e'tibor qaratish zarur:

1. Inson kapitali – iqtisodiy tarmoqlarda mehnat unumdorligi o'sishining hal qiluvchi omiliga aylanadi, inson kapitali o'zini o'zi jamg'arib boradi, unga ijodiy erkinlik berilsa, mehnat unumdorligini oshirishga samarali ta'sir ko'rsatadi.

2. Inson kapitali ijtimoiy birlik. Bu kapital ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning hal qiluvchi omili, erkinlik darajasining o'sishi esa ijtimoiy farovonlik ko'rsatkichi sifatida baholanadi.

Aynan inson kapitalini rivojlantirishning barcha bo'g'inlarida davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish zarur. Bu inson resurslari shakllanib, rivojlanadigan sohalar – ta'limning barcha bosqichlari, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport, ish bilan bandlik, fan va innovatsion sohalarga taalluqlidir.

## 19.2. Davlat va xususiy sektor hamkorligining asosiy yo'nalishlari

Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bajarishiga umum-jamiyat manfaatlari asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi ijtimoiy ne'matlarni yetarli darajada ishlab chiqarishga erishish, iqtisodiyotdagi tarkibiy nomutanosibliklarga yo'l qo'ymaslik va ijtimoiy barqarorlikni kafolatlashga qaratiladi.

Bozor mexanizmining kamchiliklari iqtisodiyotning rivojlanish darajasini belgilab beruvchi infratuzilma tarmoqlarida hamda an'anaviy tarzda davlatning roli yuqori bo'lgan ijtimoiy sohada ko'rinadi.

Odatda, aralash iqtisodiyot tizimida davlat va xususiy sektor hamkorligi tizimli yo'lga qo'yiladi hamda iqtisodiyotning barcha sohalarini qamrab oladi. Davlat va xususiy sektor hamkorligi mexanizmini joriy etish transport, kommunal xo'jalik, ijtimoiy infratuzilma kabi umumfoydalanadigan obyektlar, shuningdek, infratuzilma obyektlarini ta'mirlash, qayta ta'mirlash va saqlab turish, uy-joy va kommunal xo'jalik, ta'lim, sog'liqni saqlash kabi ijtimoiy xizmatlarda vujudga keladi.

Iqtisodiyotning mazkur sektorlarini davlat mulkida saqlab qolish zaruriyati aynan aholini ushbu ijtimoiy xizmatlar bilan sifatli va uzluksiz ta'minlash bo'yicha jamiyat oldidagi mas'uliyatdan kelib chiqadi.

Davlat va xususiy sektor hamkorligi («public-private partnership»)da ba'zan xususiy sektorning tashabbuslari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Boshqacha aytganda, rivojlangan davlatlarda xususiy sektor tashabbus bilan chiqadi, davlat esa uni maqsadga muvofiq yo'nalishlarda rag'batlantiradi. Mamlakatimizdagi islohotlarda davlat bosh rolni bajarayotganligi tufayli davlat yetakchi rolni bajaradi.

Davlat va xususiy sektor hamkorligi deganda davlat va tadbirkorlik subyektlari resurslarini birlashtirish, tavakkalchilik, vakolat, moliyaviy xarajatlar va mas'uliyatni o'zaro taqsimlash asosida ma'lum muddatga rasmiylashtirilgan, ijtimoiy ahamiyatga ega masalalarni hal etish va foyda olishga qaratilgan hamkorlik turi tushuniladi.

Davlat va xususiy sektor hamkorligi rivojlanishining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy sektorda xizmat ko'rsatish sifati va samaradorligini oshirish hamda yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish;

- iqtisodiyotning davlat sektori va ijtimoiy xizmatlar sohasiga innovatsion texnologiyalar va innovatsion boshqaruv mexanizmini joriy etish;

- an'anaviy tarzda davlat mas'ul bo'lgan tarmoqlar rivojlanishiga budjetdan tashqari moliyalashtirish manbalarini jalb etish;

- yirik va uzoq muddatli loyihalarga xususiy sektorni jalb etish evaziga, umuman, iqtisodiyot rivojlanishini rag'batlantirish va boshqalar.

Davlat va xususiy sektor hamkorligining asosiy belgilarini umumlashtirish uning quyidagi jihatlarini ajratib ko'rsatish imkoniyatini beradi:

- bu hamkorlikning asosiy qatnashchilari davlat va xususiy biznes subyektlari hisoblanadi;

- tomonlarning o'zaro harakati yuridik asosda mustahkamlanadi, davlat va xususiy sektor hamkorligi turli shakllarda amalga oshiriladi;

- davlat va xususiy sektor hamkorligida tomonlar teng huquqqa ega bo'ladilar;

- davlat va xususiy sektor hamkorligi munosabatlari uzoq muddatli xarakterga ega bo'ladi;

– davlat va xususiy sektor hamkorligi ko‘pincha ijtimoiy masalalarni yechishga qaratiladi (maqsad davlat vazifalarini hal etish), bunday hamkorlik turida hukumat organlariga tegishli funksiyalarning bir qismi xususiy sektorga beriladi;

– davlat va xususiy sektor hamkorligiga asoslangan loyihalarda tomonlarning moliyaviy va boshqa resurslari birlashtiriladi, xususiy investitsiyalarning jalb etilishi kuzatiladi;

– davlat va xususiy sektor hamkorligi loyihalarini amalga oshirishda tavakkalchilik va mas’uliyat taqsimlanadi;

– loyihalarni amalga oshirish va davlat xizmatlarini ko‘rsatishda boshqarishning innovatsion usullari qo‘llaniladi.

Davlat va xususiy sektor hamkorligida davlat quyidagilardan manfaatdor hisoblanadi:

– davlat va xususiy sektor hamkorligida xususiy sektorda mavjud tajriba, texnologiya va vakolatlarni jalb etish asosida xarajatlarni kamaytirish va yuqori sifatli xizmatlar ko‘rsatishga erishiladi. Buning natijasida jamiyat miqyosida iqtisodiy samaradorlik darajasi yuqori bo‘lishi ta’minlanadi;

– yirik loyihalarni amalga oshirishda xususiy sektor investor sifatida qatnashadi va joriy vazifalarni hal etish uchun davlat budjetida bo‘sh resurslar paydo bo‘ladi;

– xususiy tashkilotlarning xarajatlarni minimallashtirish, samarali qarorlarni joriy etish va loyihalarni amalga oshirish muddatlarini qisqartirishga bo‘lgan qiziqishlari ijtimoiy ne‘matlarni ishlab chiqarishda davlat mulki va budjet mablag‘laridan samarasiz foydalanish xavfini kamaytiradi.

Davlat bilan hamkorlik xususiy tuzilmalar uchun quyidagi sabablarga ko‘ra manfaatli hisoblanadi:

– xususiy tashkilot uzoq muddatli istiqbolda barqaror daromad olishni ta’minlagan holda davlat aktivlarini tasarruf etish yoki undan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa uzoq muddatga tavakkalchilik darajasini pasaytiradi;

– davlat tomonidan taklif etilgan shartlarda investitsiyalarni amalga oshirar ekan, tadbirkor muayyan daromadlilik darajasi kafolatiga ega bo‘ladi. Nodavlat sektoriga investitsiyalar kiritilganda bunday kafolat taqdim etilmaydi.

Davlat va xususiy sektor hamkorligi shakllari ijtimoiy sohada AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Fransiya, Kanada kabi rivojlangan mamlakatlarda keng amalga oshirilmoqda. Rossiya, Qozog‘iston, O‘zbekiston va boshqa MDH mamlakatlari esa bu hamkorlikning yo‘nalishlari shakllanmoqda.

Bugungi kunda jahon amaliyotida davlat va xususiy sektor hamkorligining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

– **Davlat shartnomalari.** Bunday shartnomalar moliyalashtirish, loyihalash, qurilish-ta‘mirlash, umumjamiyat ahamiyatiga ega xizmatlar ko‘rsatish, boshqaruv, davlat ehtiyojlari uchun mahsulot yetkazib berish, texnik yordam ko‘rsatish va boshqalar bo‘yicha shartnomalarni o‘z ichiga oladi. Davlat va xususiy sektor hamkorligining bu shaklida, odatda, davlat mulkchilik huquqini xususiy sektorga bermaydi. Barcha faoliyat shakli shartnoma bo‘yicha olib boriladi va davlat mablag‘lari hisobiga bajariladi. Xususiy sektor pudratchi bo‘lib, mablag‘larni o‘z ixtiyori bilan tasarruf eta olmaydi, lekin ushbu faoliyatdan daromad oladi, shuningdek, ma‘lum imtiyoz va yengilliklarga ega bo‘ladi;

– **Davlat mulkining ijara va lizingga berilishi.** Davlat va xususiy sektor hamkorligining ushbu shaklida davlat mulki ma‘lum to‘lov evaziga va ma‘lum muddatga xususiy sektorga foydalanish uchun beriladi. Ijaraga olingan mulk davlatga qaytariladi yoki o‘zaro belgilangan shartlarga muvofiq keyinchalik sotib olinadi. Bunda davlat ijara munosabatlari orqali foyda oladi. Lizingda esa xususiy sektor ijara olingan davlat mulkini pirovardida sotib oladi.

– **Davlat va xususiy sektor qo‘shma korxonasi.** Bunday korxonalar aksiyadorlik va aksiyadorsiz hissalar bilan ishtirok etish orqali tuziladi. Xususiy sektorning erkinlik darajasi kapitaldagi ulushi bilan belgilanadi. Foyda, tavakkalchilik va mas’uliyat tomonlar o‘rtasida qo‘shilgan ulushga mos shaklda taqsimlanadi;

– **Konsessiya (konsessiya kelishuvi).** Konsessiya davlat va xususiy sektor hamkorligining keng tarqalgan shakli hisoblanib, bunda davlat mulkning to‘la huquqli egasi bo‘lgan holda xususiy sektordagi hamkoriga ma’lum bir davrda ma’lum bir vazifalarni bajarish vakolatlarini beradi. Vazifalar va vakolatlar esa kelishuvlarda belgilab olinadi. Shuni alohida qayd etish lozimki, konsessiyada boshqa shaxslar va, hatto, davlatning o‘zi ham o‘xshash faoliyat olib bormasligi lozim. Davlat mulkidan foydalanganlik uchun to‘lov to‘lanadi. Ishlab chiqarilgan tovarlar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun konsessiyachi mulk huquqini oladi. Xususiy sektordagi hamkor umumjamiyat manfaatlariga bo‘ysunadi, tovarlar va xizmatlarning hamma uchun ochiqligi va tariflarning bir xilligini belgilaydi;

– **Mahsulotni taqsimlash to‘g‘risidagi bitim.** Konsessiyadan farqli o‘laroq, xususiy hamkor mahsulotning kelishuvda belgilangan qismiga ega bo‘ladi.

Davlat va xususiy sektor hamkorligi uchun me‘yoriy-huquqiy asosning yaratilishi ushbu jarayonda ishtirok etuvchi tomonlar huquqlari va manfaatlarini himoya qilish, tadbirkorlik subyektlarining tashabbuskorligini rag‘batlantirish, moddiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish, davlatning ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarini yechish imkoniyatini beradi.

Rivojlangan mamlakatlarda davlat va xususiy biznes hamkorligining huquqiy asoslari asosiy qoidalar, shakllar va turlar, ushbu jarayonda ishtirok etuvchi tomonlarning huquq va majburiyatlarini o‘zida mujassam etadi. Masalan, Yaponiyada

«Xususiy moliyaviy mablag‘lar hisobidan ijtimoiy obyektlarni rivojlantirishga ko‘maklashish to‘g‘risida»gi, Janubiy Koreyada «Infratuzilmani rivojlantirishda xususiy sektorning ishtiroki to‘g‘risida»gi, Polshada «Davlat va xususiy biznes hamkorligi to‘g‘risida»gi qonunlar qabul qilingan.

### **19.3. O‘zbekistonda davlat va xususiy sektor hamkorligining me‘yoriy-huquqiy asoslari**

Mamlakatimizda davlat va xususiy sektor hamkorligining ayrim jihatlarini tartibga soluvchi me‘yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. O‘zbekiston Respublikasida davlat va xususiy sektor hamkorligining huquqiy asosini konsessiyalar, xususiy-lashtirish, tabiiy monopoliyalar, xorijiy investitsiyalarni jalb etish to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari tashkil etadi. Davlat va xususiy sektor hamkorligining loyihalari konsession asosga ega bo‘lganligi uchun unda milliy konsessiya qonunchiligi katta ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasida 1995-yilda «Konsessiyalar to‘g‘risida»gi Qonun qabul qilingan. Ushbu Qonun O‘zbekiston Respublikasi hududida obyektlarni xorijiy investorlarga taqdim etishning tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlarini tartibga soladi.

Konsessiya chet ellik investorga xo‘jalik faoliyatining muayyan turi bilan shug‘ullanish uchun davlat nomidan beriladigan ruxsatnoma bo‘lib, bu faoliyatni amalga oshirish uchun davlat chet ellik investorga konsessiya shartnomasi tuzish asosida mol-mulk, yer va yerosti uchastkalarini topshiradi.

Konsessiyachi ajratilgan yer uchastkasidan, suv resurslaridan, energiya manbalaridan, muhandislik kommunikatsiyalaridan O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq foydalanish, foydalanilayotgan hududda binolar, inshootlar,

shoxobcha yo‘llar, shosselar, telegraf va telefon aloqa liniyalari qurish, mol-mulk tarkibiga uning qiymatini oshiradigan o‘zgartishlarni mustaqil kiritish, uni qayta qurish, kengaytirish, texnika bilan qayta jihozlash, o‘z ishlab chiqarish ehtiyojlari va xodimlarning shaxsiy ehtiyojlari uchun mol-mulk va zarur materiallar olib kirish, o‘z mol-mulkini va o‘zi ishlab chiqargan mahsulotni olib chiqib ketish va boshqa huquqlarga ega. Konsessiyachining konsessiyachilik faoliyati natijasida olgan mahsuloti va daromadlari uning mulki hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to‘g‘risida»gi Qonunida xorijiy investorlar uchun muayyan kafolatlar taqdim etilgan. Bu – davlat va xorijiy xususiy mulkdor o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarda ishtirok etayotgan investorlar uchun kafolatlar Mahsulotlar taqsimoti haqidagi bitim (MTB)da ham keltirilgan. MTB O‘zbekiston Respublikasi mineral-xomashyo resurslari konlarini aniqlashga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning samarali mexanizmi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2001-yilda qabul qilingan «Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to‘g‘risida»gi Qonuni respublika hududida konlarni aniqlash, qidirish va foydali qazilmalarni kavlab olishga investitsiyalar kiritilganda mahsulot taqsimotiga oid bitimlarni tuzish, ijro etish va bekor qilish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladi. Bu ham davlat va xususiy sektor hamkorligini kafolatlovchi muhim huquqiy asos hisoblanadi.

Qazib olingan (ishlab chiqarilgan) mahsulot davlat bilan investor o‘rtasidagi bitimga muvofiq taqsimlanishi lozim bo‘lib, bitimda:

– qazib olingan (ishlab chiqarilgan) mahsulotning umumiy hajmini va uning qiymatini aniqlash;



– qazib olingan (ishlab chiqarilgan) mahsulotning kompensatsiya mahsuloti sifatida investorga mulk qilib beriladigan qismini (shu jumladan, uning eng yuqori yoki eng past miqdorini) aniqlash;

– qidirish ishlarining va yer qa’ri uchastkasini boshqacha tarzda tadqiq etishning natijalarini investorga foydalanish uchun berishga qilgan xarajatlarini qoplash uchun qazib olingan (ishlab chiqarilgan) mahsulotning davlatga beriladigan qismini aniqlash;

– foydaga qolgan mahsulotni (ya’ni bunda qazib olingan yoki ishlab chiqarilgan mahsulotning ushbu Qonunning qoidalariga muvofiq yerosti boylıklaridan foydalanganlik uchun to’lovlarni to’lashga ishlatiladigan bir qismi, kompensatsiya mahsuloti, shuningdek, davlat tomonidan qilingan xarajatlarini qoplash uchun davlatga beriladigan bir qismi chegirilganidan keyingi holati tushuniladi) taqsimlash;

– qazib olingan (ishlab chiqarilgan) mahsulotning davlatga tegishli qismini yoki shu bahodagi ekvivalentini unga berish;

– qazib olingan (ishlab chiqarilgan) mahsulotning investorga tegishli qismini yoki shu bahodagi ekvivalentini unga berish shartlari va tartibi nazarda tutilishi kerak.

Investorlar, shuningdek, ularning pudratchilari va ikkilamchi pudratchilari O‘zbekiston Respublikasida belgilangan barcha turdagi soliqlar, bitimlarda belgilangan yer qa’ri uchastkalarida izlash va qidirish ishlarini bajarish bilan bog‘liq boshqa majburiy to’lovlarni to’lashdan ozod qilinadilar. Investor bitimning amal qilish muddati ichida, yuqorida ko‘rsatilgan ishlar turlarini istisno etganda, qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarni to’laydi.

Davlat va xususiy sektor hamkorligining ushbu shakli O‘zbekiston Respublikasida xorijiy xususiy tadbirkorlar bilan yo‘lga qo‘yilgan hamkorlikda keng qo‘llanilmoqda.

Davlat va xususiy sektor hamkorligini tartibga solishda O'zbekiston Respublikasining «Tabiiy monopoliyalar to'g'risida»gi va «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy-lashtirish to'g'risida»gi qonunlari ham muhim ahamiyatga ega.

#### **19.4. Davlat va xususiy sektor hamkorligi – fan, ta'lim, ishlab chiqarish va moliya sohalari integratsiyasining muhim omili**

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, bugungi kunda tug'ma qobiliyat, umumiy va maxsus ta'lim, orttirilgan kasbiy tajriba, ijodiy salohiyat, jismoniy va ma'naviy sog'lomlik simbiozi sifatida inson kapitali iqtisodiy rivojlanishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy yo'naltirilgan va innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish ilmiy tadqiqot xodimlari tomonidan egallangan yangi bilimlar va ularning ishlab chiqarish jarayoniga keng tatbiq etilishiga bog'liq. Shu munosabat bilan ta'lim sohasida davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish bugungi kundagi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Ta'lim sohasida bunday hamkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirish fan, ta'lim, ishlab chiqarish va moliya sohalari integratsiyasining chuqurlashuviga olib keladi.

Mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiq keluvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash esa, aynan fan, ta'lim, ishlab chiqarish va moliya sohalari integratsiyasiga yaqindan bog'liq. Ayni vaqtda ta'lim muassasalarining alohida ish beruvchilar va mehnat bozori bilan o'zaro aloqalari tomonlarning kompleks strategik hamkorligini taqozo etadi. Bunday hamkorlikdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad o'zaro manfaatli hamkorlik uchun moliyaviy, kadrlar, moddiy-texnika va boshqa resurslarni birlashtirishdan iborat.

So‘nggi yillarda bu yo‘nalishda respublikamizda qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ta‘lim tizimida davlat va xususiy sektor hamkorligini yo‘lga qo‘yish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– korxonalarni o‘quv dasturlarini shakllantirish, mehnat bozorida yuqori talabga ega talabalarni o‘qitish va amaliyotlarini tashkil etish, ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonlariga jalb etish;

– turli innovatsiya yo‘nalishlari bo‘yicha qo‘shma ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni amalga oshirish;

– talabalarni maqsadli tayyorlash, talabalar va professor-o‘qituvchilar uchun qo‘shimcha stipendiya va grantlarni moliyalashtirish;

– yosh mutaxassislarning korxonada o‘rnashib olishi va moslashishi uchun ijtimoiy va moddiy sharoitlar yaratish;

– ta‘lim muassasalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ijtimoiy va maishiy infratuzilmani yaxshilash, qurilish-ta‘mirlash va obodonlashtirish;

– ta‘lim xizmatlari ko‘rsatish, talabalarning o‘quv va ishlab chiqarish amaliyotlarini tashkil etish hamda va ta‘limdan keyingi ish bilan bandligini ta‘minlash;

– ta‘lim muassasalari faoliyatiga oid yoki qo‘shimcha xizmatlar ko‘rsatish (xususan, savdo, ovqatlanish, noshirlik, texnik va kompyuter xizmatlar shular jumlasidandir);

– ta‘lim muassasalari faoliyatining turli sohalariga homiylik va budjetdan tashqari mablag‘larni jalb etish, texnik ko‘makni amalga oshirish;

– alohida muhofazaga muhtoj talabalarni ijtimoiy himoya qilish, iqtidorli talabalarni ma‘naviy va moddiy rag‘batlantirish va boshqalar.

Ta‘lim muassasalarining korxonalar bilan hamkorligi, bir tomondan, rivojlanishning istiqbolli yo‘nalishlarini hisobga olgan

holda korxonalar faoliyatini kadrlar bilan ta'minlashni o'zida aks ettirsa, ikkinchi tomondan, biznesning o'ziga xos shakli sifatida namoyon bo'ladi. Unda ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida bir nechta subyektlar resurslari birlashtiriladi.

Shunday qilib, hozirgi kunda innovatsion korxonalar uchun kadrlar tayyorlash tizimini barpo etishda ikkita yo'nalishni ko'rib chiqish mumkin.

Birinchi yo'nalishda ta'lim muassasasi korxonalar bilan hamkorlikda ta'lim faoliyatini amalga oshiradi. Bunda ish beruvchi mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda faol ishtirok etadi, korxonalar bilan birgalikda talabalarining innovatsion ta'lim trayektoriyasi, kasbiy moslashuv tizimi ishlab chiqiladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'quv jarayonini amaliy jihatdan to'ldirish ushbu yo'nalishning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, ushbu yo'nalishda jamoaviy foydalanish Markazlarida o'quv jarayonini tashkil etish, ta'lim jarayoniga loyihaviy o'qitish usulini joriy etish, korxonalarda talabalar stajirovkalari va amaliyotlarini tashkil etish, korxonalar buyurtmasiga ko'ra kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlarini tayyorlash, qo'shma korporativ olimpiadalar o'tkazish kabi tadbirlar amalga oshiriladi.

Individual o'quv rejalaridan farqli o'laroq, innovatsion ta'lim traektoriyalari nafaqat alohida talaba, balki talabalar guruhiga (3–6 nafar talaba) nisbatan ham qo'llaniladi va talabalarni jamoaviy ishlashga o'rgatadi. Bunday ta'lim traektoriyasini qo'llash talabaga fundamental bilim olish bilan birga, ularda qo'shimcha kasbiy va umummadaniy kompetensiyalarni, innovatsiyalarga moslashish, ijodiy yondashish qobiliyatini, loyihaviy ishlash ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatini yaratadi.

Ikkinchi yo'nalish nafaqat aniq korxonalar uchun mutaxassis tayyorlashni o'z ichiga qamrab oladi, balki mustaqil ravishda

korxonalar tashkil etish qobiliyatiga ega mutaxassislarni tayyorlashga shart-sharoit yaratadi.

Bu yoʻnalish – «yangi ish beruvchilar»ni tayyorlashdir. Bu yoʻnalishni amalga oshirishda biznes-inkubatorlarning alohida rolini taʼkidlash zarur. Bunday inkubatorlarning asosiy faoliyat yoʻnalishi talabalarda tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat. Shunday qilib, kadrlar tayyorlash sohasida tadqiqotga yoʻnaltirilgan oliy oʻquv yurti faoliyatining asosiy natijasi oʻz-oʻzini rivojlantirish, voqea va jarayonlarni ilmiy va ijodiy yondashuv asosida hal etish qobiliyatiga ega boʻlgan kreativ shaxs tashkil etadi.

Taʼlim muassasalari va korxonalar hamkorligining muhim yoʻnalishlaridan biri yuqori malakali kadrlarga boʻlgan ehtiyojni aniqlash va bu sohada birgalikdagi marketing tadqiqotlarini amalga oshirishdan iborat. Bugungi kunda taʼlim muassasalari tomonidan mustaqil ravishda mutaxassislarga boʻlgan talab va ehtiyojni aniqlashga boʻlgan intilish mehnat bozorida kuchli nomutanosibliklarni keltirib chiqarmoqda. Shu sababli ish beruvchilar bilan birgalikda marketing tadqiqotlarini olib borish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Bunday tadqiqotlar mehnat bozorida shakllangan yangi tendensiyalarni hisobga olish imkoniyatini beradi.

## **Qisqacha xulosalar**

1. Davlat va xususiy sektor hamkorligi deganda davlat va tadbirkorlik subyektlari resurslarini birlashtirish, tavakkalchilik, vakolat, moliyaviy xarajatlar va masʼuliyatni oʻzaro taqsimlash asosida maʼlum muddatga rasmiylashtirilgan, ijtimoiy ahamiyatga ega masalalarni hal etish va foyda olishga qaratilgan hamkorlik turi tushuniladi.

2. Ijtimoiy sektorda xizmat ko‘rsatish sifati va samaradorligini oshirish, yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish, ushbu sohaga innovatsion texnologiyalar va innovatsion boshqaruv mexanizmini joriy etish, an’anaviy tarzda davlat mas’ul bo‘lgan tarmoqlar rivojlanishiga budjetdan tashqari moliyalashtirish manbalarini jalb etish davlat va xususiy sektor hamkorligining asosiy maqsadi hisoblanadi.

3. Davlat va xususiy tadbirkorlik tuzilmalari o‘rtasidagi o‘zaro manfaatdorlik jahon amaliyotida davlat va xususiy sektor hamkorligining intensiv rivojlanishini ta’minlovchi asosiy omil hisoblanadi.

4. Davlat va xususiy sektor hamkorligida davlat quyidagilardan manfaatdor hisoblanadi:

– DXSHda xususiy sektorda mavjud tajriba, texnologiya va vakolatlarni jalb etish asosida xarajatlarni kamaytirish va yuqori sifatli xizmatlar ko‘rsatishga erishiladi. Buning natijasida jamiyat miqyosida iqtisodiy samaradorlik darajasi yuqori bo‘lishi ta’minlanadi;

– yirik loyihalarni amalga oshirishda xususiy sektor investor sifatida qatnashadi va budjetga bo‘lgan bosim pasayadi, natijada joriy vazifalarni hal etish uchun davlatda bo‘sh resurslar paydo bo‘ladi;

– xususiy tashkilotlarning xarajatlarni minimallashtirish, samarali qarorlarni joriy etish va loyihalarni amalga oshirish muddatlarini qisqartirishga bo‘lgan qiziqishlari ijtimoiy ne‘matlarni ishlab chiqarishda davlat mulki va budjet mablag‘laridan samarasiz foydalanish xavfini kamaytiradi.

5. Quyidagi omillar tufayli davlat bilan hamkorlik xususiy tuzilmalar uchun manfaatli hisoblanadi:

– xususiy tashkilot uzoq muddatli istiqbolda barqaror daromad olishni ta’minlagan holda davlat aktivlarini tasarruf etish

yoki undan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa uzoq muddatga tavakkalchilik darajasini pasaytiradi;

– davlat tomonidan taklif etilgan shartlarda investitsiyalarni amalga oshirar ekan, tadbirkor muayyan daromadlilik darajasi kafolatiga ega bo‘ladi. Nodavlat sektoriga investitsiyalar kiritilganda bunday kafolat taqdim etilmaydi.

6. O‘zbekistonda davlat va xususiy sektor hamkorligini tartibga soluvchi asosiy me‘yoriy-huquqiy hujjatlar jumlasiga «Konsessiyalar to‘g‘risida»gi, «Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to‘g‘risida»gi, «Tabiiy monopoliyalar to‘g‘risida»gi, «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida»gi, «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to‘g‘risida»gi Qonunlar va boshqalar kiradi.

7. Konsessiya chet ellik investorga xo‘jalik faoliyatining muayyan turi bilan shug‘ullanish uchun davlat nomidan beriladigan ruxsatnoma bo‘lib, bu faoliyatni amalga oshirish uchun davlat chet ellik investorga konsessiya shartnomasi tuzish asosida mol-mulk, yer va yerosti uchastkalarini topshiradi, ammo ularni tasarruf etishdan iborat alohida huquqni o‘zida saqlab qoladi. Davlat mulkidan foydalanganlik uchun to‘lov to‘lanadi. Ishlab chiqarilgan tovarlar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun konsessiyachi mulk huquqini oladi. Xususiy sektordagi hamkor umumjamiyat manfaatlariga bo‘ysunadi, tovarlar va xizmatlarning hamma uchun ochiqligi va tariflarning bir xilligini belgilaydi.

8. O‘zbekiston Respublikasining «Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to‘g‘risida»gi Qonuniga va Mahsulot taqsimotiga oid bitimga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi haq olish asosida va muayyan muddatga chet ellik investorga bitimda ko‘rsatilgan yer qa‘ri uchastkasida konlarni aniqlash, qidirish va foydali qazilmalarni kavlab olish hamda shular bilan bog‘liq bo‘lgan ishlarni olib borish uchun mutlaq huquqlar beradi, in-

vestor esa mazkur ishlarni o‘z mablag‘lari hisobiga va tavakkal qilib amalga oshirish majburiyatini oladi.

9. Mahsulot taqsimotiga oid bitimga asoslangan davlat va xususiy sektor hamkorligi O‘zbekiston Respublikasida keng qo‘llanilmoqda. Xususan, MTB asosida neft va gaz bo‘yicha geologiya-qidiruv ishlari amalga oshirilgan bo‘lib, unda O‘zbekiston, Rossiya, Malayziya, Vyetnam, Xitoy, Koreya kabi mamlakatlarning kompaniyalari ishtirok etgan.

10. Ta‘lim sohasida davlat va xususiy sektor hamkorligini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish fan, ta‘lim, ishlab chiqarish va moliya sohalari integratsiyasining chuqurlashuviga olib keladi.

11. Korxonalarni o‘quv dasturlarini shakllantirish, mehnat bozorida yuqori talabga ega talabalarni o‘qitish va amaliyotlarini tashkil etish, ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonlariga jalb etish, turli innovatsiya yo‘nalishlari bo‘yicha qo‘shma ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni amalga oshirish, talabalarni maqsadli tayyorlash, talabalar va professor-o‘qituvchilar uchun qo‘shimcha stipendiya va grantlarni moliyalashtirish, yosh mutaxassislarning korxonada o‘rnashib olishi va moslashishi uchun ijtimoiy va moddiy sharoitlar yaratish, ta‘lim muassasalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash davlat va xususiy sektor hamkorligining muhim yo‘nalishlari hisoblanadi.

## **Asosiy atamalar va tushunchalar**

Davlat va xususiy sektor hamkorligi, ijtimoiy xizmatlar, davlat shartnomalari, davlat mulki ijarasi, davlat va xususiy sektor qo‘shma korxonasi, konsessiya, konsessiyachi, mahsulotni taqsimlash to‘g‘risidagi bitim, fan, ta‘lim, ishlab chiqarish va moliya sohalari integratsiyasi tabiiy monopoliyalar.



## Nazorat savollari

1. Davlat va xususiy sektor hamkorligini obyektiv zaruratga aylantiruvchi omillarni ko'rsating. Qaysi sohalarida davlat va xususiy sektor o'zaro yaqindan hamkorlik qiladi?

2. Davlat va xususiy sektor hamkorligida davlat va xususiy sektorning manfaatlari qanday ro'yobga chiqadi?

3. Davlat va xususiy sektor hamkorligining qanday shakllarini bilasiz?

4. Davlat va xususiy sektor hamkorligiga qanday omillar to'siq bo'lishi mumkin? Buning sabablarini ko'rsating.

5. Davlat o'z mulkini xususiy tadbirkorlarga ijara yoki lizingga berishi mumkinmi? Agar mumkin bo'lsa, qaysi shartlar asosida?

6. Davlat xorijiy xususiy biznes bilan nima uchun qo'shma korxonalar tuzadi?

7. Iqtisodiyotning qaysi tarmoqlarida davlat xususiy sektor bilan hamkorlik qilmasligi mumkin? Buning sabablarini ko'rsating.

8. Konsessiya nima? Konsessiya va mahsulotni taqsimlash to'g'risidagi bitim bir-biridan qanday farq qiladi?

9. O'zbekistonda davlat va xususiy sektor hamkorligining me'yoriy-huquqiy asoslari yaratilganmi?

10. Fan, ta'lim, ishlab chiqarish va moliya sohalarida davlat va xususiy sektor hamkorligi nima uchun kerak?

11. O'zbekistonda davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?

---

---

## XX bob

# O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA KORPORATSIYALAR

### 20.1. Korporatsiyalarning mohiyati va milliy iqtisodiyot rivojlanishida tutgan o‘rni

Korporatsiya lotinchadan *corporatio* – «birlashma», «uyushma», «hamjamiyat» degan ma’nomlarni anglatadi. Korporatsiya rivojlangan yirik aksiyadorlik jamiyati, biror-bir faoliyat uchun uyushgan huquqiy va jismoniy shaxslar majmuasi hisoblanadi. Korporatsiya davlatga tegishli yoki xususiy bo‘lishi ham mumkin. Korporatsiyalarning ustun tomonlaridan biri boshqaruvning sodda va qayishqoqligi, xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlarini qidirishning qulayligidir.

Korporatsiyalarning kompaniyalar guruhidan farqi shuki, kompaniyalar guruhi bir tarmoqda umumiy muammolarni, ya’ni o‘z resurslarini murakkab texnikani, yuqori texnologik asbob-uskunalarni yaratish va ishlab chiqarishda qo‘llash maqsadlarida birlashtiradi, umumiy manfaatlarni xorijiy raqobatchilar oldida himoya qilishda kuchlarni birlashtiradi, o‘zlariga qulay qonunlar ishlab chiqishda birgalikda harakat qiladi. Korporatsiyalar esa turli tarmoqlarda faoliyat ko‘rsatadi.

Korporatsiyalar korporativ huquqda turlicha talqin qilinsada, uning umumiy to‘rtta belgisini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- yuridik shaxsligi;
- cheklangan mas’uliyatning mavjudligi;
- aksiyalarning bozorda erkin sotilishi;

– direktorlar kengashi tomonidan markazlashgan boshqaruvning joriy etilganligi.

Korporativ boshqaruv tizimi kompaniyalar egalarining boshqaruv menejerlari bilan o‘zaro munosabatlarini tartibga solishni, manfaatli tomonlar hisoblangan kompaniya aksionerlari maqsadlarini muvofiqlashtirishni, kompaniyaning samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlaydi.

Korporativ manfaat, sodda tushunganda, bu foydani yuqori darajaga olib chiqishdan manfaatdorlik hisoblanadi. U korporatsiyaga kiruvchi firma, kompaniya, tashkilotlar uchun umumiy manfaat hisoblanadi. Bu manfaat birgalikda tovar va xizmatlar bozoriga kirib borish, unda o‘z o‘rnini topib, mavqeyini borgan sari mustahkamlash, foydani barqarorlashtirish va mahsulot sifatini yaxshilash orqali ta‘minlanadi. Biroq erkin raqobat sharoitida korporativ manfaatlarining iste‘molchilar manfaatlari bilan to‘qnashishi narxlarning shakllanishida qayishqoq yondashishni taqozo qiladi. Chunki iste‘molchi tomonidan bildirilayotgan xohish-istaklar tovar va xizmatlar narxini muvozanatlashgan narx darajasida ushlab turishni taqozo etadi.

Korporatsiyalar aksariyat hollarda monopol mavqeda yoki shunga yaqin mavqeda bo‘lganligi sababli korporativ manfaat xarajatlarni kamaytirib, mehnat unumdorligini oshirish hisobiga emas, balki ishlab chiqarish hajmini barqaror darajada saqlab turish, barqaror narxlar, agar talabning oshishi kuzatilsa, unga mos shaklda narxlarning sekin va barqaror o‘sishini ta‘minlash orqali ro‘yobga chiqadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlangan davlatlarda korporativ manfaatlarni ro‘yobga chiqarishda davlat o‘zining monopoliyaga qarshi siyosati orqali korporatsiyalarni raqobat kurashida faol qatnashishga undaydi, monopol narxlarni tartibga solishda ishtirok etadi.

Korporatsiyalarning milliy iqtisodiyot rivojlanishida tutgan o‘rni korporativ iqtisodiy tartibga solishda namoyon bo‘ladi. Korporativ iqtisodiy tartibga solish yirik korporatsiyalarning jamiyat resurslarini taqsimlashdagi va turli mutanosib nisbatlarning shakllanishidagi ishtirokini anglatadi. Korporativ iqtisodiy tartibga solish bozor mexanizmi va ma‘muriy-iyerarxik tamoyillar orqali tartibga solishning zamonaviy ko‘rinishi hisoblanadi.

Sanoatlashgan mamlakatlarda korporativ iqtisodiy tartibga solishning asosiy agentlari ko‘ptarmoqli majmualar, tarmoqlangan konglomeratlar, moliya-sanoat guruhlarini hisoblanadi. Ular zamonaviy sanoatning yuqori texnologik va ilm sig‘imi katta bo‘lgan tuzilmasini shakllantirishga hal qiluvchi ta‘sir ko‘rsatadi. Iqtisodiyotdagi nisbatlar va mutanosibliklarning shakllanishiga hamda xo‘jalik aloqalarini tartibga solishda kompaniyalarning turli hamkorlik ko‘rinishlari ta‘sir ko‘rsatadi. Bular firmalararo ittifoqlar va strategik alyanslardir. Ular bir-biri bilan ilmiy-texnik, texnologik, tashkiliy-innovatsion, axborot va infratuzilma ta‘minoti sohalarida kooperatsiya aloqalariga ega.

Xalqaro iqtisodiy aloqalardagi korporativ tartibga solish transmilliy korporatsiya doirasidagi murakkab firmalarini tartibga solish tizimi shaklida namoyon bo‘ladi. Har xil mamlakatlarning firmalari o‘rtasidagi aloqalar esa turli ko‘rinishdagi xalqaro bitimlar va kelishuvlar shaklida, qo‘shma korxonalar tashkil etish, kapitalda o‘z ulushiga ega bo‘lish, ishlab chiqarishdagi ixtisoslashuv va kooperatsiya, bozorlarni taqsimlab olish, ta‘sir doirasi va narx belgilashdagi yetakchilik bo‘yicha kelishuvlarda aks etadi.

Ayrim hollarda, korporativ tartibga solishda bozorning alohida bir ishtirokchisining manfaatlari va umummilliy manfaatlari o‘zaro muvofiq kelmay qolishi ham mumkin. Bunda iqtis-

sodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning ta'sirchan vositalari va dastaklaridan foydalaniladi.

Jahon tajribasidan ma'lumki, har qanday milliy iqtisodiyot jahon xo'jaligida raqobatbardosh bo'lishi uchun yirik korporatsiyalarga ega bo'lishi lozim. Chunki milliy iqtisodiyotning jahon bozori segmentlaridagi mavqeyini turli tarmoqlarda faoliyat ko'rsatayotgan moliyaviy, ishlab chiqarish, ilmiy-texnik, texnologik va innovatsion salohiyati yuqori korxonalar ta'minlab beradi. Bu korxonalarining o'sib, keyinchalik transmilliy maqomga ega bo'lishiga ko'mak berish, korporativ menejmentni rivojlantirish zarur.

## **20.2. Bozor iqtisodiyotining korporativ modeli, korporativ boshqaruv va korporatsiyalarning ko'rinishlari**

Bozor iqtisodiyotining korporativ modeli korporativizm tushunchasini yuzaga keltirdi. Korporativizm keng ma'noda turli qatlamlar yoki zamonaviy jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlar manfaatlarining tashkiliy jihatdan qayd etilishi, ularni rasman e'tirof etish tizimi hisoblanadi. Ixtisoslashgan institutlar, protseduralar va mexanizmlar bu manfaatlarni ro'yobga chiqarish vositalari va dastaklari bo'lib, shu orqali iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarni to'laroq ro'yobga chiqarish uchun raqobat kurashi olib boriladi. Bunda hal qiluvchi o'rinni institutlar va ijtimoiy sheriklik mexanizmlari egallaydi.

Bozor iqtisodiyotining korporativ modeli ko'proq Avstriya, Shvetsiya, Yaponiya, Germaniya, Shveysariya va Niderlandiyada rivojlangan.

Korporativizmning klassik mamlakati hisoblangan Avstriyada kelishuv va manfaatlarni muvofiqlashtirish uchun maslahat kengashlari va qo'mitalari hamda shunga tenglashtiril-

gan tashkilotlar mos ravishda umumjamiyat va iqtisodiyot tarmoqlari darajasida faoliyat ko'rsatadi.

Ular iqtisodiy strategiyani belgilab olishda va ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda yechilishi zarur bo'lgan joriy masalalarni hal etishda muhim rol o'ynaydi.

Bozor iqtisodiyoti tadrijiy rivojlanish jarayonida korporatsiyalarni «o'z bag'rida tarbiyalab, o'stirdi». Boshqacha aytganda, korporatsiyalar bozor iqtisodiyotining natijasi, mahsuli hisoblanadi. Savdo kapitalining o'sib, rivojlanib, sanoat kapitaliga aylangani qonuniyat bo'lganidek, ishlab chiqarishning mayda va kichik birliklari yiriklashib, tashkiliy, huquqiy, moliyaviy, texnik va texnologik jihatdan, shuningdek, institutsional tomondan qudratli korporatsiyalarga aylanishi ham bir qonuniyatdir.

Korporatsiyalarning shakllanishi sanoatlashgan davlatlarda qariyb 150–160 yillik tarixga ega bo'lib, bu davlatlarning o'z korporativ boshqaruv modellari mavjud.

Anglo-amerika korporativ boshqaruv modelida aksionerlar ko'plab mayda investorlar hisoblanadi va korporatsiyani menejment boshqaradi.

Korporativ boshqaruvning nemis modelida korporatsiya faoliyatidan manfaatdor barcha – aksionerlar, menejerlar, xodimlar, banklar va jamoatchilik tashkilotlari qarorlar qabul qilishda qatnashish huquqiga ega. Bu ikki model bir-biridan keskin farq qiladigan modellardir. Ularning boshqaruv usullaridan turli darajada foydalanadigan oraliq modellar ham mavjud.

Yapon korporativ boshqaruv modeli yopiq boshqaruv modeli hisoblanadi va banklar tomonidan nazorat qilinadi. Bu – menejerlarning nazorat qilish muammolarini kamaytiradi.

Korporativ boshqaruvning oila modeli ko'p davlatlarda uchraydi. Bu boshqaruv bir oila a'zolarining yoki oila yaqinlarining boshqaruvda ishtirokini ta'minlaydi.

Iqtisodiy jihatdan samarali bo‘lgan korporatsiyalar yapon korporatsiyalari hisoblanadi. Bu mamlakatda xodimlarning korporativ xulq-atvori yuqori darajada bo‘lib, yapon korporatsiyalari xodimlariga ish haqining miqdori uchun emas, balki firmaning, kompaniyaning mavqeyini saqlab turish uchun harakat qilish muhimroq. Firma esa, o‘z navbatida, uning taqdiri uchun qayg‘uradi. Yapon korporatsiyalarida jamoaviylik ruhi ustun. Yaponiyada korporatsiya xodimi ish joyining o‘zida rivojlanishga harakat qiladi, boshqa korporatsiyaga o‘tib karyera qilishga urinmaydi.

Korporatsiyalarning keng tarqalgan turlaridan biri – bu moliya-sanoat guruhlaridir. Xo‘jalik yuritishning bu shakli huquqiy va xo‘jalik yuritish jihatidan mustaqil bo‘lib, turli tarmoqlarda faoliyat yuritadi. Ammo ularni moliyaviy nazorat qilish va faoliyatlarni o‘zaro muvofiqlashtirishni bitta yirik kompaniya o‘z zimmasiga oladi.

Bunday birlashuvlardan asosiy maqsad guruhga kirgan kompaniyalarning barqarorligini, raqobatlashuvdagi mavqeyini, faoliyat samaradorligini va muayyan bozordagi monopol mavqeyini ta’minlashdan iborat.

Moliya-sanoat guruhi – bu shunday birlashuvki, unda bir tomondan, pul mablag‘lariga ega bo‘lgan tashkilotlar – banklar, moliyaviy va investitsion jamg‘armalar, ikkinchi tomondan, moliyaviy mablag‘larga ehtiyojmand korxonalar va tashkilotlar ishtirok etadi. Moliya-sanoat guruhiga sanoat, savdo, transport va kredit tashkilotlari a’zo bo‘lishi mumkin.

Moliya-sanoat guruhlari, odatda, uch yo‘l bilan tashkil topadi:

- hukumat qarori bilan, davlat korxonalari ishtirokida;
- xususiy tadbirkorlarning kelishuvi, shartnomaviy birlashuvi asosida;
- hukumatlararo bitimlar asosida.

Xo‘jalik birliklarining turli shartlar asosida birlashuvining boshqa ko‘rinishlariga xolding, konsorsium, kartel, konglomerat va konsernlarni kiritish mumkin.

Xolding – bu huquqiy jihatdan mustaqil korxonalar aksiyalarining nazorat paketini o‘zida jamlagan aksionerlik kompaniyasi hisoblanadi va ularning faoliyati ustidan umumiy nazoratni amalga oshiradi. Xolding tarkibiga kiruvchi kompaniyalar tijoriy qarorlarni mustaqil qabul qiladi, tijoriy shartnomalarni o‘zi nomidan imzolaydi, biroq asosiy faoliyati bo‘yicha xolding kompaniya tomonidan qarorlar qabul qilinadi.

Xoldinglarning ustunligi shuki, bosh kompaniya umumiy rivojlanish konsepsiyasini, yagona investitsion va moliyaviy strategiyani ishlab chiqadi, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshiradi.

Konsorsiumlar mustaqil xo‘jalik yurituvchi korxonalar, kompaniyalarning u yoki bu yirik loyihani, katta miqyosdagi davlat investitsion dasturini amalga oshirish maqsadida vaqtinchalik tuzilgan ittifoqi hisoblanadi. Konsorsiumga har qanday mulk shaklidagi kompaniya qo‘shilishi mumkin. Asosiy shart shuki, har bir ishtirokchi yuqori texnik darajada va boshqalarga nisbatan kam xarajatlar bilan o‘ziga tegishli texnik-texnologik va ishlab chiqarish vazifalarini bajarishi lozim.

Konsorsium a‘zolari buyurtmachi oldidagi majburiyatlarini bajarishda birdamlik ko‘rsatadi. Konsorsiumga a‘zo bo‘lish ixtiyoriydir, shu sababli undan chiqish ham o‘z xohishiga ko‘ra bo‘ladi.

So‘nggi yillarda rivojlangan davlatlarda transmilliy konsernlar paydo bo‘lmoqda. Ularning asosiy maqsadlari past soliq stavkalari joriy etilgan va ekologik talablar qattiq bo‘lmagan mamlakatlarda yuqori daromad to‘plash va yuqori soliq stavkalari joriy etilgan mamlakatlardagi daromadlarini kamroq miqdorda jamlashdan iborat.



Korporatsiyalarning yirik turi transmilliy kompaniyalar hisoblanadi. Bu kompaniyalar bir nechta davlatlarda ishlab chiqarish korxonalariga egadirlar. Boshqa tomondan transmilliy kompaniyalar xalqaro biznesning faol ishtirokchilari hisoblanadi.

Transmilliy kompaniyalar uchta katta guruhga ajratiladi:

1. Gorizontol integratsiyalashgan transmilliy kompaniyalar bir turdagi yoki o'xshash tovarlar ishlab chiqaruvchi, turli davlatlarda joylashgan korxonalarni boshqaradi.

2. Vertikal integratsiyalashgan transmilliy kompaniyalar – bir davlatda joylashgan bo'limlarni boshqaradi, bu bo'limlar boshqa davlatlarda joylashgan bo'limlarga tovar yetkazib beradi.

3. Alohida transmilliy kompaniyalar – vertikal yoki gorizontol, ya'ni bir-biriga aloqador bo'lmagan turli davlatlarda joylashgan bo'limlarni boshqaradi.

Transmilliy kompaniyalar bugungi kunda dunyo sanoat mahsulotining qariyb 50 foizini ta'minlab beradi. Dunyo savdosining 70 foizi TMKlar hissasiga to'g'ri keladi. Buning 40 foizi ularning o'zlari o'rtasidagi savdo aylanmasidir. Bu savdo aylanmasi transfert narxlarida asosida amalga oshiriladi, ya'ni bozor narxlarida emas, korporatsiyaning uzoq muddatli siyosatiga moslangan narxlarda amalga oshiriladi.

Ayrim transmilliy kompaniyalar ba'zi bir davlatlar budjetidan katta budjetlarga ega. Dunyodagi 100 ta yirik iqtisodiyotning 52 tasi TMKlarga tegishlidir. Boshqacha aytganda, TMKlar 100 ta yirik iqtisodiy birlikning 52 tasini tashkil etadi. Shu sababli TMKlar ayrim mintaqalar iqtisodiyotiga sezilarli darajada jiddiy ta'sir ko'rsatish salohiyatiga ega.

Transmilliy kompaniyalar globallashuv jarayonlarida katta ta'sirga ega tashkiliy-iqtisodiy birliklardir. Ayniqsa, ular ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlarini amalga oshirish-

da salmoqli rolni bajaradi. Bugungi kunda TMK hissasiga ro'yxatga olingan patentlarning 80 foizi to'g'ri keladi, ITTKI ning 80 foizini aynan mana shu transmilliy kompaniyalar moliyalashtiradi.

Transmilliy kompaniyalar nafaqat ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritadi. Xalqaro doirada faoliyat olib boradigan transmilliy banklar, telekommunikatsiya kompaniyalari, sug'urta kompaniyalari, auditorlik va investitsiya kompaniyalari, pensiya jamg'armalari ham mavjud.

### **20.3. O'zbekistonda korporatsiyalar rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari**

O'zbekistonda davlat miqyosidagi korporativ tuzilmalar, asosan, sanoat tarmoqlarida, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning dastlabki yillaridan shakllana boshladi. Chunki ishlab chiqarish resurslarini yirik miqdorlarda jamlash, investitsiyalarni bir maqsad yo'lida mujassamlashtirish (konsentratsiyalash), moliyaviy tavakkalchiliklarni chamalash va strategik qarorlar qabul qilish imkoniyatlari sanoatning yirik korxonalarida mavjud edi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirishdan asosiy maqsad ham samarasiz faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini bozor iqtisodiyoti sharoitida, erkin tadbirkorlik va raqobat shartlariga ko'ra unumli faoliyat yuritishga o'tkazish edi. Bu islohotlar korporatsiyalarni shakllantirishning tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarini o'z ichiga olgan dastlabki bosqichi hisoblanadi.

Kichik xususiyashtirishdan so'ng, 1995-yillardan keyin sanoat korxonalarini aksioner jamiyatlariga aylantirish boshlandi. Bu davr korporatsiyalarning asosiy tashkiliy-huquqiy ko'rinishlari – aksionerlik kapitali asosida faoliyat ko'rsatuvchi korxonalarining jadal rivojlanish davri bo'ldi.

Sanoat majmuasining elektroenergetika, yoqilg'i sanoati, qora metallurgiya, rangli metallurgiya, kimyo va neft kimyosi, mashinasozlik va metallga ishlov berish, qurilish sanoati, yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati, un-yorma va aralash yem sanoati va poligrafiya sanoatida dastlabki korporativ birliklar davlat va xususiy sektorning qo'shma mulki ko'rinishida tashkil etildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda sanoatning 18 tarmog'iga mansub 150 dan oshiq yirik korxonalar korporativ tuzilma sifatida faoliyat ko'rsatmoqda. Ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Davlat bosh aksioner sifatida faoliyat yuritayotgan korporativ tuzilmalar; bularga «O'zavtosanoat» DAK, «O'zbekyengilsanoat» davlat uyushmasi, «O'zbekiston metallurgiya kombinati» AJ, «O'zikkilamchiqorametall» AJ, «O'zeltexsanoat» AJ, «Oziq-ovqat sanoat» davlat aksiyadorlik uyushmasi, «Yog'moytamakisanoat» davlat aksiyadorlik uyushmasi, «O'zgo'shtsanoat» davlat aksiyadorlik uyushmasi, «O'zdonmahsulot» davlat aksiyadorlik korporatsiyasi, «O'zmevasabzavotuzumsanoat» davlat aksiyadorlik uyushmasi, «O'zbaliq» davlat aksiyadorlik korporatsiyasi, «O'zbekiston havo yo'llari» DAK, «O'zbekiston temiryo'llari» DAK, «O'zavtoyo'l» DUK, «O'zbekneftgaz» xolding kompaniyasi, «Sharq» nashriyot-matbaa kompaniyasi kabilar. Shuningdek, «Sho'rtangaz» DUK, «Sho'rtan» kimyo majmuasi, Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodi, Qo'ng'iro't soda zavodi, Ustyurt gaz-kimyo majmuasi.

2. Davlat tashabbusi bilan va xususiy kapital faolligi natijasida tashkil topgan korporativ tuzilmalar. Kimyo va neft sanoatida «Elektrokimyosanoat» AJ, Farg'ona «Azot» ishlab chiqarish birlashmasi, Olmaliq «Ammofos» AJ, «Navoiyazot» AJ, «Toshkent lok-bo'yoq zavodi» AJ, yengil sanoatda «O'zbek

ipagi» uyushmasi hamda «O‘zbekcharmpoyabzal» uyushmasi kabilar.

3. Dunyoning yirik korporatsiyalari bilan hamkorlikda tashkil topgan korporativ tuzilmalar. Bunga misol qilib «General motors» bilan hamkorlikda faoliyat yuritayotgan «General motors – Uzbekistan» avtomobil zavodini, «MAN» bilan hamkorlikdagi «Samavto» korxonasini keltirish mumkin. Mamlakatimizda dunyoda kimyo mahsulotlari ishlab chiqaradigan yirik korporatsiyalardan biri hisoblangan «MAXAM-CORP International S.L.» bilan «O‘zkiyosanoat» davlat aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan tashkil etilgan «Maksam-Chirchiq» aksionerlik jamiyatini ko‘rsatish mumkin.

Hozirda kompaniya tarkibida 11 ta yirik sanoat korxonasi, 13 ta mintaqaviy taqsimot kompaniyalari, loyiha va ilmiy tadqiqot institutlari, transport-ekspeditsiya kompaniyasi hamda 3 ta qo‘shma korxonalar faoliyat olib boradi. O‘zbekiston kimyo sanoatining giganti hisoblangan bu korporatsiya tomonidan 40 dan oshiq turdagi kimyo mahsuloti ishlab chiqarilmoqda. Ishlab chiqarilayotgan mahsulot MDH davlatlari, Birlashgan Arab Amirliklari, Avstraliya, Eron, Turkiya, Malayziyaga eksport qilinadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda korporatsiyalar tuzilmalarini rivojlantirishda xorijiy tajribadan unumli foydalanilmoqda. Bunda, avvalo, xorijiy kompaniyalarning mamlakatimizdagi faoliyatiga shart-sharoit yaratish, ular ishtirokida qo‘shma korxonalar tashkil etish, ularning korporativ boshqaruv tajribalarini qo‘llash masalalariga katta e‘tibor qaratilmoqda.

Xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda «Aral Sea Operating Company» MChJ, «Mingbulakneft» MChJ, «UZ-KORGAS CHEMICAL» MChJ, «UZ-Ecoprotect» MChJ, «UZ-Prista» MChJ kabi yirik qo‘shma korxonalar faoliyat ko‘rsatmoqda.

Shuningdek, O‘zbekistonda dunyoning turli mintaqalarida samarali faoliyat olib borayotgan nufuzli korporatsiyalardan «GATEWAY VENTURES FZE» (BAA), «Initec Energia S.A» (Ispaniya), «Kingdream Public Limited» kompaniyasi (Xitoy), «Les Laboratoires Servier» LLC (Fransiya), «Oberthur Technologies» (Fransiya), «PDL (M) SDN.BHD» (Malayziya), «PetroChina International» Co.Ltd. (Xitoy), CATG «Agrostroy Engeneering» MChJ, «General electric» Inc., «Korean EXIM BANK», «KAMAZ AVTOPROM» MChJ, «EURO TECH ENGINEERING» MChJ, «Sasol Synfuels International» (Pty) Limited (Janubiy Afrika), «United Commodities» DMCC (BAA), «CNPC Silk Road Group» (Xitoy), «Roedl und Partner» MChJ, Xususiy sektorni rivojlantirish bo‘yicha Islom Korporatsiyasi, Texnologiya va taraqqiyot bo‘yicha Xitoy neft Korporatsiyasi (CPTDC), «Korea Gas Corporation» (KOGAS), «Rio Tinto Mining and Exploration Limited» (Buyuk Britaniya), «Scatra Limited», «China General Technology (group) Holding Ltd» (Xitoy), «Nijfarm» OAJ, «CASPIAN INTERNATIONAL LOGISTICS» MChJ, «Nokia – Siemens Networks Tashkent» MChJ, «Raad Kadiba» MChJ, yirik korporatsiyalarning vakolatxonolari «Medexport Italy» (Italiya), «Technology Management Company» (AQSH), «Western Union» (Avstriya), «Mejdunarodnaya finansovaya korporatsiya», «Gazprom EP Interneshnl Servisiz B.V.», «Gazprom zarubejneftegaz» YoAJ (Rossiya), «CHINA PETROLEUM PIPELINE BUREAU» (Xitoy), «Globeks LLP» (Germaniya), «Iris Telecommunications and Engineering Services Company» (Turkiya), «KNOC ARAL LTD», «Korea National Oil Corporation» (Koreya), «Samsung Electronics Co. Ltd» (Koreya), «Toyota Tshusho Corporation» (Yaponiya), «TransMashXolding» (Rossiya) faoliyat olib borayapti. Bu jarayon

O‘zbekistonda korporatsiyalar rivojlanishi uchun institutsional asoslarning kengayib borayotganini bildiradi.

O‘zbekistonda korporatsiyalarning faoliyatlari «Korxonalar to‘g‘risida»gi, O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-aprelda qabul qilingan «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi, 2014-yil 18-fevralda qabul qilingan «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida (yangi tahriri)»gi qonunlari orqali tartibga solinadi.

### **Qisqacha xulosalar**

1. Korporatsiya rivojlangan yirik aksiyadorlik jamiyati, biror-bir faoliyat uchun uyushgan huquqiy va jismoniy shaxslar majmuyi hisoblanadi. Korporativ boshqaruv tizimi kompaniyalar egalarining boshqaruv menejerlari bilan o‘zaro munosabatlarini tartibga solishni, manfaatli tomonlar hisoblangan kompaniya aksionerlari maqsadlarini muvofiqlashtirishni, kompaniyaning samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlaydi.

2. Korporatsiyalar aksariyat hollarda monopol mavqeda yoki shunga yaqin mavqeda bo‘lganligi sababli korporativ manfaat xarajatlarni kamaytirib, mehnat unumdorligini oshirish hisobiga emas, balki ishlab chiqarish hajmini barqaror darajada saqlab turish, barqaror narxlar, agar talabning oshishi kuzatilsa, unga mos shaklda narxlarning sekin va barqaror o‘shishini ta‘minlash orqali ro‘yobga chiqadi.

3. Korporatsiyalarning milliy iqtisodiyot rivojlanishida tutgan o‘rni korporativ iqtisodiy tartibga solishda namoyon bo‘ladi. Korporativ iqtisodiy tartibga solish yirik korporatsiyalarning jamiyat resurslarini taqsimlashdagi va turli mutanosib nisbatlarning shakllanishidagi ishtirokini anglatadi. Korporativ iqtisodiy tartibga solish bozor mexanizmi va ma‘muriy-iyerar-

xik tamoyillar orqali tartibga solishning zamonaviy ko‘rinishi hisoblanadi.

4. Har qanday milliy iqtisodiyot jahon xo‘jaligida raqobatbardosh bo‘lishi uchun yirik korporatsiyalarga ega bo‘lishi lozim. Chunki milliy iqtisodiyotning jahon bozori segmentlaridagi mavqeyini turli tarmoqlarda faoliyat ko‘rsatayotgan moliyaviy, ishlab chiqarish, ilmiy-texnik, texnologik va innovatsion salohiyati yuqori korporatsiyalar ta‘minlab beradi.

5. Korporatsiyalar bozor iqtisodiyotining natijasi, mahsuli hisoblanadi. Savdo kapitalining o‘sib, rivojlanib sanoat kapitaliga aylangani qonuniyat bo‘lganidek, ishlab chiqarishning mayda va kichik birliklari yiriklashib, tashkiliy, huquqiy, moliyaviy, texnik va texnologik jihatdan, shuningdek, institutsional tomondan qudratli korporatsiyalarga aylanishi ham bir qonuniyatdir.

6. Korporativ boshqaruv modellari ichida anglo-amerika modeli, nemis modeli, yapon modeli hamda oila modeli alohida ajralib turadi. Shu bilan birga, iqtisodiy jihatdan juda samarali bo‘lgan korporatsiyalar yapon korporatsiyalari hisoblanadi.

7. Korporatsiyalarning keng tarqalgan turlaridan biri – bu moliya-sanoat guruhlaridir. Moliya-sanoat guruhi – bu shunday birlashuvki, unda bir tomondan, pul mablag‘lariga ega bo‘lgan tashkilotlar – banklar, moliyaviy va investitsion jamg‘armalar, ikkinchi tomondan, moliyaviy mablag‘larga ehtiyojmand korxonalar va tashkilotlar ishtirok etadi. Moliya-sanoat guruhiga sanoat, savdo, transport va kredit tashkilotlari a‘zo bo‘lishi mumkin.

8. Korporatsiyalarning yirik turi transmilliy kompaniyalar hisoblanadi. Bu kompaniyalar bir nechta davlatlarda ishlab chiqarish korxonalariga egadirlar. Transmilliy kompaniyalar bugungi kunda dunyo sanoat mahsulotining qariyb 50 foizini ta‘minlab beradi. Dunyo savdosining 70 foizi TMKlar hissa-

sigʻa toʻgʻri keladi. Buning 40 foizi ularning oʻzlari oʻrtasidagi savdo aylanmasidir.

9. Oʻzbekistonda davlat miqyosidagi korporativ tuzilmalar asosan, sanoat tarmoqlarida, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning dastlabki yillaridan shakllana boshladi. Bu islohotlar korporatsiyalarni shakllantirishning tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarini oʻz ichiga olgan dastlabki bosqichi hisoblanadi.

10. Bugungi kunda mamlakatimizda sanoatning 18 tarmogʻida 150 dan oshiq yirik korxonalar korporativ tuzilma sifatida faoliyat koʻrsatmoqda.

11. Oʻzbekistonda korporatsiyalar tuzilmalarini rivojlantirishda xorijiy tajribadan ham unumli foydalanilmoqda. Bunda avvalo, xorijiy kompaniyalarning mamlakatimizdagi faoliyatiga shart-sharoit yaratish, ular ishtirokida qoʻshma korxonalar tashkil etish, ularning korporativ boshqaruv tajribalarini qoʻllash masalalariga katta eʼtibor qaratilmoqda.

## **Asosiy atamalar va tushunchalar**

Korporatsiya, aksiyadorlik jamiyati, korporativ boshqaruv, monopol mavqe, korporativ iqtisodiy tartibga solish, korporativ boshqaruv modellari, anglo-amerika modeli, nemis modeli, yapon modeli, oila modeli, moliya-sanoat guruhi, investitsion jamgʻarmalar, transmilliy kompaniyalar, korporativ tuzilmalar, yirik korxonalar, qoʻshma korxonalar, korporativ boshqaruv tajribalari.

## **Nazorat savollari**

1. Nima uchun korporatsiya rivojlangan yirik aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi?



2. Korporativ boshqaruv tizimi nima va u qanday xususiyatlarga ega?

3. Korporatsiyalar aksariyat hollarda monopol mavqeda yoki shunga yaqin mavqeda bo‘ladi. Buning asosiy sabablarini ko‘rsating. Fikringizni izohlang.

4. Korporatsiyalarning milliy iqtisodiyot rivojlanishida tutgan o‘rnini qanday baholaysiz?

5. Korporativ iqtisodiy tartibga solish deganda nimani tushunasiz?

6. Milliy iqtisodiyotning jahon xo‘jaligida raqobatbardosh bo‘lishiga yirik korporatsiyalar qanday ta‘sir ko‘rsatishi mumkin? Sabablarini tushuntiring.

7. Nima uchun korporatsiyalar bozor iqtisodiyotining natijasi, mahsuli hisoblanadi?

8. Korporativ boshqaruvning qanday modellarini bilasiz? Ularning farqlarini ko‘rsating.

9. Moliya-sanoat guruhi va transmilliy kompaniyalarni tavsiflang.

10. O‘zbekistonda davlat miqyosidagi korporativ tuzilmalar qachon va qaysi tarmoqlarda shakllana boshladi?

11. O‘zbekistonda korporatsiyalar tuzilmalarini rivojlantirishda qanday chora-tadbirlar ko‘rilmoqda?

---

---

## XXI b o b

# O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK

### 21.1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mohiyati

Iqtisodiyotning eng muhim qismi ishlab chiqarish jarayoni bo‘lib, bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar va xizmatlarni yaratish bilan, avvalo, tadbirkorlar shug‘ullanadi. An’anaviy iqtisodiyotda ham, rejali iqtisodiyotda ham tadbirkorlik faoliyatining muayyan belgilarini ko‘rish mumkin. Ammo bozor iqtisodiyoti xususiy tadbirkorlikka misli ko‘rilmagan imkoniyatlar yaratib beradi, kishilarning o‘z jismoniy va aqliy salohiyatlarini namoyon qilishlari uchun obyektiv shart-sharoit yuzaga keladi. Bu xususiy mulkka egalik qilish, uni tasarruf etish va undan foydalanish erkinligi, raqobat muhiti va davlatning iqtisodiy faoliyatga maqsadga muvofiq aralashishi bilan bog‘liq.

Ilgari, 1990-yillar boshida, uddaburon kishi, ishning ko‘zini biladigan odam, hisob-kitobini puxta qiladigan inson kabi tavsiflar o‘rnini keyinchalik «biznesmen», «tadbirkor», «sohibkor», «fermer» tushunchalari egalladi. Chunki bozor islohotlari va mulkni davlat tasarrufidan chiqarish natijasida aholining yangi qatlami – tadbirkorlar shakllandi. Tadbirkorlarning ish yuritish, mahsulot ishlab chiqarish va uni ayirboshlash malakasi yuksaldi, qonun doirasida faoliyatni tashkil etish, ijtimoiy mas‘uliyatni his etish va davlat bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik qilish ko‘nikmalari rivojlandi.

Ilgari tadbirkorlarning nufuzi aylanma mablag'larni tez boshqarish, savdo, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmatlar sohalariidagi faoliyatini kengaytirish bilan belgilansa, bugungi kunga kelib biznes va tadbirkorlikning jamiyatdagi mavqeyi va nufuzi ishlab chiqarish sohalari – oziq-ovqat, to'qimachilik, qurilish materiallari sanoati, qurilish, xususan, uy-joy qurilishi, yuqori texnologiyali axborot xizmatlari ko'rsatish kabilardagi faoliyati bilan o'lganmoqda. Qolaversa, tadbirkorning nufuzi ularning qancha ish o'rinlari yaratayotganliklari, eksportga mahsulot chiqarish salohiyati, mahsulot tannarxini pasaytirish imkoniyatlari bilan ham baholanmoqda. Ko'rinib turibdiki, tadbirkorlikka va tadbirkorning shaxsiy fazilatlariga bo'lgan talab yildan yilga o'z-o'zidan obyektiv tarzda oshmoqda.

Xo'sh tadbirkor kim? Uni yuqorida aytganimiz – uddaburon kishi, ishning ko'zini biladigan odam, hisob-kitobini puxta qiladigan insondan ajratib turadigan muhim belgilari nimalardan iborat?

Tadbirkorlik faoliyati kishilarning tavakkal qilib, mulkiy javobgarlik asosida qonunchilik doirasida tashabbus bilan faoliyat ko'rsatishidir. Bu faoliyat kapital va resurslardan oqilona foydalanish orqali ko'zda tutilgan maqsad – foyda yoki tadbirkorlik daromadini olishga qaratiladi. Ammo tadbirkorlik har qanday yo'llar bilan emas, balki yaratuvchanlik, tashabbuskorlik faoliyati orqali daromad olishni bildiradi. Shu sababli yollanib ishlash, pulni bankka qo'yib foiz olish, yerni ijaraga berib renta olish tadbirkorlik emas.

Bozor iqtisodiyoti erkin tadbirkorlikka, sohibkorlikka asoslangan iqtisodiyotdir. Shuning uchun ham tadbirkorlik faoliyatining shakllanishi va rivojlanishi uchun iqtisodiyotda bozor munosabatlari hukmron bo'lishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi uchun iqtisodiy faoliyatda erkinlik taqozo etiladi. Erkinlik bor joyda o'z ishiga

ijodiy yondashuv, tashabbuskorlik rivoj topadi. Kishilardagi xotirjamlik, ularning xavotir va tazyiqlardan xoli bo'lishi ishbi-larmonlikning yangi qirralarini yuzaga chiqaradi.

Ma'muriy ta'sir, buyruq va majburiylik bor joyda tadbirkorlik faoliyati bo'g'iladi. Tadbirkorlikda nima ishlab chiqarish, qancha ishlab chiqarish, qanday ishlab chiqarish, ishlab chiqarilgan mahsulotni qayerda, kimga va qaysi baholarda sotish erkin holda bozorda shakllangan talab va taklif mutanosibligiga ko'ra hal etiladi. Baho ham erkin shakllanib, talab va taklif muvozanati asosida amal qiladi.

Tadbirkorlik faoliyati rivojlanishining muhim shartlaridan biri ko'p mulkchilik shakllari va raqobat muhitining yaratilishi-dir. Shu sababli iqtisodiy islohotlarning asosini xususiylashtirish va mulkni davlat tasarrufidan chiqarish tashkil qiladi. Tadbirkorlik faoliyatining taraqqiy topishi esa ushbu jarayonlarga, ularni amalga oshirish usuliga, sur'atlariga va ko'lamiga bog'liq bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik, eng avvalo, kapital hajmini kam talab etuvchi, qisqa muddatlarda foyda keltiruvchi tarmoqlarda keng rivoj topadi. Bu esa kichik va xususiy tadbirkorlikning ravnaq topishiga olib keladi.

Tadbirkorlikni kichik, o'rta va yirik biznes shaklida tavsiflash mumkin. Kichik hajmdagi korxonalarining o'sib o'rta hajmga o'tishi, o'rta hajmdagi korxonalarining esa o'zaro qo'shib yoki o'zlarining muvaffaqiyatlari evaziga kuchayib yiriklashishi jahon tajribasida tez-tez kuzatiladigan holatdir. Ammo O'zbekistonda bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ma'nodosh va bir-birini to'ldiruvchi iqtisodiy tushunchalar sifatida qo'llanilmoqda.

Kichik biznes ingliz tilidagi adabiyotlarda «small business», ya'ni kichik biznes tariqasida qo'llaniladi. Ko'plab Yevropa mamlakatlari va Yaponiyada «Kichik va o'rta korxonalar» ata-

masidan foydalaniladi. Fransuz tilidagi adabiyotlarda PME (petites et moyennes enterprises) abbreviaturasi keng iste'molga kiritilgan. Umuman olganda, «Kichik tadbirkorlik», «Kichik biznes» va «Kichik korxonalar» kabi atamalardan ma'nodosh tushunchalar sifatida foydalanish mumkin.

Odatda, kichik korxonalar maqomini belgilab beruvchi mezonlar sifatida korxonada band bo'lgan ishchilar soni, tovar aylanmasi, aktivlar, kapitallar va foyda miqdori va boshqa statistik ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Biroq xorijiy va mamlakatimiz iqtisodiy adabiyotlarida ko'p hollarda bitta ko'rsatkich – korxonada band bo'lgan ishchilar sonidan kelib chiqib, kichik korxonalar to'g'risida fikr yuritiladi.

Masalan, O'zbekistonda «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga quyidagilar kiritiladi:

1) yakka tartibdagi tadbirkorlar;

2) ishlab chiqarish tarmoqlaridagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan yigirma kishi, xizmat ko'rsatish sohasidagi va ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa tarmoqlardagi band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan o'n kishi, ulgurji, chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish tarmoqlaridagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan besh kishi bo'lgan mikrofirmalar;

3) quyidagi tarmoqlardagi:

– qonun hujjatlarida nazarda tutilgan yengil, oziq-ovqat sanoatidagi va qurilish materiallari sanoatidagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan ikki yuz kishi;

– metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochsozlik, mebel sanoatidagi, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohasidagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan yuz kishi;

– mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg‘i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish va ularni qayta ishlash, qurilish hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalaridagi, band bo‘lgan xodimlarining o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan ellik kishi;

– fan, ilmiy xizmat ko‘rsatish, transport, aloqa, xizmat ko‘rsatish sohalari (sug‘urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa sohalardagi, band bo‘lgan xodimlarining o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan yigirma besh kishi bo‘lgan kichik korxonalar.

## **21.2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi o‘rni va roli**

Kichik tadbirkorlik faoliyati bozor sektori hisoblanib, bozor raqobati sharoitida iqtisodiy o‘rinish sur‘atlari, yalpi ichki mahsulotning tarkibi va sifat o‘zgarishini belgilab beruvchi muhim yo‘nalish hisoblanadi.

Dunyoning aksariyat mamlakatlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning samarali faoliyat olib borayotgan organik tuzilmalari hisoblanadi. Chunki kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning barcha «kapillyar tomirlari»da harakatlanadi, uni kichik miqyoslarda «oziqlanti-radi».

Masalan, Yaponiyaning jahonda iqtisodiy nufuzining oshishida va yapon «mo‘jizasi»da kichik biznes hal qiluvchi rol o‘ynadi. Birgina qayta ishlash sanoatida 6,5 mln. kichik va o‘rta korxonalar faoliyat ko‘rsatib, ular ushbu sohadagi jami korxonalarining 99 foizini tashkil etadi. Bu korxonalarda 40 mln. dan ortiq kishi band. Bu, ish bilan band aholining 81 foizi kichik biznes korxonalarida faoliyat ko‘rsatadi demakdir.

AQSHda kichik va o‘rta biznes firmalari jami korxonalarining 99 foizini tashkil etadi. Bu firmalarning asosiy qismi kichik, mitti firmalar bo‘lib, ular oila mehnatiga asoslanadi. Jami kichik korxonalarining 80 foizida ish bilan band bo‘lganlarning soni 10 kishidan oshmaydi.

Kichik va o‘rta firmalar AQSH yalpi ichki mahsulotining 40 foizini ishlab chiqaradi. Qayta ishlash sanoatida bu ko‘rsatkich 21 foizni, qurilishda – 80, chakana savdoda – 86, xizmat ko‘rsatish sohasida – 81 foizni tashkil etadi. AQSH iqtisodiyotida ilmiy-texnika taraqqiyotiga oid barcha yangiliklarning yarmi ushbu tadbirkorlik shakliga to‘g‘ri keladi.

Kichik tadbirkorlikning afzalliklari nimada? Nima uchun butun dunyoda ushbu tadbirkorlik shakliga alohida e‘tibor beriladi?

Kichik biznes iqtisodiyotda muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bajaradi. Bu vazifalarning eng asosiylaridan biri shundan iboratki, kichik biznes jamiyatda siyosiy va iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlovchi o‘rta sinfning shakllanishiga olib keladi. Har qanday jamiyatda o‘rta mulkdorlar sinfi iqtisodiyot rivojlanishida o‘ziga xos o‘rin tutadi.

Kichik va o‘rta biznesning yana bir muhim vazifasi iste‘mol talabining tabaqalanishi va individuallasuvi sharoitida keng turdagi tovar va xizmatlar ishlab chiqarishni amalga oshirishidir. Bugungi kunda kichik biznes keng rivojlanmagan zamonaviy iqtisodiyotni tasavvur etib bo‘lmaydi. U, bir tomondan, qandaydir darajada yirik korxonalar bilan raqobatda bo‘ladi. Va shu nuqtayi nazardan iqtisodiyotning bozor konyunkturasi o‘zgarishlariga, moda va iste‘molchilar didining tez-tez almashib turishiga, iqtisodiyotni tarkibiy jihatidan qayta qurishga yordam beradi. Ikkinchi tomondan, kichik va o‘rta korxonalarining katta qismi yirik biznes bilan hamkorlik qiladi,

ularni to'ldiradi va mustahkamlaydi, ularga xos bo'lgan texnik konservatizmni bartaraf etishga ko'maklashadi.

Kichik biznesning rivojlanishi bozorni iste'mol tovarlari va xizmatlari bilan to'ldirishga, tarmoq va hududiy monopoliizmga barham berishga, raqobat muhitining vujudga kelishi va kengayishiga, ilmiy-texnika natijalarini ishlab chiqarishga joriy etishga, eksport salohiyatining yuksalishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kichik biznesning yana bir muhim xususiyati nisbatan kam sarf-xarajatlar evaziga yangi ish o'rinlarini yaratishi va shu orqali bandlik muammosini hal etishga hissa qo'shishi hisoblanadi. Shu bilan birga, kichik biznes turli ijtimoiy guruhlar daromadlari o'rtasidagi tafovutlarni qisqartirishga, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarni samaradorlik darajasi yuqori bo'lgan sohalarga yo'naltirishga, iqtisodiyotning turli sektorlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishga o'z hissasini qo'shadi.

Kichik biznesning yana bir muhim ijtimoiy vazifasi shundan iboratki, u ijtimoiy jihatdan zaif aholi qatlamlari – ayollar, nogironlar, pensionerlar va boshqalarni ish bilan ta'minlaydi hamda ularning mehnatidan keng foydalanadi. Yosh mutaxassislarni ishlab chiqarish tajribasi bilan ta'minlaydi.

Kichik biznes korxonalarining iqtisodiyotda tutgan o'rni va roli uning quyidagi afzalliklarida yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi:

– kichik tadbirkorlik bozor talabi o'zgarishiga sezuvchan bo'ladi. U yangi texnologiya yoki yangi mahsulot ishlab chiqarishga osonlik bilan o'tishi mumkin. Yirik korxonalarda esa bu jarayon katta xarajatlar va ko'p vaqt talab qiladi;

– kichik korxonalarni rivojlantirish mahalliy resurslardan keng foydalanish imkoniyatini beradi. Yirik korxonalarning



bunday mayda ishlar bilan shug‘ullanishga rag‘bati yo‘q. Bu faoliyat yirik korxonalariga sezilarli daromad keltirmaydi;

– kichik korxonalarda yirik korxonalariga nisbatan boshqarish xarajatlarining ulushi ancha past bo‘ladi;

– kichik biznes korxonalari yirik sarmoyani talab qilmaydi va sarf qilingan kapitalning qoplanish muddati qisqa bo‘ladi;

– kichik biznes yangi-yangi ishchi o‘rinlarini barpo etib, ishsizlik muammosini hal qilishda muhim rol o‘ynaydi;

– kichik korxonalar jamiyatda o‘rta mulkdorlar qatlamining shakllanishiga olib keladi;

– tadbirkorlikning mazkur shakli ichki bozorni iste‘mol mollari bilan to‘ldirishning asosiy omili hisoblanadi.

### **21.3. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning me‘yoriy-huquqiy asoslari**

Tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishida huquqiy muhitni vujudga keltirish muhim shartlardan hisoblanadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishi, eng avvalo, ushbu sektorga nisbatan davlat tomonidan olib borilayotgan siyosatning samaradorlik darajasiga bog‘liq. Davlat kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning shakllanishi va faoliyat ko‘rsatishi uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, ya‘ni qonuniy asoslarni barpo etish, umuman, tadbirkorlik va uning alohida turlarini rag‘batlantirish bo‘yicha tegishli tashkiliy-iqtisodiy chora-tadbirlarni amalga oshirish, kichik va xususiy tadbirkorlikka xizmat ko‘rsatuvchi bozor infratuzilmasini tartibga solish, tadbirkorlik huquqlari va manfaatlarini himoya qilish va kafolatlash orqali ushbu sohaning rivojlanishiga yordam ko‘rsatadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning me‘yoriy-huquqiy asoslari yaratilgan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tartib-

ga soluvchi muhim me'yoriy-huquqiy hujjatlar jumlasiga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Soliq va Xo'jalik protsessual kodekslari, «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hamda shu sohaga oid O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari kiradi.

Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar tizimida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosiy o'rinni egallaydi. Uning 53-moddasida shunday ta'kidlanadi: «Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan babbaravar muhofaza etilishini kafolatlaydi». Mazkur me'yor barcha xo'jalik yuritish subyektlarining tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishiga imkoniyat yaratadi. Shuningdek, Konstitutsiyada xususiy mulk boshqa mulk shakllari singari daxlsiz va davlat tomonidan himoya qilinishi, mulkdor o'z xohishiga ko'ra o'ziga tegishli mol-mulkka egalik qilishi, undan foydalanishi va boshqarishi mumkinligi belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan mamlakatimizda tadbirkorlik yuritish uchun har tomonlama qulay bo'lgan biznes va investitsiya muhitini yaratish, shu jumladan huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish, kichik biznes subyektlari hamda xorijiy investorlar uchun yaratilayotgan imtiyoz va yengilliklarning yaxlitligini ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatini boshlash va yuritishda yuzaga kelayotgan byurokratik g'ov va to'siqlarga barham berish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2014-yil 12-dekabrda kuchga

kirgan «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi Qonun asosida tadbirkorlarga yanada keng qulayliklar yaratishni nazarda tutuvchi qoidalar amaliyotga kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonuniga kiritilgan qo‘shimchaga ko‘ra kichik tadbirkorlik subyektlari doirasi kengaytirildi. Endilikda yengil sanoat, oziq-ovqat va qurilish materiallari sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalarda xodimlar o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan ikki yuz kishi bo‘lsa, metallga ishlov berish, mebel sanoati kabi sohalarda xodimlarning o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan yuz kishi bo‘lsa, ana shunday maqomga ega bo‘ladi. Ular qonunchilikda nazarda tutilgan imtiyozlardan bemaol foydalanadi.

Qonunning «Tadbirkorlik faoliyati subyektlari uchun noqulay bo‘lgan qonun hujjatlaridagi o‘zgartishlardan kafolatlar» degan yangi modda bilan to‘ldirilgani muhim yangilikdir. Unga ko‘ra, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartib-taomilining murakkablashtirilishini va tadbirkorlik faoliyati subyektlari zimmasiga yangi majburiyatlar yuklatilishini nazarda tutadigan, ularning javobgarligiga oid yangi choralarni belgilaydigan qonun hujjatlari rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kamida uch oydan keyin kuchga kiradi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashda soliq imtiyozlarini taqdim etish, soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimini qo‘llash, imtiyozli kreditlash, soliq va buxgalteriya hisobotlarini davlat soliq va statistika organlariga taqdim etish davriyligi va mudatlarini qisqartirish, soliq tekshiruvlari va boshqa tekshiruvlar davriyligini qisqartirish kabi tadbirlar muhim ahamiyatga ega.

Shu nuqtayi nazardan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktabrdagi PF-4848-sonli «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiyl mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoni alohida ahamiyatga ega. Farmonda xususiyl mulk egalarining, tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini ishonchli himoya qilish chora-tadbirlari belgilangan, ularning javobgarligi bilan bog‘liq talablar liberallashtirilgan, nazorat organlarining ijroga nisbatan mas’uliyati kuchaytirilgan.

Jumladan, farmonda davlat organlari, nazorat qiluvchi va huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalarga o‘z faoliyatida qonun talablarini hamda tadbirkorlik subyektlarining huquqlari, qonuniyl manfaatlari ustuvorligi tamoyilining so‘zsiyl amalga oshirilishini ta’minlash vazifalari yuklatilgan. Tadbirkorlik faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashganlik va to‘sqinlik qilganlik, ularning faoliyatini asossiz to‘xtatib qo‘yganlik uchun mansabdor shaxslarning javobgarligi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining qat’iy bajarilishini ta’minlash belgilab qo‘yilgan.

#### **21.4. Kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik rivojlanishining tendensiyalari**

Mamlakatimiz mustaqillikni qo‘lga kiritganidan keyingi davrda iqtisodiy hayotning barcha sohalarida ko‘lami va ahamiyati jihatidan juda katta o‘zgarishlar yuz berdi. Shu yillar davomida respublikamiz xomashyo yetkazib beruvchi haddan ziyod markazlashtirilgan iqtisodiyotdan xususiyl mulk yetakchi rol o‘ynaydigan ko‘p ukladli iqtisodiyot sari murakkab, ayni vaqtda g‘oyat muhim qadamni tashladi. Davlatning islohotlar dasturi qisqa muddat ichida makroiqtisodiy vaziyatning barqarorlashuviga, sanoat ishlab chiqarishi hajmining ortishiga,

inflatsiyaning pasayishiga, hayotiy muhim masalalar turlari bo'yicha iqtisodiy mustaqillikka erishish imkonini berdi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri, iqtisodiyotda xususiy sektorni shakllantirish, mulkdorlar sinfini yaratish, kichik biznes subyektlari rivojlanishini har tomonlama qo'llab-quvvatlashdir. Bu sohada mamlakatimizda qator ijobiy natijalarga erishildi. Mamlakatimizda biznesni yuritish bilan bog'liq barcha jarayonlarni yanada erkinlashtirish, soddalashtirish va arzonlashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida kichik biznesning respublikamiz iqtisodiyotidagi tutgan o'rni tobora mustahkamlanib bormoqda.

#### **O'zbekistonda kichik biznes korxonalari rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari**

<b>Yillar</b>	<b>Kichik biznesning YaIMdagi ulushi, %</b>	<b>Faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari soni, ming birlik</b>	<b>Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda band bo'lganlar soni, mln. kishi</b>	<b>Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotda band bo'lganlar umumiy sonidagi ulushi, %</b>
2000	31,0	99,4	4,5	49,7
2005	42,1	100,8	6,6	64,8
2010	52,5	164,1	8,6	74,3
2015	56,5	226,0	10,2	77,9
2016	56,9	218,2	10,4	78,2

\* Fermer va dehqon xo'jaliklari soni hisobga olinmagan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga davlat tomonidan katta e'tibor berilishi hamda qo'llab-quvvatlanishi natijasida kichik biznes korxonalari soni 2000-yilda 99,4 mingtadan 2016-yilda 218,2 mingtaga yetdi va 2,2 martaga ko'paydi. Kichik korxonalar sonining o'sishi va ularda sifat o'zgarishlarining yuz berishi mamlakat yalpi ichki mahsulotida kichik biznes ulushining oshishiga olib kelmoqda. Xususan, 2000-yilda yalpi ichki mahsulotning qariyb 31 foizi iqtisodiyotning faol rivojlanib borayotgan ushbu sektori ulushiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2016-yilda bu ko'rsatkich 56,9 foizni tashkil etdi yoki 2000-yilga nisbatan 25,9 foizga o'sdi.

Kichik tadbirkorlik aholini ish bilan ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2000-yilda O'zbekistonda kichik tadbirkorlik sektorida 4,5 mln. kishi band bo'lgan bo'lsa, 2016-yilga kelib bu ko'rsatkich 10,4 mln. kishiga yetdi, ya'ni tahlil qilinayotgan davr mobaynida ushbu sektorda band bo'lganlar soni 2,3 martaga ko'paydi. Buning natijasida ish bilan band aholining 2016-yilda 78,2 foizi aynan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga to'g'ri keldi.

**Iqtisodiyot sohalari bo'yicha mahsulot ishlab chiqarishda  
kichik biznes subyektlarining ulushi, %**

Yillar	2000	2005	2010	2015	2016
Sanoat	12,9	10,0	26,6	40,6	45,3
Qishloq xo'jaligi	73,6	85,7	95,2	98,1	98,2
Qurilish	38,4	50,9	52,5	66,7	67,8
Chakana savdo	74,1	88,2	85,1	87,1	89,6
Bandlik	49,7	64,8	74,3	77,9	78,2

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining kengayishi iqtisodiyotning boshqa soha va tarmoqlari ishlab chiqarish hajmidagi salmog'ining oshishi orqali ham namoyon bo'ldi. Xususan, kichik biznesning yalpi sano-

at mahsulotidagi ulushi 2000-yilda 12,9 foizdan 2016-yilda 45,3 foizgacha o'sdi. Bu sanoat tarmog'ida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalarda sifat o'zgarishlari yuz berayotganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, ushbu tarmoqda kichik biznesning nisbatan pastroq sur'atlarda rivojlanayotganligini ta'kidlash lozim.

Kichik biznes korxonalari faoliyatini tahlil qilish, ular, ayniqsa, qishloq xo'jaligi sohasida jadal rivojlanayotganligini ko'rsatadi. Xususan, kichik korxonalarining yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotidagi salmog'i 2000-yilda 73,6 foizdan 2016-yilda 98,2 foizgacha o'sdi. Shu davr mobaynida qurilishda kichik biznes subyektlarining ulushi 38,4 foizdan 67,8 foizgacha o'sdi.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishida, eng avvalo, mazkur soha uchun belgilanayotgan soliq imtiyozlari yetarli darajadagi rag'batlantiruvchi rol o'ynayotganligi hisoblanadi. Xususan, 2010-yilda kichik biznes subyektlari uchun belgilangan yagona soliq to'lovi 8 foizdan 7 foizga pasaytirilgan bo'lsa, 2011-yilda 7 foizdan 6 foizga, 2012-yilda 6 foizdan 5 foizga kamaytirilishi xo'jalik yurituvchi subyektlar investitsiya faoliyatining kengayishiga xizmat qildi, 1996-yilda kichik biznes subyektlari uchun yagona soliq stavkasi 38 foizga teng bo'lgan edi.

So'nggi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashga ham alohida e'tibor berilmoqda. Xususan, 2010–2016-yillarda, O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga berilgan kreditlar va mikrokreditlarning miqdori o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, kichik biznes subyektlari faoliyatini moliyalashtirishni rivojlantirish nuqtayi nazaridan ijobiy holat hisoblanadi. Agar 2010-yilda O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari tomonidan barcha moliyalashti-

rish manbalari hisobidan kichik biznes subyektlariga berilgan kreditlar hajmi 2,7 trln. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2015-yilda bu ko‘rsatkich 15,9 trln. so‘mga yetdi.

**Kichik biznes subyektlarining tashqi iqtisodiy  
faoliyatdagi ulushi, %**

Yillar	2000	2005	2010	2015	2016
Eksport	10,2	6,0	13,6	27,0	26,5
Import	27,4	33,7	35,8	44,5	46,7

Kichik biznes subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtiroki ham tobora kengayib bormoqda. Import o‘rmini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqaruvchi kichik biznes subyektlarining davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi eksport hajmida kichik biznes hissasini oshirish imkonini bermoqda. Agar 2000-yilda respublika jami eksportining 10,2 foizi kichik biznes korxonalari hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2016-yilga kelib bu ko‘rsatkich 26,5 foizga yetdi.

Kichik biznes subyektlarining asosiy eksport mahsulotlarini qishloq xo‘jaligi, to‘qimachilik, ishlov beruvchi, elektrotexnik ishlab chiqarish mahsulotlari, xalq amaliy san‘ati buyumlari tashkil etadi.

Kichik biznes korxonalari mamlakat importida ham katta o‘ringa ega bo‘lib, u 2016-yilda 46,7 foizni tashkil etdi.

Kichik biznes subyektlari tashqi savdo aloqalarining jadalashuvida Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki huzurida maxsus tashkil etilgan Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksportini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasining roli katta bo‘lmoqda.

O‘zbekistonda kichik biznesning istiqboldagi rivojlanishi quyidagi muammolarning hal etilishiga bog‘liq:



– iqtisodiyotda, ayniqsa, qishloq xo‘jaligida kichik biznes jadal rivojlanishi uchun tashkiliy va iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy asosini takomillashtirish, uning yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishdagi, aholi daromadlarini shakllantirish, bandlik muammolarini hal etishdagi rolini oshirish, tadbirkorlik tuzilmalarining xomashyo, ayniqsa, kredit resurslaridan va mahsulotni sotish bozorlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, yangi ish boshlayotgan tadbirkorlarga moliyaviy yordamni ko‘paytirish, ularga mikro kreditlar berishning yaxlit tizimini yaratish;

– qishloq joylarida xususiy mulkchilik shakllarini rivojlantirishga, dehqonlar tafakkurida egalik hissini tarbiyalashga qaratilgan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, meros qilib qoldirishdagi mulkchilik munosabatlarini joylarda joriy etish, shartnoma munosabatlarining aniq va tushunarli mexanizmini amalda shakllantirish, shartnoma munosabatlarining qat‘iy bajarilishi ustidan nazorat va mas‘uliyatni kuchaytirish;

– moliya va bank tizimini isloh etishni yanada chuqurlashtirish, banklarning majburiyatlari bo‘yicha to‘lovlari hamda kredit berish imkoniyatlarini, o‘z kapitalini kuchaytirish, ularning investitsiya jarayonidagi ishtirokini kengaytirish;

– kichik korxonalariga xizmat ko‘rsatuvchi bozor infratuzilmasi subyektlarini ustuvor tarzda rivojlantirish, ular o‘rtasidagi raqobat muhitini yaxshilash, zamonaviy ilg‘or texnologiyalarni joriy etib, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqaruvchi mukammal texnologik jarayonlarni ustuvor rivojlantirish;

– kichik korxonalarni xususiylashtirish bo‘yicha boshlangan ishlarni oxiriga yetkazish;

– kichik korxonalariga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, xorijiy sarmoyalar ishtirokida qo‘shma korxonalar tashkil etish imkoniyatini berish;

– kichik biznes korxonalari tomonidan kredit olishda garov tizimini takomillashtirish va h.k.

## **Qisqacha xulosalar**

1. Ilgari uddaburon kishi, ishning ko‘zini biladigan odam, hisob-kitobini puxta qiladigan inson kabi tavsiflar o‘rnini keyinchalik «biznesmen», «tadbirkor», «sohibkor», «fermer», tushunchalari egalladi. Chunki bozor islohotlari va mulkni davlat tasarrufidan chiqarish natijasida aholining yangi qatlami – tadbirkorlar shakllandi. Tadbirkorlarning ish yuritish, mahsulot ishlab chiqarish va uni ayirboshlash malakasi yuksaldi, qonun doirasida faoliyatni tashkil etish, ijtimoiy mas’uliyatni his etish va davlat bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik qilish ko‘nikmalari rivojlandi.

2. Ilgari tadbirkorlarning nufuzi aylanma mablag‘larni tez boshqarish, savdo, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmatlar sohalaridagi faoliyatini kengaytirish bilan belgilansa, bugungi kunga kelib biznes va tadbirkorlikning jamiyatdagi mavqeyi va nufuzi ishlab chiqarish sohalari – oziq-ovqat, to‘qimachilik, qurilish materiallari sanoati, qurilish, xususan, uy-joy qurilishi, yuqori texnologiyali axborot xizmatlari ko‘rsatish kabilardagi faoliyati bilan o‘lchanmoqda.

3. Tadbirkorlik faoliyati kishilarning tavakkal qilib, mulkiy javobgarlik asosida qonunchilik doirasida tashabbus bilan faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, uning asosiy maqsadi foyda yoki tadbirkorlik daromadini olishga qaratiladi. Tadbirkorlik har qanday yo‘llar bilan emas, balki yaratuvchanlik, tashabbuskorlik faoliyati orqali daromad olishni bildiradi.

4. Tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi uchun iqtisodiy faoliyatda erkinlik taqozo etiladi. Erkinlik bor joyda o‘z ishiga ijodiy yondashuv, tashabbuskorlik rivoj topadi. Kishilardagi

xotirjamlik, ularning xavotir va tazyiqlardan xoli bo'lishi ishbi-larmonlikning yangi qirralarini yuzaga chiqaradi.

5. Kichik korxonalar maqomini belgilab beruvchi mezon-lar sifatida korxonada band bo'lgan ishchilar soni, tovar aylan-masi, aktivlar, kapitallar va foyda miqdori va boshqa statis-tik ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Biroq, ko'p hollarda bitta ko'rsatkich – korxonada band bo'lgan ishchilar sonidan kelib chiqib, kichik korxonalar to'g'risida fikr yuritiladi.

6. Kichik biznes iqtisodiyotda muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bajaradi. Kichik biznes korxonalarining iqtisodiyot-da tutgan o'rni va roli uning bir qator afzalliklarida namoyon bo'ladi.

7. Bugungi kunda O'zbekistonda kichik biznes va xusu-siy tadbirkorlikni rivojlantirishning me'yoriy-huquqiy asos-lari yaratilgan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tar-tibga soluvchi muhim me'yoriy-huquqiy hujjatlar jumlasiga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Soliq va Xo'jalik protsessual kodekslari, «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hamda shu sohaga oid O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari kiradi.

8. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarning mu-him yo'nalishlaridan biri iqtisodiyotda xususiy sektorni shakl-lantirish, mulkdorlar sinfini yaratish, kichik biznes subyektlari rivojlanishini har tomonlama qo'llab-quvvatlashdir. Bu so-hada mamlakatimizda qator ijobiy natijalarga erishildi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga davlat tomonidan katta e'tibor berilishi hamda qo'llab-quvvatlanishi natijasida kichik biznes korxonalari soni 2000-yilda 99,4 mingtadan 2016-yilda 218,2 mingtaga yetdi.

9. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining kengayishi iqtisodiyotning boshqa soha va tarmoqlari ishlab chiqarish hajmidagi salmog‘ining oshishi orqali ham namoyon bo‘ldi. Kichik biznes subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtiroki ham tobora kengayib bormoqda. Kichik biznes subyektlarining asosiy eksport mahsulotlarini qishloq xo‘jaligi, to‘qimachilik, ishlov beruvchi, elektrotexnik ishlab chiqarish mahsulotlari, xalq amaliy san‘ati buyumlari tashkil etadi.

### **Asosiy atamalar va tushunchalar**

Tadbirkorlik, tadbirkor, foyda, tadbirkorlik daromadi, biznes, kichik biznes va tadbirkorlik, yakka tartibdagi tadbirkorlik, mikrofirmalar, kichik korxonalar, tadbirkorlik muhiti, sohibkorlik, biznes-reja, mikro kredit.

### **Nazorat savollari**

1. Nima uchun ilgari uddaburon kishi, ishning ko‘zini biladigan odam, hisob-kitobini puxta qiladigan inson kabi tavsiflar o‘rmini keyinchalik «biznesmen», «tadbirkor», «sohibkor», «fermer» kabi tushunchalar egalladi? Qanday sifat o‘zgarishlari ro‘y berdi?

2. Tadbirkorlik nima? Tadbirkorlik faoliyati uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni sanab bering.

3. Kichik biznesning mohiyati nimada? Nima uchun kichik biznes milliy iqtisodiyot rivojlanishida muhim o‘rin tutadi?

4. O‘zbekistonda kichik biznes subyektlari kimlar va kichik biznesning afzalliklari nimalarda o‘z aksini topadi?

5. O‘zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining me‘yoriy-huquqiy asoslarini qaysi hujjatlar tashkil etadi?

6. Nima uchun kichik biznes subyektlari davlat tomonidan ustuvor darajada qo‘llab-quvvatlanadi?

7. Mamlakatimizda kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

8. O‘zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlariga tavsif bering.

9. O‘zbekistonda kichik va xususiy tadbirkorlik faoliyati subyektlarining tashqi savdo faoliyatida qanday o‘zgarishlar kuzatiladi?

10. O‘zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim, deb hisoblaysiz?

---

---

## **XXII b o b**

# **O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI BUDJET- SOLIQ DASTAKLARI ORQALI BOSHQARISH**

### **22.1. Milliy iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishning zarurati**

Har qanday mamlakat iqtisodiyotining samarali faoliyat ko‘rsatishida davlat, uning institutlari va tarkibiy tuzilmalari muhim rol o‘ynaydi. Bunda, bir tomondan, bozor, ikkinchi tomondan, davlatning tartibga solish mexanizmlari o‘rtasidagi nisbat hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish har qanday hukumat uchun obyektiv zaruriyatdir. Davlatning iqtisodiy siyosati bozor tizimining muhim unsuridir. Davlat bevosita yoki bilvosita ravishda bozorlarning muhim parametrlarini, alohida firma va tadbirkorlar faoliyatidagi iqtisodiy mo‘ljallarni belgilab beradi. Mamlakatda umumiy iqtisodiy makonni shakllantirish, ijtimoiy xavfli bo‘lgan faoliyatlarga cheklovlar o‘rnatish ham davlat tomonidan amalga oshiriladi.

Mulkiy huquq, erkin raqobat va ijtimoiy ne‘matlardan foydalanishda iqtisodiy agentlarni teng imkoniyatlar bilan ta‘minlash bo‘yicha davlat tomonidan bajariladigan funksiyalar davlatning iqtisodiyotga aralashuvining institutsional asosi hisoblanadi. Bunda xo‘jalik faoliyatining alohida subyektlari emas, balki umumjamiyat manfaatlari asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Boshqacha so‘z bilan aytganda, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi, eng avvalo, ba‘zi tarmoqlarning monopollashuvi,

alohida turdagi ijtimoiy faoliyat turlarining xususiy sektorga jozibali emasligi (shu jumladan, rentabellik nuqtayi nazardan) va shu sababli ijtimoiy ne'matlarning etarli darajada ishlab chiqarilmasligi, iqtisodiyotdagi tarkibiy nomutanosibliklar va boshqalarda o'z aksini topadigan bozorning alohida kamchiliklarini bartaraf etishga qaratilmog'i lozim. Xususan, bozor mexanizmining kamchiliklari ko'p jihatdan iqtisodiyotning rivojlanish darajasini belgilab beruvchi infratuzilma tarmoqlarida, shuningdek, an'anaviy tarzda davlatning roli yuqori bo'lgan ijtimoiy sohada namoyon bo'ladi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning aniq yo'nalishlari, shakllari va ko'lamlari mamlakatning ma'lum davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot xususiyatlari bilan belgilanadi.

Davlatning iqtisodiy sohani boshqarishdagi asosiy vazifasi – bu aholining muttasil oshib boruvchi ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan moddiy ishlab chiqarishning o'sishini ta'minlashdir.

Iqtisodiyotni boshqarish ko'plab murakkab vazifalarni yechishni ko'zda tutadi. Bunday vazifalarga: milliy iqtisodiyotning samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish; ichki resurslardan oqilona foydalanish; fan va innovatsiya faoliyatlarini rivojlantirish; xo'jalik majmuasining optimal tarkibini shakllantirish; iqtisodiyotga ijtimoiy yo'naltirilgan tus berish; eksportni qo'llab-quvvatlash; aholi bandligini ta'minlash va boshqalar kiradi.

Davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli faqatgina bozorlarning faoliyat ko'rsatish shart-sharoitlarini yaratish bilan cheklanib qolmay, shuningdek, ijtimoiy manfaatlar mutanosibligini va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash hamda ichki va tashqi siyosatda milliy manfaatlarni himoya qilishni ham o'z ichiga oladi.

Samarali faoliyat ko'rsatayotgan bozor mexanizmi ko'p-  
lab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni katta qiyinchiliklarsiz  
yechish imkoniyatini beradi. Ya'ni, ishlab chiqaruvchilar va  
iste'molchilar manfaatlarini birlashtiradi, ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini joriy etishni rag'batlantiradi, mahsulot sifatini oshiradi, xarajatlarning pasayishiga, tovar assortimentlarining muntazam yangilanib borishiga, aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar nomenklaturasining kengayishiga olib keladi. Afsuski, eng mukammal faoliyat ko'rsatayotgan bozor mexanizmi ham jamiyat hayotida paydo bo'layotgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni bartaraf etishga ojizdir. Shuning uchun ham, bozor mexanizmiga bo'ysunmaydigan, uning ta'sir doirasidan tashqarida bo'lgan bir qancha muammolar yechimini davlat o'z bo'yniga oladi.

Rejali iqtisodiyotdan bozor xo'jaligiga o'tayotgan aksariyat mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatdiki, muvaffaqiyatli iqtisodiy o'sishni davlat tizimisiz amalga oshirib bo'lmaz ekan va o'z navbatida, jamiyatning farovonligini faqat bozor tizimi mexanizmlari bilangina ta'minlab bo'lmaz ekan.

Shu bilan birga, bozor iqtisodiyotiga o'tib borishda iqtisodiy jarayonlardagi davlatning funksiyalari obyektiv tarzda va mantiqan torayib borishi lozim. Buning uchun esa davlat boshqaruvining ustuvor yo'nalishlarini aniq belgilab olish hamda asosiy e'tiborni jamiyatning o'ta muhim iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlarini ta'minlashga qaratish kerak.

Davlat ixtiyorida esa, eng avvalo, quyidagi funktsiya va vazifalar saqlanib qolinishi lozim:

- pul emissiyasi, pul-kredit va soliq-budjetni tartibga solish dastaklari;
- shaxsning huquq va erkinligini, mulkdorlar va xo'jalik subyektlari huquqlarining kafolatlanishini ta'minlash;
- barqaror makroiqtisodiy holatni shakllantirish;



– umumiy maqsadlarda foydalanuvchi xizmatlarni va moddiy ne'matlarni yetkazib berishda minimal ijtimoiy standartlarni ta'minlash (ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, kommunikatsiyalar va hayotni ta'minlovchi boshqa moddiy ne'matlar va xizmatlar);

– monopoliyaga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirish va raqobat muhitini qo'llab-quvvatlash;

– ilm-fanni, innovatsion faoliyatni va axborot texnologiyalarini rivojlantirish;

– faol tashqi iqtisodiy siyosat yurgizish, qo'shni mamlakatlar bilan integratsion aloqalarni rivojlantirish;

– iqtisodiyotning yuksalishi va aholi farovonligining oshishini ta'minlovchi umumdavlat ahamiyatida bo'lgan ishlab chiqarish, ijtimoiy va ekologik infratuzilmalarni shakllantirish;

– ijtimoiy himoyalangan aholi guruhlarini qo'llab-quvvatlash;

– atrof-muhitni muhofazalash, ekologik tartibga solish tizimlarini takomillashtirish, ekologik muammolarni yechishda xalqaro hamkorlik yuritish;

– takror ishlab chiqarishning oqilona hududiy nisbatlarini shakllantirish va mintaqalar ishlab chiqarish kuchlarini kompleks rivojlantirish;

– mamlakat milliy xavfsizligini ta'minlash;

– bozor munosabatlarining huquqiy poydevorini yaratish va qonunlarning so'zsiz amal qilinishini ta'minlash, institutsional infratuzilmani rivojlantirish;

– ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishda davlat iqtisodiy tub o'zgarishlarning lokomotivi rolini bajarar ekan, yangi texnologiyalarni joriy etish asosida maqsadga yo'naltirilgan xatti-harakatlarni, tarmoqlarni texnik jihatdan qayta qurollantirishga,

ilmiy-texnikaviy dasturlarni ishlab chiqish va qo'llashga, investitsiyalar hajmini oshirishga, iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurishga xizmat qiladi. Globallashuv sharoitida xalqaro mehnat taqsimotida mamlakatning yuqori o'rinlarni egallashi maqsadida davlat milliy iqtisodiyotning raqobat afzalliklarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar olib boradi.

**Tartibga solishning yaxlit iqtisodiy usullar tizimini** yaratish davlatning o'tish davridagi eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu maqsadda quyidagilardan foydalaniladi:

- budjet-soliq siyosati;
- pul-kredit siyosati;
- narxlar orqali tartibga solish;
- amortizatsiya siyosati;
- bevosita tartibga solish usullari – davlat buyurtmasi, kvotalar, litsenziyalar, bevosita budjetdan moliyalashtirish.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tizimi to'liq ravishda mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga, ichki va tashqi omillardagi ehtimoldagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda uning barqaror rivojlanishiga yo'naltirilishi lozim.

Bozorga o'tish sharoitida iqtisodiyotni samarali boshqarish vazifasini davlat tomonidan amalga oshirishda iqtisodiy va siyosiy muhitda professional harakat qila oladigan davlat boshqaruvi va apparati tarkibini shakllantirish muhim shart-sharoitlardan biri hisoblanadi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqaruv tizimi tarkibida tegishli vazirliklarning hududiy va viloyatlarning iqtisodiy organlari, shuningdek, tumanlar, shaharlar va qishloq ma'muriy organlari muhim o'rin tutadi. Iqtisodiyotni va ijtimoiy sohani boshqaruvchi respublika organlaridan joylarda soliq, tabiiy resurslar va atrof-muhit, mehnat va ijtimoiy himoya, moliya va statistika masalalariga mas'ul tegishli vazirlik va davlat qo'mitalarining bo'linmalari faoliyat ko'rsatadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida shakllangan iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarish tizimi mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy hayotida kecha-yotgan o'zgarishlardan kelib chiqqan holda tizimning to'liq samaradorligini oshirish yo'nalishida takomillashib boradi.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish vazifasi umumdavlat va mintaqaviy muammolarni yechishda tarmoq va hududiy boshqaruv organlari o'rtasidagi o'zaro harakatlarning samaradorligini oshirishni talab etadi. Bu esa pirovard maqsadda mamlakatning barqaror rivojlanish bosqichiga o'tishini ta'minlab beradi.

## **22.2. Moliya tizimi va moliya siyosati**

Iqtisodiyotni boshqarish, tartibga solish va iqtisodiy faoliyatni yo'naltirishda moliya tizimi hamda moliya siyosatining o'rni va ahamiyati alohida. Makroiqtisodiy nuqtayi nazardan iqtisodiyot real va moliya sektorlariga bo'linadi va ularning yaxlitligini taqozo etadi.

Agar tovar va xizmatlar iqtisodiyotning real sektorida yaratilsa, ularning ayirboshlanishi va taqsimlanishiga, ya'ni real aylanishiga pul xizmat qiladi. Pul sektori esa moliya va kredit munosabatlarini o'z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, moliya sektorida pulning aylanma harakati ro'y beradi.

Moliya iqtisodiyot subyektlarining daromad va xarajatlari shakllanishi borasidagi iqtisodiy munosabatlar bo'lib, jamiyatning daromadi qiymat ko'rinishidagi YaIM hisoblanadi. Davlat, korxonalar va firmalar, uy xo'jaligining o'z moliyasi mavjud bo'lib, bu uch subyekt o'rtasida ham moliyaviy munosabatlar amalga oshadi. Iqtisodiyotni tartibga solishda davlat, asosan, moliyaviy dastak va vositalardan samarali foydalanadi.

Moliya tizimi moliya obyektini va subyektni, moliya munosabatlari, moliya mexanizmi, moliya siyosati hamda moliya institutlaridan iborat murakkab tizim hisoblanadi.

Moliya tizimining iqtisodiyotdagi vazifalari (funktsiyalari) mazkur tizimning iqtisodiyotni tartibga solish va boshqarishdagi ahamiyatini belgilab beradi.

Moliya tizimining taqsimlash, rag'batlantirish, iqtisodiy axborotlarni berish, ijtimoiy va nazorat funksiyalari borki, ularning samarali bajarilishi moliyaviy resurslarning oqilona ishlatilishiga imkoniyat yaratadi.

Moliya tizimida mikromoliya va makromoliya ajratib ko'rsatiladi. Mikromoliya korxonalar, firmalar, uy xo'jaliklari, nodavlat va jamoat tashkilotlari moliyasidan iborat bo'ladi. Makromoliya esa umumjamiyat moliyasi hisoblanib, davlat moliyasi ko'rinishida bo'ladi. Davlat moliyasini davlat budjeti hamda budjetdan tashqari pul fondlari tashkil etadi.

Davlat budjet va budjetdan tashqari pul fondlarini boshqarish uchun, shuningdek, moliya tizimi faoliyati samaradorligini ta'minlash maqsadida moliya siyosatini amalga oshiradi.

Davlatning moliya bozorini tartibga solish borasida amalga oshiradigan xatti-harakatlari ham moliya siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Moliya bozori moliyaviy resurslar, ya'ni moliyaviy aktivlar oldi-sotdi qilinadigan bozor bo'lib, davlat bu bozorni tartibga soladi, o'zi ham o'z resurslari bilan mazkur bozorda ishtirok etadi.

Moliya bozorining obyektini oldi-sotdi qilinadigan aksiyalar, obligatsiyalar, turli sertifikatlar hamda pulning o'zi hisoblanadi. Davlat bu bozorda o'z korxonalarining aksiyalari, ya'ni qisqa, o'rta va uzoq muddatli obligatsiyalari bilan qatnashadi. Moliya bozoridagi oldi-sotdi tartib-qoidalarini, reglamentni ham davlat belgilab beradi.

Moliya bozori ikki qismdan iborat: fond bozori va pul bozori.

Qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi amalga oshadigan bozorni fond bozori deb ataladi. Aksiya va obligatsiyalar bu bozorda, ya'ni fond birjalari va undan tashqarida sotiladi.

Vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'lari hamda milliy valuta ayirboshlanadigan bozor pul bozori hisoblanib, bu bozorda banklar, kredit uyushmalari va pul topib beruvchi firmalar ishtirok etadi. Kredit munosabatlari shu bozorda amalga oshadi.

Bozor munosabatlari rivojlanib borgani sayin moliyaviy munosabatlar ham erkinlashib boradi. Bu milliy moliya bozorining xalqaro moliya bozoriga integratsiyalashuvini jadallashtiradi.

Davlat ta'sirchan moliya siyosatini yuritishda budjet va soliq vositalaridan foydalanadi.

### **22.3. Davlat budjeti moliya tizimining asosiy bo'g'ini sifatida**

Moliya tizimi o'zida turli bo'g'in budjetlarini, ijtimoiy, mulkiy va shaxsiy sug'urtani, davlat valuta zahiralari, korxonalar, tashkilot va firmalarning pul mablag'larini va boshqa maxsus jamg'armalarni jamlaydi. Tashkiliy jihatdan u mamlakatdagi barcha moliya muassasalarini qamrab oladi. Moliya tizimi o'z ichiga to'rtta bo'g'inni oladi: davlat budjeti; mahalliy moliya; maxsus nobudjet jamg'armalari; davlat korporatsiyalari moliyasi.

**Davlat budjeti** – bu davlat vazifalarini, mamlakat yoki tegishli ma'muriy-hududiy birlik iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash maqsadida pul mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanishning asosiy moliyaviy rejasi-dir. Sodda qilib aytganda, u davlatning bir moliya (budjet)

yiliga mo'ljallangan xarajatlari va ularni qoplash manbalari ko'rsatilgan daromadlar smetasidir. Davlat budjeti asosini davlat boshqaruv apparati, qurolli kuchlar, sog'liqni saqlash, ta'lim, ijtimoiy sohalar xarajatlarini moliyalashtirishga mo'ljallangan hukumatning markazlashgan pul mablag'lari jamg'armasi tashkil qiladi. Mamlakat hududida amalda bo'lgan va ijtimoiy munosabatlar hamda huquqiy me'yorlarga asoslangan barcha turdagi budjetlar to'plamiga **budjet tizimi** deyiladi. Budjet tizimining tashkil etilishi va tuzilishi tamoyillari (yaxlitligi, to'laliligi, haqqoniyligi, oshkoraligi, mustaqilligi)ga budjet tuzilmasi deb aytiladi.

Davlat mahalliy budjetlarni tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash va ijro etish bo'yicha davlat, mahalliy hokimiyat organlarining qonunchilik tomonidan belgilab qo'yilgan faoliyatiga **budjet jarayoni** deb aytiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 122-moddasiga muvofiq, «O'zbekiston Davlat budjeti o'z ichiga respublika budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlarni oladi».

O'zbekiston Respublikasida budjet siyosatining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- Iqtisodiyotni inqirozlardan holi etish.
- Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash.
- Investitsion jarayonlarni rag'batlantirish va iqtisodiyotda jang'arish ulushini oshirish.
- Budjetning moddiy soha tarmoqlari korxonalariga ajratilayotgan dotatsiya shaklidagi unumsiz xarajatlarini kamaytirish.
- Soliq to'lash va soliq tizimini takomillashtirish va nazorat qilish orqali budjetning daromad bazasini mustahkamlash.
- Davlat xarajatlarining samarali va maqsadli ishlatilishi ustidan faol moliyaviy nazorat o'rnatuvchi tizimni yaratish.

- Davlat qarzi hajmi ustidan nazoratni kuchaytirish.
- Davlat budjeti oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan:
- YaIM va MD ni qayta taqsimlash;
  - Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va rag'batlantirish;
  - Ijtimoiy siyosatni moliyalashtirish;
  - Markazlashtirilgan pul mablag'lari fondini shakllantirish va uning ishlatilishini nazorat qilish.

Milliy xo'jalikda iqtisodiy o'sishni va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash davlat budjeti siyosati oldida turgan va iqtisodiy islohotlar jarayonida o'ziga xos bo'lgan vazifalardandir.

Bugungi kunda davlat budjeti YaIMni qayta taqsimlashda muhim ahamiyatga ega. Rivojlangan mamlakatlarda davlat, odatda, YaIMning 20 dan 50 foizigacha qismini soliqlar va boshqa davlat daromadlari va to'lovlari shaklida davlat budjetiga safarbar etib, davlat xarajatlari orqali iqtisodiyotni va investitsiyalarni tartibga soladi va rag'batlantiradi, ishlab chiqarish unumdorligini oshirishga yo'naltiradi.

O'zbekiston Respublikasi budjet qurilmasi ham budjet tizimining yagonaligi, to'laligi, haqqoniyligi, oshkoraliigi va unga kiruvchi ma'muriy-hududiy budjetlarning mustaqilligi tamoyillariga asoslanadi. Mamlakat budjet tizimiga uning mustaqil bo'laklari sifatida O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy budjetlari kiradi. O'zbekiston Respublikasi jamlangan budjetiga Davlat maqsadli jamg'armalari ham kiritiladi. Davlatning maqsadli jamg'armalariga Pensiya jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi, Ish bilan ta'minlashga ko'maklashuv jamg'armasi, Davlat raqobat qo'mitasining maxsus hisobvaragi, O'zbekiston Respublikasi rivojlantirish va taraqqiyot jamg'armasi, Moliya vazirligi huzuridagi unumdor yerlarni meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi, Moliya

vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi, Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi, Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi kiradi.

Maqsadli davlat jamg'armalarini tuzish orqali hukumat budjetga kiritilmagan xarajatlarni moliyalashtirish mablag'larini mazkur nobudjet jamg'armalarida shakllantiradi.

Budjet xarajatlari O'zbekiston Respublikasi va uning tegishli ma'muriy-hududiy birliklarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari bilan belgilanib, navbatdagi moliya (budjet) yilida qonunchilikda belgilangan yo'nalish va hajmlarda amalga oshiriladi.

Barcha ma'muriy-hududiy birliklar budjetlarining muvozanatlashganligi mamlakat budjet-moliya siyosatining zarur shartlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakat budjeti taqchilligining chegaraviy miqdorlari navbatdagi moliya (budjet) yilida qonun tomonidan belgilanadi.

**O'zbekiston Respublikasi budjeti bajarilishining  
asosiy ko'rsatkichlari, mlrd. so'mda**

Yillar	Daromad		Xarajatlar		Saldo	
	mlrd. s.	YaIM, %	mlrd. s.	YaIM %	mlrd. s.	YaIM, %
2010	13596,7	21,8	13386,9	21,4	209,8	0,3
2011	17061,3	21,6	16726,0	21,2	335,3	0,4
2012	21295,7	21,7	20882,0	21,3	413,7	0,4
2013	26223,2	22,0	25833,7	21,7	389,5	0,3
2014	31730,5	21,9	31425,4	21,7	305,1	0,2
2015	36493,3	20,2	36257,3	20,1	236	0,1
2016	41043,4	20,6	40911,3	20,5	132,1	0,1



Respublika budjeti Oliy Majlis tomonidan tasdiqlansa, mahalliy budjetlarni mahalliy hokimiyat Kengashlari tasdiqlaydilar. Tasdiqlangan va qonun kuchiga kirgan Davlat budjeti hukumat tomonidan belgilangan muddatlarda va miqdorlarda amalga oshirilishi shart hisoblanadi.

Davlat budjeti daromadlari hamda xarajatlarining tarkibi va dinamikasining 2010–2016-yillardagi tahlili shuni ko‘rsatadiki, mamlakat moliya-budjet tizimida yetarli barqarorlik darajasi saqlanib kelinmoqda. Mazkur davrda O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetining asosiy yo‘nalishlari mamlakatda iqtisodiy o‘rnatishni rag‘batlantirish maqsadida iqtisodiyotdagi soliq yukini izchil kamaytirishga yo‘naltirildi. Xususan, iqtisodiyotdagi soliq yukini darajasining bilvosita ko‘rsatkichi hisoblangan davlat budjetining YaIMga nisbatini sezilarli pasaytirishga erishildi. Davlat budjetining YaIMga nisbati 2000-yili 21,8 foiz, 2016-yilda 20,6 foizni tashkil qildi. 2010–2016-yillar davomida davlat budjetining YaIMga nisbati darajasi o‘rtacha 21,4 foizga teng bo‘ldi. Mos ravishda davlat xarajatlari miqdori ham kamayib, 2010–2016-yillar davomida YaIMga nisbatan o‘rtacha 21,1 foizga teng bo‘ldi va mamlakat budjetining muvozanatlashish darajasi mustahkamlandi.

Mustaqillik yillarida davlat budjetining taqchilligini pasaytirib borishga qaratilgan izchil chora-tadbirlarning amalga oshirib borilishi natijasida uning darajasi nisbatan past bo‘lib, (YaIMning o‘rtacha 1,0 foiz) moliyaviy barqarorlash siyosati uchun muvofiq keladigan chegaralarda ushlab turildi. 1996-yildan 1997-yilgacha budjet taqchilligi 1,9 foizdan 2,4 foizgacha o‘sgan bo‘lsa, keyingi davrlarda uning muttasil pasayib borishi kuzatilmoqda: 2001-yilda – 1,0; 2002-yilda – 0,9; 2003 va 2004-yillarda esa – 0,4 foizdan oshmadi. Budjet taqchilligining izchil kamaytirib

borilishi, soliq va boshqa tushumlarni yig'ishning samarali tashkil etilishi natijasida 2007-yildan boshlab mamlakatda davlat budjeti profitsitiga erishildi, ya'ni davlat budjeti daromadlari hajmi xarajatlardan ustun bo'ldi. 2007-yildan boshlab bugungi davrgacha O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti profitsit bilan bajarilib kelinmoqda. Xususan, 2000–2016-yillarda budjet profsiti 0,1–0,4 foizga teng bo'ldi.

2014-yil 1-yanvardan O'zbekiston Respublikasining budjet kodeksining kuchga kirishi budjet jarayonlarining izchilligini ta'minlash orqali davlat budjeti bilan bog'liq me'yoriy-huquqiy asosning yaxlitligini ta'minlab berdi.

Budjet taqchilligini qoplashning noinflatsion usullaridan foydalanishga katta e'tibor qaratilgan bo'lib, O'zbekistonda uning rejalashtirilgan hajmi mamlakat YaIMning 1 foizidan ortmasligi qonunchilikda qat'iy belgilab qo'yilgan. Bu esa budjet taqchilligining jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga salbiy ta'sirining oldini oladi.

Davlat budjeti tarkibida bilvosita soliqlar ulushining 2010–2016-yillar davomida barqaror ravishda 50% dan oshiq-ligi har qanday iqtisodiy sharoitlarda ham budjetning yuqori daromadlari darajasini ta'minlab bermoqda. Chunki tovarlarning narxidan olinadigan bunday soliqlarni yig'ish usuli o'zining soddaligi va samarali tomonlari bilan ajralib turadi.

O'zbekistonda olib borilayotgan davlat xarajatlari siyosatining hozirgi davri davlat budjetining yetarli darajada muvozanatlashishiga imkon berish bilan birga, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va o'tish sharoitida aholini maqsadli ijtimoiy hi-moyalash kabi strategik vazifalarni bajarishga qaratilgandir.

Bugungi kunda umumiy budjet xarajatlarida yuqori ulushga ega bo'lgan yo'nalish ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'lib, 2016-yilda uning ulushi jami budjet xarajatlarning 58,9 foizini tashkil etmoqda. Ayniqsa, maorif tizimi

uchun xarajatlar yuqori bo‘lib, barcha budjet xarajatlari ichida eng yirik ulushga (33,8 foiz) ega bo‘ldi.

Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida yirik yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishga qaratilgan markazlashgan investitsiyalar ham yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Bu esa o‘tish davrining murakkab shart-sharoitlariga qaramay, mamlakatda ijtimoiy barqarorlik, totuvlikni ta‘minlash va yuqori texnologiyali, jahon andozalariga mos keladigan ishlab chiqarish tarmoqlarini yaratish imkoniyatini bermoqda.

#### **22.4. Soliqlarning iqtisodiyotni tartibga solishda tutgan o‘rni**

Soliqlar har qanday davlatning iqtisodiy poydevori va moliyaviy siyosatini ta‘minlovchi vositadir.

Soliq – bu davlat yoki mahalliy hokimiyat tomonidan jismoniy va yuridik shaxslardan majburiy ravishda undiriladigan va davlatning iqtisodiy vazifalarining bajarilishiga yo‘naltirilgan mablag‘lardir. Soliqlarni joriy qilish va undirish davlat qonunchiligiga asosan tashkil etiladi. Bugungi kunda soliqlar fiskal va iqtisodiy (tartibga solish va taqsimlash) funksiyalarini bajaradi. Soliqlarning fiskal funksiyasi davlat pul jamg‘armalarini shakllantirishning asosini tashkil etadi. Iqtisodiy funksiyasi esa soliqlar yordamida milliy daromadni qayta taqsimlash, real ishlab chiqarish hamda investitsiyalar jarayonlariga, iqtisodiyotning o‘sish ko‘lami va sur‘atlariga ta‘sir ko‘rsatishni ko‘zda tutadi.

Soliqlarni undirish belgilangan stavkalar miqdorida amalga oshiriladi. Soliq stavkasi – yuridik, jismoniy shaxslardan olinadigan turli soliqlarga o‘rnatilgan soliq miqdoridir. Soliqlarning proporsional, progressiv va regressiv turdagi stavkalari qo‘llaniladi.

Daromadlar hajmining o'zgarishidan qat'i nazar, qat'iy belgilangan foizda soliqqa tortishda proporsional soliq stavkasi qo'llaniladi. Odatda, qo'shilgan qiymat solig'i, mulk soliqlari proporsional stavkalarda undiriladi.

Daromad o'sib borishi bilan birga yuqori soliq stavkalari qo'llanishiga progressiv soliq stavkalari deyiladi. Progressiv soliq stavkalari, asosan, aholi tomonidan to'lanadigan daromad solig'iga nisbatan keng qo'llaniladi.

Barcha aksiz soliqlari ularni pirovard to'lovchisi hisoblangan iste'molchi uchun uning egallagan daromadlariga nisbatan regressiv xarakterda bo'ladi.

Undirish usuliga ko'ra, soliqlar bevosita va bilvosita tur-larga bo'linadi. To'lovchi tomonidan to'g'ridan to'g'ri amal-ga oshiriladigan majburiy to'lovlar bevosita soliqlar deyiladi. Ularga daromad, foyda, mulk soliqlari misol bo'ladi. Tovarlar narxida qo'shilgan va uni sotish jarayonida to'lanadigan maj-buriy to'lovlarga bilvosita soliqlar deyiladi. Aksizlar bunday soliqlarning asosiy turini tashkil etadi.

Soliq tizimi mamlakat hududida amalda bo'lgan soliqlar to'plami hamda ularni tashkil etishning uslub va tamoyillarini o'z ichiga oladi.

Rivojlangan mamlakatlarda amalda bo'lgan soliqlarning miqdori, stavkalari va undirish tartibidagi turli-tumanlikdan qat'i nazar, ulardagi soliq tizimlari umumjahon amaliyoti to-monidan qabul qilingan soliqqa tortish tamoyillari asosida tash-kil qilingan.

Har qanday mamlakat soliq tizimining asosini quyidagi soliqlar tashkil qiladi: aholi tomonidan to'lanadigan daromad solig'i; yuridik shaxslar tomonidan to'lanadigan foyda solig'i; qo'shilgan qiymat solig'i; mulkiy soliqlar; aksiz yig'implari va bojxona bojlari.

Rivojlangan mamlakatlarda bilvosita soliqlar (QQS va aksizlar) ning budjet daromadlaridagi ulushi 30 foizdan oshmaydi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida esa, ular ustuvor maqomga ega bo'lib, odatda, budjet daromadlarining 50–70 foizini ta'minlaydi. O'zbekistonda ushbu ko'rsatkich 2016-yilda 51,5 foizni tashkil etdi.

Rivojlangan mamlakatlar soliq tizimini shakllantirishda soliqlarning asosiy ulushi korxonalaridan emas, aholidan undirilishi lozim degan nuqtayi nazardan kelib chiqiladi. Bu esa talabni cheklash orqali narx o'sishi va inflatsiya sur'atlarini jilovlash omili bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi mamlakat soliq tizimining jahon talablariga mos ravishda faoliyat olib borishiga huquqiy asos yaratdi. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lgan barcha soliqlar umumdavlat va mahalliy soliqlar va yig'implarga ajratilgan.

Umumdavlat soliqlariga quyidagilar kiradi:

- yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- qo'shilgan qiymat solig'i;
- ishlab chiqariladigan tovarlarga aksiz solig'i;
- realizatsiya qilinadigan alohida turdagi tovarlar bo'yicha aksiz solig'i;
- yerosti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.

Umumdavlat soliqlarining asosiy xususiyati shundaki, mazkur soliqlardan to'lanadigan mablag'lar to'g'ridan to'g'ri O'zbekiston Respublikasining Markaziy budjetiga jamlanadi.

Mahalliy soliqlar va yig'implar mamlakat hududlarining mahalliy budjetlarida jamlanadi va ularning quyidagi turlari amalda qo'llaniladi:

- yuridik shaxslardan olinadigan mulk solig'i;

- yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;
- reklama solig‘i;
- avtotransport vositalarini olib-sotganlik uchun soliq;
- savdo-sotiq qilish huquqi uchun yig‘im, shu jumladan, ayrim turlardagi tovarlarni sotish huquqini beruvchi litsenziya yig‘imlari;
- yuridik shaxslarni, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro‘yxatga olganlik uchun yig‘im;
- avtotransport to‘xtash joyidan foydalanganlik uchun yig‘im;
- obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i.

«Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq quyidagi tashkilotlar davlat soliq organlari deb belgilangan: O‘zbekiston Respublikasining Davlat soliq qo‘mitasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Toshkent shahrining davlat soliq boshqarmalari, viloyatlarning davlat soliq boshqarmalari, shuningdek, tumanlar, shaharlar davlat soliq inspeksiyalari.

Mamlakatda tub islohotlarni amalga oshirish, iqtisodiyotni modernizatsiyalash, barqaror iqtisodiy o‘sishga yetarli shart-sharoitlarni yaratish O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimi oldiga qo‘yilgan asosiy vazifalardir. Ushbu vazifalarni bajarish maqsadida keyingi yillarda mamlakat soliq tizimida faol o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, iqtisodiyotdagi soliq yuki izchillik bilan kamayib bormoqda. Jumladan, 2000-yilda soliq yuki darajasi (soliq daromadlarining YaIMga nisbati) 28,5 foizga teng bo‘lsa, 2016-yilda 20,6 foizni tashkil qildi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetida jamlanayotgan soliq tushumlarining tarkibida sezilarli ijobiy tendensiyalar kuzatilmoqda.

### Bevosita soliqlarning tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

Ko'rsatkichlar	2010	2015	2016
Bevosita soliqlar	100,0	100	100
Korxonalar foydasidan olinadigan soliq	18,2	13,4	12,3
Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining yalpi daromadidan olinadigan soliq	11,0	13,7	15,4
Soliq solishning soddalashtirilgan tizimini qo'llayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq	10,3	13,5	14,6
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	45,0	43,2	42,0
Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar daromadlariga qat'iy belgilanadigan soliq	4,7	7,7	8,3
Ijtimoiy infrastruktura solig'i	10,8	8,4	7,3

Soliqqa tortilmaydigan minimal ish haqi imtiyozining 2002-yildan buyon bekor qilinishi soliqqa tortiladigan daromadlar bazasining sezilarli kengayishiga olib keldi va natijada keyingi yillarda daromad solig'i stavkalarining pasayishiga qaramasdan daromad solig'idan tushadigan mablag'larning bevosita soliqlardagi ulushi nisbatan o'sdi.

### Bilvosita soliqlarning tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

Ko'rsatkichlar	2010	2015	2016
Bilvosita soliqlar	100,0	100	100
Qo'shilgan qiymat solig'i	56,9	56,5	56,3
Aksiz solig'i	32,4	29,3	29,6
Bojxona boji	6,3	7,7	6,9
Jismoniy shaxslar tomonidan transport vositalari uchun iste'mol qilinadigan benzin, dizel yoqilg'isi va gaz uchun soliq	4,5	6,5	7,2

Korxonalar foydasidan to‘lanadigan soliq stavkalarining izchil pasaytirib borilishi, korxonalarining soliq solishining soddalashtirilgan tizimiga (yagona soliq) o‘tishi natijasida mazkur soliq to‘lovlarining bevosita soliqlardagi ulushi 2010-yilda 18,2 foizdan 2016-yilga kelib 12,3 foizga teng bo‘ldi. Bu ijobiy hol bo‘lib, korxonalaridagi soliq yukining kamayishidan dalolat beradi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi miqdorining 20 foizdan 18 foizga tushirilishi uning bilvosita soliqlardagi ulushining 2010-yilda 56,9 foizdan 2016-yilda 56,3 foizgacha pasayishiga olib keldi. Shuningdek, O‘zbekistonda keng nomenklaturadagi iste‘mol mollarini (birinchi ehtiyoj mollaridan tashqari) aksiz solig‘iga tortish amaliyoti natijasida ushbu soliq daromadlarining ham yuqori ulushini ta‘minlab bermoqda.

O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimiga xos bo‘lgan eng yangi tendensiyalarga soliq tizimini soddalashtirish, asosiy soliq stavkalarini pasaytirish va taklif etilayotgan imtiyozlarning samaradorligini oshirishga bo‘lgan xatti-harakatlarni aytib o‘tish joiz.

Korxonalar daromadlari solig‘i stavkalarining aholi daromadi soliqlariga nisbatan yuqori sur‘atlarda pasayishi bevosita soliqlar tarkibida daromad solig‘i ulushining muntazam yuqori darajasini ta‘minlab berdi. Bu esa daromadlar yaratiladigan asosiy bo‘g‘in bo‘lgan ishlab chiqarish korxonalarini uchun soliq yukini yangilatish va ularni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.

## **Qisqacha xulosalar**

1. Iqtisodiyotining samarali faoliyat ko‘rsatishida davlat, uning institutlari va tarkibiy tuzilmalari muhim rol o‘ynaydi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish har qanday hukumat uchun obyektiv zaruriyatdir. Davlat bevosita yoki bilvosita



ravishda bozorlar faoliyatining muhim parametrlarini, alohida firma va tadbirkorlar faoliyatidagi iqtisodiy mo'ljallarni belgilab beradi. Mamlakatda umumiy iqtisodiy makonni shakllantirish, ijtimoiy xavfli bo'lgan faoliyatlarga cheklovlar o'rnatish ham davlat tomonidan amalga oshiriladi.

2. Eng mukammal faoliyat ko'rsatayotgan bozor mexanizmi ham jamiyat hayotida paydo bo'layotgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni bartaraf eta olmaydi. Bozor mexanizmiga bo'ysunmaydigan, uning ta'sir doirasidan tashqarida bo'lgan jarayonlarni davlat boshqaradi, bir qancha ijtimoiy-iqtisodiy muammolar yechimini davlat o'z zimmasiga oladi.

3. Davlat ixtiyorida pul emissiyasi, pul-kredit va soliq-budjetni tartibga solish dastaklari; shaxsning huquq va erkinligini, mulkdorlar va xo'jalik subyektlari huquqlarining kafolatlanishini ta'minlash; barqaror makroiqtisodiy holatni shakllantirish; umumiy maqsadlarda foydalanuvchi xizmatlarni va moddiy ne'matlarni yetkazib berishda minimal ijtimoiy standartlarni ta'minlash kabi ko'plab vazifalar mavjud.

4. Iqtisodiyotni boshqarish, tartibga solish hamda iqtisodiy faoliyatni yo'naltirishda moliya tizimi va moliya siyosatining o'rni va ahamiyati alohida. Moliya tizimi moliya obyekti va subyekti, moliya munosabatlari, moliya mexanizmi, moliya siyosati hamda moliya institutlaridan iborat murakkab tizim hisoblanadi.

5. Davlat budget va budgetdan tashqari pul fondlarini boshqarish uchun, shuningdek, moliya tizimi faoliyati samaradorligini ta'minlash maqsadida moliya siyosatini amalga oshiradi. Davlatning moliya bozorini tartibga solish borasida amalga oshiradigan xatti-harakatlari ham moliya siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

6. Bozor munosabatlari rivojlanib borgani sayin moliyaviy munosabatlar ham erkinlashib boradi. Bu milliy moliya bo-

zorining xalqaro moliya bozoriga integratsiyalashuvini jadal-  
lashtiradi. Davlat ta'sirchan moliya siyosatini yuritishda budjet  
va soliq vositalaridan foydalanadi.

7. Davlat budjeti – bu davlat vazifalarini, mamlakat yoki  
tegishli ma'muriy-hududiy birlik iqtisodiy va ijtimoiy rivojla-  
nishini ta'minlash maqsadida pul mablag'larini shakllantirish  
va ulardan foydalanishning asosiy moliyaviy rejasidir.

8. O'zbekiston Respublikasida budjet siyosatining asosiy  
vazifalariga iqtisodiyotni inqirozlardan xoli etish; moliya-  
viy barqarorlikni ta'minlash; investitsion jarayonlarni rag'-  
batlantirish va iqtisodiyotda jamg'arish ulushini oshirish; bud-  
jetning moddiy soha tarmoqlari korxonalariga ajratilayotgan  
dotatsiya shaklidagi unumsiz xarajatlarini kamaytirish; soliq  
to'lash va soliq tizimini takomillashtirish va nazorat qilish  
orqali budjetning daromad bazasini mustahkamlash; davlat  
xarajatlarning samarali va maqsadli ishlatilishi ustidan faol  
moliyaviy nazorat o'rnatuvchi tizimni yaratish kabilar kiradi.

9. O'zbekiston Respublikasi budjet qurilmasi ham budjet  
tizimining yagonaligi, to'laligi, haqqoniyligi, oshkoraliligi va  
unga kiruvchi ma'muriy-hududiy budjetlarning mustaqilligi  
tamoyillariga asoslanadi.

10. Davlat budjeti daromadlari va xarajatlarning tarkibi va  
dinamikasiga ko'ra, mamlakat moliya-budjet tizimida yetarli  
barqarorlik darajasi saqlanib kelinmoqda.

11. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi mamlakat  
soliq tizimining jahon talablariga mos ravishda faoliyat olib  
borishiga huquqiy asos yaratdi. Unga ko'ra, O'zbekiston Res-  
publikasi hududida amalda bo'lgan barcha soliqlar umumdavlat  
va mahalliy soliqlar va yig'implarga ajratilgan.

12. O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati  
to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi-  
ning Davlat soliq qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi va

Toshkent shahrining davlat soliq boshqarmalari, viloyatlarning davlat soliq boshqarmalari, shuningdek, tumanlar, shaharlar davlat soliq inspeksiyalari davlat soliq organlari deb belgilangan.

13. O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimi soliq tizimini soddalashtirish, asosiy soliq stavkalarini pasaytirish va taklif etilayotgan imtiyozlarning samaradorligini oshirish orqali takomillashib bormoqda.

### **Asosiy atamalar va tushunchalar**

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish, makroiqtisodiy parametrlar, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, davlat boshqaruvi, pul-kredit siyosatining tartibga solish dastaklari, soliq-budjet siyosatining tartibga solish dastaklari, ijtimoiy standartlar, iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solish, moliya tizimi, moliya munosabatlari, moliya siyosati, moliya institutlari, davlat budjeti, budjet siyosati, moliyaviy barqarorlik, soliq kodeksi, soliqlar, davlat soliq xizmati, soliq tizimi, soliq stavkalari.

### **Nazorat savollari**

1. Iqtisodiyotning samarali faoliyat ko‘rsatishida davlatning o‘rni va rolini qanday tushuntirasiz?

2. Nimaga iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish har qanday hukumat uchun obyektiv zaruriyat deb hisoblanadi?

3. Eng mukammal faoliyat ko‘rsatayotgan bozor mexanizmi ham jamiyat hayotida paydo bo‘layotgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni bartaraf eta olmaydi. Ushbu fikrni qanday izohlaysiz?

4. Davlat iqtisodiyotni boshqarishda va tartibga solishda qanday majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi? Nima uchun?

5. Davlatning moliya bozorini tartibga solish borasida amalga oshiradigan xatti-harakatlari moliya siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu fikrni asoslab bering.

6. Davlat budjeti nima va u qanday vazifalarni bajaradi?
7. Budjetdan tashqari pul fondlari to'g'risida nimalarni bilasiz?
8. Budjet siyosati va budjet jarayonlarini tushuntirib bering.
9. O'zbekiston Respublikasi budjet qurilmasi qanday tamoyillarga asoslanadi?
10. Davlat budjetining daromadlari qanday manbalardan shakllanadi?
11. Davlat budjetining xarajatlari tarkibi qaysi yo'nalishlarga ishlatiladi?
12. Soliq kodeksi nima va u qanday vazifani bajaradi?
13. O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lgan soliqlar to'g'risida nimalarni bilasiz?
14. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi takomillashuvini ifodalaydigan ko'rsatkichlarni tavsiflang.

---

---

## XXIII b o b

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING BANK-KREDIT TIZIMI

### 23.1. Milliy bank-kredit tizimining tashkiliy jihatlari

Zamonaviy bank-kredit tizimi ssuda kapitallari bozorida faoliyat yurituvchi va pul kapitalini jalb qilish va yo‘naltirish bilan shug‘ullanuvchi turli kredit – moliya institutlari to‘plamidir.

Bank-kredit tizimi, odatda, uch bo‘g‘indan iborat bo‘lib, Markaziy bank, tijorat banklari va ixtisoslashgan kredit-moliya tashkilotlarini o‘z ichiga oladi. Uch bo‘g‘inli tizim, asosan, ak-sariyat sanoati rivojlangan mamlakatlarga xosdir.

Bank tizimining o‘zi ikki bo‘g‘indan iborat bo‘lib, Markaziy bank va tijorat banklaridan tashkil topgan.

Markaziy bank kredit tizimining o‘zagini tashkil etadi. Markaziy emission bank davlat ixtiyorida bo‘lib, undan makroiqtisodiy jarayonlar va nisbatlarni tartibga solishda foydalaniladi. Markaziy bankning funksiyalariga quyidagilar kiradi:

- banknotalarning emissiyasini amalga oshirish;
- davlat oltin-valuta zahiralarini saqlash; boshqa kredit tashkilotlarining rezerv fondlarini saqlash, iqtisodiyotni pul-kredit dastagi yordamida tartibga solish;
- tijorat banklarini kreditlash; davlat muassasalariga kassa xizmatini ko‘rsatish;
- hisob-kitob va pul ko‘chirish amaliyotlarini yurgizish;
- kredit tashkilotlari faoliyatini nazorat qilish.

Tijorat banklari – universal xarakterga ega bo‘lgan kredit institutlaridir. Ular tomonidan taklif etilayotgan xizmatlar bugungi kunda bank mahsuloti nomini olgan va ularning ko‘plab turlari mavjud. Zamonaviy tijorat banklari o‘z mijozlariga 300 dan 600 tagacha xizmat turlarini taklif etishadi. Ularning asosiylariga:

- jismoniy va yuridik shaxslarga hisob varaqalarini ochish va yurgizish;

- hisob-kassa xizmati, pullarni va pul xujjatlarni inkassatsiyalash;

- jamg‘armalarni foiz to‘lash bilan saqlashga qabul qilish;

- turli maqsadlarga kreditlar ajratish;

- mablag‘ egasining topshirig‘iga binoan pul mablag‘larini ishonchli boshqarish;

- xorij valutalarining oldi-sotdisi;

- qimmatli toshlar bilan amaliyotlar olib borish;

- hujjatlar yoki qimmatbaho buyumlarni saqlash uchun maxsus xona yoki seyflarni ijaraga berish va boshqalar.

Bankning barcha xizmatlari passiv (bankka mablag‘larni jalb etish), aktiv (bank kapitalini joylashtirish) va turli tashkilotlarning topshirig‘ini bajarishga mo‘ljallangan komission xizmatlarga bo‘linadi.

Bank passiv operatsiyalarni amalga oshirish orqali vaqtincha bo‘sh mablag‘larni jalb etadi va shu yo‘l bilan o‘z resurslarini shakllantiradi. Jamlangan mablag‘lar aktiv operatsiyalarni amalga oshirish orqali ularga ehtiyoj sezuvchi firma va jismoniy shaxslar o‘rtasida joylashtiriladi.

Ixtisoslashgan kredit-moliya muassasalari bank-kredit institutlarining uchinchi guruhini tashkil etadi va o‘z faoliyatlarida xo‘jalik hayotining alohida soha va tarmoqlarini kreditlash bilan shug‘ullanishadi. Ularga investitsiya, pensiya fondlari, sug‘urta kompaniyalari, ipoteka banklari va ssuda jamg‘armalari kiradi.

Ixtisoslashgan kredit tashkilotlari birgalikda depozit-chek emis-siyasi, tijorat krediti, qisqa muddatli moliyalashtirish va boshqa amaliyotlarni olib boradilar.

Tartibga solishning pul-kredit dastagini yurgizishda yetakchi rol davlatning va mamlakat bank tizimining zimmasiga yukla-tilgan. Tartibga solishning maqsadi, ko'rsatkichlari va vositalari pul va pul-kredit siyosatlari doirasida amalga oshadi.

O'zbekiston Respublikasi bank tizimi bugungi kunda 27 ta tijorat banklarini o'zida birlashtirgan. Shundan eng yirik va milliy bank tizimining asosini tashkil etuvchi banklar davlat mulki asosida yoki davlat mulki ishtirokidagi banklar hisoblanadi. To'liq davlat mulki asosida hozirda 3 ta bank faoliyat ko'rsatib kelmoqda: O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, O'zbekiston Respublikasi davlat-tijo-rat Xalq banki va «Asaka» davlat-aksiyadorlik tijorat banki. Shuningdek, davlat mulki ishtirokida 10 ta aksiyadorlik tijorat banklari mavjud: «Ipoteka-bank» aksiyadorlik tijorat ipoteka banki, «O'zbekiston sanoat-qurilish» aksiyadorlik tijorat banki, «Agrobank» aksiyadorlik tijorat banki, «Qishloq qurilish bank» aksiyadorlik tijorat banki, «Turonbank» aksiyadorlik tijorat banki, «Mikrokreditbank» aksiyadorlik-tijorat banki, «Aloqa-bank» aksiyadorlik tijorat banki, «Ipak Yo'li» aksiyadorlik in-novatsiya tijorat banki, «Kapitalbank» aksiyadorlik tijorat ban-ki va «Asia Alliance Bank» aksiyadorlik tijorat banklari.

O'zbekiston bank tizimida, shuningdek, bugungi kunda o'z imkoniyatlarini oshirib borayotgan 8 ta xususiy va 5 ta chet el kapitali ishtirokidagi tijorat banklari faoliyat olib boradi.

To'liq hajmda bank xizmatlari taklif etayotgan tijorat banklari bilan bir qatorda, mamlakatimizda xorijiy banklar-ning 6 ta vakolatxonasi o'z faoliyatini yuritmoqda. Mamlakat bank tizimidagi banklarning filiallari respublikamizning bar-cha hududlarida yanada kengayib, 2017-yilning 1-yanvar ho-

latiga ularning soni 855 taga yetdi. Bank muassasalarini aholi va ishlab chiqarish korxonalari hududlariga yanada yaqinlashtirish, bank xizmatlaridan foydalanish sharoitlarini yanada qulaylashtirish, shu jumladan, mijozlarga kommunal va boshqa to'lovlarni to'lashlari uchun yanada qulayliklar yaratish maqsadida tashkil etilgan mini-bank va maxsus kassalar soni 2016-yil yakuni bo'yicha 4299 taga yetdi, shundan 2221 tasi qishloq joylarda joylashgan.

Bundan tashqari, bozorlar hududida naqd pul tushumlarini, bozor xizmatlari hamda boshqa to'lovlarni qabul qiluvchi 537 ta maxsus kassalar, shuningdek. Aholidan kommunal va boshqa majburiy to'lovlarni bevosita aholi yashash joylariga borib qabul qiluvchi 506 ta ixtisoslashtirilgan ko'chma kassalar faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining umumiy kapitali hajmi 2017-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, 9353 mlrd. so'mni, shuningdek, tijorat banklaridagi aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlari depozitlarining umumiy hajmi 44,6 trln. so'mni tashkil etmoqda.

Banklarning resurs bazasini mustahkamlash, aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning bo'sh pul mablag'larini jalb qilish maqsadida tijorat banklari tomonidan uzoq muddatli obligatsiyalar va depozit sertifikatlarining chiqarilishiga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Xususan, tijorat banklarining muomalaga chiqarilgan qarz qimmatli qog'ozlari hajmi 2017-yilning 1-yanvar holatiga 1054,1 mlrd. so'mni, jumladan, muomaladagi uzoq muddatli obligatsiyalar 216,3 mlrd. so'mni va depozit sertifikatlari miqdori 837,8 mlrd. so'mni tashkil etmoqda.

Banklarning umumiy kapitali va depozitlar bazasining yanada mustahkamlanishi banklarning ichki manbalar hisobiga kreditlash va investitsiyalash imkoniyatlarini kengaytirish



orqali mamlakat iqtisodiyotining yuqori sur'atlarda o'sishini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda. Xususan, tijorat banklarining jami aktivlari hajmi 2015-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, 80362 mlrd. so'm, tijorat banklarining kredit qo'yilmalari umumiy hajmi 53378,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Qayd etish lozimki, tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlarning 86,8 foizi ichki manbalar hisobidan moliyalashtirilmoqda. Bu esa tijorat banklarining hamda, umuman, mamlakatimiz bank tizimining yetarli darajada shakllangan resurs bazasiga ega ekanligidan va har qanday tashqi omillarning salbiy ta'sirlaridan himoyalanganligidan dalolat beradi.

## **23.2. Markaziy bankning pul-kredit siyosati**

Pul-kredit siyosati deganda pul-kredit tizimi faoliyati, pul muomalasi va ssuda kapitallari bozori ko'rsatkichlarini tartibga solish bo'yicha davlat tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlari majmui tushuniladi.

Pul-kredit siyosati davlatning umumiqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi bo'lib (sanoat, tarkibiy, tashqi savdo, investitsiya, soliq va boshqa siyosatlar bilan birga) hukumat oldidagi ustuvor vazifa va maqsadlar bilan belgilab beriladi.

Pul-kredit siyosatining pirovard maqsadlari iqtisodiy o'sishning barqarorligi, ishsizlikning past darajasi, past inflatsiya, narxlar barqarorligi va barqaror to'lovi balansini ta'minlashdan iborat. Pul-kredit siyosati maqsadlari orasida uzoq muddatli (ishsizlik yo'q sharoitlarida inflatsiyasiz iqtisodiyot) va qisqa muddatli (muomalada ma'lum bir darajadagi pul massasi, bank zaxiralari va foizning hisob stavkalarini ta'minlash) maqsadlarni ajratish mumkin.

Pul-kredit siyosatini amalga oshirishda bevosita (ma'muriy) va bilvosita (iqtisodiy) usullardan foydalanish mumkin.

Ma'muriy usullar Markaziy bank tomonidan tijorat banklari faoliyatiga nisbatan o'rnatiladigan miqdoriy va sifat cheklashlarni nazarda tutadi.

Pul-kredit mexanizmining iqtisodiy usullari tijorat banklari faoliyatiga bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Iqtisodiy usullar bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlarga xos bo'lib, unda har bir ikkinchi bo'g'in kredit muassasasi mustaqil pul-kredit siyosatini yuritadi va shu orqali raqobatni rag'batlantiradi.

Odatda, o'tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda pul-kredit siyosati ko'proq bilvosita tartibga solish vositalariga asoslanadi. Chunki bu mamlakatlarda moliya sektori yetarli darajada rivojlanmagan va raqobat muhitini barpo etish uchun tegishli tuzilmalar mavjud bo'lmaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida Markaziy bank tomonidan pul-kredit siyosatini amalga oshirishning asosiy vositalariga quyidagilar kiradi:

- ochiq bozordagi operatsiyalar;
- minimal zaxira talablarini o'rnatish;
- tijorat banklarini qayta moliyalashtirish miqdorlari va shartlarini belgilash.

Ochiq bozordagi operatsiyalar deganda Markaziy bank tomonidan tijorat banklari va aholiga davlat obligatsiyalarini sotish va ulardan sotib olish yo'li bilan pul massasini tartibga solish tushuniladi. Markaziy bank tomonidan muomalaga chiqarilgan davlat obligatsiyalarini tijorat banklari va aholidan sotib olishda pul taklifining oshishiga erishiladi. Pul massasini qisqartirish zaruriyati tug'ilganda ushbu obligatsiyalarni sotish yo'li bilan pul muomaladan olinadi.

Zaxira talablari Markaziy bank tomonidan tijorat banklari uchun belgilanadigan depozitlarning minimal zaxiralashtirish me'yoridan iborat. Majburiy zaxiralar me'yori oshirilganda pul

multiplikatorining ahamiyati pasayadi va pul taklifi qisqaradi. Pul massasiga ta'sir ko'rsatishning mazkur vositasi rivojlangan mamlakatlarda kam qo'llaniladi, chunki uning bozor talablariga muvofiq kelish darajasi ancha past.

Minimal zaxiralar ikkita asosiy funksiyani bajaradi. Birinchidan, ular likvid mablag'lar sifatida tijorat banklarining depozitlar bo'yicha majburiyatlarini ta'minlashga xizmat qiladi. Majburiy zaxiralar me'yorini vaqti-vaqti bilan o'zgartirib turish bilan Markaziy bank iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqqan holda tijorat banklarining likvidligini minimal mumkin bo'lgan darajada ushlab turadi.

Ikkinchidan, minimal zaxiralar Markaziy bank tomonidan mamlakatdagi pul massasiga ta'sir ko'rsatish vositasi hisoblanadi.

Foizning hisob stavkasi – bu Markaziy bankning tijorat banklariga kredit berishdagi stavkasidir. Pul bazasini va pul taklifini oshirish zaruriyati paydo bo'lganda Markaziy bank hisob foizini pasaytiradi, ya'ni kreditni arzonlashtiradi hamda tijorat banklarining kredit berishlarini rag'batlantiradi. Hisob stavkalari pasaygan vaqtda tijorat banklarida Markaziy bankdan arzonlashgan kredit olishga qiziqish paydo bo'ladi. Bundan maqsad vujudga kelgan kredit stavkalarida o'z mijozlariga kredit xizmati ko'rsatishni kengaytirish va vujudga kelgan foiz stavkasi hamda arzonlashtirilgan foiz stavkasi o'rtasidagi tafovut evaziga daromadlarni oshirishdan iborat.

### **23.3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining pul-kredit siyosati**

O'zbekistonda pul-kredit siyosati makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sishga erishish, inflatsiya darajasini yanada pasaytirish va to'lov intizomini

kuchaytirishga qaratilgan. Markaziy bank o‘zining pul-kredit sohasidagi faoliyatini «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida»gi Qonunga muvofiq amalga oshiradi. Mazkur Qonunning 23-moddasida respublikamizda pul-kredit siyosatining asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilar ajratilib ko‘rsatilgan:

- iqtisodiy konyunkturani tahlil qilish va bashoratlash;
- muomaladagi pul massasining iqtisodiy jihatdan asoslangan chegaralarini belgilash;
- pul massasi, shu jumladan, Markaziy bankning aktivlari o‘zgarishi yillik qo‘shimcha o‘shish sur‘atlarining maqsadli ko‘rsatkichlarini aniqlash;
- valuta va foiz siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilash;
- pul-kredit siyosati bo‘yicha asosiy maqsadli ko‘rsatkichlarni belgilash.

1994-yilning 1-iyulidan milliy valuta – «so‘m»ning muomalaga kiritilishi bilan pul-kredit siyosati, birinchi navbatda, inflatsiya darajasini pasaytirishga, makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashga, iqtisodiyotning tayanch tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlashga va shu orqali iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashga yo‘naltirildi.

O‘zbekiston milliy pul va bank tizimi, shunga muvofiq ravishda pul-kredit siyosati rivojlanishida 4 ta bosqichni ajratib ko‘rsatish mumkin.

Birinchi bosqich 1991–1994-yillarni o‘z ichiga olib, uning o‘ziga xos jihati shundan iboratki, bu bosqichda milliy valutani joriy etish va ikki pog‘onali bank tizimini shakllantirish uchun asos yaratildi.

1991-yil 15-fevralda qabul qilingan «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi Qonun mamlakat mustaqil bank tizimini shakllantirish bo‘yicha bu bosqichda amalga oshirilgan

chora-tadbirlar uchun asos bo'lib xizmat qildi. Ushbu Qonunga muvofiq eski Davlat bankining respublika idorasi asosida O'zbekistonning Markaziy banki tashkil etildi va unga respublika davlat, emission va rezerv banki maqomi berildi.

Biroq bu davrda garchi sobiq Ittifoq respublikalari siyosiy mustaqillikka erishgan bo'lsa-da, ularning iqtisodiyoti yagona rubl makonida faoliyat ko'rsatar edi. Rubl makoni doirasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul-kredit sohasi rivoji nazoratini mustaqil amalga oshira olmas edi. Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston pul-kredit siyosati hali sobiq Ittifoq davlat banki tomonidan chiqarilgan qoida va me'yorlar asosida amalga oshirilardi. 1992-yildagi respublika pul-kredit siyosati ham yagona rubl makonida qatnashish asosida shakllangan edi.

O'zbekistonning o'z milliy valutasini kiritish zaruriyati Rossiyada 1993-yilgi yangi banknotalar muomalaga kiritilishi bilan keskin tus oldi. Shundan so'ng qator MDH davlatlari ham o'z milliy valutalarini muomalaga kiritishlari natijasida ularning hududlarida amal qilmay qo'ygan eski pul emissiyasi O'zbekistonga oqib kela boshladi.

O'zbekiston rubl makonida yuzaga kelgan ushbu vaziyat natijasida juda qiyin va noqulay ahvolda qoldi, chunki boshqa respublikalarda amal qilmay qolgan 1961–1992-yil banknotalari evaziga respublika hududidan hayotiy muhim oziq-ovqat va boshqa xalq iste'moli tovarlari olib chiqib ketila boshlandi.

Qiyin iqtisodiy sharoit O'zbekiston rahbariyatidan ikki muqobil yo'ldan birini – rubl zonasida qolish yoki o'z milliy valutamizni muomalaga kiritishni tanlashni taqozo qildi. Makroiqtisodiy beqarorlik, yuqori inflatsiya darajasi, moliyaviy va iqtisodiy nomutanosiblik kuchayib borayotgan bir sharoitda tez fursatda qaror qabul qilish lozim edi. Yuzaga kelgan vaziyat va pul tizimi rivojining yuqorida ko'rsatilgan muqobil vaziyat-

lari tahlili asosida 1993–1994-yillarda o‘z milliy valutamizni kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Bu O‘zbekiston iqtisodiy rivojlanishida sifat jihatdan yangi bosqich – mustaqil pul-kredit siyosati yuritish bosqichini boshlab berdi.

Pul-kredit siyosati rivojlanishidagi ikkinchi bosqich 1994–1996-yillarni o‘z ichiga oladi. Bu bosqichning o‘ziga xos jihati shundan iboratki, unda milliy valuta «so‘m» muomalaga kiritildi va ikki pog‘onali bank tizimining huquqiy asoslari yaratildi.

O‘zbekiston milliy valutasini «so‘m» muomalaga kiritilgandan so‘ng, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki mustaqil pul-kredit siyosati yurgizish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Markaziy bankning pul-kredit siyosati, birinchi navbatda, makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga, inflatsiya darajasini pasaytirishga va iqtisodiyotdagi to‘lov intizomini kuchaytirishga yo‘naltirildi. Bunda 1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida»gi Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlari bank tizimini isloh qilish va uni rivojlantirishga asos bo‘ldi.


Markaziy bank davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo‘nalishi bo‘lgan pul-kredit siyosati bo‘yicha o‘z faoliyatini har yili qabul qilinadigan «Pul-kredit siyosatining asosiy yo‘nalishlari» doirasida olib boradi. Asosiy yo‘nalishlarda makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash, pul-kredit siyosatini yurgizish, mamlakat to‘lov tizimini takomillashtirish, inflatsiya darajasini pasaytirish, iqtisodiyotning pulga bo‘lgan talabini to‘liq qondirish maqsadida zarur chora-tadbirlar belgilab olinadi.

Markaziy bankning asosiy maqsadlaridan biri milliy valutaning qadrini oshirish bo‘lganligi sababli, pulning qadrsizlanishini pasaytirishga qaratilgan siyosat pul-kredit siyosatining asosi bo‘ldi. Milliy valuta kiritilgandan so‘ng, Respublika hukumati va Markaziy bank tomonidan olib borilgan qat‘iy pul-

kredit siyosati inflatsiya darajasining muttasil kamayib borishi uchun zamin yaratdi. Narx-navo o'sishini jilovlashga qaratilgan pul-kredit siyosati tezda o'zining samarasini ko'rsatdi.

1992–1994-yillarda iste'mol narxlarining o'sishi o'rtacha 1000 foizni tashkil etib, bu ko'rsatkich, ayniqsa, 1994-yilda eng yuqori darajaga yetdi. Shu yili inflatsiya darajasi 1281 foizni tashkil etdi.

Albatta, bunday inflatsiya, birinchi navbatda, aholining kam himoyalangan qatlamlari, nafaqadorlar, talabalar, qat'iy belgilangan daromad oluvchi xizmatchilarga, ayniqsa, sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bundan tashqari, yuqori inflyatsiya aholining jamg'armaga bo'lgan moyilligini kamaytirib, bank tizimining moliyaviy resurslarini bir iqtisodiy agentdan ikkinchisiga o'tkazish qobiliyatini susaytirdi. Narx-navo yuqori sur'atlar bilan o'sayotgan paytda uning iqtisodiyotdagi ishlatilayotgan imkoniyatlari haqida axborot berish vazifasi susaydi.




**O'zbekiston Respublikasida 1992–1994-yillarda  
inflatsiya darajasining yillik o'zgarishi, %**

Respublika monetar siyosatidan kelib chiqib, Markaziy bank o'zining qayta moliyalashtirish, majburiy zaxiralar, ochiq bo-

zordagi operatsiyalar kabi pul-kredit siyosati vositalaridan keng foydalana boshladi. Bu chora-tadbirlarning natijasi o‘laroq, inflatsiya darajasi 1995-yildan boshlab keskin pasaya boshladi.

Inflatsiyaning o‘rtacha oylik darajasi 1995-yilda 6,7 foizni tashkil etdi. Uning eng yuqori darajasi fevral oyida qayd etilib, 17,8 foizga teng bo‘ldi. 1996-yilda o‘rtacha oylik inflatsiya 4,2 foizgacha pasaydi. Mazkur yilda inflatsiyaning eng yuqori darajasi aprelda (9,8 foiz) va eng past darajasi iyulda (3,1 foiz) qayd etildi.

1996-yildagi inflatsiya darajasi makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o‘shishga erishish imkonini berdi. Bunday natijalarga erishishda Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasini o‘zgartirish bo‘yicha olib borgan siyosati muhim rol o‘ynadi.



**O‘zbekiston Respublikasida 1995–2015-yillarda  
inflatsiya darajasining yillik o‘zgarishi, %**

Milliy valuta kiritilgan paytda moliyalashtirish stavkasi 150 foizni tashkil etar edi. Ammo milliy valuta kiritilgunga qadar bo‘lgan inflatsiyaning inersiya kuchi shu darajada katta



bo'ldiki, qayta moliyalashtirishning bu stavkasi ham yetarli emasligi ma'lum bo'lib qoldi. Inflatsiyani kamaytirish borasida yanada qat'iyroq siyosat yuritish maqsadida 1994-yilda oktabr oyidan boshlab qayta moliyalashtirish stavkasini 150 foizdan 225 foizgacha ko'tardi. 1995-yil fevral oyida qayta moliyalashtirish stavkasi 250 foizgacha oshirilgan bo'lsa, mart oyidan boshlab u 300 foiz etib belgilandi.

Inflatsiya darajasining anchagina pasaytirilishi Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasining ham asta-sekin pasaytirib borilishi uchun zamin yaratdi. 1995-yildan boshlab Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi muttasil ravishda tushirilib borildi va 1996-yilda qayta moliyalashtirish stavkasi 50 foizdan pastga tushdi.

Inflatsiyaga qarshi kurashda qayta moliyalashtirish stavkasi bilan birgalikda Markaziy bank majburiy zaxira jamg'armasiga o'tkazish me'yoridan ham faol foydalanildi.

Inflatsiya eng faol bo'lib turgan 1994-yil davomida majburiy zaxiralar me'yori talab qilib olingunga va 3 yilgacha bo'lgan muddatli depozitlar uchun 30 foiz, 3 yildan oshiq bo'lgan muddatli depozitlar uchun 10 foiz hamda chet el valutasidagi depozitlar uchun 30 foiz darajasida bo'ldi. 1995–1996-yillarda inflatsiyaning pasayishi bilan majburiy zaxiralar me'yori ham tijorat banklarining real sektorga kredit berish faoliyatini rag'batlantirish maqsadida kamaytirildi.

Shunday qilib, pul-kredit siyosati rivojlanishining ikkinchi bosqichida yillik inflatsiya darajasi 1994-yilda 1281 foizdan 1996-yilda 64 foizgacha pasaydi. Mazkur yilda islohotlar yillarida birinchi marta yalpi ichki mahsulotning o'sishi yuz berdi (101,6 foiz).

**O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki qayta moliyalashtirish  
stavkasining 1994–2016-yillardagi o‘zgarishi, yillik %**

<b>Amal qilish muddati</b>	<b>%</b>
28.06.2017 — ...	14
01.01.2015 — 27.06.2017	9
01.01.2014 — 31.12.2014	10
01.01.2011 — 31.12.2013	12
15.07.2006 — 31.12.2010	14
21.12.2004 — 14.07.2006	16
05.07.2004 — 20.12.2004	18
10.09.2003 — 04.07.2004	20
16.07.2003 — 09.09.2003	24
01.01.2002 — 15.07.2003	30
01.07.2000 — 31.12.2001	24
01.06.2000 — 30.06.2000	27,6
01.05.2000 — 31.05.2000	28,8
01.04.2000 — 30.04.2000	30
01.01.1998 — 31.03.2000	36
01.11.1997 — 31.12.1997	30
01.01.1997 — 31.10.1997	39,6
01.08.1996 — 01.12.1996	48
01.07.1996 — 31.07.1996	60
01.08.1995 — 30.06.1996	84
01.07.1995 — 31.07.1995	120
20.03.1995 — 30.06.1995	300
01.02.1995 — 19.03.1995	250
01.10.1994 — 31.01.1995	225
02.05.1994 — 30.09.1994	150

Majburiy zaxira jam'arasiga o'tkazish me'yorlari,  
% hisobida

Amal qilish muddati	Talab qilib olguncha va 1 yildan ortiq bo'lmagan muddatli depozitlar	Muddati 1 yildan 3 yilgacha bo'lgan muddatli depozitlar uchun	3 yildan oshiq muddatli depozitlar uchun	Chet el valutasidagi depozitlar uchun
1994-yil maydan	30	30	10	30
1995-yil yanvardan	25	25	10	25
1996-yil iyuldan	25	25	10	
1997-yil dekabrda	20	20	10	
2000-yil maydan	20	20	20	
2005-yil 1-fevraldan	15	15	15	5
2005-yil 1-avgustdan	15	15	15	8
2007-yil 1-sentabrda	13	13	13	13
2008-yil 1-noyabrda	15	15	15	15
2009-yil 1-sentabrda hozirgacha	15	12	10,5	10,5-15

Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan pul-kredit siyosatining uchinchi bosqichi 1997-yildan 2003-yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu bosqichda makroiqtisodiy barqarorlikka erishildi va samarali pul-kredit siyosatini amalga oshirish uchun real shart-sharoit vujudga keldi.

1997-yilda inflatsiyaning o'rtacha yillik darajasi 28 foizgacha pasaydi. Oylik inflatsiya darajasi o'rtacha 2,1 foizga teng bo'ldi. 1998-yilda inflatsiyaning o'rtacha yillik darajasi 24 foizni, o'rtacha oylik darajasi 1,9 foizni tashkil etdi. Inflatsiyaning mazkur darajasi 1999 va 2000-yillarda ham saqlanib qoldi.

1998-yildan boshlab 2001-yilgacha bo'lgan davrda qayta moliyalashtirish stavkasi 24 foizni tashkil qilgan bo'lsa, keyingi yillarda inflatsiya darajasining faol pasayishi sababli Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi ham sezilarli pasaytirildi. Jumladan, qayta moliyalashtirish stavkasi 2002-yilda 22 foizni, 2003-yilda 20 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2004-yil davomida uning hajmi ikki marotaba o'zgartirildi: iyul oyidan boshlab 18 foiz va dekabr oyidan 16 foiz etib belgilandi.

Mazkur yildan boshlab Markaziy bank majburiy zaxira jamg'armasiga o'tkazish me'yori ham barqarorlashdi. Xususan, 2004-yilda majburiy zaxiralar me'yori talab qilib olingunga va 3 yilgacha bo'lgan muddatli depozitlar 20 foiz, 3 yildan oshiq bo'lgan muddatli depozitlar uchun 20 foiz etib belgilandi.

Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan pul-kredit siyosatining keyingi bosqichi 2004-yildan, ya'ni iqtisodiyotning asosiy moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlariga erishilgan bosqichdan bugungi kungacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2004–2006-yillarda Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi 16 foiz darajasida saqlanib qolgan bo'lsa, bu davrda majburiy zaxiralar jamg'armasiga o'tkazish me'yorida bitta o'zgarish yuz berdi,

ya'ni chet el valutasidagi depozitlar uchun bu me'yori 5 foizdan 8 foizga oshirildi.

2007-yil sentabrdan boshlab Markaziy bankning majburiy zaxiralar me'yori barcha depozitlar uchun 13 foiz, 2008-yil noyabrdan esa 15 foiz etib belgilangan bo'lsa, qayta moliyalashtirish stavkasi 2006-yil 15-iyuldan 14 foizni tashkil etdi. Bu davrda inflatsiya darajasi ham barqarorlashib 6,8-7 foizga teng bo'ldi.

Pul massasining maqsadli parametrlaridan kelib chiqqan holda hamda tijorat banklari tomonidan uzoq muddatli depozitlar jalb qilinishini yanada rag'batlantirish maqsadida 2009-yilning 1 sentabridan majburiy zaxiralar me'yori tijorat banklari depozitlarining muddatiga qarab tabaqalashtirildi. Jumladan, majburiy zaxiralar me'yori muddati 1 yilgacha bo'lgan depozitlar uchun – 15 foiz, muddati 1 yildan 3 yilgacha bo'lgan depozitlar uchun – 12 foiz, muddati 3 yildan ortiq bo'lgan depozitlar uchun – 10,5 foiz miqdorida o'rnatildi.

Shu bilan birga, majburiy zaxiralarni hisob-kitob qilish davri bir oydan o'n to'rt kunga qisqartirildi va bu tijorat banklariga likvidlikni yanada samarali va tezkor boshqarish imkoniyatini berdi. Shuni ta'kidlash lozimki, majburiy zaxiralarning ushbu me'yori bugungi kungacha saqlanib turibdi. 2009-yil sentabrdan boshlab Markaziy bank pul taklifini boshqarishda pul-kredit siyosatining asosiy vositalaridan biri bo'lgan qayta moliyalash stavkasidan foydalanib kelmoqda. Xususan, 2009-yilda amaldagi va kutilayotgan inflatsiya darajasidan kelib chiqib Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi 14 foiz miqdorida ushlab turildi. Bu esa, o'z navbatida, pul bozorida foiz stavkalarining barqarorligini ta'minlashga xizmat qildi.

Iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadida Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi 2011-yilning 1-yanvaridan

yillik hisobda 14 foizdan 12 foizgacha tushirildi va yil davomida o'zgartirilmasdan saqlab turildi.

Bu esa, o'z navbatida, pul bozorida foiz stavkalarining pasayishiga olib kelib, xo'jalik yurituvchi subyektlar xarajatlari-ning kamayishi va buning natijasida ularning investitsion faoligini oshirishga xizmat qildi.

Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasidagi keyingi o'zgarish 2014-yilning 1-yanvarida yuz berdi. Shu sanadan u yillik 12 foizdan 10 foizga tushirildi va yil davomida o'zgartirilmagan holda saqlab turildi.

Qayta moliyalash stavkasining 2 foizga pasaytirilishi pul bozorida foiz stavkalarining pasayishiga, real sektor korxonalarining investitsion imkoniyatlarini oshirishga hamda iqtisodiyotni kreditlash hajmini yanada kengaytirishga xizmat qildi.

Keyinchalik ham Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi pul bozoridagi foiz stavkalarini boshqarish hamda iqtisodiy o'sish jarayonlarini rag'batlantirish maqsadlariga yo'naltirildi. Shu sababli inflasiya darajasi, pul massasining va boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning maqsadli parametrlaridan kelib chiqib, qayta moliyalash stavkasi 2015-yilning 1 yanvaridan yillik 10 foizdan 9 foizga tushirildi.

2017-yilning 28-iyunidan bu ko'rsatkish 14 foiz etib belgilandi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi pul-kredit siyosatining asosiy xususiyatlari va uning oldiga qo'yilgan vazifalar quyidagilardan iborat:

Birinchidan, bank faoliyatini yanada erkinlashtirish asosida aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini oshirish. Bu aholi qo'lidagi vaqtincha bo'sh mablag'larni bank bo'linmalariga jalb etish imkoniyatini beradi. Buning natijasida banklarning real sektorni kreditlash bo'yicha imkoniyatlari yanada oshadi va banklarning korxonalar bilan hamkorligi kuchayadi.

Ikkinchidan, har qanday rivojlangan iqtisodiyotning tarkibiy qismi hisoblangan kichik va o'rta biznesning erkin rivojlanishini ta'minlash uchun ularni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash tizimini maksimal darajada soddalashtirish.

Uchinchidan, valuta munosabatlarini yanada erkinlashtirish bo'yicha muvofiqlashtirilgan ishlarni amalga oshirish va milliy valutaning hech qanday cheklovlersiz to'liq konvertatsiyasiga erishishdir.

## **Qisqacha xulosalar**

1. Zamonaviy bank-kredit tizimi ssuda kapitallari bozorida faoliyat yurituvchi va pul kapitalini jalb qilish va yo'naltirish bilan shug'ullanuvchi turli kredit – moliya institutlari to'plami bo'lib, bu tizim, odatda, quyidagi uch bo'g'indan tashkil topadi: Markaziy bank, tijorat banklari va ixtisoslashgan kredit-moliya tashkilotlari.

2. Markaziy bank bank-kredit tizimining o'zagini tashkil etadi. Markaziy bank banknotalarning emissiyasini amalga oshirish; davlat oltin-valuta zaxiralarini saqlash; boshqa kredit tashkilotlarining rezerv fondlarini saqlash, iqtisodiyotni pul-kredit dastagi yordamida tartibga solish; tijorat banklarini kreditlash; davlat muassasalariga kassa xizmatini ko'rsatish; hisob-kitob va pul ko'chirish amaliyotlarini yurgizish; kredit tashkilotlari faoliyatini nazorat qilish funksiyalarini bajaradi.

3. Tijorat banklari tomonidan mijozlariga taklif etilayotgan xizmatlar turi 300 dan 600 tagachani tashkil etadi. Jismoniy va yuridik shaxslarga hisob varaqalarini ochish va yurgizish; hisob-kassa xizmati, pullar va pul hujjatlarini inkassatsiyalash; jamg'armalarni foiz to'lash bilan saqlashga qabul qilish; turli maqsadlarga kreditlar ajratish; mablag' egasining topshirig'iga binoan pul mablag'larini ishonchli boshqarish; xorij valutalari-

ning oldi-sotdisi; qimmatli toshlar bilan amaliyotlar olib borish; hujjatlar yoki qimmatbaho buyumlarni saqlash uchun maxsus xona yoki seyflarni ijaraga berish kabilar ularning asosiylaridir.

4. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi bugungi kunda 27 ta tijorat banklarini o‘zida birlashtirgan. Shundan to‘liq davlat mulki asosida O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, O‘zbekiston Respublikasi davlat-tijorat Xalq banki va «Asaka» davlat-aksiyadorlik tijorat banki faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

5. Davlat mulki ishtirokida 10 ta aksiyadorlik tijorat banklari mavjud. Ular «Ipoteka-bank» aksiyadorlik tijorat ipoteka banki, «O‘zbekiston sanoat-qurilish banki» aksiyadorlik tijorat banki, «Agrobank» aksiyadorlik tijorat banki, «Qishloq qurilish banki» aksiyadorlik tijorat banki, «Turonbank» aksiyadorlik tijorat banki, «Mikrokreditbank» aksiyadorlik tijorat banki, «Aloqabank» aksiyadorlik tijorat banki, «Ipak Yo‘li» aksiyadorlik innovatsiya tijorat banki, «Kapitalbank» aksiyadorlik tijorat banki va «Asia Alliance Bank» aksiyadorlik tijorat banklari.

6. Mamlakat bank tizimidagi banklarning filiallari respublikamizning barcha hududlarida yanada kengayib, 2017-yilning 1-yanvar holatiga ularning soni 855 taga yetdi. Tijorat banklarining umumiy kapitali hajmi 9353 mlrd. so‘mni, shuningdek, tijorat banklaridagi aholi va xo‘jalik yurituvchi subyektlari depozitlarining umumiy hajmi 44,6 trln. so‘mni tashkil etmoqda.

7. Pul-kredit siyosatining pirovard maqsadlari iqtisodiy o‘shishning barqarorligi, ishsizlikning past darajasi, past inflatsiya, narxlar barqarorligi va barqaror to‘lovi balansini ta‘minlashdan iborat. Pul-kredit siyosatini amalga oshirishda bevosita (ma‘muriy) va bilvosita (iqtisodiy) usullardan foydalanish mumkin.



8. Bozor iqtisodiyoti sharoitida Markaziy bank tomonidan pul-kredit siyosatini amalga oshirishning asosiy vositalari ochiq bozordagi operatsiyalar; minimal zaxira talablarini o'rnatish; tijorat banklarini qayta moliyalashtirish miqdorlari va shartlarini belgilash kabilardan iborat.

9. O'zbekistonda pul-kredit siyosati makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sishga erishish, inflatsiya darajasini yanada pasaytirish va to'lov intizomini kuchaytirishga qaratilgan.

10. O'zbekiston Respublikasi pul-kredit siyosatining asosiy xususiyatlari bank faoliyatini yanada erkinlashtirish asosida aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini oshirishda, har qanday rivojlangan iqtisodiyotning tarkibiy qismi hisoblangan kichik va o'rta biznesning erkin rivojlanishini ta'minlash uchun ularni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash tizimini maksimal darajada soddalashtirishda va valuta munosabatlarini yanada erkinlashtirish bo'yicha muvofiqlashtirilgan ishlarni amalga oshirishda o'z aksini topadi.

## **Asosiy atamalar va tushunchalar**

Bank-kredit tizimi, ssuda kapitali, pul kapitali, kredit-moliya institutlari, Markaziy bank, tijorat banklari, ixtisoslashgan kredit-moliya tashkilotlari, oltin-valuta zaxiralari, rezerv fondlari, pul-kredit dastagi, kassa xizmati, inkassatsiya, pul-kredit siyosati, inflatsiya, narxlar barqarorligi, ochiq bozordagi operatsiyalar, minimal zaxira talablari, qayta moliyalashtirish, to'lov intizomi.

## **Nazorat savollari**

1. Zamonaviy bank-kredit tizimini tavsiflang. U qanday xususiyatlarni o'zida mujassamlashtiradi?

2. Markaziy bankning bank-kredit tizimidagi o‘rni va roliga qanday baho berasiz? Markaziy bankning asosiy funksiyalarini sanab bering.

3. Tijorat banklarining mijozlarga taklif etayotgan qanday xizmat turlarini bilasiz?

4. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan banklar to‘g‘risida ma’lumot bering. Ularning ixtisoslashuvi to‘g‘risida nimalarni bilasiz?

5. O‘zbekiston bank tizimi rivojlanishini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni tavsiflang.

6. O‘zbekistonda pul-kredit siyosati qanday maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan?

7. Makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlik deganda nimani tushunasiz? Ular o‘rtasida qanday bog‘liqlik mavjud?

---

## **XXIV b o b**

### **IJTIMOIIY SOHA VA AHOLI TURMUSH SIFATI**

#### **24.1. Ijtimoiy sohaning tuzilishi**

Aholining turmush sharoiti, hayot kechirishi va turmush darajasini yaxshilash bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ta‘lim, sog‘liqni saqlash sohalari, uy-joy kommunal xo‘jaligi, madaniyat va san‘at, sport va boshqa ijtimoiy infratuzilma sohalari ijtimoiy sohalar hisoblanadi. Axborot va telekommunikatsiya, yo‘lovchi transporti, aholiga pulli xizmat ko‘rsatuvchi boshqa tarmoqlar ham ijtimoiy ahamiyatga ega xizmatlar ko‘rsatuvchi tarmoqlarga kiradi.

Aholi sonining o‘zgarishi, uning harakatlanishi, nikoh qurish, ajralish, umr ko‘rish davomiyligining uzayishi, shahar va qishloq aholisi soni nisbatlarining o‘zgarishi, aholining shaharlashuv jarayoni, aholi daromadlari va uning tarkibi o‘zgarishi, turmush shart-sharoitlarining o‘zgarishi ijtimoiy hodisa va jarayonlar hisoblanadi.

Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etish davrida ijtimoiy sohani davlat qo‘llab-quvvatlaydi. Shu bilan aholi turmush darajasi keskin pasayib ketishining oldi olinadi, turmush sifatining muttasil yaxshilanib borishi ta‘minlanadi.

O‘zbekistonda har yili Davlat budgetining qariyb 60 foizi sog‘liqni saqlash, ta‘lim, kommunal xo‘jalik va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bilan bog‘liq boshqa sohalarni rivojlantirish uchun yo‘naltirilmoqda.

Ijtimoiy soha va xizmat ko‘rsatish tarmog‘ining rivojlanishi, infratuzilma, transport-kommunikatsiya sohasining takomillashuvi, yangi uy-joy obyektlari barpo etilishi, ish haqi va aholi daromadlarining izchil oshib borishi ijtimoiy taraqqiyotning asosiy yo‘nalishlaridir.

## **24.2. Turmush darajasi va sifati tushunchasi. Turmush darajasi ko‘rsatkichlari**

Aholi turmush darajasi davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosati samaradorligini baholashning eng muhim mezonidir. Uni oshirib borish ijtimoiy rivojlanishning asosiy maqsadidir. Turmush darajasi deganda aholining zaruriy moddiy-nomoddiy ne‘matlar va xizmatlar bilan ta‘minlanganlik hamda ularni iste‘mol qilish darajasi tushuniladi.

Aholining farovonlik darajasini ifodalash uchun «turmush darajasi», «xalq farovonligi», «turmush tarzi», «mehnat faoliyati sifati», «turmush sifati» kabi tushunchalar qo‘llaniladi. Mazkur tushunchalar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, mamlakat aholisining hayot kechirish holatini ifodalashga xizmat qiladi.

Aholining moddiy, ma‘naviy, ijtimoiy ehtiyojlarining qondirilish darajasini ifodalaydigan turmush darajasi ko‘p omillar yig‘indisi ta‘sirida bo‘lgan o‘zgaruvchan jarayondir. Bir tomondan, turmush darajasi muntazam o‘zgarib turadigan turli ne‘matlarga bo‘lgan ehtiyojlarning tarkibi va darajasi bilan, ikkinchi tomondan, ehtiyojni qondirish imkoniyatlari, tovarlar va xizmatlar bozoridagi holat, aholi daromadlari, mehnatkashlarning ish haqi bilan belgilanadi.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) konvensiyalariga muvofiq, har bir inson o‘zi va oilasining salomatligi va farovonligini ta‘minlovchi turmush darajasiga (oziq-ovqat, kiyim-bosh, uy-joy, tibbiy parvarish, ijtimoiy xizmatlar), shuningdek, ishsizlik,

nogironlik, bevalik holatlarida ta'minot olish huquqiga ega. Barcha huquqlar milliy konsepsiyalar asosida amalga oshiriladi.

Turmush darajasi konsepsiyasi tamoyillar va ko'rsatkichlar tizimiga asoslanuvchi, aholining turmush darajasini oshirishga qaratilgan g'oyani ifodalaydi. Turmush darajasining konsepsiyasi ko'zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirish strategiyasi va yo'nalishlari, bosqichlarini belgilab beradi va ma'lum tarixiy xarakterga ega.

O'zbekistonda yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga javob beradigan turmush darajasi konsepsiyasini yaratishda jahon amaliyotida keng qo'llanilayotgan «turmush sifati» konsepsiyasining ayrim qoidalaridan foydalanilmoqda.

«Turmush sifati» konsepsiyasi inson hayoti faoliyatining iqtisodiy parametrlarini aks ettiruvchi «global ish bilan bandlik», «turmush darajasi», «mehnat faoliyati sifati» kabi konsepsiyalarning rivojlanishi asosida yuzaga kelgan. Bu konsepsiya inson jamoalarining jismoniy, aqliy va ijtimoiy barkamolligini belgilovchi shartlarni shakllantiradi.

Turmush sifati nafaqat ovqatlanish, uy-joy, ish bilan bandlik, ta'lim darajasini baholovchi obyektiv omillarni e'tiborga oladi, balki inson tomonidan o'zining farovonligi, baxti, qoniqishi, rohati kabi tushunchalarni subyektiv his etishini ham aks ettiradi. Masalan, sog'liq darajasi, oilaviy munosabatlari, ishi, moddiy ahvoli, yaratuvchanlik qobiliyati va hokazolardan qoniqish hayotdan qoniqish hosil qilishning muhim komponenti bo'lib, insonning atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlarini ham o'z ichiga oladi.

Turmush darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar turli-tuman bo'lib, ular turmush darajasi konsepsiyasi bilan uzviy bog'liq.

Jahon amaliyotida integral ko'rsatkich sifatida insonning rivojlanish indeksi (IRI) qo'llaniladi. «BMT taraqqiyot dasturlari» (BMTTD) mualliflari jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi

ichki mahsulot, kutilayotgan umr ko'rish davri va aholining ma'lumot darajasi kabi kattaliklarning o'rtachasini hisoblab, turmush darajasining umumlashtiruvchi indikatorini ishlab chiqdilar.

Insonning rivojlanish indeksi – IRI integral ko'rsatkich bo'lib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Kutilayotgan umr uzoqligi.

2. Aholining savodliligi foizi hamda 25 va undan yuqori yoshdagilarning o'qiganlik yillari o'rtacha miqdori bo'yicha aniqlanadigan aholining ma'lumot darajasi.

3. Muayyan yilda, birjadagi kurs emas, balki tegishli mamlakatlar valutaralarining xarid qobiliyati bo'yicha AQSH dollari-da hisoblab chiqiladigan, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot.

Aholining quyidagi to'rtta turmush darajasini ajratib ko'rsatish mumkin:

– to'q turmush darajasi – insonning har tomonlama kamol topishini ta'minlaydigan ne'matlardan foydalanish;

– normal daraja – insonning jismoniy va aqliy kuch-quvvatini to'la tiklash uchun qulay sharoitlarni ta'minlaydigan ilmiy asoslangan me'yorlar bo'yicha oqilona iste'mol qilish;

– kambag'allik – mehnat uchun resurslarni qayta yaratishning quyi chegarasi sifatidagi ish qobiliyatini saqlash darajasida ne'matlarni iste'mol qilish;

– qashshoqlik – iste'mol qilinishi insonning yashash qobiliyatini saqlash imkoniyatinigina beradigan ne'matlar va xizmatlarning biologik mezonlar bo'yicha yo'l qo'yiladigan minimal turlarini iste'mol qilish.

Iste'mol budjetlari turmush darajasi indeksi va dinamikasini me'yoriy tahliliy baholash, bashoratlash va tartibga solish hamda daromadlar sohasida asoslangan siyosat ishlab chiqishning muhim vositasidir.

Turmush darajasi indeksini hisoblash uchun turmush darajasining quyidagi komponentlari jon boshiga to'g'ri keladigan indeksni aniqlanadi: ovqatlanish (to'yimlilik va oqsillarga boyligi bo'yicha), uy mulklari jamg'armasi (solishtirma narxlarda), uy-joy (qulayliklarni qo'shgandagi maydoni), salomatlik va sog'liqni saqlash (umr ko'rish davri dinamikasi, o'lim darajasi, sog'liqni saqlash uchun xarajatlar bo'yicha), ta'lim va madaniyat (ma'lumot olish o'rinlari, ta'lim va madaniyat uchun ajratiladigan xarajatlar bo'yicha), aholiga xizmat ko'rsatish (solishtirma narxlarda) va hokazo.

Yuqorida keltirilgan turmush darajasi ko'rsatkichlari inson faoliyatining alohida qirralarini tavsiflaydi. Ular bir-birini to'ldiradi.

Aholining turmush darajasi o'zgarishiga bevosita va bilvosita ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar mavjud. Makroiqtisodiy barqarorlik (beqarorlik) ko'rsatkichlari aholi turmush darajasi o'zgarishiga bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy o'sish, ishsizlik darajasining pasayishi va bandlikning ta'minlanishi, inflatsiyaning jilovlanishi va keskin oshib ketishining oldini olish, tarmoqlarning mutanosib rivojlantirilishi, savdo balansining ijobiyligi, eksport hajmining ortib borishi, budget tanqisligining oldi olinishi, davlat ichki va tashqi qarzlarning me'yordaligini ta'minlash kabilar ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan iqtisodiy o'zgarishlar aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha ko'rsatkichlar va turmush darajasining muntazam oshib borayotganida namoyon bo'lmoqda. Xususan, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM o'rtacha miqdori, xarid qobiliyati pariteti (XQP) asosida hisoblaganda, 1990-yilda 1328 dollarni, 2000-yilda 1431 dollarni, 2010-yilda esa 3271 dollarni tashkil etdi. 2010-yilda esa bu boradagi o'sish 1990-yilga nisbatan 2,5 barobar oshdi. 2016-yil bu ko'rsatkich 4470 dollardan oshdi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida band bo‘lgan har bir kishiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulot hajmi 1990-yilda 3412 AQSH dollarni tashkil etgan bo‘lsa, 2010-yilda bu raqam o‘rtacha 7940 AQSH dollar yoki 1990-yilga nisbatan 2,3 barobardan ko‘proq bo‘ldi. 2016-yil bu ko‘rsatkich 10640 dollardan oshdi.

Aholi turmush darajasi o‘zgarishini bevosita ifodalaydigan ko‘rsatkichlar quyidagilar:

- oila iste‘mol budjetining hajmi va tarkibi;
- yalpi daromadlar hajmi va tarkibi;
- yalpi iste‘mol xarajatlari hajmi va tarkibi;
- oziq-ovqat mahsulotlarini iste‘mol qilish hajmi;
- nooziq-ovqat mahsulotlari iste‘moli hajmi;
- jamg‘arma mablag‘lar hajmi;
- ijtimoiy infratuzilmaning barqaror faoliyat ko‘rsatishi hamda rivojlanishi va boshqalar.

Aholi turmush darajasini ifodalovchi muhim iqtisodiy ko‘rsatkich – aholi yalpi daromadlari va xarajatlari aholi turmush sifatining tarkibi o‘zgarishini aks ettiradi.

Aholi daromadlari aholining nominal pul daromadlari va real ko‘rinishdagi daromatlardan tashkil topadi. Aholi real daromadlarining oshishida asosiy omillar makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy o‘sishning tez sur‘atlarda oshishi, inflatsiyaning sezilarli darajada pasayganligi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar va aholini aniq ijtimoiy himoya qilishning kuchayganligi hisoblanadi.

Aholining yalpi daromadlari pul daromadlari (ish haqi, pensiya, nafaqa, stipendiya), qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotishdan tushgan daromad, mulkdan tushgan daromad, tadbirkorlik faoliyatidan tushgan daromad, boshqa pul daromadlari hamda natural ko‘rinishdagi daromatlardan tashkil topadi.

2000–2016-yillar davomida O‘zbekiston aholisining yalpi daromadlari qariyb 9 barobar oshdi. Yalpi daromadlar tarki-



bida shu davr mobaynida mulk daromadlari, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olingan daromadlar ko‘rinishidagi yangi daromad turlari paydo bo‘ldi. Agar 2000-yilda yalpi daromadlarning 69,9 foizi mehnat faoliyatidan olingan daromadlar hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2016-yilda bu ko‘rsatkich 73,3 foizga etdi. Mol-mulkdan olingan daromadlar va shaxsiy iste‘mol uchun o‘zida ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarning ulushlari ham mos ravishda 2,4 va 1,8 foizdan 4 va 2,4 foizgacha o‘sgan bo‘lsa, transfertlarning salmog‘i bu davrda 25,9 foizdan 20,3 foizgacha pasaydi.

**2010–2016-yillarda aholi umumiy daromadlarining tarkibi (foizda)**

Yillar	2010	2016
Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar	69,9	73,3
Transfertlar	25,9	20,3
Mol-mulkdan olingan daromadlar	2,4	4,0
Shaxsiy iste‘mol uchun o‘zida ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar	1,8	2,4

Pul daromadlarining oshishi aholi barcha qatlamlarining o‘rtacha daromadlarining izchil o‘sib borishi bilan yonma-yon yuz berdi. Aholining turli guruhlarida daromadlari darajasidagi tafovutni (differensiyalashuvni) aks ettiruvchi Jini koeffitsiyenti 2000–2016-yillarda 0,39 dan 0,26 gacha pasaydi. Bu esa, o‘z navbatida, jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlar bo‘yicha aholining tabaqalanishini sezilarli darajada kamayishidan darak beradi.

Aholining xarajatlari tarkibi iste‘mol xarajatlari, majburiy to‘lovlar, banklarga qo‘yilgan pullar, sotib olingan qimmatbaho qog‘ozlar va valuta hamda naqd pul qoldig‘idan iborat bo‘ladi.

Oilalarning yalpi daromadlari oshib borishi iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish va aholiga ko'rsatilayotgan xizmat turlarini kengaytirish uchun sharoit yaratdi.

**O'zbekiston Respublikasida 2000–2016-yillarda aholi iste'mol xarajatlarining tarkibiy o'zgarishi, foizda**

Yillar	2000	2005	2010	2016
Oziq-ovqat mahsulotlari	61,4	58,2	53,2	47,3
Nooziq-ovqat mahsulotlari	25,8	25,7	26,9	32,3
Xizmatlar	12,8	16,1	19,9	20,4

Aholi yalpi xarajatlarining makrotarkibi optimallashtirib bormoqda. Jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari uchun xarajatlar ulushi kamayib, nooziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlar uchun xarajatlar ulushi ortib borayapti. Aholi real pul daromadlarining o'sish tendensiyalari aholi xarajatlari tarkibi va hajmida ham ijobiy siljishlarga olib keldi. Iste'molga yo'naltirilgan xarajatlarning ulushi keyingi 10 yillikda 84,3 foizdan 77,5 foizgacha kamaydi.

Aholining bankka qo'yilgan omonati, qimmatbaho qog'ozlar va valuta sotib olish kabi jamg'armalar ulushi esa qariyb 2 barobar o'sdi. Uy xo'jaliklarining jamg'armalari ortishi hisobiga joriy iste'molni moliyalashtirish hajmining qisqarishi aholining jamg'arishga moyilligi yuqoriligi va investitsion faolligi ortganligidan dalolat beradi.

### **24.3. Aholining iste'mol darajasi ko'rsatkichlari**

Iste'mol xarajatlarining hajmi va tarkibi ko'p jihatdan aholining asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish imkoniyatlari va mazkur mahsulotlarning narxi bilan chambarchas

bog‘liq. Aholining oziq-ovqat mahsulotlari iste‘moli va uzoq muddatli foydalaniladigan mahsulotlar bilan ta‘minlanishi turmush sifatining o‘zgarishini aks ettiradi.

O‘zbekistonda 2000–2016-yillar mobaynida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan go‘sht va go‘sht mahsulotlari iste‘moli 1,3 marta, sut mahsulotlari 1,7 marta, tuxum 4,5 marta, sabzavot va polizlar 2,2 marta, kartoshka 1,6 marta, shakar va qandolat mahsulotlari 2 marta, meva va rezavorlar 3,5 marta, o‘simlik yog‘i esa 2 martaga oshgan. Ayni vaqtda iste‘mol tarkibi ancha sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini ko‘proq iste‘mol qilish hisobidan o‘zgarmoqda. Bunda uglevodlarga boy oziq-ovqatlarni (birinchi navbatda, non va non mahsulotlarini) iste‘mol qilishning barqarorlashgani muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mustaqillik yillarida aholi tomonidan iste‘mol qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining soni, turi o‘nlab barobar oshdi. Hozirgi vaqtda aholining barcha asosiy iste‘mol mahsulotlari bo‘yicha (shakardan tashqari) ehtiyoji mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan deyarli to‘liq ta‘minlanmoqda. Iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish, asosan, 2000-yildan so‘ng, mamlakatimizda ularni ishlab chiqarishni rag‘batlantiradigan shart-sharoitlar bosqichma-bosqich yaratila boshlangandan keyin kuzatildi.

O‘zbekiston sanoati aholining sifatli mebel, gilam mahsulotlari, yengil avtomobillarga bo‘lgan ehtiyojini to‘liq ta‘minlayapti. Mamlakatimizda televizorlar, konditsionerlar va ekologik xavfsiz muzlatkichlar ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada o‘sib, trikotaj mahsulotlari, oyoq kiyimlar tayyorlash va yengil sanoatning boshqa tarmoqlarida ishlab chiqarish yuqori sur‘atlar bilan rivojlanib bormoqda.

**Aholining asosiy oziq-ovqat mahsulotlarining  
iste'mol qilinishi, aholi jon boshiga, kg. hisobida**

Yillar	2000	2005	2010	2016
Non va non mahsulotlari	167	166	160	152
Go'sht va go'sht mahsulotlari	34	35,2	38	44,4
Sut mahsulotlari	162	187,6	239	279,6
Tuxum (dona)	47	84	138	213,6
Sabzavot va poliz	128	179,2	238	277,2
Kartoshka	36	38,2	45	56,4
O'simlik yog'i va boshqa moylar	12	12,5	13	24
Shakar	16	16	17	32,4
Meva, jumladan, uzum	42	66,1	83	148,8

Uy xo'jaliklari sifat jihatdan eski buyumlardan keskin farq qiladigan yangi, zamonaviy mahsulotlarni tez sotib olmoqda. Raqamli televizor va fotoapparatlar, sun'iy yo'ldosh antenlari va mobil telefonlar, DVD pleyerlar, kompyuter va unga qo'shimcha qurilmalar, noutbuklar va boshqa elektron texnikalar, qurilish materiallarining yangi turlari va boshqa ro'zg'or ashyolari shular jumlasidandir.

Uzoq muddat foydalanishga mo'ljallangan buyumlar ta'minoti bo'yicha 2016-yilda har 100 xonadonga 153 ta televizor, 102 ta sovitkich, 246 ta mobil telefon to'g'ri keldi. Shuningdek, har 100 xonadonga to'g'ri keladigan yengil avtomobillar soni ortib, 2010–2016-yillarda 20 tadan 43 tagacha ko'paydi.

Aholining xarid qobiliyati, ya'ni o'rtacha oylik maosh xarid qobiliyatining o'sish dinamikasi, minimal iste'mol savati bilan qiyoslanganda, 2000–2016-yillarda 4,2 barobar oshdi.

Aholining jamg'arma mablag'lari iste'mol budjetining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Aholi omonatlari hajmi barqaror oshib bordi.

**Aholining uzoq muddatli foydalaniladigan  
mahsulotlar bilan ta'minlanishi  
(har 100 xonadonga to'g'ri keladigan tovarlar soni)**

	2000	2005	2010	2016
Televizorlar	88	109	132	153
Sovitgich va muzlatkichlar	86	91	99	102
Konditsionerlar	11	14	19	34
Elektr changyutkichlar	30	33	37	54
Personal kompyuterlar	0,2	5	12	49
Fotoapparat va videokameralar	21	22	24	
Kir yuvish mashinalari	69	71	75	80
Mobil aloqa vositalari	18	79	145	246
Avtomobillar soni o'rtacha har 1000 nafar aholiga, birlikda	38,9	42	51,5	80
Avtomobillar soni o'rtacha har 100 xonadonga, birlikda	20	22	27	43

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanib boriishi aholining yalpi xarajatlari tarkibida yangi yo'nalish – tadbirkorlik faoliyati uchun xarajatlar yo'nalishi paydo bo'lishiga olib keldi. Ularning ulushi hozirgi paytda 8,5 foizni tashkil etmoqda. Bu usul oila xo'jaligining asosiy kapital uchun mablag' jamg'arishning samarali shakli bo'lib, xususiy mulk asosida o'z daromadlarini shakllantirish va ko'paytirishni bildiradi.

Aholi turmush darajasi ijtimoiy infratuzilma obyektlarining ishga tushirilishi, mavjudlarining kapital ta'minlanishi hisobiga o'zgarmoqda. Mustaqillik yillarida ijtimoiy soha obyektlarining qurib foydalanishga topshirilishi respublikaning har bir fuqarosini qariyb 15 kv.m uy-joy bilan ta'minlashga, markazlashgan suv ta'minotining 84 foizdan oshishiga, tabiiy gaz ta'minotining 82 foiz bo'lishiga imkoniyat berdi.

Aholi turmush sifati ta'limning barcha bosqichlarida kishilarga bir xil imkoniyatlar yaratish va zamonaviy talablardan kelib chiqib ta'lim sifatini oshirishga bog'liq. Ta'lim va sog'liqni

saqlash kabi ijtimoiy soha tarmoqlari davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda, sohaning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanmoqda, ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati oshirilayapti, mazkur sohalarda yuqori malakali kadrlarga bo‘lgan talablardan kelib chiqib kadrlar malakasini oshirishga erishilmoqda.

Aholi farovonligi o‘shining muhim tarkibiy qismi xizmat ko‘rsatish va xizmat turlariga nisbatan oshib borayotgan talabning ta‘minlanishidir. Xizmatlar sohasini rivojlantirish natijasida 2000–2016-yillarda aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 2,3 martaga o‘rdi va 2,9 mln. so‘mni tashkil etdi. Shu davrda aholi jon boshiga o‘rtacha to‘g‘ri keladigan bank, moliya va sug‘urta xizmatining hajmi 4 barobar o‘rdi.

#### **24.4. Ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishi**

Ijtimoiy infratuzilmaning barqaror rivojlanishi aholi turmush sifati yuksalishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Ta‘lim, sog‘liqni saqlash sohalari va uy-joy siyosatida amalga oshirilgan islohotlar natijasida ijtimoiy infratuzilmaning barqaror faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishi ta‘minlandi.

**Ta‘lim tizimi.** Mamlakatimizda 1997–2010-yillarda keng miqyosdagi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi amalga oshirildi. 2010-yildan keyin esa uning sifat bosqichini amalga oshirishga kirishildi. Aholining uzluksiz ta‘lim olishini ta‘minlash, ta‘lim tizimining jamiyatdagi o‘zgarish va yangilanishlari, iqtisodiyotdagi yuqori malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni ta‘minlash ta‘lim konsepsiyasining bosh maqsadi hisoblanadi. Bu, o‘z navbatida, aholi turmush sifatini belgilab beruvchi ko‘rsatkichlardan biriga aylandi.

Maktab ta‘limini rivojlantirish umummilliy davlat dasturi doirasida 7800 tadan ziyod umumiy o‘rta ta‘lim maktabi yangidan qurildi, ta‘mirlandi va rekonstruksiya qilindi, ularning

umumiy soni esa 9900 tadan oshdi. 2000–2013-yillarda qariyb 8 mingta ta’lim muassasasi kapital ta’mirlandi, gaz va suv bilan ta’minlandi, markazlashtirilgan kanalizatsiya tarmoqlariga ulandi.

Hozirgi kunda bolalar sporti maskanlarining soni 6000 tadan, maktablardagi yopiq sport zallarining soni esa 6150 tadan oshadi.

Mamlakatimizda zamonaviy ta’lim standartlari asosida jihozlangan 1539 ta kasb-hunar kolleji va akademik litsey faoliyat yuritmoqda, hozirgi kunda ularda 1623,1 ming nafar o’quvchi bilim olmoqda. Barcha kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar zamonaviy ta’lim standartlari talablari asosida jihozlangan.

2011–2016-yillarda barcha maktablarni o’quv jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish imkonini beradigan kompyuter sinflari bilan ta’minlash borasidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bundan tashqari, 400 ga yaqin bolalar sporti, 220 ga yaqin bolalar musiqa va san’ati maktabini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshirildi.

Oliy ta’lim tizimida bakalavriat va magistraturadan iborat ikki bosqichli xalqaro standartga o’tish amalga oshirildi. Mamlakatimizda Xalqaro Vestminster universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, I.M. Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz instituti, G.V. Plexanov nomidagi Rossiya Iqtisodiyot akademiyasi, Turin politexnika universiteti, M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti kabi xalqaro oliy o’quv yurtlarining filiallari tashkil etilgan va samarali faoliyat yuritmoqda.

Oliy ta’limning 150 dan ziyod bakalavr yo’nalishi va 650 ta magistratura mutaxassisligi bo’yicha davlat ta’lim standartlari joriy etildi. Hozirgi paytda 60 dan ortiq oliy ta’lim muassasalarida 24 ming nafardan ziyod pedagog mehnat qilmoqda, ular-

dan 11 foizi professor va fan doktori, 31 foizi esa fan nomzodi ilmiy unvoniga ega.

**Sog'liqni saqlash sohasi.** 1998-yilda qabul qilingan Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturi mamlakatimizda butun tibbiyot tizimini tubdan qayta qurish, ambulator-poliklinika va profilaktika tibbiyotiga ustuvor ahamiyat berishga o'tishda muhim omil bo'ldi. 2016-yilga kelib ambulatoriya-poliklinika tibbiy xizmatini ko'rsatuvchi tibbiyot maskanlari soni 6542 tadan oshdi. Shundan, qishloq va shahar vrachlik punktlari soni 3400 tadan oshiqni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasi ko'rsatkichlari aholi turmush sifatining muhim mezonlaridan biri hisoblanadi. Ambulator-poliklinika bo'g'inining mustahkamlanishi tufayli bemorlarning shifoxonalarda yotib davolanish darajasi har 100 kishiga nisbatan kamayib, 1990-yildagi 24,6 kishidan 2016-yilda 16,7 kishiga tushdi va bemorning kasalxonada davolanishi o'rtacha 14,8 kun o'rniga 8,3 kunga to'g'ri kelmoqda.

2011–2016-yillarda 800 ga yaqin sog'liqni saqlash muassasasi (viloyatlardagi 27 ta ko'p tarmoqli markaz, 12 ta mintaqaviy tibbiy diagnostika markazi va 10 ta respublika ixtisoslashtirilgan markazi) qurish, rekonstruksiya qilish va ularni jihozlash ishlari amalga oshirildi.

Mamlakatimiz sog'liqni saqlash tizimida, ijtimoiy sohada davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan ona va bola salomatligini muhofaza qilish masalasi yetakchi o'rin egallaydi.

Yodlangan tuz ishlab chiqarishning kengaytirilishi, aholi o'rtasida keng tushuntirish ishlarining olib borilishi natijasida yurtimizda yod tanqisligi, temir moddasi va foliy kislotaga yetishmasligi bilan bog'liq kasalliklar so'nggi o'n yil ichida 2 barobar kamaydi.



**Kommunal sohaning rivojlanishi.** Mustaqillikning dastlabki yillarida amalga oshirilgan «kichik» xususiyashtirish natijasida 96 foizdan ziyod oila ilgari davlat tasarrufida bo‘lgan uy-joylarni shaxsiy mulk qilib olishdi.

Aholining uy-joy bilan ta‘minlanish darajasi 1990-yilda har bir kishiga 12,1 kvadrat metrni tashkil etgan bo‘lsa, 2016-yilda bu raqam 16 kvadrat metrga yetdi yoki 1,3 barobar ortdi. Bugungi kunda qariyb 77,4 foiz oila alohida uy va kottejlarda istiqomat qilmoqda. Qishloq aholisini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta‘minlash davlat dasturining amalga oshirilishi natijasida bu sohada vaziyat tubdan yaxshilandi.

**Aholining kommunal xizmatlar bilan ta‘minlanish darajasi, aholining umumiy soniga nisbatan foizda**

Yillar	2000	2005	2010	2016
Ichimlik suvi ta‘minoti	80,4	81,9	82,6	85
shu jumladan, qishloq joylarda	72,3	73	75,8	78
Tabiiy gaz ta‘minoti	76,1	78,3	83,7	84,0
Shu jumladan, qishloq joylarda	65,9	69,7	77,7	80
Markaziy isitish tizimi	35,4	39,1	41,0	45
Oqovalashtirish xizmati (kanalizatsiya)	28,3	33,0	37,1	41
Bir kishiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha uy-joy maydoni, kvadrat metr hisobida	13,8	14,0	15,2	16

Aholining toza ichimlik suvi va tabiiy gazdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishda yuqorida zikr etilgan dastur bilan birga, magistral ichimlik suvi va tabiiy gaz tarmoqlarini qurish bo‘yicha aniq maqsadli davlat dasturlarining amalga oshirilishi ham muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. 1991–2009-yillarda 54 ming kilometrdan ziyod, shu jumladan, qishloq joylarda 47,9 ming kilometrlik suv tarmoqlari va ichimlik suvi quvur-

lari, 74 ming kilometr dan ortiq, shu jumladan, qishloq joylarda 67,6 ming kilometrlik gaz tarmoqlari qurilib, ishga tushirildi.

2011–2016-yillarda namunaviy loyihalar asosida zamonaviy muhandislik va transport infratuzilmasi, ijtimoiy obyektlarga ega bo'lgan turarjoy massivlari qariyb 42,0 ming yakka tartibdagi uy-joy bilan birgalikda barpo etildi.

## **24.5. Ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlari**

O'zbekistonda bozor munosabatlarini qaror toptirish va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shu sababli davlat ijtimoiy siyosatning ta'sirchan va samarali vositalarini qo'llab kelmoqda.

Mustaqillik yillarida ijtimoiy soha va aholi ijtimoiy muhofazasi uchun yo'naltirilgan davlat xarajatlari 5 barobardan ziyod oshdi. Har yili Davlat budjeti xarajatlarining yarmidan ortig'i ijtimoiy sohaga yo'naltirilmoqda. O'zbekistonda har yili ta'lim sohasiga ajratilayotgan xarajatlar yalpi ichki mahsulotning 10–12 foizini tashkil etmoqda, dunyo amaliyotida esa bu ko'rsatkich 3–5 foizdan oshmaydi.

Ijtimoiy siyosat – bu davlatning aholi turmush darajasini oshirish uchun mehnat bozorini shakllantirish va rivojlantirish, aholining samarali bandligini ta'minlash, narx va daromadlar siyosati, ijtimoiy yordam, ijtimoiy sug'urta, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohalarida amalga oshiradigan chora-tadbirlar tizimidir.

O'zbekistonda ijtimoiy siyosatning huquqiy asoslari rivojlantirilgan. 1993-yil 3-sentabrda «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi, «Ta'lim to'g'risida»gi qonunlari, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, O'zbekiston Respublikasi

Prezidentning 1994-yil 23-avgustda «Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 24-avgustdagi 434-sonli «Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishni tashkil etish masalalari to'g'risida»gi, 1996-yil 10-dekabrda 437-sonli «Bolali oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari, har yili daromadlarni indeksatsiya qilishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida»gi farmonlari, «O'zbekiston Respublikasi aholisini 2010-yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan ijtimoiy himoya tizimining yagona konsepsiyasi» va boshqa hujjatlar shular jumlasidan.

O'zbekistonda ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda manzillilik tamoyilidan foydalanilmoqda. Bu o'z-o'zini boshqarish organlari tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy yordam, mahalliy va davlat budjeti mablag'laridan muhtoj oilalarga ajratilishini samarali tashkil etish imkonini bermoqda. Respublikada amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatning o'ziga xos xususiyatlari ijtimoiy kafolatlar mavjudligi, ijtimoiy himoyani amalga oshirishda oila va mahallaning asosiy bo'g'in sifatida e'tirof etilganligi, aholini ijtimoiy himoya qilishda aniq maqsadli yo'naltirilgan usullardan foydalanishda namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishlari ijtimoiy himoya va ijtimoiy ta'minot hisoblanadi.

Ijtimoiy himoya mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta'minlaydigan va jamiyatda qaror topgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy chora-tadbirlar majmuasi bo'lib, tor ma'noda davlat va jamiyatning yoshi, salomatligi holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan yetarli ta'minlanmagani

tufayli yordamga va ko‘makka muhtoj fuqarolari to‘g‘risidagi g‘amxo‘rligini bildiradi.

Ijtimoiy himoyaning asosiy maqsadi aholi farovonligining uzluksiz yaxshilanishini ta‘minlash, aholi qatlamlarining ta‘lim, madaniyat, kasb malakasi, daromadlari jihatidan keskin tafovutlariga barham berish, jamiyat tomonidan insonga munosib hayot darajasini va inson taraqqiyotini ta‘minlashga yordam berishdan iborat. Ijtimoiy himoyaning asosiy yo‘nalishlari quyidagilar:

- erkin ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat ko‘rsatishni ta‘minlash;
- ish bilan bandlik, kasb tanlash, o‘qish va bilim olish, daromadlarning kafolatlanishi;
- har bir fuqaroning o‘z iqtisodiy faoliyatida daromadga ega bo‘lishi;
- iste‘molchilar jamiyatlarining faoliyati orqali iste‘molchilar himoyasini ta‘minlash;
- tovar va xizmatlar sifati iste‘molining kafolatini ta‘minlash;
- aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish;
- ijtimoiy ta‘minot tizimi va aholining muhtoj, kam ta‘minlangan qismlariga pensiyalar, nafaqalar, turli xil imtiyozlar berish.

Ijtimoiy ta‘minot keksaygan, mehnatga layoqatsiz bo‘lgan va boquvchisini yo‘qotgan fuqarolarga moddiy, tibbiy va ijtimoiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha davlat tomonidan belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar tizimidir. U ijtimoiy himoyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ijtimoiy ta‘minot to‘g‘ridan to‘g‘ri davlat budjetidan ajratiladigan mablag‘lar, homiylik mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi. Pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar to‘lovlari ijtimoiy ta‘minotning muhim turlaridir. Qariyalar va nogironlarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish, muhtojlarni protez-ortopediya va

harakatlanish vositalari bilan ta'minlash, nogiron bolalarni kasbga o'qitish va ishga joylashtirishda yordam berish, pensionerlarni sanatoriy va dam olish uylarida sog'lomlashtirish, ularga shahar jamoat transportida foydalanishda, turarjoy, maishiy xizmat va soliqlarga aloqador imtiyozlar berish ijtimoiy ta'minotda katta rol o'ynaydi.

Bugungi kunda qariyb 1,4 mln. nafar pensioner va nogironlar 18 turdagi imtiyozlardan foydalanishmoqda. Ijtimoiy ta'minot tizimi O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan boshqariladi. Bugungi kunda vazirlikning mahalliy hokimiyatlardagi boshqarmalari, tuman bo'limlari, 40 dan ziyod muruvvat va qariyalar uylari, pansionat va sanatoriylari, 10 dan oshiq sog'lomlashtirish markazlari faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston sharoitida kam ta'minlangan aholiga ko'rsatilayotgan ijtimoiy yordam dasturlarining samaradorligi davlat ijtimoiy yordamining aniq yo'naltirilganligini kuchaytirish va aholining mehnatga layoqatli qismining boqimandaligiga yo'l qo'ymaslik orqali ta'minlanmoqda. Shuningdek, mahalla qo'mitalari javobgarligi oshirilishi va huquqlarini kengaytirish asosida ijtimoiy yordam ko'rsatilishining aniq manzilliligini ta'minlashga, davlatning ijtimoiy funksiyasini kuchaytirishga, ko'p bolali oilalarga ijtimoiy yordamni oila nafaqasi sifatida to'lanishini ta'minlashga ham erishilmoqda.

Respublikamizda oila, onalik va bolalikni muhofaza qilish, fuqarolarning huquqiy manfaatini oshirish, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash, uy mehnati va madaniy-maishiy turmush sharoitini yaxshilash, oilaning ma'naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirish, ko'p bolali, kam ta'minlangan, nochor oilalarni, nogironlarni, qarovchisiz keksalar, yolg'izlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, oilada ma'naviy va jismoniy

barkamol shaxsni shakllantirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirildi.

Mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoyalashda ayollar, bolalar, keksalar va oilaga alohida e'tibor ko'rsatilmoqda. Bu 1998-yil «Oila yili», 1999-yil «Ayollar yili», 2000-yil «Sog'lom avlod yili», 2001-yil «Onalar va bolalar yili», 2002-yil «Qariyalarni qadrlash yili», 2004-yil «Mehr va muruvvat yili», 2005-yil «Sihat va salomatlik yili», 2010-yil «Barkamol avlod yili», 2012-yil «Mustahkam oila yili», 2013-yil «Obod turmush yili», 2015-yil «Keksalarni e'zozlash yili», 2016-yil «Sog'lom ona va bola yili», 2017-yil «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili» deb e'lon qilinganligida o'z aksini topadi.

### **Qisqacha xulosalar**

1. Ijtimoiy sohalar aholining turmush sharoiti, hayot kechirishi va turmush darajasini yaxshilash bilan bevosita bog'liq bo'lgan sohalar hisoblanadi. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etish davrida ijtimoiy sohani davlat qo'llab-quvvatlaydi. Shu bilan aholi turmush darajasining keskin pasayib ketishining oldi olinadi.

2. Aholi turmush darajasi davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosati samaradorligini baholashning eng muhim mezonidir. Uni oshirib borish ijtimoiy rivojlanishning asosiy maqsadidir. Turmush darajasi deganda, aholining zaruriy moddiy-nomoddiy ne'matlar va xizmatlar bilan ta'minlanganlik hamda ularni iste'mol qilish darajasi tushuniladi.

3. Bozor munosabatlariga o'tish davrida O'zbekistonda yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga javob beradigan turmush darajasi konsepsiyasini yaratishda jahon amaliyotida keng qo'llanilayotgan «turmush sifati» konsepsiyasining ayrim qoidalaridan foydalanildi.

4. O‘zbekistonda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan iqtisodiy o‘zgarishlar aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha ko‘rsatkichlar va turmush darajasining muntazam oshib borayotganida namoyon bo‘lmoqda.

5. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanib borishi aholining yalpi xarajatlari tarkibida yangi yo‘nalish – tadbirkorlik faoliyati uchun xarajatlar yo‘nalishi paydo bo‘lishiga olib keldi. Bu – oila xo‘jaligining asosiy kapital uchun mablag‘ jamg‘arishining samarali shakli bo‘lib, xususiy mulk asosida o‘z daromadlarini shakllantirish va ko‘paytirishni bildiradi.

6. Ijtimoiy infratuzilmaning barqaror rivojlanishi aholi turmush sifati yuksalishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Ta‘lim, sog‘liqni saqlash sohalari va uy-joy siyosatida amalga oshirilgan islohotlar natijasida O‘zbekistonda ijtimoiy infratuzilmaning barqaror faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishi ta‘minlandi.

7. O‘zbekistonda bozor munosabatlarini qaror toptirish va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlashda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etish ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Shu sababli davlat ijtimoiy siyosatning ta‘sirchan va samarali vositalarini qo‘llab kelmoqda.

### **Asosiy atamalar va tushunchalar**

Ijtimoiy soha, aholining turmush sharoiti, aholining turmush darajasi, aholining turmush sifati, insonning rivojlanish indeksi, aholining yalpi daromadlari, aholining yalpi xarajatlari, oila xo‘jaligi, oila budjeti, ijtimoiy infratuzilma, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy ta‘minot, ijtimoiy himoya.

### **Nazorat savollari**

1. Aholining turmush sharoiti, hayot kechirishi va turmush darajasini yaxshilash qaysi sohalar faoliyatiga bevosita bog‘liq?

2. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining asosiy belgilarini ko'rsating.

3. Aholi turmush darajasi va davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosati o'rtasida qanday bog'liqlik bor? Fikringizni asoslang.

4. O'zbekistonda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijalari aholi turmush darajasi oshishida qanday aks etmoqda?

5. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanib borishi aholining turmush darajasiga qanday ta'sir ko'rsatmoqda?

6. Oila xo'jaligi nima? Oila xo'jaligining aholi daromadlarini shakllantirish va ko'paytirishdagi ahamiyati qanday?

7. Ijtimoiy infratuzilmaning barqaror rivojlanishi aholi turmush sifati yuksalishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mazkur fikrni asoslang.

8. O'zbekistonda bozor munosabatlarini qaror toptirish va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda kuchli ijtimoiy siyosatning o'rni va roliga baho bering.

9. Davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo'nalishlarini ko'rsating. Ularni ahamiyatiga ko'ra tavsiflang.



---

## XXV b o b

# O‘ZBEKISTON JAHON IQTISODIYOTI TIZIMIDA

### 25.1. O‘zbekistonning ochiq iqtisodiyotga o‘tishi

Iqtisodiyotning ochiqligi, odatda, tashqi savdoning YaIMga nisbati, ya’ni YaIMning tashqi savdoga bog‘liqlik koeffitsiyenti deb ataladigan ko‘rsatkich bilan belgilanadi. Bu haqida Nobel mukofoti laureati J. Stiglits shunday yozadi: «Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlarning o‘sishi iqtisodiyotning bir qator ochiqlik ko‘rsatkichlari – tashqi savdoning YaIMga nisbati, import tariflarining o‘rtacha darajasiga bog‘liq».

Osiyodagi yirik va yangi industrial mamlakatlar o‘z milliy xo‘jaliklarining ochiqlik darajasini oshirgandan keyingina jiddiy iqtisodiy o‘shishga erisha boshladilar. Islohotdan oldin, misol uchun, Xitoyning tashqi savdo hajmi mamlakat YaIM ning 9,5 foizini tashkil etar edi. Mamlakatning keyingi 30 yillik rivojlanishi davomida YaIMning o‘rtacha yillik o‘shish sur‘ati 9,9 foiz bo‘lsa, xalqaro savdosi yiliga 16,3 foizga o‘sdi. Shunday qilib, Xitoyning tashqi savdoga bog‘liqlik koeffitsiyenti 1978-yildagi 9,5 foizdan 2010-yilga kelib 60 foizdan oshib ketdi. O‘zbekistonda YaIM (xarid qobiliyati pariteti bo‘yicha) 1990–2010-yillar mobaynida 3,4 marotabaga o‘sgan bo‘lsa, tashqi savdo aylanmasi bu yillar ichida 27,1 martaga o‘sdi. Shundan eksportning o‘sishi 29,5, importniki 24,2 martani tashkil etdi. Tashqi savdo ijobiy saldosining o‘sishi 53 martaga oshib, mamlakat oltin-valuta zaxiralarining ishonchli o‘shishini, milliy valutaning barqarorligini ta’minladi.

Endi taraqqiyot yo‘liga kirgan yosh suveren rivojlanayotgan mamlakatlar dastlab import o‘rnini bosishga qaratilgan strategiyani tanlaydilar. Bu siyosatning asosiy xususiyati shundaki, bunda milliy iqtisodiyotni industrlashtirish importni cheklash vositasida amalga oshiriladi. Importga turli tarif va notarif usullar vositasida to‘siqlar qo‘yiladi. Bunda ko‘zda tutiladigan asosiy maqsad milliy korxonalarini xorijiy korxonalar tomonidan ko‘rsatiladigan turli raqobatdan himoya qilish va jahon bozorida raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ygunicha «oyoqqa turib olishi»ga yordam ko‘rsatishdan iborat.

Milliy iqtisodiyotni barpo etishning ilk bosqichida sanoat ishlab chiqarish xarajatlarining yuqoriligi tufayli katta tajribaga ega xorij mamlakatlari korxonalarini bilan raqobatlashishi qiyin. Shu sababli milliy ishlab chiqaruvchilar yangi sanoat tarmoqlariga o‘z kapitalini sarflamaydi. Shuni hisobga olib, davlat ularni qo‘llab-quvvatlashi va turli savdo cheklovlarini joriy etish orqali milliy sanoatchilarga qulay shart-sharoit yaratib berishi lozim. Milliy ishlab chiqaruvchilar «oyoqqa turib olganidan» so‘ng, tashqi bozorda raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqara boshlaydi. Shundan keyingina bunday cheklovlarni olib tashlash mumkin bo‘ladi.

Importni cheklashning eng keng tarqalgan usullari jumlasiga valuta nazorati, importni litsenziyalash, yuqori bojxona tariflari o‘rnatish va boshqalarni kiritish mumkin.

Aslida sof import o‘rnini bosish siyosati bo‘lmaganidek, sof eksportga yo‘naltirilganlik siyosati ham uchramaydi. Ular hamisha bir-birini to‘ldiradi, chunki eksportga yo‘naltirilgan tashqi savdo siyosatining ham maqsadi mamlakat iqtisodiyotini industrlashtirish, modernizatsiyalashdan iborat. Biroq bunga tashqi savdo cheklovlari va importni diskriminatsiyalash yordamida importni milliy ishlab chiqarish bilan almashtirish vosi-

tasida emas, balki iqtisodiyotning ochiqlik darajasini oshirish, tashqi savdoni erkinlashtirish va mamlakat eksport salohiyatini oshirish yo‘li bilan erishiladi. O‘zbekistonning huddi ana shu yo‘ldan borayotganligi xarakterlidir. Eksportga yo‘naltirilgan savdo strategiyasining import o‘rnini bosuvchi savdo strategiyasidan prinsipial farqli jihati uning ochiq iqtisodiyot tamoyillariga amal qilishidir.

Eksportni rag‘batlantirish siyosati ishlab chiqarish va eksport tarkibini diversifikatsiyalash va shundan kelib chiqqan holda aholi turmush farovonligini oshirishning muhim omili bo‘lib xizmat qiladi. Eksportni rag‘batlantirish siyosati orqali xomashyoni eksport qiluvchilardan tayyor mahsulotlarni eksport qiluvchiga aylanish va jahon xo‘jalik tizimida o‘zining munosib o‘rnini egallashi mumkin. Bugungi kunda O‘zbekiston eksportida tayyor mahsulotlarning hissasi tobora ortib bormoqda.

Agar import o‘rnini bosuvchi savdo siyosatini tanlagan mamlakatlarda uzoq istiqbolda 1,6 foiz iqtisodiy o‘sishga erishilgan bo‘lsa, eksportga yo‘naltirilgan savdo siyosatini qo‘llagan davlatlarda bu ko‘rsatkich 6–7 foizni tashkil etdi. Investitsiyalardan olingan samara import o‘rnini bosuvchi siyosatni tanlagan mamlakatlarga nisbatan 2 baravar yuqori bo‘ldi.

Shu bois ham bugungi kunda eksportga yo‘naltirilgan tashqi iqtisodiy siyosatning afzalligi ko‘pchilik tomonidan tan olingan. Bu siyosat milliy iqtisodiyotning ochiqligini ta‘minlashda, global iqtisodiyotga integratsiyalashuvda muhim ahamiyatga ega. 2008–2009-yillarda boshlangan global moliyaviy-iqtisodiy inqirozdan chiqish yo‘llaridan biri sifatida proteksionizm siyosatiga barham berish ko‘rsatilayotgani ham tasodif emas.

## 25.2. O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyati

Davrimizning muhim xususiyatlaridan biri jahon xo‘jalik tizimida globallasuv va xo‘jalik faoliyati baynalmilallashuvining kuchayib borishidir. Bu sharoitda iqtisodiy faoliyat milliy xo‘jalikning tarkibiy qismiga aylanmoqda. O‘zbekistonda barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash ko‘p jihatdan uning jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuviga, mamlakat eksport salohiyatini oshirishga bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Tashqi savdoni erkinlashtirish milliy iqtisodiyot ochiqlik darajasining o‘shishiga, ishlab chiqarish samaradorligining oshishiga va raqobatbardoshlikning kuchayishiga, mamlakat eksport salohiyatini oshirishning ichki imkoniyatlarini kuchaytirishga yordam beradi.

Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi jahon xo‘jalik tizimiga integratsiyalashish bilan bog‘liq masalalarni hal etishga katta e‘tibor qaratmoqda. Mamlakatimiz bugun deyarli barcha xalqaro iqtisodiy tashkilotlar faoliyatida keng ishtirok etmoqda. O‘zbekiston BMTning iqtisodiy muassasalari, Jahon banki, Xalqaro valuta fondi, Xalqaro moliya Korporatsiyasi, Xalqaro mehnat tashkiloti kabi xalqaro moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlarning faol a‘zosi. Mustaqillik yillarida tashqi iqtisodiy faoliyatning barcha unsurlari yangidan tashkil etildi. Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar Milliy banki ana shular jumlasidan.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning huquqiy asoslarini yaratish bo‘yicha qator tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, «Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida», «Xorijiy investitsiyalar to‘g‘risida», «Xorijiy investorlarning huquqlarini kafolatlash va himoya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning ko‘lami faqat tashqi savdo, tovar va xizmatlarni ayirboshlash, ya’ni eksport va import operatsiyalari bilan cheklanmaydi. Keyingi paytlarda mamlakatlar o‘rtasida kapital harakati, valuta munosabatlari, ishchi kuchi migratsiyasi, ilmiy-texnika ayirboshlashi katta ahamiyat kasb etmoqda. Ko‘plab qo‘shma korxonalar, erkin iqtisodiy zonalar, transmilliy korporatsiyalar tuzilmoqda.

Ingliz klassik siyosiy iqtisod asoschilaridan biri David Rikardo asoslab bergan qiyosiy ustunlik qoidasiga binoan, alohida sharoitlarning mavjudligi, xususan, qulay geografik joylashuv, noyob tabiiy va mehnat resurslari ayrim mamlakatlarga tovar va xizmatlarning alohida turlarini ishlab chiqarishda muayyan ustunliklar beradi. Mamlakatlar o‘z qiyosiy ustunliklaridan foydalanib ayrim tovar va xizmat turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashadi. O‘zbekiston Respublikasi ham o‘z qiyosiy ustunligi va afzalliklaridan foydalanib tashqi savdo aylanmasini yildan yilga yuksaltirib bormoqda.

**O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi  
(mln. dollar)**

Yillar	2000	2010	2015	2016	O‘shish, marta
Tashqi savdo aylanmasi	6212,1	21 842,2	25286,1	24309,4	3,9
Shundan:					
Eksport	3264,7	13 044,5	12870,6	12178,7	3,7
Import	2947,4	8799,7	12415,5	12130,7	4,71
Saldo	317,3	4244,8	455,1	48	–

Jadval malumotlaridan ko‘rinib turibdiki, o‘tgan davr mo‘baynida mamlakatimiz tashqi savdo aylanmasi to‘rt yarim barobar o‘sdi. Eksport va importning o‘shish sur‘atlari ham shunga

yaqin keladi. Qator yillardan buyon O‘zbekistonda faol tashqi savdo balansi shakllanib keladi: eksport hajmi import hajmidan ko‘proqni tashkil etadi.

Keyingi yillardan eksport va import operatsiyalari tarkibi ham takomillashib bormoqda.

#### O‘zbekiston Respublikasi eksporti tarkibi, (foizda)

Yillar	2000	2010	2015	2016
Paxta tolasi	27,5	11,3	5,7	5,2
Oziq-ovqat mahsulotlari	5,4	9,7	10,2	5,7
Kimyo mahsulotlari va ulardan buyumlar	2,9	5,1	4,8	6,9
Energiya tashuvchilar va neft mahsulotlari	10,3	22,8	25,9	14,1
Qora va rangli metallar	6,6	6,9	6,4	5,8
Mashina va asbob-uskunalar	3,4	5,5	1,2	1,8
Xizmatlar	13,7	10,2	24,5	26,3
Boshqalar	30,2	27,7	21,3	34,2

Mustaqillikkacha mamlakatdan xomashyo chiqarilib, tayyor mahsulot, asosan, iste‘mol tovarlari olib kelinar edi. O‘zbekiston bugun yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan tayyor mahsulot eksport qilish yo‘lidan borib, ustun darajada yuqori texnologiyali milliy ishlab chiqarishni texnik va texnologik modernizatsiyalashga mo‘ljallangan asbob-uskunalar import qiladigan mamlakatga aylanmoqda. Ammo eksportda energiya tashuvchilar va neft mahsulotlarining ulushi keyingi 14 yil ichida 2,5 martaga o‘sib, hozir uning to‘rtidan bir qismidan ko‘prog‘ini tashkil etmoqdaki, bu holat hali butunlay xomashyoga asoslangan eksportdan qutula olmaganimizni bildiradi. Paxta tolasining eksportdagi ulushi muttasil kamayib bormoqdaki, bu yaxshi tendensiya hisoblanadi.

Yengil avtomobillar, mineral o'g'itlar, paxta ip kalavasi, trikotaj, sabzavot va poliz mahsulotlari eksporti o'smoqda. Kichik biznesning eksportdagi o'rni sezilarli o'zgarimoqda.

Import tarkibida oziq-ovqat tovarlari ulushi borgan sari kamayib bormoqda.

#### O'zbekiston Respublikasi importi tarkibi, (foizda)

Yillar	2000	2010	2015	2016
Mashina va asbob-uskunalar	35,4	44,1	40,5	41,4
Kimyo mahsulotlari va ulardan buyumlar	13,6	14,3	17,0	17,5
Energiya tashuvchilar va neft mahsulotlari	3,8	6,0	5,8	4,8
Qora va rangli metallar	8,6	8,4	7,4	7,6
Oziq-ovqat mahsulotlari	12,3	10,9	12,8	11,9
Xizmatlar	8,5	4,7	7,7	6,6
Boshqalar	17,8	11,6	8,8	10,2

Mamlakat importida mashina va asbob-uskunalarining ulushi 45 foizdan oshib ketdi. Bu holat ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va yuqori texnologiyali innovatsion iqtisodiyotga o'tishda zarurat bo'lib hisoblanadi. Don, go'sht, sut va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini, qayta ishlangan qishloq xo'jalik mahsulotlarini, alkogolli va alkogolsiz ichimliklarni, gilam va poyandozlar, trikotaj, tayyor kiyim va poyabzal import qilish sezilarli darajada pasayib bormoqda.

Eksport tarkibini diversifikatsiyalash, eksport tarkibida qo'shilgan qiymat darajasi yuqori bo'lgan tovarlar ulushini oshirish mamlakat oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Gap shundaki, eksport qilinadigan xomashyoning ko'pchilik turlari, masalan, oltin, mis, neft, ko'mir va gaz tiklanmaydigan va cheklangan resurslar guruhiga kiradi. Qishloq xo'jaligi xomashyosi, jumladan, paxta tolasi eksportiga keladigan bo'lsak,

uning ob-havo sharoitiga bog‘liqligi va tashqi bozorda narxlar tebranish darajasining yuqoriligi natijasida undan keladigan daromadlarning beqarorligini ham aytib o‘tish joiz. Buning ustiga O‘zbekistonda dehqonchilik yer va suv resurslariga bog‘liq. Ularning zaxiralari esa cheklangan.

Tashqi savdo geografiyasi ham diversifikatsiyalashib bormoqda. 2016-yilda mamlakatimiz tashqi savdo aylanmasida boshqa xorij mamlakatlarining ulushi 65,2 foizni, MDH mamlakatlarining ulushi esa 34,8 foizni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich 2000-yilda mos ravishda 63 foiz va 37 foizni tashkil etgan edi. 2016-yilda O‘zbekiston eksportining 36,7 foizi MDH mamlakatlariga to‘g‘ri keldi. MDH doirasida asosiy savdo hamkorlarimiz Rossiya va Qozog‘iston hisoblanadi.

O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar, MDH mamlakatlaridan tashqari, ko‘proq Xitoy, Turkiya, Eron, Janubiy Koreya kabi davlatlarga eksport qilinadi. Boshqa xorij davlatlaridan import qilinayotgan tovar va xizmatlar, asosan, Xitoy, Janubiy Koreya, Turkiya, Germaniya, AQSH va Italiya hissasiga to‘g‘ri keladi.

2017-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra O‘zbekistonda chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarining soni 5008 taga yetdi. Ularda 200 mingga yaqin kishi band. Bu turdagi korxonalarining 50 foizga yaqini sanoat sohasida faoliyat ko‘rsatmoqda.

### **25.3. O‘zbekistonning xalqaro integratsion jarayonlarda ishtiroki**

Jahon xo‘jaligi rivojlanishining hozirgi davrdagi asosiy tendensiyalaridan biri – globallashuvdir. Ilgari milliy xo‘jaliklar o‘rtasidagi munosabatlar ko‘proq mintaqaviy tashkilotlar va davlatlararo ikki tomonlama shartnomalar asosida rivojlangan bo‘lsa, iqtisodiyotning umumbashariy tus olishi natijasida bu



jarayon yanada chuqurlashib, mamlakatlar iqtisodiyotining o‘zaro bog‘liqligi ortib bormoqda. Globallashuv jarayonini kuchaytiradigan muhim mexanizmlardan biri, hududiy (mintaqaviy) integratsiyadir.

Mamlakatlarning geografik joylashuvi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, mentalitet, din, tarix va til yaqinligi va shu kabi boshqa omillar integratsion jarayonlar samaradorligiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu jihatdan xalqaro darajada integratsiyalashayotgan mamlakatlar, avvalo, mintaqaviy integratsiyalashuvni ustun rivojlantirib boradilar. Bunga YeI, NAFTA, ACEAN, MDH va boshqalarni misol qilib ko‘rsatish mumkin.

Mamlakatlarning mintqa miqyosida integratsiyalashuvi orqali xalqaro integratsiya rivojlanib borishi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratib boriladi. Chunki mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro savdo mintaqaviy integratsiyaning rivoji uchun asos bo‘lgani singari, mintaqaviy integratsiya ham xalqaro integratsiya rivojlanishi uchun xizmat qiladi, muhim bosqich vazifasini bajaradi.

Mintaqaviy doirada integratsiyalashayotgan mamlakatlar, avvalo, o‘zaro tashqi savdoni cheklashga qaratilgan kvota kabi to‘siqlarni bartaraf qiladilar. Shundan so‘ng, yagona bojxona tizimi shakllanadi, mintaqaviy integratsiyaga a‘zo mamlakatlardan uchun bir xil boj stavkalari joriy etilib, uning to‘la amal qilishiga erishadilar. Bu jarayon mamlakatlardagi ishlab chiqarishning rivojlanishini yanada rag‘batlantirish uchun, soliq tizimidagi imtiyoz va cheklovlarni bekor qilish maqsadida, integratsion hududga kiruvchi davlatlarga soliq stavkalarining yaqinlashtirilishini ham taqozo etadi.

Bojxona bojlari va soliq stavkalarining yaqinlashtirilishi yoki tenglashtirilishi hududiy doirada ishlab chiqarishni rag‘batlantirib, miqyos samarasiga olib keladi. Bu jarayonlarning samaradorligini yanada oshirish maqsadida

integratsion birlashma, ittifoq doirasida institutsional mexanizmlar shakllantiriladi va rivojlantiriladi. Integratsion tuzilmalarning bosqichma-bosqich rivojlanib borishi milliy iqtisodiyotlarning tub xo‘jalik manfaatlariga to‘la javob berishi va milliy davlatchilik asoslariga zid bo‘lmasligi kerak.

Fan-texnika taraqqiyoti natijasida xalqaro mehnat taqsimoti va iqtisoslashuvining chuqurlashuvi mamlakatlar o‘rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga, bir hududda joylashgan mamlakatlar o‘rtasida integratsion aloqalarning faollashuviga olib kelmoqda. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, hududiy integratsiya tashkilotlariga a‘zo mamlakatlarning globallashuv sharoitlariga moslashuvi, xalqaro mehnat taqsimoti imkoniyatlaridan foydalanishi samarali kechmoqda. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasi turli xalqaro va hududiy integratsion tashkilotlar faoliyatida ishtirok etishi orqali mavjud tabiiy-iqtisodiy, mehnat va moliyaviy resurslardan, xalqaro mehnat taqsimoti imkoniyatlaridan samarali foydalanishga, jahon xo‘jalik tizimida o‘ziga xos o‘rin egallashga harakat qilmoqda. O‘zbekiston MDH, MOHT, SHHT, IHT kabi xalqaro va hududiy integratsiya tashkilotlarining faol a‘zosisdir. Bu, o‘z navbatida, dolzarb hisoblangan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

#### **25.4. O‘zbekiston va Markaziy Osiyo**

O‘zbekiston uchun Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan o‘zaro hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish alohida ahamiyatga ega, chunki ko‘p yillik tarixiy rivojlanish davomida Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida mustahkam hamkorlik munosabatlari shakllangan. Mamlakatlar iqtisodiyoti asosiy tarmoqlarining o‘xshashligi, ularning yaxlit hududiy birlikka ega ekanligi, suv va energetika manbalarining yagonaligi va

ulardan birgalikda foydalanish zarurati, yagona transport va kommunikatsiya tizimining mavjudligi, ekologik muammolarining o'xshashligi mintaqa respublikalari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning doimiy bo'lishini ta'minlaydi. Mintaqa xalqlarining diniy, madaniy, til, urf-odat, an'ana va ma'naviy-psixologik birligi esa hamkorlik aloqalarining yanada chuqurroq va har tomonlama bo'lishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunga kelib iqtisodiyotda bozor munosabatlarini yanada chuqurlashtirish va jahon xo'jalik tizimida munosib o'rinni egallash masalasi Markaziy Osiyo mamlakatlarining iqtisodiy, ma'naviy va intellektual salohiyatlarini birlashtirishni taqozo qilmoqda.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq Markaziy Osiyo respublikalari davlat rahbarlari tomonidan o'zaro hamkorlik munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar amalga oshirildi. O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston o'rtasida 1994-yil aprelda yagona iqtisodiy hududni barpo etish to'g'risidagi shartnomaning imzolinishi bu borada qo'yilgan jiddiy amaliy qadam bo'ldi. Shartnoma tovarlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchining mintaqa bo'ylab erkin harakatini ta'minlashi, kelishilgan soliq, budjet, narx, bojxona va valuta siyosatini yuritishga xizmat qilishi lozim edi. 1996-yil 5-aprelda yoqilg'i-energetika va suv resurslaridan birgalikda foydalanish, mintaqada gaz quvurlarini qurish to'g'risidagi bitim imzolandi. 1998-yil 26-martda Tojikiston yagona iqtisodiy hudud to'g'risidagi shartnomaning to'laqonli a'zosiga aylandi.

O'sha yili ushbu «to'rtlik», «Markaziy Osiyo iqtisodiy hamdo'stligi» tashkilotiga asos soldilar. Bu tashkilot doirasidagi vazifalarni hal etish uchun Davlatlararo Kengash, Bosh vazirlar, tashqi ishlar vazirlari, mudofaa vazirlari Kengashi, tashkilotning ichki organi – Ijroiya qo'mita kabi institutsional

tuzilmalar tashkil etildi. A'zo davlatlarning ulushlari hisobiga Markaziy Osiyo banki barpo etildi.

Mintaqaviy integratsiya mexanizmlarini tashkillashtirish, mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash bo'yicha birgalikdagi harakatlarni muvofiqlashtirish maqsadida 2002-yil 28-fevralda «Markaziy Osiyo iqtisodiy hamdo'stligi» tashkilotini «Markaziy Osiyo hamkorligi tashkiloti (MOHT)»ga aylantirish to'g'risidagi shartnoma imzolandi. MOHT keng ko'lamdagi masalalarni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan mintaqaviy forumga aylandi.

Ma'lumki, muayyan hududda integratsion jarayonlar amalga oshayotganligini, mamlakatlararo iqtisodiy aloqalarning intensivligini ko'rsatadigan ikkita muhim ko'rsatkich mavjud:

Birinchisi – mamlakatlar o'zaro tashqi savdo aylanmasi hajmi, ikkinchisi – o'zaro tovar aylanmasining mamlakatlar yalpi ichki mahsulotidagi ulushi. Bu ko'rsatkichlar mamlakatlarning bir-biriga nisbatan ochiqlik darajasini yoki bo'lmasa, mamlakatlarning bir-biriga bog'liqlik darajasini ifodalaydi.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari bilan o'zaro tashqi savdo aylanmasi global iqtisodiy jarayonlar sharoitida o'zgarib bormoqda. Masalan, mintaqa davlatlarining mamlakatimiz jami eksport hajmidagi ulushi 2005-yilda 8,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2016-yilga kelib 12,0 foizga teng bo'ldi. Shuningdek, mintaqa davlatlarining mamlakatimiz jami import hajmidagi ulushi 2005-yilda 8,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2016-yilga kelib 9,2 foizga teng bo'ldi.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarida Turkmaniston sezilarli rol o'ynaydi. Ammo Tojikiston va Qirg'iziston bilan savdo-iqtisodiy aloqalarning ko'lami kichkina hisoblanadi. Bu mintaqa mamlakat-

lari o‘zaro bozor aloqalarini jadallashtirishi lozimligini ham bildiradi. Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘zaro bir-birlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishdan sezilarli manfaat ko‘radi.

Birinchiidan, respublikamizning geografik joylashuvi, suv yo‘llaridan uzoqlik, uzoq xorij mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarda transport xarajatlari bilan bog‘liq muammoni keltirib chiqaradi. Bu esa, tovar tannarxi va uning raqobatbardoshlik darajasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Qo‘shni mamlakatlar bilan savdo aloqalarini, ayniqsa, chegaraoldi savdo-sotig‘ini rivojlantirish esa katta transport xarajatlarini talab qilmaydi. Buning ustiga, tashqi savdoda preferensial imtiyozlarni ham hisobga oladigan bo‘lsak, samara yanada yuqori bo‘ladi.

Ikkinchiidan, mintaqa mamlakatlarida bir turdagi tovarlarni katta miqdorda ishlab chiqarish imkoniyatlari mavjud. Gaz, neft, ko‘mir, oltin, paxta, meva, sabzavot mintaqadagi davlatlarning deyarli barchasida ishlab chiqariladi. Ana shu tarmoqlarda mahsulot miqdori va sifatini belgilash bo‘yicha kelishuvlarga erishish, bu mahsulotlarni qayta ishlash va eksport qilish bo‘yicha yagona siyosatni yuritish katta foyda beradi. Agar mintaqa mamlakatlari tashqi bozorga alohida-alohida chiqsalar, ular o‘zaro raqobatchilarga aylanadilar. Ularning birgalikda tashqi bozorga chiqishi mamlakatlar iqtisodiyotining tashqi bozor konyunkturasiga bog‘liqligini pasaytiradi va tovarlar raqobatbardoshligini oshiradi.

Uchinchiidan, savdo aloqalarining rivojlanishi mintaqadagi boshqa integratsion aloqalarga asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bu jarayonlar bosqichma-bosqich erkin savdo zonalarini, bojxona ittifoqlari, umumiy bozor va yagona iqtisodiy hudud shakllanishiga ijobiy ta‘sir o‘tkazishi tayin edi.

To‘rtinchiidan, mintaqa doirasida tovar va xizmatlar, mehnat umumiy bozorlarining shakllanishi, qo‘shma korxonalar, bir-

lashmalar, firmalar tuzish imkoniyatini kengaytiradi, natijada samarali xo‘jalik aloqalari vujudga keladi, o‘zaro ayirboshlash hajmi, mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi oshardi. Afsuski, mintaqaviy integratsiyaning bu afzalliklaridan foydalanish samarasi hali ancha past. Bu borada foydalanilmayotgan imkoniyatlar juda katta.

## 25.5. O‘zbekiston va MDH

1991-yilning dekabr oyida Belarus, Ukraina va Rossiya davlat rahbarlari Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligini barpo etish to‘g‘risidagi bitimni imzoladilar. Bitim sobiq Ittifoqning xalqaro huquq va geosiyosiy tizim sifatida barham topganligini e‘lon qildi. Belarus, Qozog‘iston, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston va Ukraina MDHga a‘zo bo‘lib kirdilar. 1992-yilda Armaniston, Moldova, Qirg‘iziston va O‘zbekiston, 1993-yilda Ozarbayjon va Gruziya MDHga a‘zo bo‘lib kirdilar. MDH – mintaqaviy xalqaro tashkilot. U ilgari SSSR tarkibiga kirgan davlatlar o‘rtasida hamkorlik aloqalarini tartibga solish maqsadida tuzilgan. MDH davlatlarusti tashkiloti emas, u ixtiyoriylik asosida faoliyat ko‘rsatadi. MDH doirasida Iqtisodiy ittifoq, erkin savdo zonasi, to‘lov ittifoqi, davlatlararo iqtisodiy qo‘mita tashkil etish to‘g‘risida shartnoma va bitimlar imzolangan.

Uzoq tarixiy rivojlanish mobaynida yuzaga kelgan aloqalar, ishlab chiqarishning mamlakatlar bo‘yicha ixtisoslashuvi, korxonalar va sohalar darajasidagi keng tarmoqli kooperatsiya, umumiy infratuzilma MDH tashkil etishning obyektiv asosi hisoblanadi.

MDH ulkan tabiiy, mehnat va iqtisodiy salohiyatga ega bo‘lib, ular a‘zo mamlakatlarga yirik raqobat afzalliklarini beradi va jahon iqtisodiyotida munosib o‘rin egallashga imkoniyat yaratadi. Yer shari hududining 16,3 foizi, jahon aholisining

5 foizi, jahon sanoat ishlab chiqarishining 10 foizi Hamdo'stlik mamlakatlariga to'g'ri keladi. MDH hududida xalqaro bozorda talab yuqori hisoblangan tabiiy resurslarning yirik zaxiralari joylashgan. Rossiya, Qozog'iston, Ozarbayjon, O'zbekiston va Turkmanistonda yirik neft va tabiiy gaz zaxiralari bor. Mintaqa mamlakatlarida ko'mir, olmos, oltin, boksit, mis, nikel, kobalt, temir, qo'rg'oshin rudalarining ulkan zaxiralari, eng yirik o'rmon maydonlari mavjud.

Ammo MDH keyingi yillarda amorf birlashmaga aylanib qolmoqda. Ular orasida turli xil ziddiyatlar, siyosiy kelishmovchiliklar va ixtiloflar kelib chiqmoqda. Gruziya va Moldova YeIga assotsiyalashgan a'zo bo'lganidan keyin Hamdo'stlikdan chiqib ketdilar. Turkmaniston MDHning to'laqonli a'zosi emas, balki assotsiyalashgan a'zosi, xolos.

Vaholanki, MDH doirasida xalqaro mehnat taqsimoti imkoniyatlaridan to'la foydalanish, ishlab chiqarish ixtisoslashuvi va kooperatsiyasini rivojlantirish a'zo mamlakatlar aholisi turmush faravonligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilishi mumkin edi. Garchi, MDH doirasida iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish sohasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilayotgan bo'lishiga qaramay, a'zo mamlakatlar iqtisodiyotlarining integratsiyalashuv darajasini yuqori deb bo'lmaydi.

2016-yilda O'zbekistonning MDH doirasidagi tashqi savdo aloqalarida asosiy o'rinlarni Rossiya Federatsiyasi (umumiy eksport hajmidagi ulushi 14,7 foiz, umumiy import hajmidagi ulushi 19,8 foiz) Qozog'iston (umumiy eksport hajmidagi ulushi 7,8 foiz, umumiy import hajmidagi ulushi 8,1 foiz) egalaydi.

MDH mamlakatlariga O'zbekistondan, asosan, oziq-ovqat mahsulotlari, energiya manbalari va neft mahsulotlari, turli xizmatlar hamda mashina va asbob-uskunalar eksport qilinadi. Shuningdek, bu davlatlardan mamlakatimizga mashina va as-

bob-uskunalar, oziq-ovqat mahsulotlari, energiya manbalari va neft mahsulotlari hamda qora va rangli metallar olib kelinadi.

MDH doirasida iqtisodiy integratsiyaga aks ta'sir qilayotgan asosiy muammolardan biri – tashkiliy-huquqiy asos va hamdo'stlikka a'zo mamlakatlar o'zaro harakat mexanizmi-ning takomillashmaganligidir. Institutsional mexanizmlar ham zaif. Shuningdek, a'zo mamlakatlar iqtisodiy salohiyatining turli darajada ekanligi, alohida mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi o'rtasidagi tafovut, milliy qonunchilik hujjatlarining muvofiqlashtirilmaganligi kabilar ham integratsion imkoniyatlarni cheklamoqda.

Erkin savdo zonalarini tashkil etish, to'lov ittifoqini shakllantirish, yagona kommunikatsiya va axborot makonini barpo etish, ilmiy-texnika, texnologik, innovatsiya sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish asosida umumiy iqtisodiy makonni qurish orqali MDH doirasidagi integratsion aloqalarni yanada yuqoriroq darajaga ko'tarish mumkin. Investitsiya salohiyati integratsiyasi, kapital va ishchi kuchi oqimini samarali yo'lga qo'yish ham muhim vazifalardan hisoblanadi.

## **Qisqacha xulosalar**

1. Jahondagi ko'pchilik mamlakatlar milliy xo'jalikning ochiqlik darajasini oshirgandan keyingina jiddiy iqtisodiy o'sishga erisha boshladilar. Iqtisodiyotning ochiqligi, odatda, tashqi savdoning YaIMga nisbati bilan belgilanadi. Jahon moliyaviy inqirozi sharoitida bu siyosatning ahamiyati yanada oshdi. Bu siyosat import va eksportni erkinlashtirish orqali amalga oshiriladi.

2. Tashqi iqtisodiy faoliyat faqat tashqi savdo bilan cheklanmaydi. Keyingi yillarda O'zbekiston va boshqa davlatlar o'rtasida kapital harakati, valuta munosabatlari, ishchi kuchi



migratsiyasi, ilmiy-texnika ayirboshlashi rivojlanmoqda. Ko'p-lab qo'shma korxonalar, erkin iqtisodiy zonalar barpo etilmoqda. TMKlar bilan hamkorlik kuchaymoqda.

3. O'zbekistonning eksport va import tarkibi takomillashib bormoqda. Eksportni diversifikatsiyalash, uning tarkibida qo'shilgan qiymat darajasi yuqori tovarlar hissasini oshirishga katta e'tibor berilmoqda. Import tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ulushi pasayib, mashina va asbob-uskunalarining ulushi ortmoqda.

4. Mintaqaviy integratsion tashkilotlarga birlashgan mamlakatlarning globallashuv jarayoniga moslashuvi birmuncha oson kechib, xalqaro mehnat taqsimoti imkoniyatlaridan foydalanishi samaraliroq kechmoqda. Shu sababli ham O'zbekiston MDH, SHHT, IHT kabi mintaqaviy integratsiya tashkilotlarida faol ishtirok etmoqda.

5. Markaziy Osiyo hamkorligi tashkiloti (MOHT) va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) doirasida iqtisodiy integratsiyani yanada chuqurlashtirish a'zo mamlakatlar uchun katta imkoniyatlarni ochib berishi mumkin edi. Ammo bu imkoniyatlardan bugun to'la foydalanilayotgani yo'q. O'zbekistonning asosiy savdo-iqtisodiy hamkorlari Koreya Respublikasi, XXR, Rossiya va Qozog'iston bo'lib qolmoqda. Rivojlangan mamlakatlar bilan esa, bu boradagi aloqalarimiz hali ancha past darajada va bir tomonlama xarakterga ega (yoki eksport, yoki import bo'yicha).

## **Asosiy atamalar va tushunchalar**

Iqtisodiyotning ochiqligi, tashqi savdo, eksport, import, yangi industrial mamlakatlar, import o'rnini bosadigan ishlab chiqarish, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish, eksportni diversifikatsiyalash, qiyosiy afzallik, proteksionizm, xalqaro

mehnat taqsimoti, tashqi savdoni erkinlashtirish, erkin savdo zonasi, tashqi iqtisodiy faoliyat, mintaqaviy integratsiyalashuv, kvota, litsenziya.

### **Nazorat savollari**

1. Nima uchun mamlakatlar proteksionizmga nisbatan tashqi savdoni erkinlashtirishni afzal ko'radilar?

2. Qiyosiy afzallik nazariyasini birinchi bo'lib kim asoslab bergan va bu nazariyaning mohiyati nimadan iborat?

3. Import o'rmini bosishga qaratilgan va eksportga yo'naltirilgan strategiyalarning farqi, zarurati va afzallik tomonlarini tushuntirib bering.

4. Nima uchun eksport va import tarkibini diversifikatsiyalash lozim?

5. O'zbekiston qaysi nufuzli xalqaro va mintaqaviy iqtisodiy tashkilotlarda faol qatnashmoqda?

6. Jahon savdo tashkiloti (JST)ga a'zo bo'lish O'zbekistonga qanday imkoniyatlar taqdim etadi?

7. O'zbekistonda tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalarni sanab va tavsiflab bera olasizmi?

8. O'zbekistonning mintaqaviy integratsion jarayonlardagi o'rini qanday baholaysiz?

9. Mintaqaviy integratsiyani chuqurlashtirish uchun birinchi navbatda qanday tadbirlarni amalga oshirish lozim deb hisoblaysiz?

10. O'zbekistonning MDH va rivojlangan mamlakatlardagi asosiy savdo-iqtisodiy hamkorlarini sanab bering.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining budget kodeksi. 2013-yil 26-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasining bojxona kodeksi. 2016-yil 20-yanvar.
3. Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2016-yil 14-sentyabr
4. Soliq va budget siyosatining 2017-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2016-yil 27-dekabr.
5. «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 2017-yil 7-fevral.
6. «Ilmiy tadqiqot muassasalarining infratuzilmasini yanada mustahkamlash va innovatsion faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori. 2017-yil 1-noyabr
7. «O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori. 2017-yil 30-noyabr.
8. «2018–2022 yillarda yuklar tashishning tashqi savdo yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish va transport infratuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori. 2017-yil 2-dekabr.
9. Mirziyoyev Sh.M. «Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi». – T.: «O'zbekiston», 2017.
10. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: «O'zbekiston», 2017.
11. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: «O'zbekiston», 2017. – 488 b.
12. Karimov I.A. «Bizning maqsadimiz – erkin va farovon, demokratik hayot qurish». – T.: «O'zbekiston», 2015.
13. To'xliyev N., Haqberdiyev Q., Ermamatov Sh., Xolmatov N. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. – T.: «O'zME», 2006. – 280 b.
14. To'xliyev N. O'zbek modeli: taraqqiyot tamoyillari. –T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2014,
15. To'xliyev N. «Osiyo taraqqiyot modeli». – T.: «O'zbekiston», 2015. – 176 b.

16. Vaxabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiyev Sh.X. «Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar». – T.: Baktria-press, 2015. – 548 b.

17. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining statistik to‘plamlari

18. Yilliy statistik to‘plam. 2015.

19. O‘zbekiston raqamlarda. 2017.

20. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi. 2017.

21. O‘zbekiston sanoati. 2017.

22. O‘zbekistonda ijtimoiy rivojlanish va turmush darajasi. 2017.

23. O‘zbekistonda ta‘lim. 2017.

24. O‘zbekiston hududlarining statistik to‘plami. 2017.

25. O‘zbekistonda qurilish. 2017.

26. O‘zbekistonda transport va aloqa. 2017.

27. O‘zbekistonda mehnat va bandlik. 2017.

## MUNDARIJA

Kirish.....	3
<b>I bob. «O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI» KURSIGA KIRISH</b>	
1.1. «O‘zbekiston iqtisodiyoti» kursining maqsad va vazifalari .....	7
1.2. «O‘zbekiston iqtisodiyoti» kursining predmeti.....	8
1.3. Kursni o‘rganish usullari va boshqa iqtisodiy fanlar bilan aloqalari.....	11
<b>II bob. IQTISODIY TARAQQIYOTNING «O‘ZBEK MODELI»</b>	
2.1. «O‘zbek modeli»ga o‘tish zarurati va shart-sharoitlari .....	15
2.2. «O‘zbek modeli»ning mohiyati va shakl-shamoyillari .....	20
2.3. «O‘zbek modeli» va iqtisodiy o‘sish .....	27
<b>III bob. MILLIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING ASOSIY KO‘RSATKICHLARI</b>	
3.1. Milliy hisoblar tizimi.....	31
3.2. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar .....	37
3.3. Makroiqtisodiy proporsiyalar .....	41
3.4. Makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o‘sish.....	45
<b>IV bob. O‘ZBEKISTONNING DEMOGRAFIK SALOHIYATI</b>	
4.1. Mamlakatning iqtisodiy salohiyati tushunchasi .....	54
4.2. Aholining tabiiy o‘sishi .....	57
4.3. Aholi tarkibi.....	62
4.4. Mehnat resurslari va ulardan foydalanish.....	64
4.5. Mehnat bozori va bandlik.....	70
<b>V bob. MINERAL-XOMASHYO RESURSLARI</b>	
5.1. Mineral-xomashyo resurslarining tavsifi.....	75
5.2. Mineral-xomashyo resurslari.....	78
5.3. Mineral-xomashyo resurslaridan foydalanish.....	85
<b>VI bob. YER VA SUV RESURSLARI</b>	
6.1. Yer resurslari.....	91
6.2. Suv resurslari.....	98
6.3. Yer va suv resurslaridan foydalanish .....	102
<b>VII bob. O‘ZBEKISTONNING ISHLAB CHIQRISH, ILMIY-TEXNIKA VA INNOVATSIYA SALOHIYATI</b>	
7.1. Ishlab chiqarish salohiyati tushunchasi.....	109
7.2. Davlatning ilmiy, ilmiy-texnika va innovatsiya siyosati .....	112
7.3. Ilmiy, ilmiy-texnika salohiyati .....	115
7.4. Innovatsiya salohiyati.....	119
7.5. Innovatsiya faoliyatini boshqarish.....	121

## **VIII bob. O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINING HUDUDIY TARKIBI**

8.1. Mintaqa – milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi .....	126
8.2. Iqtisodiy rayonlarning O‘zbekiston iqtisodiyotida tutgan o‘rni va roli.....	129
8.3. O‘zbekiston mintaqalarining rivojlanish tendensiyalari .....	137
8.4. O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida mintaqaviy tafovutlar va ularni yumshatish omillari.....	142

## **IX bob. SANOAT MAJMUASI**

9.1. Sanoat majmuasining tavsifi va tuzilishi.....	152
9.2. Milliy iqtisodiyotda sanoatning o‘rni.....	154
9.3. Milliy sanoatning rivojlanish bosqichlari.....	159
9.4. Davlat sanoat siyosati va tarmoqdagi tarkibiy o‘zgarishlar.....	163
9.5. Asosiy sanoat tarmoqlarining rivojlanishi.....	169

## **X bob. AGROSANOAT MAJMUASI**

10.1. Agrosanoat majmuasining tarkibiy tuzilishi.....	179
10.2. Milliy iqtisodiyotda qishloq xo‘jaligining o‘rni .....	183
10.3. Qishloq xo‘jaligi rivojlanishining tavsifi .....	186
10.4. Davlat agrar siyosatining asosiy yo‘nalishlari .....	193

## **XI bob. TRANSPORT MAJMUASI**

11.1. Transport majmuasining umumiy tavsifi.....	199
11.2. Transport sohasi rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari.....	205
11.3. Transport yo‘nalishlari va yo‘l-transport infratuzilmasini taraqqiy ettirish .....	211

## **XII bob. ALOQA VA TELEKOMMUNIKATSIYA MAJMUASI**

12.1. Aloqa va telekommunikatsiya majmuasining umumiy tavsifi.....	218
12.2. Aloqa va telekommunikatsiya sohasi rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari.....	221
12.3. Aloqa va telekommunikatsiya sohasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	228

## **XIII bob. QURILISH MAJMUASI**

13.1. Qurilish majmuasining umumiy tavsifi.....	232
13.2. Qurilish majmuasining rivojlanish ko‘rsatkichlari.....	235
13.3. Qishloqda uy-joy qurish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish.....	240

## **XIV bob. ISTE‘MOL BOZORI**

14.1. Iste‘mol bozorining tavsifi.....	245
14.2. Iste‘mol bozori rivojlanishining umumiy ko‘rsatkichlari.....	246
14.3. O‘zbekistonda iste‘mol bozorining rivojlanish ko‘rsatkichlari .....	251

14.4. O'zbekistonda tirikchilik minimumi va iste'mol me'yorlari.....	255
14.5. Iste'mol bozorini tartibga solish va rivojlantirish.....	258

## **XV bob. XIZMATLAR SOHASI**

15.1. Xizmatlar tushunchasi va xizmatlar sohasining tavsifi.....	262
15.2. O'zbekistonda xizmatlar sohasining rivojlanish ko'rsatkichlari.....	267
15.3. Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish siyosati.....	272

## **XVI bob. INVESTITSİYALAR**

16.1. Investitsiyalarning mohiyati va tasniflanishi.....	278
16.2. O'zbekistonda investitsiya faoliyatining me'yoriy-huquqiy asoslari.....	283
16.3. O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb etilgan investitsiyalar dinamikasi va tarkibi.....	286
16.4. O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish.....	294

## **XVII bob. O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA MULK MUNOSABATLARI**

17.1. Mulk munosabatlarining mohiyati va iqtisodiy mazmuni.....	302
17.2. Mulk shakllari.....	304
17.3. O'zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish.....	309

## **XVIII bob. O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA RAQOBAT VA MONOPOLIYA**

18.1. Raqobatning mohiyati va turlari.....	320
18.2. Raqobat muhiti va unga ta'sir etuvchi omillar.....	324
18.3. O'zbekistonda raqobat muhitini shakllantirish va monopoliyaga qarshi faoliyat yuritishning me'yoriy-huquqiy asoslari.....	328
18.4. O'zbekistonda raqobat muhitining shakllanish xususiyatlari.....	333

## **XIX bob. DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGI**

19.1. Davlat va xususiy sektor hamkorligining mohiyati va obyektiv zarurligi.....	341
19.2. Davlat va xususiy sektor hamkorligining asosiy yo'nalishlari.....	345
19.3. O'zbekistonda davlat va xususiy sektor hamkorligining me'yoriy-huquqiy asoslari.....	350
19.4. Davlat va xususiy sektor hamkorligi – fan, ta'lim, ishlab chiqarish va moliya sohalari integratsiyasining muhim omili.....	353

## **XX bob. O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA KORPORATSIYALAR**

20.1. Korporatsiyalarning mohiyati va milliy iqtisodiyot rivojlanishida tutgan o'rni.....	361
---	-----

20.2. Bozor iqtisodiyotining korporativ modeli, korporativ boshqaruv va korporatsiyalarning ko'rinishlari .....	364
20.3. O'zbekistonda korporatsiyalar rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	369

**XXI bob. O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK**

21.1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mohiyati .....	377
21.2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi o'rni va roli.....	381
21.3. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning me'yoriy-huquqiy asoslari.....	384
21.4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining tendensiyalari.....	387

**XXII bob. O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI BUDJET-SOLIQ DASTAKLARI ORQALI BOSHQARISH**

22.1. Milliy iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishning zarurati.....	397
22.2. Moliya tizimi va moliya siyosati.....	402
22.3. Davlat budjeti moliya tizimining asosiy bo'g'ini sifatida .....	404
22.4. Soliqlarning iqtisodiyotni tartibga solishda tutgan o'rni .....	410

**XXIII bob. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING BANK-KREDIT TIZIMI**

23.1. Milliy bank-kredit tizimining tashkiliy jihatlarini .....	420
23.2. Markaziy bankning pul-kredit siyosati.....	424
23.3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining pul-kredit siyosati.....	426

**XXIV bob. IJTIMOYIY SOHA VA AHOLI TURMUSH SIFATI**

24.1. Ijtimoiy sohaning tuzilishi.....	442
24.2. Turmush darajasi va sifati tushunchasi. Turmush darajasi ko'rsatkichlari .....	443
24.3. Aholining iste'mol darajasi ko'rsatkichlari.....	449
24.4. Ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishi .....	453
24.5. Ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlari .....	457

**XXV bob. O'ZBEKISTON JAHON IQTISODIYOTI TIZIMIDA**

25.1. O'zbekistonning ochiq iqtisodiyotga o'tishi .....	464
25.2. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyati .....	467
25.3. O'zbekistonning xalqaro integratsion jarayonlarda ishtiroki.....	471
25.4. O'zbekiston va Markaziy Osiyo.....	473
25.5. O'zbekiston va MDH .....	477



O‘-24 **O‘zbekiston iqtisodiyoti** [Matn]: oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik/ N. To‘xliyev va boshq., – Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2018. – 488 b.  
ISBN 978-9943-25-511-1

UO‘K 330(575.1)(075)

KBK 65.01.(50‘)ya7

*O‘quv nashri*

**N. TO‘XLIYEV, N. XOLMATOV,  
SH. ERMAMATOV, Q. HAQBERDIYEV**

## **O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI**

Muharrir *A. Ziyadov*  
Rassom-dizayner *H. Kutlukov*  
Texnik muharrir *T. Xaritonova*  
Kichik muharrir *G. Yeraliyeva*  
Musahhih *S. Salohutdinova*  
Kompyuterda sahifalovchi *N. Ahmedova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 158, 14.08.2009.  
2018-yil 10-martda bosishga ruxsat etildi. Gazetnaya puxlaya.  
Bichimi 60×84<sup>1/16</sup>, Times New Roman garniturasida ofset usulida bosildi.  
Shartli bosma tabog‘i 28,37. Nashr tabog‘i 24,39.  
Nusxasi 1000. Buyurtma № 18-67.

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining  
«O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.  
100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.

*e-mail: [uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz](mailto:uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz)  
[www.iptd-uzbekistan.uz](http://www.iptd-uzbekistan.uz)*